O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida xosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va hattixarakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Xattoki, bunday xolat suisidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'zi-o'ziga baho o'ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik xolat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs xattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham (masalan, «xalaqit berdida», «falonchi bo'lmaganida» kabi bahonalar ko'payadi). Ya'ni, nimaiki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar xaqida bora-bora odamlar «oyog'i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog'dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o'rab turganlar — ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi — referent guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning hattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, hayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin.

Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof ijtimoiy xodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan

qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho — o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi.

Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat xislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash xislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o'sha yuksak o'z-o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir. Demak, o'z-o'zini baholash — o'z-o'zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

- o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya obyekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);
- o'z-o'zini ishonirish (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);
- o'z-o'ziga buyruq berish (tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati);
- o'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul ustanovkalarni shakllantirish);
- ichki intizom — o'z-o'zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

X U L O S A

O'zbekiston mustaqil davlatga aylangan bir sharoitda ma'naviy va axloqiy tarbiya qator omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi. Bu eng avvalo shaxsni umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida ish olib borishda ko'rinadi. Axloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxlit holga keltiradi.

O'zbek xalqining moddiy va ma'naviy darajasining ko'tarilishi yangi axloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining ijtimoiy bazasini kengaytiradi, shaxs ehtiyojlarini yangi darajasi va undan oqilona foydalanishni shakllantiradi.

Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi va bayrog'i hamda madhiyasiga muhabbat, insonparvarlik, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -Toshkent. O'zbekiston, 2012.11 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 mayda «O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3434-sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 9 mart O'zbekiston xotin-qizlariga 8 mart tabrigi.
4. Internet manba
5. www.arxiv.uz Saidov. "Ayolga e'tibor – millatga e'tibor".
6. Ismatovna, I. L. (2023). Activities for presenting and practicing vocabulary. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(4), 130-133.

7. Ismatovna, I. L. (2022). MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF A HIGHER EDUCATION INSTITUTION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 *Impact factor: 7.429, 11(04)*, 80-84.
8. Ismatovna, I. L. (2021, November). PROVERBS AS ONE OF THE SOURCES OF PHRASEOLOGICAL DERIVATION. In *E-Conference Globe* (pp. 4-6).
9. Ismatovna, I. L. (2021). Typology of parts of speech and content of grammatical categories in two languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8)*, 53-57.
10. 11. IDIYEVA, L. I. Using Interactive Forms and Techniques in English Lessons. *Asst. Prof. Dr. Mehmet Necati CIZRELIOGULLARI, Ph. D., 42*
11. Ismatovna, I. L. (2023). Humour in the Upbringing and Education of the Modern Teenager. *Научный Фокус, 1(5)*, 507-509.
12. Ismatovna, I. L. (2023). Improvement of Quality of Knowledge by Using Videos at Lessons. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(4)*, 100-102.
13. Idiyeva, L. I. (2017). LISTENING AT LESSONS OF A FOREIGN LANGUAGE. *Достижения науки и образования, (5)*, 65-66.
14. Ismatovna, I. L. (2021). Typology of parts of speech and content of grammatical categories in two languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8)*, 53-57.
15. Ismatovna, I. L. (2023). Humour in the Upbringing and Education of the Modern Teenager. *Научный Фокус, 1(5)*, 507-509.
16. Bafoeva, R. (2023). The concept of family in English, Russian and Uzbek proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10)*, 651-654. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2279>
17. Rokhila Bafoeva 2023. The Concept of Education in English and Uzbek Proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1, 9 (Nov. 2023)*, 292-296.
18. Bafoeva, R. (2023). The concept of family in English, Russian and Uzbek proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10)*, 651-654. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2279>
19. Bafoeva, R. (2023). NEW METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Modern Science and Research, 2(10)*, 58-63.
20. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2022). NATIONAL AND CULTURAL PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR UNIVERSAL FEATURES. *Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4)*, 500-503.
21. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARING GENDER XUSUSIYATLARI. *World of Science, 6(5)*, 167-169.
22. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI VA ULARNING O'RGANILGANLIK

- DARAJASI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(14), 74-76.
23. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING SHAKLLANISH VA O'RGANILISH MASALALARI. *Научный Фокус*, 1(3), 29-31.
24. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING KOGNITIV TAHLILI Ingliz va ozbek maqollari tizimlari haqida gap ketganda ularning mohiyati bir-biridan ajralib turishi aniq bo'ladi, chunki ular turli xil tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan, va bu maqoll. *World of Science*, 6(6), 207-211.
25. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). LINGUISTIC AND CULTURAL ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 227-230.
26. Bafoeva, R. (2023). THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE GAMES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES PROCESS. *Modern Science and Research*, 2(10), 510-512.
27. Jabborova Aziza Jobirovna. (2023). THE CATEGORY OF ASPECT IN ENGLISH GRAMMAR. *Academia Science Repository*, 4(05), 10–27. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/443>
28. Aziza Jabborova Jobirovna. (2023). Effective Classroom Management: Strategies for Teachers. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 444–450. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2133>
29. Aziza Jabborova Jobirovna. (2023). Qualities of an Ideal Teacher. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 437–443. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2132>
30. Jobirovna, A. J. (2023). Engaging Classroom Strategies: Fostering Active Participation among Students. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 155–161. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1379>
31. Jabborova, A. (2023). THE LECTURER OF HISTORY AND PHILOLOGY DEPARTMENT, ASIA INTERNATIONAL UNIVERSITY. *Modern Science and Research*, 2(9), 97–108. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23905>
32. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATSION TALIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
33. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
34. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
35. Shokir o'g'li, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 554-559.

36. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
37. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
38. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.
39. Gulamova, D. I. (2023). NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA EVFEMIZMLARNING O'RNI.
40. Gulamova, D. I. (2022). USE OF CREATIVE TASKS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE AT SCHOOL. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 841-846.
41. Gulamova, D. (2023). USE OF CREATIVE TASKS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE AT SCHOOL. *Modern Science and Research*, 2(7), 322-327.

FE'LNI O'RGANISH METODIKASI

Abdumajidova Mohinur Abduvohidjon qizi

Oriental universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10463309>

Annotatsiya. Mazkur maqolada fe'l so'z turkumining shakllanishi, fe'lni o'rganishda izchillik, 1-sinfda fe'lni o'rganishga oid tadqiqotlar tahlil qilingan. O'zbek tilida fe'l so'z turkumining o'qitilish metodikasi masalalariga oid mavjud materiallar o'rganilib, tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: fe'l-so'z turkumi, fe'lni o'rganishda izchillik, 1-sinfda fe'lni o'rganish, shaxs-son qo'shimchalari. bo'lishli fe'llar, bo'lishsiz fe'llar, zamon fe'llari

METHODOLOGY OF LEARNING THE VERB

Abstract. In this article, the formation of the verb word group, consistency in learning the verb, and researches related to the learning of the verb in the 1st grade are analyzed. The available materials related to the methodology of teaching the verb phrase in the Uzbek language were studied, and relevant conclusions and recommendations were given.

Key words: verb-word group, consistency in verb learning, verb learning in 1st grade, person-number additions. participle verbs, participle verbs, tense verbs.

МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ГЛАГОЛА

Аннотация. В данной статье анализируются образование глагольного словосочетания, последовательность в изучении глагола, исследования по изучению глагола в 1 классе. Были изучены имеющиеся материалы, связанные с методикой обучения глагольному словосочетанию на узбекском языке, даны соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: глагольно-словная группа, последовательность в изучении глагола, изучение глагола в 1 классе, сложение лиц и чисел. причастные глаголы, причастные глаголы, временные глаголы

KIRISH

O'zbek tilida bugungi kundagi so'z turkumlarining soni esa 10-12 ta deb ko'rsatiladi.

Bular:

6 ta mustaqil (ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'l);

3 ta yordamchi (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama);

3 ta alohida (undovlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar) so'z turkumlaridir.

„Fe'l“ mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar: so'z turkumi sifatida fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda fe'ldan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim imloviy qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bilan bog'liq holda hal etiladi.

Fe'lning lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab, shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat lining muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishda qanchalik zarurligi hisobga olinadi.

МЕТОД ВА МЕДОЛОГИЯСИ

Fe'l ustida ishlashga tayyorgarlik savodga o'rgatish davrida boshlanadi. Bu davrda o'quvchilarning diqqati fe'lning leksik ma'nosiga qaratiladi; fe'l tichun tipik hisoblangan leksik ma'nosiga qaratiladi; fe'l uchun tipik hisoblangan leksik-grammatik ma'noni, ya'ni predmetning harakatini bildirishni umumlashtirish imkonini beradigan aniq material yig'iladi. Fe'l ustida ishlash mashqlarini „Alifbe"dagi so'z va mashqlarni o'qish, rasmga qarab gap tuzish bilan bog'lab o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar gap tuzishda mazmunga mos fe'lni topishga, so'z nimani bildirishini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi. Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni, daraxtlarni kuzatib yoki rasmlarni ko'rib, gapni mazmunga mos so'zlar bilan to'ldiradilar: *Kuzda mevalar nima qiladi?... (pishadi), sabzavotlar nima qiladi?... (yetiladi), daraxl barglari nima qiladi?... (sarg'ayadi). Bolalar nima qilyaptilar?... (dam olyaptilar), ... (o'ynayaptilar), (ishlayaptilar).*

Fe'lga so'roq berishga o'rgatish yuzaki bo'lmasligi, o'quvchilar harakat bir kishi tomonidan bajarilsa, *nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? so'roqlarim,* ikki va undan ortiq kishi tomonidan bajarilsa, *nima qildilar?, nima qilyaptilar?, nima qilmoqchilar?* so'roqlarini berishni bilishlari zarur. Bunday so'roqlarga javob berishga o'rgatish o'z navbatida, fe'l zamonlarini o'rganishga tayyorlash demakdir.

1-sinfda morfologik so'roq so'z nimani bildirishini aniqlash maqsadida beriladi. O'quvchilarni so'zga so'roq berishga, o'qituvchi bergan so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni tanlashga, so'zni so'rog'iga mos ravishda o'zgartirishga (*nima qildi? — o'qidi, nima qilamiz? o'qiydimiz, nima qilmoqchi?— o'qimoqchi kabi*) o'rgatiladi.

Fe'l - so'z turkumi" degan tushunchani shakllantirish, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning ma'nosi va shakliga qarab farqlash ko'nikmasini hosil qilish, bo'lishsizlik qo'shimchasi (-ma) ning talaffuzi va imlosini o'rgatish hisoblanadi.

Fe'lning harakat bildirishi yuzasidan o'quvchilarda aniq tasavur hosil qilish uchun o'qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya'ni o'quvchilarning o'zlari bajarayotgan ish-harakatni aytishni so'raydi, suhbat o'tkazadi. Suhbatda „O'qituvchi nima qildi? O'quvchilar nima qildilar? Hozir o'qituvchi nima qilyapti? O'quvchilar nima qilyaptilar? Endi o'quvchilar nima qiladilar? O'qituvchi nima qiladi?" kabi savollardan ham foydalanadi. Suhbat jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fe'llarni so'rog'i bilan yozib boradilar. Masalan, *nima qildi? - so'zladi, tushuntirdi; nima qildilar? - tingladilar, yozdilar; nima qilyapti? - tushuntirayapti, so'rayapti, tinglayapti; nima qilyaptilar? - javob berayaptilar, yozayaptilar, tinglayaptilar; nima qiladi? - tekshiradi, ko'radi; nima qiladilar? ishlaydilar, bajaradilar, yozadilar.*

Suhbatdagi yoki o'quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo'lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: *nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi?* kabi so'roqlarga javob bo'lib, predmet harakatini bildirgan so'zlar **fe'l** deyiladi. Fe'l gapda kesim vazifasida keladi.

Mavzu yuzasidan o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish uchun so'roq berib fe'lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe'lni tanlab qo'yish, aralash berilgan so'zlardan, shuningdek, rasmga qarab gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi.

Dasturga ko'ra 3-sinfda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar o'rganiladi. Mavzu suhbat asosida tushuntiriladi. Suhbat uchun „O'qish darsida kimlar o'qidi? Shokir ham o'qidimi? Kim so'zladi? Alisher so'zladimi? Barno kutubxonaga boradimi? Abdulla-chi?, U qachon bormoqchi? Hozir kim tushuntirayapti? Hozir Tohir gapiryaptimi?" kabi savollardan ham foydalaniladi. O'quvchilar so'roq berib fe'llarni topadilar, ma'nosini qiyoslaydilar va o'qituvchi rahbarligida tushuntiradilar.

Xulosa chiqariladi: fe'l harakatning yuzaga chiqqanini, ya'ni bajarilganligini (*o'qidi, so'zladi*), hozir bajarilayotganini (*tushuntiryapti*), endi bajarilishini (*boradi, o'qiydi*) bildiradi. Bu fe'llar bo'lishli fe'llar deyiladi. Ayrim fe'llar harakatning bajarilmaganligini (*o'qimadi, so'zlamadi*), hozir bajarilmayotganini (*o'qimayapti*), keyin ham bajarilmasligini (*bormaydi*) bildiradi. Bunday fe'llar bo'lishsiz fe'llar deyiladi.

O'quvchilar bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni so'roqlari bilan ikki ustun shaklida yozadilar va so'roqlarini bo'lishsiz fe'l qanday hosil bo'lganini aytadilar. O'quvchilar bilimi mashqlar bilan mustahkam-lanadi, bo'lishsizlik qo'shimchasi *-ma -mi* shaklida talaffuz qilinsa ham, doim aslicha *-ma* shaklida yozilishi tushuntiriladi. O'quvchilarda bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni ma'nolariga qarab farqlash ko'nikmasini o'stirish uchun bo'lishli fe'ldan bo'lishsiz fe'l hosil qilish, bo'lishsiz fe'llarning talaffuzi va yozilishini qiyoslash, bo'lishsiz fe'llar bilan gaplar tuzish mashqlaridan foydalaniladi.

TADVIQOT NATIJASI

Fe'l zamon shaklining mohiyati ish-harakat qachon bajarilishini, ya'ni ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytda, undan oldin va keyin bajarilishini taqqoslash asosida ochiladi. O'quvchilar o'zlari bajargan yoki bajarayotgan harakatlarini kuzatadilar, shuningdek, keyin nima qilishlarini muhokama qiladilar. Xuddi shunga o'xshash kuza-tishni tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar yuzasidan ham o'tkazadilar. Bu mavzu bahorda o'tiladi. Shuning uchun o'quvchilar kuzatish asosida „*Bahor keldi. O'rik, olcha gulladi. Gullar ochilyapti. Endi gilos pishadi. Bahordan so'ng yoz keladi. Yozda bolalar oromgohga bormoqchi*“ kabi gaplar tuzadilar. Gapdagi fe'llarga so'roq berib, ish-harakatning bajariHsh payti, ya'ni ish-harakat bajarilayotganini (*nima qilyapti? - o'qiyapti, ochilyapti*), oldin bajarilganini (*nima qildi? ~ o'qidi, keldi, gulladi*) va keyin bajarilishi (*nima qilmoqchi?— yodlamoqchi, bormoqchi*) aniqlanadi. Aniq kuzatish asosida yig'ilgan bu leksik materiallar o'qituvchi rahbarligida umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi:

1. Fe'llar zamon bilan o'zgaradi. Fe'l uch zamoni bildiradi: hozirgi zamon, o'tgan zamon, kelasi zamon.

2. Hozirgi zamon fe'llari *nima qilyapti?* so'rog'iga javob. bo'ladi, hozirning o'zida, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtda bajarilayotgan harakatni bildiradi.

3. O'tgan zamon fe'li *nima qildi?* so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning oldin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan oldin bajarilganini bildiradi.

4. Kelasi zamon fe'li *nima qilmoqchi?* so'rog'iga javob bo'ladi, harakatning keyin, ya'ni nutq so'zlanayotgan vaqtdan keyin bajarilishini bildiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari fe'l zamonlarini unga beriladigan savoldan bilib oladilar. So'roqdan lining leksik ma'nosi ham bilinib turadi.

Fe'lning zamon shaklini yasash va bilib olish uchun o'quvchilarni so'roqlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadga erishish uchun awal jamoaviy ravishda ishlanadi va o'quvchilar e'tibori so'roq bilan fe'l zamonining bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. Zamon shaklini hosil qilish uchun fe'lning II shaxs birlik shakli asos qilib olinadi (Boshlang'ich sinflarda fe'lning bosh shakli o'rganilmaydi). Fe'lga so'roq berish bilan fe'l zamon hosil qilinadi.

Bir fe'ldan uch zamoni hosil qilib, ularni taqqoslash mashqi fe'lning zamon kategoriyasining mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shuning uchun „Fe'l“ mavzusini o'rganish jarayonida fe'lni zamon qo'shimchasi bilan o'zgartirish mashqi muntazam o'tkazib boriladi.

O'quvchilarni fe'l zamonlarini ongli qo'llashga o'rgatish maqsadida matnlardan foydalaniladi. Bunda fe'l zamonini aniqlash va biror fe'l shaklidan foydalanishni asoslash, shuningdek, fe'l zamonini o'zgartirish, fe'llarni muayyan bir zamonda ishlatib hikoya tuzish topshiriladi.

XULOSA

Fe'llarda shaxs-son haqidagi ko'nikmani shakllantirish uchun mazmunga mos shaxs-son qo'shimchalarini qo'yish, berilgan fe'llarni hozirgi, o'tgan, kelasi zamonda shaxs-son qo'shimchasi bilan tushlash, fe'llarni so'z turkumi jihatdan tahlil qilish mashqlaridan foydalaniladi.

Bu sinfda fe'llarning yozilishi haqida ham ko'nikma hosil qilinadi. Mavzuni tushuntirish uchun fe'llar ko'proq bo'lgan matn tanlanib, matnni o'qish, so'roq berib fe'llarni topish va qanday yozilganini aytish topshiriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida vazifani bajaradilar.

REFERENCES

1. "Ona tili darsliklari"1- 4-sinf. T.: «O`qituvchi» 2010.
2. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. T., 2009.
3. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Toshkent-"Fan va texnologiya"-2009.
4. "O'zbek tilshunosligi tarixi" A.Nurmonov. Toshkent-"O'zbekiston"-2002.
5. Z. Tohirov. "Yordamchi testlar". Toshkent, "O`qituvchi", 1999 yil.
6. Q.Qosimova va boshqalar Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent, 2009.
7. A. Nurmonov, R. Rasulov. O`zbek tili jadvallarda. Toshkent, "O`qituvchi", 1999 yil.
8. Boshlang`ich ta'lim . 2000-2012.
9. www.ziyonet.uz
10. www.fikr.uz
11. www.arxiv.uz

ONA TILI O'QITISH TAMOYILLARI

Umaraliyeva Sevinch Zokir qizi

Oriental universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10463328>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasi, bilishning nazariy asoslari, ona tili fanining barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar aloqalari, ona tili o'qitish metodikasining o'z tamoyillari tahlil qilingan. Ona tili o'qitilish metodikasi masalalariga oid mavjud materiallar o'rganilib, tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili o'qitish tamoyillari, morfema, morfologiya, tekshirish metodlari, Empirik metod, eksperiment (tajriba) metodi, gipoteza.

PRINCIPLES OF MOTHER LANGUAGE TEACHING

Abstract. In this article, the task of teaching the native language to students, educating them and comprehensively developing them, the theoretical foundations of knowledge, all the close and interrelated relations of the science of the native language, the principles of the methodology of teaching the native language are analyzed. The available materials related to the methodology of teaching the mother tongue were studied, and relevant conclusions and recommendations were given.

Key words: principles of mother tongue teaching, morpheme, morphology, testing methods, Empirical method, experiment method, hypothesis.

ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В данной статье рассматриваются задачи обучения учащихся родному языку, их воспитание и всестороннее развитие, теоретические основы познания, все тесные и взаимосвязанные связи науки о родном языке, принципы методики обучения родному языку. язык проанализирован. Были изучены имеющиеся материалы, связанные с методикой преподавания родного языка, даны соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: принципы обучения родному языку, морфема, морфология, методы тестирования, эмпирический метод, метод эксперимента, гипотеза.

KIRISH

O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariy asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi. Ona tili o'qitish tamoyillari quyidagilar.

1. Til materialiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'ruv ko'rsatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni, ichida gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyili. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning hamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili. Til — juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodaliligini (uslubga oid) tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo'yoqdorligini ham tushunishni ko'zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning uslubiy xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi. Bu esa matn mazmuni va uning o'ziga xos „nozikklik“larini ham anglab yetishga yordam beradi.

5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi. Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchining maqsad-ga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

METOD VA MEDOLOGIYASI

Metodika tavsiyalarining ilmiy darajasi, nazariy tasdiqlanishi yuqori saviyada bo'lishi tekshirish metodlarining puxtaligiga ham bog'liq.

Tekshirish metodlari 2 xil:

1. Nazariy tekshirish metodlari. U quyidagi hollarda tatbiq etiladi:

a) biror hodisaning metodik asosini, unga bog'liq boshqa fanlarni o'rganish, qo'yilgan gipotezani asoslash, izlanishning asosiy yo'nalishini belgilashda;

b) masala tarixi, xorijiy metodlari va mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish, tajribani tahlil qilish, metodlarning isbotlanmagan va hal qilinmagan o'rinlarini aniqlash, ilgari tajriba bilan hozirgi ahvolni taqqoslash, hozirgi kun talabi bilan baholashda;

d) bir-biriga yaqin fanlar (psixologiya, lingvistika, sotsiologiya) ning tekshirish metodlarini, olimlarning tekshirish ishlari tajribasini o'rganish, qulay metodlarni tanlash, o'zining yangi eksperimental metodikasini yaratish, materiallarni tayyorlash maqsadida;

e) empirik tajriba yo'li bilan olingan materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, eksperiment natijasini tahlil qilish, amaliy tavsiyanomalarni shakllantirishda.

2. Empirik metod (tajribaga asoslangan metod). Bu metod quyidagi maqsadlarda qo'llanadi: a) bu metod o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash; b) o'quvchilarni o'qitish jarayonini maqsadga muvofiq kuzatish (dars, uning biror qismini, o'quvchilarning javobi, hikoyasini, yozma ishini tekshirish), o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini so'rovnom orqali tekshirish; d) eksperiment (tajriba) metodidan foydalanish.

TADVIQOT NATIJASI

Hozirgi kunda keng tarqalgan bu usulda deduktiv yo'ldan boriladi, ya'ni gipoteza qo'yiladi, mavzuga asosan eksperiment uchun material (o'quv materiali) tayyorlanadi. Eksperiment bir necha marta takrorlanadi, bir necha sinf va bir necha guruhlarda o'tkaziladi. Eksperimentda 2 ta sinf tanlanadi. Biri tajriba sinfi, ikkinchisi taqqoslash uchun tanlangan tekshiruv sinfi. Tajriba sinfida yangi metod, yangi darslik, yangi ishlanmadan foydalanilsa, tekshiruv sinfida amaldagi metod, darslik, ishlanmadan foydalaniladi. Ikkinchi marta sinflar almashtiriladi, bu chaprost deb nomlanadi. Har ikki holda ham natija yuqori bo'lsa, demak, ish usuli foydali sanaladi. Eksperimental tekshirish o'z maqsadining kengligi bilan farqlanadi: ayrim metodik usullarni tekshirishda ommaviylik talab qilinmaydi, ammo yangi dastur, yangi darsliklarni tekshirishga butun tuman, viloyat jalb qilinadi. Eksperiment vazifasiga ko'ra quyidagi hollarda o'tkaziladi:

1) yangi metod, yangi darslikning muvofiqligini tekshirishda;

2) metod yoki qo'llanmaning qay darajada foydaliligini tekshirishda;

3) metod yoki qo'llanmaning muvofiqligini va samaradorligini aniqlashda. Eksperiment natijasini chiqarishda belgilangan bahom e'yoriga amal qilinadi. Bunday metod aniq, barcha holatlar uchun ham bir xil bo'lishi lozim. Ona tili metodikasida yozma ishlarda yo'l qo'yilgan xatolar soni va xarakteri, ma'lum bir vaqtda o'qilgan yoki yozilgan so'zlar soni, og'zaki hikoya va yozma inshoning hajmi va izchilligi me'yoridan foydalaniladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi o'z predmeti va vazifalariga mos ravishda empirik tekshirish metodidan quyidagi ishlarda ham foydalanadi:

1. Ilg'or o'qituvchilar ish tajribasini umumlashtirishda. Buning uchun ilg'or o'qituvchilarning ish-tajribalari o'rganiladi, tahlil qilinadi, eng foydali jihatlari aniqlanadi va umumlashtiriladi. Bu metodika fani nazariy xulosalarining to'g'riligini tekshirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi, bu fanni yangiliklar bilan boyitib boradi.

2. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasidagi meros va yangiliklarni o'rganishda.

3. Ta'lim berishning u yoki bu usullari va vositalarining foydali ekanini tekshirishda.

4. Ona tilidan o'quvchilarning o'qishlari, yozuvi, mustaqil va ijodiy ishlari ustidan kuzatish olib borishda.

5. O'quvchilar ijodiy faoliyatining natijalarini og'zaki qayta hikoyalash, yozma ish kabi usullar yordamida tahlil qilishda.

Ona tili ta'limiga o'quv fani sifatidagina emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraldi. Ona tili bo'yicha minimal talablar uchun parametrli standart o'lchovi orqali aks ettirildi: o'qish texnikasi, o'zgaralar fikrini va matnning mazmuni uning anglash, fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

XULOSA

Bu talablarni amalda bajarish ta'lim jarayoniga yangicha o'qitish texnologiyalarini tatbiq etishni taqozo qiladi. Hozirda o'quvchilarga bilim berish, bilimlarni oshirishda mustaqil ishlarni uyushtirish, bilimlarni hisobga olish kabi metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilm oqda, texnik vositalardan unumli foydalanish, grammatik ta'limiy o'yinlarni joriy etish keng tus olmoqda, ta'lim jarayonida test topshiriqlaridan, turli boshqotirma va jadvallardan keng foydalangan holda mashg'ulotlar uyushtirilmoqda. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ona tili o'quv fani sifatida shakllanib, rivojlanish ning murakkab yo'lini bosib o'tmoqda va biz pedagoglar ona tilimizni rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shib kelmoqdamiz.

REFERENCES

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).- Toshkent, 2017.
2. Roziqov O. va boshqalar. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
4. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Toshkent-“Fan va texnologiya”-2009.
5. “O'zbek tilshunosligi tarixi” A.Nurmonov. Toshkent-“O'zbekiston”-2002.
6. Q.Qosimova va boshqalar Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2009.
7. www.ziyonet.uz
8. www.fikr.uz
9. www.arxiv.uz

ASABIYLIKKA QARSHI GIYOHLAR

Normurodova Zuhra Norbo'tayevna

Sergeli Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat Texnikumida O'TIBDU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467081>

Annotatsiya. Mazkur maqolada asabiylikka qarshi giyohlar va ularning tavsifi haqida ma'lumot berib o'tilgan. Maqola davomida asab tizimi va asabiylikning kelib chiqish sabablari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: asabiylikka qarshi giyohlar, dorivor preparatlar asab tizimi, asabiylikning kelib chiqish sabablari.

ANTI-ANXIETY DRUGS

Abstract. This article provides information about anti-anxiety drugs and their description. The article explains the nervous system and the causes of nervousness.

Key words: anti-nervous drugs, medicinal preparations, nervous system, causes of nervousness.

ПРОТИВОТРЕВОЖНЫЕ ПРЕПАРАТЫ

Аннотация. В данной статье представлена информация о противотревожных препаратах и их описание. В статье объясняется нервная система и причины нервозности.

Ключевые слова: противонервные средства, лекарственные препараты, нервная система, причины нервозности.

Kundalik turmushimizda turli holatlar bizni o'rab turadi. Ba'zan asabiylik, charchoq va ortiqcha diqqat kishini holdan qo'yishi mumkin. Buning surunkali davom etishi esa turli kasalliklarga olib keladi.

Shunday kasalliklardan biri – asab tizimining zo'riqishi sindromi.


Kasallikning kelib chiqish sabablari

Bu kasalliklar kelib chiqishiga sabablar juda ko'p. Bular ichki va tashqi omillar ta'sirida yuzaga chiqadi.

Ichki sabablarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, turli xil somatik, nevrologik kasalliklar bilan og'rish, bosh miyaning o'tkir qon aylanishi buzilishi, bosh miya jarohatlarini surunkali nerv mushak o'tkazuvchanligi buzilishi kasalliklari, kasallikning uzoq davom etishi, turli xil preparatlarni uzoq davr ichish kabi holatlar natijasida bemorlarda asab tizimi astinezatsiyasi yuzaga kelishi mumkin.

Endi tashqi faktorlarga keladigan bo'lsak, zamona shiddati, noto'g'ri yashash tarzi, kunning noto'g'ri tashkil qilinishi, ya'ni ish va dam olishning me'yorlashmagani, uyqusizlik, jismoniy imkoniyatlarni hisobga olmay organizmga beriladigan turli zo'riqishlar, vaqtida ovqatlanmaslik, shuningdek noto'g'ri ovqatlanish sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, ish joylarining to'g'ri tashkil qilinmasligi: yorug'likning yetarli bo'lmasligi, shovqin, binoning havo sirkulyatsiyasi noto'g'ri bo'lgan dim xonalarda uzoq muddat bir xil holatda o'tirib ishlash ham asab tizimi astenizatsiyasiga olib kelishi mumkin.



Bu holatning o'smir yoshdagi bolalarda uchrashiga sabab oilaviy muhitning ta'siri ham bo'lishi mumkin. Oilada yo'qotishlar bo'lganda yoki doimiy qattiq nazorat bo'lishi, bolada erkinlik va o'ziga baho berish hissining bo'g'ib qo'yilgan holatlar ham asab tizimi zo'riqishiga olib keladi.

Bugungi kunda to'satdan bo'ladigan yo'qotishlar, ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy masalalar bilan bog'liq vaziyatlar ham asab tizimi zo'riqishiga olib keladigan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Kasallik alomatlari

Asab tizimi zo'riqishi sindromi bir necha xil bo'lib, eng ko'p uchraydiganlari – astenonevrotik sindrom, nevrasteniya, depressiya holatlari hisoblanadi.

Alomatlar uch darajada bo'lib, birinchisi – dastlabki davrda ish qobiliyatining va diqqatning pasayishi, uyqu buzilishi, xotiraning kundalik holatlarda susayishi his qilinadi.

Tez charchash, jizzakilik va vegetativ belgilar rivojlanishi bilan boradi, ya'ni yurak tez urib ketishi (taxikardiya), terlab ketish, qo'l-oyoqlarda titrash kabi belgilar bilan kechishi mumkin.

Mana shu holatga olib keluvchi faktorlar yo'qotilmaganda yoki davo muolajalari olinmaganda, kun tartibi to'g'ri taqsimlanmasa, yuqoridagi belgilar turg'un holatga o'tadi.

Bu bosqichda qon bosimi oshishi, qon aylanishi va yurak urishining buzilish belgilari, qizarib yoki oqarib ketish, ba'zi holatlarda boshqa somatik kasalliklar fonida hushdan ketish, jizzakilik kabi belgilar turg'un holatga o'tadi. Bu narsa bemorning tashqi muhitda ish, o'qish va boshqa kundalik faoliyatida o'z ta'sirini ko'rsata boshlaydi.

Kasallik uchinchi davriga o'tganda esa bu faktorlar surunkali davom etishi natijasida hayotga qiziqish so'nishi, ham jismoniy, ham aqliy faoliyatining sustligi, dastlab uyqusizlik holatlari kuzatilsa, keyin uyquchanlik, jismoniy harakatlarning kamayishi, dunyoni kulrang ranglarda ko'rish kabi belgilar bilan kechadi.

Kasallikni davolash

Tibbiy tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi paytda asab tizimi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar bo'yicha shikoyat qiluvchilar soni ortib bormoqda. Buning natijasida, farmatsevtika sanoati rivojlanishi barobarida, farmatsevtika bozori ham faol rivojlanib borayotganini qayd etish joiz.

Hozirgi paytga kelib, asab tizimi kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan ham xorijiy, ham mahalliy antidepressantlar yoki tinchlantiruvchi preparatlardan bir qancha turlari bor, ularni kombinatsiya yoki yakka holatda qabul qilish imkoniyatlari mavjud.

Kasalliklarning darajasiga, kasallik davriga qarab turli xil preparatlarni tanlab davolanish kerak bo'ladi.

Mahalliy preparatlarni ishlab chiqarish bugungi kunda keng yo'lga qo'yilayotgani biz shifokorlarga davo muolajalari olib borishda qulayliklar yaratmoqda. Tajribadan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, yurtimizda o'sadigan dorivor giyohlar asosida tayyorlangan ayrim preparatlarning bemorlarga ta'siri juda ham ijobiy va samaralidir.

Asab tizimi kasalliklari asosan surunkali bo'lgani uchun uni davolash muddati bir oydan bir necha oygacha davom etadi. Uzoq muddatli muolajada tavsiya etiladigan dori foydali jihatidan tashqari nojo'ya ta'siri bo'lmasligiga ham e'tibor beriladi. Ushbu jihatni inobatga olgan holda, tabiiy giyohlar asosida tayyorlangan preparatlar tavsiya qilinadi.

Shu o'rinda, ana shunday dorilardan biri haqida ma'lumot berish joiz deb bilaman. Bu zamonaviy texnologiya asosida, tabiiy giyohlardan tayyorlangan «KOLMSTReS» preparatidir.

U yuqorida qayd qilingan, asab tizimida uchraydigan salbiy jarayonlarning oldini olish va davolashda qo'llaniladi, asab tizimini tinchlantiradi, kayfiyatni ko'taradi, uyquni yaxshilaydi.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bu preparat uzoq vaqt qabul qilinishiga qaramasdan, oshqozon-ichak trakti, yurak-qon tomir sistemasiga nojo'ya ta'sir etmaydi va organizmda ko'nikish hosil qilmaydi.

«Kolmstres»ni bolalar va homilador ayollarga ham tavsiya qilsa bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, ushbu preparatni qo'llashda erishilgan samarali natijalar xususida bir necha mahalliy va xorijiy maxsus tibbiy jurnallarda klinik tadqiqotlar olib borgan mutaxassislarni maqolalari ham chop etilgan.

Kasallikning oldini olish

Ma'lumki, kasallikni davolashdan uning oldini olish afzal. Shuning uchun asab tizimi zo'riqishi, astinevrotik sindrom, depressiya kabi holatlarga tushmaslikning oldini olish eng muhim davo hisoblanadi.

Buning uchun, avvalo to'g'ri yashash tarzini yo'lga qo'yish kerak. Ish va dam olish faoliyati to'g'ri taqsimlanishi, sport bilan shug'ullanish, o'z vaqtida ovqatlanishni amalga oshirish bu kasallikka chidamlilikni oshiradi.



Melissa (limono't) bilan asabiylikdan qutulamiz. Sedativ, ya'ni tinchlantiruvchi ta'sirga ega bo'lgan dorivor giyohlardan yana biri – melissa.

Melissa

Melissa qadimdan asabiylikni ketkazuvchi, uyquni yaxshilovchi va stresslarni kamaytiruvchi giyoh hisoblanib kelgan. Melissa sedativ, spazmolitik, gipotenziv va og'riq qoldiruvchi ta'sirga ega. Melissadan tayyorlangan choylar va damlamalar depressiya, asabiy zo'riqish, migren, uyqusizlikni davolashda qo'llaniladi.

Uyquni yaxshilash va xavotirni kamaytirish uchun shifokorlar melissadan tayyorlangan damlamani ichishni maslahat berishadi.

Buning uchun:

3 osh qoshiq melissa giyohi ustidan 1 stakan qaynoq suv quyib, 30 daqiqa davomida dam yedirish lozim. So'ngra uyqudan oldin iliq holda qultumlab iste'mol qilish tavsiya etiladi.

REFERENCES

1. Xolmatov X.X, Axmedov U.A Farmakognoziya -2 qism.-Toshkent: Fan, 2007.-400 bet.
2. Пўлатова Т.П, Холматов Х.Х. Фармакогнозия амалиёти -Тошкент: Абу Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2002.-360 бет.
3. Д.А.Муравьева, Фармакогнозия, учебник, М.Медицина, 1991 И.Э.Акопов, Валенейшие отечественные лекарственные растения и их применение, - Т.Медицина, 1986. WHO monographs on selected medicinal plants. –Vol. 1. – Geneva: World Health Organization, 1999. – 295 p.
4. Pharmacognosy: textbook for higher year school students /V.S.Kyslychenko, L.V. Upur, Ya.V. Dyakonova e.o.; ed. by V.S.Kyslychenko. -Kharkiv: NUPh; Golden Pages, 2011. 552 p.
5. William Charles Evans. Pharmacognosy.- Londol,Philadelphia, Toronto, Sidney, Tokyo.
7. Государственная фармакопея – Изд. XI. – Вып. 1. Общие методы анализа. – М.: Медицина, 1987. – 336 с.
6. Государственная фармакопея – Изд. XI. – Вып. 2. Общие методы анализа. Лекарственное растительное сырье. - М.: Медицина, 1990. – 398 с.

FANTASY AS A ONE OF THE MOST ESSENTIAL GENRE OF ENGLISH LITERATURE, MOSTLY IN WORKS OF TOLKIEN

Karimova Go'zal Ikhtiyorovna

Teacher of Foreign languages faculty, Asia International University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467184>

Abstract. *The 20th century saw a significant evolution and expansion of the fantasy genre. With the rise of mass media and increased access to literature, fantasy became more widely popular and diverse. Some key developments in the fantasy genre during the 20th century include.*

Key words: *Fantasy, literature, development, Tolkien, mythology, power, trilogy, essential genre.*

ФЭНТЕЗИ КАК ОДИН ИЗ ВАЖНЕЙШИХ ЖАНРОВ АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ, ПРЕИМУЩЕСТВЕННО

Аннотация. *В XX веке произошла значительная эволюция и расширение жанра фэнтези. С появлением средств массовой информации и расширением доступа к литературе фэнтези стало более популярным и разнообразным. Некоторые ключевые события в жанре фэнтези в 20 веке включают.*

Ключевые слова: *Фэнтези, литература, развитие, Толкин, мифология, власть, трилогия, основной жанр.*

Fantasy literature has been a significant and essential genre in English literature, and it has captured the imaginations of readers for centuries. While there are countless authors who have contributed to this genre, J.R.R. Tolkien is undoubtedly one of the most influential figures in fantasy literature. Tolkien is best known for his epic high-fantasy novel series, "The Lord of the Rings," which has become a timeless classic in the genre. His works have not only captured the hearts and minds of readers around the world but have also inspired countless other authors and creators to delve into the realm of fantasy literature. One of the reasons why fantasy literature, particularly Tolkien's works, is essential is that it allows readers to escape into a world of magic, adventure, and imagination. In fantasy literature, readers can embark on epic journeys, encounter mythical creatures, and witness epic battles between good and evil. The genre gives readers a chance to explore and experience an entirely new and unfamiliar world, providing a much-needed break from reality. Tolkien's works, in particular, are also essential because of the rich and detailed world-building that he created. From the languages spoken by different races to the intricate history and mythology of Middle-earth, Tolkien's attention to detail and depth in his world-building is unparalleled. This level of detail not only immerses readers in the story but also sets a high standard for world-building in fantasy literature. Furthermore, Tolkien's themes and motifs in his works are also deeply meaningful and resonate with readers on a personal and emotional level. For example, themes of friendship, bravery, sacrifice, and the battle between good and evil are prevalent throughout his works. Readers can find comfort and inspiration in these themes, making the stories timeless and universally significant. In addition, fantasy literature, particularly Tolkien's works, allows for the exploration of complex and thought-provoking ideas, such as power, destiny, and the nature of existence. Through the lens of fantasy, authors can use allegory and symbolism to address profound questions and concepts, thereby adding depth and substance to their works. Overall, the genre of fantasy literature, especially in the works of Tolkien, is essential because it

provides readers with a means of escape, rich and detailed world-building, meaningful themes, and the exploration of complex ideas. By delving into the world of fantasy, readers can not only be entertained but also enriched and inspired. As a result, it is clear that fantasy literature, particularly in the works of Tolkien, is one of the most essential genres in English literature.

45. Tasheva, N. (2022). INDIVIDUALISM OF THE PHENOMENON OF A STRONG PERSONALITY IN THE AGE OF THE RENAISSANCE. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 454-462.
46. Tasheva, N. (2023). LEXICO-SEMANTIC WORD WORK AS A WAY OF FORMING THE THEATRICAL TERMINOLOGY OF THE ENGLISH LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 2(10), 75-83.
47. Z.O. Djalilova, N.Z. Tasheva, Z.T. Nematova, G.Z. Nasrieva,. (2023). LEXICO-SEMANTIC PECULIARITIES IN MODERN ENGLISH (ANALYZING ITS BOTH LANGUAGE VARIANTS: BRITISH AND AMERICAN ENGLISH ONES). *Journal of Advanced Zoology*, 44(S2), 4433–4445. Retrieved from <http://www.jazindia.com/index.php/jaz/article/view/1983>

48. Tasheva, N. (2023). EXPRESSION OF LEXICAL-SEMANTIC AND SOCIO-SPIRITIVE PARAMETERS IN THE CREATION OF GREAT HUMAN FIGURES IN ENGLISH DRAMA DURING THE RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 2(12), 360–366. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/26719>
49. Shodiev, S. S., Bakaev, N. B., & Tasheva, N. Z. (2021). STUDYING PHILOSOPHICAL REALITIES OF THE RENAISSANCE EPOCH, BASED ON THE STRUCTURAL ANALYSIS OF PHILOSOPHICAL TEXTS. *Academic research in educational sciences*, 2(8), 28-34.
50. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. *Modern Science and Research*, 2(12), 742-748.
51. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). Mahmud Kashgari's Work "Devonu Lug'otit Turk" is an Important Scientific Heritage. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 538–543. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2169>
52. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING “DEVONU LUGOTIT TURK” DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
53. Okhunjonovna, B. D. (2023). Mahmud Kashgari's Work" Devonu Lug'otit Turk" is an Important Scientific Heritage. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 538-543.

O'DK-633.1.

**G'O'ZADA ORGANIK O'G'ITLAR VA KOMPOSTLARNI QO'LLASH
TEXNOLOGIYASI PAXTA HOSILI VA UNING SIFAT KO'RSATKICHLARIGA
TA'SIRI**

Kurbanxodjayeva Ruksora Baxramovna

Тошкент вилояти Уртачирчик туман ММТБ га карашли
умумий урта таълим мактаби рахбари

Sultonmurodova E'zobonu Dilshodjon qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi
ezozasultonmurodova@icloud.com

Sharopova Sohiba Ergashboy qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi
sohibasharopova@icloud.com

Shamsiyeva Zulfiya Nuriddin qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi
zulfiya@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467212>

Annotatsiya. Bugungi kunda tuproq unumdorligi va olinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini oshirishda organik o'g'itlar va kompostlar muhim o'rinni egallaydi. Keyingi yillarda butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham yer resurslaridan jadal sur'atda foydalanish natijasida tuproqlarda gumus va oziq elementlar miqdorining kamayishi kuzatilib, tuproqda ayrim elementlarning yetishmasligi sodir bo'lmoqda. Buning asosiy sababi tuproqlardan har yili hosil orqali oziq elementlari tashqariga ko'proq chiqib ketib, kamroq qaytib kelishi, ya'ni chiqim va kirim balansining buzilishidir. Rivojlangan mamlakatlarda paxta xom ashyosi yetishtirishning 2016-2017 yillardagi tahlili shuni ko'rsatadiki, paxta yetishtirish bo'yicha birinchi beshlikka Hindiston, Xitoy, AQSh, Pokiston va Braziliya davlatlari kiradi.

Ushbu holat bir qator salbiy ko'rinishlarga olib keladi, jumladan tuproqlarning antropogen ta'sirlariga qarshiligi kamayib, eroziya jarayonlari kuchayadi, fizik-kimyoviy xususiyatlari yomonlashib, agronomik qimmatli xisoblangan agrigatlik tarkibi buziladi.

Kalit so'zlar: Organik o'g'itlar va kompostlar, qo'llash texnologiyasi paxta hosili va uning sifat ko'rsatkichlari.

**THE TECHNOLOGY OF APPLYING ORGANIC FERTILIZERS AND COMPOSTS
TO COTTON, ITS EFFECT ON COTTON YIELD AND QUALITY INDICATORS**

Abstract. Today, organic fertilizers and composts play an important role in improving soil fertility and the quality of agricultural products. In recent years, as a result of the rapid use of land resources in the whole world, including Uzbekistan, there is a decrease in the amount of humus and nutrients in the soil, and there is a shortage of some elements in the soil. The main reason for this is that nutrients leave the soil every year through crops, and less return, that is, the balance of output and input is disturbed. The analysis of raw cotton production in developed countries in 2016-2017 shows that India, China, USA, Pakistan and Brazil are among the top five cotton producers.

This situation leads to a number of negative manifestations, including a decrease in the resistance of soils to anthropogenic effects, an increase in erosion processes, a deterioration of

their physical and chemical properties, and a deterioration of the agronomically valuable aggregate composition.

Key words: *Organic fertilizers and composts, application technology, cotton yield and its quality indicators.*

ТЕХНОЛОГИЯ ВНЕСЕНИЯ ОРГАНИЧЕСКИХ УДОБРЕНИЙ И КОМПОСТОВ ПОД ХЛОПОК, ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА УРОЖАЙНОСТЬ И КАЧЕСТВЕННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ХЛОПКА.

Аннотация. *Сегодня органические удобрения и компосты играют важную роль в повышении плодородия почв и качества сельскохозяйственной продукции. В последние годы в результате бурного использования земельных ресурсов во всем мире, в том числе и в Узбекистане, наблюдается уменьшение количества гумуса и питательных веществ в почве, наблюдается дефицит некоторых элементов в почве. Основная причина этого в том, что питательные вещества каждый год покидают почву вместе с культурами и меньше возвращаются, то есть нарушается баланс выхода и поступления. Анализ производства хлопка-сырца в развитых странах в 2016-2017 годах показывает, что Индия, Китай, США, Пакистан и Бразилия входят в пятерку крупнейших производителей хлопка.*

Такая ситуация приводит к ряду негативных проявлений, среди которых снижение устойчивости почв к антропогенному воздействию, усиление эрозионных процессов, ухудшение их физико-химических свойств, ухудшение агрономически ценного агрегатного состава.

Ключевые слова: *Органические удобрения и компосты, технология внесения, урожайность хлопка и его качественные показатели.*

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida organik o'g'itlarga bo'lgan talab yuqori bo'lib, ayrim hollarda ularning yetishmasligi kuzatiladi. Masalan O'zbekiston sharoitida gumus balansini defitsitsiz holatda ushlab turish uchun har bir gektar sug'oriladigan yerga har yili 15-20 tonna organik o'g'it qo'llanilishi kerak aslida. Lekin, hozircha ushbu miqdordagi organik o'g'itlarni to'plash imkoniyati yo'q Chigitidan lingp, paxsha moyi, kunjara, shulxa, shrot olinadi. Paxta moyi (chigit tarkibida 22—29%) qimmatli oziq mahsuloti bo'lib, glitserid, Ye, A vitaminlari va D provitamini hamda linolat kislotaga boy. Paxta shulxasi va shroti chorvachilik uchun yuqori sifatli to'yimli ozuqa hisoblanadi. Paxta shrotidan ajratib olingan oqsilli ozuqa yosh hayvonlarga sut o'rnida beriladi. G'o'zapoyadan sellyuloza, qog'oz, karton, mebellar uchun plita materiallari ishlab chiqarishda foydalaniladi. Barglaridan limon, olma kislotalari, o'sish stimulyatorlari olinadi, chanoqlari ksilit ishlab chiqarishga yaraydi.

Bir soʻz bilan aytganda, tuproqlarning degradatsiyasi sodir boʻladi, shuning uchun tuproq unumdorligini oshirishda, ularning organik modda va oziq elementlar bilan boyitish va qishloq xoʻjalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish uchun dehqonchilikda oʻgʻit qoʻllash, almashlab ekish




va boshqa bir qator agrotexnik tadbirlarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Tuproqqa berish mumkin boʻladigan organik massa va oziq elementlarining qoʻshimcha manbalarini topish kerak, chuchuk suv loyqasi kuzda toʻkilgan daraxt barglari bakterial preparatlar bularning tarkibida koʻp miqdorda ayrimlarida 50% gacha organik moddalar, makro va mikroelementlar va oʻsimliklar oʻsishi uchun zarur boʻlgan boshqa moddalar boʻladi. Organik oʻgʻitlar bilan tuproqqa oʻsimlik uchun zarur boʻlgan barcha oziq elementlar bilan bir vaqtda ancha miqdorda mikroorganizmlar ham tushadi. Ushbu mikroorganizmlar tuproq mikroflorasini boyitib, uning tarkibida kechadigan mikrobiologik jarayonlar (chirish, minerilizatsiya, ammonifikatsiya) ni faollashtiriladi.



Bunday oʻgʻitlardan oqilona foydalanish qishloq xoʻjaligi uchun oʻta muhim ekanligi yaqqol koʻrinib turibdi.



Respublikamiz paxtachiligida organik oʻgʻitlardan goʻngni qoʻllash meʼyor va muddatlari, turli nisbatlarda tayyorlangan kompostlar, turli shakldagi organik oʻgʻitlarni qoʻllash borasida A.Ergashev, B.X.Tillabekov, N.M.Ibragimov, B.I.Niyazaliev, Sh.T.Xaliqulov, va boshqalar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Sugʻorilaligan tipik boʻz tuproq sharoitida organik oʻgʻitlardan, biogumusdan va kompostdan samarali foydalanish va shudgorda solinganda tuproqni gumus va azot, fosfor va kaliyni harakatchan shakllari xususiyatlariga hamda oʻsimlik tomonidan oziqa moddalarni (NPK) oʻzlashtirilishiga, paxta hosiliga taʼsiri aniqlanib, organik oʻgʻit, biogumus va kompostlarni chirishi natijasida tuproqda organik modda koʻpayishi evaziga, ekinlarga qoʻllanilayotgan mineral oʻgʻitlar samaradorligi va koʻzlangan ekinlar hosildorligi oshib, sifati yaxshilanadi hamda tuproq unumdorligini saqlash va tiklanishi aniqlanadi.

Qosimov, 1985; Mamadaliev, Bozorov, 1985; Mannanova, [21;16-18-b]; Niyazaliev [28;12-b] Piraxunov 1995; Sattarov 1990; 2000, 2004; Ergashev 1984; 1994; Tashkuziev [41;218-222-b]; Ibragimov [12;181-186-b]; Xolikulov va Xoshimov [47;25b]; Namozov, Tillabekov [30;162-164-b], va boshqalar).

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining kimyo-texnologiya instituti olimlari A.G.Adamova., S.K.Poberejskaya va L.F.Melnikovlar [2;80-82-b] tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar diqqatga sazovordir. Bu gidroliz ligin asosida tayyorlangan yangi organo-ma’dan o‘g‘itlari-lifogum va afgumdur. Mualliflar tomonidan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida o‘tkazilgan izlanishlar natijalariga qaraganda, afgum va lifogumni qo‘llash tuproqda o‘tadigan jarayonlarga: chirindini yo‘qolishiga, tuproqqa antibiotik aralashmalarni qo‘shilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. G‘o‘zani o‘shish, rivojlanishi jadallashadi va paxta hosilini ortishiga maqbul sharoit yaratiladi, qo‘shimcha hosil 3-4 sentnerni tashkil qiladi. Umuman olganimizda, organik o‘g‘itlarni sifatini, miqdorini va samaradorligini oshirish yo‘llaridan biri bu organo-ma’dan kompostlarni tayyorlash va qo‘llashdir.

Izlanishlari B.A.Dospexovning (1985) “Metodika polevogo opyta”, Toshkent davlat agrar universitetiga qarashli DUK.tajriba uchastkalarida “Dala tajribalari o‘tkazish uslublari” (Toshkent 2007), “Metodika agrofizicheskix issledovaniy” (Toshkent 1973), “Metodika agroximicheskix issledovaniy” (Toshkent 1973), “Metodicheskie ukazanie po opredeleniyu kachestva rastitelnoy produkcii” (Moskva 1980).

Bu umumiy paxta hosili ko‘rsatkichlarida ham o‘z ifodasini topgan.

Ma’lumki, tajribalarda qo‘llanilgan barcha agrotexnik tadbirlarning samaradorligi paxta hosili va uning sifat ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi. Bizni tadqiqotlarda qoramol go‘ngi, kompost, biogumus va mineral o‘g‘itlarni bilan birgalikda qo‘llanilganda paxta hosiliga bo‘lgan ta’siri bo‘yicha olingan ilmiy ma’lumotlar 3.4.2-jadvalda keltirilgan.

Avvalo shuni aytish joizki, paxta hosili 2022-yilda barcha variantlarda biroz ortganligi kuzatildiki, bu iqlim sharoitining maqbul kelishiga bog‘liqdir.

1- jadvalda keltirilgan.

Bir ko‘sakdagi paxta vaznining o‘zgarishi, gr

Jadval-1

Variant tartibi	Tajriba variantlari			2022- yil			
		Terimlar	O‘rtachasi	N	R	K	
		1	2	38,5	9,7	28,0	-
1	Nazorat	4,6	3,7	34,4	12,5	32,5	21,5
2	10t/ga qoramol go‘ngi	4,8	4,26	37,9	9,9	27,9	1,7
3	20t/ga qoramol go‘ngi	5,0	4,28	35,3	12,6	31,6	18,4
4	30t/ga qoramol go‘ngi	5,4	4,32	39,2	9,4	26,1	-
5	40t/ga qoramol go‘ngi	5,6	4,40	34,9	12,1	31,4	22,9

6	Kompost 20t/ga	5,8	4,46	38,4	9,6	25,5	2,0
7	Biogumus10t/ga	6,0		35,9	12,0	32,6	18,8
	4,50	5,25		38,7	9,3	25,3	-
8	N150P100K75 kg/ga	6,1	4,55	34,4	11,9	31,4	22,1
9	N150P100K75kg/ga+10t/ga qoramol go'ngi	6,2	4,6	39,5	9,6	25,7	1,5
10	N150P100K75kg/ga+20t/ga qoramol go'ngi	6,3	4,66	36,3	11,8	31,8	17,9

Avvalo shuni aytish joizki, paxta hosili 2022-yilda barcha variantlarda biroz ortganligi kuzatildiki, bu iqlim sharoitining maqbul kelishiga bog'liqdir. Nazorat variantida uch qaytariqlardan paxta hosillari 15,9; 17,4 va 16,3 s/ga ni, o'rtacha uch qaytariqdan esa 16,5 s/ga tashkil etdi. Qoramol go'ngi gektariga 10,20,30,40 tonna qo'llanilgan 2, 3, 4, 5 variantlarda uch qay tariq o'rtacha paxta hosilari 23,5; 24,6; 27,9; 28,5 s/ga ni tashkil etib, nazorat variantiga nisbatan 7,0; 8,1; 11,4; 12,0 s/ga qo'shimcha hosil olindi. Kompost 20 t/ga va Biogumus 10t/ga qo'llanilgan 6 va 7 variantlarda uch qaytariq o'rtacha paxta hosillari -29,0-29,5 s/ga bo'lib, nazora variantiga nisbatan 12,5va 13,0s/ga qo'shimcha hosil olishga erishildi.

N 150 kg/ga, P₂O₅ 100kg/ga, K₂O 75 kg/ga qo'llanilgan 8 variantda o'rtacha paxta hosili 28,5s/gani, nazorat variantiga nisbatan olingan qo'shimcha hosil 12,0s/ga bo'ldi.

Xulosa

G'o'zaning o'sib, rivojlanishi, quruq massa to'plashi va oziq unsurlarni o'zlashtirishi uchun nisbatan maqbul sharoit N 150 kg/ga, P₂O₅ 100 kg/ga, K₂O 75 kg/ga bilan birgalikda kompost 20t/ga va biogumus 10t/ga qo'llanilganda yaratilishi kuzatilgan holda nazorat variantiga nisbatan (1var) g'o'za tupining bo'yi 17,50-19,67 smga, hosil shoxi 4,37-4,85 donaga, ko'saklar soni 8,69-9,22 donaga, ochilgani 3,83-3,97 donaga ortanligi aniqlandi. Hosilni yig'ib olish paxta terish mashinalariga mo'ljallangan dalalarda defoliatsiya yoki desikatsiya qilingandan keyin boshlanadi. G'. agrotexnikasining barcha kompleksi, paxtani terib olish, qisman sug'orish va boshqa ba'zi agrousullar mexanizatsiyalashtirilgan.

O'rta tolali g'o'za navlarining asosiy maydondagi ulushi tahlil qilinganda, birinchi o'rinda o'zining tezpisharligi, hosildorligi va turli tuproq iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi bo'yicha ijobiy natijalarni ko'rsatib kelayotgan Sulton g'o'za navining ekilayotganligini ko'rish mumkin. Ushbu nav Buxoro va Qashqadaryviloyatlaridan tashqari barcha viloyatlarda 195,6 ming gektarni egallagan bo'lib, asosiy maydonga nisbatan ulushi 18,9 % ni tashkil qilmoqda.

Ikkinchi o'rinni hosildorligi, bir chanoqdagi paxta vazni (7-8 gr) va tola chiqimi (37-38 %) yuqori bo'lgan Buxoro-102 navi egallagani holda 128,5 ming gektar maydonga ekilgan va asosiy maydonning 12,4 % ini tashkil qiladi.

Uchinchi o'rinni hosildorligi, bir chanoqdagi paxta vazni (7-7,5 gr) va tola uzunligi (33-36 mm) yuqori bo'lgan Buxoro-6 navi egallagan bo'lib, 70 ming gektar maydonda ekilgan va asosiy maydonning 9,4 % ini tashkil qiladi.

REFERENCES

1. Ибрагимов Н.М. Азотное состояние почвы и продуктивность хлопчатника при совместном использовании азотных и органических // Сборник матер Междунар науч. Посвященной 90-летию проф. М.У.Умарова (9-10 сент. 2004, Гос НИИПА) – Ташкент-2004 С.181-186.
2. Xoliqulov Sh., Xoshimov F. va Xazratqulov Sh. Tamaki chiqindisi va fosfogipsdan tayyorlangan kompost. // Agro-Ilm- O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali ilmiy ilovasi. 2007. №1. 25 b.
3. Siddiqov S., Akbarov F., Akbarov N. Eskidan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar gumusi va azoti miqdoriga turli agrofionlarning ta’siri. // O‘zbekiston tuproqshunoslar va agrokimyogarlar jamiyatining IV-qurultoyi, materiallari. Toshkent-2005-yil, 9-10 sentabr. Toshkent.2005. 275-277-b
4. Nurmatov Sh.N. Fosforli o‘g‘itlar. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, №5,2018. 9-b.
5. Niyazaliyev B.I., Nazarov R.S., Tillabekov B.X. Yangi organo-ma’dan o‘g‘itlarining g‘o‘zadagi samaradorligi. Paxtachilik va donchilikni rivojlantirish muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent-2004. 162-264 b.
6. Ortiqov T.Q. Mineral va organik o‘g‘itlarning tuproq unumdorligi va qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligiga ta’siri. // Yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2007 yil, 11-12 sentabr). Toshkent-2007. 157-158 b.

A CULTURE OF PROFESSIONAL COMMUNICATION IN ENGLISH LANGUAGE AND TEACHING IT.

Abduvalieva Munira Abdusaidovna

Teacher. Tashkent state agrar university

Department: Philology "Languages"

tel: (93) 976 40 01

e-mail address: munirabonu021@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467240>

Abstract. *This article will discuss vocational training has become a topical issue today. To solve this problem, it is necessary to carefully develop a methodology for teaching terminology. A natural question arises: what should be done (s) to overcome the difficulties encountered in teaching the terminological vocabulary of a foreign language. The development of systematic analysis emerged in the middle of the twentieth century with the emergence of scientific and technical tasks.*

Keywords: *knowledge, spiritual education, systematic approach, systematic analysis, vocational training, professional terms.*

КУЛЬТУРА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ПРЕПОДАВАНИЕ ЕГО.

Аннотация. *В данной статье пойдет речь о профессиональном обучении, которое стало актуальным на сегодняшний день. Для решения этой проблемы необходимо тщательно разработать методику обучения терминологии. Возникает закономерный вопрос: что нужно сделать(а) для преодоления трудностей, возникающих при обучении терминологической лексике иностранного языка. Развитие систематического анализа возникло в середине XX века с появлением научно-технических задач.*

Ключевые слова: *знания, духовное образование, системный подход, системный анализ, профессиональная подготовка, профессиональные термины.*

In all speeches of President Sh.M.Mirziyoyev a systematic approach to the problem, critical analysis, raising the work in all areas to a qualitatively new level, increasing the efficiency of the existing system, raising the system of public administration to the level of modern requirements based on today's and tomorrow's requirements. attention is paid to issues such as improving the entire system of performance. In this regard, it is desirable that each person responsible for the training of personnel in accordance with modern requirements, a systematic approach to the problem, a systematic organization of pedagogical and scientific activities.

In these days of rapid development of science and rapid growth and frequent updating of scientific and technical information, improvement of engineering structures and technological processes, increasing the level of automation in management systems, the transition to a system of training at the undergraduate academic level problems occur. In fact, these problems are due to the fact that the amount of workload allocated to the student is significantly reduced compared to previous years.

The second aspect of the problem is that compliance with the requirements of the State Education Standards must be unconditionally ensured.

The only way to solve such scientific and pedagogical problems is the introduction of person-centered educational technologies in the educational process, which is one of the most pressing tasks in educational practice.

At the same time, in the era of rapidly accelerating globalization in the international labor market - high technology, mass information, digitalization in real sectors of the economy, the flow of information is rapidly entering social life in our country and is widespread. One of the most pressing issues facing the education system is the rapid receipt of information, its analysis, processing, synthesis, summarization and, ultimately, the achievement of guaranteed results in education by referring to the judgment of students.

Naturally, such a comprehensive, goal-oriented process requires the technologicalization of the educational process.

Although the use of person-centered innovative technologies reduces the workload, while maintaining the integrity of the content and quality of education, the educational process will be significantly accelerated in accordance with the requirements of the time, and efforts will be aimed at achieving guaranteed results.

The essence of the technology of person-centered education is that it takes into account the interests of all participants in the educational process - the full development. This, of course, when planning the educational process in advance, of course, is the competence of one individual participant in the process - not to improve the knowledge and practical skills of the individual, but to develop the knowledge and practical skills of all participants. It is also necessary to take into account the need to take the symptoms to a higher level.

Therefore, in the organization and implementation of educational processes in the discipline of "Resistance of Materials" it is expedient to use the types of person-centered education: modular, computerized, interactive, problem-based, innovative.

Empirical methodology for the development of professional competencies, methods of their assessment, issues of creating a learning environment for their formation, in particular, the research conducted by G. Cheetham, M. Daniels, J. Jarmul developed methods of forming a culture of professional speech, substantiated theoretical approaches to professional training; a model of professional competence formation was created; psychological aspects of management activities were analyzed.


Igna O.N. In his research work, he demonstrated the development of students' sociocultural competencies in career-oriented education on the basis of authentic materials in the German language material. Polyakov O.G. Developed the concept of career-oriented English education. Different aspects of the formation of professional communication skills in students of non-philological higher education institutions in the process of teaching foreign languages (English, German, French, Russian) Russian scientists A.Petrov, L.Mark, M.Dementeva, Kasyanenko LS,

Systematic analysis is a relatively young and, at the same time, rapidly evolving science.

The reason for its rapid development is determined by the scale of the demand for education, the growing need for science to solve complex problems, the development of systemic projects. The development of systematic analysis emerged in the middle of the twentieth century with the emergence of scientific and technical tasks. The main role in this is played by the processes of analysis, knowledge and practical application of complex objects.

Systematic analysis was used as an independent research area in the 1950s and 1960s in the United States to perform major business tasks such as technical development of the armed forces, space exploration, improvement of public administration, distribution of production capacity, labor and equipment demand, and product needs. However, in the 1960s and 1970s, the introduction of systems analysis methods into calculators provided an opportunity to create theoretical models as tools for performing complex tasks. As the conditions for intensive use of system analysis capabilities have expanded, target-planning program management methods have been created. In particular, in order to solve this or that problem, special programs are developed that take into account human and material resources in the organization of the organization's activities. As a result, different schools of systemic analysis have emerged that focus on researching the activities of different fields.

Vocational training has become a topical issue today. To solve this problem, it is necessary to carefully develop a methodology for teaching terminology. A natural question arises: what should be done (s) to overcome the difficulties encountered in teaching the terminological vocabulary of a foreign language? In order to accelerate the formation (intensification) and increase efficiency (optimization) of the formation of speech skills of students of non-philological higher education, the most necessary (remember: according to the principle of necessity and sufficiency) terms are taught (without them it is impossible to explain complex language units); terminology is given in the form of a scientific system. J. Jalolov schematically demonstrated the terminology studied in the framework of scientific and methodological criteria: **(Figure 1)**.



Classes on specialty subjects observation of the process, from the professional knowledge of students in this process during the study of the content of activities aimed at informing witnessed a situation where, although management and other sciences in the process of training organized by teachers ensuring the overall development of students, their enrichment of spiritual and moral qualities and worldview, as well as deciding on situations such as the formation of professional qualifications in them. Although special attention is paid to the work of finding, the role of spiritual education, importance, the need to study spirituality by students and

etc. a theoretical or practical approach to the continuous, purposeful coverage of issues necessary. The direction of management education is extremely important in teaching students a culture of professional communication in their language so that they can use industry terms correctly in speech. Based on this, we have developed a three-step system for developing skills in using industry terms. This system is aimed at the gradual introduction of terms from the passive vocabulary of students to the active vocabulary. To do this, we developed exercises and tasks that can be used at each stage, from simple to complex, and divided them into the following types (Figure2):




Figure 2. A three-step system of teaching students to work with industry terms.

Conclusion.

Now in Uzbekistan, along with the native language, knowledge of English and Russian is a great help in the field of specialization and expands the study of achievements in the field. Due to the fact that most of the professional information comes in Russian and English, today the priority for the specialist is to know these languages, with information in English, to get the

necessary information from text and communication. The main factor today is to help management students to fully understand the meanings of terms and new words in the field, as well as to develop a culture of communication, such as in the process of learning and practical activities. The proposed system consists of the initial, intermediate, and advanced stages, and the exercises and assignments applied should form a whole. It is known that there are dialogic and monologue forms of speech, and the mentioned components of professional communication competence are manifested in one or both forms of speech. It is recommended to follow this step-by-step sequence in the growth and development of professional monologue and dialogic speech in research work.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 of October 8, 2019 "On the Concept of Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030". - T.: Xalq so'zi gazetasi, 2019.
2. Ellis, R. (2008). *The Study of Second Language Acquisition* (2nd ed.). (2008). Oxford: Oxford University Press
3. Lott, D. 1983. Analyzing and counteracting interference errors. *ELT Journal*, vol.37/3, pp 256- 261.
4. Nunan, D. (1991). *Language Teaching Methodology*. London, England: Prentice Hall International.
5. Azizhodjayeva N. N. Pedagogical technology and pedagogical masterpiece.
6. www.ru.wikipedia.org
7. www.education.com

ИНГЛИЗ ТИЛИДА ЁЗУВ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Кенжаева Нигора Ўктамовна

Тошкент давлат аграр университети
«Тиллар» кафедрасининг ўқитувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467246>

Аннотация. Ушбу мақолада Ёзув таълимнинг ҳамма босқичларида ёрдамчи аҳамиятга эга бўлиб, гапириши, тинглаб тушуниши, ва ўқиб тушуниши ва ёзув кўникмаларини ривожлантириши ва такомиллаштириши воситаси вазифасини бажариши ва турли олий ўқув юртлиларида ёзув малакасини нутқ фаолияти тури сифатида ривожлантиришида бакалаврият талабалари учун фикрни ёзма баён қила олиши, хатоларсиз ёзиши қобилиятини ўстиришига хизмат қиладиган ҳамда ёзув малакасини ривожлантиришидаги қийинчиликларни бартараф қилишнинг амалий-ижодий усуллар, илмий-назарий тавсиялар баён қилинади.

Калим сўзлар: ёзув малакаси, нутқ фаолияти, ёзма нутқ, оғзаки нутқ, фонетик қийинчиликлар, компонентлар.

DEVELOPMENT OF ENGLISH WRITING SKILLS

Abstract. In this article, Writing is a helpful tool at all stages of education, serving as a tool to develop and improve speaking, listening comprehension, and reading comprehension and writing skills, and being able to express ideas in writing for undergraduate students in developing writing skills as a type of speaking activity, practical-creative methods of overcoming difficulties in the development of writing skills, scientific and theoretical recommendations, which serve to develop the ability to write without errors.

Keywords: writing skills, speech activity, written speech, oral speech, phonetic difficulties, components.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ АНГЛИЙСКОГО ПИСЬМА

Аннотация. В данной статье письмо имеет вспомогательное значение на всех этапах обучения и служит средством развития и совершенствования навыков говорения, понимания на слух, понимания прочитанного и письма, умения выразить мысли в письменной форме для студентов бакалавриата. В развитии навыков письма как вида речевой деятельности в различных высших учебных заведениях используются практически-творческие методы, научно-теоретические рекомендации, которые служат развитию умения писать без ошибок и устранению трудностей в развитии навыков письма. описано.

Ключевые слова: навыки письма, речевая деятельность, письменная речь, устная речь, фонетические трудности, компоненты.

Бугунги кунда хорижий тилларни жадал ўргатиш мустақил Ўзбекистонда умумхалқ эҳтиёжига айланди ва давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Ҳозирги пайтда чет тили таълими турли мутахассислар тайёрлаш тизимининг муҳим қисмига айланганлиги ва бирор бир чет тилини билиш олий ёки ўрта махсус ўқув юртини тугатаётган мутахассис учун муҳим эканлиги барчага маълум.

Ўзбекистон Республикаси мустақиллиги шарофати билан жаҳоннинг бошқа мамлакатлари ўртасида ривожланиб бораётган ижтимоий-сиёсий, илмий-техникавий ва

маданий дипломатик алоқаларнинг тобора ошиб бораётганлиги, мамлакатимизда турли хорижий кўшма-корхоналарнинг фаолият кўрсатиши ва кўпгина элчихоналарни очилишида хорижий тил ёзувининг аҳамияти ҳам ўз хиссасини турли хил соҳаларда кўшаётганлиги кундалик ҳаётимизда яққол кўзга ташланиб турибди. Нутқ фаолиятларидан бири бўлган ёзма нутққа оид ўнлаб илмий-тадқиқот ишлари олиб борилган, ўқув-услубий қўлланмалар, олий ўқув юрти талабалари учун илмий мақолалар ёзилган, ҳар бир дарсликда ёзув малакасига оид бажариш учун ёзув машқлар берилган бўлиб, бу талабаларни ҳар томонлама етук инсонлар қилиб тарбиялаш, уларга фан асосларидан чуқур билим бериш, уларда замонавий дунёқарашни шакллантириш ва кенгайтириш, уларни эстетик тарбиялашда муҳим аҳамиятга эга.

Ёзма нутқ кенг тушунчани асосан икки маънони англатиш мумкин. Ёзма нутқ жараёни сифатида фикрни ёзма равишда баён қилиш, ифодалаш ва шу жараёнинг натижаси бўлган матн маъноларини нутқда гапириб беришни ифодалайди. Чет тилнинг, жумладан инглиз тили ўқитиш методикасида ёзувни ўргатишга доир илмий тадқиқотларда қимматли фикрлар баён этилган (Ж.Ж.Жалолов, Г.Махмудова ва С.Ёқубова, ТН.Anderson and К.Forrester, J.A.Hefferman.). Ёзув малакасининг психологик ва психофизиологик хусусиятлари, ёзув техникасига доир машқлар ҳам бор бўлиб, бу борада чэт эл олимлари томонидан турли тадқиқот ишлари олиб борилган. (Nala Nola Bacha “Testing Writing in the EFL Classroom, Student Expectation”, Oleg Tarnopolsky “A case for Writing Skills Development”).

Ёзма нутқнинг компонентига ўқиш ва ёзув киради. Ёзув-ёзма нутқнинг ажралмас компонентиدير. У орқали маълумот алмашилади ва узоқ вақт сақланади. Ёзув таълимнинг ҳамма босқичларида ёрдамчи аҳамиятга эга бўлиб, гапириш, тинглаб тушуниш, ва ўқиб тушуниш ва ёзув кўникмаларини ривожлантириш ва такомиллаштириш воситаси вазифасини бажарган.

Ёзув - деганда нутқда тил белгиларини қайд қилиш тушунилади. Ёзувни ўргатганда ҳарф, ҳарф бирикмалари орқали сўзлар, гаплар тузиш, фикрни ёзма баён қилиш ўрганилади. Ёзув нутқ фаолиятининг энг мураккаб тури бўлиб, унда нутқнинг барча механизмлари (идрок-**mind**, диққат-**notice**, хотира-**memory**, тасаввур-**imagination**, тафаккур-**thought** ва **бошқалар**) иштирок этади. Инглиз тили ёзуви устида ишлаганда:

- (1) товуш-ҳарф мувофиқлиги;
- (2) имло;
- (3) фикрни ёзма баён этиш;
- (4) ҳарф, ҳарф бирикмалари орқали сўзлар, гаплар тузиш;
- (5) ўзгалар фикрини ёзиш ўргатилади;
- (6) ривожлантирилади.

Ёзма нутқ кенг тушунчани асосан икки маънони англатиш мумкин. Ёзма нутқ жараёни сифатида фикрни ёзма равишда баён қилиш, ифодалаш ва шу жараёнинг натижаси бўлган матн маъноларини нутқда гапириб беришни ифодалайди.

Шу нуктаи назардан ёзув мазмунига графика, орфография, пунктуация ва улар орқали фикрни ёзма баён қилишдан иборат. Бироқ инглиз тилини ўрганаётган ўзбек тили аудиториясини назарда тутган ҳолда амалга оширилган илмий ишлар кам қилинганлиги сир эмас. Бугунги ахборот технологиялари тараққий этган бир даврда талабанинг хорижий

тилда ёзувга ўргатиш, керак ахборотни ёзув орқали ифода қилишга ўргатиш масаласи кам ишланган муаммолардан бири эканлиги маълум бўлди. Хусусан, бу масала билан боғлиқ:

I. Лингвистик қийинчиликлар: (фонетик, лексик, грамматик)¹

1.1. Фонетик қийинчиликлар: сўзни тўғри ёзишда тингловчилар товушларни мазмунини фарқлашдаги қийинчиликлар

масалан: write-right/kid-kit /board-boat-bought /mete-meet /

1.2. Лексик қийинчиликлар, яъни омофонлар, омографлар ва ҳ.к;

масалан: steal-steel-stele/extend-extent/eat-it/three-tree/sleep-slip/

1.3. Грамматик қийинчиликларни бир-биридан ажрата олиш;

1.4. Нутқнинг монологлик, диалоглик хусусиятларини ҳисобга олиш;

1.5. Стилистик қийинчиликлар-нутқни шева ёки адабий тилга таълуқлилигини ҳисобга олиш.

II. Экстралингвистик қийинчиликлар:

2.1. Ёзув техникасига оид машқлар (қўл ҳаракатини ўргатиш, намунага биноан ҳарф қисмларини ёзиш, ҳарфни бир неча қатор ёзиш, матнни чиройли қилиб кўчириш, босма ҳарфни ёзма шаклини кўчириш);

2.2. Ёзма нутқ машқлари:(кўчириш, эшитиб ёзиш, эркин ва ижодий диктант, ёзув машқи, ўйин машқи, ҳикоянинг режасини тузиш, ўқиган матннинг мухтасар баёнини тайёрлаш);

2.3. Ёзув билан боғлиқ бошқа масалалар хусусан; кўчириш, тўлдириш, тасниф ва таҳлил, хатоларни тузатиш киради.

Шу билан бир қаторда синфдаги ёзув билан боғлиқ яъни, таянч воситаларнинг ва мазмунли расмларнинг бўлишлигига эътибор берилади. Умуман олганда, нутқ фаолиятининг бу тури тадқиқотларда етарли ёритилмаган бўлсада, тинглаб тушуниш кўникмаларини шакллантириш билан боғлиқ бўлган машқлар ишлаб чиқилган. (Н.И.Гез, Ж.Ж.Жалолов, Н.В.Елухина). Олий ўқув юрти талабаларини хорижий тилда ёзувга ўргатишнинг долзарб муаммолари мавзусининг долзарблиги қуйидаги омиллар билан белгиланади, чунончи: **(1)**олий ўқув юртлари талабаларини хорижий тил дастурларида ёзувга ўргатишнинг бугунги кун ҳолатидаги қийинчиликлар кузатилмоқда.

Ёкубов И.Я. –Амалий инглиз тили методикаси. – Т.,2009.¹

(2) чет тил ўқитиш мазмуни (нутқий малакалар ва ёзув техникасини ўргатиш) да сезиларли номувофиқлик ҳуқум суриб келмоқда. **(3)** университет (институт) дарсликларида ёзувга ўргатишнинг дастурий талаблари яратилган эмас. **(4)** ёзма нутқий малакалар учун алоҳида дарс соатлар ажратилган эмас, аксинча интеграллашган фаолият асосида кузатилади. **(5)** чет тил ўқитиш курсида олий ўқув юртлари талабаларини хорижий тилда ёзувга ўргатиш муаммоси тадқиқотчилар эътиборидан четда қолиб кетмоқда ва ҳ.к.з.

Ёзувни ривожлантиришга оид машқлар типологиясини ишлаб чиқиш ва ушбу мақсадга эришиш йўлида вазифалар ва улар қуйидагилар:

1. хорижий тил малакаларини шакллантиришда ёзувнинг ўрнини аниқлаш;

2. ёзувни психологик ва психофизиологик хусусиятини аниқлаш;

3. ёзувга ўргатишнинг замонавий услублари ва уларнинг хусусиятларини кўриб чиқиш;

4. ёзувга ўргатиш тамойилларини очиб бериш;

5. чет тил олий ўқув юртларида ёзув турлари ва шакллари белгилаш;
6. ёзув билан боғлиқ қийинчиликларни аниқлаш ва уларнинг сабабини тушунтириш.

Хулоса. Чет тил таълими самарадорлигини таъминлашга янгича нуқтаи назардан ёндашилганлиги, чет тил таълими мазмунининг давр талаби даражасида янгиланиб боришига объектив зарурият сифатида қаралганлиги турли олий ўқув юртларида ёзув малакасини нутқ фаолияти тури сифатида ривожлантиришда бакалаврият талабалари учун фикрни ёзма баён қила олиш, хатоларсиз ёзиш қобилиятини ўстиришга хизмат қиладиган ва ёзув малакасини ривожлантиришдаги қийинчиликларни бартараф қилишнинг амалий-ижодий усуллар, илмий-назарий тавсиялар баён қилинади.

Олий ўқув юрти талаба ёшларига чет тилни ўргатишда ёзув фаолиятини шакллантиришнинг замонавий методикасини яратиш бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда.

REFERENCES

1. Ёқубов И.Я. –Амалий инглиз тили методикаси. – Т.,2009.
2. Э. Эргашев – Чет тилини ўқитиш жараёнида техника воситаларидан фойдаланиш. – Т., 1984.
3. У.Толипов, М.Усманбоева – Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. – Т.,2006.

**ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА ВАЗИФАЛАРИНИ ЎРГАНИШ -
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИДИР.**

Абдуллаева Санобар Бердиевна

Самарқанд давлат тиббиёт университети ассистенти

Раупова Райхона Эркин кизи

Самарқанд давлат тиббиёт университети талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467256>

Аннотация. Ёшлар фаолияти фаровон ҳаётимиз мезонидир. Худди шу маънода ёшларнинг таълим-тарбиясига, талабаларнинг дунёқараши, мустақил фикрлашни ривожлантириши, ижодий қобилиятларини ва касбий қизиқишларини ўстиришига жиддий эътибор бермоғимиз лозим. Ушбу мақолада талабаларнинг дунёқараши, мустақил фикрлашни ривожлантириши, ижодий қобилиятларини ва касбий қизиқишларини ўстиришида таълим ва тарбия методлари ва вазифаларини ўрганиш-бўлажак педагоглар фаолиятининг асоси сифатида муҳим аҳамият касб этиши тўғрисида маълумотлар ёритилган.

Калим сўзлар: Таълим, тарбия, илм, педагог, фаолият, метод, талаба, таълим тизими, билим, ижодий қобилият, мустақил фикрлаш.

**LEARNING THE METHODS AND TASKS OF EDUCATION AND
UPBRINGING IS THE MAIN FACTOR OF THE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS.**

Abstract. Abundant youth activity is the standard of our life. In the same sense, we need to pay serious attention to the education of young people, the development of students' worldview, independent thinking, creative abilities and professional interests. In this article, the information about the development of students' worldview, independent thinking, the development of their creative abilities and professional interests, and learning the methods and tasks of education and training is of great importance as the basis of the activities of future teachers.

Key words: education, training, science, teacher, activity, method, student, educational system, knowledge, creative ability, independent thinking.

**ИЗУЧЕНИЕ МЕТОДОВ И ЗАДАЧ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
ЯВЛЯЕТСЯ ОСНОВНЫМ ФАКТОРОМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ.**

Аннотация. Активная молодежная активность является нормой нашей жизни. В этом же смысле нам необходимо уделять серьезное внимание воспитанию молодежи, развитию у студентов мировоззрения, самостоятельного мышления, творческих способностей и профессиональных интересов. В данной статье большое значение как основа деятельности будущих учителей имеет информация о развитии мировоззрения учащихся, самостоятельного мышления, развитии их творческих способностей и профессиональных интересов, освоении методов и задач воспитания и обучения.

Ключевые слова: образование, обучение, наука, учитель, деятельность, метод, ученик, образовательная система, знания, творческие способности, самостоятельное мышление.

Кириш: Ёшларимизни ахлокли қилиб тарбиялашда, юксак умуминсоний кадрларга асосланган, ҳаётий ўринга эга бўлган маънавий бой, ахлоқан етук,

интеллектуал ривожланган, чуқур билимли, ҳар томонлама камол топган шахсни шакллантиришга йўналтирилган кенг кўламли чора-тадбирларни амалга ошириш бугунги куннинг долзарб вазифаларидандир. Миллий истиклол туфайли тараққиётнинг барча соҳаларида жадал ривожланиб бораётган мамлакатимизда ёш авлодни билим даражасини жаҳон андозалари талабларига жавоб берадиган фан-техника янгиликларидан хабардор, мустақил фикрлай оладиган, ҳаётга дадиллик билан кириша оладиган тадбиркор, маънавий жиҳатдан баркамол қилиб вояга етказиш долзарб вазифалардан ҳисобланади. Ҳозирги кунда таълим соҳасига катта эътибор қаратилаётгани бежиз эмас. Чунки ҳар томонлама баркамол, рақобатбардош, малакали ишчи кадрлар давлатнинг ҳамда жамиятнинг эртанги кунини белгилайди. Бу эса аввало педагогика фанининг таълим-тарбия тизимини замонавий технологиялар асосида такомиллаштиришни тақозо этади. Ўзбекистон Республикаси мустақилликга эришгандан сўнг барча соҳаларда бўлганидек, таълим ва тарбия соҳасида ҳам буюк ўзгаришлар юз берди.

Соғлом авлод тарбияси осон иш эмас, у ҳар бир инсон, ҳар бир оила, бутун жамиятдан жиддий эътибор ва узлуксиз меҳнат талаб қилади. Инсон пайдо бўлибдики, тарбия жараёни мавжуд, тарбия пайдо бўлган вақтдан бери педагогик фаолият узлуксиз давом этиб келмоқда. Ўқитувчилик, тарбиячилик касби барча ижтимоий тузумларда шарафли ҳамда ўта масъулиятли, қийин ва мураккаб касб ҳисобланган. Мустақил Ўзбекистонимизда узлуксиз таълим тизимини ислоҳ қилиниши, яъни таълим стандартлари асосида таълим ва тарбия жараёнини қайта ташкил этишга киришилган ҳозирги кунда ўқитувчи фаолиятига, унинг педагогик маҳоратига алоҳида эътибор берилмоқда.

Ҳозирги кунда таълим тизимида, умуман халқ таълим тизимининг барча бўғинларида ўқитиш услубларининг бой заҳираси вужудга келди. Агар таълимда тўғри усулни танласак, кўзлаган мақсадга осон ва қисқа йўл билан эриша оламиз.

Муҳокама: Таълим-тарбия соҳасидаги масалаларнинг тўхтовсиз мураккаблашиб бориши ва янги муаммолар, янги имкониятларнинг пайдо бўлиши, ўқитиш усулларини мутасил янгилаб туришни, халқ педагогикасидан ижодий фойдаланишни талаб этади. Ўқитишнинг дидактик усуллари ва уларни ўрни билан янгилаб бориш педагоглар олдида ёш авлодни камолга етказишдек вазифани қўйганлиги бунинг ёрқин далилидир. Тарбия ҳақидаги ғояларнинг ривожланишида Имом Бухорий, Ат-Термизий, Абу Наср Форобий, Абу Али Ибн Сино, Абу Райхон Беруний, Юсуф Хос Хожиб, Ахмад Яссавий, Нақшбандий, Навоий, Бехбудий, Абдулла Авлоний ва бошқаларнинг хизматлари каттадир. Тарбия бола туғилгандан бошлаб умрининг охиригача давом этадиган жараёндир. Шу туфайли тарбия сўзи кўп вақтларда таълим, маълумот жараёнларига кирадиган ишларнинг мазмунини ҳам англатади. Тарбия таълим ва маълумот натижаларини ўзида акс эттиради.

Педагогика фанининг объекти асосан мактаб ўқувчилари ҳамда талабалардир, предмети эса ўқувчи-талабаларга берилаётган таълим-тарбия назарияси ва амалиётидир. Тарбия деб, тарбиячи ўзи ҳоҳлаган сифатларни тарбияланувчилар онгига сингдириш учун уларнинг руҳиятига маълум мақсадга кўра тизимли таъсир кўрсатишига айтилади. Таълим махсус тайёрланган кишилар раҳбарлигида ўтказиладиган ўқувчи-талабаларни билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантирадиган, билим, қобилиятларини ўстирадиган, уларнинг дунёқарашини таркиб топтирадиган жараёндир. Маълумот бу - таълим-тарбия натижасида олинган ва тизимлаштирилган билим ҳосил қилинган кўникма ва малакалар

ҳамда шаклланган дунёқарашлар мажмуидир. Таълим- тарбия ва маълумот уйғунлашган ягона жараён бўлиб, педагог ўқитувчи-тарбиячи уларнинг шаклланишида етакчилик қилади. Таълимни ташкил этишда ва самарадорлигини оширишда анъанавий методлар ҳамда ноанъанавий методларни уйғунлаштириш интерфаол методлар стратегияларидан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Ўқитувчи-тарбиячи ўқувчи-талабаларга билим бериш, маълумотли қилиш, тарбиялаш мақсадида унга тизимли таъсир кўрсатади. Бунда психология ва ижтимоий омилларга асосланади. Яъни кўрсатилаётган таъсирнинг самарасини билиш учун ўқувчи-талабанинг сезги, идроки, тасаввур, диққат ва тафаккур-фикрлаш жараёнининг қандай кечаётганини билиши ва уларга асосланиб таъсир кўрсатиш режасини белгилайди.

Таълим бериш ҳар бир мавзунинг мағзини талабалар онгига етказиш маҳорати педагогдан кўп изланишни, кўп мутоала қилишни талаб этади. Билим уммонига бой бўлган устозгина мавзунинг мағзини талабалар онгига моҳирона етказа олади. Мавзунинг мақсадига қараб, талаб методларини танлай билади. Таълим методларидан оқилона фойдаланиб, илмий дарс ўтиш, талабаларни ҳаётда ўз ўрнини топишга, онгининг шаклланишига катта асос бўлиб хизмат қилади. Педагогнинг маълум фан илмини талабалар онгига етказа олиш маҳорати, шу талабаларни бўлғуси ҳаёт йўлларини танлашда муҳим аҳамиятга эга. Аввал айтганимиздек, таълимнинг моҳияти инсон камолотини шакллантиришга хизмат қилади. Таълим методи таълим мақсади ва вазифаларига боғлиқ. Методлар талабаларнинг босқичлари бўйича, таълимнинг мазмунига ва функциясига қараб танланади. Педагог ўзининг шахсий сифатлари, комиллиги билан талабаларга ўрناق бўлиши, таълимий мақсад билан тарбиявий мақсад мутаносиблиги фан асослари ва ғояларини чуқур билиши билан талабаларга ўрناق бўлишини талаб қилади. Таълимнинг қоидаларига қуйидагилар киради:

- фаоллик ва онглилик;
- кўргазмалилик;
- тизимлилик ва кетма-кетлик;
- илмийлик;
- тушунарлилик;
- назарияни амалиёт билан боғлаш;
- мустаҳкамлаш;

Ҳар бир педагогнинг ўз методлари бор, фақатгина касбий маҳоратларини ишлата олишга ҳам боғлиқ. Янги педагогик технологияларда асосий урғуни талабаларнинг шахсий фикр юритиш қобилиятини ривожлантиришга, ўз фикрини ёзма равишда ва оғзаки ифода этишга, ҳамда бошқа шахслар билан мулоқот қилишга қаратилади. Ижодкор педагоглар доимо мотивацияларни вужудга келтиришга моҳир бўладилар. Бундай педагоглар машғулотларни доимо қизиқарли ва турли шаклларда ўтказишади, талабаларни доимо фикрлашга ундайди ва натижада билим олувчи ўқувчи-талабаларнинг фаоллиги ортади. Инновацион педагогик технологиялар таълим сифатининг асосий омилдир. Таълим тизимида инновацион педагогик технологияларни ишлаб чиқиш ўзига хос равишда ва ўзининг талаб даражасида ўқув жараёнида самарали фойдаланиш асосида таълим сифатини оширишда қўлланилади.

Хулоса: Бўлажак педагоглар фаолиятининг асосий омили- бу таълим тарбиядан кўзланган мақсадни англаш, таълим тарбия тизимида янги билимлар бериш ва болаларни тўғри тарбиялаш шартлигидир. Бунда тарбиячининг беғараз меҳнатни, болаларни севиши ва уларга жон фидо айлашлари тарбия самарадорлигини таъминлайди. Ҳозирги замонавий ахборот технологиялари ривожланиб бораётган даврда таълим ва тарбия методлари ва вазифаларини ўрганиш бўлажак педагоглар фаолиятида таълим сифатини ошишига хизмат қилиб, бу эса замонавий билимларга эга кадрлар тайёрлашда муҳим аҳамият касб этади. Олий ўқув юртлирига иқтидорли ёшларни жалб қилиш, ўқитиш жараёнининг савиясини юқори даражага кўтариш, талабаларнинг ўқишга бўлган муносабатларини тубдан ўзгартириш, уларнинг оладиган назарий ва амалий билимларини мустаҳкамлаш, уларни янада чуқурлаштириш, ўқитиладиган фанлар бўйича инновацион педагогик технологияларни ишлаб чиқиш ва ўқув жараёнига тадбиқ этиш, талабаларнинг билимларини баҳолаш - таълим сифатини ошириш учун асосий омил бўлиб хизмат қилади. Ўқувчи-талабаларга энг аввало ўз халқининг миллий-маданий меросига, тилига, анъана ва урф-одатларига шунингдек, бошқа халқларнинг маънавий бойликларига бўлган қизиқишларини тарбиялаш лозим. Бунда унинг билим доирасини кенгайтиришга, турли халқлар маданияти билан таништиришга алоҳида аҳамият бериши зарур. Миллий кадрлардан она замин табиати, миллий халқ санъати, анъаналарининг миллий эстетик манбалари, шарқнинг жумладан, Ўзбекистоннинг бадиий маданияти, тарихи орқали ўқувчи-талабаларда миллий ахлоқ анъаналари руҳини шакллантиришда, миллий ўз-ўзини англашишда, байналминаллик ва ватанпарварлик туйғуларини ривожлантиришда фойдаланиш лозим. Маънавий кадрлар ва ғоялар ҳар хил миллат ўқувчи-талабаларини бирлаштиради, ўқув ва меҳнат фаолиятларини уюштиришга ёрдам беради. Ўқувчи ва талабаларнинг ривожланишида ўқув жараёнларининг аҳамияти ва таъсири бекиёс каттадир. Билимлар ўзлаштиришда уларнинг тафаккурини ўстиради, ижодий қобилиятларини шакллантиришнинг асосий воситаси бўлиб қолади. Бу жараёнда уларда ижтимоий ҳулқ нормалари шаклланади. Шахс қайси ёшда бўлишидан қатъий назар, уларнинг ривожланишида меҳнат фаолиятининг аҳамияти каттадир. Айниқса, меҳнат инсоннинг ҳам жисмоний, ҳам маънавий камол топишида муҳим манба ҳисобланади. Меҳнат жараёнида унинг иштирокчилари бир-бирлари билан алоқада бўладилар, ўзларининг нимага қодир эканликларини кўрсатишга ҳаракат қиладилар. Меҳнат орқали шахснинг ахлоқий сифатлари таркиб топади, уларда ватанпарварлик, масъулият, интизомлилик, фаоллик ортади, улар ўз-ўзини тарбиялашга астойдил киришадилар. Ўз-ўзини тарбиялашга ота-она, педагог-ўқитувчининг тарбиявий таъсири янада самарали бўлади. Тарбия билан ривожланишнинг ўзаро бир-бирига таъсири ва муносабатлари мавжуд, чунки қаерда тарбия жараёни муаммолари тўғри ҳал этилса, у шахс камолотига самарали таъсир кўрсатади. Камол топган шахс тарбиянинг роли ва имкониятларига ишонч билан қарайди. Педагоглар фаолиятининг асоси сифатида педагогиканинг тарбия назариясида, таълимнинг ташкилий шаклларида, комиллик даражаси, сифатларини аниқлашдаги катта ислохий ўзгариш янги педагогик технологияларда ўз аксини топмоқда. Педагогларнинг фаолияти ва шахсини ўрганиш - методик ишларнинг сифати ва самарадорлигини оширишнинг муҳим омилидир. Методик ишлар педагогларнинг болаларга таълим-тарбия бериш, уларни ривожлантириш билан боғлиқ фаолиятида юқори натижаларга эришиш учун ёрдам беришга қаратилади.

REFERENCES

1. Вохидов А. М. и др. Разработка Графическим Пользовательским Интерфейсом Программ В Пакете Tkinter С Использованием Современных Педагогических Технологий В Области Медицины //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 30. – С. 181-184.
11	Yorug'likning qutblanishi. Radiatsion nurlanish.		Radiatsion defektoskopiya.		Tabiiy tolalarning olinishi va tuzilishi.	Kraxmal miqdorini polyarimetrda aniqlash.

Jadvallardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi o'z fanini fanlararo, kasblararo integratsiyasini yaxshi bilsa, o'quvchini o'z faniga qiziqтира oladi. O'quvchi esa, har bir fanning mazmuni haqida o'ylab ko'radi, fanni tushunish muhim ahamiyat kasb etishini anglab etadi va fanlarni toifalashdan yiroqlashadi. Demak, o'qituvchi o'qitishni to'g'ri tashkil etmog'i, kelajakda o'quvchi o'zi tanlagan kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetisha olishiga ishona oladigan ruhda bilim bermog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish mazmuni respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti, istiqboli, jamiyatning ehtiyojlari, texnika va texnologik jarayonlardan oqilona foydalanish maqsadlari kabi omillardan kelib chiqqan holda tanlanadi.

REFERENCES

1. "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021 yil 19 mart PQ-5032-sonli qarori.
2. Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. 2020. № 1,2 soni.
3. Avtomobil elektr jihozlarini ishlatish, diagnostika qilish va ta'mirlash. A.Abdurahmonov, G.Mahmudov, E.Yo'ldoshev.
4. Avtomobil dvigateli va boshqa agregatlarini electron boshqarish. G'.Mahmudov, H.Zikrillayev.
5. Elektr yuritmalarni avtomatik boshqaruv. A.Uzoqov, M.A.Tojiyev, B.N.Erkinov.
6. Elektr texnik materiallar va uskunalarni montaji, eksplutatsiyasi va ta'mirlash. A.Raxmatov, N.Toshpo'latov.
7. Mobil aloqa tizimlari. R.Ibraimov. "Davr" nashriyoti. Toshkent-2014.
8. Gazlamashunoslik. T.A.Ochilov, N.G.Abbasova, F.J.Abdullina, Q.I.Abdulniyozov. T.2014.

9. Tikuv-trikotaj korxonalar jihozlari. J.Tojiboyev, S.Toshpo'latov, M.Muqimov.T.2014
10. Oziq-ovqat mahsulotlarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish usullari. B.T.Muhammadiyev.T.2015

SPSS DASTURI: QULAYLIKLARI VA IMKONIYATLARI.

Ramanov Botirbek Parxad o'g'li

Qoraqalpoq Davlat universiteti, "Amaliy psixologiya" yo'nalishi
2-bosqich talabasi,

botirbekromanov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10500925>

Annotasiya. Ma'lumotlarni tahlil qilish dunyosida to'g'ri dasturiy ta'minotga ega bo'lish hamma narsani o'zgartirishi mumkin. Tadqiqotchilar va tahlilchilar orasida mashhur tanlovlardan biri bu SPSS yoki ijtimoiy fanlar uchun statistik paketdir. Biroq, bozorda mavjud bo'lgan boshqa ko'plab ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari bilan SPSS o'z raqobatchilariga qarshi qanday turishini tushunish muhimdir. Ushbu maqolada biz SPSS-ni boshqa ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari bilan solishtiramiz, bu sizga oqilona qaror qabul qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: SPSS, manipulyatsiya, vizualizatsiya, intuiv, interaktiv.

SPSS SOFTWARE: FEATURES AND CAPABILITIES.

Abstract. In the world of data analysis, having the right software can make all the difference. One popular choice among researchers and analysts is SPSS, or Statistical Package for the Social Sciences. However, with a plethora of other data analysis tools available in the market, it's important to understand how SPSS stacks up against its competitors. In this article, we will compare SPSS with other data analysis tools to help you make an informed decision.

Key words: SPSS, manipulation, visualization, intuitive, interactive.

ПРОГРАММНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ SPSS: ОСОБЕННОСТИ И ВОЗМОЖНОСТИ.

Аннотация. В мире анализа данных наличие правильного программного обеспечения может иметь решающее значение. Одним из популярных вариантов среди исследователей и аналитиков является SPSS, или Статистический пакет для социальных наук. Однако, учитывая множество других инструментов анализа данных, доступных на рынке, важно понимать, чем SPSS отличается от своих конкурентов. В этой статье мы сравним SPSS с другими инструментами анализа данных, чтобы помочь вам принять обоснованное решение.

Ключевые слова: SPSS, манипулирование, визуализация, интуитивно понятный, интерактивный.

SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) dasturi statistik tahlil va ma'lumotlar analizi uchun ishlatiladi. Undan foydalanish uchun qulayliklar quyidagicha: grafiklar va ko'rsatkichlar: SPSS orqali ma'lumotlarni grafiklar, ko'rsatkichlar, histogrammalar va boshqa vizualizatsiyalar ko'rsatish mumkin.

Statistik tahlil: SPSS, ma'lumotlar bo'yicha ko'plab statistik ko'rsatkichlarni hisoblashga yordam beradi. Bu, o'rtacha, standart deviasiya, korrelatsiya va boshqa statistik ma'lumotlarni olishga imkoniyat beradi.

Ma'lumotlar bazasi: SPSS, ma'lumotlar bazasini yaxshi boshqarish imkoniyatini beradi. Ma'lumotlarni kiritish, tahrirlash va boshqa ma'lumotlar bilan ishlash uchun xizmat qiladi.

Ma'lumotlar filtratsiyasi va tanlashi: SPSS orqali ma'lumotlar filtirlash, tanlash va qayta ishlash oson.

T-test va ANOVA: Dastur, ma'lumotlar orasida farqni aniqlash uchun t-test va ANOVA kabi tahlil usullarini o'z ichiga oladi.

Regressiya tahlili: SPSS orqali ma'lumotlar orasidagi o'zaro bog'liqliklarni tahlil qilish, regressiya modellari yaratish va natijalarni baholash mumkin.

Ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish har qanday ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonining muhim qismidir. SPSS xom ma'lumotlarni tozalash va foydalanish mumkin bo'lgan formatga aylantirish uchun bir qator vositalarni taklif etadi. Uning intuitiv interfeysi foydalanuvchilarga ma'lumotlar to'plamlarini birlashtirish, o'zgaruvchilarni qayta kodlash va yangi o'zgaruvchilarni yaratish kabi vazifalarni osonlik bilan bajarishga imkon beradi. Bundan tashqari, SPSS yo'qolgan qiymatlarni hisoblash va kategorik o'zgaruvchilarni samarali boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Biroq, murakkab ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish vazifalari yoki katta ma'lumotlar to'plami bilan ishlash haqida gap ketganda, SQL yoki Excel kabi boshqa vositalar afzalliklarga ega bo'lishi mumkin. SQL foydalanuvchilarga kuchli buyruqlar yordamida ma'lumotlar bazalarini to'g'ridan-to'g'ri so'rash imkonini beradi, Excel esa ko'p foydalanuvchilarga tanish bo'lgan elektron jadval funksiyalarini taqdim etadi. Ma'lumotlarni tahlil qilish ehtiyojlarining tabiatiga qarab, ushbu vositalar muayyan vazifalar uchun ko'proq mos kelishi mumkin.

Vizualizatsiya va hisobot. O'z topilmalaringizni samarali etkazish ma'lumotlarni tahlil qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. SPSS foydalanuvchilarga o'z natijalarini vizual tarzda jozibali ko'rsatishga yordam berish uchun diagrammalar, grafiklar va chizmalar kabi bir qator vizualizatsiya imkoniyatlarini taklif etadi. O'zining sudrab olib tashlash interfeysi bilan professional ko'rinishdagi hisobotlarni yaratish juda oson. SPSS shuningdek, oson almashish uchun natijalarni PDF yoki Excel kabi turli formatlarga eksport qilish imkoniyatlarini taqdim etadi.

SPSS asosiy vizualizatsiya va hisobot berish imkoniyatlarini ta'minlashda ustun bo'lsa-da, Tableau yoki Power BI kabi boshqa vositalar ma'lumotlarni vizualizatsiya qilishning yanada ilg'or xususiyatlarini taklif qiladi. Ushbu vositalar foydalanuvchilarga real vaqtda yangilanishi mumkin bo'lgan interaktiv boshqaruv paneli va dinamik vizualizatsiya yaratish imkonini beradi. Agar sizga murakkab vizualizatsiya kerak bo'lsa yoki interaktiv hisobotlar yaratmoqchi bo'lsangiz, bu muqobillarni ko'rib chiqishga arziydi.

Narxlari haqida gap ketganda, SPSS boshqa ma'lumotlarni tahlil qilish vositalariga nisbatan nisbatan qimmatligi bilan mashhur. U foydalanuvchining ehtiyojlariga qarab turli xil litsenziyalash variantlarini taklif qiladi, lekin umuman olganda, bu jismoniy shaxslar yoki byudjeti cheklangan kichik tashkilotlar uchun muhim sarmoya bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, R va Python kabi ochiq manbali vositalar bepul va hamma uchun ochiqdir.

Xulosa. SPSS, ma'lumotlar tahlili va statistik ma'lumotlarni vizualizatsiya qilishda keng qo'llaniladigan dasturdir. Muammolar paydo bo'lsa, yordam va qo'llanma izlash, formularda so'rov yuborish va statistika sohasidagi yangiliklarni kuzatib borish yordam bera olish imkoniyatlarini oshirishga yordam bera oladi. Dastur versiyasini yangilash ham muammolar yechishda muhim bo'lishi mumkin.

REFERENCES

1. Muhammedova D.G, Salamova G.Sh. Psixologik tadqiqotlar ma'lumotlarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari

2. Бууул А., Сыфел Р. SPSS: искусство обработки информации. Анализ статистических данных и восстановление скрытых закономерностей. Москва, Санкт-Петербург, Киев, 2005. – 603
3. Наследов А.Д. SPSS: компьютерный анализ данных в психологии и социальных науках. 2-изд.- СПб., 2007.- 416с. С-16

O'ZBEK AN'ANAVIY MUSIQA IJROCHILIGIDA DUTOR SOZINING O'RNI.

Mirzaolimova Gulshanoy

Andijon davlat pedagogika intituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10500943>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligi, o'zbek xalqining musiqiy madaniyati, xalq mumtoz musiqasi, dutor va uning tarixi, yaratilish jarayoni, qadimda paydo bo'lgan dutor, uning torlari, dutor turlari, erkaklar uchun yaratilgan dutorlar, ayollar uchun yaratilgan dutorlar, dutor sozining muhim jihatlari, to'rt asosiy lokal uslub, "Dutor"- O'rta Osiyo xalqlarining eng sevimli cholg'u sozi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: mumtoz musiqa, an'anaviy, folklore, musiqiy meros, bastakorlik, "ustoz-shogird", ijrochilik, texnik, urf-odat, monumental, "individual", ijro talqini, zarblar, usul, ta'lim tizimi, mayin, xonaki, mumtoz va zamonaviy.

THE ROLE OF DUTOR IN UZBEK TRADITIONAL MUSIC PERFORMANCE.

Abstract. The article describes the performance of Uzbek traditional music, the musical culture of the Uzbek people, classical folk music, dutor and its history, the process of creation, the ancient dutor, its strings, types of dutor, dutor created for men, created for women. dutors, important aspects of the dutor word, four main local styles, "Dutor" - the most favorite musical instrument of the peoples of Central Asia.

Key words: classical music, traditional, folklore, musical heritage, composition, "master-disciple", performance, technique, tradition, monumental, "individual", performance interpretation, percussion, method, educational system, soft, homey, classic and modern.

РОЛЬ ДУТОРА В УЗБЕКСКОМ ТРАДИЦИОННОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ИСПОЛНЕНИИ.

Аннотация. В статье исполнение узбекской традиционной музыки, музыкальная культура узбекского народа, народная классическая музыка, дутатор и его история, процесс создания, древний дутор, его струны, виды дутора, дутатор, изготовленный для мужчин, созданы женщины-дуторы, обсуждаются важные аспекты звучания дутора, четыре основных местных стиля, «Дутор» - самый любимый музыкальный инструмент народов Средней Азии.

Ключевые слова: классическая музыка, традиционная, фольклор, музыкальное наследие, композиция, «мастер-ученик», исполнение, техника, традиция, монументальное, «индивидуальное», исполнительская интерпретация, ударные инструменты, метод, образовательная система, мягкий, домашний, классический и современный.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko'rinishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda.

An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehroqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi.

Har bir xalq o'z hayoti, ma'naviyati va an'anasi asosida o'z milliy qadriyatlariga mos musiqiy cholg'ular yaratgan. O'zbek xalqining barcha udum va qadriyatlari, milliy an'analarini aks ettiruvchi dutor xalqimizning sevimli cholg'usidir. Amaliyotda, dutorning behisob ijrochilik namunalari shakllanganligi har bir yoshdagilar, jamiyatning har bir tabaqasida o'ziga xos o'rin topgan, xalq orasida eng go'zal ijro namunalari yuzaga kelgan.

O'zbek musiqa merosini o'rganish va uni munosib darajada kelajak avlodga yetkazish azal-azaldan ijrochilik an'alarining "ustozdan-shogirdga" qabilida amalga oshirib kelinayotgan mezonidir. "Ustoz-shogird" an'anasi asosidagi an'anaviy musiqa sabog'ini ta'lim tizimida qaror topishi zamonaviy ta'limning eng ahamiyatli bosqichlaridan hisoblanadi. Buni uzluksiz ta'lim tizimi doirasida shakllantirish, hamda uni har bir bosqich talablari asosida tartiblash, avvalo, bilimli mutaxassis tayyorlashning zamini, qolaversa barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda, ijrochilik masalalari uzoq muddat shug'ullanishni va shunga mos munosabatni talab etadi. Albatta, cholg'u ijrochiligida uning texnik o'zlashtirish darajalarini ta'limning boshlang'ich va o'rta bo'g'inlarida o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi, ijrochi kasbni o'zlashtirish jarayonida asarni ham tarkiban ham ma'nau idrok etishi va tushungan holda talqin etish ko'nikmalarini hosil qilishi desak, mublag'a bo'lmaydi.

Shu bilan birga, ustoz-shogird an'anasini o'zlashtirish va fazilatlarini saboq jarayonida shakllantirish sozandalar uchun juda ahamiyatlidir.

O'zbek mumtoz musiqa merosi ko'p ma'noli monumental asarlarni o'zida mujassam etgan. Ularning munosib va go'zal talqinlari mumtoz va zamonaviy ustoz sozandalar tomonidan ijro etilib kelinmoqda. Ustoz-shogird ta'lim uslubining muhim qirralaridan biri ana shu ijrochilikda yuzaga kelgan "individual", ya'ni shaxsiy ijro talqinini tinglab o'zlashtirish ekanligini e'tirof etish joizdir. Lekin dutor ijrosida yangrayotgan asarni har bir sozanda o'zgacha jilo bilan, o'ziga xos ijro etishi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, Oz'bekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kush" asarida: - "...agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumataroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini sohta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas.

Oxir – oqibatda bunday odam Shashmaqom singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Mosart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi"¹⁸, - deb yozganlar. Bundan xulosa shuki, mumtoz musiqamizning, maqomlarimiz tarixini, ijrosini o'z yurtimizda o'rganmasak, rivojlantirmasak ularni boshqa joyda rivojlantirib bo'lmaydi.

Har bir kashfiyot ilmiy-ijodiy izlanishlardan boshlanib, uzoq muddatli yaratilish jarayoni natijasida kelib chiqib kuzatiladi va so'ng tadqiq qilinadi. Bunday jarayonlar

¹⁸ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat", 2011. 143-bet.

yillarni, kerak bolsa, asrlarni qamrab oladi, Yuksak namuna amaliy foydalanishda an'anaga aylanguncha davom etadi.

Ze'ro, kashfiyot an'anaga aylanmas ekan, keng miqyosda qabul qilinmas ekan u xalq mulki, milliy iftixori darajasiga ko'tarilmaydi. Dutor – o'zbek xalqi ma'naviyatining in'ikosidir. Shu bois uzoq o'tmishdan nola-yu sadolari bilan qalblarimizni to'lqinlantirib, inson ruhiga madad berib keladi.

Tarixiy yozma manbalarda bayon etilishicha, dator dastlab XV asrda ilk bor tilga olinadi. O'z asrining musiqashunos allomasi Zaynullobiddin al-Husayning "Qonuni ilmi va amali musiqiy" risolasida dator haqida ma'lumotlar zikr etilgan. Risolada tasvirlangan cholg'u sozi zamonaviy dutordan unchalik farq qilmaydi. Mavjud farqlarni esa, asosan datorlarning shakillanishida ko'rish mumkin. Xususan, cholg'uni dasta qismi qisqaroq bo'lib, kosasi zamonaviy dutorga nisbatan kattaroq (ud sozining kosasidan kichikroq) bo'lganligi qayd etilgan.

Dutor va uning tarixi, yaratilishi jarayoni, ommalashish davrlari xususida ham bir qator rivoyatlar mavjud. Sharqning buyuk allomasi Fisag'ursning ilk cholg'uni yaratishga turtki bo'lgan rivoyatini musiqashunos olim I.Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" risolasida keltiradi.

«Bir kuni Fisag'ursning tushida bir mo'ysafid uning boshiga kelib shunday deydi: «Sen ertaga barvaqt turib, kaddof (paxta tituvchi)lar bozoriga borgil. U yerda senga hikmat sirlaridan biri namoyon bo'ladi». Fisag'urs ertalab kaddoflar rastasiga boribdi va u yerda hech narsani tushunmay qaytib kelibdi. Mo'ysafid shu kuni kechasi tushiga yana kirib, kecha aytgan gapini takrorlabdi.

Fisag'urs uyg'onib, ikkinchi marta bozorga borganida, paxta tituvchilar yoyining ipidan chiqayotgan tovush uning diqqatini jalb etibdi. Fisag'ursning ko'ngliga bir fikr kelibdi va u yerda yotgan ot dumining tolasini olib, bir uchini tishlab, ikkinchi uchini qo'li bilan tortib turib chertgan ekan, mayin va yoqimli bir ovoz eshilibdi. Keyinchalik Fisag'urs qilni ipak ipga almashtiribdi. So'ng, shu ipni taqib chalinadigan torli cholg'u asbobi yaratish ustida mulohaza yurita boshlabdi.

Kunlarning birida Fisag'urs hakim tog' tomon yo'l olibdi. Tog'ning etagida kuchli shamol esib, qandaydir hushtak ovozi eshilibdi. U yoq bu yoqqa qarab, ichi kavak bo'lib, bo'shab qolgan toshbaqa kosasiga ko'zi tushibdi. Uning bosh, qo'l, oyoq, dumi chiqib turadigan teshiklaridan o'tayotgan shamol shunday tovush hosil qilayotganligini aniqlabdi. «Bir narsaga yarab qolar», deb uni yerdan olibdi.

Keyinroq toshbaqa kosasidagi eng katta teshika (tosh baqaning boshi chiqib turadigan yerga) dasta o'rnatibdi va unga ip taqib, chala boshlabdi. Bu tovush chiqaruvchi asbob dastlab juda sodda va oddiy bo'lgan ekan. Insonlar uni o'zaro «barbat» deya atay boshlashgan».

Fisag'ursdan keyingi davrlarda yashagan musiqachilar yoqimli ohang taratuvchi mazkur cholg'u (barbat)ni takomillashtirdilar va uning asosida 2-3-4torli musiqa cholg'ularini yaratdilar. Bundan tashqari, endilikda bizlar «dutor» deb biladigan cholg'uning mungli nolasini eshitib g'azabidan tushgan podshohlar haqida ko'plab rivoyatlar ham mavjud. Bularning hammasini dutorning xalq orasida keng tarqalgani, hayot bilan hamnafas bo'lganidan darak beradi, albatta.

XIX asrda tadqiqotchilar, o'lkashunos va etnograflar musiqa mahalliy aholining qon-qoniga singib ketganligini qayd qilib o'tadilar. Deyarli har bir o'zbek xonadonida dutor sozini ko'rish mumkinligi va u O'rta Osiyo xalqlarining eng sevimli cholg'u sozi ekanligini yozib, o'z kundaliklarida hamda ilmiy risolalarida bayon etganlar.

Dutor Markaziy Osiyoning o'zbek, tojik, turkman va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan cholg'ulardan biridir. O'lkamizning musiqa sozlari orasida dutor o'zining mayin, xonaki tovushi bilan alohida ajralib turadi. Ayni paytda bizning Respublikamizda dutor ijrochiligi to'rt asosiy lokal uslubga bo'linadi.

Bular: Xorazm, Samarqand-Buxoro, Qashqadaryo-Surxondaryo va Farg'ona-Toshkent uslublaridir. Bu uslublar ichida Xorazm va Farg'ona-Toshkent mahalliy yo'llari alohida ajralib turadi. Nafaqat folklor va klassik san'atida, balki ijrochilikda shu vohalar cholg'u sozining tuzilishi va ijro etilishida o'ziga xos xususiyatlar bilan bir-biridan farq qiladi.

Vohalar ijro uslublarining takomillashib borishi natijasida dutor ijrochiligida turli maktablar vujudga keldi. Bu ijro maktablari vohalarining o'ziga xos an'analari, shevalari va urf-odatlar bilan uyg'unlashib ketgan. Bu, avvalo, cholg'u sozi ko'rinishida gavdalandi.

Dutor turlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, tarixiy rivojlanish jarayonida turkman, tojik, uyg'ur, xorazm, o'zbek dutorlari shakllangan. Bular tuzilishi jihatidan unchalik farqlanmasa-da, har holda ko'rinishi, torlari bilan bir-biridan biroz ajralib turadi. Masalan, uyg'ur va tojik dutorlarining bir-biriga oxshashlik tomonlari shundaki, ularning kosasi turkman va xorazm dutoriga nisbatan birmuncha kattaroq bo'ladi.

Odatda turkman dutoriga metallardan yasalgan sim taqiladi. Tojik dutorlarini ayrimlari o'zbek dutoriga o'xshaydi. Ular kosasining o'rtacha hajmi bilan bir-biriga yaqin turadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonning o'zida ham dutorlar azaldan ikki xil yasalgan, ya'ni erkaklar dutori va ayollar uchun mo'ljallangan dutorlar. Erkaklar dutorining kosasi kattaroq, dastasi esa uzunroq bo'ladi.

Ayollar dutorlari aksincha, kosasi kichikroq va dastasi ham nisbatan qisqa, ayollarga yarashadigan va nozikroq qilib mohir soz ustalari tomonidan yasaladi. Vohalar va turli xalqlarga xos dutorlarning ko'rinishi ijro an'alariga ham ta'sir etishi muqarrardir. Shu nuqtayi nazardan biz o'zbek, turkman, xorazm dutor ijrochiligi maktablari shakllanishini ko'rishimiz mumkin. Dutor hatto yirik asarlarning yaratilishiga ham asos bo'lganligini qayd etish joizdir.

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan – O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga egadirlar. O'zbekiston hududida keng tarqalgan cholg'ular xususida to'xtaladigan bo'lsak, shulardan biri dutordir.

Uning juda qadimiylikidan darak beruvchi, Tuproq qal'a miloddan avvalgi IV-III asrlardan topilgan ikki torli cholg'ularning keyinchalik dutor, dombra va qo'biz shaklida takomillashganligini ko'rsatadi. Bu cholg'ular tut yoki o'rik yog'ochidan yasaladi.

Ular qovurg'ali o'yima dutor va o'yib ishlangan dutor bo'lgan. Qopqog'i esa tut yog'ochidan yupqa qilib ishlangan. Dutorlar tori sozlanishi bo'yicha kichik oktava «re» notasidan, katta oktava «so'l» yoki «lya», ba'zan esa qo'shtor qilib ham sozlanadi.

Bu cholg'u o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligida juda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, u yakka tarzda, jo'rsozlikdaz jo'rnovozlikda va ansambllarda o'z o'rniga ega.

Og'ir kuylar yakka tarzda ijro qilinganda dutor shunday bir mungli va sehrli ovozga egaki, insonning ruhini tinchlantiradi va ma'naviy oziqlantiradi. Agar, sho'xchan va tez quvnoq kuylar ijro qilinsa, tinglovchining qalbini quvontiradi va zavq bag'ishlaydi.

Dutor cholg'usi boshqa cholg'ularimizga qaraganda zarblar jihatidan ham keng imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ham xalq kuylari, maqomlarning qashqarcha, soqinoma, ufor kabi sho'xchan taronalari bu cholg'uda o'zgacha jarang topadi.

Jo'rnovozlikda «dutor» va «tanbur» cholg'ulari ijrosidagi kuylar bir biriga hamohangdir. Xususan, bu cholg'ularda ijro qilinadigan kuylar yoki ashulalar misolida ko'rishimiz mumkin. Bu cholg'ular bir birini shunday to'ldiradiki ulardan go'zal yangi bir ohang paydo bo'ladi.

Dutor cholg'usining yana bir muhim jihati shundaki, bu sozda yakka ijro qilinganda o'ng qo'ldagi zarblarning «usul beruvchi» vazifasini bajarishi aksariyat hollarda doirasiz yakka ijro qilinishiga sabab bo'ladi.

O'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligida keng tarqalgan ijro amaliyotida tanbur, rubob, dutor, g'ijjak, chang, nay, surnay, qonun, doira kabi har tomonlama takomillashgan cholg'u asboblari mavjud. Cholg'ularning takomillashuvi ularning ovozigacha, ovoz diapazoniga, shakllariga ta'sir ko'rsatgan.

Dutor cholg'usi manbalarda yozilishicha deyarli o'zgarmagan. Qadimda dutor cholg'usi asosan ayollar tomonidan ijro qilingan va ijro amaliyotida keng ommalashgan. Shu bois bo'lsa kerak, dutor sozining mayin va xonaki ovozga egaligi bizgacha o'zgarmastan yetib kelgan.

Dutor ijrochiligida zabardast ustozlar ko'p o'tgan. Hammalari ham musiqa madaniyatida benazir iz qoldirgan. Ular o'z ijrolari bilan el qalbidan joy olgan va kelajak avlodga ijro xazinalaridan meros qoldirishgan. Faxriddin Sodiqov, Turg'un Alimatov, Mahmud Yunusov, Zohidjon Obidov, Komiljon Jabborov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Nurmuhammad Boltaev, Orif Qosimov, G'ulomjon Qo'chqorov, Abdurahim Hamidov shular jumlasidandir.

Ulkan iste'dod egalari bo'lgan bu ustoz bastakorlar o'z ijodiy faoliyatlari bilan Borbad, Forobiy, Ibn Sino, Hoja Abdulqodir Marog'iy asos solgan o'zbek an'anaviy musiqa merosining nodir namunalarini targ'ib qilishdi va davom ettirishdi. Sir emaski, milliy musiqa merosi masalasiga yaqin-yaqinlargacha asosan g'arbiy musiqashunoslikda qabul qilingan talablar bilan yondashildi.

Shuningdek kompozitorlik ijodi uchun birdan bir xos bo'lgan sabablar umuman zamonaviy musiqiy ijodkorlikning shartli mezonlariga aylandi.



O'zbek milliy dutor cholg'usi.

REFERENCES

1. Iqbol Toshpo'latov. "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" (dutor) Toshkent-2018.
2. Ilyos Arabov. "An'anaviy cholg'u ijrochiligi (Dutor)" Toshkent-2018.
3. Malikaxon Ziyayeva. "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" (Dutor) Toshkent-2018.

SOG'LOMLASHTIRUVCHI MASHG'ULOTLARNING TURLARI VA SAMARADORLIGI.

Yarasheva Dilnoza

Asian International University Physical Education Department Lecturer

Email: yarashevadilnozaismoilqizi@oxu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10500960>

Annotatsiya. *Sog'lomlashtirish mashg'ulotlari o'zining mazmun mohiyati bilan sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati tarkibida vosita tarzida munosib o'ringa ega bo'lib, jamiyat a'zolarini organizimini kundalik hayotiy faoliyatiga tayyorlash, shu faoliyat uchun zaruriy biologik quvvatni yuzaga keltirish va ulardan aqliy, jismoniy mehnat jarayonida foydalanishni nazarda tutadi. Bu mashg'ulotlar inson hayotiy faoliyati davomidagi maqsadli mashg'ulotlardan farqlanadi.*

Shuning uchun ham sog'lomlashtirish mashg'ulotlarining vositalari va ulardan foydalanish nazariyasi va ularni amaliyotda qo'llaydigan vositalarni turkumlash, tizimga solish va amaliyotga tavsiya etish muhim.

Kalit so'zlar: *akrobatika rok-n-roll, yoga, asana, bouldring, gidroerobika, djaz gimnatika, disko-gimnastika, kanat (arg'amchi) tortish.*

TYPES AND EFFECTIVENESS OF FITNESS TRAINING.

Abstract. *With its essence, fitness training has a worthy place as a tool in the physical culture of a healthy lifestyle, preparing the body of society members for daily life activities, creating the necessary biological strength for this activity, and refers to their use in the process of mental and physical work. These trainings are different from targeted trainings during the life activity of a person.*

That is why it is important to categorize, systematize and recommend the theory of health training tools and their use and the tools that use them in practice.

Keywords: *acrobatics, rock-n-roll, yoga, asana, bouldering, hydro aerobics, jazz gymnastics, disco gymnastics, tug-of-war.*

ВИДЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФИТНЕС-ТРЕНИРОВОК.

Аннотация. *По своей сути оздоровительная тренировка занимает достойное место как средство физической культуры здорового образа жизни, подготавливающее организм членов общества к повседневной жизнедеятельности, создающее необходимые для этой деятельности биологические силы. в процессе умственной и физической работы. Эти тренинги отличаются от целевых тренингов в процессе жизнедеятельности человека.*

Вот почему важно классифицировать, систематизировать и рекомендовать теорию инструментов медицинского обучения, их использование, а также инструменты, которые используют их на практике.

Ключевые слова: *акробатика, рок-н-ролл, йога, асаны, боулдеринг, гидроаэробика, джазовая гимнастика, диско-гимнастика, перетягивание каната.*

Jismoniy barkamol avlod tarbiyasi va uning kamoloti, barqaror turmush tarzi madaniyati orqali yo'lga qo'yiladi. Unga asosiy mezon bo'lib individning salomatlik darajasi olinadi. Salomatlik esa inson jismining kamolotiga borib taqaladi va uning tamal toshini qo'yish biologik yoshining ilk davridan amalga oshiriladi.

Jamiyatimizning salomatligi, uzoq umr ko'rishi, uning jismi a'zolarining yuqori ishchanlikda faoliyat ko'rsatishi uning organizmini mashqlanganligi bilan bog'liq. Mashqlanish darajasi esa jamiyat a'zosi o'zi uchun dinamik striativga aylantirgan sog'lomlashtirish mashg'ulotlari jarayoni bilan bog'liq va bu muammo mustaqillik yillarida o'zining muhimligi bilan davlatimiz rahbariyati va hukumatimiz siyosatida ustivor yo'nalish bo'lib qolaveradi.

Qator kasalliklarni oldini olishda turli harakatlardan vosita sifatida foydalanish haqida Abu Ali ibn Sino o'z davridan boshlab ilmiy-nazariy tadqiqotlar, ayrim fikrlar hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki inson organizmini kasallanishini oldini olishda sog'lomlashtirishda jarayoni harakatlarsiz kechmasligi, ularni organizmga funksional ta'sir hozirgacha o'rganilmoqda.

Markaziy asab tizimiga jismoniy mashqlarni vosita sifatida sog'lomlashtirish ta'siri XIX asrdayoq o'rganib bo'lingan. Akademiklar I.M.Sechenov va I.A.Pavlovlar mushaklar ishlagan paytda miyaga keladigan impulslar bosh miya po'stloq qismida sodir bo'ladigan jarayonlarga katta ta'sir qilishini isbotlaganlar.

Sog'lomlashtirish mashg'ulotlarining vositalarini asosiy maqsadi muskullarni faol ishlatish bo'lib u o'ta muhim. Mashg'ulotlar orqali optimal jismoniy tarbiya vositalari orqali harakatlarni salomatlikka ijobiy ta'siri nimada ekanligiga Rossiya federatsiyasining akademigi Yu.I.Yevseev (2008) ning tadqiqotlari - "Ishlayotgan mushaklar, muskullar, impulslar potogini yuzaga keltirishi nazariyasi" bilan javob berdi. Bu impulslar shug'ullanuvchi organizmida modda almashinuvi, nerv tizimi va boshqa barcha organlar faoliyatini stimullashi, to'qimalarni esa kisloroddan foydalanish holatini yaxshilashi, vujudimizda ortiqcha yog' hosil bo'lishi va to'planishiga yo'l qo'ymasligi hamda organizmni tashqi muhitning zararli ta'sirlaridan himoyalanih xususiyatini kuchaytirishi mumkinligini aniqladi.

Organizmni o'sish davrida kuch-quvvatni oshib borishi, tananing rivoji (aqliy va ruhiy rivojlanishi), jismoniy barkamollikning zaminini tashkil qiladi. Sog'lom rivojlangan tanagina kundan-kun oshib borayotgan yangi ham aqliy ham jismoniy ilmlarni singdirish imkoniyatini yaratadi.

Sog'lomlashtirish mashg'ulotlari natijasida tanada faqat kuch ko'payibgina qolmay, uning fikrlash imkoniyatlari ham kengayadi. Jismoniy va aqliy kamolot nihoyasiz, chegarasiz bo'lib unga sekin yoki tez sur'at bag'ishlash har kishining intilishiga, mehnatsevarligiga, sabru-toqatiga, irodasiga bog'liq.

AKROBATIKA ROK-N-ROLL. Rok-n-roll raqsi sifatida mana 25 yildan ortiq vaqt davomida o'z muxlislariga ega. Avvaliga rok-n-roll raqs – monolog sifatida yuzaga kelib, hozirda uni guruh bo'lib o'yin (raqs)ga tushmoqdalar. Endilikda ayol va erkak texnikasi takomillashgan sari unga akrobatika elementlari qo'shilmogda va ommaviy sog'lomlashtirish sportiga aylanmogda. Rok-n-rollning o'zini halqaro uyushmasi bo'lib – Halqaro rok-n-roll federatsiyasi deb nomlandi. O'z tarkibida bu o'ttizdan ortiq ishtirokchi mamlakatlarni birlashtirgan. Yiliga 20 dan ortiq halqaro turnirlar, shular qatorida Jahon, Ovrupa chempionatlari, Jahon, Ovrupa kuboklari va boshqalar o'tkaziladi. Hozircha Rossiyada juda ommaviy tus olgan bo'lib, raqsning ayrim

elementlaridan sogʻlomlashtirish mashgʻulotlarida foydalanish mumkin.

Yoga – bu qadimgi hind taʼlimotlaridan biri. U hind halqining etik, ahloqiy, falsafiy, jismoniy qarashlarini oʻz ichiga oladi. Yoglarning barcha boʻlimlari ichida “XATXA-YOGA” hozirgi kunda koʻpchilik halqlar orasida ommaviy tus olgan, qiziqish uygʻotgan. Bu jismoniy jihatdan takomillashtirish qoidalarini oʻz ichiga olgan boʻlib, asosan nafasning ichki va tashqi gigenasiga, oʻz organizmning faoliyati – ishi ustidan vjud sohibining nazorati, kuzatuvini yoʻlga qoʻyishdir. Hatxa-yog nafas, jismoniy mashqlardan tashqari dinamik va Asana mashqlaridan ham vosita sifatida foydalanishni tavsiya qiladi.

ASANA – bu gavnani belgilangan holatda, oʻzgartirmay ushlab tura olish. Bunday holat u yoki bu organga, yohud organlar gruppasiga koʻproq taʼsir koʻrsatish maqsadida qoʻllanilmoqda.

Asana mashqlarining birinchi guruhigʻi bosh miya, orqa miya funksiyasini, xotira, koʻrish, eshitish, sezishni yaxshilashga, hazm qilish apparati, qalqonsimon bezlarning, boʻyin yelka muskullarini ishini normallashtiradi, miyani qon bilan taʼminlashini yaxshilaydigan holatlardir. Masalan oddiygina yelkada turish, yoki oyoqlarni osmonga koʻtarib bosh bilan turish oyoqlarni tepaga koʻtarib qoʻllarning kaftida turish holatlari shu guruh mashqlari sanaladi.

Asaning “ideal dam olish” deb nomlanadigan mashqiga yoglar katta ahamiyat beradilar.

Bu – oyoq – qoʻllar gavda boʻylab uzatilib, chalangancha yetgan holda butun gavnani boshdan oyoq boʻshashtirish mahoratidir.

Eng foydali Asana tarzida oʻrganishingizni tavsiya qilassiz.

Beysbol (ingliz tilida beys-baza, bol-toʻp). Oʻyin maydonda oʻtkaziladi, sektor tarzida boʻlib, ichida kvadrat shaklidagi tomonlarning uzunligi 27 m. 45 sm.li kvadrat metrli maydondan iborat. Kvadratning burchaklarida bazalar joylashgan, kvadratning ichiga doira chizilgan boʻlib oʻyinga toʻp oʻsha yerdan kiritiladi. Oʻyin ruslarning laptasini eslatadi, oʻyinchi toʻpni qaytaradigan soʻng bazalardan bazalarga yugurib oʻtabolaydi. Bir vaqtni oʻzida ikki jamoa vaqtni chegaralamay oʻyinda ishtirok etadi. Gʻolib jamoa deb toʻqqizta “inningda” (har bir inningda jamoalar bir marta xujumda oʻynasin, bir marta himoyada oʻynaydi) bazalar boʻyicha toʻliq yugurib oʻtishlarni koʻp bajargan jamoa eʼlon qilinadi, chunki, ularning ochkosi koʻp boʻladi. Oʻyinda durang natija boʻlmaydi. Hisob teng boʻlsa oʻyinchi, oʻnbirinchi inning oʻynaydi va gʻolib aniqlanguncha davom etadi. Beysbolni turli yoshdagilar oʻynayveradilar.

BOULDRING (boldring, boldering) – maksimal qiyinlikga ega boʻlgan (balandligi 1-3 m) qoya bloklariga tirmashib chiqish. .

GIDROEROBIKA - turli yoshdagilarni tayyorgarligini darajasini oshirish uchun samarali vosita tarzida suvda bajariladigan jismoniy mashqlarni bajarish. Mashgʻulotlarning tuzilishi, jismoniy yuklamalar meʼyorini belgilash, musiqasi, ritmik gimnastikanikiga oʻxshab ketadi. Lekin suvning qarshiligi xarakatlarni qiyinlashtiradi, uni yengil quriqlikda kuchni rivojlantirish uchun fodalanadigan mashqlardan samaraliroq va koʻproq mushaklarni qamrab oladi. Hidroaerobika vazinni yoʻqotish uchun eng yaxshi vosita. Suvda jismoniy mashqlar bilan tizimli shugʻullanish asab-yurak tomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi, ortiqcha qoʻzgʻoluvchanlikni pasaytiradi, yoʻqqa chiqaradi, uyqini yaxshilaydi, terini elastikligi va pishiqligini oshiradi. .

DJAZ GIMNATIKA. Oxirgi vaqtlarda djaz-gimnastikasini jismoniy tarbiya vositasi sifatida fodalanish kuchaygan sari uning ishqibozlari koʻpayib bormoqda. Bu yoʻnalishni kuchayishi taniqli Amerikalik raqqosa Aysedroga Dunkamning nomi bilan bogʻliq. U hozirgi zamon djaz sahna raqsining pioneri sanaladi. Uning sanaʼtini xususiy tomoni antik raqsni

yangitdan qayta tiklash qonuniyatlari asosida asosida raqsga “pantomima” (so‘zsiz, imo-ishoralar bilan gapirish) elementlarini kiritganligidadir. Bu o‘z navbatida turli formadagi raqs ritma-plastikasi gimnastikasi shakllanishiga ahamiyatli daraada ta’sir ko‘rsatadi.

Djaz-gimnastikaning xarakterli xususiyati, an’anaviy vositalaridan tashqari, unda djaz raqsi elementlaridan keng foydalaniladi, djaz musiqasi bilan birga keng rivojlanmoqda.

Djaz raqsi va uning musiqasini Amerikalik negrlar afrikaliklar raqslarining asosiy elementlari bilan yevropa raqslari harakatlarini birlashtirib yaratganlar. Raqslarning yevropa usuli raqqos yoki raqqosadan gavnani to‘g‘ri tutib, qorin pressi mushaklari va orqa muskullarini yuqori tonusda – oshirilgan tonusda ushahni talab qiladi. Bu xususiyatlar yevropa gimnastikasi uchun ham xarakterli. Afrikalik raqqoslar uni teskarisi ular raqsga mushaklarni o‘ta bo‘shashtirgan holatda tushadilar. Shunday tassavur yuzaga keladiki ularning harakatlari, bo‘shashtirilgan mushaklar, tana a‘zolaridan oqib chiqayotgandek, tana a‘zolarining blaklari bir biri bilan bog‘lanmagan, aloqador emasdek, ayrim holatarda turli xil tezlikda, boshqacharoq amplitudada xarakatlangandek ko‘rinadi.

Djaz – gimnastikasi harakat koordinatsiyasini a‘lo darajada rivojlantiradi, vujudi a‘zolarini boshqarish, mushaklarni bo‘shashtira olish (eng foydali malaka), hozirgi zamon raqslarini tez o‘zlashtirish va chiroyli raqsga tushishga o‘rgatadi. Eng muhim djaz –gimnastikasi bo‘g‘inlar, bog‘lovchilarni mustahkamlashning a‘lo darajadagi vositasi hisoblanali. Uni unday, yotoqxonalar, mahalla sport zallari, dam olish xonalarida turli yoshdagilar uchun tashkillash mumkin. . [64]

DISKO-GIMNASTIKA – asosida “doirada” aylanish – gardish (yumaloq) atrofila turli xildashi qadamlar bilan, oldinga, orqaga, yonga, sapchishlar, chalishtirma qadamlar, oddiy yurib, tezlab burilish, aylanishlar va boshqalar musiqa ritmi bilan birgalikda bajariladi.

Shug‘ullanuvchilar organizmiga ta’sir jihatidan biska-gimnastika quyidagi faol harakatlarning turlarini ta’siri bilan: “tursunoy” (djogging-yengil yugurush), soatiga 2,5-3 km tezlikda suzish, soatiga 20-25 km tezlikda velosipedda yurishdek mashqlar ta’siriga tenglashtiriladi. Disko-gimnastika semizlikdan qutilishning eng yaxshi vositasi ekanligi isbotlangan dalil.

KANAT (arg‘amchi) TORTISH – tashkillangan sport turi tarzida o‘tgan asrning 70-yillarida Angliyada yuzaga kelgan. 1900 yilda o‘tkazilgan Pirijs shahrida va 1912 yili Stokcholdta o‘tkazilgan Olimpiada dasturiga kiritilgan. 1963 yili Xalqaro federatsiya tashkillangandan so‘ng bu sport turi federatsiyasi faoliyatida yangi etab boshlanadi va jahonning 20 dan ortiq mamlakat unga a‘zo bo‘lib kiradi. Jamoa bir xil vaznda musobaqalashadi (jamoaning umumiy vazni 560 kg.gacha), yarim o‘rta vazn (640 kg.gacha), o‘rta vazn (680 kg.gacha), yarim og‘ir vazn (720 kg.gacha) va og‘ir vazn (800) kg.gacha. har bir jamoa 8 nafardan o‘yinchiga va jamoa kapitani, uning aynan o‘zi musobaqalarda ishtirok etmaydi va o‘z jamoadoshlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi. Kanat kamida 35 m. uzunlikda bo‘lishi lozim, aylanrasi 10 dan 12,5 sm hajmida bo‘lishi lozim. Koridor oxiriga oq bayroqcha, kanatning o‘rtasi belgilanadi, qizil bayroqchalar markazdan orqaga 2 m masofaga o‘rnatiladi, o‘sha chiziqdan raqib jaomasini a‘zolarini tortib qo‘lga kiritiladi.

Yerga yotib olib kanatni toritish man qilinadi. Bunday qoida buzish ogohlantiriladi, ogog‘lantirish uch martadan oshsa, jamoa o‘yindan chetlashtiriladi.

Ayollar faqat bitta toifasida – erkn, yoki ochiq, ya’ni vaznining chegarisi o‘rnatilmaydi.

Musobaqa paytida ayollar (qizlar)ga qo‘lqop kiyishga ruxsat beriladi

SKPAKIAKROU – qo‘l bilan o‘ynalmaydigan voleybol. Malaziya tilida “Oyoq bilan to‘p o‘ynash” deb nomlanadi, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan. O‘yinda 5 nafardan o‘yinchisi bilan ikki jamoa ishtirok etadi. O‘yin maydoni badminton korti o‘lchamicha teng (setkasi bilan). To‘p qo‘l bilan uni o‘yinga kiritayotgan jamoa o‘yinchisi oyog‘iga tashlab beriladi, uni qabul qiluvchi jamoa oyoi yoki boshi bilan qabul qiladi (qo‘l bilan faqat to‘pni o‘yinga kiritiladi xolos). So‘ng voleybol qoidasi bo‘yicha hisob yuritiladi, o‘z maydonida uchta uzatish qilish mumkin xolos. O‘yin Yevropa mamlakatlariga ham tarqalmoqda. Uni yoshu-qari, xatto qizla qiziqib o‘ynamoqdalar.

FITNES-AEROBIKA. Fitnesning ma‘nosi – ko‘pchilikning fikricha bu aerobika insonni jismoniy va mental salomatligiga olib boruvchi hayot tarzidir. Aerobika fitnesning bir qismi hisoblanadi. Hozirgi zamon aerobikasi yo‘nalishlarini turli hilligi bilan farqlanadi.

1. “Tana skulpturasi” – rezina lentalar bilan o‘yinga tushish mashg‘ulotlaridir.
2. “Kardiofank” – yurakni mustaxkamlash (moslama)lardagi maxsus mashg‘ulotlar.
3. “Step” – maxsus platforma (moslama)lardagi maxsus mashg‘ulotlar.
4. “AKVA” – suvda mashq qilish; Djasesayz – djaz ritmidagi raqslar.
5. «Kalanetika» - statik rejimda bajariladigan jismoniy mashqlar kompleksi. Mashqning uchdan bir qismi umurtqani cho‘zish, orqasiga qayrish, belning va oyoqning orqa qismidagi mushaklarni cho‘zish, tortishga bag‘ishlangan mashqlar.

Yuqorida qayd qilingan turli xildagi sog‘lomlashtirish trenerovkalari qatoriga oxirgi yillarda kelib qator *fitnes-yangilik* paydo bo‘ldi, ular;

1. **Pamp** – vazni 2 kg.dan 18 kilogrammcha bo‘lgan shtanga bilan kuch aerobikasi.
2. Mashq musiqa ritmi ostida to‘xtamasdan 45 min. davomida bajariladi. O‘yin elementlari komplekslar tarkibida mavjudligi istisno emas. Mashqlanish effekti bu aerobikada yuqori bo‘lishiga qaramay bunday mashg‘ulotlar faqat jismoniy tayyorgarligi yuqori sanalgan, hisoblanganlar uchungina ruxsat etiladi.

3. **Spining yoki saykl ribok** – bu moda amerikalik Djonni Goldberning ixtirosi bo‘lib velosipedda (siljmaydigan, o‘rnatilgan) turli xildagi dinamik rejim bilan mashq qilishni videofilm tomosha qilish bilan qo‘shib olib boriladi. Atigi 45 minut davomida, ruhingizni birdamlashtiruvchi musiqa sadosi ostida, ko‘kalamzorlar, soy, anhor bo‘yi bo‘ylab, past-balandli joylar, adirlik yoki sahro yoki cho‘lda “sayr” qilib yaxshigina terlab ortiqcha vazningizni pasaytirishingiz, qo‘l oyoqlar mushaklarini, qorin pressi, tos qisimingizni mustahkamlab olam-olam quvonch olishingiz mumkin.

Harakatni jadalligidan kelib chiqadigan oqibatlar haqida tushunchaga ega bo‘lish, taqlid qilib “men ham kam emasman” yo‘sinida kuchiga yarasha bo‘lmagan harakatga zaruriy tayyorgarliksiz o‘tmaslik; 2) bir xil ko‘rinishdagi mashqlarni turli xildagi dastlabki holatlarda turib bajarishni odatga aylantirish, mushak tolasini cho‘zilishi (izometrik), taranglashishi, statik qisqarish evaziga bajariladigan kuch sarflash harakatlarini farqlay olish; 3) jismoniy rivojlanganligi, jismoniy tayyorgarligiga oid o‘zgarishlarni nazoratini yo‘lga qo‘yish, ovqatlanishni ratsional tarkibi va me‘yoriga oid maxsus bilimlarga ega bo‘lish.

Xulosa va Tavsiyalar

Mashg‘ulotlarni eng sodda harakatlardan boshlab so‘ng murakkab harakatlarga o‘tish, keskin harakatlarni mashg‘ulotning o‘rtasida bajarish lozimligi qoidasiga rioya qilish, har bir harakat akti yoki harakat faoliyatining bajarish sur‘atini asta-sekinlik bilan oshirish; mashqlar,

harakatalarini bajarishda yuzaga keltiradigan yuklama me'yorini o'z ichki imkoniyatidan kelib chiqib tanlash (bilmasa mutaxassis maslahatini olish), harakatlar, mashqlarni muayyan malaka xosil bo'lgungacha bosqichma-bosqich o'zlashtirish va bajarishni odatga aylantirish;

Yuqorida qayd qilingan sog'lomlashtirish mashg'ulotlarining noan'anaviy shakllarining ayrimlari mamlakatimiz yoshlari orasida keng tarqalgan, lekin ayrimlarini turmush tarziga kirib borishi va sog'lomlashtirish mashg'ulotlari tarzida foydalanish uchun lozim bo'lgan nazariy, uslubiy, ayniqsa, moddiy resurslarga bog'liqligi bo'lib ular ma'lum darajadagi moliyaviy harajatlarni talab qiladi.

Harakatni jadalligidan kelib chiqadigan oqibatlar haqida tushunchaga ega bo'lish, taqlid qilib "men ham kam emasman" yo'sinida kuchiga yarasha bo'lmagan harakatga zaruriy tayyorgarliksiz o'tmaslik; bir xil ko'rinishdagi mashqlarni turli xildagi dastlabki holatlarda turib bajarishni odatga aylantirish, mushak tolasini cho'zilishi (izometrik), taranglashishi, statik qisqarish evaziga bajariladigan kuch sarflash harakatlarini farqlay olish; jismoniy rivojlanganligi, jismoniy tayyorgarligiga oid o'zgarishlarni nazoratini yo'lga qo'yish, ovqatlanishni ratsional tarkibi va me'yoriga oid maxsus bilimlarga ega bo'lish.

REFERENCES

1. Yarasheva Dilnoza. (2023). PHYSIOLOGICAL REACTIONS TO INTERNAL LOAD STUDY. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 47–56. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue12-07>
2. Yarasheva Dilnoza. (2023). SPORTS PEDAGOGY BASED ON PSYCHOMOTOR AND DEVELOPMENT THEORIES. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 26–41. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue12-05>
3. Yarasheva Dilnoza. (2023). SPORTS, CULTURE AND SOCIETY. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 152–163. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-17>
4. Yarasheva Dilnoza. (2023). FOCUS ON AEROBIC (LI) TYPE OF MOTOR ACTIVITY BASED ON FITNESS PROGRAMS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 81–90.
5. Yarasheva Dilnoza. (2023). METHODS OF ORGANIZING NON-TRADITIONAL FITNESS CLASSES. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 61–72. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-09>
6. Yarasheva Dilnoza Ismail Qizi. (2023). TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS IN SPORTS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(10), 105–116. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue10-16>
7. Yarashova, D. (2023). THE IMPACT OF PLAYING SPORTS IN EARLY CHILDHOOD ON SOCIAL DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 230–234. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24325>
8. Ярашева, Д. (2023, April). ФИТНЕС КАК ОЗДОРОВИТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 4, pp. 278-283).
9. Yarasheva, D. (2022). BOLALARDA MASHQ QILISHNING AHAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 19(1), 139-142.

10. Ярашева, Д. (2023). СТИЛИ ОРГАНИЗАЦИИ НЕТРАДИЦИОННЫХ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 19(5), 6-10.
11. Yarashova, D. (2023). STRENGTH TRAINING AND STRENGTH TRAINING IN CHILDREN. *Modern Science and Research*, 2(9), 211-215.
12. Azamat Orunbayev. (2023). APPROACHES, BEHAVIORAL CHARACTERISTICS, PRINCIPLES AND METHODS OF WORK OF COACHES AND MANAGERS IN SPORTS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 133–151. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-16>
13. Azamat Orunbayev. (2023). GLOBALIZATION AND SPORTS INDUSTRY. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 164–182. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-18>
14. Azamat Orunbayev. (2023). SOCIAL SPORTS MARKETING. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 121–134. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue12-17>
15. Azamat Orunbayev. (2023). RECOVERY STRATEGY IN SPORTS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 135–147. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue12-18>
16. Azamat Orunbayev, (2023) NONUSHTANĪNG MASHQ BAJARĪSHGA TA'SIRI. *International journal of scientific researchers* 2(2), 3-6.
17. Azamat Orunbayev. (2023). USING TECHNOLOGY IN A SPORTS ENVIRONMENT. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 39–49. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-07>
18. Azamat Orunbayev. (2023). FITNES VA SOG'LOMLASHTIRISH BO'YICHA MURABBIYLIK YO'NALISHIGA KONTSEPTUAL YONDASHUV. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(8), 23–28. Retrieved from <https://refocus.uz/index.php/1/article/view/431>
19. Azamat Orunbayev. (2023). PANDEMIYA DAVRIDA MOBIL SOG'LIQNI SAQLASH VA FITNES DASTURLARI (PROGRAM). *Research Focus International Scientific Journal*, 2(7), 37–42. Retrieved from <https://refocus.uz/index.php/1/article/view/414>
20. Saidova Mahbuba Ayubovna. (2023). Physical Education And Sports Training Are An Integral Part Of A Healthy Lifestyle. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 338–343. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/1564>
21. Ayubovna, S. M. (2023). Sportda murabbiylik faoliyatining psixologik tadqiqoti. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 344-352.
22. Ayubovna, S. M. (2023). Jismoniy tarbiya va sport mashg 'ulotlari sog 'lom turmush tarzining ajralmas qismidir. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 338-343.
23. Ayubovna, S. M. (2023). Harakat malakalarini shakllantirishning fiziologik asoslari va sport texnikasini o 'rgatish. *E'tiqod va madaniyatning kesishgan joylari: Amerika diniy va madaniyat tadqiqotlari jurnali (2993-2599)*, 1(9), 87-94.

24. Saidova Mahbuba Ayubovna. (2023). Physical attributes (capabilities) of development of the main legality. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 373–380. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/1712>
25. Saidova Mahbuba Ayubovna. (2023). Physical attributes (capabilities) of development of the main legality. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 373–380. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/1712>
26. Saidova Mahbuba Ayubovna. (2023). Psychological Research Of Coaching Activities In Sports. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 344–352. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/1565>
27. Saidova Mahbuba Ayubovna. (2023). Jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishi va jismoniy sifatning ko'chishi. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 379–393. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/tsru/article/view/3554>
28. Saidova Mahbuba Ayubovna. (2023). Physical downloads and the rest of fulfilling exercise mutual dependence. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 394–409. Retrieved from <https://universalpublishings.com/~nivertal/index.php/tsru/article/view/3556>
29. Hikmatullo Xayrullayevich Sayfiev. (2023). The Place of Gymnastics in A Person's Life and the Terms Used in Training. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 353–359. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/1566>
30. Hikmatullo Xayrullayevich. (2023). The Initial Exercise of Teaching Methodology to Gymnastics . *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 329–337. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/1563>
31. Sayfiyev Hikmatullo Xayrulloevich. (2023). Sport gimnastika mashg'ulotlarida asosiy harakat qobilyat (FMS), postural (muvozanat) nazorat va o'zini o'zi idrok etishga sport gimnastikasining ta'sir. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 74-81.
32. Sayfiev Hikmatullo Xayrullayevich. (2023). Acrobat exercise and sports gimnastika sessions through the power of development method. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 460–467. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/2218>
33. Sayfiev Hikmatullo Xayrullayevich. (2023). Methods and methods of teaching sports gymnastics in young boles. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 453–459. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/2217>
 13. Shopulotova Z. A., Zubaydilloeva Z. K., Khudoyarova D. R. COMORBID EVENTS IN PREGNANT WOMEN WITH PYELONEPHRITIS AND PREVENTION OF THESE CONDITIONS //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 35-38.
 14. Shopulotova Z. A., Zubaydilloeva Z. K. THE VALUE OF ULTRASOUND DIAGNOSTICS IN PREGNANT WOMEN WITH CHRONIC PYELONEPHRITIS //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 19-22.
 15. Shopulotova Z. A., Zubaydilloeva Z. K. PERINATAL CARDIOLOGY: PREGNANCY AND CONGENITAL HEART DEFECTS //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 9. – С. 55-59.
 16. Shopulotova Z. A. et al. PHENOMENA OF COMORBIDITY IN PREGNANT WOMEN WITH PYELONEPHRITIS.

17. Shamatov I., Shopulotova Z. ADVANNAGES OF PALATE LASER THERAPY IN COMPLEX TREATMENT OF LARINGITIS //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 9. – С. 104-107.
18. Shamatov I. Y. et al. COMPREHENSIVE AUDIOLOGICAL STUDIES SENSORY NEURAL HEARING LOSS OF NOISE GENESIS //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 128-132.
19. Shamatov I. Y., Shayqulov H. S. H., Shopulotova Z. A. O'RTA QULOQNING ZAMBURUG'LI ZARARLANISHLARI //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 425-427.
20. Shopulotova Z. A., Zubaydilloeva Z. K. PERINATAL CARDIOLOGY: PREGNANCY AND CONGENITAL HEART DEFECTS //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 9. – С. 55-59.

19-20-ASRLARDA QATAG'ON QURBONLARI

Qo'ldoshev Sheramat Baxriddin o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti tarix fakulteti
tarix va uni o'qitish metodikasi 205-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10512107>

Annotatsiya. Mazkur maqolada 19-20-asrlarda qatag'on qurboniga aylangan insonlarning taqdiri va qatag'on qilinish sabablari atroflicha ochib berilgan. Maqolada ilmiy faktlar rasmlar asosida mustahkamlangan. Maqola so'nggida xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: qatag'on qurboniga aylangan insonlarning taqdiri, qatag'on qilinish sabablari, to'rt milliondan ortiq odam.

VICTIMS OF REPRESSION IN THE 19TH AND 20TH CENTURIES

Abstract. In this article, the fate of people who became victims of repression in the 19th and 20th centuries and the reasons for repression are revealed in detail. In the article, scientific facts are reinforced on the basis of pictures. Conclusions and suggestions are given at the end of the article.

Key words: fate of people who became victims of repression, reasons for repression, more than four million people.

ЖЕРТВЫ РЕПРЕССИЙ XIX И XX ВЕКОВ

Аннотация. В данной статье подробно раскрываются судьбы людей, ставших жертвами репрессий в XIX и XX веках, и причины репрессий. В статье научные факты подкреплены на основе фотографий. Выводы и предложения приведены в конце статьи.

Ключевые слова: судьбы людей, ставших жертвами репрессий, причины репрессий, более четырех миллионов человек.

Sobiq Sovet Ittifoqi yillarida turli siyosiy, ijtimoiy, g'oyaviy, diniy sabablarga ko'ra millionlab odamlar qatag'onga duchor bo'ldi. Qatag'on siyosatining qurbonlari haqida haligacha aniq ma'lumotlar mavjud emas. Saqlanib qolgan mavjud faktlar shuni ko'rsatadiki, 1921–1953-yillar orasida to'rt milliondan ortiq odam qatag'on qurboniga aylangan. Ulardan 800 ming kishi o'lim jazosiga hukm etilgan.

Sovet Ittifoqida qatag'onlar to'liqini uch davrga to'g'ri keladi. Birinchi bosqich 1920-yillarni, ikkinchi bosqich 1937–1938-yillarni, uchinchi bosqich 1950–1953-yillarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, urush davrida va undan keyin urush qatnashchilari ham qatag'onga uchrab turli muddatlarga ozodlik mahrum etiladi.

Qatag'on siyosatining eng yuqori cho'qqiga chiqqan nuqtasi 1937–1938-yillarga to'g'ri keladi. Shu yillar mobaynida 1,3 million kishi RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi, "aksilingilobiy faoliyat" ayblovi bo'yicha hibsga olingan. Hibsga olinganlarning yarmi o'lim jazosiga hukm etilgan. Qatag'onlar aholining deyarli barcha tabaqasi vakillarini qamrab olgan edi. Dehqonlar, ziyolilar, boylar, dindorlar, siyosiy elita qatlami vakilari eng ko'p jabr ko'rgan qatlam edi.

SSSRdagi dastlabki qatag'onlar "Qizil terror" deya nomlandi. Ushbu terror 1917-yilgi oktyabr inqilobidan keyin boshlandi va 1922-yilgacha davom etdi. Ushbu qatag'onlar paytida asosan bolsheviklarning siyosiy dushmanlariga qaratilgan bo'lsa-da, ularning siyosatiga xayrixohlik bildirmagan oddiy odamlar ham bundan chetda qolmadi. Bundan tashqari,

qatag'onlarga ijtimoiy tus ham berildi va sobiq politsiya zobitlari, jandarmlar, podshoh hokimiyati siyosatchilari, dindorlar, yer egalari va ishlab chiqaruvchilarni ham qamrab oldi.

Qizil terrordan keyin siyosiy qatag'onlar davom ettirildi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, 20-yillardagi siyosiy ishlar asosan soxta ayblovlar orqali amalga oshirilgan. Litseychilar ishi, fokstrotistlar ishi, shaxta ishi kabi jinoiy ishlar shu yillarda amalga oshirilgan edi. 1922-yil sentyabr-noyabr oylarida RSFSRdan "falsafa paroxodi"da juda ko'plab ziyoli qatlam chiqarib yuborildi ("Ochistim Rossiyu nadolgo..." Repressii protiv inakomislyashix. Konets 1921 — nachalo 1923 g., M.: Mejdunarodniy fond "Demokratiya", 2008). SSSR mavjudligining 15 yili mobaynida (1923–1938) 900 nafar fotograf qatag'on qurboniga aylangan bo'lsa, ularning yarmidan ko'pi otib tashlandi.

SSSRda Stalin shaxsiyatining mustahkamlanishi bilan qatag'onlar ommaviy tus oldi. Ayniqsa, 1937–1938-yillarda ular yuqori cho'qqisiga chiqdi. Shu yillarda yuz minglab odamlar otib tashlandi va GULAGlarga yuborildi. Ushbu qatag'onlar asosan siyosiy motivlarga asoslangan edi. Bu davrdagi qatag'onlar deyarli Stalin vafotiga qadar davom etdi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, SSSRdagi qatag'on qurbonlari soni bo'yicha aniq statistika mavjud emas. Bu borada tarixchilar turli fikrlarni bildiradi. Jumladan, tarixchilar N.G Oxotina va A.B Boginskiylarning fikriga ko'ra, 1921–1953-yillarda faqatgina xavfsizlik organlari tomonidan hibsga olinib, siyosiy ayblovlar bilan sudlangan yoki sudsiz hukm qilinganlar soni 5,5 million kishini tashkil qiladi.

Agar bolshevizm qurbonlari safiga turli deportatsiya qilinganlar, sun'iy ochlik qurbonlari, uyushtirilgan mojarolar paytida vafot etganlar, kommunist nomi ostida turli urushlarda vafot etgan askarlar, ota-onasi ochlikdan va qatag'on oqibatida vafot etgan tug'ilmagan chaqaloqlar ham qo'shilsa, unda tuzum qurbonlari soni 100 millionga yaqinlashadi (N.G. Oxotin, A.B. Roginskiy. O masshtabe politicheskix repressiy v SSSR pri Staline: 1921—1953). Tarixchi V.N Zemskov



o'zining "GULAG" nomli maqolasida SSSRda 1921–1953-yillarda faqatgina siyosiy motivlar bilan, ya'ni aksilinqilobiy faoliyat uchun jazoga tortilganlar soni 3,3 million kishi ekanini keltiradi.

Anatoliy Vishnevskiy ma'lumotlariga ko'ra, 1920-yillar oxiridan 1953-yilgacha bo'lgan davrdagi turli muddatga ozodlikdan mahrum etilgan yoki ozodligi cheklangan qatag'on qurbonlarining soni 25–30 millionni tashkil qiladi. Ko'rinib turganidek, qatag'on qurbonlarining aniq soni haqida bir xil qarash mavjud emas. Rasmiy statistika esa doim ham obyektiv bo'lavermaydi.

O'zbekistondagi qatag'on qurbonlari

Butun SSSRda amalga oshirilgan siyosiy qatag'onlar O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. O'zbekistonda siyosiy qatag'on asosan respublikaning siyosiy arboblari va ziyolilar qatlamini qamrab oldi.

Oktyabr to'ntarishi oqibatida Turkistonda zo'rlik bilan o'rnatilgan mustamlakachi sovetlar tuzumi birinchi kundan boshlab xalqimiz boshiga son-sanoqsiz qirg'inlar, dahshatli va alamlil kulfatlar olib keldi. Bu dahshatli rejimni o'lkamiz xalqlari qabul qilmadi. Ular istiqlool uchun, erk va milliy-ozodlik uchun 16 yil mobaynida qurolli kurash olib bordi. Bu kurash davomida ayrim xorijdagi tarixchilar hisobicha bir million 900 ming vatandoshimiz Turkistondan bosh olib, xorijiy mamlakatlarga chiqib ketdi va bir million 700 ming yurtdoshimiz Sibirga, uzoq shimolga, Ukrainaga, Shimoliy Kavkazga, Uralga, Qozog'istonga, uzoq sharqqa, Kavkazga, Volgabo'yi rayonlariga badarg'a qilindi.



O'zbekistonda 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha o'n ming yetti yuz kishi qamoqqa olingan. Bulardan uch ming olti yuz o'n uch kishi qatl etildi, yetti ming sakson yetti kishi sakkiz-o'n yil muddatga qamoqqa tashlandi. O'sha yillari aholining barcha qatlamlari qatag'on girdobiga tushgan. Qatag'on, avvalo, ziyolilar, din xizmatchilariga qarshi qaratilgan edi.

Faqat 1937-yil dekabr oyida "uchlik" qarori bilan hukm qilingan uch ming olti yuz qirq to'rt kishidan bir ming to'rt yuz oltmish to'rt nafari imom, eshon, mulla va boshqa diniy xizmatchi bo'lgan. 1938-yilning fevralida "uchlik" yig'ilishlarida 2 491 mahbus ustidan hukm chiqarilgan,

shundan 2 086 mahbus otuvga, 398 mahbus o'n yil muddatga, ikki mahbus sakkiz yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. To'rt mahbus tergov vaqtida vafot etgan, bir kishigina ozod etilgan.

O'zbekiston siyosiy elitasini obro'sizlantirish maqsadida bir qator guruhlar o'ylab topildi. Jumladan, qosimovchilar, inog'omovchilar, 18 lar guruhi kabilar aynan siyosiy elita va rahbar xodimlarga qarshi uyushtirilgan jinoiy ishlar sirasiga kiradi. Respublikaning taniqli arboblardan iborat "18 lar guruhi" (I. Xidiraliyev, M. Saidjonov, U. Ashurov, R. Rahimboboyev, Eshonov) ga "yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy-quloq va yer egalarning manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliylik va millatchilik g'oyalarini ilgari surgan" degan soxta aybnoma qo'yildi. Shu bois rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralanadi va uning a'zolari turli jazolarga giriftor etildi.

"Inog'omovchilik" guruhi to'g'risida gap borganda unga qo'yilgan barcha ayblarning to'liq to'qib chiqarilgani ayon bo'ladi. Ma'lumki, Rahim Inog'omov O'zKP Markazqo'mi Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif Xalq Komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston kompartiyasining mustaqil faoliyat yurita olmayotganiga, Markaz organlarining o'lka hayotidagi zo'ravonligiga ham alohida urg'u bergan.

Respublikaning bir qator mas'ul xodimlaridan N. Mavlonbekov, T. Isamuhammedov, M. Aliyev, Bobonazarov singari hammaslklar Inog'omov qarashlarini qo'llab-quvvatlab chiqqandi. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu bois, 1926–1927-yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, og'machi guruhbozlikda ayblandi. Inog'omov tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi.

"Qosimovchilik" guruhi ham 1929–1930-yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma edi. O'z SSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlagan S.Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari: N.Alimov, Musaboyev, Sharipov, Sirojiddinov va boshqa jami yetti kishi 1929-yilning 2-yarmida "bosmachilik" harakatiga yon berganlikda ayblanib qamoqqa olindi. Ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda ayblandi. Bu guruhning to'rtta a'zosi shunday asossiz ayblanib, otib tashlandi. Qolganlari esa ko'p yillik qamoq jazosiga hukm qilindi.

1937–1938-yillar davomida O'zbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar tuzilgan, faoliyat yuritmoqda, degan soxta ma'lumotlar to'plandi. Mana shunday soxta ma'lumotlar asosida respublika rahbarlari A. Ikromov va F. Xo'jayev boshchiligidagi "Burjua – millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi", Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan "Musulmon ruhoniylarning millatchi-isyonkor tashkiloti", "Aksilinqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi", "Buxoro va Turkiston baxt-saodati" nomli aksilinqilobiy tashkiloti, I.Ortiqov boshliq "Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti", "Ingliz josuslik rezidenturasi", "Yapon josuslik-qo'poruvchilik rezidenturasi" kabi tashkilotlar sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritmoqda, deb e'lon qilindi, ularni tuzishda gumon qilinganlar qatag'on qilindi.

Eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublikada umuman bo'lmaganini to'la tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar qatag'on tuzumi buyurtmasi asosida Markaz va uning jazo organlari tomonidan atayin to'qib chiqarilgan va hayotga izchil tatbiq etilgan. Buning orqasida ming-minglab begunoh insonlar shafqatsiz jazolangan, umrlari xazon bo'lgan. XX asr

boshidan 40-yillargacha 450 ming vatandoshlarimizga nisbatan “jinoiy ish” ochilgani, ularning hayoti ostin-ustun bo‘lib ketgani faktidir.

Faqat 1937–1939- yillarda O‘zbekistonda hammasi bo‘lib 43 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan olti ming 920 nafari otib tashlangan. 37 ming nafari esa turli muddatga qamoq va surgunlarga hukm etilgan. XX asrning 20–40-yillarida Cho‘lpon, Fitrat, Botu, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Otajon Hoshim, Abdulla Alvoniy, Munavvar Qori, Elbek, Rafiq Mo‘min singari bir-biridan iste’dodli adiblar ma’rifat targ‘ibotchilarini ham qatag‘on to‘lqini o‘ziga tortdi. Shuningdek, o‘zbek romanchilarining otasi Abdulla Qodiriy, talantli yozuvchi Oybek, Shuhrat, Mirzakalon Ismoilov, Said Ahmad, Shukurullo “Xalq dushmani” deb e‘lon qilindi. Ularning asarlari man qilinib, o‘zlari qamoqqa olinib, stalincha lagerlarga jo‘natildi.

Bundan tashqari, chet elda bo‘lib kelgan bir qancha ziyolilarimiz Sattor Jabbor, Solih Muhammad, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova va boshqalar ham asossiz qatag‘on siyosatining qurboni bo‘ldi. Ularning ko‘plari shu siyosatdan bezib, chet ellarda qolib ketdi.

1990-yilgi farmonning ahamiyati

Qatag‘on qurbonlarining xotirasini va haq-huquqlarini tiklash ishlari Stalin vafot etganidan so‘ng Nikita Xrushev tomonidan boshlab berildi. Ammo 60-yillar o‘rtalariga kelib to‘xtab qoldi. Shu sababdan 1990-yil 13-avgust kuni SSSR prezidenti Mixail Gorbachev “20–50-yillardagi barcha siyosiy qatag‘on qurbonlarining huquqlarini tiklash to‘g‘risida” farmonni imzoladi. SSSR tarqalib ketish arafasida imzolangan mazkur farmonning tarixiy ahamiyati nimadan iborat? Unda qanay turdagi qurbonlar haq-huquqlari haqida gap ketgan?

Nikolay Troitskiyning fikricha, bu qaror faqatgina ramziy xarakterga ega bo‘lib, Gorbachevga boshida unga ishongan va 1990-yil yoziga kelib unga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatiga tushib qolgan qayta qurish ziyolilari oldidagi o‘z obro‘sinini tiklash uchun kerak edi. Aslida, 80-yillarda qatag‘on qurbonlarining aksariyatining haq-huquqlari tiklanib bo‘lgan edi, ushbu farmon esa ularga moddiy va ma’naviy kompensatsiya to‘lashni va bir qator imtiyozlarni berishni ko‘zda tutar edi. Ammo bunday kompensatsiya to‘lashning imkoni darhol bo‘lmadi. Yana bir qator qonunosti hujjatlari ham talab etilardiki, bular SSSR tarqalganidan keyingi tashkil etilgan Respublikalar rahbarlari tomonidan amalga oshirildi.

Moddiy kompensatsiya o‘z yo‘liga. Ammo hujjatning muhim bo‘lgan siyosiy-tarixiy ahamiyatini ham aytib o‘tish kerak. Tarixda ilk bor davlatning eng yuqori mansabdor shaxsi tomonidan shu davlat tomonidan amalga oshirilgan adolatsizliklarning tan olinishi edi bu. Bundan tashqari, farmon imzolangan paytda prezident Gorbachev hamon KPSS MQ bosh kotibi, qatag‘onlarni amalga oshirgan Stalinning to‘g‘ridan to‘g‘ri vorisi edi.

Gorbachev farmonida 60-yillardagi Xrushev tomonidan amalga oshirilgan qatag‘on qurbonlari rehabilitatsiyasini yetarli emas deb hisoblashini ham aytib o‘tadi. Ushbu farmon orqali u boshlangan ishni oxiriga yetkazib qo‘yishi lozim edi. U qurbonlar haq-huquqlarini tiklash borasida muhim qadamni qo‘ydi. Hujjatda eng muhim punkt quyidagicha edi:

“Insonning asosiy fuqarolik va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga zid ravishda, kollektivlashtirish davrida dehqonlarga, shuningdek, boshqa barcha fuqarolarga nisbatan 1920–1950-yillarda siyosiy, ijtimoiy, milliy, diniy va boshqa sabablarga ko‘ra amalga oshirilgan qatag‘onlar noqonuniy deb tan olinsin va ushbu fuqarolarning huquqlari to‘liq tiklansin”.

Hujjatda, shuningdek, ushbu farmon “Ulug‘ Vatan urushi yillarida, urushdan oldingi va urushdan keyingi yillarda Vatanga va sovet xalqiga qarshi jinoyatlarda ayblangan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmasligi” ham belgilab qo‘yildi.

Gorbachevning SSSR tarixida tutgan o‘rni qanday bo‘lishi, undan keyingi Respublikalarda ushbu hujjatning ijrosi qay darajada amalga oshirilganidan qat’iy nazar u shu birgina harakati tufayli tarix oldida o‘z o‘rnini belgilab bergan desak, adashmagan bo‘lamiz.

REFERENCES

1. Istoriya Uzbekistana. T., str. 32.
2. Yo‘ldoshxo‘jaev H., Qayumova I., O‘zbekiston ulamolari. T., 2015. B. 24.
3. O‘zbekiston musulmonlari idorasi. T., “Movarounnahr”, 2014. B.10.
4. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkinchi kitob. T., “O‘zbekiston” 2019. B.335.

**ТРЕБОВАНИЯ К ФУНКЦИОНАЛЬНЫМ РАЗМЕРАМ СТОЛОВ И СТУЛЬЕВ,
ПРЕДНАЗНАЧЕННЫХ ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В ОБЩИХ
СРЕДНИХ, СРЕДНИХ СПЕЦИАЛЬНЫХ, ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

Ражабов А.Н.

д.ф.т.н. (PhD). Академия труда и социальных отношений.

email: rajabov2310@gmail.com

Миррахимова Н.О.

Магистрант. Ташкентский химико-технологический институт.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10512305>

Аннотация. В данной статье описаны требования к функциональным размерам столов и стульев, предназначенных для организации учебного процесса в учреждениях высшего, среднего специального и профессионального образования.

Ключевые слова: Стол, стуль, высота сиденья, углы сиденья, эффективная глубина сиденья, функциональные размеры.

**REQUIREMENTS FOR THE FUNCTIONAL SIZES OF TABLES AND CHAIRS
INTENDED FOR ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN GENERAL
SECONDARY, SECONDARY SPECIAL, PROFESSIONAL EDUCATIONAL
INSTITUTIONS.**

Abstract. This article describes the requirements for the functional dimensions of tables and chairs intended for organizing the educational process in institutions of higher, secondary special and vocational education.

Keywords: table, stools, seats height, seat corners, effective depth of the seat, functional dimensions.

Столы и стулья, предназначенные для организации учебного процесса в общих средних, средних специальных, профессиональных образовательных учреждениях, подразделяются на шесть ростовых групп и соответствующее им количество ростовых номеров мебели от 1 до 6 в соответствии с таблицей № 1.

Таблица № 1.

Подразделение ученических столов и стульев на ростовые группы и соответствующее им количество ростовых номеров.

Группа роста, мм	Средний рост, мм	Ростовые номера столов и стульев	Цвет маркировки
Свыше 1000 до 1150	1050	1	Оранжевый
Свыше 1150 до 1300	1200	2	Фиолетовый
Свыше 1300 до 1450	1350	3	Желтый
Свыше 1450 до 1600	1500	4	Красный
Свыше 1600 до 1750	1650	5	Зеленый
Свыше 1750	1800	6	Голубой

Ученические столы должны изготавливаться одноместными или двухместными двух типов:

- I — столы с постоянными параметрами;
II — столы с регулируемыми параметрами.


Функциональные размеры ученических столов должны соответствовать требованиям, указанным в таблице № 2.

Таблица № 2

Требования к функциональным размерам ученических столов

Наименование функциональных размеров ученических столов согласно рисунку 3.	Ростовые номера и размеры ученических столов, мм					
	1	2	3	4	5	6
Высота рабочей плоскости h_1	460	520	580	640	700	760
Расстояние от пола до нижней кромки элементов, выступающих под крышкой стола у ее края (высота пространства для ног), h_2 , не менее	350	410	470	530	590	650
Расстояние от пола до элементов, выступающих над коленями (высота пространства для ног, согнутых в коленях), h_3 , не менее	350	350	400	400	450	500
Расстояние от пола до элементов, выступающих над стопой сидящего (высота пространства для вытянутых ног), h_4 , не менее	250	250	300	300	350	350
Ширина рабочей плоскости, t_1 , не менее	450	500	500	500	500	500
Расстояние от края стола со стороны сидящего до элементов, выступающих перед его коленями (глубина пространства для ног), t_2 , не менее	300	300	300	350	400	400
Расстояние от края стола со стороны сидящего до элементов, выступающих над его стопой (глубина пространства для ног при сиденье с вытянутыми ногами), t_3 , не менее	400			450		
Длина рабочей плоскости, b_1 , не менее: одноместный стол двухместный стол	600 1200			700 1300		
Расстояние между опорными элементами стола на одно место (ширина пространства для ног), b_2 , не менее	420			450		

Рисунок 1



Крышка ученического стола должна быть горизонтальной или иметь приспособления для установки ее горизонтально и под углом от 7 градуса до 16 градусов. При переводе крышки в наклонное положение высота края стола, обращенного к ученику, не должна уменьшаться более чем на 10 мм.

При наличии в ученических столах полки высота ниши должна быть не менее 60 мм.

Столы типа II должны регулироваться по высоте:

вариант 1 — на шесть ростовых номеров 1 — 6;

вариант 2 — на три ростовых номера 1 — 3 и 4 — 6.

Высота рабочей плоскости h_1 и расстояние от пола до нижней кромки элементов, выступающих под крышкой стола у ее края (высота пространства для ног) h_2 должна изменяться в соответствии с таблицей № 5. Остальные размеры столов должны соответствовать требованиям:

в столах ростовыми номерами 1 — 6 и 4 — 6 — размерами для ростового номера 6 таблицы № 5;

в столах ростовыми номерами 1 — 3 — размерами для ростового номера 3 таблицы № 5.

В ученических столах с крышками, устанавливаемыми в двух положениях — горизонтальном и наклонном, должны быть углубления для ручек и карандаша размером не менее 220x20x5 мм.

Расстояние от кромки крышки со стороны сидящего до углубления должно быть не менее 380 мм.

Ученические столы с горизонтальными крышками допускается изготавливать без углублений для ручки и карандаша.

Степень блеска рабочих поверхностей ученического стола должна быть не выше 49%.

Углы крышек ученического стола должны быть притуплены (зашлифованы) или иметь в плане скругление радиусом 10 — 30 мм.

Ученические стулья должны изготавливаться двух типов:

I — стулья с постоянными параметрами;

II — стулья с регулируемыми параметрами.

Функциональные размеры ученических стульев должны соответствовать требованиям, указанным в таблице № 6.

Таблица № 3.


Требования к функциональным размерам ученических стульев

Наименование функциональных размеров ученических стульев согласно рисунку 4.	Ростовые номера и размеры ученических стульев, мм					
	1	2	3	4	5	6
Высота сиденья, h_5	260	300	340	380	420	460
Эффективная глубина сиденья* (допустимое отклонение минус 20) t_4	260	290	330	360	380	400
Ширина сиденья, b_3 не менее	250	270	290	320	340	360
Высота линии перегиба спинки w , не более	160	170	190	200	210	220
Высота нижнего края спинки над сиденьем h_6	120	130	150	160	170	190
Высота верхнего края спинки над сиденьем h_7 , не более	250	280	310	330	360	400
Ширина спинки b_4 , не менее	250	250	250	280	300	320
Радиус изгиба переднего края сиденья, r_1	20 — 50					
Радиус спинки в плане r_2 , не менее**	300					
Угол наклона сиденья d , в градусах	0 — 4					
Угол наклона спинки β , в градусах	95 — 106					

Примечания: эффективная глубина сиденья — размер по горизонтали от передней кромки сиденья до наиболее выпуклой части спинки, измеряемый по оси стула и соответствующий минимальной глубине сиденья.

Допускается прямая спинка, не имеющая радиуса в плане.

Рисунок 2



Высота сиденья h_5 в ученических стульях типа II должна регулироваться на три ростовых номера: 1 — 3 и 4 — 6.

В ученических стульях ростовыми номерами 1 — 3 ширина сиденья b_3 , ширина спинки b_4 должны соответствовать нормам для ростового номера 3, остальные размеры — нормам для ростового номера 2. В ученических стульях ростовыми номерами 4 — 6 ширина сиденья b_3 и ширина спинки b_4 должны соответствовать нормам для ростового номера 6, остальные размеры — нормам для ростового номера 5.

Поверхность сиденья может быть плоской или иметь углубление. Углубление должно быть не более 10 мм и должно занимать задние 2/3 глубины сиденья. Самая

глубокая часть должна приходиться на точку, расположенную от передней кромки сиденья на 3/4 его глубины.

Расстояние от пола до передней царги или проножки должно быть не менее 0,7 высоты сиденья ученического стула.

Углы сиденья и спинки ученического стула должны быть притуплены (зашлифованы) или иметь в плане скругление радиусом 13 — 30 мм.

REFERENCES

1. Rajabov A.N., Barakayev N.R., Bahodirov G., Rajabov B.N. Kombinatsion separatorning tajriba-sinov namunasini yaratishning ilmiy asoslari // Kompozitsion materiallar ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali. № 1/2018. 77-80 b. (02.00.00.№4)
2. Ражабов А.Н., Баракаев Н.Р., Баходиров Ф., Ражабов Б.Н. Механические свойства местных сортов зерна для применения в составе композиции и методы их определения. // Композицион материаллар илмий-техникавий ва амалий журнали. № 1/2019. 84-88 б. (02.00.00.№4)
3. Ражабов А.Н., Баракаев Н.Р., Баходиров Ф., Ражабов Б.Н. Показатели качества зерна местных сортов пшеницы и совершенствование процесса их очистки и фракционирования. // Фан ва технологиялар тараққиёти илмий – техникавий журнал. № 2/2019. 16-20 б. (02.00.00.№14)
4. Ражабов А.Н., Баракаев Н.Р., Признаки качества местных сортов зерна и методы их определения. // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси 2019 № 4. 99-103 б. (05.00.00.№18)
5. Rajabov A.N., Barakaev N.R., Kurbanov M.T. Kuzibekov S.K. Improvement of the design of mobile equipment for post-harvest processing of agricultural crops. // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 14, 2020 307-309 p. (Scopus)
6. Ражабов А.Н., Баракаев Н.Р., Ҳамроқулов Ф., Абдуллаев А.Ш. Влияние крупности зерна пшеницы на хлебопекарные свойства муки. // “Фан ва технологиялар тараққиёти” Илмий–техникавий журнал №5/2020. 139-143 б. (02.00.00.№14)
7. Rajabov A.N., Barakaev N.R., Hamroqulov G. Signs of quality of local grain varieties and methods of their determination. // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 Year: 2020 Issue: 11 346-351 p. (Scopus)
8. Ражабов А.Н., Баракаев Н.Р., Ҳамроқулов Ф., Абдуллаев А.Ш. Количество клейковины и массы фракционированного зерна. // “Фан ва технологиялар тараққиёти” Илмий–техникавий журнал №7/2020. 177-182 б. (02.00.00.№14)
9. Rajabov A.N., Hamroqulov G., Abdullayev A.SH. Qattiq va yumshoq bug‘doyni kimyoviy tarkibi asosida tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga xos kod raqamlarini tadqiq etish. // “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti” Ilmiy–texnikaviy jurnal №1/2021. 196-200 b. (02.00.00.№14)
10. Ражабов А.Н. Ҳамроқулов Г. Управление качеством продуктов переработки зерна и производимой из него продукции. // II Международной научно-практической конференции «Global science and innovations 2018: central asia» Астана–2018. 551-554 б.
11. Ражабов А.Н., Баракаев Н.Р., М.Т. Курбанов Исследование степени деформирования зерна пшеницы при статическом и динамическом сжатии. // IV международной

конференции «Качество зерна, муки и хлеба» Москва, 25 – 27 ноября 2019 г. Международная промышленная академия. 177-181.

12. Ражабов А.Н., Баракаев Н.Р. Совершенствование конструкции комбинированного сепаратора для очистки и фракционирования зерновых культур. // Международной Узбекско-Белорусской научно-технической конференции композиционные и металлополимерные материалы для различных отраслей промышленности и сельского хозяйства 21-22 мая 2020 г. 419-425 б.

KOSMETIKA MAHSULOTLARINI IDENTIFIKATSIYALASHNING ASOSIY MEZONLARINI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH.

Ziyodova Lobar Baxodir qizi

Toshkent kimyo texnologiya instituti. PhD, asisstent
lobarziyodova@gmail.com, 977129106.

Xamroqulov Mahmud G'ofurjonovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti. PhD, dotsent

Muhammedova Shohista

Toshkent kimyo texnologiya instituti, katta o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10523665>

Annotatsiya. Kosmetika mahsulotlarini ekspertiza qilish va sertifikatlash maqsadida o'tkaziladigan identifikatsiya katta amaliy ahamiyatga ega shu sababli kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalash uchun zarur identifikatsiya mezonlarini aniqlash muhimdir. Kosmetika mahsulotlarining o'ziga xos turlari uchun identifikatsiya mezonlari bir-birdan farq qiladi, bu har xil turdagi kosmetika mahsulotlarining maqsadi, tarkibi va funktsional xususiyatlari turli hilligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, identifikatsiya ko'rsatkichlari soni maqbul bo'lishi, ya'ni sifat ko'rsatkichlarining butun doirasi bo'yicha sinovlar o'tkazilmasligi kerak, chunki bu identifikatsiyani murakkablashtiradi, shuning uchun ular oqilona tanlangan va ekspert xulosasi uchun yetarli ma'lumotlarni yetkazib beradigan darajada bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: kosmetika mahsulotlari, identifikatsiyalash, identifikatsiya mezonlari, identifikatsiya usullari, identifikatsiya ko'rsatkichi, sertifikatlash, markirovka.

DETERMINING THE BASIC CRITERIA AND COST-EFFECTIVENESS OF IDENTIFICATION OF COSMETIC PRODUCTS.

Abstract. Identification carried out for the purpose of examination and certification of cosmetic products is of great practical importance, so it is important to determine the identification criteria necessary for the identification of cosmetic products. Identification criteria for specific types of cosmetic products differ from each other, which is determined by the variety of goals, composition and functional features of cosmetic products of various types. As you know, the number of identification indicators should be acceptable, that is, tests should not be carried out on a whole range of quality indicators, which complicates identification, so they should be reasonably selected and at a level that allows sufficient information to be provided for an expert opinion.

Keywords: cosmetic products, identification criteria, identification methods, identification index, certification, labeling.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОСНОВНЫХ КРИТЕРИЕВ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИДЕНТИФИКАЦИИ КОСМЕТИЧЕСКИХ ПРОДУКТОВ.

Аннотация. Идентификация, проводимая в целях экспертизы и сертификации косметической продукции, имеет большое практическое значение, поэтому важно определить критерии идентификации, необходимые для идентификации косметической продукции. Критерии идентификации для специфических видов косметической продукции отличаются друг от друга, что определяется разнообразием целей, состава и функциональных особенностей косметической продукции различных видов. Как известно, количество показателей идентификации должно быть приемлемым, то есть не должны

проводятся испытания по целому кругу показателей качества, что усложняет идентификацию, поэтому они должны быть разумно выбраны и на уровне, позволяющем предоставить достаточную информацию для экспертного заключения.

Ключевые слова: *косметические продукты, идентификационные критерии, методы идентификации, показатели идентификации, сертификация, маркировка.*

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, maqsadga qarab mezon va ko'rsatkichlar soni, shuningdek qo'llaniladigan vositalar va usullar har xil bo'ladi. Bu identifikatsiya paytida amalga oshirilgan ishlar hajmini aniqlaydi. Ishning tahlili va amaliy natijalarini hisobga olgan holda, biz kelajakda boshqa maqsadlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan, ikki turdagi faoliyatni identifikatsiyalash tartibini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: ekspertiza va sertifikatlash.

Identifikatsiyani amalga oshirishda mahsulot turiga qarab va maqsadga ko'ra dastlab identifikatsiya mezonlari aniqlanadi. Keyin tanlangan mezonlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositalarni aniqlanadi. Vositalarni ikki guruhga bo'lish mumkin: me'yoriy (texnik) va yuk hujjatlari (YuH). Identifikatsiya qilish uchun mos ko'rsatkichlar me'yorlarini va ularni aniqlash usullarini belgilaydigan normativ yoki texnik hujjatlarga muhim ahamiyat beriladi.

Identifikatsiya qilish uchun biz beshta usul guruhini aniqladik: analitik, ekspert, organoleptik, o'lchash va ekspress usullar, ularning qo'llanilishi tanlangan mezonlarga muvofiq belgilanadi.

Identifikatsiyaning har bir turi tegishli mezonlar bilan tavsiflanadi. Mezonlar orasida deyarli har doim identifikatsiya amalga oshirilishida inobatga olinadigan umumiy mezonlarni ajratish mumkin, masalan, mahsulot turi, nomi, ishlab chiqaruvchisi, YuHga muvofiqligi. Bundan tashqari, faqat ma'lum bir identifikatsiya turi uchun ishlatiladigan aniq mezonlar mavjud.

Eng muhim identifikatsiya mezoni kosmetika mahsulotining nomi. Nomiga (turiga) qarab mahsulotning me'yoriy hujjati, maqsadi, qo'llash usuli va saqlash shartlari aniqlanadi. Kosmetika mahsulotlarining nomenklaturasi juda xilma-xildir, yangi turlari doimiy ravishda paydo bo'ladi, shuning uchun hozirda barcha turdagi mahsulotlar uchun standartlar mavjud emas.

Bundan tashqari, kosmetika mahsulotlari murakkab va ko'pkomponentli tarkibga ega, shu sababli ba'zida mahsulotni u yoki bu turga bog'lash qiyin bo'ladi.

Nomi va asosiy funksional xususiyatlarga muvofiqligini aniqlash mahsulotning xususiyatlarini organoleptik o'rganishdan boshlanadi: rang, hid, ushbu maqsaddagi mahsulotning xarakteristikasi. Ba'zida mahsulot nomini to'g'ri aniqlash uchun faqat organoleptik xususiyatlar yetarli emas.

Misol uchun, shampunlarni vannalar uchun ko'pikdan yoki konditsionerlardan ajratish ko'pincha qiyin. Shuning uchun ushbu nomlarni yanada aniqlashtirishda mahsulotlarning belgilangan nomga muvofiqligini yanada ishonchli tasdiqlash yoki rad yetish imkonini beruvchi laboratoriya (o'lchash) tahlil usullari qo'llaniladi.

Shunday qilib, shampunlarni, vanna ko'piklarini va konditsionerlardan farqlash uchun kerak bo'lganda uchta ko'rsatkichni tanlash mumkin: pH, sirt faol moddalar tarkibi va ko'piklanish qobiliyati.



1-rasm. Nomi va turi bir hil ammo sifati soxtalashtirilgan tonal kremi (chap tomonda original, o'ng tomonda soxtalashtirilgan mahsulot)

Firmalar o'z mahsulotlarini ishlab chiqarishni boshqa ishlab chiqaruvchilarga ishonib topshirishlari mumkin, bu qabul qilingan amaliyot ham identifikatsiyani qiyinlashtiradi. Mahsulotlar uchun mas'ul bo'lgan va ishlab chiqaruvchi ro'yxatiga kiritilgan kompaniya mahsulot uchun javobgar hisoblanadi, garchi konteynerlar va hatto tovarlarning o'zini ishlab chiqarish uning nomidan boshqa korxonalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lsa ham.

Tovarlarni identifikatsiyalashning 3 ta bosqichi mavjud:

1. Dastlabki identifikatsiya- bunda mahsulot hujjatlari o'rganiladi, tahlil qilinadi, qadoqlari tekshiriladi, muvofiq va nomuvofiq xususiyatlari ajratilib, organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari baholanadi.
2. Yakuniy identifikatsiya- bunda sinov ma'lumotlari tahlil qilinadi va xulosa uchun to'liq tahlil ishlari amalga oshiriladi.
3. Muvofiqlik to'g'risida xulosa tuzish.

Identifikatsiyaning birinchi turi mahsulotlarni nomi va uning asosiy funksional xususiyatlari meyoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Mahalliy mahsulotlarning yorlig'ida ushbu mahsulot ishlab chiqariladigan GOST yoki boshqa standart ko'rsatiladi.

Mahsulotning muvofiqlik sertifikatini, yo'l varaqasi yoki schyot-faktura, invoys, shartnoma yoki kontrakt kabi yuk hujjatlariga muvofiqligini aniqlash ekspertiza, nazorat operatsiyalari va sertifikatlashtirish paytida, shuningdek savdo tashkilotlari tomonidan tovarlarni sotib olayotganda amalga oshiriladi.

Sifat identifikatsiyasini amalga oshirishda markirovkaning to'liqligi GOST talablariga muvofiqligi baholanadi. Kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalashning o'ziga xos xususiyati yorliqda ko'rsatilgan tarkibga muvofiqligini aniqlashdir. Ushbu mezon faqat kosmetika mahsulotlarini sertifikatlash maqsadida qo'llaniladi. Yuqori sifatli va xavfsiz parfyumeriya va kosmetika mahsulotini yaratishning eng muhim sharti uning tarkibini (formulasini) ishlab

chiqishdir. Normativ hujjatlarda, GOSTda, qoida tariqasida, asosiy moddalarning tarkibi normallashtiriladi. Masalan, suv, spirt, sirt faol moddalar va boshqalarning massa ulushi.

Kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalashda retsept tarkibi tahlil qilinadi, bu ishlab chiqaruvchi tomonidan kompozitsiyadagi ingredientlar miqdorini ko'rsatmasdan taqdim etiladi, ma'lum chegaralarda ruxsat etilganlar bundan mustasno. Ingredientlar ro'yxati lotin alifbosidagi harflar yordamida kosmetik ingredientlarning xalqaro nomenklaturasiga (MC1) muvofiq belgilanishi mumkin. Retsept tarkibi kosmetika mahsulotining barcha iste'mol xususiyatlarini va ularning samaradorligini shakllantiradi. Masalan, ilgari shampunlarda qazg'oqqa qarshi komponent sifatida ishlatilgan qayin smolasi kabi komponentdan foydalanish hozirgi kunda taqiqlangan. Biroq, hozir ham bozorda qayin smolasini o'z ichiga olgan shampunlar mavjud. Xuddi shu narsa kosmetika mahsulotlaridagi konservantlarga ham tegishli. Konservantlarning asosiy qismini mahsulotlarida cheklangan miqdorda ishlatishga ruxsat beriladi.

Ishlab chiqarilgan sana kabi mezon partiya va sifatni identifikatsiya qilish uchun ishlatiladi. Ishlab chiqarilgan kundan boshlab kosmetika mahsulotining yaroqlilik muddati hisoblanadi, bu ularning ishlab chiqarishning texnologik imkoniyatlari, formulasi asosida aniqlanadi va uni ishlab chiqaruvchining o'zi belgilaydi. Yaroqlilik muddati tugagandan so'ng, mahsulot sifatli deb hisoblanmaydi va utilizatsiya qilinadi. Ko'pincha, ishlab chiqarilgan sana partiyani identifikatsiyalash mezoni sifatida, amal qilish muddati esa sifatni identifikatsiyalashda ishlatiladi. Mahalliy kosmetika mahsulotini markirovkalashda odatda ishlab chiqarilgan sana va yaroqlilik muddatini ko'rsatiladi. Import qilingan mahsulotlarda ko'pincha yaroqlilik muddati ko'rsatiladi.

Mahsulotning hajmi va massasi partiyaviy va miqdoriy identifikatsiyani tavsiflovchi mezondir. Kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqarish uskunasi xususiyatlariga, qadoqlanishi, konsistentsiyasi, maqsadiga qarab, markalash va qadoqlash vaqtida iste'molchi qadog'idagi nominal tarkibining sof og'irligini yoki hajmini ko'rsatadi. Misol uchun, agar to'ldirish uskunasi tortish dispenserlari bilan jihozlangan bo'lsa, unda ishlab chiqaruvchi paketdagi kosmetika mahsuloti massasini ko'rsatadi va agar volumetrik dispenserlar o'rnatilgan bo'lsa, unda, albatta, hajmi ko'rsatadi.

Meyoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash faqat sifatni identifikatsiya qilish va sertifikatlashtirish ishlari davomida amalga oshiriladi. Tegishli standart bilan meyorlashtirilgan barcha ko'rsatkichlarni tekshirib, MH talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligini baholash mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlar va ularning tahlili kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalashda qo'llaniladigan asosiy mezonlarga ko'ra vositalar, ko'rsatkichlar va usullarni aniqlash imkonini berdi.

1- Jadval.

Kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalashda identifikatsiya mezonlari, vositalari, ko'rsatkichlari va usullarining xususiyatlari

№	Mezonning nomi	Identifikatsiya vositasi	Identifikatsiya ko'rsatkichi	Identifikatsiya usuli
---	----------------	--------------------------	------------------------------	-----------------------

1	Maxsulot turi	Markirovka, yuk hujjati, Meyoriy hujjat, mahsulot	Tashqi ko‘rinish, rang, hid, pH, faol moddaning massa ulush, suvning vauchuvchan moddalarning massa ulushi	Analitik, ekspert, organoleptik, ekspress usul, o‘lchash
2	Mahsulot nomi	Markirovka, yuk hujjati, etalon namuna, mahsulot	Tashqi ko‘rinish, rang, hid	Analitik, ekspert, organoleptik
3	Ishlab chiqaruvchi	Markirovka, yuk hujjati, kelib chiqish sertifikat, mahsulot, qadoq	Tashqi ko‘rinish, rang, hid	Analitik, ekspert, organoleptik
4	Yuk hujjatlarga muvofiqligi	Markirovka, yuk hujjati, mahsulot nomenklaturasi		Analitik
5	Markirovkaning to‘liqligi	Markirovka, Meyoriy hujjat		Analitik
6	Qo‘llanilishi	Markirovka, ko‘llanish yo‘riqnomasi, mahsulot	Tashqi ko‘rinish, rang, hid, pH, faol moddaning massa ulush, suvning va uchuvchan moddalarning massa ulush	Analitik, ekspert, organoleptik, ekspress usul, o‘lchash
7	Yosh va jinsga moslashtirilganlik	Markirovka, yuk hujjati, mahsulot	Tashqi ko‘rinish, rang, hid, pH	Analitik, ekspert, organoleptik
8	Tarkib	Markirovka, retseptura, meyoriy hujjat	Tashqi ko‘rinishi, faol moddaning massa ulush, quruq moddalar tarkibi va boshqalar	Analitik, organoleptik, ekspress usul, o‘lchash
9	Ishlab chiqarilgan sana	Markirovka, yuk hujjati, ishlab chiqaruvchining axboroti		Analitik, ekspert
10	Hajmi, massasi	Markirovka, yuk hujjati, mahsulot		Analitik, ekspert

11	Tasniflarni guruhlash	Mahsulot, TIF TN va KUK klassifikatorlari	Tashqi ko‘rinishi, faol moddaning massa ulushi	Analitik, organoleptik, ekspress usul, o‘lchash
12	Meyoriy hujjat dastur doirasi	Markirovka, standartlar indeksi, MH	Tashqi ko‘rinishi, faol moddaning massa ulushi	Analitik, organoleptik, ekspress usul, o‘lchash
13	MH talablariga muvofiqligi	MH, mahsulot, sinov hisoboti	Tashqi ko‘rinishi, faol moddaning massa ulushi	Analitik, organoleptik, ekspress usul, o‘lchash
14	Ishlab chiqaruvchi kodi	Markirovka, kod Shifratori		Analitik
15	Tovar belgisi	Markirovka, namuna etalon, tavsif		Analitik
16	Qadoqning muvofiqligi	Qadoq, yuk hujjati, MH		Analitik, ekspert

Xulosa. Shunday qilib, tahlil natijalariga ko‘ra, identifikatsiyalashning eng muhim mezonlar aniqlandi hamda ularga mos keladigan vositalar, ko‘rsatkichlar va usullar belgilandi. Kosmetika mahsulotlarini identifikatsiyalashning bunday mezonlariga quyidagilar kiradi: nomi, maqsadi, tarkibi, jins va yoshga yo‘naltirish, tasniflarni guruhlash, MH talablariga muvofiqligi, turi, ishlab chiqaruvchi. 16 mezondan 8 tasi eng muhimlari ekanligi belgilab olindi.

Sertifikatlash maqsadida organoleptik va ekspert usullari bilan belgilanadigan ko‘rsatkichlar tanlanadi. Bu sertifikatlash uchun ariza beruvchilarning xarajatlarini oshirmaslik uchun sertifikatlash qoidalari bilan ta‘minlanadi. Boshqa maqsadlar uchun, xususan, nazorat faoliyati uchun ko‘rsatkichlar identifikatsiya ko‘rsatkichlari sifatida tanlanishi mumkin, ularni aniqlash qo‘shimcha ravishda ekspress va o‘lchash usullari bilan amalga oshirilishi mumkin. Fizik-kimyoviy identifikatsiya ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun, masalan, massasi, asosiy moddaning massa ulush va boshqalar, muhrlangan mahsulot namunalari akkreditatsiyalangan laboratoriyaga yuboriladi. Ko‘rsatkichlarni aniqlash natijalari sinov hisoboti shaklida tuziladi.

Dastlabki identifikatsiya va laboratoriya tekshiruvlari natijalariga ko‘ra identifikatsiyalashning ikkinchi bosqichi o‘tkaziladi, bu "yakuniy identifikatsiya" deb nomlanadi. Tovarlarining individual xususiyatlarini tasdiqlash dastlabki va yakuniy identifikatsiya qilish bosqichida ham amalga oshirilishi mumkin, masalan, tovarlarning nomi (turi) va tegishli MH. Ma‘lumotlarni tahlil qilish identifikatsiya mezonlari va ko‘rsatkichlarining muvofiqligi yoki nomuvofiqligini aniqlaydi.

"Hujjatlashtirish" deb nomlangan uchinchi bosqichda hujjatlar shakllari to‘ldiriladi. Ushbu bosqichda ekspertiza davomida identifikatsiya natijalari asosida xulosa tuziladi.

Shunday qilib, tadqiqotlarimiz natijasida biz identifikatsiya mezonlarini va ularning kosmetika mahsulotlari uchun ahamiyatini aniqladik. Identifikatsiya qilish maqsadlari va turlariga qarab mezonlarning qo'llanilishi belgilanadi. O'tkazilgan tadqiqotlar mezonlarni tavsiflash va belgilangan mezonlarning har biri uchun identifikatsiyalash vositalari, ko'rsatkichlari va usullarini aniqlash imkonini berdi.

Parfyumeriya va kosmetika mahsulotlarini soxtalashtirish shubhasi bilan mahsulotni identifikatsiyalash nafaqat maxsus kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizik usullarni, balki qalbakilashtirish va identifikatsiyani aniqlashning yangi samarali usullarini ham qo'llashni talab qiladi. Parfyumeriya mahsulotlarini identifikatsiyalashdagi salbiy natija ularning qalbakilashtirilganligidan dalolat beradi.

Kosmetika mahsulotlari orasida Shampun deyarli har kuni foydalaniladigan ommabop gigienik- kosmetika mahsuloti bo'lib, O'zbekiston Respublikasiga Shampun mahsulotining import va eksport hajmi quyidagi jadvalda keltirib o'tilgan.

Shampun mahsulotining import-eksport hajmi ma'lumotlari

TIF TN bo'yicha tovar kodi	2022 yil		2023 yil	
	Miqdori (tonna)	Qiymati (ming doll.)	Miqdori (tonna)	Qiymati (ming doll.)
3305 10	IMPORT			
	2074,042	11977,358	2353,361	14466,778
	EKSPORT			
	33,810	613,974	16,605	616,18

Shampun mahsulotlari turli xil tarkibga va xususiyatga ega bo'lib, bozordagi harid narxlarini ham turlicha bo'lishiga qaramay, bitta TIF TN kodi bilan tasniflanadi. Ushbu shampun mahsulotlarini TIF TN kod raqamlari noto'g'ri rasmiylashtirilishi natijasida davlat byudjetiga iqtisodiy zarar yetishi mumkin. Misol uchun, 3305 10 "Shampun" nomli tovar subpozitsiyasidagi kosmetika mahsulotlarini 3004 90 "Boshqalar (Dorivor vositalar)" subpozitsiyasida rasmiylashtirilishi, 3305 10 tovar subpozitsiyasi uchun belgilangan 20% li bojxona bojlarini undirilmaligiga olib keladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.10.2019 yildagi PQ-4470-son qaroriga asosan hozirgi kunda 3004 90 subpozitsiyasi uchun boj to'lovi 0%, 3305 10 subpozitsiyasi uchun boj to'lovi esa 20%ni tashkil etadi). Statistika ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasiga bir yilda 33.37 ming AQSH dollari miqdorida (764.15 kg) davolovchi shampun mahsuloti import qilinadi. Agar ushbu mahsulot dorivor vosita sifatida 3004 90 000 9 subpozitsiyasida emas davolovchi shampun 3305 10 000 1 tovar kodida rasmiylashtirilsa bir yilda davlat byudjetiga 6.674 ming AQSH dollari miqdorida bojxona boji undiriladi.

REFERENCES

1. Odomosu P.O., Ekwe T.O. Identification and spectrophotometric determination of hydroquinone levels in some cosmetic creams//African journal of Pharmacy and pharmacology Vol 4(5), 2010. –P.231-234.
2. Жиряева Е.В. Товароведение и экспертиза в таможенном деле (продовольственные товары): учебное пособие / Е.В. Жиряева, Т. Хайландт. СПб.: 2006. 288 с.

3. Л.Б.Зиёдова, М.Ф.Хамракулов, С.А.Алимбаев, Ғ.Х.Хамракулов. Проблемы возникающие при таможенной экспертизе парфюмерно-косметической продукции// Наука и образование: проблемы и перспективы. Международная научно-практическая конференция. 30 октября 2020года, г.Прага Чехия.
4. Л.Б.Зиёдова, ХамракуловҒ.Х.,ЖурабаеваА., Арипджанов М. Косметика воситаларини сохталаштиришнинг баъзи усуллари тадқиқ этиш // Ёш олимлар, магистратура ва бакалавриат талабаларининг анъанавий XXXI «Умидли кимёгарлар-2022» илмий-техникавий анжуманини маъруза матнлари, 286-288 б.
5. Л.Б.Зиёдова, М.Ф.Хамракулов, Ғ.Х.Хамракулов.Косметика ва парфюмерия маҳсулотларини идентификациялаш ва Ўзбекистон Республикаси ташқи иқтисодий фаолият товарлар номенклатурасига асосан таснифлаш.//«Товарлар кимёси ҳамда халқ таъбири муаммолари ва истиқболлари» Мавзусидаги IX халқаро илмий-амалий конференция материаллари (Андижон, 2022, 15-16 сентябр).442-б.
6. Паршикова В.Н. Товароведение парфюмерно-косметических товаров. Учебное пособие [Электронный ресурс]. Красноярск. —2013. —С. 159.

QORAQALPOG'ISTONDA TEATR SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Tleumuratova A.J.

Qoraqalpoq davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10523752>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpoq'istonda teatr san'atining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari o'rganib chiqilgan. Shuningdek, "Tong nuri" truppasi ijodidan boshlangan havaskorlik keyinchalik, Qoraqalpoq davlat teatrini tuzishi va professional tarzda ijodiy ishlarni olib borish yo'llari haqida fikr mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: havaskorlik, ijod, teatr, rivojlanish, rejissyor, aktyor, truppa, dramaturgiya.

FORMATION AND SPECIFIC FEATURES OF THEATER ART IN KARAKALPAKSTAN

Abstract. This article examines the stages of formation and development of theatrical art in Karakalpakstan. The hobby, which began with the work of the troupe "Tong nuri", was followed by discussions on the creation of the Karakalpak State Theater and ways to carry out creative work in a professional manner.

Keywords: amateur, creativity, theater, development, director, actor, troupe, dramaturgy.

ФОРМИРОВАНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ИСКУССТВА В КАРАКАПАКСТАНЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы становления и развития театрального искусства Каракалпакстана. Также были рассмотрены увлечение, начавшееся с создания труппы «Тонг Нури», позже созданного Каракалпакского государственного театра и способы осуществления творческой деятельности на профессиональном уровне.

Ключевые слова: хобби, творчество, театр, развитие, режиссер, актер, труппа, драматургия.

Teatr xalqqa na'muna bo'ladigan ulug' dargoh, "Teatr –bu ibrathonadir" degan edi ulug' marifatparvarlarimizdan biri Mahmudxo'ja Behbudiy. Darhaqiqat, teatr ibrat va ma'naviyat maskanidir. Sababi jamiyatta yuz berayotgan voqealarning barchasi teatr hunarida o'z aksini topadi. Har bir millat, xalq o'z tarixi va madaniyati bilan bir-biridan farq qilgan holda ajralib turadi. O'zining chuqur tarixiy merosi va boyliklari, urf-odatlarini saqlab qola olgan millat o'zligini anglagan xalq dunyo miqyosida o'zining alohida o'rin egallashi shubhasizdir.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan kam topiladi¹⁹.

¹⁹ I.A.Karimov-Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch-Toshkent "Ma'naviyat"2010

30. Sherali Xoshimovich G’Ofurov, Baxodir Xoshimovich G’Ofurov NOGIRONLAR ARAVACHASIDAN FOYDALANADIGAN UMURTQA POG’ONASI SHIKASTLANGAN YOSHLARNING ADAPTIV JISMONIY TARBIYASI // Scientific progress. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nogironlar-aravachasidan-foydalanadigan-umurtqa-pog-onasi-shikastlangan-yoshlarning-adaptiv-jismoniy-tarbiyasi> (дата обращения: 09.01.2023).
31. Gofurov, S. X., Berdiyeva, C. A., Berdiyev, S. D., & Atabayev, A. N. (2022). A STRATIFIED APPROACH IN IMPROVING THE PHYSICAL QUALITIES OF GIRLS

- WITH DISABILITIES. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(12), 179-189.
32. Hoshimovich, G. S., Hoshimovich, G. B., & Ibragim o'g'li, K. S. (2022). Differentiated Approach to Improving the Physical Qualities of Students With Disabilities. *Eurasian Research Bulletin*, 15, 213-223.
33. Sherali Hoshimovich G'Ofurov QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI SPORTCHILARNI MASHG'ULOTLARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI // *Scientific progress*. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qisqa-masofaga-yuguruvchi-sportchilarni-mashg-ulotlarini-rivojlantirishning-usullari> (дата обращения: 09.01.2023).
34. Sherali Hoshimovich G'Ofurov, Dilshod Baxtiyor O'G'Li Baxtiyorov, Umid Abdugaforovich Saidov МАКТАБГАЧА YOSHDAГИ BOLALARNI YENGIL ATLETIKA MASHQLARI ORQALI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH // *Scientific progress*. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-yengil-atletika-mashqlari-orqali-mashg-ulotlarini-tashkil-etish> (дата обращения: 15.11.2022)
35. G'ofurov, S. (2023). TEACHING STYLES FOR LIMITED PHYSICAL CAPABILITIES IN PARA LIGHT ATHLETICS RUNNING AND LONG JUMPING. *Modern Science and Research*, 2(12), 92–103. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/26531> More Citation Formats
36. ЖИСМОНИЙ ИМКОНИАТИ ЧЕКЛАНГАН ТАЛАБЛАРНИ ПАРА ЕНГИЛ АТЛЕТИКАНИНГ ЮГУРИБ КЕЛИБ УЗУНЛИККА САКРАШ ТУРЛАРИГА ЎРГАТИШ УСЛУБИЯТИ In the article, the purpose of the physical development of students with limited opportunities is to practically prove the improvement of physical fitness by using the best means and methods of para-athletics.

O'ZBEK GRAFIKA SAN'ATINING YORQIN VAKILI ISKANDAR IKROMOV VA UNING KITOB GRAFIKA TARAQIYOTIDAGI XIZMATLARI

Jurayeva Gulmira Zafar qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Dastgoh va kitob grafikasi mutaxassisligi
1-kurs magistranti

Abdullaxodjayev Gayrat Talipovich

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute
Ijtimoiy fanlar, pedagogika va kasbiy ta'lim kafedrasida dotsenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10524471>

Annotatsiya. Mavzuning qiyosiy taxlili shu bilan belgilanadiki, unda ish jarayonida grafika san'atining shakllanishida muhim hissa qo'shgan Iskandar Ikromov ijodi chuqur tahlil qilinadi. O'zbekiston grafik rassomi ijodi va uning uslublari o'rganib chiqilgan. Mazkur mavzuni to'liq yoritishga qaratilgan bu maqola bo'lajak grafik rassomlar o'zlashtirishi lozim bo'lgan ma'lumotlar haqida yoritilgan, shuningdek, amaliy ishlashga o'rgatish usullari kabi masalalarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Musavvirlik, grafika san'ati, kitob grafikasi, rassom, muzaxhib.

A BRIGHT REPRESENTATIVE OF UZBEK GRAPHIC ART ISKANDAR IKROMOV AND HIS SERVICES IN THE DEVELOPMENT OF BOOK GRAPHICS

Abstract. The comparative analysis of the topic is determined by this, in it a deep analysis of the work of Alexander Ikromov, who made an important contribution to the formation of graphic art in the process of work. The work of the graphic artist of Uzbekistan and its styles have been studied. Aimed at fully covering this topic, this article covers information that future graphic artists should master, and also focuses on issues such as methods of teaching practical work.

Keywords: Musicology, graphic art, book graphics, artist, muzaxhib.

ИСКАНДАР ИКРОМОВ, ЯРКИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ УЗБЕКСКОЙ ГРАФИКИ И ЕГО УСЛУГИ В РАЗВИТИИ КНИЖНОЙ ГРАФИКИ

Аннотация. Сравнительный анализ темы обусловлен тем, что глубоко анализируется творчество Искандара Икрамова, внесшего в ходе своего творчества важный вклад в становление графического искусства. Изучено творчество художника-графика Узбекистана и его стили. Данная статья, призванная полностью осветить данную тему, охватывает информацию, которую должны усвоить будущие художники-графики, а также фокусируется на таких вопросах, как методика обучения практической работе.

Ключевые слова: Живопись, графика, книжная графика, художник, иллюстратор.

O'zbek xalqi qadimdan o'zining san'atsevarligi, san'atning barcha turlarini qadrlashi bilan nom chiqargan. Ayniqsa, xalqimiz orasida musavvirlik san'ati yuksak qadrlangan, musavvirlarga alohida hurmat-e'tibor ko'rsatilgan. Asrlar osha insonlarga go'zallik hadya etib kelayotgan musavvirlik uzoq yillar davomida shakllangan, sayqallangan ijod turidir.

Tasviriy san'at xazinasidan munosib o'rin olgan grafika san'ati Sharq xalqlarining mushtarak badiiy merosi hamdir. U qadimgi nodir qo'lyozmalarni ziynatlash bilan birga, mazkur asarlardagi ilgor insonparvarlik g'oyalari, oliyjanoblikka bo'lgan intilish, go'zallik to'g'risidagi

tasavvurni ifodalashga ham xizmat qilgan. Turli san'atkorlar - xattot, rassom, mo'zaxhib, muqovasoz, jadvalkash va boshqalarning ijodii hamkorligida yaratilgan nodir qo'lyozmalar o'sha davr madaniy, ijtimoiy hayotini badiiy-estetik qarashlarini o'rganishda qimmatli manbalardan hisoblanadi.

O'zbekistonda grafika san'ati XX asrda shakllandi va rivojlandi. Rassomlar I.Ikromov, V.Kaydalov, L.Abdullayev, T.Muhamedov, K.Nazarovlar kitob bezaklari, Q.Basharov ilk kitob suratlari va ajoyib linogravyura asarlari bilan o'zbek tasviriy san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar va o'zbek grafika maktabining vujudga kelishiga zamin yaratdilar.

XX asrning oxirgi choragida ijodkorlar safiga M. Kagarov, L. Ibrohimov, M. Sodikov, A. Mamajonov, A. Bobrov, V. Apuxtin, F. Basharova, A. Li, G. Li kabi rassomlarning kelib qo'shilishi grafikani ham badiiy mahorat, ham mavzu jihatdan boyishini ta'minladi. O'zbek grafikachilari grafikaning barcha sohalarida samarali ijod qilib, mavzu jihatdan rang-barang asarlar yaratib kelgan. Tug'ma iste'dod sohibi bo'lgan, mashhur grafik rassomi, kitobat san'atida o'ziga xos maktab yaratgan Iskandar Ikromov 1904-yilda Toshkentda tug'ilgan. Rassom yoshligidanoq tasviriy san'atni mo'jiza deb bildi va 1923-yilda Eski Jo'va maydonidagi 1-bosmaxonada joylashgan Turkiston muzofot rasm maktabiga o'qishga bordi. Tasviriy san'atdan ilk saboqni shu yerda olgan bo'lajak rassom 1925-1929-yillarda Sankt-Peterburgda, Badiiy akademiya qoshidagi Badiiy san'at texnikumida ta'lim oldi.



1929-1930-yillarda Samarqand pedagogika texnikumida o'qituvchi, 1929-1959-yillarda O'zbekiston Davlat nashriyotida grafika bo'limi mudiri, 1959-1965-yillarda O'zbekiston Rassomlar uyushmasi raisi vazifalarida faoliyat ko'rsatdi.

Musavvir 30-yillarda «Maorif va o'qituvchi», «Alanga», «Yer yuzi» jurnallarida tasviriy san'atga oid maqolalar e'lon qilish bilan birga rassomlik san'ati va bezak san'ati haqida «Rasm o'rganish» qo'llanmasi, «Harf yozishni o'rganish», «O'zbekcha rasmiy kasma alifbe», «O'zbekcha alifbe bo'yash kitobchasi» kabi uslubiy qo'llanmalarini yaratdi. Ular san'at muxlislari tomonidan yaxshi qabul qilinib, o'sha yillarda bu qo'llanmalar Shonazar Shorahimov, Bahrom Hamdaniy, Lutfulla Abdullayev, Hamidulla Ikromov, Samig' Abdullaev kabi rassomlarning o'z kasbining yetuk mutaxassislari bo'lib yetishish vazifasini o'tadi. Rassom o'z ijodiy faoliyati davomida, ayniqsa, kitoblar, ularning muqovalari va ichki bezaklarini bezash bo'yicha mohir rassom sifatida shuhrat qozondi. Uning N.Safarovning «Unutilmas kunlar», Q.Loxutiyning «Biz yengamiz» kitoblariga, Hamza, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom asarlariga, Pushkin poemalariga, Shevchenkoning «Qo'buzchi», Turgenevning «Arafa», Tursunzodaning «Chamanzor», Berdi Kerboboevning «Dadil qadam», Rajabiyning «O'zbek xalq musiqasi» asarlariga ishlagan bezaklari nafaqat rassom ijodida, balki kitob bezash san'ati sohasiga muhim ahamiyatga ega bo'ldi. «O'zbeklar orasidan etishgan birinchi poligraf san'atkori kitob doktori (rassomi) o'rtoq Iskandar ishiga sevgi ila yopishganligi ma'lum», deb yozgan edi taniqli yozuvchi Oybek, «Keng ijodiy sohasiga endi qadam qo'yayotgan o'rtoq Iskandarning maktab doirasida bajargan ishlarida ham katta umidlar baxsh etuvchi narsalar bor. Iskandar har rassom kabi chiziqlarning, ranglarning sirini ko'p yaxshi anglaydi. Chiziq va ranglarga hayot, harakat kirgizadi».



I.Ikromov Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o‘tkazishda faol ishtirok etib, Shoirning «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Saddi Iskandariy» «Xazoyin ulmaoniy» kitoblarini go‘zal uslubda bezadi. Ularda shoir yashagan davr me‘morchiligida qo‘llangan naqsh namunalaridan, o‘sha davr qo‘lyozmalarida ishlangan bezaklardan ustalik bilan foydalandi. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Lutfiy, Mirzo Ulug‘bek, Bobur kabi madaniyatimizning buyuk namoyandalari kitoblariga ham katta mehr va samimiyat bilan bezaklar ishladi. Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarining I va V jildlariga chizgan bezaklari yorqinligi, hayotiyliigi va katta jozibasi bilan kitobxonni o‘ziga jalb etadi.

I.Ikromov ijodiga o‘z vaqtida Oybek, Ch.Ahmarov, Mirmuhsin hamda yirik kitobshunos va san‘atshunos A.Sidorovlar yuqori baho berganlar. «Iskandar aka nozik didli ajoyib inson edi. Shuning bilan birga, u o‘zbek grafika san‘atining asoschisi edi»,—degan edi O‘zbekiston xalq rassomi Chingiz Ahmarov. «Iskandar Ikromov birinchi bo‘lib, o‘zbek milliy kitobat san‘atini tiklagan va uning shuhratini jahonga namoyish qilgan san‘atkor edi.

Iskandar akada o‘zbek milliy ziyolilarining ko‘p ijobiy fazilatlarini mujassam edi. Shu bois Iskandar Ikromov avvalgi o‘zbek ziyolilariga xos fazilatli inson va o‘z milliy san‘atini qalbdan sevgan ijochkor sifatida katta taasurot qoldirgan».

I.Ikromov xalqaro va respublika kitob tanlovlari va ko‘rgazmalarida o‘z asarlari bilan qatnashib, yuksak mukofotlarga sazovor bo‘ldi. Sobiq Ittifoq kitob, grafika va plakatlar ko‘rgazmasida Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari bezagi uchun 1956-yilda ikkinchi darajali diplom, 1959-yilda Olmoniyaning Leypsig shahrida o‘tkazilgan xalqaro kitob ko‘rgazmasida Alisher Navoiyning «Lirika» kitobiga ishlagan bezagi uchun bronza medali, 1965-yilda Alisher Navoiyning «Hikmatli so‘zlar» kitobi muqovasi uchun sobiq Ittifoq Rassomlar uyushmasining ikkinchi darajali diplomi bilan taqdirlangan.

Shuningdek, 1970-yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Respublikalarining eng yaxshi kitob va jurnal bezaklari uchun o‘tkazilgan 9-tanlovida 1-darajali diplomga ham sazovor bo‘lgan.

Akademik shoir G‘afur G‘ulom Iskandar Ikromov bezagan o‘z kitobini qo‘liga olar ekan: «Avval Moniy, Iskandar soniy» deb uning san‘atiga yuksak baho berganligi bejiz emas.

Chunki rassom o‘zbek kitobat san‘atida milliy an‘analarga suyangan holda o‘z maktabini yaratdi. I.Ikromov ijodiy ish bilan rahbarlik va jamoat ishlarini olib bordi.

U O‘zbekiston Rassomlar uyushmasi raisi, sobiq Ittifoq Rassomlar uyushmasi rahbariyatining kotibi, Sharq xalqlari san‘at Davlat muzeyi ilmiy kengashi, O‘zbekiston madaniyat vazirligi metodik kengashi a‘zosi edi.

Uning sermazzmun ijodi «O‘zbekiston xalq rassomi» unvoni va bir necha orden, medallar bilan munosib taqdirlandi. Mashhur grafik rassom Iskandar Ikromov 1972-yil 6-noyabrda Toshkent shahrida vafot etdi. Undan bebaho san‘at asarlari, ajoyib shogirdlar va sadoqatli farzandlar qoldi. Uning hayot yo‘li ana shu shogird va farzandlari uchun bebaho kitobdek muqaddasdir.

REFERENCES

1. Nizomiddinov I. “G‘afur G‘ulom” 1970. – 144 b.
2. Abdullayev N. “San‘at tarixi” – Toshkent “O‘qituvchi”
3. <https://www.google.co.uz/#q=grafika+sanati>
4. <https://www.google.co.uz/#q=grafika+haqida&start=10>
5. <https://shop.eastview.com/results/item?sku=972171B>
6. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/12804>
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Grafika>
8. <https://www.google.co.uz/search?q=rassom+iskandar+ikromov&tbm=isch&tbo=u&source=univ&sa=X&ved=0ahUKEwjsovTCqPTTAhWpBZoKHQw0AQwQsAQILg&biw=1920&bih=974&dpr=1#tbm=isch&q=kitob+ilyustratsiyalari&imgc>

XALQARO XUSUSIY HUQUQ BO‘YICHA OILA MUNOSABATLARINING TARTIBGA SOLINISHI

Muhitdinov Sunnatulla Toxirovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10524780>

Annotatsiya. Maqolada xalqaro xususiy huquq bo‘yicha oila munosabatlarining tartibga solinishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: aliment, kelishuv, oilaviy munosabatlar, xalqaro xususiy huquq va boshqalar.

REGULATION OF FAMILY RELATIONS UNDER PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Abstract. The article analyzes information on the regulation of family relations under international private law and its specific features.

Key words: alimony, agreement, family relations, international private law and others.

РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ ПО МЕЖДУНАРОДНОМУ ЧАСТНОМУ ПРАВУ

Аннотация. В статье представлены сведения о регулировании семейных отношений и их особенностях в рамках международного частного права.

Ключевые слова: алименты, соглашение, семейные отношения, международное частное право и др.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalalari alohida dolzarflik kasb etmoqda. Bu holat quyida e‘tiboringizga havola etilayotgan bir qator obyektiv xarakterdagi sabablar bilan bog‘liqdir:

- aholi ko‘chishining o‘ta kuchayib ketganligi, shu jumladan bir mamlakat fuqarolarining u yoki bu mamlakatdan o‘zga hamda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning bu mamlakatga erkin kirib kelishi;

- O‘zbekiston fuqarolari bilan chet el fuqarolari o‘rtasidagi (ish yuzasidan) amaliy va shaxsiy aloqalarning kuchayib borayotganligi.

O‘zbekiston fuqarolarining chet el fuqarolari bilan nikoh tuzishlari sonining sezilarli darajada oshganligi, bitta oila a‘zolarining turli davlatlar fuqarolari bo‘lishi hollarining ko‘payganligi yuqorida sanab o‘tilgan holatlarning oqibatidir. Bunda xorijiy (xalqaro) element ishtirokidagi xilma-xil munosabatlar, ya‘ni nikoh tuzishda, nikohning tugatilishida, nikohni haqiqiy emas deb topishda, er-xotin o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarda, otana va bolalar o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarda tafovutlar yuzaga keladi.

MUHOKAMA NA NATIJALAR

Xalqaro xususiy huquqda xorijiy davlatlar fuqarolari bo‘lgan shaxslar ishtirok etadigan munosabatlar, ya‘ni masalan, ularning o‘zaro nikoh tuzishlari yoki umumiy fuqarolikka ega bo‘lmagan er-xotinning aliment to‘lash to‘g‘risida bitim tuzishi xorijiy element ishtirokidagi munosabatlar deb ataladi. Huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o‘zgartirilishi yoki tugatilishi bilan bog‘liq bo‘lgan yuridik fakt chegaradan tashqarida sodir bo‘lgan hollarda ham

(masalan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida O'zbekiston fuqarolari o'rtasida nikohning tuzilishi yoki tugatilishi) chet el elementi bilan murakkablashgan oilaviy munosabatlar mavjud bo'ladi.

Oilaviy munosabatlar bilan murakkablashgan chet el elementi mavjud bo'lgan hollarda qaysi davlat huquqi qo'llaniladi va qaysi davlat organlari oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan u yoki bu masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga vakolatli, degan savollar yuzaga keladi. Bunday muammolar xalqaro xususiy huquq doirasiga tegishlidir. U yoki bu masalani qanday hal etish lozimligi xususidagi to'g'ridan to'g'ri javobni, to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmani o'zida mujassam etmagan va qaysi qonunchilik qo'llanilishi lozimligini ko'rsatuvchi kollizion (to'qnashuv) normalar xalqaro xususiy huquqning asosini tashkil etadi. Bunday normalar turli manbalarda mavjuddir. Eng avvalo, bu O'zbekiston Respublikasining ichki qonunlaridir [1].

Masalan, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida kollizion normalardan tashkil topgan Maxsus bo'lim bor (NIII bo'lim. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish).

O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtasidagi xalqaro shartnomalarda ham kollizion normalar mavjuddir. Chet el elementi bilan murakkablashgan oilaviy munosabatlarning keng tarqalganligi O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar oilaviy qonunchiliklari o'rtasidagi ziddiyatli hal etish muammosini keltirib chiqaradi, zero o'sha davlatlar fuqarolari O'zbekiston Respublikasi oila huquqining ta'sir doirasiga tez-tez tushib qola boshladilar, bu esa tegishli ravishda mamlakat hududidagi oilaviy munosabatlarda ularning huquqlarini ishonchli kafolatlash zamriyatini keltirib chiqardi [6].

Ikkinchi tomondan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarda O'zbekiston fuqarolarining, ayniqsa bolalarning qonuniy huquqlari va manfaatlariga rioya qilish masalasi muhimlikda yuqorida tilga olingan masalalardan qolishmaydi (Bu hol chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning o'zbekistonlik bolalarni farzandlikka olganlarida, ota-onalar va bolalarning aliment majburiyatlarini tartibga solishda yaqqol ko'zga tashlanadi). Shu sababdan, oilaviy munosabatlarni tartibga solishda chet ellarning oila huquqi normalarini qo'llash imkoniyatiga yondashuvni tubdan o'zgartirish zamriyati yuzaga keldi, zero bu masalaga nisbatan ilgari mavjud bo'lgan salbiy munosabat ko'pgina hollarda O'zbekiston fuqarolari hamda chet el fuqarolarining huquqlari va manfaatlarini cheklab qo'yishga olib kelgan edi [2].

1998-yilning aprelida O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingach, bu muammolar asosan hal etildi, bundan tashqari avval amalda bo'lgan qonunchilikdagi muammolarga ham barham berildi. Oila kodeksining «Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlari tartibga solish», deb nomlangan NIII-bo'limida fuqaroligi bo'lmagan chet ellik shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligi va chet ellar oila huquqi normalarini qo'llash asoslari nazarda tutilgan. Shuningdek, agar ushbu munosabatlar xorijiy davlat hududi bilan bog'liq bo'lsa, nafaqat O'zbekiston fuqarolarining oilaviy munosabatlariga nisbatan, balki xorijliklarga nisbatan ham ushbu normalar qo'llaniladi

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
3. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya
4. Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Minsk Konvensiyasi (1993)
5. Xalqaro xususiy huquq. Darslik. 2019-y.
6. Babajanova D. Alimant to'lash to'g'risidagi kelishuvni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning asoslari. *Общество и инновации*, 2(4), 36-39. Toshkent. 2021.
7. Zokirov I.B. "Fuqarolik huquqi". 1-qism. Darslik.
8. Xalqaro xususiy huquq. Darslik. Toshkent. 2008.
9. Oila huquqi. Darslik. Toshkent-2017.
10. <https://studfile.net/preview/6367694/page:68>
11. <https://advokat-zaporozhye.com/ru/deti/vidy-neimushchestvennykh-otnosheniy-roditeley-detey/#www:~:text>

OILA HUQUQI SOHASIDAGI KOLLIZION MASALALAR

Muhitdinov Sunnatulla Toxirovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10524819>

Annotatsiya. Maqolada xalqaro xususiy huquq bo'yicha oila munosabatlarining tartibga solinishning kollizion nozmalari tahlil qilingan. Shuningdek, shbu maqolada oila munosabatlarini tartibga solishda kollizion normalarning o'zni beqiyosligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: oilaviy munosabatlar, kollizion, norma, kollizion normalar va xalqaro xususiy huquq.

CONFLICT ISSUES IN THE FIELD OF FAMILY LAW

Abstract. The article analyzes conflicting norms of regulation of family relations under international private law. Also, this article talks about the incommensurable role of conflicting norms in regulating family relations.

Key words: family relationship, collision, norm, collision norms and private international law.

КОНФЛИКТНЫЕ ВОПРОСЫ В СФЕРЕ СЕМЕЙНОГО ПРАВА

Аннотация. В статье анализируются противоречивые принципы регулирования семейных отношений по международному частному праву. Также в данной статье говорится о несоизмеримой роли коллизионных норм в регулировании семейных отношений.

Ключевые слова: семейные отношения, конфликт, норма, коллизионные нормы и международное частное право.

KIRISH

Bugun oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik voqelik ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Oila jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning baxtiyorligi va farovonligi pirovard natijada jamiyatning barqarorligi, gullab- yashnashi hamda farovonligi shanidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a'zolarini. ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy isliqlol g'oyasi asosida tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga molikdir. Prezident Sh.M. Mirziyoyev oilani mustahkamlash, yosh oilalar haqida g'amxo'rlikni kuchaytirish. ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, sog'lom va mustahkam oila barpo elish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi keng qamrovli ishlarni davom ettirish haqida to'xtalib, aynan oila bag'rida, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati, g'amxo'rligi muhitida farzandning dunyoga kelishi, uning shaxs va fuqaro sifatida kamol topishi, halollik, ezgulik va mehribonlik haqidagi tushunchalar, kattalarga hurmat tuyg'usi, avvalo, oilada paydo bo'ladi, insonning dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida aynan shu muhitda shakllanadi, deya ta'kidlab o'tgan edi.

Turli davlatlarning oila huquqlari moddiy-huquqiy normalari orasida katta xilma-xilliklar bor. Bu endi albatta, xorijiy element ishtirokidagi huquqiy munosabatlarning turli masalalarini hal etishda amalda kolliziyalarni, ya'ni qarama-qarshiliklar, to'qnashuvlarni vujudga keltiradi. «Kolliziya» so'zi («qonunlar kolliziyasi», «kollizion masala», «kollizion norma») bu yerda turli mamlakatlar qonunchiliklarining to'qnashuvini ifoda etadigan ibora sifatida ishlatilmoqda.

«Kollizion huquq» degani esa xalqaro xususiy huquqning normalari bo'lib, ma'lum bir masalada to'qnash kelgan xorijiy va o'z davlati qonunlarida qaysi biri qo'llanilishini aniqlab beradi). Iqtisodiy tuzumning o'ziga xosliklari bilan bir qatorda milliy, maishiy, diniy o'ziga xosliklar va an'analar ham oilaviy munosabatlarni tartibga solishga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bir qator mamlakatlarning oila huquqiga erning oldidagi yakkahokimligi xosdir; er va xotinning oilada teng huquqli emasligi ko'pgina mamlakatlarda hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Bunday mamlakatlarning fuqarolik kodekslarida nikoh shaitnomasi tuzish belgilab qo'yilgan. Bunday shartnoma asosan nikohdan avval tuziladi va unda xotinning mol-mulkiga ering huquqlari mustahkamlab qo'yiladi.

MUHOKAMA NA NATIJALAR

Ko'pgina davlatlar qonunchiliklarida yakka nikohlik (monogamiya) mustahkamlab qo'yilgan. Ammo Osiyo va Afrikaning ba'zi bir mamlakatlarida ko'p nikohlik (poligamiya) ham hozirgi kunlarga qadar tan olinadi va kelin uchun qalin puli to'lash kabi qadimiy an'analar saqlanib qolgan. Bunday qonunlarda ayolning turmushga chiqishi mumkin bo'lgan eng yosh chog'i ham belgilab qo'yilgan. Bir qator mamlakatlarning qonunlari va amaliyotida irqiy cheklashlar mavjud: bunday qonunlar bo'yicha turli irqqa yoki turli dinga mansub bo'lgan shaxslarning o'zaro nikoh tuzishlariga yo'l qo'yilmaydi. Sobiq Sovetlar Ittifoqida oila huquqi sotsialistik huquq prinsiplari asosida taraqqiy topgandi. Sovet oila huquqining o'ziga xosliklari, agar xalqaro shartnomalarda boshqacha holat belgilab qo'yilgan bo'lsa, kollizion masalalarda qat'iy hududiylikning o'rnatilishiga olib keldi [1].

«Hududiylik» (har qanday holatlarda ham) xorijiy fuqarolar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan sud amalga oshirilmayotgan mamlakat qonunlari qo'llanilishini anglatgan. Shunday qilib, amaliyotda, keyinchalik esa Sovet qonunchiligida ham sovet huquqiy tizimining boshqalardan ajralib turadigan jihatlarga bog'liq ravishda bu tizimga «begona» chet el oila huquqi normalarining SSSRda amal qilishi nomaqbul ekanligi xususidagi nuqtayi nazar o'z ifodasini topdi. Mustaqillik qo'lga kimgach O'zbekiston Respublikasi oila huquqini xalqaro huquq normalari asosida o'zining barqaror an'analari va odatlariga mos ravishda rivojlantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan «oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir» (63-modda). Quyidagilar oilaviy munosabatlar sohasidagi konstitutsiyaviy tamoyillar hisoblanadi: - erkak va ayolning teng huquqliligi; - nikoh tuzishning erkinligi; - nikoh tuzayotgan shaxslarning teng huquqliigi; - ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar farzandlarning qonun oldida tengligi; - yetim bolalarning va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishning kafolatlanganligi; - onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza qilinishi. Asosiy qonunga mos ravishda davlat quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi: - oilani muhofaza qilishni; - yetim bolalar va ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashni; - yetim bolalar va ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantirishni [2].

O'zbekiston Respublikasida oila, onalik va bolalikning konstitutsiyaviy muhofazasi inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarga muvofiqdir. Ona va bola manfaatlarini himoya qilish qonunlar bilan ta'minlanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 4 milliondan ortiqroq oila mavjud.

Har yili 250 mingga yaqin yosh oilalar paydo bo'lmoqda, 710 ming chaqaloq tug'ilmoqda. O'zbekistondagi oilalar o'rtacha 5-6 kishidan iboratdir. Aholining asosiy qismini bolalar va

yoshlar tashkil etadi. Oilalarning 12 foizdan ko'prog'ida o'n va undan ko'proq bolalar bor, qishloq joylarida esa bu ko'rsatkich 20 foizni tashkil etadi. Aholining 60 foizidan ko'prog'ini bolalar, o'smirlar va 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Respublika aholisining yarmidan ko'prog'i (52 foizi) ayollar va qizlardan iborat. Oila jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi xususida so'z yuritilar ekan, turli jamg'armalar va jamoat tashkilotlari tomonidan oilaga ham moddiy, ham ma'naviy yordam berilishi anglashiladi. Oilaviy sharoitlarni hisobga olgan holda davlat tomonidan 14 xildan ko'p turli nafaqalar ta'sis etilgan.

Keyingi yillarda O'zbekistonda 2,5 million oila ilk bor yer uchastkalari oldi yoki ularni kengaytirdi. Hozirgi vaqtda yer uchastkasi maydonini 0,25 gektarga yetkazish nazarda tutilmoqda. O'zbekistondagi oilalarning ko'p bolalik ekanligini hisobga olgan holda 16 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun nafaqa berishning umumiy adresli tizimi ishlab chiqildi va 1997-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritildi. Oiladagi balog'atga yetmagan bolalarning soniga bog'liq ravishda nafaqalar miqdori differensiyalashgandir. Adres davlat yordamini ta'minlash maqsadida 1994-yil 1- oktabrdan boshlab ilk bor kam ta'minlangan oilalarga nafaqa to'iana boshlandi. Bu nafaqalar davlat budjeti hisobidan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla qo'mitalari) tomonidan tayinlanadi va to'lanadi. Eng kam ish haqining 1,5 dan 3 barobarigacha miqdordagi moddiy yordam sifatidagi nafaqa oilaga uch oy davomida to'lanadi.

Ushbu muddat davomida oilaning moddiy holati yaxshilanmasa, qaytadan yangi muddatga nafaqa tayinlanadi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 797000 kam ta'minlangan oila borligi aniqlangan. Bu raqam umumiy oilalar sonining 16,7 foizini tashkil etadi. Bu oilalarga 1 milliard so'mdan ko'proq miqdorda nafaqa to'langan. Shunday qilib, bizning mamlakatimizda oila muhofazasi o'ta xilma-xil qonunlar qabul qilinishi hamda oilalarga jamg'armalar va jamoat tashkilotlari tomonidan moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan mamlakatda «Sog'lom avlod uchun» ordeni ta'sis etilgan. Onalik va bolalikni muhofaza qilishda alohida xizmatlar ko'rsatgan, sog'lom avlodni taraqqiy ettirishda eng yaxshi moddiy va axloqiy shart-sharoitlar yaratishni ta'minlagan shaxslar «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan taqdirlandilar. Millati, irqi, dinga munosabatidan qat'i nazar oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqliligi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ham nikoh shartnomasi to'g'risida qoidalar bor (29-36-moddalar) [2]. Bu qoidalarga binoan, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va yoki er va xotin nikohdan ajralgan taqdirda ularning mulkiy huquqi hamda majburiyatlarini belgilovchi bitimi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi. Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar ham, er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o'zgartiri lishi yoki bekor qilinishi mumkin (Oila kodeksining 32-moddasi). Nikoh shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham shunday shaklda amalga oshiriladi. Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluv qarori bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bundan tashqari, nikoh shartnomasi sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha to'la yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin (Oila kodeksining 33-moddasi).

Chet el fuqarolari va fuqaroligi boimagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish) O'zbekiston Respublikasining ko'ptomonlama va ikkitomonlama xalqaro

shartnomalari ham chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish manbalari hisoblanadi [3]. Masalan, irqi, terisining rangi, tili, milliy kelib chiqishi hamda boshqa qandaydir holatlardan qat'i nazar, kamsitishlarning har qanday shaklidan bolani muhofaza qilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risidagi, shuningdek, bolaning manfaatlarini eng yaxshi ta'minlash, jumladan, fuqarolarni farzandlikka olish huquqi, bolalarni noqonuniy tarzda chegaradan o'tkazish va qaytarish to'g'risidagi prinsipial qoidalar BMTning 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan «Bolalarning huquqlari to'g'risida»gi konvensiyasiga kiritilgan. Bu konvensiya 1990-yil 2-sentabrdan boshlab kuchga kirdi. 1996-yil 31-may holati bo'yicha konvensiyada 187 ta davlat, shu jumladan O'zbekiston ham ishtirok etmoqda. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi ham xorijiy fuqarolar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan bo'lgan munosabatlarida 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan Huquqiy yordam va fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiya hamda shu konvensiya yuzasidan 1977-yil 28-martda qabul qilingan, oila huquqlarining alohida normaldri tilga olib o'tilgan Protokol birinchi darajali o'rin tutadi [4].

Oila huquqining ko'pgina masalalari O'zbekiston Respublikasining dunyoning bir qator mamlakatlari bilan tuzilgan fuqarolik, oila, jamiyat ishlarini hal etish borasida huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi ikkimonlama shartnomalarida ham ko'rib chiqilgan. Zamonaviy sharoitlarda faoliyati kollizion oila huquqi normalarini kodifikatsiya qilishga qaratilgan hukumatlararo tashkilotlarning ahamiyati kattadir. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi ko'pgina mamlakatlar uchun ayniqsa muhim o'rin tutadi. Unda ishlab chiqilgan va qabul qilingan barcha konvensiyalarning uchdan bir qismidan ko'prog'i kollizion oila huquqiga taalluqlidir. Ular orasida 1978-yil 14-martda qabul qilingan nikoh tuzish haqiqiylikini tan olish to'g'risidagi konvensiyani hamda er-xotinning mol-mulki rejimlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqi to'g'risidagi konvensiyani, 1980-yil 25-oktabrda qabul qilingan bolalarni xalqaro o'g'irlashning fuqaroviy jihatlari to'g'risidagi konvensiyani va 1993-yil 29-mayda qabul qilingan bolalarni himoya qilish va xorijiy farzandlikka olish borasida hamkorlik qilish to'g'risidagi konvensiyani tilga olib o'tish mumkin [6]. Yuqorida sanab o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, oilaviy qonunchiliklarida tafovutlar bo'lgan mamlakatlarning fuqarolari o'zaro nikoh tuzganlarida kollizion masalalarni hal etish ma'lum ahamiyat kasb etadi. Taraqqiy etgan mamlakatlardagi oila huquqining kollizion normalari katta xilma-xillikka ega ekanliklari bilan ajralib turadi. Nikohga taalluqli huquq layoqati, ya'ni nikoh tuzish huquqining o'zi, nikoh tuzish uchun har xil to'siqlarning yo'qligi - bularning barchasi bir qator mamlakatlarda er va xotinning har birining o'zaro fuqarosi hisoblangan davlatda amalda bo'lgan qonunlar bilan aniqlanadi.

Turli mamlakatlar fuqarolari bo'lgan er-xotin o'rtasidagi nikoh tugatiladigan hollarda bir qator mamlakatlarda er fuqarosi bo'lgan mamlakat qonunlari qo'llaniladi. Bu davlat hududida nikoh tuzilgan joy qonunlariga mos ravishda tuzilgan nikoh boshqa bir mamlakatda tan olinmasligi mumkin. Er va xotinning mulkiy munosabatlari bir qator mamlakatlarda er fuqarosi bo'lgan mamlakat qonunlariga binoan hal etiladi. Ko'plab davlatlarda bir qator kollizion masalalar hal etiladi [6].

Nengriya Respublikasi Xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi qonunning 31-paragrafi bo'yicha nikoh haqiqiylikining moddiy-huquqiy shart-sharoitlari nikoh tuzuvchilarning «umumiy shaxsiy qonuni» bilan tartibga solinadi. Agar bu shaxslar fuqarolikda turgan davlatlarning qonunlari turlicha bo'lsa, «har ikki tomon qonunlari bo'yicha haqiqiylik sharti mavjud» bo'lgan hollardagina nikoh haqiqiy deb hisoblanadi. Nengriyada nikoh shakliga nisbatan nikoh tutilgan joy huquqi qo'llaniladi.

Xitoy Xalq Respublikasida XXR fuqarosi chet ellik bilan nikoh tuzayotganda nikoh tuzilayotgan joy qonuni qo'llaniladi, nikoh tugatilayotganda esa ishni ko'rib chiqish uchun qabul qilingan sud joylashgan joy qonuni qo'llaniladi (XXRning 1986-yilda qabul qilingan «Fuqarolik huquqi umumiy qoidalarini»ning 147-moddasi). Nengriya va Serbiyada nikohni tugatish masalalarini hal etishda, qoida bo'yicha, er va xotinning davlatlardagi fuqarolik qonunlari asos bo'lib xizmat qiladi. Rossiya Oila qonunchiligining xorijiy element ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga taalluqli normalari an'anaviy ravishda asosiy federal sohaviy hujjatga kiritilgandi: 1996-yilgacha RSFSRning Nikoh va oila to'g'risidagi kodeksning 5-bo'limi amalda bo'ldi. Uning normalari SSSR va ittifoqdosh respublikalarning nikoh va oila to'g'risidagi qonunchilik asoslarining tegishli 5-bo'limi qoidalarini amalda aynan takrorlardir.

Rossiya Federatsiyasining kodifikatsiyalangan federal qonun bo'lmish yangi Oila kodeksiga «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan oila qonunchiligini qo'llash» degan NII bo'lim kiritilgan. Uning normalari RSFSRning ilgari amalda bo'lgan Nikoh va oila to'g'risidagi kodeksining N bo'lim qoidalaridan tubdan farq qiladi. Rossiya Federatsiyasining Oila kodeksidagi 156-167-moddalarida aytilishicha, RF hududida nikoh tuzishning shakli va tartibi Rossiya Federatsiyasi qonunlari bo'yicha belgilanadi. Agar chet el fuqarosi bo'lgan shaxs bir vaqtning o'zida Rossiya Federatsiyasining ham fuqarosi bo'lsa, nikoh Rossiya Federatsiyasi qonunlari bo'yicha tuziladi. Agar shaxs bir qancha xorijiy davlatlar fuqaroligiga ega bo'lsa uning xohishi bo'yicha o'sha davlatlardan birining qonunchiligi qo'llaniladi [7]. Fuqaroligi bo'lmagan shaxsning Rossiya Federatsiyasi hududida nikoh tuzishi o'sha shaxs doimiy turarjoyga ega bo'lgan davlat qonunlari bo'yicha amalga oshiriladi. Rossiya Federatsiyasi hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan RF fuqarolari Rossiya Federatsiyasining diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida nikohdan o'tadilar.

Rossiya Federatsiyasi hududidagi xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxo nalarida yoki konsullik muassasalarida tuzilgan chet elliklar o'rtasidagi nikoh, nikohlantuvchilar nikoh tuzish paytida Rossiya Federatsiyasiga elchi yoki konsul jo'natgan xorijiy davlatlarning fuqarolari bo'lgan taqdirdagina o'zaro kelishuv sharti bilan haqiqiy hisoblanadi (RF Oila kodeksining 157-moddasi). Boshqa moddalarda quyidagi holatlar bayon etilgan: «Rossiya Federatsiyasi hududida tashqarida tuzilgan nikohlarning tan olinishi» (158-modda), «Nikohning tugatilishi» (160-modda), «Er va xotinning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlari va majburiyatlari» (161-modda), «Otalik (onalik)ning belgilanishi va shu xususda nizolashish» (162-modda), «Ota-onalar va bolalarning huquqlari va majburiyatlari» (163-modda), «Balog'atga yetgan farzandlar va oilaning boshqa a'zolarining alimentga oid majburiyatlari» (164-modda), «Farzandlikka olish» (165-modda), «Xorijiy oila huquqi normalari mohiyatini aniqlash» (166-modda), «Xorijiy oila huquqi normalarini cheklash» (167-modda). 1997-yil 15-noyabrda qabul qilingan «Fuqarolik holati aktlari to'g'risida»gi Federatsiya qonunida hamda 1998-yil 5-noyabrda RF Prezidenti Farmoni

bilan tasdiqlangan Rossiya Federatsiyasining konsullik muassasalari to'g'risidagi Nizomda ham xorijiy element ishtirokidagi oilaviy munosabatlar xususida so'z yuritilgan.

Rossiya Federatsiyasining ko'ptomonlama, shuningdek ikkitomonlama xalqaro shartnomalari ham chet el fuqarolari ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish manbasi bo'lib xizmat qiladi. Rossiyaning quyida tilga olingan bir qator mamlakatlar bilan fuqarolik, oila va jinoyat ishlarini hal etish bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi ikkitomonlama shartnomalarda ham oila huquqi masalalari hal etib berilgan: Albaniya, Bolgariya, Nengriya, Nyetnam, KXDR, Kuba, Mongoliya, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya (1982-yildan beri Chexiya va Slovakiya), Yugoslaviya bilan; shuningdek, Ozarbayjon, Gruziya, Qirg'iziston, Latviya, Litva, Moldaviya, Estoniya bilan. Oila huquqi kolliziyalarini tartibga solish va bu shartnomalarda ko'rib chiqiladigan masalalar doirasi MDH davlatlarining 1993-yil 22-yanvarda qabul qilingan konvensiyasi orqali tartibga solinadigan masalalar doirasiga ancha yaqindir.

Jahon hamjamiyatida xuddi O'zbekiston va boshqa sobiq sovet respublikalari statusi o'zgarganligi singari Rossiya statusining o'zgarganligi, ochiq jamiyat usuliga o'tilganligi, Konstitutsiyada yangi ustuvorliklarning mustahkamlab qo'yilganligi xorijiy element ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan muhitni aniqlash usuliga yondashuvni tubdan o'zgartirib yubordi. Masalan, Rossiya Federatsiyasining yangi Oila kodeksida, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida qonun chiqaruvchi bog'lanishlarni tanlashda birinchi navbatda munosabatlarning ma'um turining u yoki bu davlat bilan, shu jumladan xorijiy davlat bilan ko'proq yoki kamroq uzviy aloqasini e'tiborga olgan. Sud qonuniga bog'liqlikdan foydalanish doirasi ancha toraytirilgan.

Albatta, turli oilaviy munosabatlarga nisbatan, aytaylik, Rossiya qonunlarini qo'llash o'sha munosabatlar ishtirokchilarining, shu jumladan, chet ellardagi Rossiya fuqarolarining ham manfaatlariga zid kelib qoldi. Shunday qilib, chet el huquqini qo'llamaslik shunga olib keldiki, er fuqarolikda turgan davlatning qonunlari yetakchi deb 386 www.ziyouz.com kutubxonasi tan olinadigan davlatlarda Rossiya muassasalarining, masalan, nikoh tuzilganligi to'g'risidagi tegishli hujjatlari tan olinmasligi va hayotga tatbiq etilmasdan qoladigan bo'ldi.

Bu esa «oqsoqlanadigan», ya'ni bir marqlakatda tan olinib, ikkinchi mamlakatlarda tan olinmaydigan nikohlarni vujudga keltirdi. ko'rib turganimizdek, RFning yangi oila kodeksida qonun chiqaruvchi kollizion normalarni shakllantirishda ma'lum munosabatlar bilan ma'lum huquqiy tizim o'rtasidagi aloqani, bog'liqlikni eng ko'p darajada aks ettiradigan yechimlarni axtargan. O'zbekiston Respublikasida ham qonun ijod qihshning shu yo'lidan foydalaniladi.

O'zbekistondagi kollizion oila huquqi taraqqiyotining ikkinchi yo'nalishi xorijiy element ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni qonuniy tartibga solish doirasining kengaytirilishidir.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida nikohning haqiqiy emasligi, er va xotinning shaxsiy mulkiy va nomulkiy munosabatlari, ota-onalar va bolalarning huquqlari va majburiyatlari, balog'atga yetgan farzandlar va boshqa oila a'zolarining aliment majburiyatlari singari oila qonunchiligidagi muammolar hal etib berildi. Bu sohadagi qonuniy tartibga solishning kengaytirilganligi, kollizion normalarning yanada batafsillashtirilganligi jahon an'alariga mos kelishini aytib o'tish lozim. Zero, ko'plab xorijiy davlatlarda kollizion oila huquqi normalari yangilangan va batafsillashtirilgan hamda Avstriya, Nengriya, Lixtenshteyn, Turkiya, Shveysariya

kabi davlatlarda xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi yangi qonunlarga yoxud oila yoki Fuqarolik kodekslariga kiritilgan.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston". 1998.-B.48.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. -T.: «Adolat», O'zbekiston Respublikasi IIN Akademiyasi, 1997-yil. -B.384.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganuvchilarga yordam. Tuzuvchilar: yuridik fanlar doktorlari, prof. A.Saidov, U.Tojixonov. -T.: "Akademiya» nashriyot markazi. 2001-yil. –B.155
4. "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1992-yil, iyul.
5. O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi. Xalq so'zi. 1996-yil 10-sentabr. 6. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. -T.: "Adolat", 1998-yil. –B.300.
6. Xalqaro xususiy huquq. Darslik. Toshkent. 2008.

"THE EFFECTS OF TASK-BASED INSTRUCTION ON DEVELOPMENT OF
COMMUNICATION SKILLS IN ONLINE LEARNING ENVIRONMENT IN
UZBEKISTAN"

Khakimova Nargiz Khayrilloyevna

The Teacher of History and Philology Department

Asia International University.

Bukhara, Uzbekistan.

Email: xnargiz92@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10524832>

Abstract. This article discusses the effects of Task-Based Instruction on the Development of Communication skills of English language learners in the online environment in Uzbekistan. It explores the works of different scientists on Task-Based Instruction and examines the strategies and research in teaching online. The author suggests using a mixed-method design to implement Task-Based Instruction online. In addition, the article recognizes some challenges of implementing this research in Uzbek schools and proposes solutions for overcoming them. Altogether, it presents the positive sides of teaching English online in Uzbekistan if Task-Based Instruction is implemented.

Keywords: Task-Based Instruction, Communication skills, online environment, Task-Based Language Teaching, methods and strategies.

«ВЛИЯНИЕ ЦЕЛЕВОГО ОБУЧЕНИЯ НА РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ
НАВЫКОВ В СРЕДЕ ОНЛАЙН-ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ»

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние целенаправленного обучения на развитие коммуникативных навыков изучающих английский язык в онлайн-среде в Узбекистане. В нем исследуются работы различных ученых по целевому обучению, а также рассматриваются стратегии и исследования в области онлайн-обучения. Автор предлагает использовать смешанный метод для реализации онлайн-инструкции, основанной на задачах. Кроме того, в статье признаются некоторые проблемы внедрения данного исследования в узбекских школах и предлагаются пути их преодоления. В целом, в нем представлены положительные стороны онлайн-обучения английскому языку в Узбекистане при условии внедрения целенаправленного обучения.

Ключевые слова: целенаправленное обучение, коммуникативные навыки, онлайн-среда, целенаправленное обучение языку, методы и стратегии.

Introduction

Task-Based Instruction (TBI) or Task-Based Language Teaching (TBLT) is a subcategory of Communicative Language Teaching (CLT) and it differs from traditional teaching methods in the way of using the foreign language inside and outside of the classroom by concentrating on a certain task in the target language. Instead of memorizing grammar and copying the tasks, TBI is aimed at teaching the language by constantly involving the target language in real-life situations through communication and experience. Simply, the language is not frozen but spoken in different backgrounds. This approach is very effective in the classroom environment. However, it would be great to see the implementation of Task-Based Instruction (TBI) in a distance learning environment for improving communication. Because Uzbekistan has just recently started the

adaptation process to online education, this research would have many positive effects in developing the communication skills of language learners.

Due to Covid 19, distance education has become a priority in most parts of the world, including Uzbekistan. Uzbek schools had to practice distance learning which was unexpected and new for Uzbek people. Here my purpose is to understand how physical and virtual classrooms can work together to create better communication and collaboration in the language learning background. If it is possible to teach online language learners with the help of Task-Based Instruction, then certainly there is a chance to innovate in the Education sphere. This work helps to understand how Task-Based Instruction (TBI) can be implemented in a virtual classroom. It opens up the effective ways of developing communication for online learners through Task-Based Instruction (TBI). Also, it assists to predict positive consequences and avoid possible challenges in the Uzbek curriculum.

There are several pieces of research conducted to understand how TBI or TBLT works in the online environment and how it can assist in the development of communication skills. Some studies investigated positive results of TBI on improving Speaking abilities (Albino, 2017; Maming et al., 2022; Nget et al., 2020), and some studies explored the way how communication may be improved virtually (Alshumaimeri & Alhumud, 2021). Speaking abilities of the learners can be upgraded with the help of multimedia and technology (Belda-Medina, 2021; Madhubala & Gheitanchian, 2017; Mulyadi et al., 2021; Widiastuti et al., 2022) and in a different environment (Belda-Medina, 2021; Muntrikaeo & Poonpon, 2022). Despite the positive results of these studies, more research is needed in this area to understand what effects Task-Based Instruction (TBI) can have on the communication abilities of Uzbek learners and what if it is applied in an online environment.

This topic lacks real-life case studies on the implementation of Task-Based Language teaching for developing communication skills remotely in Uzbekistan. As a result, we do not have the long-term results that can help us to find out the possible challenges that may appear during the teaching process and long after that and try to prevent them. The only problem that can occur during this project may be the lack of experience with online learning.

The Research questions are:

1. How to develop English Speaking abilities in online learning environment by applying TBI?
2. What are the students' opinions about Task-Based Language Teaching in Online learning?
3. What are the effective ways of implementing TBI in the virtual classroom in Uzbekistan?

Literature Review

The effects of Task-Based Instruction (TBI) or Task-Based Language Teaching (TBLT) on the development of communication abilities of language learners have been extensively investigated in a variety of studies. Almost all the research had positive outcomes in improving speaking proficiency (Maming et al., 2022; Nget et al., 2020), fluency (Albino, 2017), and communicative competence (Belda-Medina, 2021) of the EFL learners, except the problems with insufficient internet connection and inoperative technology (Alshumaimeri & Alhumud, 2021). The studies took place in real-time either online or offline mode. Belda-Medina (2021) used Task-Based Language Teaching (TBLT) in a setting of Synchronous Computer-Mediated Communication (SCMC) while Muntrikaeo & Poonpon (2022) wanted to examine the development of speaking abilities of language learners in a Flipped Learning Environment (TGF).

Besides, the CALL-Mediated Task-Based Language Teaching was implemented for the online audience (Widiastuti et al., 2022). By dividing the participants of the research into two groups: control and experimental, researchers could compare the collected data and the level of student satisfaction towards TBI (Mulyadi et al., 2021; Muntrikaeo & Poonpon, 2022; Nget et al., 2020). In their study, Alshumaimeri and Alhumud (2021) proved the effectiveness of virtual classrooms to develop communication. Moreover, Lai (2011) suggested that online ab initio foreign classrooms based on Task-Based Instruction can be effective. All studies that are presented here show that the application of Task-Based Instruction (TBI) is suitable for EFL learners of all ages: from schoolchildren (Muntrikaeo & Poonpon, 2022; Nget et al., 2020) to people of old age (Madhubala & Gheitanchian, 2017).

Экология соҳасида ҳам хусусан санитария шифокорларнинг хусусан экологларнинг ҳуқуқлари ҳам ҳуқуқий жиҳатдан белгилаб қўйилган. Мамлакатимизнинг миллий қонунчилигида, хусусан аҳолининг санитария – эпидемиологик осайишталигини таъминлаш ва атроф муҳитни муҳофазалаш борасида Ўзбекистон Республикасининг Жиноят Кодексининг тўртинчи “Экология соҳасидаги жиноятлар” бўлими, яъни XIV боби “Атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги жиноятлар”га бағишланган. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 26.08.2015 йил ЎРҚ-393 “Аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталиги “тўғрисида Қонунчилик палатаси томонидан 2015 йил 15 июлда қабул қилинган Сенат томонидан 2015 йил 6 августда маъқулланган. Ушбу Қонуннинг 12-модда. “Давлат санитария назоратини амалга оширувчи мансабдор шахсларнинг ҳуқуқлари“да куйидагилар белгилаб қуйилган, яъни Давлат санитария назоратини амалга оширувчи мансабдор шахсларга ўз ваколатлари доирасида куйидаги ҳуқуқлар берилди: санитария қоидаларининг, нормаларининг ва гигиена нормативларининг йўл қўйилган бузилишларини бартараф этиш юзасидан кўрсатмалар берган ҳолда, давлат органларидан ва бошқа органлардан, юридик ва жисмоний шахслардан уларнинг бартараф этилишини талаб қилиш; объектларни қуриш ва реконструкция қилиш лойиҳаларида санитария қоидаларига, нормаларига ва гигиена нормативларига риоя этилиши устидан назоратни амалга ошириш; аҳоли пунктларини режалаштириш ва қуриш лойиҳалари ҳамда объектларни жойлаштириш бўйича истиқбол режалари, шунингдек корхоналарни, биноларни ва иншоотларни қуриш, реконструкция қилиш лойиҳалари юзасидан; қурилиш учун ер участкалари бериш, хўжалик ва маиший мақсадларда сувдан фойдаланиш жойларини ҳамда оқова сувлар тозаланганидан кейин уларни тушириб юбориш шартларини аниқлаш, захарли, кимёвий, радиоактив моддаларни ва бошқа моддаларни утилизация қилиш ҳамда қўмиб ташлаш масалалари бўйича;

иншоотларнинг, турар жойларнинг, даволаш-профилактика, таълим, маданият, спорт муассасаларининг ва бошқа муассасаларнинг, ишлаб чиқариш бинолари ҳамда санитария-маиший биноларнинг, шунингдек ускуналарнинг, транспорт воситаларининг санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативларига мувофиқлиги тўғрисида; одамларнинг соғлиғига зарарли таъсир пайдо бўлган тақдирда, хўжалик ва ичимлик суви билан таъминлаш амалиётида, озиқ-овқат маҳсулотлари, қишлоқ хўжалиги экинлари ҳамда чорванинг ривожини тезлаштирувчи ва тартибга солувчи воситаларни, пестицидлар, атир-упа ҳамда пардоз маҳсулотларини ишлаб чиқиш ва уларни қайта ишлашда фойдаланиладиган кимёвий моддалар, восита ва усулларнинг, бу моддалар, восита ва усулларнинг хавфсизлиги тўғрисида ишлаб чиқувчи илмий жиҳатдан асосланган маълумотлар тақдим этгунига қадар, қўлланилишини тақиқлаш; хўжалик ва ичимлик суви таъминоти учун қўллашга яроқсиз деб топилган сувдан фойдаланишни тақиқлаш.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодексининг “Табиий муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар учун маъмурий жавобгарлик” номли VIII бобининг 79, 83, 92, 93, 94, 95 моддаларида табиатга, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсига зарар етказган, уларни йўқ қилиб юбориш, қирилиб кетишига, сони камайишига сабаб бўлиш учун жазолар белгиланган [2.3].

Шунга қарамай атроф муҳитга нисбатан аҳолидаги муносабат ҳамон ачинарли аҳволда. Юқоридаги қонуний меъёрий ҳужжатлардан ташқари Ўзбекистон Республикасининг “Экологик экспертиза тўғрисида”ги Қонунда ҳам этика масалалари белгилаб қўйилган. 17-модда. Давлат экологик экспертизаси экспертнинг мажбуриятлари: давлат экологик экспертизасини амалга ошириш тартиби ва шартларига риоя этиши; давлат экологик экспертизаси ўз вақтида, комплекс, холис, сифатли ўтказилишини ҳамда белгиланган тартибда хулоса берилишини таъминлаши; давлат экологик экспертизасининг муайян объектига нисбатан шахсий манфаатдорлиги бўлган тақдирда ўзини ўзи рад этиши; давлат экологик экспертизаси учун тақдим этилган материалларнинг бут сақланишини ҳамда давлат, ҳарбий, хизмат ва тижорат сирини бўлган маълумотларнинг ошқор қилинмаслигини таъминлаши шарт. Давлат экологик экспертизаси экспертнинг зиммасида қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам бўлиши мумкин. Шу билан бирга қонуннинг қуйидаги моддасида эса экологик экспертизаси экспертнинг жавобгарлиги белгилаб қўйилган. 18-модда. Давлат экологик экспертизаси экспертнинг жавобгарлиги; Ўз вазифасини буюртмачининг ҳуқуқларига ёки қонун билан муҳофаза қилинадиган манфаатларига моддий зарар ёки маънавий зиён етказган тарзда бажармаганлик ёки лозим даражада бажармаганлик учун, шунингдек экологик экспертиза тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бошқача тарзда бузганлик учун давлат экологик экспертизасининг эксперти қонун ҳужжатларига мувофиқ жавобгар бўлади.

Атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат сиёсатининг устувор йўналишларини белгилаш, табиатни муҳофаза қилиш соҳасидаги қонун ҳужжатлари бузилишлари профилактикаси, уларни аниқлаш ва олдини олишнинг самарали механизмларини жорий этиш, республика аҳоли пунктларининг санитария ва экологик ҳолати учун давлат органлари, хўжалик юритувчи субъектлар раҳбарлари ва фуқароларнинг шахсий жавобгарлигини кучайтириш, шунингдек, 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги Миллий мақсад ва вазифаларга эришишни

таъминлаш мақсадида: 2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф мухитни муҳофаза қилиш концепцияси қабул қилинган бўлиб, унда атроф мухит объектларини (атмосфера хавоси, сув, ер, тупроқ, ер қаъри, биохилма-хиллик, кўрикланадиган табиий ҳудудлар) антропоген таъсир ҳамда бошқа салбий таъсир қилувчи омиллардан сақлаш ва сифатини таъминлаш; экологик жиҳатдан энг кам хавф туғдирувчи материаллардан, маҳсулотлардан, ишлаб чиқариш объектлари ва бошқа объектлардан устувор даражада фойдаланиш; заҳарли кимёвий ва радиоактив моддалардан экологик хавфсиз фойдаланишни таъминлаш; чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга оширишнинг экологик хавфсиз тизимини такомиллаштириш; аҳолининг экологик маданиятини шакллантириш, атроф мухитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат органлари фаолиятининг шаффофлик даражасини ошириш ва фуқаролик жамиятининг ролини кучайтириш; кўрсатиб ўтилган.

Юқоридагиларни кўзда тутган ҳолда талабаларга биоэтка фанини ўқитишда санитария ва гигиена соҳасидаги, хусусан экологик муаммолар ва масалаларини ечишда этика ўрни ҳақида маълумотлар бериш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

REFERENCES

1. Азамова З. Б. НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ РАБОТЫ СЛЕДСТВЕННЫХ ОРГАНОВ ПО ПРЕСЕЧЕНИЮ ПРЕСТУПЛЕНИЙ //Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана. – 2015. – №. 5. – С. 128-132.
2. Abdikadirova N. S. et al. Football in Uzbekistan: Law, Leisure and Sociology //PSYCHOLOGY AND EDUCATION. – 2021. – Т. 58. – №. 1. – С. 1995-2002.
3. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 99-105.
4. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 180-186.
5. Yusupova N. R. SOCIO-GENDER ASPECTS OF MODERN WOMEN'S SPORTS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 118-124.
6. Kazakov R. T. THE MAIN PHYSICAL QUALITIES OF ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 719-725.
7. Kazakov R. THE METHOD OF IMPROVING PHYSICAL AND SPECIAL PHYSICAL FITNESS INDICATORS OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2023. – Т. 6. – №. 2.
8. Казоқов Р.Т., Абдиев Б.С., Джўрабаев А.М., Бўриев Б.Ў. Спортчилар тайёрлаш тизимини бошқарув асослари турлари. // "OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISH: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR" ЎзДЖТСУ, 1, 530-538
9. Kozoqov R., Jo'raqo'ziev O., Eshpo'latov S. ҚИСҚА МАСОФАГА ЮГУРУВЧИ СПОРТЧИЛАРНИНГ МАШҒУЛОТ ДАВРЛАРИНИ ТУЗИЛИШИ //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 5-11.

10. Qutlimurodov I. X., Kazoqov R. T., Bo'ronov A. B. FUTBOLDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 111-117.
11. Buriyev B. U., Qodirov R. R., Kazoqov R. T. Jismoniy tarbiya va sportda axborot kommunikatsiya texnologiyasining tuzilishi va tamoyillari //Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning innovatsion usullari. –2021.–Т. 5.–№. 5. – С. 555-559.
12. Р.Т Казоқов.,Талабаларга ахборот хавфсизлигини таъминлаш компонентлигини ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари.,Ўзбекистон давлат саънат ва маданият институти хабарлари 4 (12), 61-6811.Казоқов Р.Т.,Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш.,Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари:муаммо ва ечимлари 11 (1 ...
13. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. Интернет тармоқларида талаба ёшларнинг мустақил таълим олишдаги билим ва кўникмаларининг такомиллаштириш //SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR. – 2019. – Т. 1. – №. 5
14. Казоқов Р. Т. Талабаларга ахборот хавфсизлигини таъминлаш компонентлигини ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари //Ўзбекистон давлат саънат ва маданият институти хабарлари. – 2019. – Т. 4. – №. 12. – С. 61-68.
15. Р.Т Казоқов, Ш.Қ Бекназаров, Ибодов, А. И.Футболчиларнинг антропометрик ўлчамлари ва тезлик сифатлари орасидаги корреляциясини ўрганишда акт дан фойдаланиш.,Тиббиёт ва спорт 1 (10), 27-30.
16. Казоқов, Р. Т., & Джўрабаев, А. М. Юлдашева К.А ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR, 1-237.
17. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo 'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" ga bag'ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
18. Kazoqov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
19. Казоқов Р. Т., Джўрабаев А. М. Юлдашева КА ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ //SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR. – С. 1,237-240.
20. Казоқов Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
21. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке.–2023.–Т. 2. –№. 6. – С. 111-115.

22. Казоқов Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.
23. Казоқов, Р. Т., Джўрабаев, А. М., Бўриев, Б. Ў., & Ахматов, Ж. О. (2023). ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ. *Академические исследования в современной науке*, 2(6), 111-
24. Казоқов Р. Т., Мирзабдиллаева А. И., Мирзабдиллаева Х. И. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 29-34.
25. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке.–2023.–Т. 2. –№. 6. – С. 111-115.
26. Kazoqov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
27. Давурбаева М. Ж., Казоқов Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КўНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
28. Казоқов Р. Т., Жўрақўзиев О. О., Эшпўлатов С. С. СПОРТ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 238-248.
29. Казоқов Р.Т., Бўриев Б.Ў., Абдиев Б.Ш., Джўрабаев А.М., Туропов А.Р.КУРАШ МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙўНАЛИШЛАРИ // МИЛЛИЙ КУРАШ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ. - 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 161-163.
30. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” ga bag‘ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
31. Казоқов Р. Т., Расулов А. Ғ., Бўронов А. Б. СПОРТ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВ-МАШҒУЛОТ ГУРУҲЛАРИДА ЁШ ФУТБОЛЧИЛАРНИ ТАНЛОВ УСЛУБИЯТЛАРИНИ АСОСЛАШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 38-46.
32. Kazoqov R. T., Bo'ronov A. B. SPORTDAGI DOLZARB YANGILIKLAR //Академические исследования в современной науке.–2023.–Т. 2. – №. 15. – С. 47-56.

33. Kazoqov R. T., Pirnazarov S. A., Shamsiddinov S. X. STUDENTS LEARN TO ORGANIZE PROFESSIONAL PHYSICAL TRAINING AND CONTROL PHYSICAL DEVELOPMENT //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 1195-1202.
34. Eshpo'latov S. S. METHODS AND PRINCIPLES OF IMPROVING TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS AND PHYSICAL TRAINING OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 1296-1302.
35. Kazoqov R. T., Eshpo'latov S. S. YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS ARE THE PROCESSES OF ORGANIZING TRAINING SESSIONS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 1303-1310.
36. Pirmatov O. Z., Kazakov R. T. ROLE AND PLACE OF SPORTS AND ACTIVE GAMES IN THE GENERAL STRUCTURE OF EDUCATIONAL AND PRODUCTION PRACTICE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 125-131.
37. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 180-186.
38. Kazoqov R. T. et al. IMPROVEMENT OF TECHNICAL TRAINING OF SHORT-DISTANCE ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1077-1084.
39. Kazoqov R. T. et al. STARTING TECHNIQUE IN SHORT DISTANCE RUNNING //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1070-1076.
40. Xalmuxamedov R. et al. ANALYSIS OF THE DEPENDENCE OF THE CONDITIONS OF THE MIDDLE MOUNTAIN OF INDICATORS OF THE INTENSITY ZONES OF TRAINING TRAINING LOADS OF QUALIFIED BOXER WOMEN //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 473-483.
41. Shoyimardanov S. A., Bobomurodov A. E., Kazaqov R. T. FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS AND SKILLS IN STUDENTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 425-434.
42. Jumayev U. X. et al. ANALYSIS OF THE FINANCIAL POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN OFFICIAL DOCUMENTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 1202-1209.
43. Ziyamuxamedova S. A., Kazaqov R. T., Shukurova S. S. SOME BIOCHEMICAL BLOOD RESEARCHES OF ROWERS DURING PREPRATION PERIOD AND CONTESTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 982-989.
44. Raxmatov B. S. et al. SHORT DISTANCE RUNNING TECHNIQUE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 990-1000.
45. Roziqovich X. Z. YANGI O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL SANOATI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 5. – C. 582-584

INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI HIMOYA QILISHDA XALQARO SHARTNOMALARNING TUTGAN O'RNI

Ismoilov Adxam Baxodirovich

Jizzax viloyat yuridik texnikumi "Ommaviy huquqiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10524951>

Annotatsiya. O'zbekistonning intellektual mulk sohasidagi muhim xalqaro shartnomalarga qo'shilishi barobarida tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratilishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Zero, mamlakatning investitsion jozibadorligining eng asosiy shartlaridan biri ham intellektual mulk himoyasi ta'minlangani bilan belgilanishidir. Intellektual mulk obyektlari muhofazasini ta'minlash bilan birga ularni samarali himoya qilish mexanizmlarini yo'lga qo'yish va amalga oshirish hamda bu yo'nalishdagi amaliyotni takomillashtirish dolzarb masala ekanligini zamonning o'zi taqozo etmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonning xalqaro shartnomalarga qo'shilishining ijobiy jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Intellektual mulk, xalqaro shartnomalar, nomoddiy aktivlar, patent, bitim, konvensiya, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, integral mikrosxema topologiyalari.

THE ROLE OF INTERNATIONAL AGREEMENTS IN THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS

Abstract. As Uzbekistan joins important international agreements in the field of intellectual property, the creation of a favorable environment for entrepreneurship is recognized as an important factor in attracting foreign investments. After all, one of the main conditions of the country's investment attractiveness is the provision of intellectual property protection. Along with ensuring protection of intellectual property objects, establishing and implementing mechanisms for their effective protection, as well as improving practice in this direction, is an urgent issue of the times. This article talks about the positive aspects of Uzbekistan's accession to international agreements.

Key words: Intellectual property, international agreements, intangible assets, patent, agreement, convention, industrial samples, selection achievements, integrated microcircuit topologies.

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ СОГЛАШЕНИЙ В ЗАЩИТЕ ПРАВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Аннотация. По мере присоединения Узбекистана к важным международным соглашениям в сфере интеллектуальной собственности создание благоприятной среды для предпринимательства признается важным фактором привлечения иностранных инвестиций. Ведь одним из главных условий инвестиционной привлекательности страны является обеспечение защиты интеллектуальной собственности. Наряду с обеспечением защиты объектов интеллектуальной собственности, создание и внедрение механизмов их эффективной защиты, а также совершенствование практики в этом направлении является актуальной задачей времени. В данной статье говорится о положительных аспектах присоединения Узбекистана к международным соглашениям.

Ключевые слова: Интеллектуальная собственность, международные договоры, нематериальные активы, патент, соглашение, конвенция, промышленные образцы, селекционные достижения, топологии интегральных микросхем.

Ma'lumki, keyingi yillarda O'zbekistonda intellektual mulk muhofazasini ta'minlash borasida olib borilayotgan jadal ishlar, sohaga oid xalqaro shartnomalarga qo'shilish hamda ochiq tashqi siyosat mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi nufuzi va obro'sini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Qolaversa, yangi O'zbekiston rahbariyatining olib borayotgan siyosati o'laroq, O'zbekistonning intellektual mulk sohasidagi muhim xalqaro shartnomalarga qo'shilishi barobarida tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratilishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Zero mamlakatning investitsion jozibadorligining eng asosiy shartlaridan biri ham intellektual mulk himoyasi ta'minlangani bilan belgilanishidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlash doirasida xalqaro me'yorlar talablaridan kelib chiqib, sohaning barcha yo'nalishlarini qamrab olishga qaratilgan "Intellektual mulk sohasini rivojlantirish milliy strategiyasi"ni ishlab chiqish ishlari olib borilyapti va bu jarayonga Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda xorijdan malakali mutaxassislar jalb qilingan. Bundan tashqari davlatimiz ko'zlagan maqsadlardan biri Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevropa ittifoqi bilan hamkorlik va kengaytirilgan sheriklik bitimini tuzish jarayonida intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish va himoyasini to'laqonli ta'minlash maqsadida mazkur sohaga oid qonunchilik me'yorlari samaradorligini oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.²⁰

O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish, muallif va boshqa huquq egalarining qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Aynan intellektual mulkni rag'batlantirishga doir normalar Bosh qomusimizdaham o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasidahar kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanib, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilishi qat'iy belgilab qo'yilgan.²¹

Intellektual mulk obyektlari muhofazasini ta'minlash bilan birga ularni samarali himoya qilish mexanizmlarini yo'lga qo'yish va amalga oshirish hamda bu yo'nalishdagi amaliyotni takomillashtirish dolzarb masala ekanligini zamonning o'zi taqozo etmoqda.

Umuman olganda **Intellektual mulk** bu– ijodiy aqliy faoliyat mahsulidir. Ixtirochilik va mualliflik obyekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san'at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san'ati, jumladan ovoz yozish, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamallari va boshqa aqliy mulk obyektlariga kiradi.²²

Dunyo bo'yicha eng qimmatbaho mulk – bu intellektual mulkdir. Zamonaviy dunyoda intellektual mulk himoyasini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Nomoddiy aktivlar ulushi 1975-yilda 17 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 90 foizga ko'tarilib, ularning taxminiy qiymati 21 trillion AQSH dollarini tashkil etadi. Hozirgi kunda intellektual mulk Yevropada YAIMning 45 foizini, Xitoyda 12 foiz, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi. Lekin O'zbekistonda intellektual mulkni

²⁰ <https://uza.uz/posts/208024>

²¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2023 y. 21-b.

²² https://uz.wikipedia.org/wiki/Intellektual_mulk

tijoratlashtirish darajasi juda past.²³ Ushbu huquqni Konstitutsiyaviy darajada e'tirofini amalga oshirmasdan turib, samarali iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash qiyin. Kelajakda biz uchun eng ko'p foyda keltiradigan jihat ham ayni shudir. Sababi kelgusida bizning intellektual mahsulotlarimiz, ixtirolarimiz dunyo bozorlarini egallashi kerak. Agar olimlarimiz tomonidan yaratiladigan ixtirolar jahon ilmiy maydonlarining markazidan joy egallasa va butun jahon ulardan ilmiy-texnik taraqqiyot yo'lida foydalansa, mamlakatimiz uchun bu narsa oddiy obro'-e'tibor emas, balki ulkan darajada manfaat keltiradi.

Intellektual mulk huquqini himoya qilishda O'zbekiston Respublikasining bir qator qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, jumladan, Fuqarolik kodeksi, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida", "Seleksiya yutuqlari to'g'risida", "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida", "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida", "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida", "Firma nomlari to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", "Raqobat to'g'risida", "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida", "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi qonunlari va intellektual mulk sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni sanab o'tish mumkin.

Intellektual mulk sohasiga oid O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan quyidagi xalqaro shartnomalarini e'tirof etib o'tish mumkin, xususan: "Butunjahon intellektual mulk tashkilotini ta'sis etish to'g'risida"gi konvensiyasi (1967-yil 14-iyul, Stokgolm va 1979-yil 2-oktyabrda o'zgartirilgan; O'zbekiston Respublikasi uchun 1991-yil 25-dekabrda kuchga kirgan); "Sanoat mulki muhofazasi bo'yicha" Parij konvensiyasi (Parij, 1883-yil 20-mart, Bryussel, 1900-yil 14-dekabr, Vashington, 1911-yil 2-iyun, London, 1934-yil 2-iyun, Lissabon, 1958-yil 31-oktyabr, Stokgolm, 1967-yil 14-iyulda qayta ko'rilgan va 1979-yil 2-oktyabrda o'zgartirilgan. O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyada huquqiy voris sifatida 1991-yil 25-dekabrda ishtirok etadi);

"Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Bern konvensiyasi (Parij, 1971-yil 24-iyul, 1979-yil 28-sentyabrda o'zgartish kiritilgan. Mazkur konvensiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil 27-avgustdagi 681-II-sonli "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Bern konvensiyasiga qo'shilish haqida"gi qaroriga asosan qo'shilgan);

"Patent huquqi to'g'risida"gi shartnoma (2000-yil 1-iyunda Jenevada Diplomatik konferensiya tomonidan qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi ushbu shartnomaga O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 15-martdagi O'RQ-25-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 1-iyunda Jenevada Diplomatik konferensiya tomonidan qabul qilingan Patent huquqi to'g'risidagi Shartnomaga qo'shilishi haqida"gi Qonuniga asosan qo'shilgan. 2006-yil 19-iyuldan kuchga kirgan);

"Tovar belgilariga doir qonunlar to'g'risida"gi shartnoma (Jeneva, 1994-yil 27-oktyabr. O'zbekiston Respublikasi mazkur Shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 1-maydagi 630-I-sonli "Tovar belgilariga doir qonunlar to'g'risidagi Shartnomaga qo'shilish haqida"gi qaroriga asosan qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi uchun 1998-yil 4-sentyabrda kuchga kirgan);

²³ O.Abdullayeva "Xalq so'zi" gazeta № 185 05.09.2023

“O‘simliklarning yangi navlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya (1961-yil 2-dekabr, 1972-yil 10-noyabr, 1978-yil 23-oktyabr va 1991-yil 19-martda Jenevada qayta ko‘rib chiqilgan. Mazkur konvensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil 27-avgustdagi 680-II-sonli “O‘simliklarning yangi navlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Xalqaro konvensiyaga qo‘shilish haqida”gi qarori bilan ratifikatsiya qilingan);

“Belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Madrid bitimiga doir bayonnoma (Madrid, 1989-yil 27-iyun. O‘zbekiston Respublikasi mazkur Bayonnomaga O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 18-iyuldagi O‘RQ-40-sonli “O‘zbekiston Respublikasining belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Madrid bitimiga doir bayonnomaga (Madrid, 1989-yil 27-iyun) qo‘shilishi haqida”gi Qonuniga asosan qo‘shilgan);

“Patent kooperatsiyasi to‘g‘risida”gi shartnoma (Vashington, 1970-yil 19-iyun. O‘zbekiston Respublikasi uchun 1991-yil 25-dekabrda kuchga kirgan);

“Patent protsedurasi maqsadlari uchun mikroorganizmlarni deponentlashning xalqaro e‘tirof etilishi to‘g‘risida”gi Budapesht shartnomasi (Budapesht, 1977-yil 28-aprel. O‘zbekiston Respublikasi mazkur Shartnomaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 30-avgustdagi 277-II-sonli “Patent tartiboti maqsadlari uchun mikroorganizmlarni to‘plashni xalqaro e‘tirof etish to‘g‘risida”gi Budapesht shartnomasiga qo‘shilish haqida”gi qaroriga asosan qo‘shilgan. 2002-yil 12-yanvardan kuchga kirgan);

“Belgilarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun tovar va xizmatlarning xalqaro tasnifi to‘g‘risida”gi Nissa bitimi (Nissa, 1957-yil 15-iyun. O‘zbekiston Respublikasi mazkur Bitimga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 30-avgustdagi 275-II-sonli “Belgilar ro‘yxatga olinadigan Xalqaro tovarlar va xizmatlar tasnifi to‘g‘risidagi Nissa shartnomasiga qo‘shilish haqida”gi qaroriga asosan qo‘shilgan. 2002-yil 12-yanvardan kuchga kirgan);

“Xalqaro patent tasnifi to‘g‘risida”gi Strasburg bitimi (Strasburg, 1971-yil 24-mart. O‘zbekiston Respublikasi mazkur Bitimga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 30-avgustdagi 276-II-sonli “Xalqaro patent tasnifi to‘g‘risidagi Strasburg bitimiga qo‘shilish haqida”gi qarori bilan qo‘shilgan. 2002-yil 12-oktyabrda kuchga kirgan);

“Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta‘sis etish to‘g‘risida”gi Lokarno bitimi (1968-yil 8-oktyabrda Lokarnoda imzolangan. O‘zbekiston Respublikasi ushbu Bitimga O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 14 martdagi O‘RQ-24-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 1968-yil 8-oktyabrda Lokarnoda imzolangan sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta‘sis etish to‘g‘risidagi Lokarno bitimiga qo‘shilishi haqida”gi Qonuni bilan qo‘shilgan);

“Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Mualliflik huquqi bo‘yicha shartnomasi” (Jeneva, 1996-yil 20-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi ushbu shartnomaga O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-fevraldagi O‘RQ-520-sonli “Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Mualliflik huquqi bo‘yicha shartnomasiga (Jeneva, 1996-yil 20-dekabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi uchun 2019-yil 17-iyuldan kuchga kirgan);

“Butunjahon intellektual mulk tashkilotining Ijrolar va fonogrammalar bo‘yicha shartnomasi” (Jeneva, 1996-yil 20-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi ushbu shartnomaga O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-fevraldagi O‘RQ-519-sonli “Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo‘yicha shartnomasiga (Jeneva, 1996-yil 20-

dekabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi uchun 2019-yil 17-iyuldan kuchga kirgan);

“Fonogrammalarni tayyorlovchilarning manfaatlarini ularning fonogrammalarini noqonuniy takrorlashdan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi konvensiya (Jeneva, 1971-yil 29-oktyabr. Mazkur Konvensiya O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 26-dekabrda O‘RQ-511-sonli “Fonogramma tayyorlovchilarning manfaatlarini ularning fonogrammalari noqonuniy takrorlanishidan muhofaza qilish to‘g‘risidagi Konvensiyaga (Jeneva, 1971-yil 29-oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi haqida”gi Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan. O‘zbekiston Respublikasi uchun 2019-yil 25 apreldan kuchga kirgan);

“Ko‘zi ojiz, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan va bosma axborotni idrok etishda boshqa jihatdan qobiliyati cheklangan shaxslarning nashr etilgan asarlardan foydalanishini yengillashtirish to‘g‘risida”gi Marokash shartnomasi (Marokash, 2013-yil 27-iyun. O‘zbekiston Respublikasi mazkur shartnomaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-80-sonli “Xalqaro shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risida”gi qarori bilan qo‘shilgan).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, intellektual mulk huquqini himoya qilishda rivojlangan davlatlar tajribasini qo‘llash, ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Istiqbolda bizning yurtimizda ham ushbu sohadagi mexanizmlarni takomillashtirish, mavjud tashkiliy-huquqiy muammolarni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo‘yicha kelishuvi va unda ishtirok etish masalalarini va kelgusida intellektual mulk huquqi buzilgan tovarlarni chegarada ushlab qolish imkonini beruvchi qonunchilik mexanizmlarini takomillashtirish, ikkinchidan, mazkur kelishuvda belgilangan intellektual mulk masalalari bo‘yicha alohida sudlar tashkil etish.

REFERENCES

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. :-T. 2017 yil. 16-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
3. O‘zbekiston respublikasi Fuqarolik Kodeksi. 21.12.1995 y. <https://lex.uz/docs/111189>.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi 29.08.2002 yildagi 397-II-son qonuni <https://lex.uz/docs/76671>.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi 29.08. 2002 yildagi 395-II-son qonuni <https://lex.uz/docs/69237>.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 12.05.2001 yildagi 218-II-son qonuni <https://lex.uz/docs/69237>.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi 30.08.2001 yildagi 267-II-son qonuni <https://lex.uz/docs/24925>.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida”gi 03.03.2022 yildagi 757-II-son qonuni <https://lex.uz/docs/5889882>.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Firma nomlari to‘g‘risida”gi 18.09.2006 yildagi 51-II-son qonuni <https://lex.uz/docs/1055517>.

10. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi 20.07.2006 yildagi 42-II-son qonuni <https://lex.uz/docs/1022944>.
11. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi 29.10.2019 yildagi 576-II-son qonuni <https://lex.uz/docs/4571490>.
12. O.Oqyulov. Intellektual mulk huquqi. Risola. Falsafa va huquq instituti, -T.: 2005 yil.
13. Sh.Ro‘ziyev. O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk himoyasining o‘ziga xos xususiyatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali №2. Mart-aprel, 2019 y.
14. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 23.06.2023 yildagi 19-sonli “Intellektual mulkka oid ishlarni ko‘rib chiqishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori.

RESPUBLIKAMIZ KORXONALARIGA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH MUAMMOLARI

Kadirova U.E.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti o'qituvchisi

Mirzayeva I.E.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti S1B-19 guruh talabasi

Hamroqulov M.G'.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10524967>

Annotatsiya. Hamkorlikdagi tashkilotlar uchun xalqaro standartlarga muvofiq sifat tizimi sertifikatini muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy tashkilotlar o'z korxonalarida sifat menejmenti tizimini shakllantirish va joriy etish bosqichida bo'lgan yoki mavjud bo'lgan kompaniyalar bilan hamkorlik qilishni ma'qul deb biladi yoki ko'proq afzal ko'radi. Shu bois, ko'rsatilayotgan tovar va xizmatlar sifatini oshirish hamda iste'molchilarning qoniqishini oshirish masalasi juda dolzarb.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti tizimi, sertifikatlashtirish, joriy etish, ishlab chiqish, xalqaro standart.

PROBLEMS OF IMPLEMENTING THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM IN THE ENTERPRISES OF OUR REPUBLIC

Abstract. Quality system certificate in accordance with international standards plays an important role for cooperating organizations. Modern organizations find it desirable or prefer to cooperate with companies that are at the stage of forming and implementing a quality management system in their enterprises or already exist. Therefore, the issue of improving the quality of goods and services and increasing consumer satisfaction is very urgent.

Key words: quality management system, certification, implementation, development, international standard.

ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НАШЕЙ РЕСПУБЛИКИ

Аннотация. Сертификат системы качества в соответствии с международными стандартами играет важную роль для сотрудничающих организаций. Современные организации считают желательным или предпочитают сотрудничать с компаниями, которые находятся на стадии формирования и внедрения системы менеджмента качества на своих предприятиях или уже существуют. Поэтому вопрос повышения качества товаров и услуг и повышения удовлетворенности потребителей является весьма актуальным.

Ключевые слова: система менеджмента качества, сертификация, внедрение, развитие, международный стандарт.

Hozirgi vaqtda Respublikamizda ko'plab kompaniyalar xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejment tizim (SMT)larini joriy qilishmoqda. Sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va sertifikatlash katta xarajatlar talab qilishga qaramay, kompaniyalar SMTni joriy qilib, ularni ish holatida saqlaydilar.

Privoradida, SMTni sertifikatlash va joriy etish nafaqat yangi shartnomalar imzolash va tovarlar va xizmatlar bozorlarini kengaytirish orqali tashkilotning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyati, balki kompaniya ichidagi jarayonlarni optimallashtirish uchun ajoyib imkoniyatdir. Xususan, ishni yaxshiroq va aniqroq tashkil etish, mas'uliyat va vakolatlarni taqsimlash imkoniyatini beradi. [1]

ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar qatori talablariga javob beradigan SMTni ishlab chiqish va joriy etish “boshqaruv shaffofligi”ni namoyish etish va korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish hamda ularni ishonchli hamkorlar sifatida joylashtirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Sifat menejmenti tizimi tashkilot o‘z strategik maqsadlarini aniqlaydigan va kerakli natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan jarayonlar va resurslarni belgilaydigan faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Sifat menejmenti tizimining xalqaro standartga muvofiqligi to‘g‘risidagi sertifikatning mavjudligi ishlarni bajarish uchun buyurtmalarni qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u potentsial mijozlar tomonidan korxonaga ishonchlilik va ishonch darajasini oshiradi hamda sifatsiz ish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. [1]

O‘zbekiston Respublikasida xalqaro standartlariga muvofiq sifat menejmenti tizimlari bo‘yicha sertifikatlashtirish ishlari akkreditatsiyadan o‘tgan (“SGS Tashkent” (Shveysariya), “Cert International” (Germaniya), “DQS Quality System” (Italiya), “Sert Management” (Slovakiya), “Astraia Management” (Slovakiya), “Central Asia Certification” (Koreya Respublikasi), “Management Certification” (Gretsiya), “Nika-Certification” (Slovakiya), “UzTest” DUK Samarqand filiali (Turkiya), “Russkiy Registr-Srednyaya Aziya”, “Total Quality Service” sertifikatlashtirish organlari tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. [2]

Xalqaro standartlariga muvofiq sifat menejmenti tizimlari joriy qilish ishlari akkreditatsiyadan o‘tgan sertifikatlashtirish organlari tomonidan amalga oshirilsada, ular bilan bog‘liq muammolar o‘z navatida tashkilotlardagi ichki omillar bilan bevosita bog‘liq.

Sertifikatlangan SMTga ega bo‘lgan korxonalar faoliyatida aniqlangan ijobiy jihatlardan tashqari, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish va sertifikatlashda korxonalar duch keladigan bir qator muammolarni ta’kidlash mumkin:

xodimlarni tayyorlash, sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog‘liq moliyaviy xarajatlar;

- sertifikatlash uchun moliyaviy xarajatlar;
- sifat menejmenti tizimini joriy etish uchun uzoq vaqt talab etilishi;
- ishlab chiqarish bo‘limlari rahbarlari va mutaxassislarini ISO 9001 standarti talablariga o‘rgatish (adaptatsiya) zarurati;
- sifat menejmenti tizimini ishchi holatda saqlash bilan bog‘liq katta moliyaviy xarajatlar;
- SMT faoliyati samaradorligini tahlil qilishdan rahbariyatni chetlashtirish. [3]

Korxonalarining boshqaruv tizimini qayta tashkil etishdagi bir qator muammolar aniq boshqaruv bo‘g‘ini tomonidan SMTning ahamiyati va maqsadlarini yetarli darajada tushunmaslik bilan bog‘liq.

Rahbariyatning sifat menejmenti tizimini rivojlantirishning barcha tafsilotlarini o‘rganishni istamasligi, xodimlarni ISO 9001 tamoyillarini o‘rganishga undash uchun rahbariyat tomonidan boshlangan chora-tadbirlarning yo‘qligi. Ko‘pincha sifat tamoyillarini amalga oshirishning ahamiyati va istiqbollarni yetarlicha baholamaslik. Korxonada menejment ISO 9001 SMTni ishlab chiqish va joriy etish uchun rahbariyat tomonidan yetarlicha mablag‘ ajratilmasligiga olib keladi. O‘z navbatida, mablag‘larning yetishmasligi va cheklangan resurslar ko‘rilgan chora-tadbirlar samarasiz bo‘lishiga va hatto ajratilgan mablag‘lar ham oxir-oqibat behuda ketishiga olib

keladi. Natijada, kompaniya rahbarlari SMTni yarim yo'lda joriy etishga qiziqishni yo'qotadilar, ya'ni kompaniya samarali ishlaydigan tizim o'rniga faqat rasmiy hujjatlar to'plamiga ega bo'lishlariga olib keladi [4].

Kompaniyaning rahbariyati va mas'ul xodimlari SMTni amalga oshirishning mohiyati, maqsadlari, metodologiyasi va vazifalarini aniq tushungan taqdirdagina ijobiy natijaga erishish mumkin.

Ta'lim bilan bog'liq tadbirlar ISO 9001 sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish jarayonlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Xodimlarning qarshilik ko'rsatishning asosiy sabablari o'zgarishlarning mohiyatini tushunmaslikdir.

Tashkilotlarda o'zgarishlarni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalombor, o'zgarishlar bevosita xodimlarning ish faoliyati hamda psixologiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

SMTni amalga oshirishda xodimlarning bir qator asosiy qarshiliklarini ajratish mumkin:

- SMTni amalga oshirish maqsadlarini tushunmaslik;
- Ishonchsizlik, ijobiy ta'sirga erishishga ishonchning yo'qligi;
- Vaziyatni nazorat qilmaslik hissi;
- O'rnatilgan tartibni, o'zaro munosabatlarni saqlash istagi;
- Innovatsiyalarni joriy etish tajribasining yetishmasligi tufayli qo'rquv va xavotir.

Standartni joriy qilishning birinchi bosqichida ushbu jarayoniga jalb qilingan xodimlarning va bevosita yuqori rahbariyatning vakili bilan tanishish yig'ilishlarini o'tkazish kerak. Ijobiy ta'sirga erishish uchun SMTni joriy qilgan boshqa tashkilot xodimini, shuningdek tashqi maslahatchilarni korxonada xodimlarini o'qitish uchun taklif qilish mumkin.

Innovatsiyalarga ishonchni mustahkamlash va yuqori boshqaruvning sadoqatini va qiziqishini namoyish etish kerak. Shu maqsadda xodimlar bilan bevosita muloqot qilish eng yaxshi usul hisoblanadi. Stendlardan foydalanish, munozaralar va konferentsiyalar o'tkazish rahbariyat va jamoa ichida do'stona munosabatlarni o'rnatish usulidir. Xodimlarni o'z funktsiyalari va majburiyatlari o'zgarishi, shuningdek ish haqining oshishi to'g'risida xabardor qilish kerak (motivatsiyaning tarkibiy qismlaridan biri bu ish haqining oshishi), chunki majburiyatlar qancha ko'p bo'lsa va ular bilan muomala qilinsa, ish haqi shunchalik katta bo'ladi [5]. Rahbariyatning sukut saqlashi shubhalarni keltirib chiqaradi va xodimlarda SMTni joriy etish foydasiga ishonmasliklariga olib keladi.

Menejerlar o'z vakolatlarining bir qismini ularga topshirishga tayyor bo'lishlari uchun xodimlarga yetarlicha ishonishlari kerak va xodimlar bu vakolatni qabul qilishga tayyor bo'lishlari uchun menejerlarga yetarlicha ishonishlari kerak.

Demak, ISO 9001 xalqaro standartiga to'liq mos keladigan SMTning samarali ishlashining asosiy printsiplari doimiy takomillashtirishdir. Tegishli sifat darajasini ta'minlashda ishtirok etadigan tashkilotning barcha xodimlari sifat bilan bevosita bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni muntazam ravishda tahlil qilishlari, kamchiliklarni yaxshilab qayd etishlari, yakuniy iste'molchilar va boshqa chet ellik tomonlarning qoniqish darajasini oshirish maqsadida tashkilotning amaldagi protseduralari va belgilangan sifat siyosatini o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritishlari kerak.

Ushbu muammoni hal qilish uchun samarali ishlaydigan axborot tizimidan foydalangan holda xodimlarning malakasi va sifat bilan bog'liq standartlar bo'yicha bilimlarini yetarli darajada ta'minlash kerak.

REFERENCES

1. Аристов О.В. Управление качеством: учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 224 с. 2. ГОСТ Р.
2. О 'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi ma'lumotlari.
3. ISO 9001-2015 sifat menejmenti tizimlari. Talablar. [Elektron resurs].
4. А.Ю. Енбаева Проблемы внедрения системы менеджмента качества на предприятии // Вестник магистратуры. 2018. № 9-2(84).
5. Герцберг Фредерик. Мотивация к работе / Ф. Герцберг, Б. Моснер, Блох Снидерман; пер. с англ. — М.: Вершина, 2007.

EVALUATION IN ENGLISH LANGUAGE INSTRUCTION: A THOROUGH EXAMINATION

Nosirova Dilnoza Rizoqulovna

Lecturer at Asia International University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10524997>

Abstract. When teaching English as a second language, assessment is essential for tracking students' development and success. Teachers employ both formative and summative assessments, conforming to norms such as validity, fairness, and fairness. Clearly stating learning objectives, employing a variety of techniques, establishing explicit standards, and promoting self-evaluation are examples of best practices. Ensuring justice, taking linguistic variety into account, and meeting specific needs are challenges. Opportunities are presented by competency-based education and technology, and new innovations offer insightful data on students' language proficiency. High-quality assessment techniques can improve English language instruction.

Key words: Assessment, teaching English as a second language, growth, achievements, improvement, formative assessments, summative assessments, learning objectives, diversified, fair, equal, reliable, consistent, legitimate, language skills, language abilities, learning experiences, language competency, best practices, assessment methods, assessment criteria, feedback, self-assessment, reflection, fairness, equity, language diversity, cultural differences, special needs, technology in education, competency-based education, performance evaluations, portfolios, projects, performance assessments, advancements, technology, real assessments, formative feedback, language education, student language competency.

ОЦЕНКА ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: ТЩАТЕЛЬНЫЙ ЭКЗАМЕН

Аннотация. При обучении английскому языку как второму оценивание имеет важное значение для отслеживания развития и успеха учащихся. Учителя используют как формативное, так и суммативное оценивание в соответствии с такими нормами, как валидность, справедливость и справедливость. Примерами передовой практики являются четкое определение целей обучения, использование различных методов, установление четких стандартов и поощрение самооценки. Обеспечение справедливости, учет языкового разнообразия и удовлетворение конкретных потребностей представляют собой сложную задачу. Возможности открывают компетентностное образование и технологии, а новые инновации дают ценные данные о владении языком учащихся. Высококачественные методы оценивания могут улучшить преподавание английского языка.

Ключевые слова: оценивание, преподавание английского как второго языка, рост, достижения, улучшение, формирующее оценивание, суммативное оценивание, цели обучения, разнообразное, справедливое, равное, надежное, последовательное, законное, языковые навыки, языковые способности, опыт обучения, языковая компетенция, передовой опыт, методы оценки, критерии оценки, обратная связь, самооценка, размышление, справедливость, равенство, языковое разнообразие, культурные различия, особые потребности, технологии в образовании, компетентностное образование, оценка эффективности, портфолио, проекты, оценка эффективности, достижения, технологии,

реальные оценки, формирующая обратная связь, языковое образование, языковая компетентность учащихся.

Introduction

Assessment plays a crucial role in the English language learning process. Evaluation methods help identify students' progress, their achievements, and their areas for improvement. Because of this, it is imperative that educators employ effective assessment techniques to ensure that their students are correctly understanding the English language they are studying. This article's goal is to provide a thorough overview of evaluation in English language training. This examination will cover a wide range of subjects, including the many types of assessments, the fundamentals of effective assessments, and the most effective ways to conduct assessments. The potential and issues associated with assessment in English language instruction will also be covered in this article, as well as the most recent trends and changes that have occurred in the area.

Various Forms of Evaluation

In the context of teaching English as a second language, educators can assess their students' language proficiency using a wide range of evaluation techniques. These assessments can be divided into two primary categories: formative and summative assessments.

Formative assessment is a type of evaluation that is done on an ongoing basis while a student is learning. It provides feedback to both teachers and students, allowing adjustments to be made to the way that lessons and learning activities are conducted in order to raise students' comprehension and general performance. Formative assessment can be done in many different methods, such as exams, discussions, peer evaluations, and self-evaluation exercises.

On the other hand, the summative assessment is used to gauge students' overall language proficiency and achievement and occurs at the end of a lesson. Examples of techniques of evaluation include exams, standardised tests, project assessments, and final assignments that fall within this category.

There are also a number of alternative evaluation techniques, such as portfolios, performance evaluations, and authentic evaluations, in addition to traditional evaluation techniques including written, oral, and essay exams. There are many various types of assessments, each with a specific purpose and the ability to provide crucial information on students' language development and proficiency.

Guidelines for Conducting an Efficient Evaluation

Ensuring that assessments in English language instruction yield the desired outcomes requires adherence to a set of standards that are crucial for guaranteeing fairness, trustworthiness, and legitimacy in evaluating students' language competency and skills. First and foremost, the connection between assessments in English language education and the learning objectives, outcomes, curriculum, and instructional materials is essential to accurately measure students' progress and capabilities. This ensures that assessments are aligned with what students have learned and what they are capable of achieving.

Furthermore, assessments ought to be diverse, encompassing a combination of formative and summative evaluations, as well as incorporating a variety of assessment methods. This approach provides a more comprehensive and realistic assessment of students' language skills, allowing for a thorough evaluation of their capabilities.

34. Bustonovna, J. Z. (2023). PECULIARITIES OF THE AGRICULTURAL ECONOMY IN THE COUNTRIES OF THE EUROPEAN UNION. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1256-1260.
35. Abidovna, A. S. (2023). MONTE CARLO MODELING AND ITS PECULIARITIES IN THE IMPLEMENTATION OF MARKETING ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 375-380.
36. Abidovna, A. S. (2023). PRIORITY DIRECTIONS OF ANALYSIS OF CHANNELS OF PROMOTION OF THE MAIN ACTIVITY OF THE ENTERPRISE AND SEPARATE COMMUNICATION PROGRAMS. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 369-374.

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Saidov Xayotjon Raxmatulloevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Moliya va bank ishi kafedrasida stajior o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10525156>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklar tomonidan kredit berish yanada kengiyib bormoqda. Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga bardosh bera olishda o'z xizmat turlarini ko'paytirishlari va rivojlantirishlari shart. Bu o'z navbatida tijorat banklari xususiy kapitalining milliy va halqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etmoqda. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan tijorat banklarida kredit monitoringgi va muammoli kreditlar haqida bo'lib, unda bugungi kundagi tijorat banklari kredit portfeli monitoringidagi kamchiliklar, yutuqlar va xorij tajribasini qo'llashda qaysi jihatlari mamlakatimiz iqtisodiy muhiti uchun munosib ekanligi haqida qisqacha fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Kredit monitoringgi, kredit riski, kredit portfeli, muammoli kreditlar (NPL).

IMPROVING PROBLEM LOAN MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS

Abstract. In this article, lending by commercial banks is expanding. They must increase and develop their services in order to keep pace with the development of the times and to be able to withstand the competition. This, in turn, requires carrying out studies of scientific and practical importance on bringing the private capital of commercial banks closer to the level of national and international standards. The emergence of problem loans in the implementation of credit operations makes it necessary to regulate their accounting based on the requirements of international standards. It is about credit monitoring and problem loans in the commercial banks operating in the Republic of Uzbekistan, it briefly describes the shortcomings, achievements and foreign experience in the monitoring of the credit portfolio of commercial banks today, which aspects are suitable for the economic environment of our country.

Key words: Credit monitoring, credit risk, credit portfolio, non-performing loans (NPL).

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ПРОБЛЕМНЫМИ КРЕДИТАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Аннотация. В данной статье расширяется кредитование коммерческих банков. Они должны увеличивать и развивать свои услуги, чтобы идти в ногу с развитием времени и выдерживать конкуренцию. Это, в свою очередь, требует проведения исследований научного и практического значения по приближению частного капитала коммерческих банков к уровню национальных и международных стандартов. Появление проблемных кредитов при осуществлении кредитных

операций обуславливает необходимость регулирования их учета с учетом требований международных стандартов. Речь идет о кредитном мониторинге и проблемных кредитах в коммерческих банках, действующих в Республике Узбекистан, кратко описаны недостатки, достижения и зарубежный опыт мониторинга кредитного портфеля коммерческих банков на сегодняшний день, какие аспекты подходят для экономической среды Узбекистана. наша страна.

Ключевые слова: *Кредитный мониторинг, кредитный риск, кредитный портфель, проблемные кредиты (NPL).*

Muammoli kreditlar(NPL) - bu qarz oluvchi belgilangan muddat davomida rejalashtirilgan to'lovlarni amalga oshirmaganligi sababli to'lanmagan kredit. Ishlamaydigan holatning aniq elementlari kreditning muayyan shartlariga qarab farq qilishi mumkin bo'lsa-da, "to'lovsiz" odatda asosiy qarz yoki foizlarning nol to'lovlari sifatida aniqlanadi.

Belgilangan muddat sanoat va kredit turiga qarab ham farq qiladi. Biroq, odatda, muddat 90 kun yoki 180 kun. Muammoli kreditlar (NPL) - bu qarz oluvchi majburiyatni bajarmagan va ma'lum vaqt davomida asosiy qarz yoki foizlarni rejalashtirilgan to'lovlarni amalga oshirmagan kredit. Bank sohasida, agar qarz oluvchi 90 kun o'tgan bo'lsa, tijorat kreditlari muammoli hisoblanadi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, agar kelajakdagi to'lovlar bilan bog'liq yuqori noaniqlik mavjud bo'lsa, muddati 90 kundan kamroq muddat o'tgan kreditlarni muammoli deb hisoblaydi. Biroq, NPLlarning standarti yoki ta'rifi yo'q. Ba'zi banklar kapitalni bo'shatish va/yoki daromad keltiradigan kreditlarni bajarishga e'tibor qaratish uchun boshqa banklar yoki investorlarga NPL sotishni afzal ko'radilar.

Muammoli kredit (NPL) defolt yoki defoltga yaqin deb hisoblanadi. Kredit to'lanmagan bo'lsa, qarzdor uni to'liq to'lash ehtimoli ancha past bo'ladi. Agar qarzdor NPL bo'yicha to'lovlarni qaytadan boshlasa, qarzdor o'tkazib yuborilgan barcha to'lovlarni uddalamagan bo'lsa ham, u qayta ishlaydigan kreditga (RPL) aylanadi. Bank sohasida, agar qarzdor 90 kun ichida foizlar yoki asosiy qarzni nol to'lagan bo'lsa yoki muddati 90 kun o'tgan bo'lsa, tijorat kreditlari muammoli deb hisoblanadi. Iste'mol krediti uchun muddati 180 kun o'tgan bo'lsa, uni NPL sifatida tasniflaydi. Agar asosiy qarz yoki foizlar to'lanmagan yoki o'tkazib yuborilgan bo'lsa, kredit kechiktirilgan hisoblanadi. Qarz beruvchi kredit shartnomasini buzilgan deb hisoblasa va qarzdor o'z majburiyatlarini bajara olmagan hisoblanadi.

Muammoli kreditlar turlari (NPL) qarz bir necha usul bilan muammoli kredit holatiga tushishi mumkin. NPLlarga misollar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 90 kunlik foizlar kapitallashtirilgan, qayta moliyalashtirilgan yoki kelishuv hamda dastlabki shartnomaga kiritilgan o'zgartirish tufayli kechiktirilgan kredit.
- To'lovlar 90 kundan kam kechikkan kredit, lekin qarz beruvchi endi qarzdor kelajakda to'lovlarni amalga oshirishiga ishonmaydi.
- Asosiy qarzni to'lash muddati tugagan, ammo kreditning bir qismi to'lanmaganligicha qolgan kredit.

Kreditni boshqarishning asosiy qismi bu muammoli kreditlarni erta aniqlash va faol boshqarish, kreditorni nomaqbul tavakkalchilikdan himoya qilish. Muammoli kreditlarni o'z

balansida olib borish kreditorlarning pul oqimini qisqartirishi, byudjetni buzishi va daromadlarni kamaytirishi mumkin. Bunday yo'qotishlarni qoplash kreditorlarning keyingi kreditlar uchun mavjud bo'lgan kapitalini kamaytirishi mumkin.

Tijorat banklar tomonidan kredit berish yanada kengiyib bormoqda. Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga bardosh bera olishda o'z hizmat turlarini ko'paytirishlari va rivojlantirishlari shart. Bu o'z navbatida tijorat banklari xususiy kapitalining milliy va halqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etmoqda. Shuningdek, tijorat banklari nafaqat sub'ektlarni kreditlash balki, ushbu resurslardan kutiladigan natijani buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilishni taqozo etadi. Shuningdek, kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'yimoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlar bo'yicha to'lash va ehtimoliy yo'qotishlar zahiralari jarayolari hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda xar bir tijorat banki o'zining kredit siyosatini ishlab chiqib, kredit munosabatlarini ushbu siyosat orqali yuritadilar Markaziy bank esa kreditlash bo'yicha umumiy ko'rsatmalar beradi. Shu o'rinda kredit liniyalari haqida to'xtalib o'tsak. Xorijiy bank amaliyotida kreditlashning ikki usuli ma'lum. Birinchi usulning ahamiyati har bir individual tartibda ko'rib chiqilishidadir. Kredit ma'lum maqsaddagi mablag' ehtiyojini qondirishga beriladi. Ushbu usul aniq muddatga kredit ajratishda qo'llaniladi. Ikkinchi usulda kredit bank tomonidan qarz oluvchiga oldindan belgilab qo'yilgan kredit limiti bo'yicha beriladi, bunda qarz oluvchi unga qo'yilgan to'lov hujjatini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi. Kreditlashning ushbu shakli kredit liniyasi deb ataladi. Ochilgan kredit liniyasi kredit hisobiga barcha hisob-kitob pul hujjatlarini bank va mijoz o'ptasidagi shartnomaga asosan to'lash 1 yilga ochiladi, ammo kredit liniyasi undan qisqa muddatga ham ochilishi mumkin. Kredit liniyasi muddati davomida mijoz bank bilan qo'shimcha kelishuvni istagan vaqtida kredit olishi mumkin. Ammo bank qarz oluvchining moliyaviy holatini zaiflashganini aniqlasa, mijozga belgilangan limit chegarasida kredit berishdan bosh tortishi mumkin. Kredit liniyasi, odatda, moliyaviy barqaror va e'tiborli mijozlarga ochiladi. Mijoz iltimosiga binoan kreditlash limiti qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Kredit liniyasi - bank yoki boshqa kredit tashkilotining qaroluvchiga ma'lum davr mobaynida kelishilgan limit doirasida huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan kredit berish majburiyatidir. Kredit liniyasining ochilishi kreditor va qarzdorning uzoq muddat davomidagi xamkorligini anglatadi. Shu o'rinda xalqaro kredit liniyasiga ta'rif berib o'tsak: xalqaro kredit liniyasi bu xalqaro miqiyosda qarz oluvchiga ma'lum davr mobaynida kelishilgan limit doirasida huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan kredit berish majburiyatidir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini samarali va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar mablag'larini faol jalb etish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur chora-tadbirlar doirasida «iqtisodiy jihatdan asoslantirilgan investitsiya loyihalarini ularning moliyalashtirish manbalari aniq belgilangan holda samarali amalga oshirilishini ta'minlaydigan, shuningdek, ularni amalga oshirish bo'yicha mablag'larning nooqilona sarflanishini istisno

etadigan, mamlakatni rivojlantirish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning sifat jihatdan yangi tartibi joriy etildi». Yaqin o'rta muddatli istiqbolda korxonalarni modernizatsiyalash bo'yicha kutilayotgan ehtiyojlar hamda O'zbekiston iqtisodiyotining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, yaqin yillarda bank tizimi jami kredit portfelida investitsion kreditlarning yanada o'sishini kutish mumkin. Bu esa, tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashda bank risklarini boshqarish zaruratini yuzaga keltiradi va dolzarbligini oshiradi. Alohida ta'kidlash o'rinliki, investitsion loyihalarni moliyalashtirish bankning yuqori riskli faoliyati hisoblanib, bu turdagi risklarni boshqarish murakkab va ko'p pog'onali jarayon hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, investitsion loyihalarni moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi tijorat banklari riskni boshqarish maqsadida risk-menejment jarayoniga ko'maklashuvchi o'ziga xos modellarni shakllantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bank investitsiya faoliyatiga o'z mablag'lari bilan birga, tashqaridan moliyalashtirish manbalarini jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerak. Odatda, har qanday investitsion tadbirkorlik muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi.

Kredit liniyasi bir yildan oshmagan xar qanday muddatga to'lov hujjatlarini to'lash uchun beriladi, u qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan bo'lishi mumkin. Bunda limit tugagandan so'ng bank va qarzdor o'rtasidagi munosabat o'z payoniga etadi. Ushbu berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki kredit liniyasida qarz berish muddatlari turlicha T.Kosterinaning fikricha kredit liniyasi qisqa muddatga ochiladi, O.Lavrushinning fikricha muddat ahamiyatga ega emas bo'lib, asosiy e'tibor kreditning maqsimal miqdoriga karatiladi. Bulardan xulosa qilgan holda xalqaro kredit liniyasiga quyidagicha ta'rif bersak maqsadga muvofiq bo'ladi: xalqaro kredit liniyasi xalqaro moliya institutlari tomonidan qarz oluvchilarga ma'lum bir muddatga kredit limiti doirasida kredit berish majburiyatini anglatadi. Davom ettiriladigan va ettirilmaydigan kredit liniyalari o'zaro farqlanadi. Davom ettirilmaydigan kredit liniyasi ochilib ssuda berilgan va qaytarilgandan keyin mijoz va bank o'rtasidagi aloqalar tugatiladi. Davomlashtiriladigan kredit liniyasida kredit belgilangan limit asosida avtomatik ravishda beriladi va qaytariladi. Agar, bank tomonidan mijozga kredit liniyasi ma'lum tovarlarga bir shartnoma bo'yicha bir yil ichida pul to'lash uchun ochilgan bo'lsa, kredit liniyasi maqsadli bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak O'zbekistonda "substandart", "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralar ajratiladi. Ular majburiy zaxiralar hisoblanadi. Bank ustav kapitali miqdori 100,0 mlrd so'mdan kam bo'lmasligi kerak. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklardan ularning faoliyatiga xos tavakkalchilik, iqtisodiy shart-sharoit va moliyaviy ahvolidan kelib chiqib, kapital monandligining yanada yuqori koeffitsiyenti ta'minlanishini talab qilishi mumkin. Bunday tavakkalchiliklar muammoli kreditlarning katta hajmi, sof zararlar, aktivlarning yuqori darajada o'sishi, foiz stavkalari bo'yicha yuqori darajali tavakkalchilikning yuzaga kelishi yoki tavakkalchilikka asoslangan faoliyatga jalb qilinish kabilarni o'z ichiga oladi, biroq ular bilan cheklanib qolmaydi.

Kreditlarni monitoring qilishda muammoli kreditlarni yuzaga kelishini oldini olish zarur. AQSH tajribasiga ko'ra muammoli kreditlarni bartaraf qilish va muammoli kreditlarni default ko'rinishga yetib bormasligini ta'minlash maqsadida muammoli kreditlarni yopish uchun berilgan foizga 2 % qo'shib kreditni yopish uchun yangi kredit liniyasini chib beradi. Bunda albatta tadbirkorning moliyaviy holati o'rganiladi.

REFERENCES

1. Abdulkarimova D.R "Bank garov ta'minotini baholash" Monografiya -T <Iqtisod-Moliya>,2016
2. Abdulkarimova D.R "Bank garov ta'minotini baholash zarurligi va asosiy tamoyillari Monografiya -T <Iqtisod-Moliya>,2015
3. Абдикаримова Д.Р. Банк кредитлари гаров таъминотини бахдлаш. Монография. - Т.: «Идтисод-Молия», 2016.
4. Mamatov B.S., Xujamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - Т.: Iqtisod-moliya, 2014.

МАКТАБДА БАДИЙ ГИМНАСТИКА МАШГУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА УТКАЗИШ

Абдуллаев Темурбек Улугбекович

Туркистон янги инновациялар университети магистранти

timur17o7abdullayev@gmail.com

Telefon: +998(93) 083 98 24

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10526159>

Аннотация. Ушбу мақолада мактаб ёшдаги болаларнинг гимнастика шугулланувчиларнинг барча орган ва тизимларини гармоник ривожлантиришга, уларнинг соғлигини яхшилашга, ҳаётий фаолиятини оширишга ва мактаб уқувчиларида тугри қомат ва ҳаракат функцияларини шакллантириш, биологик омил ва мактаб усмирларининг ёш хусусиятлари ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: Гимнастика, бадий гимнастика, жисмоний ривожланиш, гармоник ривожлантириш, акселерация, педагогик омил.

ORGANIZING AND CONDUCTING RHYTHMIC GYMNASTICS CLASSES AT SCHOOL

Abstract. This article provides information about the harmonious development of all organs and systems of school-aged children who practice gymnastics, improving their health, increasing their vital activity, and forming proper stature and movement functions in schoolchildren, biological factors and young characteristics of schoolchildren.

Key words: Gymnastics, rhythmic gymnastics, physical development, harmonic development, acceleration, pedagogical factor.

ОРГАНИЗАЦИЯ И ПРОВЕДЕНИЕ ЗАНЯТИЙ ПО ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ГИМНАСТИКЕ В ШКОЛЕ.

Аннотация. В статье представлены сведения о гармоничном развитии всех органов и систем детей школьного возраста, занимающихся гимнастикой, укреплении их здоровья, повышении жизнедеятельности, формировании правильного роста и двигательных функций у школьников, биологических факторах и юношеских особенностях школьников.

Ключевые слова: Гимнастика, художественная гимнастика, физическое развитие, гармоническое развитие, акселерация, педагогический фактор.

Мактабда жисмоний тарбия турли воситалар орқали амалга оширилади. Бу воситаларнинг энг муҳимларидан бири асосий гимнастика ҳисобланади. Бу асосий гимнастикага хос-хусусиятлар билан изоҳланадики, бу хусусиятлар гимнастикани ҳамма ёшдаги болаларнинг жисмоний тарбияси учун мос ва самарали воситага айлантиради. Асосий гимнастика шугулланувчиларнинг барча орган ва тизимларини гармоник ривожлантиришга, уларнинг соғлигини яхшилашга, ҳаётий фаолиятини оширишга ва мактаб уқувчиларида тугри қомат ва ҳаракат функцияларини шакллантиришга қаратилган.

Уқувчилар жисмоний тарбия вазифаларини муваффақиятли ҳал қилиш учун, улардаги ҳаракат фаолиятининг ривожланиш шароитини ҳар томонлама урганиш зарур. Одамнинг ҳаракат функцияси биологик ва педагогик омиллар таъсирида шаклланади. Биологик омил болалар ва усмирларнинг ёш хусусиятлари билан боғлиқ булади ва уларнинг ҳаракат функциясига анча таъсир курсатади. Болаларда ҳаракат анализатори бир неча

Йиллар давомида такомиллашиб боради. етти ёш ривожланишда бурилиш даври-эркин харакатларнинг шакллана бошлаш ва марказий нерв системасида координация механизмларининг такомиллашиш даври шисобланади. Етти ёшдан ун турт ёшгача булган болаларда харакат анализаторининг фаол ривожланиши содир булади, 13-14 ёшга келиб, харакат анализатори ривожланишининг энг юқори даражасига кутарилади. Физиологик маълумотлар болаларнинг ёши улгайиши билан катта ярим шарлар қобигининг функцияси ва айниқса дифференцияли тормозланиш (турли харакатлараро ухшашлик ва тафовутни ажрата олиш қобилияти) тез ривожланишини тасдиқлайди. Катта ярим шарлар қобигининг функцияси 13-14 ёшдаги усмирларда 8-9 ва 10-12 ёшдаги болаларга нисбатан яхшироқ ривожланган булади. Нерв-мускул аппарати морфологиясини оурганувчилар 8-15 ёшда барча суяк-муску қисмлари ва периферик нерв учлари жадал усади. Марказий нерв тизими ва нерв-мускул аппаратининг функционал имкониятлари ошади, мускулларнинг огирлиги ва хажми ошади, нисбий кучнинг ута ошиши кузатилганини таъкидлайдилар.

Биологик етуклик паспорт ёшига тугри келмайди. Тенгқур усмирлар хар хил жинсий етуклик даражасида булиши мумкин. Бу фарқ 1-1,5 йил булиши мумкин, жинсий етуклик еса 12 дан 15 ёшгача давом етади. Бу давр усмирларнинг харакат фаолиятига анча таъсир қилади, чунончи, бунда харакат координациясининг бузилиши кузатилади, иш қобилияти сустлашади.

Акселерация хам харакат функциясининг шаклланишига таъсир курсатади. Тана қисмларининг тез усиши жисмоний ривожланишига ва координация фаолиятига катта таъсир курсатади. Болалар ва усмирлар харакат функцияларини шакллантиришда биологик омилларни хисобга олиш зарур. Бироқ, харакат етуклиги ёшга боглиқ тарзда уз-узидан пайдо булмайди, албатта. У атроф-мухит таъсири хамда харакат фаолиятининг режими билан узаъро чамбарчас алоқада ривожланади ва такомиллашади. Демак, харакат функциясини шакллантириш ва такомиллаштиришга педагогик омилнинг асосий томонларини амалга ошириш орқали эришиш мумкин. Педагогик омилнинг биринчи таркибий қисми харакат фаолиятига ургатишдир. Болалар ва усмирларнинг харакат функцияси харакат фаолияти орқали содир булади, харакат фаолияти еса, харакатларни бажариш билан, шартли рефлектор боғланишларнинг (жамгарма) га боглиқ булади. Одатда, шартли рефлектор боғланишлари қанчалик куп булса, бу боғланишлар қанчалик турли-туман булса, унда янги харакат турлари шунчалик тез ва осон шаклланади. Уқувчиларни асосий гимнастиканинг турли-туман машқларидан фойдаланиб, янада кенгроқ укув машгулоти орқали ургатиш харакат функциясининг шаклланишига ёрдам беради. Иккинчи таркибий қисми-жисмоний сифатларнинг ривожланганлик даражаси. Жисмоний сифатлар қанчалик яхши ривожланган булса, харакат малакаси, шунга кура харакат функцияси шунчалик муваффақиятли шаклланади. Болаларда хамма жисмоний сифатларни бир текис ривожлантириб, 7-10 ёшда якка харакатлар тезлиги; егилувчанлик ва чакқонликни ривожлантиришга, 11-13 ёшда тезкор кучни, 15-16 ёшда максимал кучни ва чидамлиликни ривожлантирига купроқ этибор бериш керак.

Харакат функциясини шакллантиришда (энг мухим) учинчи таркибий қисм харакатларни вақт бирлигида фазода ва мускул зур беришининг даражасига қараб хис қила билишни урганишдан иборат. Харакат аниқлиги ва координацияси яхши ривожланган мускул сезгиси орқали таъминланади. Бу еса харакат анализатори фаолиятининг

натижасидир. Харакат анализаторининг фаолиятини фақат жисмоний машқлар ёрдамида махсус машқ қилиш орқали такомиллаштириш мумкин. Бундай қобилиятни тарбиялаш учун, тананинг айрим қисмлари билан оддий шамда мураккаб ҳаракатлар қилишдан юриш, югуриш, сакраш, улоқтириш, мувозанат сақлаш машқлари, тирмашиб чиқиш, акробатика машқларидан фойдаланилади. Шугулланувчилар бу машқларни бажараётганда узларининг фазо тугрисидаги ва ҳаракат фаолиятини бажариш учун сарфлайдиган вақт тугрисидаги субъектив хисларини ўқитувчидан оладиган маълумотларга таққослаб куришлари керак. Ҳаракат фаолиятини жараёнида вақт, фазо ва мускул зур беришининг даражаси ҳақида тез ва бевосита маълумотлар бериб туриш шугулланувчиларда бу параметрларнинг турлича, ҳажмига нисбатан хиссиётини таркиб топишига ёрдамлашади, бу еса ҳаракатларни бошқариш учун жуда муҳимдир.

Гимнастика машқларини муваффақиятли ўзлаштириш шартлари ва усуллари.

Биринчи шарт. Гимнастика машқлари ўргатишни муваффақиятли ташкил этишнинг биринчи шarti — ўқувчининг тайёрлик даражасини аниқ баҳолашдир. Бунда ўқувчининг потенциал имкониятлари қуйидаги кўрсаткичларга биноан баҳоланади:

ҳаракат тайёргарлиги (ўзлаштирган ҳаракатларининг ҳажми ва характери, ҳаракатларни ўрганишдаги типик қийинчиликлар, ўқувчида янги ҳаракатлардагига ўхшаш ҳаракат тажрибасининг мавжудлиги;

-жисмоний тайёргарлиги (янги ҳаракатни ўрганиб олишда ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган хислатларнинг камолот даражаси);

Психик хислатларининг (ўқувчиларнинг дадиллиги, қатъийлиги, узоқ вақт давом этадиган асабий зўр беришларга реакцияси ва бошқа шахсий хислатларининг) қай даража ривож топгани.

Ўқувчининг қобилиятини баҳолаш характери айни чоқда қандай машқ ўрганаётганлигига боғлиқ. Гимнастика машқлари эса ниҳоятда хилма-хил, шунинг учун янги ҳаракат ўрганилаётгандаги ҳар бир конкрет ҳолда ўқувчининг имкониятларини аниқлаш ўзгариб туриши мумкин.

Иккинчи шарт—ўргатиш дастурсини ҳаракат тузилишини таҳлил қилиш ва ўқувчининг индивидуал хусусиятларини билиш асосида тузиш. Ўқитиш дастурси алгоритмик топшириқ, чизиқли ёки тармоқли дастур тарзида ёзилади. Гимнастика машқларининг техникаси мураккаблаша борган сари ўргатиш дастурларининг самарадорлиги ҳам орта боради.

Учинчи шарт — машқни ўзлаштириш жараёнини моҳирлик билан бошқариш. Буни ўқитувчи ўқувчи фаолиятини таҳлил қилиш ҳамда аниқлик киритадиган командалар ва назораттопшириқларни танлаш асосида амалга оширади.

Тўртинчи шарт — тегишли шароит ва ўқув воситаларининг мавжуд бўлиши. Бунга қуйидаги: машғулот жойи (синф хонаси, зал, майдонча), асосий ва ёрдамчи снарядлар, методик ўқув воситалари (жадваллар, расмлар, кинограммалар, одам гавдасининг моделлари, таълим техникасини ва методикаси юзасидан тузилган методик режалар ва ҳоказо), техникавий таъминлаш воситалари кино ва фотоаппаратлар, ўлчов қурилмалари ва гониометр, динамометр ва ҳоказо типдаги асбоблар, магнитофонлар, видеомагнитофонлар, диктофонлар ва ҳоказолар кириди.

Мазкур ўргатиш методлари ўқувчиларга машқ ҳақида ахборот олиш ва ўрганилаётган ҳаракат техникаси асосларини билиб олиш имконини беради. ундан ташқари, улар ҳаракат тузилиши тўғрисидаги тасаввур аниқлашуви ва аниқлашувига, шуниингдек рўй бериши мумкин бўлган хатоларни тузатишга ёрдам беради.

Учинчи гуруҳ ўргатиш методларига қуйидагилар киради:

стандарт машқ методи бу метод трснировка машғулоти шароитида ҳаракат кўникмасини мустаҳкамлаш мақсадида ҳаракатни мустақил бажариш билан характерланадн; ўзгарувчан машқ методи, у қуйидаги қийинлаштирилган шароитлар билан боғлиқ бўлади: адаштирувчи сигналлар (шовқин, бегона товушлар ва ҳоказолар), атрофдаги шароитнинг ўзгариши (снарядларнинг одатдагидан бошқача қўйилиши, ёритишни ўзгартириш ва ҳоказолар), маълум топшириқни бажариш ҳақида кутилмаган кўрсатма берилиши, машқнинг комбинациядаги жойи ўзгариб қолиши машқни чарчаган ёки ортиқча ҳаяжонланиб туриб бажариш;

ўргатишнинг ўйин ва мусобақа мтоди ўқувчиларнинг ўзаро рақобат қилишини ёки ҳаракатдан муайян натижага эришиш учун масъулият сезишни назарда тутди. Мазкур ўргатиш методлари ҳаракат кўникмалари барқарорлигига эришиш имкониятини беради. Тўртинчи гуруҳ ўргатиш методлари янги ҳаракатни

ўргатишнинг тўғри тактикасини ва ўқув жараёнини ташкил қилишнинг самарали формасини танлаб олиш имкониятини берадиган дастурлаш методларидан иборатдир. Машқни ўргатиш жараёнини алгоритмлаш дастурлаштиришнинг турларидан биридир.

Алгоритмик типдаги топшириқлар ўқув материални қисмларга (дозалар, порциялар ёки ўқув вазифаларига) бўлишни ва ана шу қисм вазифаларни шуғулланувчиларга қатъиян аниқ тартибда бирин-кетин ўргатишни назарда тутди. Ўқув вазифаларининг биринчи серияси ўрганиб бўлингандан кейингина иккинчи серияга ўтиш ҳукуқи берилади. Топшириқларни тузишга қуйидаги талаблар қўйилдн:

1) топшириқлар ёки ўқув материалнинг қисмлари ҳар бир фаолият характерини аниқ кўрсатиши, уларни танлашда тасодифга йўл қўймаслиги ва у қимларга мўлжалланган бўлса, шуларга тушунарли бўлиши керак;2) алгоритмик типдаги топшириқлар битта ҳаракат фаолияти учун ҳам, структура жиҳатидан ўхшаш ҳаракатлар серияси учун ҳам тузилиши мумкин;

3) ўқув вазифаларининг ҳаммаси бир-бири билан боғлиқ ҳамда мураккаблашиб бориши жиҳатидан изчил бўлиши керак.

Топшириққа биноан ўқув материали қисмларини ўрганиш тартиби улар орасидаги алоқадорликка қараб белгиланади.

Алгоритмик типдаги топшириқнинг ҳар бир вазифалар серияси муайян мақсадни ҳал қилишга қаратилган бўлади.

Чунончи, ўрганиладиган ҳаракат фаолиятини муваффақият билан бажариш учун зарур жисмоний хислатларни ривожлантирадиган машқлар, ўқув вазифаларининг биринчи сериясида бўлиши керак.

Ўқув вазифаларининг учинчи серияси асосий ҳаракатлар бажарилишини назарда тутди, Масалан, брусларда қўлларга таяниб туриб олдинга силтаниб кўтарилишни ўзлаштириш учун ўқувчи силтаниб туришни ва олдинга қараб зарур бўлган баландликка силтанишни бажара билиши керак.

Харакат фаолиятини онгли бошқариш сезги органларининг ривожланиши билан чамбарчас боғлиқдир, чунки сезги органлари орқали ташқи дунё хис қилинади. “Эшитиш, куриш ва бошқа сезгилар қанчалик кам ривожланган булса, -деб ёзган еди в.в. Гориневский, - одамнинг фаолияти шунчалик чегараланган ва у шунчалик кам ривожланган булади”. Махсус текширишлар уз харакатларини фазода вақт бирлигида ва мускул зур бериши даражасини хис қилишни узлаштириб олган болалар турли харакат фаолиятларини бунга ургатилмаган болаларга нисбатан муваффақиятлироқ бажарадилар.

REFERENCES

1. Жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш Концепсияси 13-феврал 2019.42 бет.
2. Эштаев А.К. Гимнастика.Ўқув услубий қўлланма. Т- 2015. 124 бет3. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223- 225б
3. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(1), 778-782
4. М.Усмонова Ўқувчи шахсига йўналтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон.
5. М.Усмонова Педагогик жараён лойихаси – машғулотлар самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар Халқаро илмий конференция. Тошкент. 25 май, 2017 йил.

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Saidov Xayotjon Raxmatulloyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Moliya va bank ishi kafedrası stajior
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10535586>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklar tomonidan kredit berish yanada kengiyib bormoqda. Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga bardosh bera olishda o'z hizmat turlarini ko'paytirishlari va rivojlantirishlari shart. Bu o'z navbatida tijorat banklari xususiy kapitalining milliy va halqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etmoqda. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasida faoliyatolib borayotgan tijorat banklarida kredit monitoringgi va muammoli kreditlar haqida bo'lib, unda bugungi kundagi tijorat banklari kredit portfeli monitoringgidagi kamchiliklar, yutuqlar va xorij tajribasini qo'llashda qaysi jihatlari mamlakatimiz iqtisodiy muhiti uchun munosib ekanligi haqida qisqacha fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Kredit monitoringgi, kredit riski, kredit portfeli, muammoli kreditlar (NPL).

IMPROVING PROBLEM LOAN MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS

Abstract. In this article, lending by commercial banks is expanding. They must increase and develop their services in order to keep pace with the development of the times and to be able to withstand the competition. This, in turn, requires carrying out studies of scientific and practical importance on bringing the private capital of commercial banks closer to the level of national and international standards. The emergence of problem loans in the implementation of credit operations makes it necessary to regulate their accounting based on the requirements of international standards. It is about credit monitoring and problem loans in the commercial banks operating in the Republic of Uzbekistan, it briefly describes the shortcomings, achievements and foreign experience in the monitoring of the credit portfolio of commercial banks today, which aspects are suitable for the economic environment of our country.

Key words: Credit monitoring, credit risk, credit portfolio, non-performing loans (NPL).

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ПРОБЛЕМНЫМИ КРЕДИТАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Аннотация. В данной статье расширяется кредитование коммерческих банков. Они должны увеличивать и развивать свои услуги, чтобы идти в ногу с развитием времени и выдерживать конкуренцию. Это, в свою очередь, требует проведения исследований научного и практического значения по приближению частного капитала коммерческих банков к уровню национальных и международных стандартов. Появление проблемных кредитов при осуществлении кредитных операций обуславливает необходимость регулирования их учета с учетом требований международных стандартов. Речь идет о кредитном мониторинге и проблемных кредитах в коммерческих банках, действующих в Республике Узбекистан, кратко описаны недостатки, достижения и зарубежный опыт мониторинга кредитного портфеля коммерческих банков на сегодняшний день, какие аспекты подходят для экономической среды Узбекистана. наша страна.

Ключевые слова: *Кредитный мониторинг, кредитный риск, кредитный портфель, проблемные кредиты (NPL).*

Muammoli kreditlar (NPL) - bu qarz oluvchi belgilangan muddat davomida rejalashtirilgan to'lovlarni amalga oshirmaganligi sababli to'lanmagan kredit. Ishlamaydigan holatning aniq elementlari kreditning muayyan shartlariga qarab farq qilishi mumkin bo'lsa-da, "to'lovsiz" odatda asosiy qarz yoki foizlarning nol to'lovlari sifatida aniqlanadi.

Belgilangan muddat sanoat va kredit turiga qarab ham farq qiladi. Biroq, odatda, muddat 90 kun yoki 180 kun. Muammoli kreditlar (NPL) - bu qarz oluvchi majburiyatni bajarmagan va ma'lum vaqt davomida asosiy qarz yoki foizlarni rejalashtirilgan to'lovlarni amalga oshirmagan kredit. Bank sohasida, agar qarz oluvchi 90 kun o'tgan bo'lsa, tijorat kreditlari muammoli hisoblanadi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, agar kelajakdagi to'lovlar bilan bog'liq yuqori noaniqlik mavjud bo'lsa, muddati 90 kundan kamroq muddat o'tgan kreditlarni muammoli deb hisoblaydi. Biroq, NPLlarning standarti yoki ta'rifi yo'q. Ba'zi banklar kapitalni bo'shatish va/yoki daromad keltiradigan kreditlarni bajarishga e'tibor qaratish uchun boshqa banklar yoki investorlarga NPL sotishni afzal ko'radilar.

Muammoli kredit (NPL) defolt yoki defoltga yaqin deb hisoblanadi. Kredit to'lanmagan bo'lsa, qarzdor unito'liq to'lash ehtimoliancha pastbo'ladi. Agar qarzdor NPL bo'yicha to'lovlarni qaytadan boshlasa, qarzdor o'tkazib yuborilgan barcha to'lovlarni uddalamagan bo'lsa ham, u qayta ishlaydigan kreditga (RPL) aylanadi. Bank sohasida, agar qarzdor 90 kun ichida foizlar yokiasosiyqarzninol to'lagan bo'lsa yoki muddati 90 kun o'tgan bo'lsa, tijorat kreditlari muammoli deb hisoblanadi. Iste'mol krediti uchun muddati 180 kun o'tgan bo'lsa, uni NPL sifatida tasniflaydi. Agar asosiy qarz yoki foizlar to'lanmagan yoki o'tkazib yuborilgan bo'lsa, kredit kechiktirilgan hisoblanadi. Qarz beruvchi kredit shartnomasini buzilgan deb hisoblasa va qarzdor o'z majburiyatlarini bajara olmagan hisoblanadi.

Muammoli kreditlar turlari (NPL) qarz bir necha usul bilan muammoli kredit holatiga tushishi mumkin. NPLlarga misollar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

90 kunlik foizlar kapitallashtirilgan, qayta moliyalashtirilgan yoki kelishuv hamda dastlabki shartnomaga kiritilgan o'zgartirish tufayli kechiktirilgan kredit.

To'lovlar 90 kundan kam kechikkan kredit, lekin qarz beruvchi endi qarzdor kelajakda to'lovlarni amalga oshirishiga ishonmaydi.

Asosiy qarzni to'lash muddati tugagan, ammo kreditning bir qismi to'lanmaganligicha qolgan kredit.

Kreditni boshqarishning asosiy qismi bu muammoli kreditlarni erta aniqlash va faol boshqarish, kreditorni nomaqbul tavakkalchilikdan himoya qilish. Muammoli kreditlarni o'z balansida olib borish kreditorlarning pul oqimini qisqartirishi, byudjetni buzishi va daromadlarni kamaytirishi mumkin. Bunday yo'qotishlarni qoplash kreditorlarning keyingi kreditlar uchun mavjud bo'lgan kapitalini kamaytirishi mumkin.

Tijorat banklar tomonidan kredit berish yanada kengiyib bormoqda. Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga bardosh bera olishda o'z xizmat turlarini ko'paytirishlari va rivojlantirishlari shart. Bu o'z navbatida tijorat banklari xususiy kapitalining milliy va halqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etmoqda. Shuningdek, tijorat banklari nafaqat sub'ektlarni kreditlash balki, ushbu resurslardan kutiladigan natijani buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilishni taqozo etadi. Shuningdek, kredit operatsiyalarini amalga oshirishda

muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'ymoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlar bo'yicha to'lash va ehtimoliy yo'qotishlar zahiralari jarayolari hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda xar bir tijorat banki o'zining kredit siyosatini ishlab chiqib, kredit munosabatlarini ushbu siyosat orqali yuritadilar Markaziy bank esa kreditlash bo'yicha umumiy ko'rsatmalar beradi. Shu o'rinda kredit liniyalari haqida to'xtalib o'tsak. Xorijiy bank amaliyotida kreditlashning ikki usuli ma'lum. Birinchi usulning ahamiyati har bir individual tartibda ko'rib chiqilishidadir. Kredit ma'lum maqsaddagi mablag' ehtiyojini qondirishga beriladi. Ushbu usul aniq muddatga kredit ajratishda qo'llaniladi. Ikkinchi usulda kredit bank tomonidan qarz oluvchiga oldindan belgilab qo'yilgan kredit limiti bo'yicha beriladi, bunda qarz oluvchi unga qo'yilgan to'lov hujjatini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi. Kreditlashning ushbu shakli kredit liniyasi deb ataladi. Ochilgan kredit liniyasi kredit hisobiga barcha hisob-kitob pul hujjatlarini bank va mijoz o'ptasidagi shartnomaga asosan to'lash 1 yilga ochiladi, ammo kredit liniyasi undan qisqa muddatga ham ochilishi mumkin. Kredit liniyasi muddati davomida mijoz bank bilan qo'shimcha kelishuvni istagan vaqtida kredit olishi mumkin. Ammo bank qarz oluvchining moliyaviy holatini zaiflashganini aniqlasa, mijozga belgilangan limit chegarasida kredit berishdan bosh tortishi mumkin. Kredit liniyasi, odatda, moliyaviy barqaror va e'tiborli mijozlarga ochiladi. Mijoz iltimosiga binoan kreditlash limiti qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Kredit liniyasi - bank yoki boshqa kredit tashkilotining qaroluvchiga ma'lum davr mobaynida kelishilgan limit doirasida huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan kredit berish majburiyatidir. Kredit liniyasining ochilishi kreditor va qarzdorning uzoq muddat davomidagi xamkorligini anglatadi. Shu o'rinda xalqaro kredit liniyasiga ta'rif berib o'tsak: xalqaro kredit liniyasi bu xalqaro miqiyosda qarz oluvchiga ma'lum davr mobaynida kelishilgan limit doirasida huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan kredit berish majburiyatidir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini samarali va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar mablag'larini faol jalb etish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur chora-tadbirlar doirasida «iqtisodiy jihatdan asoslantirilgan investitsiya loyihalarini ularning moliyalashtirish manbalari aniq belgilangan holda samarali amalga oshirilishini ta'minlaydigan, shuningdek, ularni amalga oshirish bo'yicha mablag'larning nooqilona sarflanishini istisno etadigan, mamlakatni rivojlantirish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning sifat jihatdan yangi tartibi joriy etildi». Yaqin o'rta muddatli istiqbolda korxonalarini modernizatsiyalash bo'yicha kutilayotgan ehtiyojlar hamda O'zbekiston iqtisodiyotining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, yaqin yillarda bank tizimi jami kredit portfelida investitsion kreditlarning yanada o'sishini kutish mumkin. Bu esa, tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashda bank risklarini boshqarish zaruratini yuzaga keltiradi va dolzarbligini oshiradi. Alohida ta'kidlash o'rinliki, investitsion loyihalarni moliyalashtirish bankning yuqori riskli faoliyati hisoblanib, bu turdagi risklarni boshqarish murakkab va ko'p pog'onali jarayon hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, investitsion loyihalarni moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi tijorat banklari riskni boshqarish maqsadida risk-menejment jarayoniga ko'maklashuvchi o'ziga xos modellarni shakllantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bank investitsiya faoliyatiga o'z mablag'lari bilan birga, tashqaridan moliyalashtirish manbalarini jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerak. Odatda, har qanday investitsion tadbirkorlik muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan

investitsiya g'oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi.

Kredit liniyasi bir yildan oshmagan xar qanday muddatga to'lov hujjatlarini to'lash uchun beriladi, u qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan bo'lishi mumkin. Bunda limit tugagandan so'ng bank va qarzdor o'rtasidagi munosabat o'z payoniga etadi. Ushbu berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki kredit liniyasida qarz berish muddatlari turlicha T.Kosterinaning fikricha kredit liniyasi qisqa muddatga ochiladi, O.Lavrushinning fikricha muddat ahamiyatga ega emas bo'lib, asosiy e'tibor kreditning maqsimal miqdoriga karatiladi. Bulardan xulosa qilgan holda xalqaro kredit liniyasiga quyidagicha ta'rif bersak maqsadga muvofiq bo'ladi: xalqaro kredit liniyasi xalqaro moliya institutlari tomonidan qarz oluvchilarga ma'lum bir muddatga kredit limiti doirasida kredit berish majburiyatini anglatadi. Davom ettiriladigan va ettirilmaydigan kredit liniyalari o'zaro farqlanadi. Davom ettirilmaydigan kredit liniyasi ochilib ssuda berilgan va qaytarilgandan keyin mijoz va bank o'rtasidagi aloqalar tugatiladi. Davomlashtiriladigan kredit liniyasida kredit belgilangan limit asosida avtomatik ravishda beriladi va qaytariladi. Agar, bank tomonidan mijozga kredit liniyasi ma'lum tovarlarga bir shartnoma bo'yicha bir yil ichida pul to'lash uchun ochilgan bo'lsa, kredit liniyasi maqsadli bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak O'zbekistonda "substandart", "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiralar ajratiladi. Ular majburiy zaxiralar hisoblanadi. Bank ustav kapitali miqdori 100,0 mlrd so'mdan kam bo'lmasligi kerak. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklardan ularning faoliyatiga xos tavakkalchilik, iqtisodiy shart-sharoit va moliyaviy ahvolidan kelib chiqib, kapital monandligining yanada yuqori koeffitsiyenti ta'minlanishini talab qilishi mumkin. Bunday tavakkalchiliklar muammoli kreditlarning katta hajmi, sof zararlar, aktivlarning yuqori darajada o'sishi, foiz stavkalari bo'yicha yuqori darajali tavakkalchilikning yuzaga kelishi yoki tavakkalchilikka asosalangan faoliyatga jalb qilinish kabilarni o'z ichiga oladi, biroq ular bilan cheklanib qolmaydi.

Kreditlarni monitoring qilishda muammoli kreditlarni yuzaga kelishini oldini olish zarur.

AQSH tajribasiga ko'ra muammoli kreditlarni bartaraf qilish va muammoli kreditlarni default ko'rinishga yetib bormasligini ta'minlash maqsadida muammoli kreditlarni yopish uchun berilgan foizga 2 % qo'shib kreditni yopish uchun yangikredit liniyasini chib beradi. Bunda albatta tadbirkorning moliyaviy holati o'rganiladi.

REFERENCES

1. Abdukarimova D.R "Bank garov ta'minotini baholash" Monografiya -T <Iqtisod-Moliya>,2016
2. Abdukarimova D.R "Bank garov ta'minotini baholash zarurligi va asosiytamoyillari Monografiya -T <Iqtisod-Moliya>,2015
3. Абдикаримова Д.Р. Банк кредитлари гаров таъминотини баҳдлаш. Монография. - Т.: «Идтисод-Молия», 2016.
4. Mamatov B.S., Xujamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - Т.: Iqtisod-moliya, 2014.

**ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ ИКЛИМ ШАРОИТИДА ПАТИССОННИНГ
ЮҚОРИ ҲОСИЛДОР НАВЛАРНИ АНИҚЛАШ.**

Дурходжаев Шавкат Файзуллаевич

ТошДАУ Мева-сабзавотчилик ва узумчилик
кафедраси к.х.ф.ф.д (PhD)

Сативалдийев Фурқатжон Азамжон ўғли

Мева сабзавотчилик ва
узумчилик факултети Иссиқхона хўжалигини
ташқил етиш ва уни юритиш йўналишининг
2-босқич 22-57 гуруҳ талабаси,

Миралийева Хабиба Мирруслан қизи

Ўрмон хужалик ва ландшафт дизайн факултети.
Урмончилик юналиши 21-64 гуруҳ талабаси,

Тоҳирова Фарангиз Урол қизи

Мева сабзавотчилик ва
узумчилик факултети Иссиқхона хўжалигини
ташқил етиш ва уни юритиш йўналишининг
1-босқич 23-57 гуруҳ талабаси.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10535620>

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон иқлим шароитида патиссон кўчатини етиштириш, турли муддатларда экиш ва унинг ўсиши, ривожланиши, ҳосилдорлиги, шунингдек об-ҳаво шароитларининг таъсири бўйича тадқиқотлар натижалари келтирилган. Патиссон-қовоқдошлар оиласининг бир йиллик ўсимлиги, асосан, бутасимон, камдан-кам ҳолларда қамчисимон шаклда бўлади. Пояси тик, қиррали, қаттиқ-попукли, тугунлар орасида қисқарган. Бутасимон қийшиқ поянинг узунлиги 30-60 см. мевалар яссиланган, пластинка шаклидаги ёки қўнғироқ шаклидаги, оқ ёки тўқ сариқ рангда. Униб чиққандан то товар маҳсулотларини олишгача бўлган давр 40-50 кунни ташқил этади. Тадқиқот натижаларига кўра Солнышко ва Фонарик Летаящая тарелка навларини етиштиришда юқори маҳсулдорликка эришилди.

Таянч сўзлар: патиссон, нав намуналари, барг, мева вазни ва ҳосил.

**DETERMINATION OF HIGH-YIELDING POTHISSON VARIETIES IN THE
CLIMATIC CONDITIONS OF THE TASHKENT REGION.**

Abstract. In this article is given the results of experiment of the Patison cultivation in the climatic conditions of Uzbekistan, planting in different times, growth, development and yield capacity, and the influence of weather. Patison - annual plant belonging to the gourd plant family, usually grows as a shrub, in rare cases it is in the form of a whip. The stem is straight, faceted, rigidly cyst, shortened between the nodes. The length of the crooked stem is 30-60 cm. The product is oval in the form of a plate and a bell, the color is white or dark yellow. It is early maturing variety of the pumpkin family. The period between growth and harvest is 40-50 days. According to the results of the study, we achieved high yields in the cultivation of varieties Солнышко and Фонарик, Летаящая тарелка.

Key words: patisson, cultivar samples, leaf, fruit weight and yield.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВЫСОКОУРОЖАЙНЫХ СОРТОВ ПОТИССОНА В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ.

Аннотация. В этой статье переведены результаты исследования выращивания Патиссона в климатических условиях Узбекистана, посадка в разных временах, рост, развитие и урожайность, а также влияние погоды. Патиссон - однолетнее растение относящееся роду тыквенных растений, обычно растёт как кустарник, в редких случаях бывает в форме хлыста. Стебель прямой, гранёный, жёстко кистовой, сокращённый между узлами. Длина кривого стебля составляет 30-60 см. Продукт овальный в форме пластинки и колокольчика, окраска белая или тёмно-жёлтая. Период современно пророста до сбора урожая составляет 40-50 дней. По результатам исследования добились высоко урожайности в выращивании сортов Солнышко и Фонарик, Летящая тарелка.

Ключевые слова: патиссон, образцы сортов, листья, масса плодов и урожайность.

КИРИШ

Долзарблиги. Сабзавотлар – энг қимматли озиқ-овқат маҳсулоти бўлиб, инсон организмнинг нормал ишлаши учун зарур бўлган углеводлар, витаминлар, эфир мойлари, минерал тузлар ва фитонцидларни асосий етказиб берувчи асосий манба ҳисобланади. ФАО маълумотларига кўра, “қовоқдошлар оиласига мансуб, качабки ва патиссон меваларини ишлаб чиқаришда Хитой (7,2 млн. т.), Ҳиндистон (4,9 млн. т.), Украина (1,27 млн. т.), Россия (1,128 млн. т.), АҚШ (1,05 млн. т.) ва Эрон (0,9 млн. т.) давлатларида кенг миқёсда етиштирилмоқда”²⁴. Ўзбекистонда 2020 йилда патиссон етиштириладиган умумий майдони 20 гектар бўлиб, 2022 йилда патиссон етиштириладиган умумий майдони 34 гектарни ташкил этган, яъни ҳосил 512 тонна ва ҳосилдорлик 10,1 т/га ни ташкил қилмоқда. Аҳоли истеъмоли учун сабзавот турларини кенгайтириш, баҳор-ёз-куз даврларида маҳсулот олиш ва истеъмол қилишда патиссонга катта эътибор қаратилмоқда.

Дунёда патиссон нав намуналари ассортиментини кенгайтиришда шунингдек, озиқ-овқат ҳамда қайта ишлаш корхоналарини хом ашё билан таъминлашда АҚШ, Италия, Франция, Хитой, Ҳиндистон, Япония ва Россияда патиссоннинг ихчам палакли, меваларининг турли рангдаги ва шаклдаги навларини яратиш ҳамда меваларини етиштириш технологияси бўйича тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистонда агрокластер, фермер, деҳқон ва шахсий томорқа хўжалиklarини даромадини, қайта ишлаш корхоналарининг ишлаб чиқариш ҳажмини оширишда сабзавотчилик соҳасидаги илм-фан ютуқлари, хусусан комплекс қимматли хўжалик белгилари юқори янги навлар ҳамда такомил-лаштирилган агротехнологиялар тадбиқ қилинмоқда. Шунга қарамадан, республикада сўнгги йилларда патиссон ҳосилдорлиги ва сифатини ошириш бўйича кенг қамровли илмий изланишлар амалга оширилмаган бўлиб, маҳсулот етиштиришнинг ишлаб чиқаришдаги мавжуд ассортименти – хорижий (Белый 13) ва маҳаллий (Заркокил) навларидан иборат. Ўзбекистон Республикасининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” да “Қишлоқ

²⁴ FAOSTAT Statistics Database. FAO, Rome, Italy. <http://www.fao.org>.

хўжалигини илмий асосда интенсив ривожлантириш орқали деҳқон ва фермерлар даромадини камида 2 баравар ошириш, қишлоқ хўжалигининг йиллик ўсишини камида 5 фоизга етказишда, айниқса, 2026 йилга бориб озиқ-овқат маҳсулотлари ҳажмини 7,4 млн тоннага, қайта ишлаш даражасини мева-сабзавот бўйича 28 фоизга етказиш²⁵га алоҳида эътибор қаратилган. Бу борада, Ўзбекистонда патиссон нав ассортиментини кенгайтириш, юқори маҳсулдор навларни танлаш ва меваларни етиштириш технологиясини такомиллаштириш долзарб илмий йўналиш ҳисобланади.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Хорижий мамлакатларда патиссоннинг морфо-биологик ва қимматли хўжалик белгиларини ўрганишда Н.С. Paris (АҚШ), патиссонни юқори ҳосилдор нав ва дурагайларини танлашда Robert Westerfield (АҚШ), Rosie Lerner В. (АҚШ), Michael N. Dana (АҚШ), R.N. Rashmi (Хиндистон), К. Sato-Nara (Япония), К. Yuhashi (Япония), К. Higashi (Япония), турли экиш муддатларида маҳсулот етиштиришда К. Hosoya (Япония), Россияда патиссон навларини яратишда В.А. Лудилов, О.В. Чернявская ҳамда патиссон навларни танлаш ва етиштириш технологиясини такомиллаштиришда В.И. Фатьянов, Т.А. Октябрьская, Т.Е. Луциц, О. Ганичкина, В.Ф. Пивоваров, Л.П. Барахаева, А.В. Гончаров, А.А. Коломиецлар илмий-тадқиқот ишларини олиб борганлар. Ўзбекистонда патиссоннинг маҳаллий навини яратишда Ш. Жабборов, навларни танлаш, экиш муддати ва схемаларини ишлаб чиқишга оид тадқиқотлар Н.Н. Балашев, М.Н. Кулакова, В.И. Зуев ва Х.Ч. Бўриевлар томонидан бажарилган.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida turmush o'rtog'ini tanlash uslubiga ko'ra, nikohni ikki xil turga bo'lish keng qabul qilingan: "sevgi nikohi (love marriage)" va "kelishilgan nikoh arranged marriage". "Sevgi nikohi – yigit va qiz bir-birini sevishib, ota-onaning roziligi bilan yoki roziligisiz qurilgan nikohlarni anglatadi. Kelishilgan nikoh esa ikki oila o'rtasidagi kelishuvga asoslanib tashkil topgan nikohlar bo'lib, bunda turmush o'rtog'ini tanlash huquqi ikki yoshga emas, ota-ona, buva-buvi yoki yaqin qarindoshlar kabi oila a'zolariga topshiriladi"².

"Mustaqillik yillarida esa mahallaning bu azaliy xususiyatlari qatoriga ko'plab yangi va mas'uliyatli vazifalar kelib qo'shildi. CHunonchi, mahallaning huquq va vakolatlari doirasi sezilarli kengaytirildi. U o'zini o'zi boshqarishning g'oyat xalqona, tabiiy tizimi sifatida jamiyat hayotini tashkil etishda tobora faol ishtirok etmoqda. Uning bu ishtiroki ham qonuniy, huquqiy asosga ega bo'ldi. Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta "mahalla" tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab qo'yildi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida: «SHaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda

² Хамрокулова.Б.М. Сурхондарё воҳасида бола туғилиши ва тарбияси билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан...номз...дис.- Тошкент,2002,-Б.22-25

⁶¹ Тошева.Г.С. XX асрда Қашқадарё воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари: Тарих фан.номз...дис.- Тошкент,2002 – Б.83

² TARBIYA JARAYONIDA OILA, MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI – тема научной статьи по наукам об образовании читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка

fuqarolarning yigʻinlari oʻzini oʻzi boshqarish organlari boʻlib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

REFERENCES

1. Shokir oʻgʻli, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI OʻRNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
2. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722-727.
3. Sadullayev Umidjon Shokir Oʻgʻli. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25–30. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05>
4. Sadullayev Umidjon Shokir oʻgʻli. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 480–485. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142>
5. Oʻgli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
6. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722–727.
7. Shokir oʻgli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 554-559.
8. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 488-493.
9. Sadullayev, U. (2023). Oʻzbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan eʼtibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
10. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
11. Shokir oʻgli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
12. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.
13. Jabborova Aziza Jobirovna. (2023). THE CATEGORY OF ASPECT IN ENGLISH GRAMMAR. *Academia Science Repository*, 4(05), 10–27. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/443>
14. Aziza Jabborova Jobirovna. (2023). Effective Classroom Management: Strategies for Teachers. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 444–450. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2133>

15. Aziza Jabborova Jobirovna. (2023). Qualities of an Ideal Teacher. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 437–443. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2132>
16. Jobirovna, A. J. (2023). Engaging Classroom Strategies: Fostering Active Participation among Students . *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 155–161. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1379>
17. Jabborova , A. (2023). THE LECTURER OF HISTORY AND PHILOLOGY DEPARTMENT, ASIA INTERNATIONAL UNIVERSITY. *Modern Science and Research*, 2(9), 97–108. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23905>
18. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O 'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2 (8), 111–114.
19. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich. (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 31–33. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06>
20. Sayfutdinov, F. (2023). THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(10), 719–723. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24678>
21. Karimova, G. (2023). SKIMMING AND SCANNING. *Modern Science and Research*, 2(9), 334-335.
22. Karimova Go'zal Ikhtiyorovna. (2023). MASTERING THE ART OF EFFECTIVE SPEAKING AND READING: STRATEGIES FOR IMPROVING SPEAKING AND READING SKILLS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(10), 32–38. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue10-06>
23. Qurbonova N.R., & Karimova Guzal Ikhtiyorovna. (2023). DEVELOPMENT OF FANTASY GENRE IN 20TH CENTURY. *Intent Research Scientific Journal*, 2(5), 1–5. Retrieved from
24. Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich. (2023). Metaphoric Analysis of “The Kite Runner” by Khaled Hosseini. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 573–578. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2175>
25. Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich. (2023). LANGUAGE AND SOCIETY IN CINEMATIC DISCOURSE. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(12), 44–50. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue12-09>
26. Ollomurodov, A. (2023). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TRANSLATION OF CONCEPTUAL METAPHORS IN UZBEK AND ENGLISH. *Modern Science and Research*, 2(12), 608-614.
27. Orifjonovich, O. A. (2023). The Main Features of Conceptual Metaphors in Modern Linguistics. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 365-371.

28. Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich. (2023). LANGUAGE AND SOCIETY IN CINEMATIC DISCOURSE. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(12), 44–50. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue12-09>.
29. Ollomurodov, A. (2023). CINEMA DISCOURSE ANALYSIS AND THEORETICAL FOUNDATIONS IN LINGUISTICS. *Modern Science and Research*, 2(10), 500-505.
30. Sulaymonovna, Q. N., Tashpulatovna, K. M., & Orifjonovich, O. A. (2023). COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF. VOLUME, 3, 30-35.
31. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2023). XOLID HUSAYNIYNING ASARLARI TARJIMALARIDA KONSEPTUAL METAFORALAR TALQINI VA.
32. Ollomurodov, A. (2023). MULTIDISCIPLINARY AND INTERDISCIPLINARY STUDY OF METAPHOR. *Modern Science and Research*, 2(9), 136-139.
33. Orifjonovich, O. A. (2023). METAFORANING KO'P TARMOQLI VA FANLARARO O'RGANILISHI.
34. Orifjonovich, O. A. (2023). KINODISKURS LINGVISTIK SISTEMANING BIR QISMI SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(23), 208-211.
35. Orifjonovich, O. A. (2023). Cognitive-Discursive Approach to the Analysis Of Film Discourse. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(10), 25-31.
36. Sulaymonovna, Q. N., Tashpulatovna, K. M., & Orifjonovich, O. A. (2023). COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF METAPHORS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 849-854.
37. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2023, May). XOLID HUSAYNIYNING ASARLARI TARJIMALARIDA KONSEPTUAL METAFORALAR TALQINI VA TAHLILI. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 147-150).
38. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. *Scientific Impulse*, 1(3), 594-600.
39. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. *Scientific Impulse*, 1(3), 594-600.
40. Fayzullayeva, N. S. qizi . (2023). Theoretical Views on the Use of the Term "Concept" in Cognitive Linguistics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(5), 27–31. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/1685>
41. Fayzullayeva, N. (2024). "AMERICAN DREAM" IN WALT WITHMAN'S POEMS. *Modern Science and Research*, 3(1), 220–224. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27940>

42. Sur'at qizi Fayzullayeva, N., & Kilicheva, M. R. (2022). UOLT UILTMAN NASRIDA "AMERIKA ORZUSI" KONSEPTI. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(8), 574-576.
43. Fayzullayeva, N. (2023). THE IMPROVING OF LISTENING SKILL. *Modern Science and Research*, 2(10), 272–276. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25086>
44. Fayzullayeva, N. (2023). THE CONCEPT OF THE AMERICAN DREAM AND WALT WHITMAN. *Solution of social problems in management and economy*, 2(11), 137-142.
45. Fayzullayeva, N. (2023). THE ROLE OF THE AMERICAN DREAM IN UOLT WILTMAN'S POEMS. *Modern Science and Research*, 2(10), 714–718. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24676>
46. Fayzullayeva, N. (2023). USAGE OF THE FLORA IN THE EARLY MODERN ENGLISH POETRY. *Modern Science and Research*, 2(9), 36–39. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24078>

AHOLINING HUQUQIY MADANIYATI VA HUQUQIY BILIMINI YUKSALTIRISH QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLANISHINING MUSTAHKAM POYDEVORI.

Dehqonov Behzod Nekmurod o'g'li

Buxoro davlat universiteti

“Tarix va yuridik” fakulteti 4-bosqich talabasi

E-mail: dehqonovbehzod05@gmail.com

Telefon nomer: +998770462086

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10536030>

Annotatsiya. Maqolada jamiyat hayotida aholining huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ahamiyati va ushbu tizimni takomillashtirishda amalga oshirilayotgan islohotlar, O'zbekistonning qonun ustuvorligi bo'yicha “rule of law index” reytingidagi o'rni haqida to'xtalib o'tilgan. Huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda va qonun ustuvorligini ta'minlashda qonunchiligimizda qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilayotgan loyihalar haqida xorijiy huquqshunoslar fikri keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy tarbiya, korrupsiya, huquqiy madaniyat, “Rule of law index”, konferensiya, huquqiy axborot, qonun ustuvorligi, konstitutsiya, ishonchlilik.

IMPROVING THE LEGAL CULTURE AND LEGAL KNOWLEDGE OF THE POPULATION IS A SOLID FOUNDATION FOR ENSURING THE RULE OF LAW.

Abstract. In the article, the importance of legal education and raising the legal culture of the population in the life of society and the reforms implemented to improve this system, Uzbekistan's rule of law index rating The opinions of foreign jurists were cited about the decisions made in our legislation and the projects implemented in legal education, raising legal culture and ensuring the rule of law.

Key words: legal education, corruption, legal culture, "Rule of law index", legal information, rule of law, constitution, reliability.

ПОВЫШЕНИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ПРАВОВЫХ ЗНАНИЙ НАСЕЛЕНИЯ ЯВЛЯЕТСЯ ПРОЧНОЙ ОСНОВОЙ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВЕРХОВЕНСТВА ЗАКОНА.

Аннотация. В статье подчеркивается важность правового воспитания и повышения правовой культуры населения в жизни общества, проводимые реформы в совершенствовании этой системы, место Узбекистана в рейтинге верховенства закона “rule of law Index” Юридическое воспитание, приводится мнение зарубежных юристов о решениях и реализуемых проектах, принимаемых в нашем законодательстве в целях повышения правовой культуры и обеспечения верховенства закона.

Ключевые слова: правовое воспитание, коррупция, правовая культура, “указатель правовых норм”, правовая информация, верховенство закона, Конституция, надежность.

Har bir demokratik davlatning eng katta vazifasi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarni huquqlarini ishonchli himoya qilish, aholining huquqiy erkinligini ta'minlashdan iborat hisoblanadi. Bularning barchasi aholining huquqiy madaniyati va huquqiy bilimni yuksaltirish bilan bevosita bog'liq. Qonun ustuvorligini ta'minlash, demokratiyani mamlakatda kuchli bo'lishi nafaqat davlat organlari xodimlariga balki fuqarolarning o'ziga ham bog'liq.

Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy bilimni qanchalik yuqorilar ekanmiz qonun ustuvorligi bo'yicha ham shuncha muvaffaqiyatga erishamiz. Biz shu sohani takomillashtirishdan oldin uning nima ekanligini va qanchalik ahamiyatga ega ekanligini bilib olishimiz zarur.

Huquqiy madaniyat- jamiyatimizda aholining qonunchilik tizimidan xabardorlik darajasi, qonun ustuvorligi va yangiliklariga bo'lgan munosabati va qonunchiligimizda mavjud bo'lgan qonun tartib qoidalarga bo'ysinish.

Barcha sohalar, barcha tarmoqlar rivojlangani sari huquq tizimida va uning targ'ibotida ham innovatsion yangiliklar, texnologiyalar, zamonaviy usullar kirib kelmoqda. Biz ham huquqiy madaniyat va huquqiy bilimni yuksaltirish yo'lida qiladigan ishlarimiz, yangiliklarimiz juda ham ko'p va huquq sohasi shuni talab qilib kelmoqda.

Huquq targ'iboti aholi uchun, yoshlar uchun juda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida ko'p to'xtalib o'tmoqdamiz. Biz targ'ibotni avvalo jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oiladan boshlashamiz zarur. Chunki hamma narsaning poydevori bo'lgani kabi huquqiy madaniyat va huquqiy bilim berishning poydevori ham aynan oila hisoblanadi. Har bir ota ona yoki oila a'zolari huquqiy madaniyatni ham huquqiy nigilizmni ham o'rgatadigan shu o'rinlarda o'rnak bo'ladigan bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatdagi insonlar huquqbuzarliklarga befarq bo'lsa, qonunbuzarliklarni oldini vaqtida olmasa yoki unga qarshi yetarlicha tartib o'rnatmasa bunday jamiyat tannazulga yuz tutishi, jinoyatlar ko'payishi, qonunga nopisandlik kuchayishi, befarqlik, korrupsiya holatlari ko'payishiga guvoh bo'lamiz.

Bugungi kunda huquqiy targ'ibotda OAV dan, gazeta, jurnal, ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanib kelmoqda. Maktablar, texnikumlar, litseylar, universitetlarda ham bir qator yangililar, innovatsiyalar amalga oshirib kelinmoqda. Jahonda qonun ustuvorligi bo'yicha xalqaro "World justice project" saytining "Rule of law index" indeksi reytingida 142 davlat kiritilgan. O'zbekiston bu reytingda 2023-yilda qonun va huquq ustuvorligi bo'yicha 0.50 ko'rsatkich bilan 78-o'rinda qayd etilgan. Ushbu reyting asosan 8 ta indikatorida aniqlangan. Ular:

1. Fuqarolik odil sudlovi indikatorida – 74 - o'rin;
2. Hokimiyat organlari vakolatlarining cheklanganligi indikatorida - 119-o'rin;
3. Korrupsiyaning mavjud emasligi indikatorida – 66-o'rin;
4. Qonunlarga rioya qilish indikatorida – 99-o'rinda
5. Asosiy huquqlarning ta'minlanganlik indikatorida – 109-o'rinda
6. Jinoiy sudlov indikatorida – 71-o'rin
7. Hukumat ochiqligi indikatorida – 119-o'rinda
8. Tartib va xavfsizlik indikatorida - 17-o'rin

Ushbu indikatorga hukumat ochiqligi, asosiy huquqlarining ta'minlanganlik, qonunlarga rioya etish, hokimiyat organlari vakolatlarining cheklovlari indikatorlarida natijamiz juda achinarli holatda.

Bu indikatorlarda yuqori natijaga erishish uchun aholining huquqiy madaniyati va huquqiy bilimni yuksaltirish bilan birga huquq sohasida innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunning talabi hisoblanadi.

Bu uchun turli xil "law innovation" yoki "modern law technologies" kabi tanlovlar tashkil etish orqali sohada huquqiy innovatsiyalar joriy etishimiz huquq sohasida ancha yuqorilashimizga xizmat qiladi. Bunday tanlovlarni ayniqsa hukumat ochiqligi, fuqarolarning asosiy huquqlarining ta'minlanganligi, qonunlarga rioya etish kabi yo'nalishlarda joriy etishimiz kerak.

O'zbekistonda huquqiy madaniyat va huquqiy bilimga e'tibor, qonun ustuvorligini ta'minlashda juda ko'p islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsada lekin hali ham juda ko'p kamchililar kuzatilmoqda.

Misol uchun hozirgi vaqtda ham ba'zi organ xodimlari tomonidan qonun-qoidalarni yetarli darajada bilmaslik, fuqarolar orasida esa korrupsiya, qonun-qoidalarga bepisandlik, demokratik jarayonlarda e'tiborsizlik holatlari ko'zga tashlanadi.

Qonuni va o'z haq-huquqlarini bilmaslik ortidan esa ba'zi mansabdor shaxslar, davlat organlari xodimlari tomonidan vaziyatni o'z tomoniga hal qilish holatlar uchrab turmoqda. Shuningdek fuqarolar orasidagi huquq sohasiga beparvolik, mensimaslik holatlarini noto'g'ri yo'llardan yurayotgan yo'lovchilar, saylov tizimida ishtirof etmayotgan fuqarolar, korrupsiya holatlariga chorlayotgan shaxslar, mamlakatdagi huquq tizimida yangiliklarga, islohotlarga qiziqmaydigan yoshlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Mana shunday holatlarni bartaraf etish uchun eng avvalo huquq tizimida biz yoshlarni qiziqtirishimiz ularni davlat fuqarolik jamiyatida faolligini oshirishimiz zarur. Demokratiya taraqqiy etgan mamlakatlarni tizimiga yuzlanadigan bo'lsak ular ham asosiy e'tiborni yoshlarga, innovatsiyalarga qaratganini ko'ramiz.

Dunyoda huquq ustuvorligi bo'yicha yetakchi davlatlar: Daniya, Norvegiya, Finlandiya, Shvetsiya, Germaniya, Kanada kabi hisoblanadi. Bu davlatlar ichida Finlandiya ta'lim tizimi va aholini huquqiy savodxonligi, huquqiy madaniyati yuksak darajalarga erishgan. Ularning asosiy yutug'i birinchisi bu o'qishni rag'batlantirish ikkinchisi esa doimiy o'qishga odatlangan yoshlar. Bu aholisi orasida savodxonlik keng targ'ib qilinadi. Bu yerda nafaqat kitob nazarda tutilyabdi balki matbuot, ommaviy axborot vositalari, gazeta, jurnallarni o'qishga odatlangan.

Agar e'tibor qiladigan bo'lsak bugungi kunda gadjetlarga ijtimoiy tarmoqlarda tebeligimiz ortib bormoqda. Gadjetlar texnologilardan foydalanish davr talabi. Lekin bu kabi zamonaviy texnologiyalardan ta'lim yo'lida foydalanayotgan yoshlar juda kam. Huquqiy savodxonlikni oshirmoqchi bo'lsak eng avvalo yoshlarni kitobxonlikka, gazeta va jurnallarga o'qishga chorlab, gadjetlardan tog'ri foydalanishini targ'ib qilishimiz kerak.

Shuningdek chop etilayotgan gazeta, jurnallarni sifatiga ulardagi huquqiy va boshqa ma'lumotlarni, yangiliklarni qiziqarli va tushunarli qilib yoritib beritish zarur. Keyingi qadam esa qishloqlarda, tumanlarda, shaharlarda ko'chma kutubxonalar tashkil etish. Bu juda samarali kitobxonlikka targ'ib etish hisoblanadi.

Ko'chalarda kutubxona bor ekan o'z o'zidan kitoblarga bo'lgan talab ham oshib boraveradi. Aholi va mana shu jamiyatga yashayotgan yoshlar ko'p kitob so'rar ekan demokratik fuqarolik jamiyat qurishda ham takliflar, innovatsiyalar, qonun ustuvorligiga targ'iblar paydo bo'lib boraveradi.

REFERENCES

1. Saidqulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. – Guliston, Universitet. 2020. 94 bet. (Saidkulov.N. “ Basics of legal culture and legal education ”).
2. Saydullayev.Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi – Toshkent.: Yuridik adabiyotlar publish, 2021. 248 bet (Saydullayev.Sh.A. “ State and law theory ”).

3. Husanboyev O.O. Huquqni qo'llash – huquqni amalga oshirishning maxsus shakli. Toshkent-2022. 73 bet (Husanboyev.O.O. “ Law enforcement is a special form of law enforcement ”)
4. Ahmedshayeva.M. Ijtimoiy munosabatlar va huquq.- Toshkent.: TDYU nashriyoti, 2023.- 112 bet (Ahmedshayeva.M. “ Social relations and law “)

INGLIZ TILIDA TAQINCHOQ NOMLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING INGLIZ LEKSIKASIDAGI AHAMIYATI

Erdonova Shahnoza Muxtor qizi

TISU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10536049>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilida taqinchoq nomlarining shakllanishi va ularning ingliz leksikasidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Zargarlik buyumlari, bardoshli bezaklar, marjonlar, sirg'alar, bilaguzuklar.

THE FORMATION OF JEWELRY NAMES IN ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE IN THE ENGLISH LEXICON

Abstract. This article provides information about the formation of jewelry names in English and their importance in the English lexicon.

Keywords: Jewelry, durable jewelry, necklaces, earrings, bracelets.

ФОРМИРОВАНИЕ НАЗВАНИЙ ЮВЕЛИРНЫХ ИЗДЕЛИЙ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В АНГЛИЙСКОМ ЛЕКСИКОНЕ.

Аннотация. В данной статье представлена информация об образовании названий ювелирных изделий на английском языке и их значении в английском лексиконе.

Ключевые слова: Ювелирные изделия, долговечные украшения, кольцо, серьги, браслеты.

Zargarlik buyumlari uzuklar, marjonlar, sirg'alar, bilaguzuklar va manjetlar kabi shaxsiy bezak uchun kiyiladigan bezak buyumlaridan iborat. Zargarlik buyumlari tanaga yoki kiyimga biriktirilishi mumkin. G'arb nuqtai nazaridan, bu atama bardoshli bezaklarga nisbatan ishlatilgan, masalan, gullar bundan mustasno. Ko'p asrlar davomida qimmatbaho toshlar bilan birlashtirilgan oltin kabi metall zargarlik buyumlari uchun odatiy material bo'lib kelgan, ammo shisha, qobiq va boshqa o'simlik materiallari kabi boshqa materiallardan foydalanish mumkin.

Zargarlik arxeologik artefaktlarning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, Nassarius chig'anoqlaridan yasalgan 100 000 yillik munchoqlar eng qadimgi ma'lum bo'lgan zargarlik buyumlari hisoblanadi.⁶² Zargarlik buyumlarining asosiy shakllari madaniyatlar orasida farq qiladi, lekin ko'pincha juda uzoq umr ko'radi; Yevropa madaniyatlarida yuqorida sanab o'tilgan zargarlik buyumlarining eng keng tarqalgan shakllari qadim zamonlardan beri saqlanib qolgan, boshqa madaniyatlarda muhim bo'lgan burun yoki to'piq uchun bezaklar kabi boshqa shakllar esa kamroq tarqalgan.

Zargarlik buyumlari turli xil materiallardan tayyorlanishi mumkin. Qimmatbaho toshlar va shunga o'xshash qahrabo va marjon, qimmatbaho metallar, munchoqlar va chig'anoqlar kabi materiallar keng qo'llanilgan va muhim ahamiyatga ega. Aksariyat madaniyatlarda zargarlik buyumlarini uning moddiy xususiyatlari, naqshlari yoki mazmunli ramzlari uchun maqom belgisi deb tushunish mumkin. Zargarlik buyumlari tananing deyarli barcha a'zolarini, soch turmagidan oyoq barmoqlarigacha va hatto jinsiy a'zolari bezash uchun yaratilgan. Zamonaviy Evropa

⁶² Tadqiqot "eng qadimiy zargarlik buyumlarini" ochib beradi, 2018-06-12, Wayback Machine-da arxivlangan, BBC News, 22-iyun, 2006-yil

madaniyatida kattalar erkaklar tomonidan kiyinish miqdori Evropa madaniyatidagi boshqa madaniyatlar va boshqa davrlarga nisbatan nisbatan past.

Ingliz tilidagi “jewellery” so'zining o'zi keyinchalik inglizchalashib ketgan qadimgi frantsuzcha "jouel" (“marvarid” ma’nosini bildirgan)⁶³ so'zidan va undan tashqari lotincha "jocale", ya'ni o'yinchoq so'zidan olingan. Britaniya ingliz tilisi, hind ingliz tilisi, Yangi Zelandiya ingliz tilisi, Avstraliya ingliz tilisi va Janubiy Afrika ingliz tilida u “jewellery” tarzida yozilsa, Amerikancha ingliz tilida esa “jewelry” tarzida bo'ladi.

Ikkalasi ham Kanada ingliz tilida qo'llaniladi. Standart talaffuz /'dʒu:əlri/⁶⁴bu farqni aks ettirmaydi, lekin nostandart talaffuz /'dʒu:ləri/ (Yangi Zelandiya va Britaniyada mavjud, shuning uchun Kokney qofiyali jarangli tomfoolery /tɒm'fu:ləri/) farq qiladi. Faulerning so'zlariga ko'ra, zargarlik buyumlari Buyuk Britaniyada "ritorik va she'riy" imlo bo'lgan va The Times tomonidan 20-asrning o'rtalarida ham ishlatilgan. Kanadada ikkalasi ham bor, lekin “jewellery” ko'proq ishlatiladi.

Xuddi shunday, Hamdo'stlikda (shu jumladan Kanadada) zargarlik buyumlari sotuvchisini “jeweler” (zargar) tariqasida yozishsa, AQShda esa “jeweler” tarzida bo'ladi. Frantsuz va boshqa bir qancha Yevropa tillarida ekvivalent atama, joaillerie, nafaqat insonga kiyiladigan buyumlarni emas, balki qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarni va cherkov buyumlarini ham qamrab olishi mumkin.

Zargarlik buyumlarining tarixiy marshrutini kuzatish imkoniyati, birinchi navbatda, eng uzoq tsivilizatsiyalardan boshlab, o'liklarni eng boy kiyimlari va bezaklari bilan dafn etish odatlaridan kelib chiqadi. Plastik va tasviriy ikonografiya - rasm, haykaltaroshlik, mozaika - turli davrlarda taqilgan zargarlik buyumlari haqida ko'p guvohlik beradi.

Ehtimol, tarixdan oldingi odamlar kiyimni taklif qiladigan har qanday narsadan foydalanishni o'ylamasdan oldin tanani bezashni o'ylashgan. Qimmatbaho metallar kashf etilishidan oldin, dengiz qirg'og'ida yashovchi odamlar o'zlarini turli xil qobiqlar, baliq suyaklari, baliq tishlari va rangli toshlar bilan bezashgan.

Ichkarida yashovchi odamlar oziq-ovqat uchun o'ldirilgan hayvonlardan bezak materiallari sifatida foydalanishgan: bug'u shoxlari, mamont tishlari va barcha turdagi hayvonlar suyaklari. Ular tabiiy holatidan turli xil ishlab chiqilgan shakllarga aylantirilgandan so'ng, bu materiallar hayvonlarning terilari va qushlarning patlari bilan birgalikda etarlicha bezak berdi.

Bu davrdan keyin ko'chmanchi hayotdan o'troq ijtimoiy tuzumga o'tish va eng qadimgi tsivilizatsiyalarning paydo bo'lishi kuzatildi. Aksariyat xalqlar yirik daryolar qirg'oqlarida joylashdilar, bu esa dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishiga yordam berdi. Bu bilvosita, shuningdek, birinchi navbatda oltin va qimmatbaho toshlar bo'lgan minerallarning allyuvial konlarini topishga olib keldi.

Yillar davomida tarixdan oldingi davrlarning cheklangan zargarlik shakllari tananing har bir qismi uchun bezaklarni o'z ichiga olguncha ko'paydi. Bosh uchun tojlar, diademalar, soch qisqichlari, taroqlar, sirg'alar, burun halqalari, lablar va quloq sirg'alari paydo bo'ldi. Bo'yin va gavda uchun marjonlarni, fibulalar (qadimgi xavfsizlik pinasi), broshlar, ko'krak qafasi uchun taqinchoqlar, oshqozon, kamar va soat foblari bor edi.

⁶³ Wayback Machine Dictionary.com Qisqartirilgan (v 1.1). 2007-yil 7-avgustda Dictionary.com veb-saytidan olindi.

⁶⁴ Cambridge Advanced Learner's Dictionary,

Qo'llar va qo'llar uchun bilaguzuklar, bilaguzuklar va uzuklar tikilgan. Sonlar, oyoqlar va oyoqlar uchun hunarmandlar son bilakuzuklar, oyoq bilakuzuklar, oyoq barmoqlari va poyabzal tokalarini ishlab chiqdilar.

Odamlar zargarlik buyumlaridan turli sabablarga ko'ra foydalanganlar:

funksional, odatda kiyim yoki sochni joyida tuzatish uchun.

nikoh uzugi kabi ijtimoiy mavqe va shaxsiy maqomning belgisi sifatida,

etnik, diniy yoki ijtimoiy mansublikning qandaydir shaklining belgisi sifatida,

talismanik himoyani ta'minlash (tumor shaklida)⁶⁵,

badiiy namoyish sifatida,

shaxsiy ma'noning tashuvchisi yoki ramzi sifatida - sevgi, motam, shaxsiy bosqich yoki hatto omad kabi,

yaxshi investitsiya,

xurofot⁶⁶.

Ko'pgina madaniyatlar bir vaqtning o'zida katta miqdordagi boylikni zargarlik buyumlari shaklida saqlash amaliyotiga ega bo'lgan. Ko'pgina madaniyatlar to'y sovg'alarini zargarlik buyumlari shaklida saqlaydi yoki tangalarni saqlash yoki namoyish qilish vositasi sifatida zargarlik buyumlarini yasaydi. Shu bilan bir qatorda, zargarlik buyumlari valyuta yoki savdo tovari sifatida ishlatilgan⁶⁷.

Ko'pgina zargarlik buyumlari, masalan, jig'a va tokalar sof funksional buyum sifatida paydo bo'lgan, ammo ularning funksional talablari kamayishi sababli bezak buyumlariga aylangan.⁶⁸

Zargarlik buyumlari guruhga a'zolikni (xuddi nasroniy xochga mixlanganda yoki yahudiy Dovud yulduzida) yoki maqomni (mansab zanjirlarida bo'lgani kabi yoki turmush qurganlarning nikoh uzuklarini taqishning G'arb amaliyotida) ramziy qilishi mumkin.

Himoya qilish yoki yovuzlikdan saqlanish uchun tumor va medallar kiyish ba'zi madaniyatlarda keng tarqalgan. Bular ramzlar (masalan, anx), toshlar, o'simliklar, hayvonlar, tana a'zolari (Xamsa kabi) yoki gliflar (islom san'atida "Arsh" oyatining stilize qilingan versiyalari kabi) shaklida bo'lishi mumkin.[9]

Zargarlik maqomni bildirish uchun ishlatilgan. Qadimgi Rimda faqat ma'lum bir mansabdor shaxslar uzuk taqishlari mumkin edi⁶⁹ va keyinchalik kimga qanday zargarlik buyumlarini taqish mumkinligi to'g'risida qonunlar belgilab qo'yilgan. Bu ham o'sha davr fuqarolarining martabasiga bog'liq edi.

⁶⁵ Jorj Frederik (1917). Javohirlar va jozibalar sehri. Jon Lippincott Co. URL: Marvaridlar sehri: Tumorlarning VII bo'limi 2013-12-13 Wayback mashinasida arxivlangan Tiffany's gemmologi Jorj Frederik Kunz bankir J.P.Morgan va Nyu-Yorkdagi Amerika tabiiy tarix muzeyi kolleksiyalarini qurgan. . Ushbu bob butunlay G'arb madaniyatlarida talismanik maqsadlarda zargarlik buyumlarida marvarid va qimmatbaho toshlardan foydalanish bilan bog'liq.

⁶⁶ Manutchehr-Danai, Mohsen, ed. (2009). "sehrli zargarlik buyumlari". Qimmatbaho toshlar va gemologiya lug'ati. Berlin: Springer. doi: 10.1007/978-3-540-72816-0. ISBN 978-3-540-72795-8. sehrli zargarlik buyumlari [...] sehrli e'tiqodlari, dorivor kuchlari yoki xurofotlari uchun kiyiladigan zargarlik buyumlari.

⁶⁷ "BBC - Tarix - Qadimgi tarix chuqurligi: Viking pullari". Asl nusxadan arxivlangan, 2014-02-10. Olingan 2017-11-10.

⁶⁸ Holland, J. 1999. Kingfisher tarixi entsiklopediyasi. Kingfisher kitoblar.

⁶⁹ Jon Bostok, Genri Tomas Rayli, XXXIII kitobi Metallarning tabiiy tarixi Perseus loyihasida onlayn, 2008-04-11, Wayback Machine-da arxivlangan 4-bob. 2006-yil iyulida foydalanilgan.

Madaniy buyruqlar ham muhim rol o'ynadi. Masalan, 19-asr va 20-asr boshlarida g'arb erkaklari tomonidan sirg'a kiyish ayollik deb hisoblangan. Yaqinda pirsing kabi zargarlik buyumlarining namoyishi qabul belgisiga aylandi yoki ba'zi guruhlarda jasorat belgisi sifatida ko'rildi, ammo boshqalarda butunlay rad etildi. Xuddi shunday, xip-xop madaniyati erkaklar yoki ayollar tomonidan zargarlik buyumlarini ko'zga ko'rinadigan tarzda namoyish etishni anglatuvchi bling-bling jargon atamasini ommalashtirdi.

Aksincha, 20-asrning boshlarida zargarlik sanoati erkaklar uchun nikoh uzuklarini ommalashtirish kampaniyasini boshladi, ular qo'lga tushdi, shuningdek, erkaklar uchun uzuklarni ommalashtirish bo'yicha, ular yolg'on tarix yaratish va amaliyotni da'vo qilishgacha bordi. o'rta asr ildizlariga ega edi. 1940-yillarning o'rtalariga kelib, AQSHdagi to'ylarning 85 foizi qo'sh qo'ng'iroq qilish marosimini o'tkazgan bo'lsa, 1920-yillarda bu ko'rsatkich 15 foizni tashkil etgan.[19]

Ba'zi dinlarda zargarlik buyumlari bilan bog'liq o'ziga xos qoidalar yoki an'analar mavjud (yoki hatto uni taqiqlash) va ko'plab dinlarda haddan tashqari ko'rinishga qarshi farmonlar mavjud.

Masalan, Islom erkaklarning tilla taqishini harom deb biladi [20]. Islom zargarlik buyumlarining aksariyati kelinlik mahrlari shaklida bo'lib, an'anaga ko'ra avloddan-avlodga o'tmagan; Buning o'rniga, ayol o'lganida, u bozorda sotilgan va qayta ishlangan yoki o'tkinchilarga sotilgan. 19-asrdan oldingi islomiy zargarlik buyumlari juda kam uchraydi.[21]

Ba'zi xristian mazhablari erkaklar va ayollar, shu jumladan Amish-Mennonitlar va Muqaddaslik cherkovlari tomonidan zargarlik buyumlaridan foydalanishni taqiqlaydi. Muqaddas Kitobning Yangi Ahdida havoriylar Pavlus va Butrusning va Vahiy kitoblarida oltin taqishga qarshi buyruqlar berilgan, "buyuk fohisha" yoki soxta diniy tizim "oltin, qimmatbaho toshlar va marvaridlar bilan bezatilgan" deb ta'riflanadi. qo'lida oltin kosa bor." (Vah. 17:4)

REFERENCES

1. Tadqiqot "eng qadimiy zargarlik buyumlarini" ochib beradi, 2018-06-12, Wayback Machine-da arxivlangan, BBC News, 22-iyun, 2006-yil
2. Jon Bostok, Genri Tomas Rayli, XXXIII kitobi Metallarning tabiiy tarixi Perseus loyihasida onlayn, 2008-04-11, Wayback Machine-da arxivlangan 4-bob. 2006-yil iyulida foydalanilgan.
3. Wayback Machine Dictionary.com Qisqartirilgan (v 1.1). 2007-yil 7-avgustda Dictionary.com veb-saytidan olindi.
4. Jorj Frederik (1917). Javohirlar va jozibalar sehri. Jon Lippincott Co. URL: Marvaridlar sehri: Tumorlarning VII bo'limi 2013-12-13 Wayback mashinasida arxivlangan Tiffany's gemmologi Jorj Frederik Kunz bankir J.P.Morgan va Nyu-Yorkdagi Amerika tabiiy tarix muzeyi kolleksiyalarini qurgan. Ushbu bob butunlay G'arb madaniyatlarida talismanik maqsadlarda zargarlik buyumlarida marvarid va qimmatbaho toshlardan foydalanish bilan bog'liq.
5. Manutchehr-Danai, Mohsen, ed. (2009). "sehrli zargarlik buyumlari". Qimmatbaho toshlar va gemmologiya lug'ati. Berlin: Springer. doi: 10.1007/978-3-540-72816-0. ISBN 978-3-540-72795-8. sehrli zargarlik buyumlari [...] sehrli e'tiqodlari, dorivor kuchlari yoki xurofotlari uchun kiyiladigan zargarlik buyumlari.

6. "BBC - Tarix - Qadimgi tarix chuqurligi: Viking pullari". Asl nusxadan arxivlangan, 2014-02-10. Olingan 2017-11-10.
7. Holland, J. 1999. Kingfisher tarixi entsiklopediyasi. Kingfisher kitoblar.

SHAXSNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI.

Qodirjonov Doniyor

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi.

Ziyodullayeva Farangiz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10536056>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxsning individual xususiyatlari, qobiliyatlardagi tugʻma va orttirilgan sifatlar, eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotganligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** shaxs, temperament, individual sifatlar, individuallik, qobiliyat, intellekt, mehnat, tajriba, iroda.*

INDIVIDUAL CHARACTERISTICS OF THE PERSON.

***Abstract.** This article provides information about the individual characteristics of a person, the innate and acquired qualities of abilities, the greatest works of the most talented and famous people, and the fact that the greatest success is partially due to talent and mostly tireless work, aspiration, creativity and thirst for knowledge.*

***Key words:** personality, temperament, individual qualities, individuality, ability, intelligence, work, experience, will.*

ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЧЕЛОВЕКА.

***Аннотация.** В данной статье представлены сведения об индивидуальных особенностях человека, врожденных и приобретенных качествах способностей, величайших произведениях наиболее талантливых и знаменитых людей, а также о том, что в основе их большого успеха лежит отчасти талант и главным образом неутомимость. труд, стремление, творчество и жажда знаний.*

***Ключевые слова:** личность, темперамент, индивидуальные качества, индивидуальность, способности, интеллект, труд, опыт, воля.*

Shaxs – psixologiya fanining asosiy ilmiy tushunchalaridan biri boʻlib hisoblanadi. Shaxsning nimaligini tushunish va uning ruhiy tuzilishini taʼriflash imkonini beruvchi asosiy xossalarni ajratib olish uchun ushbu tushunchani «inson individ shaxs individuallik» qatorida koʻrib chiqamiz. Inson oʻta murakkab mavjudot sifatida cheksiz murakkab dunyoda, aniqrogʻi, koʻplab dunyolarda yashaydi, ularning ichidan zamonimizning mashhur faylasuflaridan biri Yurgen Xabermas asosiylari sifatida uch dunyoni: tashqi dunyo, ijtimoiy dunyo («bizning olam»), ichki dunyo («mening olamim»), individuallik va betakrorlik «mening mavjudligimning» betakrorligi) ajratishni taklif etdi.

Tashqi dunyo – bu insonning tabiat qonunlarini bilishda va ularni oʻz maqsadlarida tabiatni qayta tuzish uchun qoʻllashda egallaydigan tabiat olami. Bu fan, texnika, amaliyot olamidir. Bu barcha narsa isbot talab etuvchi maqsadga muvofiq faoliyat olamidir. Ijtimoiy dunyo – bu insonni dunyoga kiritishning asosiy vositasi jismlil faoliyat boʻlgan olam. Insonni atrofdagi olamga va oʻziga nisbatan munosabatlarining rang-barangligida tushunish, faolligining manbalarini topish va yoʻnalishini anglash uchun insonning olamda tutgan oʻrnini aniqlab olish zarur. Insonga shaxs sifatida yondoshish, avvalambor, insonga jamiyat tuzilishida tutgan oʻrni bilan aniqlanuvchi

jamiyatning birligi sifatida qarash bilan bog'liqdir. Insonni biologik organizm, tur birligi sifatida hayvondan farq qiluvchi tub negizli belgisi jamiyatga tegishlilik, ijtimoiylik hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, shaxsni o'rganishda dastlabki holat bo'lib uning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritilganligi xizmat qiladi. Agar biz shaxs munosabatlari haqida insonning dunyoga shaxsiy tegishliliigi va bu bilan bog'liq kechinmalar ma'nosida so'z yuritadigan bo'lsak, u holda inson mavjud bo'la oladigan keyingi – bu «mening» ichki olamim dunyosiga murojaat qilamiz. Bu dunyo kechinmalar, shaxsiy mohiyatlar, shaxsiy dahldorlikni his etish, u yoki bunga shaxsiy tegishlilik, boshqa odamlar bilan mavjudlikning «hodisaviyligi» bilan to'la. Bu dunyoga jismlil faoliyat o'z shaklini o'zgartirgan holda oddiy holatdagi foydali faoliyat, shaklini yo'qotgan jismlil harakat bo'lib emas, balki, «shaxsiy» faoliyat, ijodiyot sifatida kiradi, ijtimoiy hulq-atvor esa «mening» dunyosiga shaxslararo munosabat, boshqa odamlarning ichki dunyosiga yaqinlashish, boshqalarga o'zini ochishning vositasi, o'zini namoyon etish sifatida kirib keladi. «Mening» dunyosida unga xos bo'lgan maxsus faoliyat turlari: o'yin, san'at, din, ichki dunyolar yaqinlashuvi sifatidagi muloqot paydo bo'ladi.

Individuallik – bu ma'lum insonning, uning noyobligi, betakrorligi nuqtai nazaridan o'ziga xos bo'lgan ruhiy, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar yig'indisi. Individuallik – bu ko'rib chiqilgan tushunchalar ichida mazmuniga ko'ra eng tor tushuncha hisoblanadi. U o'zida insonning boshqa odamlardan farq qiluvchi o'ziga xos va shaxsiy xossalari jamlaydi. Individuallik turli xildagi tajriba, bilimlar, fikrlardagi tafovutlar, xarakter va temperamentlardagi farqlar, o'zimiz isbotlaydigan, tasdiqlaydigan o'ziga xos xususiyatlarimizda namoyon bo'ladi.

Motivlar, temperament, xarakter, layoqatlar – individuallikning asosiy ko'rsatkichlari. «Individuallik» tushunchasi individning faqat o'ziga xos ruhiy xususiyatlarini emas, balki morfofiziologik xususiyatlarini ham aks ettiradi. Individuallik – o'z mohiyatiga ko'ra, boshqalar tomonidan kuzatilishi mumkin bo'lgan, tashqarida joylashgan narsa. Faqat boshqalar bir odamning boshqasidan farqini, ya'ni, uning individualligini aytib berishi mumkin.

Qobiliyatlardagi tug'ma va orttirilgan sifatlar. Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan.

Psixologiyada tug'malik alomatlar bor individual sifatlar layoqatlar deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagi tug'ma xususiyatlardan — oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoqlarning biologik va fizilogik sifatleri, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari — ko'z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat — bola tug'ilishi bilan uni o'ragan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-ona tomonidan yaratiladi) dir.

Layoqatlilik belgisi — bu o'sha individga aloqador bo'lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi. Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan ham biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug'ildi deylik. Unda rassomchilik uchun tug'ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan deylik. Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo'lishini xohlamasligi, o'ziga o'xshash qo'shiqchi bo'lishini xohlashi mumkin.

Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yo'q, ijtimoiy layoqat o'sishi uchun esa tabiiy, tug'ma layoqat yo'q bo'lgani sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo'lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo'shiqchi bo'lish bilan cheklanishi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug'ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda. Ilk yoshlikdan bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish shart-sharoitini yaratish ishini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak. Orttirilgan sifati shuki, bola toki bilim, malaka va ko'nikmalarni o'stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli tug'ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmaydi.

Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotgan. Shuni ham unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi.

Agar shaxs adashib, o'zidagi haqiqiy iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, tabiiy, u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz ko'rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'z vaqtida to'g'ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi. Shuning uchun ham har bir ongli inson o'zidagi qobiliyat va zehni ilk yoshlikdan bilib, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, «yuragi chopgan» ish bilan shug'ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz. Iqtidor-insonning o'z xatti-harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan subyektiv munosabatidir.

Iqtidorli odam genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga ega bo'lib, o'zlari shug'ullanayotgan ishni bajonidil, sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba'zi o'ta iste'dodli, lekin kamxarakat kishilardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor, zero iste'dod — har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir.

U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi.

Qobiliyatlarining psixologik strukturasi. Qobiliyatlar avvalom bor umumiy va maxsus turlarga bo'linadi va har birining o'z psixologik tizimi va tuzilishi bo'ladi. Shaxsning umumiy qobiliyatlari undagi shunday individual sifatlar majmuiki, ular odamga bir qancha faoliyat sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. Masalan, texnika oliy o'quv yurtining talabasi ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o'zlashtira oladi.

Bunda unga umumiy bilimdonlik, nutq qobiliyatlari, tirishqoqlik, chidam, qiziquvchanlik kabi qator sifatlar yordam beradi. Maxsus qobiliyatlar esa ma'lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko'rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo'yicha ishlayotgan ikki kishida o'ziga xos maxsus qobiliyatlar bo'lmasa bo'lmaydi. Har bir qobiliyat o'zining tizimiga ega.

Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo'lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavhum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy hayol va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko'rgazmali obrazlar, estetik xislar, tilni mukammal bilishga layoqat; pedagogik qobiliyatlarga esa — pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o'zgalarga berishga ehtiyoj kabi qator individual xossalari kiradi.

Xuddi shunga o'xshash qolgan barcha qobiliyatlarni ham zarur sifatlar tizimida tahlil qilish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi quyidagicha aks etishi mumkin.

Shaxs temperamentlari. Temperament 4 ta turga bo'linadi.

Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo'lar-bo'lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi.

Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinib turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi.

Sust sezitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak. Juda kuchsiz tovushlarni va yorug'lik qo'zg'ovchilarni payqamaydi. Aktivligi yuksak, juda g'ayratli va ishchan, darslarda tez-tez qo'l ko'tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g'ayrat bilan kirishadi.

Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o'z hissiyotlarining namoyon bo'lishini va o'zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to'playdi. Aqli tez ishlaydi, topqir. Harakatlari nihoyat darajada silliqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlari, qiziqishlari va intilishlari juda o'zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. Yangi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko'cha oladi.

Malakalarni tez o'zlashtiradi va tez qayta o'zgartiradi. Aqli ixcham. Ekstrovertlik xususiyatiga ega. O'tgan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashqi taassurotlarga javob beradi.

Xolerik xuddi sangvinik kabi sust sezitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o'zini ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va qo'proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo'r qatilylik bor, diqqatini ko'chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga etkazadi, ammo unga qiziqsa.

Flegmatik – sezitivligi sust, hissiy qo'zgaluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko'ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz. G'ayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan to'playdi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo'shiladi. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

Melanxolik – yuksak sezitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig'laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust. O'ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, qo'lini yuvib qo'ltig'iga urib qo'ya qoladi. G'ayratsiz qatiy emas. Diqqati tez chalg'iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega.

Xulosa

Shunday qilib, temperament individning tabiiy belgilangan psixik xususiyatlarining individual o'ziga xos yig'indisidir. Bu xususiyatlarga umumiy nerv-psixik faollikning jadalligi, zo'riqqanligi, ta'sirlanish va harakatlarning maromi, individning motorli, aqliy va kommunikativ sohasida namoyon bo'ladigan xususiyatlarning kuchayishi va susayishi; sub'ekt emotsional tuzilishining qo'zg'aluvchanligi, reaktivligi, barqarorligi, hissiyotlarning nazorat qilinishi kiradi. Temperament faqat faoliyat va hulq-atvor usullarining dinamik xususiyatlarini belgilaydi.

REFERENCES

1. Бодалев А. А, Психология о личности. — М.: Изд-во МГУ, 1988.
2. Гамезо М.В, Домашенко И.А Атлас по психологии М; «Просвещение» 1986г
3. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002 y
4. Джемс В. Психология.- М., 1991
5. Леонгард К, Акцентуированные личности. — Киев: Вища школа, 1989.
6. G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y

MAKTABGACHA TA'LIMDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNING AHAMIYATI.

Muxtorova Madinabonu Alisherovna

G'ijduvon pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10536176>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim sohasida ota-onalarning roli va ahamiyati haqida ma'lumot berishga harakat qilidim. Har qanday bolani tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ahamiyati juda yuqori. Ammo faqatgina maktabgacha ta'lim tashkilotlari emas ota-onalar ham o'z bolasiga ma'suldir. Agar ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bilan birgalikda, hamkorlikda ish yuritsalar, tarbiyalanuvchining tarbiyasida ham, bilim olish darajasida ham ko'plab ijobiy o'zgarishlar bo'lardi.

Kalit so'zlar: Ota-onalar bilan hamkorlik, tarbiyalanuvchi, tarbiyachi.

THE IMPORTANCE OF COOPERATION WITH PARENTS IN PRESCHOOL EDUCATION.

Oliy o'quv yurtlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (KPI) asosida intellektual resurslar samaradorligini baholash oraqli OTM belgilangan vazifalarni amalga oshirishlari mumkin.

Ta'lim muassasalari bir-biridan farq qiladi: ular o'ziga xos qadriyatlarga va o'rganishga turlicha yondashuvlarga ega. Boshqa tomondan, ba'zi umumiy xususiyatlarni barcha universitetlarda topish mumkin. [2]

OTM faoliyatining asosiy yo'nalishlari samaradorligini har tomonlama baholash imkonini beruvchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish uchun oliy ta'limning ta'lim xizmatlari bozoridagi o'rnini shakllantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarni ko'rib chiqish zarur.

Strategik menejmentdagi yondashuvlarga ko'ra, muvozanatli ko'rsatkichlar kartasini ishlab chiqishda tijorat korxonasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari moliya, mijozlar, jarayonlar va rivojlanish (salohiyat, o'qitish) hisoblanadi. Albatta, bu sohalar OTM uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, chunki u tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi, aholiga pullik asosda ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi. Bu holda, moliya, bir tomondan, byudjetdan tashqari talabalardan, grantlar va kontrakt ishlarini amalga oshirishdan olinadigan daromad, ikkinchi tomondan, xarajatlarni optimallashtirishdir.

OTM uchun mijozlarni aniqlashda ko'plab mutaxassislar turli fikrlarga keladi. Ba'zilar mijozlar to'g'ridan-to'g'ri o'quv jarayonida ishtirok etuvchi talabalar deb hisoblasa, boshqalari ish beruvchilarni bitiruvchi olgan bilim va ko'nikmalardan foydalanuvchi deb hisoblaydi. Biroq, bilvosita mijozlarning yana bir toifasi mavjud - ota-onalar. Ular ko'pincha abituriyentlarning tanloviga ta'sir qiladilar va ularning qoniqishi hamda farzandining ta'limiga sarmoya miqdori ta'lim jarayonining sifati va natijalariga bog'liq.[3]

Asosiy mijozlar	Boshqa manfaatdor tomonlar
<ul style="list-style-type: none">▪ Abituriyentlar va ularning oila a'zolari▪ Talabalar▪ Bitiruvchilar	<ul style="list-style-type: none">▪ O'qituvchilar▪ Bo'lim xodimlari (shu jumladan IT, HR, kutubxonalar)▪ Nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari▪ Kelajakdagi ish beruvchilar▪ Hamjamiyat a'zolari, hamkorlar va boshqalar

OTM tarkibiy jihatdan murakkab tashkilot sifatida ko'plab jarayonlardan iborat. Masalan, eng yaqqol ko'rinib turgani o'quv jarayonidir. Shuningdek, ilmiy ishlanmalarni yaratish, turli tadqiqot va ilmiy-amaliy tadbirlarda ishtirok etish jarayonlarini alohida ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari, muassasa ichidagi jarayonlarning ulkan tarmog'i mavjud, masalan, buxgalteriya, biznes, tashkiliy va boshqalar. Bu soha tizimlashtirish va birlashtirish uchun eng muammoli hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida rivojlanish hamda o'qitish sohalarida jamlanganligi sababli alohida toifa sifatida ajratish maqsadga muvofiq emas. Universitet o'z-o'zini o'qitadigan tashkilotlar qatorida, shuning uchun bilim almashish dominant jarayondir.

Inson kapitalini to'plash va qo'llash oliy ta'limni muvaffaqiyatli rivojlantirishning kalitidir, tijorat kompaniyalarida esa xodimlarni o'qitish uchun alohida tizimlar yaratiladi, ular odatda mahalliy xarakterga ega va oddiy miqdoriy baholarga javob beradi.

Shunday qilib, ikkita soha – jarayonlar va salohiyat - universitetning strategik yo'nalishlarini belgilash uchun boshqa yo'nalishni belgilaydi. "Moliya", "mijozlar", "jarayonlar" va "rivojlanish" sohalarini rivojlantiradigan 4 ta eng muhim tarkibiy elementlarni ajratib ko'rsatish maqbul ko'rinadi. [4]

- 1) bo'limlar, shu jumladan markazlar va laboratoriyalar;
- 2) fakultetlar (bir nechta kafedralarning sintezi);
- 3) institutlar (turdosh fakultetlar birlashmasi);
- 4) universitet (institutlarning integratsiyasi).

Har bir tanlangan soha yoki istiqbolni ma'lum bir guruh ko'rsatkichlari bilan baholash mumkin, ular birgalikda universitetning asosiy faoliyati, xususan, ilmiy va ta'lim samaradorligini aniqlaydi.

Koeffitsientlarni ishlab chiqishga o'tishdan oldin maqsadlarni belgilash kerak. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, har bir istiqbol uchun 4-5 tadan ko'p bo'lmagan maqsadlarni aniqlash va eng aniq formulalardan foydalanish kerak.

“Kafedra” istiqboli uchun quyidagi strategik maqsadlarni aniqlaymiz:

1. Hamkor korxonalar sonini ko'paytirish.
2. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning intensivligini oshiring.
3. O'quv-uslubiy ishlar sifatini oshirish.
4. O'qituvchilar uchun malaka darajasini oshirish.
5. Ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish.

Fakultet istiqboli uchun:

1. Talabalarining ta'lim jarayonidan qoniqishini oshirish.
2. Bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirish.
3. Mashg'ulotlar sifatini oshirish.
4. Ta'limning uzluksiz traektoriyasini ta'minlash.

Institut istiqboli uchun:

1. Ishga qabul qilish kompaniyalarining samaradorligini oshirish.
2. Ta'limning innovatsion shakllarini joriy etish darajasini oshirish.
3. Ilmiy salohiyatni oshirish.
4. Talabalar va o'qituvchilarning akademik almashinuvlarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish.

“Universitet” istiqboli uchun:

1. Ta'lim faoliyatidan olinadigan daromadni oshirish.
2. Ilmiy faoliyatdan olinadigan daromadni oshirish.
3. Bir talaba uchun xarajatlarni optimallashtirish.
4. Universitetning ta'lim muassasalari bozoridagi ulushini oshirish.

Universitetning ishlab chiqilgan strategik maqsadlari bir-biriga bog'liq va kuchli sabab-oqibat aloqalariga ega. Boshqa maqsadlarga bevosita bevosita ta'sir ko'rsatish uchun aloqalar bir tomonlama bo'lishi kerak.

Shakllangan maqsadlarni 4x4 matritsada taqsimlash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Universitet maqsadlari matritsasi [5]

	Jarayonlar	Rivojlanish (potentsial)	Mijozlar	Moliya
Universitet	-	Universitetning ta'lim xizmatlari bozoridagi ulushini oshirish		1. Universitetning o'quv va ilmiy faoliyatidan tushadigan daromadlarni oshirish 2. Bir talaba uchun xarajatlarni optimallashtirish
Institut	1. Akademik almashinuvlar intensivligini oshirish 2. Ta'limning innovatsion shakllarini joriy etish	Ilmiy salohiyatni oshirish	Ishga qabul qilish kampaniyalarining samaradorligini oshirish	
Fakultet	Mashg'ulotlar sifatini oshirish	Ta'limning uzluksiz traektoriyasini ta'minlash	1. Talabalarning ta'lim jarayonidan qoniqishini oshirish 2. Bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirish	-
Kafedra	1. Amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning intensivligini oshirish 2. O'quv-uslubiy ishlar sifatini oshirish	O'qituvchilarning malakasini oshirish	Hamkor kompaniyalar sonini ko'paytirish	Ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish*

Izoh: agar ushbu maqsad pul ko'rinishida baholansa, aks holda maqsad "rivojlanish" istiqboliga kiritiladi.

“Jarayon” ta’lim faoliyatini, “rivojlanish” esa ilmiy va pedagogik salohiyatni oshirish taqsimlash tamoyiliga asoslanadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kafedra va institutning maqsadlari asosan o‘quv jarayoniga qaratilgan. Kafedraning ilmiy faoliyati samaradorligi va institutning ilmiy salohiyatini oshirish ikki tomonlama xarakterga ega, chunki ular moliya va rivojlanishga, ya’ni o‘qituvchilar va talabalarning ilmiy izlanishlarini rivojlantirishga tegishli bo‘lishi mumkin.

Fakultet o‘z ishinin tabiati bo‘yicha asosan mijozlarga va o‘qitishning yakuniy natijalariga qaratilgan.

“Universitet” istiqboli quyi bo‘g‘inlarning o‘quv va ilmiy faoliyatini qayta moliyalash imkoniyatiga ega bo‘lish uchun moliyaviy maqsadlarga erishishi kerak.

“Kafedra” sohasining maqsadlarini baholash ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

“Kafedra” istiqbollarning asosiy ko‘rsatkichlari

1-darajali ko‘rsatkich	2-darajali ko‘rsatkich	Hisoblash uchun dastlabki ma’lumotlar
Biznes va ta’lim integratsiyasi darajasi	Korxonalar bilan tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar soni	Muddati kamida 1 yil bo‘lgan amaldagi shartnomalarning mutlaq qiymati. Standartni o‘rnatish tavsiya etiladi: 1 ta kontrakt uchun - 5 talabagacha. Kafedrada, agar guruh hajmi 25 kishi bo‘lsa, 5 ta shartnoma bo‘lishi kerak
	Tanlovlarning muntazamlik koeffitsienti	Tanlovlar, tanlov ishtirokchilarining mutlaq birliklari va o‘tkazilish davriyligi. Hisoblash uchun oldindan belgilangan pozitsiyalardan og‘ishlarni qabul qilish mumkin
	Ishlab chiqarish amaliyotining sifat koeffitsienti	Himoya yoki konferentsiyada olingan ballar. Hisobotlar baholanadigan mezonlarni ishlab chiqish kerak

Hisoblash tartibining murakkabligi va davriyligi (yiliga bir marta) hisobga olgan holda, asosiy ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishning bosh maqsadi – bir vaqtning o‘zida professor - o‘qituvchilar salohiyatini rivojlantirish va mehnat bozorini maqbul to‘ldirish uchun amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish vositasi bo‘lgan oliy maktab faoliyatining sifat tomonlarini ob‘yektiv miqdoriy baholash mexanizmini yaratishdir.

REFERENCES

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 16-iyun kuni oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi
2. Ю. В. Вертакова, Ю. С. Положенцева, М. Г. Клевцова Целевое управление университетами по ключевым показателям эффективности // Экономическое возрождение России. 2017. № 3 (53)
3. <https://bscdesigner.com/ru/university-kpi.htm>
4. Олве Н. Баланс между стратегией и контролем / Н. Олве, К. Петри, Ж. Рой, С. Рой; пер. с англ. Е. Колотвиной, под ред. Е. Добровольского. - СПб.: Питер, 2005. - 320 с.
5. Горелова О.И. Ключевые показатели научно-образовательной деятельности вуза // Прикаспийский журнал: управление и высокие технологии, России. 2011

XURSHID DO'STMUHAMMADNING "KUZA..." QISSASIDA YOZUVCHI USLUBIGA XOS XUSUSIYATLAR

Xajikurbanova Nilufar

Urganch davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10546980>

Annotatsiya. Xurshid Do'stmuhammadning "Kuza..." qissasi orqali yozuvchi asarlaridagi noan'anaviyliklar, zamonaviy modern adabiyotining ta'siri ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Modernizm, kuzatuv, modern adabiyot, "Kuza..." qissasi, noan'anaviylik, inson ruhiyati, kuzatuvchi, kuzatiluvchi.

CHARACTERISTICS OF KHURSHID DOSTMUHAMMAD'S WRITING STYLE IN THE SHORT STORY "KUZA..."

Abstract. Khurshid Dostmuhammad's short story "Kuza..." shows the unconventionality of the writer's works and the influence of contemporary modern literature.

Key words: Modernism, observation, modern literature, "Kuza..." story, unconventionality, human psyche, observer, observed.

ХАРАКТЕРИСТИКА СТИЛЯ ПИСЬМА ХУРШИДА ДОСТМУХАММЕДА В РАССКАЗЕ «КУЗА...»

Аннотация. Через рассказ Хуршида Достмухаммеда «Куза...» показаны нестандартность в творчестве писателя и влияние современной современной литературы.

Ключевые слова: Модернизм, наблюдение, современная литература, повесть «Куза...», нестандартность, человеческая психика, наблюдатель, наблюдаемый.

Istiqloq davri adabiyotida insonning ichki olamini badiiy talqin qilish, turli xil ramzlar, majoziy talqinlar yetakchilik qiladi. Asarda qahramonlarning ruhiyati asosiy e'tibor markazida turadi. Hozirgi o'zbek adabiyoti bugungi kunda jahon adabiyotida bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar bilan bog'liq holda taraqqiyot etmoqda. Shu jumladan, modernizm, postmodernizm, realizm kabi yo'nalishlar badiiy adabiyotda o'z aksini topmoqda. "Keyingi yillar she'riyati va nasrda ham modernizm adabiy oqimining o'ziga xos tarzda ta'sirini kuzatamiz. An'analar bilan bir qatorda, noan'anaviy asarlarning shakllanishida va yaratilishida bu adabiy oqimning sezilarli ta'siri mavjud"⁸⁰ XX asrdan buyon jahon san'ati va adabiyotida qo'llanib kelinayotgan modernizm bugungi kunda o'zbek adabiyotining dolzarb mavzularidan biri bo'lib kelmoqda. Hozirgi adabiy jarayonda modernistik yo'nalishda yozilgan asarlarni tushunish kitobxondan sinchkovlik va o'tkir zehn talab qiladi. H.Boltaboyev zamonaviy modern adabiyoti haqida quyidagicha fikr bildirgan: "Hozirgi adabiy davralarda urf bo'lgan "modern" so'zining adabiy mohiyati haqida so'z yuritganda bizning she'riyatga G'arbdan yuqqan "epidemiya" debgina qarash nafaqat mantiqiy xatoga yo'l qo'yish, balki o'zbek she'rining bugungi mushohada tabiati va yangi shakllar ilinjidagi izlanishlarini imkon etish hamdir".⁸¹ Adabiyotimizda nasrda Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Erkin A'zam, Isajon Sulton; nazmda esa Bahrom Ro'zimhammad, Aziz Said, Shermurod Subhon kabi adiblar

⁸⁰A.Nosirov.Istiqloq davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. Samarqand.2014.19-bet

⁸¹Boltaboyev H. Istiqloq imkoniyatlari: yangilangan an'analar va postmodernizm. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2006. 238-bet.

modern yoʻnalishida ijod qilganlar. Yangi davr adabiyotidagi asarlarda asosiy eʼtibor qahramonlarning ruhiyati, ichki kechinmalari, shaxsiyatiga qaratiladi. “Modern yoʻnalishidagi asar abstrakt rasmlarga oʻxshab, qanday tushunsang shunday angla deb, duch kelgan voqeani hikoya qilish emas, balki ular maʼlum bir konsepsiyaga ega boʻlib, maʼlum maqsad sari yoʻnaltiriladi. Bu narsa qahramon orqali amalga oshiriladi. Modern yoʻnalishidagi asar qahramonlari esa, oʻz oʻy-xayollari ong oqimi misol miyada yoʻnalgan fikrlarda oʻzi yashayotgan hayotni teran badiiy talqin va tahlil qilib, olam muammosini anglashimizga yordam beradi”.⁸² Oʻzbek nasrchiligining yetuk vakillaridan biri Xurshid Doʻstmuhammad oʻzbek adabiyotidagi modern yozuvchilardan biridir. Xurshid Doʻstmuhammad asarlaridagi badiiyat Gʻarb va Sharq anʼanalarini oʻzida mujassamlashtirgan. Uning koʻpchilik asarlarida noanʼanaviy, yangicha uslublar koʻzga tashlanadi. Barcha janrdagi asarlari kabi qissa janridagi asarida ham bu holatni koʻrishimiz mumkin. Hozirgi kunda qissa janri har vaqtdagidan ham ildam rivojlanmoqda.

Unda zamonaviylik chuqurlashib, rang-baranglik ortmoqda.

Xurshid Doʻstmuhammadning “Kuza...” qissasini olaylik. “Kuza...” qissasi oʻzbek adabiyotidagi oʻziga xos betakror tasvir usuliga ega asarlardan biridir. Qissada yozuvchining oʻziga xos badiiy uslubi asar sujetiga singdirilgan. Voqelikka va inson dunyosiga, uning ruhiy olamiga oʻziga xos uslubda yondashilgan. Qahramonlar qalbida roʻy berayotgan jarayonlar muallif diqqat markazida turadi. Asar shakl jihatdan mukammal boʻlsa-da, uning mazmuni shunchalar chuqur berkitilganki, bir oʻqiganda mazmuni anglab olish qiyin boʻlib qoladi. Asarning boshlanish qismida Umid va uning doʻstlari, ustozining kasalligi haqida gapirilyotgandan paytda birdaniga Umidning oʻy-xayollari ichidagi voqealar davom etib ketadi. Xayolotidagi kotiba qiz, opasining arazlashlari haqidagi voqealar oʻzgacha sujet uyushtirib, gʻalizlik tugʻdirgandek boʻladi. Ammo buni sinchiklab oʻqigan kitobxon ayni shu oʻy-xayollar asarning badiiyatidagi oʻziga xoslik ekanini anglaydi. Bir oʻqiganda asar mantiqsizdek tuyuladi, hech qanday mazmun, fikr anglashilmagandek boʻladi. Bundan chiqadiki, qissada noanʼanaviylik koʻp. Shu bilan bir qatorda asarda insonparvarlik fazilatlarini ham aks etgan. Umid ustozini bilan muomalasida kattalarni ulugʻlaydigan, milliy qadriyatlarni hurmat qiladigan inson ekanligini anglab olamiz.

Asarda hamma voqeani bitta narsa, yaʼni kuzatish, kuzatuv bogʻlagan. Ustozning nazar-eʼtibordan qolish haqidagi gaplari, Umidning opasiga yomon odamlarning nazari tekkanligi haqidagi gap-soʻzlar, kotiba qizning Umidga boʻlgan eʼtibori, kuzatuvlari va doʻsti Azizning ham fikrlari shunga oʻxshashligi asardagi mohiyat umumiylikni koʻrsatadi.

- Ota-ona – kuzatuvchi, oʻgʻil-qiz – kuzatiluvchi!
- Koʻchaga chiqdi deguncha qoʻni-qoʻshni, mahalla-koʻy – kuzatuvchi, odamlar -kuzatiluvchi!
- Qarindosh-urugʻ, yoru-birodar – kuzatuvchi!
- Bozorda pattachi, nalogchi – nazoratchi, bizga oʻxshash bozorchilar – kuzatiluvchi!
- Ishxonada rahbar – kuzatuvchi, xodimlar- kuzatiluvchi!

Larisa Latipovnalari – kuzatuvchi, boshqa hamma – kuzatiluvchi!⁸³ Yaʼni asarning “Kuza” deb nomlanishi ham mana shundandir. Asarning shunday nomlanishi bilan bogʻliq yana quyidagicha fikrlar ham bor. “Qissa “Kuza...” deb nomlangan. Dastlab tushunarsizdek, biroz mavhumdek

⁸²H.Karimov. Yangi yoʻnalishdagi romanlar xususiyati. “Sharq yulduzi”. 2009.

⁸³X.Doʻstmuhammad. Kuza.... “Sharq yulduzi”. 2010. 26-bet.

ko'ringan qissa nomi asar matnini o'qiganingiz sari o'z sirlarini ocha boshlaydi. Kitobxon endi "Kuza" so'zini insonni kuzatish va kuzatilish ma'nosida ang'ay boshlaydi. Asar oxirlagan sari bu tushunchalar o'z isbotini topgandek bo'ladi. Lekin muallif nega "Kuza" so'zidan so'ng uch nuqta belgisini ishlatgan. Bu uch nuqta qo'shimcha biror-bir so'zmikin? Agar uch nuqta qo'shimcha bo'lsa, asar matnidani kelib chiqib, bu qo'shimchalar fe'lining orttirma nisbatdagi –t, majhul nisbatdagi –il hamda birgalik nisbatdagi –ish qo'shimchalari bo'lishi mumkin. Agar uch nuqta so'z bo'lganda-chi? Bu so'zning ma'nosini to'liq tushunib yetish uchun maxsus lug'atga qarash zarur. Demak, unda kuza (moq) so'zining uchta ma'nosi berilgan. Ikkita ma'nosi o'zaro ko'p ma'noli so'z, uchinchi ma'nosi esa har ikkala so'zga omonim tarzida izohlangan.

1. Tekis qilib kesmoq, qirqib tekislar. (Yo'lni, soqolni, mo'ylovni).

2. Daraxt va butalarni manzarali tus berish uchun ortiqcha shox-shabbalarini kesib tekislar. 3. Ketmoq, jo'namoq. (Biror marosim, mehmondorchilikdan so'ng)"⁸⁴

Yozuvchining boshqa asarlari kabi ushbu qissasida ham noan'anaviy ruhdagi voqealar mavjuddir. Ustoz bilan uchrashganlarini eslaydi-yu, voqea undan to'g'ridan to'g'ri Farhod bilan suhbatga ko'chadi. Keyin yana shu voqea davom etadi. Davom etayotgan bir voqea ichiga boshqa bir voqeaning kiritilishi yangicha uslub hosil qilgan.

Vaqt allamahol bo'lib qolganiga qaramay Umid Aziznikiga yetib borganida hovli charog'on va gavjum edi. Chamasi Aziz ham ancha hayallab endigina kirib kelgan chog'i, uni kutaverib toqati toq bo'lgan qarindosh-urug', yor-birodarlar uni o'rtaga olishgan, biri olib-biri qo'yib chekka-chekkadan savol yog'dirishar. Aziz shunchalik toliqqan ediki, ularning hech biriga yolchitib javob berolmayotgandi.

Umid esa... Opasidagi o'zgarishni ko'rgan ko'zlariga, gapini eshitgan quloqlariga ishonmayotgandi.⁸⁵ Yuqorida keltirilgan parchada bo'layotgan bir jarayon orasiga ma'lumot sifatida boshqa voqea kiritilib o'tilgan. Bu shakl jihatdan o'zgachalik, noan'anaviylik kasb etgan. Shunday bo'lsa ham mazmuni shu yerda bo'layotgan jarayonlarga aloqador emasligini anglab olsa bo'ladi.

"Kuza..." qissasi sujeti noan'anaviy talqindan iborat. Bunday voqealar bayonida hayot hodisalari jiddiy tahlil etilmaydi, asosiy e'tibor inson ruhiyatiga qaratilgan bo'ladi. Asardagi voqealar mazmuni qahramonlar ruhiyatiga singdirib yuborilgandek tuyuladi. Qissadagi qahramonlar xarakterikasida ularning hayotdagi ko'rinishi aks etadi. Ularning qanchalik tajribali ekanligi bir-biri bilan bo'lgan muloqotda yuzaga chiqadi. Noan'anaviy uslublarni o'zida jamlagan ushbu qissa haqida filologiya fanlari nomzodi Abdulla Ulug'ov quyidagicha fikr bildirgan: "Kuza..." ni o'qigan har bir odam fe'l-atvorimizga singib ketgan, tushovday bizni ushlab turgan, xalqimizning hayot tarziga xos muammolar to'g'risida o'ylanib qoladi. Chunki asarning "Hamma hammani kuzatuv ostida tutishi bir hisobda yaxshi va tabiiy bo'lsa, ikkinchi hisobda o'zini muttasil o'zgalarning nazari ostida his qilish odamning erkini, ixtiyorini bo'g'adi..."⁸⁶

Xurshid Do'stmuhammadning ko'pgina asarlarida noan'anaviylik ufu'rib turadi. Shu jumladan ham, "Kuza..." qissasida ham bunga guvoh bo'ldik. Yozuvchi qissalarida ko'pincha ijtimoiy hayotdagi jarayonlar ta'sirida inson ruhiyatidagi evrilishlar bayon qilinadi. Uning

⁸⁴"Til va adabiyot ta'limi" jurnali

⁸⁵X.Do'stmuhammad. Kuza... "Sharq yulduzi". 2010. 32-bet.

⁸⁶A.Ulug'ov. Qissalarda qalb egasi. Maqola. "Sharq yulduzi". 2011.

barcha asarlarini o`qigan kitobxon buni bir qarashda ilg`ab olmasa-da, o`ziga qandaydir ma`naviy va hayotiy ozuqa ola oladi.

REFERENCES

1. X.Do`stmuhammad. Kuza.... "Sharq yulduzi". 2010.
2. Boltaboyev H. Istiqlol imkoniyatlari : yangilangan an'analar va postmodernism. G'afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2006.
3. A.Ulug`ov. Qissalarda qalb egasi. Maqola. "Sharq yulduzi". 2011.
4. A.Nosirov. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. Uslubiy qo`llanma. Samarqand. 2014.
5. S.Sodiq.Hozirgi o`zbek adabiyoti. "O`zbekiston". Toshkent. 1992.
6. H.Karimov. Yangi yo`nalishdagi romanlar xususiyati. Maqola. "Sharq yulduzi". 2009.
7. Maxsudova, S. (2019). Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. *Global ilmiy jarayonda inteqtatsion ta'limni rivojlantirish usullari. Respublika ilmiy-amaliy an'anaviy on-line konferensiya materiallari.*
8. Maxsudova, S. (2021). Boshlang'ich sinf matematika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarasi. *POLISH SCIENCE JOURNAL.*
9. Maxsudova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA " ZUKKO BOLAJON" KURSLARINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGI. «*МУФАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ*»№ 6 *Нөкис*—2023. (Maxsudova, S. K. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA "ZUKKO BOLAJON" KURSLARINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGI. *6-сан*, 492.)
10. Maxsudova, S. (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *Science and innovation*, 2(B11), 540-543.
11. Taniberdiyev, A., & Maxsudova, S. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF CREATIVITY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Modern Science and Research*, 2(12), 466-472.
12. Maxsudova, S. (2023). Priority directions for the formation of the effectiveness of the use of foreign experience in primary grades. " *BioGecko*" *A Journal for New Zealand Herpetology.*

ALEKSANDR MAKEDONSKIYNING HARBIY YURISHLARI

Ko'palova Go'zal Rashid qizi

Urganch davlat universiteti

Ijtimoiy iqtisodiy yo'nalish

Tarix (mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha)

1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10552085>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'z davrininng yuksak harbiy salohiyatiga ega bo'lgan sarkarda Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari bosib olingan hududlari haqida so'z boradi. Qolaversa, Aleksandr harbiy yurishlari miloddan avvalgi 336 yildan 323 yilgacha bo'lgan bir qator istilolar va janglar bo'lib, ular qadimgi dunyoga katta ta'sir ko'rsatganligi izohlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Aleksandr Makedonskiy, Filip II, otliqlar, jangovar fillar, Ellinizm, Gellespont, satraplar, Gordian tuguni.

MILITARY CAMPAIGNS OF ALEXANDER OF MACEDON

Abstract. This article talks about the territories occupied by the military campaigns of Alexander the Great, who had a high military potential of his time. In addition, Alexander's military campaigns, a series of conquests and battles from 336 to 323 BC, have been described as having a major impact on the ancient world.

Key words: Alexander the Great, Philip II, cavalry, war elephants, Hellenism, Hellespont, satraps, Gordian knot.

ВОЕННЫЕ ПОХОДЫ АЛЕКСАНДРА МАКЕДОНСКОГО

Аннотация. В данной статье говорится о территориях, оккупированных военными походами Александра Македонского, обладавшего высоким военным потенциалом своего времени. Кроме того, военные кампании Александра, серия завоеваний и сражений с 336 по 323 годы до нашей эры, были описаны как оказавшие большое влияние на древний мир.

Ключевые слова: Александр Македонский, Филипп II, конница, боевые слоны, эллинизм, Геллеспонт, сатрапы, гордиев узел.

Aleksandr miloddan avvalgi 356 yilda tug'ilgan. O'sha paytda Makedoniya poytaxti - Pella bo'lgan. U Makedoniya qiroli Filipp II va Epirus malikasi Olimpianing o'g'li edi. Filipp o'n uch yoshli Aleksandrni Mejaga yubordi, u yerda miloddan avvalgi 342-340 yillarda yunon faylasufi Aristoteldan ta'lim oldi. U ritorika, adabiyot, geografiya va harbiy fanlar bo'yicha bilimlarga ega bo'ldi. Bu uning ilm-fan, tibbiyot va falsafaga muhabbatini kuchaytirdi. Tez orada u 18 yoshida Xeroneya jangida g'alaba qozonishga otasiga yordam berib, harbiy jasorat ko'rsatdi. U 336 yilda o'ldirilgan otasining o'rnini egalladi va zudlik bilan Fesaliya va Frakiyani egalladi, u Fivani shafqatsizlarcha vayron qildi. 334 yilda u Forsga o'tib, Granikus daryosida fors qo'shinini mag'lub etdi. Aytishlaricha, u Frigiya Gordian tugunini kesib tashlagan (333), bu esai, afsonaga ko'ra, u butun Osiyoni boshqarishi kerak edi. 333 yilda Issus jangida u boshqa qo'shinni ya'ni podshoh bo'lmaganni mag'lub etdi. Buning natijasida Fors shohi Doro III boshchiligidagi qo'shin qochishga muvaffaq bo'ldi⁸⁷.

⁸⁷ Rajabov. R. Qadimgi dunyo tarixi.-T.: "Fan va texnologiya", 2009. 78-b.

Keyin u Suriya va Finikiyani egallab, Fors flotini uning portlaridan yo'q qilib tashladi. 332 yilda u Tirni yetti oylik qamal natijasida egallaadi, buni esa o'zining eng katta harbiy yutug'i deb hisobladi va keyin Misrni egalladi. U yerda u fir'avnlarning qo'sh tojini qo'lga kiritdi, Iskandariyaga asos soldi va ilohiylikka bo'lgan da'vosining asosi bo'lgan Omon xudosining ibodatxonasini ziyorat qildi. Sharqiy O'rta yer dengizi qirg'oqlarini nazorat qilib, 331 yilda u Gaugameladagi hal qiluvchi jangda Doroni mag'lub etdi, ammo Doro yana qochishga muvaffaq bo'ldi. Keyin u Bobil viloyatini egalladi. U 330 yilda Forsning Persepolis shahridagi Kserksning saroyini yoqib yubordi. U sharqqa qarab yurishni davom etdi, o'z odamlari o'rtasidagi fitnalarni yo'q qildi va Oks va Yaksart daryolari bo'ylab nazoratni o'z qo'lga oldi va hududni ushlab turish uchun bu yerda shahar qurdirdi, shaharni Iskandariya deb nom berdi. Aleksandr Makedonskiy hozirgi Tojikistonni zabt etib, u Baqtriya malikasi Roksanaga uylandi va fors absolyutizmini qabul qildi⁸⁸.

M.a. 327 yilda Makedoniya armiyasi Hindistonga yo'l oldi. Mashaqqatli safar va O'rta Osiyo qabilalarining ko'rsatgan qattiq qarshiliklari armiyaning ahvolini og'irlashtirib yuborgan edi. Unda Spitamen boshchiligida O'rta Osiyoliklar Palitomet daryosi buyida Aleksandr qo'shinini kichik bir bo'limini pistrmaga tushurib yakson qilgan edi. Natijada armiyaning ichida oppozitsiya guruhi shakllanib, u Iskandarning bosqinchilik rejalariga qarshilik ko'rsata boshladi. Bu armiyaga yomon ta'sir ko'rsatdi va intizomga putur etkazdi. Shunga qaramay Hindistonga qilingan yurishning birinchi davri Makedoniya armiyasiga oz bo'lsada muvaffaqiyat keltirdi. Birinchi navbatda bu hol Hindiston podsholari Taksil va Porning o'zaro dushmanliklari bilan bog'liq bo'ldi. Makedoniya armiyasi Qobuldan hind daryosiga ikkita kolonnada harakatlandi. Baqtriyadan chiqqandan keyin 16 sutka o'tgach Makedoniya armiyasi hind daryosining o'ng qirg'og'ida jamlandi. Iskandarga ittifoqchi bo'lib olgan Taksilning ko'magida Makedoniya armiyasi hind daryosidan o'tdi, uning safiga 5 ming Hindistonlik jangchi qo'shildi. Hindiston podshosi Por qarshilik ko'rsatishga hozirlik ko'ra boshladi. U Gidasp daryosi bo'yiga qudratli armiyani, 30 ming atrofida piyodalarni, 3-4 ming chavandozni, 300 ta jangovar arava va 200 ta fillarni to'pladi. Makedoniya armiyasi o'zining ittifoqchilari bilan birga 30 ming kishiga ega bo'lib, ulardan 6 ming og'ir piyodalarni va 5 ming otliqlarni tashkil etdi. Jang natijasida, Hind daryosi bo'ylab kemalarda to'qqiz oy suzib, uning quyilish joyiga kelgan va safi ozayib ketgan Iskandar armiyasi ikki qismga bo'lindi: birinchisi dengizdan Dajlaning quyilish joyi tomon suzib ketdi, ikkinchisini esa Iskandarning o'zi Gedroziya (Janubiy Pokistonning hududi) cho'li orqali boshlab ketdi, bu yerlarda armiyaning bir qismi qirilib ketdi. M.a. 325 yilda, Makedoniya armiyasining qolganqutganlari, bosib olingan hududlarning poytaxti hisoblangan Vavilonga qaytib keldi⁸⁹.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr tarixdagi eng taniqli harbiy rahbarlardan biri edi. U o'n bir yillik hukmronligi davrida Kichik Osiyo, Misr, Fors va boshqa mamlakatlarni zabt etib, qudratli imperiya yaratdi. U Hindistonga yetib bordi, ammo u yerdan qaytishga majbur bo'ldi. Chunki, uning armiyasi katta muammolarga duch keldi. Buyuk Aleksandr hukmronligi davrida Yunoniston va Sharq madaniy merosining birlashishi keyingi 300 yil davomida dunyoqarashni shakllantirgan "ellinizm davri" ni shakllantirdi. Aleksandr Makedonskiy Bobilda 33 yoshida vafot etdi. Aleksandr III Makedoniya imperatori edi va o'n bir yil ichida ulkan hududni bosib oldi. Bu

⁸⁸ Крушкол. Ю. С. Кадимги дунё тарихи. –Т.: “Укитувчи”, 1975. 24-б.

⁸⁹ S.Mamajonov. Harbiy tarix, darslik. Toshkent 2021. 56-b.

bugungi me'yorlar bo'yicha taxminan quyidagi zamonaviy mamlakatlarga to'g'ri keladi: Gretsiya, Turkiya, Suriya, Livan, Isroil, Iordaniya, Misr, Iroq, Eron, Afg'oniston va Pokiston. U tarixdagi eng taniqli sarkardalar va davlat arboblardan biri edi. Vafotidan keyin unga "Buyuk" taxallusi berilgan. Buyuk Aleksandr strategik mahorat va mutlaq kuch uchun o'zgarmas iroda bilan ajralib turadigan buyuk tarixiy shaxs edi. Mahoratli qo'mondon o'z hayotini fathga bag'ishladi, askarlariga jasorat va g'ayrat namunasini taqdim etdi. U izdoshlari va muxoliflariga nisbatan shafqatsiz bo'lganidek, atrofidagi sodir insonlar uchun saxovatli bo'lishi mumkin edi.

REFERENCES

1. Rajabov. R. Qadimgi dunyo tarixi.-T.: "Fan va texnologiya", 2009. 78-b.
2. S.Mamajonov. Harbiy tarix, darslik. Toshkent 2021. 56-b.
3. Крушкол. Ю. С. Кадимги дунё тарихи. –Т.: "Укитувчи", 1975. 24-б.
4. <https://ru.m.wikipedia.org>
5. Alexandermosaik.de

TILLAR TASNIFI. GENEOLGIK VA TIPOLOGIK TASNIF.

Maxmatqulova Oyshirin Aliqul qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Ona tili va adabiyot fakulteti ona tili va adabiyot yoʻnalishi
404-guruh 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10552128>

Annotatsiya. Ushbu maqola tillarni oʻrganishda genealogik va tipologik tasnifning dinamik oʻzaro taʼsirini oʻrganadi. Tarixiy tilshunoslikka asoslangan genealogik tasnif tillar orasidagi evolyutsion munosabatlarni ochishga, nasl-nasablarni umumiy ajdodlarga borib taqalishiga intiladi. Bundan farqli oʻlaroq, tipologik tasnif irsiy mansubligidan qatʼi nazar, umumiy til xususiyatlariga qaratilgan boʻlib, tillarda mustaqil ravishda paydo boʻladigan universal naqshlar haqida tushuncha beradi. Ushbu ikki nuqtai nazarning sintezi til xilma-xilligining koʻp qirrali tabiatini tushunish uchun keng qamrovli asosni taqdim etadi. Genealogik tushunchalar tarixiy aloqalar, migratsiya va madaniy almashinuvlarni ochib beradi, tipologik tahlil esa global miqyosda tillarni shakllantiradigan takrorlanuvchi tarkibiy elementlarni aniqlaydi. Birgalikda ular tillarning vaqt oʻtishi bilan qanday rivojlanishi va xilma-xilligi haqida nozik tushunchaga hissa qoʻshadilar.

Kalit soʻzlar. Lingvistik tipologiya, tilshunoslik sohasi, genetik tasnif, til oilalari, guruhlanish, umumiy xususiyatlari.

CLASSIFICATION OF LANGUAGES. GENEALOGICAL AND TYPOLOGICAL CLASSIFICATION.

Abstract. This article explores the dynamic interplay between genealogical and typological classification in language learning. Genealogical classification, based on historical linguistics, seeks to reveal evolutionary relationships between languages, tracing genealogies back to common ancestors. In contrast, typological classification focuses on common language features, regardless of heredity, and provides insight into universal patterns that emerge independently across languages. The synthesis of these two perspectives provides a comprehensive framework for understanding the multifaceted nature of language diversity. Genealogical concepts reveal historical connections, migrations, and cultural exchanges, while typological analysis identifies recurring structural elements that shape languages on a global scale. Together, they contribute to a nuanced understanding of how languages evolve and diversify over time.

Key words. Linguistic typology, field of linguistics, genetic classification, language families, grouping, general features.

КЛАССИФИКАЦИЯ ЯЗЫКОВ. ГЕНЕОЛОГИЧЕСКАЯ И ТИПОЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ.

Аннотация. В этой статье исследуется динамическое взаимодействие между генеалогической и типологической классификацией в изучении языка. Генеалогическая классификация, основанная на исторической лингвистике, стремится выявить эволюционные связи между языками, прослеживая генеалогии до общих предков. Напротив, типологическая классификация фокусируется на общих языковых особенностях, независимо от наследственности, и дает представление об универсальных закономерностях, которые возникают независимо в разных языках. Синтез этих двух точек зрения обеспечивает всеобъемлющую основу для понимания многогранной природы

языкового разнообразия. Генеалогические концепции раскрывают исторические связи, миграции и культурные обмены, а типологический анализ выявляет повторяющиеся структурные элементы, которые формируют языки в глобальном масштабе. Вместе они способствуют более тонкому пониманию того, как языки развиваются и диверсифицируются с течением времени.

Ключевые слова. *Лингвистическая типология, область языкознания, генетическая классификация, языковые семьи, группировка, общие признаки.*

Tillar tasnifi muammosi ularni qiyosiy o'rganish vaqtida paydo bo'ladi va ba'zan qiyosiy o'rganishning pirovard maqsadi deb tasavvur etiladi. Tillar tasnifining 2 asosiy turi mavjud: tillarning genealogik tasnifi va tillarning morfologik (tipologik) tasnifi.

Genealogik tipologiya yoki genetik tasnif tillarning o'xshashligini ularning umumiy ajdodlari asosida belgilaydi. Tipologik tasnif esa, tillarning o'xshashligidan qat'iy nazar, umumiy belgilar bilan o'xshashligini belgilaydi. Aniqroq qilib aytsak, birbiri bilan genetik aloqaga ega bo'lgan tillar deb nomlanuvchi bir xil lingvistik guruhlariga tegishli tillar oilasi tushuniladi. Ushbu aloqalar lingvistik tahlilning qiyosiy usulidan foydalanish orqali o'rnaniladi, bu asosan sinov mezonlari sifatida umumiy fonologik yangiliklarga tayanadi.

Yilda tilshunoslik, genetik munosabatlar bir xil tillar oilasiga mansub tillar o'rtasida mavjud bo'lgan munosabatlar uchun odatiy atama (Hind-yevropa tillari (Yevropa, Janubi-G'arbdan Janubiy Osiyoga); Xitoy-Tibet tillari (Sharqiy Osiyo); Niger-Kongo tillari (Afrikaning Saxaradan keyingi qismi), Afro-osiyo tillari (Shimoliy Afrikadan Afrika shoxiga, Janubi-G'arbiy Osiyo)). Agar biri ikkinchisidan kelib chiqqan bo'lsa yoki ikkalasi ham umumiy ajdoddan kelib chiqqan bo'lsa, ikki til genetik jihatdan bog'liq deb hisoblanadi. Masalan, italyan tili lotin tilidan kelib chiqqan. Shuning uchun italyan va lotin tillari genetik jihatdan bog'liq deb aytiladi. Ispan tili ham lotin tilidan kelib chiqqan. Shuning uchun ispan va italyan tillari genetik jihatdan bog'liqdir⁹⁰.

Genealogik tasnif qiyosiy tarixiy usuldan foydalangan holda dunyo tillarining tarixiy munosabatlari asosida qurilgan. Qiyosiy tarixiy metodning vatani Germaniyadir. Aynan shu yerda tillarning genetik o'ziga xosligi aniqlangan birinchi asarlar paydo bo'ldi. Bular Frans Bopp va Jeykob Grimmning asarlari edi. Genetik o'ziga xoslik ularda tovushlar, morfemalar va hatto umumiy kelib chiqadigan butun so'zlarning mos kelishi asosida o'rnatildi. XIX asrning 2-yarmida tilning naturalistik nazariyalari, xususan, Avgust fon Shleyxerning til daraxti nazariyasi paydo bo'ldi, unga ko'ra, barcha turdosh tillar daraxt shoxlari kabi umumiy proto-tildan tarqalib ketgan. Tillarning klassik genealogik tasnifi J. Grimm tasnifidir.

Guruhlar (oilalar) ichida kichik guruhlariga bo'linish ham mavjud. Masalan, german guruhiga german tillarining sharqiy, shimoliy va g'arbiy kichik guruhlar kiradi. Kichik guruhlar ichida tillar guruhlar yoki filiiallarga qaraganda bir-biriga yaqinroqdir. Genealogik tasnif deganda, odatda, asrlar qa'riga retrospektiv yo'naltirilgan tasnif tushuniladi. Tahlilning ushbu yo'nalishi, tabiiyki, qarindosh tillarni guruhlashda ularning paydo bo'lish vaqtini va haqiqiy mavjudligini hisobga olish kerak deb taxmin qiladi.

Tillar tipologik tasnifi tilning tuzilishi va nazariy tushunchasining o'zgaruvchanligi tufayli har doim nisbiy va tarixiy jihatdan o'zgaruvchan bo'ladi. Tillarning tipologik tasnifini

⁹⁰ Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. М., Просвещение, 1989. С-29.

birinchi bo‘lib nemis olimlari aka-uka Shlegellar taklif etgan. Keyincha u XIX asr oxirida boshqa nemis olimi V. fon Gumboldt tomonidan tuzatilgan. U asosan uch belgiga e‘tibor bergan⁹¹:1) ma'noga aloqador usullarga, 2) gap tuzilishiga, 3) tovush shakliga⁹².

Gumboldt ana shu belgilariga ko‘ra tillarni to‘rt guruhga ajratadi: 1) izolirlashgan, 2) agglyutinatив. 3) flektiv, 4) inkorporativ tillar. Keyinchalik, bu tasnifga A.Shleyxer, F.F.Fortunatov kabi olimlar o‘zgarishlar kiritdilar. A.Shleyxer inkorporativ tillar borligini tan olmadi. F.F.Fortunatov esa, so‘zning morfologik tarkibiga asosiy e‘tiborini qaratdi. Tillarning morfologik tasnifiga ko‘ra izolirlashgan, agglyutinatив, flektiv, inkorporativ yoki polisintetik tillar farqlanadi. Ularning har biriga qisqa izoh beramiz.

O‘zakli (Izolirlashgan) tillarda ba‘zan amorf tillar deyiladi (lotincha “amorphous” – shaklsiz) so‘zlar va ularning shakli boshqa so‘zlarga va gapga bog‘liq bo‘lmay, so‘zlar o‘zgarmay qoladi. Bunday tillarga xitoy, aniqrog‘i, qadimgi xitoy, vetnam, indonez, ba'zi malaya-polineziy va G‘arbiy Afrika tillari kiradi. Izolirlashgan tillarda affikslar qo‘llanmaydi. Lekin hozirgi xitoy tilida ba'zan affikslarni qo‘llash hollari uchraydi.

Flektiv tillarda (lotincha “flexio” – o‘tish, bukilish) morfemalar fonetik sharoitga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘zgarishlarga uchraydi. Bu tillarda so‘zning o‘zagi ichki fleksiya natijasida o‘zgaradi. Masalan, ingliz tilida sit – sat – o‘tirmoq, catch – cought – ushlamoq, man – men – erkak kishilar va h.k. Flektiv tillarda morfemalarni ajratish ancha mushkulroq bo‘lib, so‘zlarga qo‘shilgan affikslar bir yo‘la bir necha ma'nolarni ifodalashi mumkin. Flektiv tillarda qaysi vositalar grammatik ma'noni ifodalashda ko‘proq qo‘llanishiga ko‘ra analitik va sintetik turlarga bo‘linadi.

Agglyutinatив (lotincha agglutinare – ulamoq) tillarda so‘zlarning o‘zaro munosibati so‘z yasash va so‘z o‘zgartirish affikslari orqali ifodalanadi. So‘zlar ko‘p morfemali bo‘lib, so‘zni tashkil etgan morfemalar o‘rtasidagi chegara aniq bo‘ladi. Agglyutinatив tillarga turkiy, mo‘g‘ul, fin, bantu tillari kiradi. O‘zbek tili agglyutinatив tillarga yorqin misoldir. Masalan, kelmadi – so‘zida kel – o‘zak affiksi, -ma – inkor affiksi -di – o‘tgan zamon, 3-shaxsni ifodalovchi affiks mavjud. O‘zbek tilida so‘zlarga oltitagacha affikslarni qo‘shish mumkin. Attlyutinatив tillarda so‘zning o‘zagi – o‘zak morfemada kamroq o‘zgarishlar ro‘y beradi, biroq affiksal morfemalar ulangan o‘rinda turli o‘zgarishlar ko‘proq uchraydi. Masalan, tara – taroq – taramoq, sez – seskanmoq, so‘ra – so‘roq – so‘ramoq, kurak – kuragi, bog‘ – boqqa. ko‘ngil – ko‘ngli kabi.

Polisintetik (grekcha polys – ko‘p, synthesis – qo‘shish) yoki inkorporativ tillarda harakat va holatning obyektini, ba'zan subyektini ifodalash uchun fe'lning tarkibiga alohida so‘z – affikslar qo‘shiladi.

Inkorporatsiya (lotincha incorporare – qo‘shmoq) qo‘shma fe'l yasash-ning bir usuli hisoblanadi. Masalan, "Men (hozir) go‘shht yemoqdaman" gapida ni – fe'l prefiksi, 1-shaxs birlikda, k – jonsiz narsa bilan moslashuvda qo‘llanuvchi prefiks, qa – "yemoq", o‘zak, in – aniq artikl, naka – "go‘shht", o‘zak, tl – asosiy kelishik affiksi. Bu fe'lning shakli, ya'ni so‘z "Men go‘shht yeyman" degan gapga teng keladi va bu o‘ziga xos inkorporatsiya hodisasidir.

⁹¹ Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание. Т., 1989, с. 150.

⁹² Аракин В.Д. Типология языков и проблема методического прогнозирования. М., Высшая школа, 1989. С-56

Polisintetik tillarda alohida qo‘llanuvchi so‘zlar ham borki, ular so‘z – af-fikslardan farq qiladi. Polisintetik tillarga Sibir va Amerika tillari kiradi.

Umuman olganda, tasniflar orasidagi asosiy farq shundaki, tasniflarning birinchisi tillarning qarindoshligi tushunchasiga asoslanadi; u qiyosiy-tarixiy tilshunoslik paydo bo‘lgandan keyingina ro‘yobga chiqqan. Bunda qarindosh tillar qarindoshlik darajalariga qarab oilalarga (masalan, hind-yevropa, finugor, turkiy, somhom va boshqa tillar oilalari), bir oila doirasidagi yaqin qarindosh tillar esa guruh va guruhchalarga (masalan, hind-yevropa oilasining slavyan guruhidagi sharqiy slavyan tillari guruhchasi yoki turkiy tillar oilasining sharqiy va g‘arbiy guruhlari) birlashtiriladi. Oiladan kattaroq tasnifiy birliklar (til oilalari to‘plami, makrooilalar va boshqalar)ni aniqlash, belgilashga urinishlar ham mavjud⁹³.

Tillarning morfologik tasnifi esa tipologik va grammatik xususiyatlarga asoslanadi. U o‘zgarimas lug‘aviy birliklarga ega bo‘lgan tillar hamda o‘zaro birikib, o‘zgarishlarga uchrovchi lug‘aviy birliklari bulgan tillarni qiyoslash asosida paydo bo‘lgan. Nemis olimi A.V.Shlegel Tillar tasnifining ushbu prinsipini tillarni morfologik qurilishli tillar va grammatik qurilishsiz tillarga ajratgan holda rivojlantirdi. Tillarni amorf tillar, agglutinativ tillar, flektiv tillar va polisintetik tillarga ajratish ham shu tasnifga asoslanadi. Mazkur turlarning birortasi ham sof holda uchramaydi: dunyodagi barcha tillarning xususiyatlari biridan ikkinchisiga o‘tuvchan xarakterga ega. Nemis olimi G.Shteyntal, avstriyalik F.Misteli va amerikalik E.Sepirning XIX asrda morfologik (tipologik) tasnifni takomillashtirish yo‘lidagi urinishlari birmuncha sodda, umumiy tarzda bo‘lgan.

REFERENCES

1. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. М., Просвещение, 1989. С-29.
2. Аракин В.Д. Типология языков и проблема методического прогнозирования. М., Высшая школа, 1989. С-56.
3. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. I-қисм. Фонетика ва фонология. II-қисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика. Тошкент, Университет, 1999. С-87.
4. Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т., 1992.-74.
5. Абдуазизов А.А., Шереметьева А.Г., Зализняк А.М. Общее языкознание. Ташкент, Университет, 2004. С-28.
6. Ашурова Д.У. Производное слово в свете коммуникативной теории языка. Ташкент, Фан, 1991. С-54

⁹³ Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т., 1992.-74.

TEMIRCHILIK KASB-HUNARIGA OID LEKSEMALARINING XALQ
MAQOLLARIDA NAMOYON BO'LISHI

Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna

Osiyo xalqaro universiteti

dilnozabobojonova22@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10555296>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarining turfa ko'rinishlari hamda temirchilik kasbiga oid xalq maqollarining o'ziga xos semantik ko'rinishlarini, shu tip yo'nalishdagi bir necha o'zbek xalq maqollari misolida uning leksik-semantik jihatdan ahamiyati ushbu misollar yordamida dalillanadi. Bundan tashqari, o'zbek tili leksikasida qo'llaniluvchi kasb-hunar atamalariga lingvokulturologik jihatdan yondashilib, lingvistik jihatdan tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: leksema, atama, temirchilik, maqol, struktur-semantik, lingvokulturologiya.

MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF
BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS

Abstract. In this article, the various forms of Uzbek folk proverbs and the specific semantic forms of folk proverbs related to the blacksmithing profession, as well as the lexical-semantic importance of several Uzbek folk proverbs of this type, are proved with the help of these examples. In addition, the professional terms used in the lexicon of the Uzbek language are approached linguistically and linguistically.

Key words: lexeme, term, blacksmithing, proverb, structural-semantic, linguo-culturology.

ПРОЯВЛЕНИЕ ЛЕКСЕМ, СВЯЗАННЫХ С ПРОФЕССИЕЙ КУЗНЕЦА, В
НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ.

Аннотация. В данной статье на этих примерах доказываются различные формы узбекских народных пословиц и специфические смысловые формы народных пословиц, связанных с кузнечной профессией, а также лексико-семантическая значимость некоторых узбекских народных пословиц этого типа. Кроме того, профессиональные термины, используемые в лексиконе узбекского языка, рассматриваются лингвистически и лингвистически.

Ключевые слова: лексема, термин, кузнечное дело, пословица, структурно-семантика, лингвокультурология.

Leksema — til qurilishining leksik ma'no anglatuvchi lug'aviy birligi. Leksema bildiradigan ma'no so'zning material qismi: ma'lum tovush kompleksini ma'lum obyektiv voqelikka bog'lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun-mundarija. Barchamizga ma'lumki, o'zbek tili leksikasi atamalarga boy bo'lib, har bir soha o'zining tegishli atamalar bilan tilshunoslikning terminologiya sohasiga oid hisoblanadi. Aytish joizki, tilshunoslikdagi ushbu soha aniqlik asosida ish ko'radi hamda xalq tilining boyishiga xizmat qiladi. Terminologiya sohasida kasb-hunar atamalar ma'lum bir yo'nalishni tashkil qilib, ular fanda professionalizmlar deb yuritiladi.

Atamalarning son jihatdan ko'pligi o'zbek tilida ushbu atamalarni ma'lum tur va guruhlariga bo'lish tamoyilini keltirib chiqardi. Bu masala bo'yicha o'zbek atamashunoslari S. Ibrohimov, S. Akobirov, Olim Usmon, R. Doniyorov, H. Shamsiddinov, A. Madvaliyev va

boshqalar o'z ilmiy izlanishlari bilan salmoqli hissalarini qo'shishlari orqali, atamalarning umumiy boyligini ko'rsatish, ularni ma'lum bir tartibga keltirib ko'maklashish, sohalarga bo'lib o'rganishni osonlashtirdi.

Tilimiz mavqeini ko'tarish, uning imkoniyatlarini masalalardan biri bo'lib qoldi. Tilshunoslikning yo'nalishlari, jumladan, terminologiyasi ravnaqi uchun sohalar ham keng O'zbekistonimiz suvereniteti ona tilimizga bo'lgan e'tiborni tubdan o'zgartirdi. Har bir ilmiy soha uchun zarur bo'lgan terminologiya dolzarb hisoblanadi. Chunki u yoki bu soha uchun muayyan tushunchani anglatgan termin ijtimoiy huquqqa ega bo'lib, muayyan munosabatni anglatadi.

O'zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug'ullanib keladi. Shuning uchun O'zbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulolchilik, kashtachilik, duradgorlik, terimchilik, ovchilik, tikuvchilik, kosibchilik, chorvachilik va hokozolar shular jumlasiga kiradi. Turli kasb-hunarga doir so'zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o'zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so'zlarga boy.

Tilimiz mavqeini ko'tarish, uning imkoniyatlarini masalalardan biri bo'lib qoldi. Tilshunoslikning yo'nalishlari, jumladan, terminologiyasi ravnaqi uchun sohalar ham keng O'zbekistonimiz suvereniteti ona tilimizga bo'lgan e'tiborni tubdan o'zgartirdi. Har bir ilmiy soha uchun zarur bo'lgan terminologiya dolzarb hisoblanadi. Chunki u yoki bu soha uchun muayyan tushunchani anglatgan termin ijtimoiy huquqqa ega bo'lib, muayyan munosabatni anglatadi.

O'zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug'ullanib keladi. Shuning uchun O'zbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulolchilik, kashtachilik, duradgorlik, terimchilik, ovchilik, tikuvchilik, kosibchilik, chorvachilik va hokozolar shular jumlasiga kiradi. Turli kasb-hunarga doir so'zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o'zbek tili leksik tarkibida kasb-hunarga doir so'zlarga boy.

Maqol turli soha mutaxassisleri hisoblangan olimlar – paremiologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, folklorshunoslar, etnograflarning tadqiqotlar olib borishlari uchun “hosildor maydon” hisoblanadi. Bu tabiiy hol, chunki maqol shaklan ixcham, sodda bo'lishiga qaramay, turli tadqiqot nuqtai nazarlaridan ko'rib chiqilishi mumkin. Maqollar semantik va struktur jihatdan to'la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning til haqidagi ancha navqiron sohasi bo'lgan matn lingvistikasining ham diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Bir til, hatto o'zaro yaqin bo'lgan va umuman bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy turga tegishli bo'lishi va bir xil alomatni ko'rsatishi mumkin. Shu bois ular mantiqiy semantika va semiotikaga bevosita tegishli bo'ladi.

XX asrning oxirgi 30-yilida maqollarni tahlil qilishning yangi struktur-semantik yondashuvi yuzaga keldi. Bu matn lingvistikasi va paremiologiya fani sohalari taraqqiyoti bilan bog'liq. Ilmiy paremiologiyaning asoschilaridan biri G.L.Permyakovdir. Uning fikricha, “tugallangan fikr”ni shakllantiruvchi majoziy ma'noli gaplarga maqol deyiladi. Maqollarni ham G.L.Permyakov (bosma qolip so'zlar) nazariyasi doirasida ko'rib chiqadi. Har bir tilning lug'at zahirasi murakkab o'ziga xos qoliplar (klishe) bo'ladi, ya'ni turg'un, nutqda tayyor holda qo'llaniladigan, bo'linmas oborotlar mavjud.

Kasb – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi, muayyan ish turini beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar, odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Xalq xo'jaligining turlicha ishlab chiqarish tarmoqlarida xalqimizning asrlar bo'yi

qilib kelgan ijodiy mehnati jarayonida yaratilgan va yaratilayotgan bir qancha kasb-hunar turlari mavjud.

Temirchi – temirni bolg`alab, undan turli buyumlar yasaydigan usta.

Temirchilik – 1. Kasb oti. Temirchilik bilan ro`zg`or tebratmoq. 2. Temirchilarning do`kon yoki ishxonalari o`rnashgan rasta.

Quyida tilga olingan kasb bilan bog`liq quyidagi maqollar mavjud:

1. Temirchi boltaga yolchimas,
To`quvchi – xaltaga.
2. Etikdo`zning etigi yirtiq,
Temirchining teshasi kemtik.
3. Ignachining ming urgani – temirchining bir urgani.
4. Temirchining qo`lida temir erib suv bo`lar.
5. Temirchidan temir so`rama.
6. Usta to`shakka yolchimas,
Temirchi to`qaga yolchimas.
7. Uchqundan qo`rqqan temirchi bo`lmas.
8. Ko`mirni o`g`irlagan temirchi,
Baloga qolgan ko`mirchi.
9. Temirchi taqaga yolchimas,
Bo`zchi – belboqqa.
10. Temirchiga ko`mirchi hokim.
11. Podachiga yordamchi,
Temirchiga - bosqonchi.
23. Temirchining ming urgani,
Bosqonchining bir urgani.
24. Temirchi to`qaga yolchimas.

Temirchilik kishilik jamiyatining eng qadimgi davrlarida paydo bo`lgan. Mil.avv. 3-4 ming yillik Eron, Mesopotamiya, Misrda temirni sovuqlayin va qizdirib bolg`alab, turli xil aslahalar, mehnat qurollari va boshqa buyumlar yasalgani ma`lum. O`zbekiston hududida temirchilik ishi maxsus do`konda amalga oshirilgan. Temirchi temirni otashxonadagi o`tga qo`yib qizdiradi, metall tobiga kelib, oq tusga kirgach, uni sandonga qo`yib zarur shaklga kirguncha bolg`alaydi. Bu ishlar usta, bozg`onchi va damgir tomonidan bajarilgan. Temirchilik hozir ham keng ko`lamda saqlanib qolgan. Temirchilik do`konida - o`choq, qo`ra, supa, o`ra, cho`pkunda, ish qurollaridan: sandon, bosqon, bolg`a, ombur, egov, charx, dam va hokazolar bo`lgan.

Uchqundan qo`rqqan temirchi bo`lmas. Temirchilik o`ziga yarasha mashaqqatli kasb hisoblanadi. Temirchining kundalik mehnati, albatta, otashxona bilan bog`liq bo`ladi. Shu sababli ushbu kasbni tanlashdan oldin mashaqqatlarini hisobga olgan holda qolgan barcha vazifalarni zimmaga olish kerak.

Temirchidan ko`mir so`rama. Temirchilik kasbining asosiy ozuqasi ko`mir hisoblanadi. Cho`g`da erigan temirni temirchilar istagan shaklga solib mehnat qurollari yasashadi. Hozirda zamonaviy texnika va texnologiya taraqqiy etgan sharoitda turli xil asbob-uskunalar ishlab chiqilgan. Ammo qadimda esa asosiy ish faqatgina ko`mir orqali bo`lgan. Ko`mir bo`lmasa ish to`xtab qolgan.

Ignachining ming urgani – temirchining bir urgani. Temirchilik og`ir va mashaqqatli kasb hisoblanadi. Og`ir sharoitda bo`lganligi sababli umri olov jizillab turgan o`choq yonida kechadi. Ignachi va temirchi kasbini taqqoslaganda yoki oddiy bir nina va temirdan tayyorlangan biror ish qurolini taqqoslaganda ikkala kasb o`rtasidagi tafovut bilinadi. Ignachi nozik harakatlar bilan mehnat qurolini yasaydi, temirchi esa zahmat bilan. Ignachining mingta harakat qilgani temirchining bir harakati bilan tengdir.

Xalqimiz qadimdan o`z farzandlarining faqatgina jismoniy jihatdan yetuk va barkamol bo`lishini emas, balki ularning ziyrak, o`tkir xotirali, tez va to`g`ri fikrlovchi inson bo`lishini orzu qilgan. Maqollar xalq donishmandligini ifodalar ekan, insondagi eng axloqiy sifatlar ma`qullanadigan, ma`naviyat tasdiqlanib, har qanday nuqson, illat qoralanadigan o`ziga xos axloq kodeksi sifatida namoyon bo`ladi.

Ko`pchilik maqollar insonni to`g`ri harakatlanishga undaydi: ular insonga nima qilish kerak-u, nima qilmaslik kerakligini ko`rsatib turadi, salbiy xatti-harakatlardan asraydi.

REFERENCES

1. Akmal, B., & Ismat, N. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73-80.
2. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI'S WORK" DEVONU LUG'OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. *Modern Science and Research*, 2(12), 742-748.
3. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). Mahmud Kashgari's Work "Devonu Lug'otit Turk" is an Important Scientific Heritage. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 538–543. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2169>
4. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING “DEVONU LUGOTIT TURK” DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
5. Okhunjonovna, B. D. (2023). Mahmud Kashgari's Work" Devonu Lug'otit Turk" is an Important Scientific Heritage. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 538-543.
6. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
7. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
8. Ashurovich, B. A. (2023). VARAKHSHA MURAL GANCH AND CLAY PAINTINGS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 48-53.
9. Akmal, B. (2023). ANTIK VA ILK O`RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO`RG`ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65-70.

10. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298-302.
11. Akmal, B. (2023). QADIMGI BAQTRIYA MADANIYATI VA YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(7), 100-102.
12. Akmal, B. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142-146.
13. Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 303-308.
14. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2 (8), 111–114.
15. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich. (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 31–33. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06>
16. Sayfutdinov, F. (2023). THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(10), 719–723. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24678>
17. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(8), 111–114. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284>
18. Sayfutdinov, F. (2023). ANALYSIS OF DATA ON LAND OWNERSHIP AND LIVESTOCK FARMING OF KARAKALPAKS. *Modern Science and Research*, 2(10), 650–657. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25727>
19. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich. (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF KARAKALPAK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 20–27. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04>
20. Raxmonovna, T. M. (2023). Benefits of Teaching Foreign Languages to Young Learners. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 603–606. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2195>
21. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). Translation as a Bridge Across Cultures. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 463–466. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2137>
22. Tursunova, M. (2023). THE IMPORTANCE OF POSITIVE ATMOSPHERE IN ENGLISH CLASSES. *Modern Science and Research*, 2(12), 713–716. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27179>

23. Tursunova Marxabo Raxmonovna. (2023). USING EFFECTIVE METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH
24. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
25. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
26. Shokir o'g'li, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 554-559.
27. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
28. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 488-493.
29. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556)*. OOO «SupportScience».
30. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
31. Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich. (2023). Metaphoric Analysis of "The Kite Runner" by Khaled Hosseini. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 573-578. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2175>
32. Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich. (2023). LANGUAGE AND SOCIETY IN CINEMATIC DISCOURSE. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(12), 44-50. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue12-09>
33. Ollomurodov, A. (2023). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TRANSLATION OF CONCEPTUAL METAPHORS IN UZBEK AND ENGLISH. *Modern Science and Research*, 2(12), 608-614.
34. Orifjonovich, O. A. (2023). The Main Features of Conceptual Metaphors in Modern Linguistics. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 365-371.
35. Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich. (2023). LANGUAGE AND SOCIETY IN CINEMATIC DISCOURSE. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(12), 44-50. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue12-09>.
36. Ollomurodov, A. (2023). CINEMA DISCOURSE ANALYSIS AND THEORETICAL FOUNDATIONS IN LINGUISTICS. *Modern Science and Research*, 2(10), 500-505.
37. Sulaymonovna, Q. N., Tashpulatovna, K. M., & Orifjonovich, O. A. (2023). COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF. VOLUME, 3, 30-35.
38. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2023). XOLID HUSAYNIYNING ASARLARI TARJIMALARIDA KONSEPTUAL METAFORALAR TALQINI VA.

39. Shaxnoza Baxadirova, X. (2023). PROVERBS IN THE LEXICOGRAPHICAL ASPECT. *International Journal of Formal Education*, 2(12), 429–437. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/1771>
40. Xasanova, S. (2023). STRUCTURAL – SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. *Modern Science and Research*, 2(12), 619–625. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27109>
41. Xasanova, S., & murodova, D. (2023). REPRESENTATION OF THE SYSTEMIC RELATIONS OF RUSSIAN VOCABULARY IN PROVERBS AND SAYINGS. *Modern Science and Research*, 2(10), 276–280. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24346>
42. Kamola, K. (2023). How to Teach English to Adult Learners . *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 169–173.
43. Khalilova Kamola. (2023). The Role of Technology in Teaching English . *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 434–436.
44. Khalilova Kamola. (2023). Strategies for Teaching English to Non-Native Speakers. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 451–453. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2134>
45. Bafoeva, R. (2023). The concept of family in English, Russian and Uzbek proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(10), 651–654. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2279>
46. Rokhila Bafoeva 2023. The Concept of Education in English and Uzbek Proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*. 1, 9 (Nov. 2023), 292–296.
47. Bafoeva, R. (2023). NEW METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(10), 58-63.
48. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2022). NATIONAL AND CULTURAL PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR UNIVERSAL FEATURES. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 500-503.
49. Ismatovna, I. L. (2023). Humour in the Upbringing and Education of the Modern Teenager. *Научный Фокус*, 1(5), 507-509.

ILK O'RTA ASRLARNING BUYUK DEVORI - KANPIRAK DEVOR

Bobohusenov Akmal Ahsurovich

Osiyo xalqaro universiteti tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10552493>

Annotatsiya. Kanpirak devori bu Buxoro vohasi hududidagi eng qadimiy va xalq uchun ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan devor sanaladi. Devorni qurishda Buxoro vohosiga xos bo'lgan usul va xom ashyosini ko'rishimiz mumkin. Devor Buxoro vohasi aholisini turli ko'chmanchilar hujmidan saqlagan.

Kalit so'zlar: Qadimgi Sug'd, Kanpirak devori, Narshaxiy, Mas'udiy, Qoratorov, sun'iy ko'tarma hol, to'rtburchak g'isht, arxeologik materillar, madaniy qatlam, burjlar, shinak.

THE GREAT WALL OF THE EARLY MIDDLE AGES - KANPIRAK WALL

Abstract. The wall of Kanpirak is considered to be the most ancient and socially and politically important wall in the territory of the Bukhara oasis. In the construction of the wall, we can see the method and raw materials typical of the Bukhara oasis. The wall protected the inhabitants of the Bukhara oasis from the attacks of various settlers.

Key words: Ancient Sug'd, Kanpirak wall, Narshakhi, Mas'udi, Karatov, artificial elevation, square brick, archaeological materials, cultural layer, constellations, shinak.

ВЕЛИКАЯ СТЕНА РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ – СТЕНА КАНПИРАКА.

Аннотация. Стена Канпирака считается древнейшей и социально и политически значимой стеной на территории Бухарского оазиса. В строительстве стены мы видим метод и сырье, типичные для Бухарского оазиса. Стена защищала жителей Бухарского оазиса от нападений различных поселенцев.

Ключевые слова: Древний Сузд, Канпиракская стена, Наршахи, Масуди, Каратов, искусственное возвышение, квадратный кирпич, археологический материал, культурный слой, созвездия, шинак.

Qiziltepa tumanining shimoli-sharqiy, janubi-g'arb tomonidagi mavzelerde yer sathi tepasidan aniq-ravshan ko'rinib turuvchi, uzoq masofalarga cho'zilib ketgan chegarasidagi Qoratorov o'ngirlaridan boshlanib, Zarafshonning chap qirg'og'i bo'ylab, sharq-g'arb tomonga sun'iy tuproq qo'ldiqlari yastanib yotibti. Bu inshoot Karmana tumani markazi yo'nalgan. Abu Muslim kanalining chap qirg'og'i bo'ylab, tuman markazidagi Qiziltepa yodgorligi tomon yo'nalishini davom ettiradi va undan janubi-g'arbgacha, so'ngra janubga yo'nalib, Kogon tumanining janubi-sharq qismida o'z nihoyasiga etadi.

Mahalliy aholi tilida ushbu mahobatli sun'iy qurilish istehkomi "Kampirdevol" deb ataladi. O'rta Osiyo mudofaa istehkomlari me'morchiligining nodir namunasi hisoblangan bu inshoot tarixi Buxoro vohasi xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, arxeologlar va tarixchilar tomonidan u "voha devori" deb atalgan. Kanpirak devori nafaqat alohida joylashgan bir turkum shahar va qishloqlar mudofaasi uchun, balki ulkan madaniy hudud, butun bir voha mudofaasi maqsadlari yo'lida hizmat qilgan. U o'zining me'moriy-qurilish usullari bilan jahonga mashhur Buyuk Xitoy devorini eslatadi. Samarqand shahri va uning tevarak-atrofini o'rab turgan qiyomat devori (Devori qiyomat) ham unga o'xshashdir.

Hozirgi paytda O'zbekiston tarixi fanida Kanpir devor (Devori kanpirak) atamasi O'rta Osiyoda dehqonchilik vohalarini ko'chmanchilar hujumidan himoya qilish maqsadida barpo

etilgan mudofaa inshootlari tizimini anglatadi. “Kanpir devor” so’zining ma’nosi qazilgan choh demakdir. Talaffuzda “n” bilan “m” almashuvi kuzatiladi. “Pir” bo’g’ini esa qadimgi payrya – aylana, o’rov ma’nosida. Demak, kan(m)pir so’zining o’zi handaqli devor degani. Devor so’zi kanpir so’zining tub ma’nosi unutilganda qo’shilgan. Arxeolog va tarixchi olimlar O’tkir Alimov va Mirsodiq Ishaqovning fikricha, ilk o’rta asrlarda mintaqada Buxoro vohasidan tashqari to’rtta Kanpirak devori mavjud bo’lgan. Birinchi Kanpirak devori yuqorida aytilganidek qadimgi Buxoro vohasidagi shahar-qishloqlarni o’rab olgan mudofaa devori. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridagi ma’lumotga ko’ra, Kanpirak devori 782 – 831 yillarda qurilgan. Arab tarixchisi va sayyohi Mas’udiy (956 yil vafot etgan)ning yozishicha, Kanpirak devori qadimgi Sug’d podsholari zamonida (V – VI asrlar) bino qilingan. Shuni ta’kidlab o’tish kerakki, Narshaxiy ma’lumoti bu devorning qayta tiklangan davriga to’g’ri keladi. Kanpirak devori xarobalarini arxeologik jihatdan o’rganish yozma manbalardagi ma’lumotni to’la tasdiqladi. Mas’udiy xabar qilgan dastlabki ko’hna devor Narshaxiy yozgan Kanpirak devoriga qaraganda ancha kichik maydonni egallagan. U sun’iy tarzda saqlangan. Bu devorning uzunligi 336 km bo’lgan.

Buxoro Sug’diga qarashli Karmanadan cho’l hududi bo’ylab hozirgi Kogon tumani markazigacha, shuningdek, shimoli-g’arb, shimol va shimoli-sharq tomondan Buxoro vohasi mudofaa devori bilan o’rab olingan. Devor shimoli-g’arbda Varaxsha (Jondor tumani), undan Subuktepa, Bo’rontepa (Romitan), Ho’jasultepa (Peshko’) sarhadlari bo’ylab o’tib, Shofirkon kanali chap qirg’og’i bo’ylab o’tgan va Abu Muslimtepaga borib tutashgan. Shuningdek, hazora darasi bo’ylab yana bir ko’tarma devor Konimeh vohasini kesib o’tgan va Karmana tumani markazida Qoratovga borib taqalgan.

Qorako’l vohasi tarkibidagi qadimgi Paykent shahri atroflarida mudofaa devori bo’lmagan. Uning o’rnida mudofaa qudrati oshirilgan ko’p sonli karvonsaroylar bunyod etilgan. Chorvador qabilalarning bosqinchilik yurishlari kuchaygan an’anaviy kuzgi-qishki mavsumlarda Buxoro vohasi qishloqlaridan ko’plab yosh jangchilar talonchilarning hujumlariga qarshi turishgan.

Kanpirak devori yo’nalishining har bir farsah (6-8 km) masofasida shahar yoki qishloqlar, shuningdek, rabotlar bunyod etilgan va bu aholi manzillari bir vaqtning o’zida chegara qo’rg’onlari vazifasini ham bajargan. Qiziltepa tumani hududida Qiziltepa shahar yodgorligidan tashqari SHAqri Vayron (Tavois shahrining o’rni), Oqsochtepa, Lavandoq kabi istehkomlar joylashgan. Shuningdek, har bir qo’rg’on va devor bilan o’rab olingan hudud uchun mahsus darvozalar, qo’rg’onlar orasida bir chaqirimdan kamroq masofada harbiy burjlar qurilgan. Demak, Kanpirak devor ko’p tarmoqli, qudratli mudofaa devori sifatida faoliyat ko’rsatgan.

Kanpirak devori harobalarida N.F.Sitnyakovskiy, A.YU.Yakubovskiy, A.V.Shishkin, H.Muhammedov va boshqa arxeologlar tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlarda devorning hozirgi Qiziltepa tumanidan o’tuvchi qismida quyidagi natijalarga kelindi:

- inshootning tag zamini shahar aralashgan tuproqdan iborat bo’lib, eni 13 metr ekanligi;
- devor asosan pahasdan, ayrim joylari qisman to’g’ri to’rtburchak shaklidagi yirik hajmli hom g’ishtlardan ko’tarilganligi;

- devor qurilishi haqitatan ikki bosqichda amalga oshirilgani;

So’nggi yillardagi arxeologik tadqiqotlar devor qurilishining ilk bosqichi – V asrning ohiri va VI asrning birinchi yarmi bilan bog’liqligini isbotladi.

Milodiy eraning V asrida O’rta Osiyo, SHarqiy Turkiston, Afg’oniston va Shimoliy Hindistonning katta qismida qudratli Eftaliylar davlati tashkil topadi. Bu davlat manbalarda Oq

xunlar davlati deb ham aytiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, eftaliylar Sirdaryo vodiysida istiqomat qilgan, dastlabki hayoti ko'chmanchi chorvador qabila tarzida bo'lgan, keyinchalik janub tomonga yo'nalishgan. Bu davlatga eftaliylar, eftalitlar, haytallar, abdallar, yeda kabi turli nomlar bilan aytilgan Eftaliylar qabilalari ittifoqi asos solgan. 420-579 yillarda faoliyat ko'rsatgan Eftaliylar turkiy davlatining poytahti avval Buxoro yaqinidagi Poykend va Varahsha shaharlari, so'ngra Hindistondagi SHakala shahri (hozirgi Sialkat) bo'lgan. VI asrning boshlari va o'rtalarida Eftaliylar davlati uchun eng katta havf Eron Sosoniylar davlati va Buyuk Turk xoqonligi tomonidan solinmoqda edi.

Kanpirak devor Buxoroning V-VI asrlardagi chegaralarini aniqlab beruvchi yagona inshoot sifatida qadrlanadi. Bu ulkan hudud o'sha davrda eng an'anaviy, mumtoz davlatchilik kurtaklari mavjud bo'lgan yirik madaniy o'lka sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Turk xoqonligi davrida devorning avvalgi mavzei yo'qolgan. Garchand xoqonlikning zodagonlar qismi cho'l-dasht hududlarida yashagan bo'lsa-da, xoqonlik mahalliy suddiy aholi hamda ko'chmanchilar o'rtasida tinchlik, hamjihatlik aloqalarini o'rnatish, savdo-sotiqni rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan. xoqonlik davrida hozirgi O'zbekiston va O'rta Osiyo hududidagi 15ga yaqin katta-kichik davlatlar mustaqilligi cheklangan, ular xoqonlikka rasman bo'ysindirilib, yillik boj-xirojlar to'lattirilgan. Mazkur kichik davlatlar (Buxorhudotlar podsholigi, Vardonxudotlar podsholigi, Samarqand Sug'di va boshqalar) Sug'd konfederatsiyasi bo'lib uyushgan va Buyuk Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. Xoqonlik savdo-sotiqdan, ayniqsa, ipak savdosidan katta foyda ko'rgani uchun Sug'd savdogarlariga katta imkoniyatlar yaratgan, ularga dunyoning eng uzoq o'lkalarida ham savdo manzilgohlari qurdirib bergan. Bu holat Kanpirak devor ahamiyatini yanada yo'qotgan va u harobaga aylana boshlagan.

Kanpirak devor o'zbek xalqi ajdodlarining qahramonona tarixi hisoblanadi. Uni bilish, ardoqlash, farzandlarimizga etkazish, saqlanib qolgan qismini yo'qotmaslik biz uchun ham qarz, ham farzdir.

REFERENCES

1. Akmal, B., & Ismat, N. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73-80.
2. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
3. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
4. Ashurovich, B. A. (2023). VARAKHSHA MURAL GANCH AND CLAY PAINTINGS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 48-53.
5. Akmal, B. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65-70.

6. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298-302.
7. Akmal, B. (2023). QADIMGI BAQTRIYA MADANIYATI VA YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(7), 100-102.
8. Akmal, B. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142-146.
9. Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 303-308.
10. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2 (8), 111–114.
11. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich. (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 31–33. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06>
12. Sayfutdinov, F. (2023). THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(10), 719–723. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24678>
13. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(8), 111–114. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284>
14. Sayfutdinov, F. (2023). ANALYSIS OF DATA ON LAND OWNERSHIP AND LIVESTOCK FARMING OF KARAKALPAKS. *Modern Science and Research*, 2(10), 650–657. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25727>
15. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich. (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF KARAKALPAK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 20–27. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04>
16. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
17. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722-727.
18. Sadullayev Umidjon Shokir O'g'li. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25–30. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05>
19. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 480–485. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142>

20. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATSION TALIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
21. Muxamedovna, G. M. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATSION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(1), 35-38.
22. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
23. Gadayeva, . M. . (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
24. Gadayeva, . M. . (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459–464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
25. Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2023). HISTORY OF PATRIOTIC WOMEN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69–75. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-12>

**BARTOLDNING “СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ
МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ” ASARINING YARALISH TARIXI**

Muyiddinov Bekali

Buxoro viloyati Osiyo xalqaro universiteti Tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Bartoldning ilmiy izlanishlarini natijasida yaratilgan “СОЧИНЕНИЯ. Том I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ” asarining O'rta asrlar O'rta Osiyo tarixi haqida ma'lumot beruvchi muhim manba ekanligini ilmiy asosda va mahalliy tarixchilarning asarlariga asoslangan holda ilmiy tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: Sankt-Peterburg, Turkiston, V. V. Bartold, O'rta Osiyo, mo'g'ullar, Movarounnahr, Xuroson, yer egaligi, saroy, qo'zg'olon, shahar, rus tarixchilari.

**BARTHOLD'S “СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ
МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ” THE HISTORY OF THE CREATION OF THE
WORK**

Abstract. In this article, created as a result of Barthold's scientific research, “СОЧИНЕНИЯ. Том I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ” is an important source of information about the history of the Middle Ages in Central Asia. It is scientifically analyzed based on the works of local historians.

Key words: St. Petersburg, Turkestan, V. V. Barthold, Central Asia, Mongols, Movarounnahr, Khurasan, land ownership, palace, rebellion, city, Russian historians.

**СОЧИНЕНИЯ БАРТОЛЬДА. ТОМ I. ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ
ПРОИЗВЕДЕНИЯ ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ**

Аннотация. В этой статье представлена статья СОЧИНЕНИЯ, созданные в результате научных исследований Бартольда. Том I. Туркестан V эпоха монгольского нашествия является важным источником сведений по истории средневековой Средней Азии и научно анализируется на основе трудов краеведов.

Ключевые слова: Санкт-Петербург, Туркестан, В. В. Бартольд, Средняя Азия, монголы, Мавераннахр, Хорасан, землевладение, дворец, восстание, город, русские историки.

Buyuk rus va sovet o'rta tarixchisi V.V.Bartoldning mo'g'ullar istilosi davrida Turkiston klassik asari shubhasiz, Sharq tarixshunosligiga eng qimmatli asardir. Ushbu asarning I qismi 1898-yilda nashr etilgan matnlardir. Sankt-Peterburgda o'sha paytda ma'lum bo'lgan fors va Arab manbalarining tanlangan parchalari (ba'zi hollarda keng) mavjud faqat qo'lyozmalar.

Turkistonning II-qismi yoki tadqiqotning o'zi 1900-yilda Sankt-Peterburgda nashrdan chiqdi, o'sha yili Turkiston Sankt-Peterburgning Sharq tillari fakultetiga taqdim etildi universitet magistrlik dissertatsiyasi sifatida. 1928-yilda Turkistonning ingliz nashri nashr etildi, muallif tomonidan qayta ko'rib chiqilgan va to'ldirilgan yangi materiallar asosida, E. Denison Rossa so'zboshisi bilan. Ingliz tilidagi tarjimini V.V.Bartoldning o'zi yordam bergan. 1931-yilda Turkistonning O'zbekcha tarjimasini nashr etildi. 1958-yilda ikkinchi ingliz nashri chiqdi bu birinchisidan faqat V. V. Bartoldning dissertatsiyani himoya qilish uchun tezislari, shuningdek, qo'shimchalar va tuzatishlar prof. V. V. Bartoldning Turkiston asari, 1928-yildagi ingliz nashrining muqaddimasida E. Denison Ross ta'kidlaganidek, o'rta asr tarixini o'rganishda yangi

davr yaratgan asardir⁹⁴. V.V.Bartold O'rta Osiyo tarixi - deyarli faqat siyosiy - taniqli sharqshunoslar tomonidan shug'ullangan: N. V. Xanikov, V. V. Grigoryev, P. I. Jlepx, N. I. Veselovskiy, ammo ularning asarlari alohida xususiy masalalarga bag'ishlangan. V. V. Bartold birinchi marta O'rta Osiyo tarixini o'rganishni zamonaviy darajaga qo'ydi. Turkistonning birinchi rus nashridan beri o'tgan 100 yildan ortiq vaqt O'rta Osiyo tarixiga oid juda oz sonli yangi manbalar ilmiy foydalanishga kiritilgan. Shuning uchun ushbu kitobdagi sharh manbalar bugungi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda, sovet olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-iqtisodiy tarixni davriylashtirish — A. yu.Yakubovskiy, S. P. Tolstoy va boshqalar - umuman olganda V. V. Bartold sxemasiga juda yaqin. Albatta, O'rta Osiyoning tarixiy rivojlanish jarayonini o'rganishda ularning davriyligi, aniqrog'i uning sxemasi hali ham juda umumiydir. V. V. Bartoldda ish rejasini sezilarli darajada o'zgartirdi va arablar istilosidan boshlab ushbu mamlakatning tarixiy rivojlanishini o'rganishga murojaat qildi⁹⁵. V. V. Bartold VIII asr boshlarida arablar Movarounnahrni bosib olishlarini ishonchli tarzda ko'rsatdi. U yangi ijtimoiy munosabatlarni, nisbatan markazlashgan davlatchilikning yangi shakllarini, xususan, yangi soliq tizimini yangi din — Islom bilan birga olib keldi va Arab yozuvi. Bundan tashqari, V. V. Bartold Tohiriylar, Safforiylar va Somoniylarning (IX—X asrlar) davlat tuzilmalarining o'ziga xos xususiyatlarini juda aniq aniqladi, er egalari sinfining turli guruhleri - mulk yer egaligiga asoslangan va markazdan qochma tendentsiyani (ya'ni feodal) ifodalovchi mahalliy viloyat yer egalari zodagonlari (dehqonlar) o'rtasidagi kurash. IX-X - asrlarda Movarounnahr va Xurosonda katta iqtisodiy yuksalishni baholashga imkon beradi. Bu V. V. Bartoldning eng muhim kashfiyotlaridan biri edi, garchi u undan keyin qilingan xulosalarni chiqarmagan bo'lsa ham uning tadqiqotlari davomchilari, xususan M. E. Masson va Yakubovskiy⁹⁶.

V. V. Bartoldning turk birlashmalarining migratsiya va zabt etish harakatining o'ziga xos xususiyati ham xuddi shunday yorqin. Yer egaligi, o'zbek xalqining etnik rivojlanish jihatlari XI asrda Qoraxoniylar va Saljuqiylar davrida tarqalishi haqida. V. V. Bartold Xorazmshoh davlati haqida juda yorqin tavsif berdi: u o'zining siyosiy qudratining illyuziyasini, ichki kuchini ko'rsatdi ushbu yengillikni tushuntirib beradigan uning parchalanishining qarama-qarshiliklari va shartlari.

Shuni ta'kidlash kerakki, xuddi shu bobda keltirilgan ikkita qimmatli ekskursiya: Buxoro sadrlari - Burxonidlarining ma'naviy knyazligi to'g'risida, Sanjar-Malik boshchiligidagi Buxoroda hunarmandlar qo'zg'oloni haqida. O'rta Osiyo tarixidagi yangi davrni tavsiflovchi mo'g'ullar istilosidan keyin (IV bobda), V. V. Bartold shunday berdi. XIII asr boshlarida mo'g'ul ko'chmanchi jamiyati, mo'g'ul dasht davlatchiligi va mo'g'ul harbiy tashkiloti haqida avvalgi mo'g'ullardan hech kim kabi ko'p narsalar mavjud emasdi. Chingizxon imperiyasining tarixiy roli to'g'risida yangi nuqtai nazar bilan. V. V. Bartold keyinchalik sovet va xorijiy tarixiy adabiyotlarda muhokama mavzusiga aylangan bir qator masalalarni ilgari surdi⁹⁷. VIII asardan to XV asrgacha bo'lib o'tgan qo'zgonlarga tahliliy yondashdigan holatda alohida bobda to'xtaladi, birgina 1441-yilda Musha'sha boshchiligidagi Xuzistonda qo'zg'olonlarning boshlang'ich nuqtasi kommunal erlarni tortib olish edi hokimiyat egalari va bu holda shia harakati qo'zg'atildi

⁹⁴ Фазлуллах Рашид-ад-Дин. Джамии-ат-таварих. Б.: Нагыл Еви, 2011, 247-б

⁹⁵ Василий Владимирович Бартольд. С О Ч И Н Е Н И Я. Т о м I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ. Москва.1963, 384-б

⁹⁶ ИБН АЛ-АСИР. АЛ-КАМИЛ ФИ-Т-ТА'РИХ. Ташкент – Цюрих. 2005, 294-б

⁹⁷ Ozod Masharipov. Xorazmnoma (2-kitob). X.: Xorazm. 2007, 284-б

dehqonlar manfaatlarini buzish. Bayroq ostida dinda kambag'allarning borlarga qarshi qo'zg'oloni bo'lgan.

Shuningdek, sunniy mazhablar - hanifiylar va shofiylar izdoshlarining kurashi - XII - XIII asr boshlarida Reya, Isfaxon, Nishapur, Merva va boshqa shaharlardagi shialar bilan bir-birlari bilan sinfiy kurash deb ta'rifladi: din bayrog'i ostida, aftidan, shahar aholisining turli elementlari va ayniqsa shahar va qishloq o'rtasida iqtisodiy kurash bo'lgan V. V. Bartold ushbu kurashda buni taklif qildi⁹⁸. O'rta Osiyoda V. V. Bartold asosan boshqa tadqiqotlarida o'zini namoyon qildi, Turkiston da bu muammolar uchun juda kam joy mavjud.

Bu erda V.V.Bartold asosan xalqaro munosabatlar va davlatlarning siyosiy tarixini yoritdi. O'rta Osiyo VIII-XIII asr boshlari, shuningdek, ushbu davrdagi O'rta Osiyoning tarixiy va iqtisodiy geografiyasi. V. V. Bartold g'arbiy Yevropa tarixshunosligidagi soxta ilmiy, ammo juda qat'iyatli tendentsiyalarning doimiy raqibi edi - irqchilik va evropotsentrizm, u "Sharq xalqlari Yevropa ma'nosida tarixga ega emas va hech qachon bo'lmagan" degan fikrga qarshi chiqdi.

REFERENCES

1. Василий Владимирович Бартольд. С О Ч И Н Е Н И Я. Т о м I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ. Москва.1963
2. Василий Владимирович Бартольд. История Туркестана. Т. 1922
3. ИБН АЛ-АСИР. АЛ-КАМИЛ ФИ-Т-ТА'РИХ. Ташкент – Цюрих. 2005
4. Ibn Havqal. Kitob suratal-ard. Т. 2011
5. Фазлуллах Рашид-ад-Дин. Джами-ат-таварих. Б.: Нагыл Еви, 2011
6. Ozod Masharipov. Xorazmnoma (2-kitob). X.: Xorazm. 2007.
7. Akmal, B., & Ismat, N. (2023). BAQTRIYANING BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINING JOYLASHUVI VA MODDIY MADANIYATI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 73-80.
8. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHSINING ANTIK DAVRI SHISHA BUYUMLARI. *TADQIQOTLAR*, 25(2), 208–211. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/307>
9. Bobohusenov Akmal Ashurovich. (2023). THE MATERIAL CULTURE OF THE TOMBS OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 24–29. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-06>
10. Ashurovich, B. A. (2023). VARAKHSHA MURAL GANCH AND CLAY PAINTINGS. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 48-53.
11. Akmal, B. (2023). ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MOZOR-QO'RG'ONLARI MODDIY MADANIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 65-70.
12. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298-302.

⁹⁸ Ibn Havqal. Kitob suratal-ard. Т. 2011, 174-b

13. Akmal, B. (2023). QADIMGI BAQTRIYA MADANIYATI VA YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(7), 100-102.
14. Akmal, B. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142-146.
15. Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 303-308.

TALABA YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA AXLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Islomova Nilufar Baxtiyor qizi

Buxoro Innovatsiyalar Universiteti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10552606>

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holha talaba yoshlarni oilada milliy qadriyatlar vositasida milliy munosabatlar madaniyatini tarbiyalash va amalga oshirish jarayonining pedagogik shart-sharoitlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: Oila, huquq, maʼnaviyat, jamiyat, urf-odat, axloq, folklore, etnografik ansambl, maʼnaviy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, gʻoya, vatanparvarlik, estetika, oilaviy tarbiya.

THE SIGNIFICANCE OF MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH NATIONAL VALUES

Abstract. In this article, the pedagogical conditions of the process of education and implementation of the culture of national relations in the family with the help of national values of students and young people using information communication technologies are discussed.

Keywords: Family, law, spirituality, society, tradition, morality, folklore, ethnographic ensemble, spiritual values, religious values, idea, patriotism, aesthetics, family education.

ЗНАЧЕНИЕ ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические условия процесса воспитания и реализации культуры национальных отношений в семье с помощью национальных ценностей студентов и молодежи с использованием информационно-коммуникационных технологий.

Ключевые слова: Семья, право, духовность, общество, традиция, мораль, фольклор, этнографический ансамбль, духовные ценности, религиозные ценности, идея, патриотизм, эстетика, семейное воспитание.

Oila shunday muqaddas makonki, unda hayotning davomiyligini taʼminlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlarimiz, axloqiy va maʼnaviy qadriyatlarimiz saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va madaniy hayot paydevori mustahkamlanadi.

Keyingi vaqtlarda Oʻzbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy, madaniy sohalarda mazmunan boy ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi negizida inson, mamlakatimiz fuqarolari va yoshlarning huquq-manfaatlarini har tomonlama muhofaza qilish yotadi. Bugungi kunda mamlakatimizda oila masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarilgani bejiz emas, albatta. Zero, yurt taraqqiyotining tamal toshi jamiyatimizning asosiy boʻgʻini boʻlmish oilada qoʻyiladi. Oilaning asosiy ijtimoiy, maʼnaviy, axloqiy va psixologik vazifalarini qisqacha tahlil qilib koʻradigan boʻlsak, bolada shakllanadigan barcha hissiy, ruhiy tuygʻular: mehribonlik, oqibatlilik, oʻziga va atrof-muhitga nisbatan masʼuliyatlilik kurtaklari oilada namoyon boʻladi. Oila oʻz vazifasini lozim darajada amalga oshirishi uchun uni tegishlicha, maʼrifiy-metodik qurollantirish, ijtimoiy-maʼnaviy tadbirlarni oʻtkazish yoʻli bilan unga yordam berib borish zarur.

Qolaversa, maʼnaviy yetuk oila – maʼnaviy yuksak jamiyat tayanchidir. Oila urf-odatlari, shajarasi, anʼanalari, axloqiy-maʼnaviy qadriyatlarni farzandlar ongiga singdirish, har bir kishini

kasb-hunar malakalari bilan qurollantirish ma'naviy barkamollikni tarbiyalashning asosidir. Shunday ekan, joylardagi xotin-qizlar, yoshlar tashkilotlari, mahallalarda faoliyat yuritayotgan oqsoqollar kengashlari oldida turgan muhim vazifalardan biri oila qadriyatlariga bag'ishlangan suhbatlar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, oilaviy bayramlar, kitobxonliklar, san'at asarlari ko'rgazmalari, qo'shiq va raqslar ko'rik-tanlovlari o'tkazish, oilaviy folklor, etnografik ansambllarni tashkil etish, tarixiy joylarga sayohatlar uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Milliy, ma'naviy qadriyatlarning, milliy tarbiya usullarining ahamiyatini kamsitmagan holda har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham tarbiya sof milliy mezonlar doirasida qolib ketishi mumkin emas. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi bilan belgilanadi. Bu nazariy qoida bugungi kunda ijtimoiy tarbiyaga ham, oilaviy tarbiyaga ham bevosita taalluqlidir.

Yangi ijtimoiy-tarixiy sharoit oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya borasida ham jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bolalarni vatanparvarlik ruhida, yangicha fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash oiladan boshlanishini e'tiborga olib, oilaviy tarbiya mazmunini qayta ko'rib chiqish va uni yanada boyitish, uning asosiy yo'nalishlarini belgilash va shu asnoda maqsad va vazifalarni hamda ularni qanday vositalar bilan amalga oshirish yo'llarini aniqlash muhim ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik zaruriyatdir.

Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda, talaba yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish masalasi ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, mazkur masalalarni hal etish ancha murakkab va ziddiyatli bo'lib, unga vorisiylik va tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi yangi bosqichi oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning zamonaviy mezonlarini o'rtaga tashlamoqda. Bu mezonlar vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy tafakkur, milliy tarbiya kabi tushunchalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ular tarbiya jarayonining bugungi kunda rivojlanishi uchun muayyan tarzda bir maqsadga qaratilganini ta'minlaydi.

Talaba yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mavzusiga to'xtalganda, milliy axloq va tarbiyaning o'ziga xos xususiyatini ochib bermoq zarur. Milliy axloq va tarbiyada ajdodlarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan hayot saboqlari va o'git, ko'rsatmalari jamuljamdir. Ana shu ufayli milliy, axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha yashab kelmoqda.

Har qanday axloqiy fazilat u yoki bu yo'sinda insonning xatti-harakati tartibga solinishining ifodasi bo'lib, insonga bo'lgan hurmat-e'tibor, mehr-muhabbatni bildirar ekan, u umumbashariy mazmunni beradi. Zotan, har qanday shaxs odamzotning bir zarrasi ekan, unda butun bashariyatning mohiyati mujassam, shuning uchun ham u butun insoniyatga mansubdir. Shunga ko'ra, har bir ota-ona o'z farzandi tarbiyasida, uning barkamol shaxs bo'lishida umuminsoniy ma'no va mazmunni ko'rmog'i lozim. Bolaning axloqiy fazilatlarini umuminsoniy xarakter kasb etib, umumbashariy qadriyatga aylanishini anglab yetgan ota-ona farzandlari tarbiyasidagi mas'uliyatni chuqur his qilmoqlari maqsadga muvofiqdir.

Oilada shaxsni ma'naviy-axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishi bilan boshlanadi va u oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda umumpedagogik madaniyati va oilaviy hayotini qanday tashkil etishdan iborat. Bu omillar oilada bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil

etadi va ular bir qator pedagogik-psixologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bularni hisobga olish esa bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning o'ziga xosligi va ahamiyatini bilishga yordam beradi.

Inson butun mavjudotlar ichida eng ulug'i, barcha narsalar uning uchun yaratilgan, degan g'oya islomiy ma'naviyatning negizini tashkil qilsa, insonlarni o'zaro ma'naviy, oqibatli bo'lishga undash va ularda oliyjanob fazilatlarni shakllantirish islom pedagogikasi va psixologiyasining asosidir.

Islom dini xalqning ijtimoiy hayotiga, xususan, oilaviy munosabatlariga, madaniyati va milliy an'analariga singib ketgan, ammo bundan o'zbek xalqining qadimiy, takrorlanmas madaniyati, jumladan, oilaviy qadriyatlari islom dinisiz mavjud bo'lmas edi, degan qarash kelib chiqmaydi. Islomiy ma'naviyat manbalarida oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga oid qarashlar tizimi mavjud bo'lib, u oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni o'z ichiga oladi.

Bu qarashlar ilohiyot nuqtai nazaridan o'rta tashlansa-da, ular kishilarning hayotiy faoliyatlari, turmush tarzlari, ijtimoiy ehtiyojlari, nihoyat oilaviy munosabatlari talabidan kelib chiqqanligi uchun ham aqlga va kundalik turmushga muvofiq edi. Islomda oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlar ko'rsatib o'tiladi. Bu xususiyatlar musulmonchilik talabidan kelib chiqqan, bolani axloqiy tarbiyalash haqidagi umumiy g'oyalar bilan bog'liq bo'lib, ular bolani insoniylikka va ezgulikka da'vat etganligi uchun umuminsoniy mazmunga egadir. Bugungi kunda ota-onalar islomiy ma'naviyatning ana shu umuminsoniy mazmunini bolalar shuuriga singdirib borishlari zarur.

Diniy qadriyatlarning yangi tarixiy sharoitda oiladagi ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi muhim omil bo'lib xizmat qilishi shu bilan izohlanadiki, diniy tasavvurlar, rasm-rusumlarning millat turmush tarziga, xalqning hayotiy faoliyatiga singib ketishiga sabab diniy ongning inson ruhiyatiga bo'lgan kuchli ta'siri oqibatidir. Ayni vaqtda, oilaviy tarbiya jarayonida diniy qadriyatlar bilan diniy bid'atni farqlash va bola ongini diniy xurofotlar bilan zaharlanishining oldini olish ota-onalarning burchi hisoblanadi.

Ma'lumki, Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zahirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g'oyasi yotadi. Ular tarbiyada ijtimoiy va biologik tomonlarning o'zaro munosabati haqida to'xtalib, tarbiyada irsiyat va muhit ta'siri birdek ekanligi, tan va ruh sog'lomligining birligi kabi masalalarni o'rta tashlaydilar.

Ularning aqliy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi hamda ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi va oilada bolalar tarbiyasi haqidagi fikrlari mazkur muammolarning ko'pgina jihatlarni qamrab oladi va ular muayyan tarbiyashunoslik bo'yicha qarashlar tizimini tashkil etadi. Bu qarashlar o'z davrlaridan anchagina ilgarilab ketib, bir necha asrdan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib, ma'naviy qadriyat sifatida bugungi kunda o'z qiymatini yo'qotmay kelmoqda. Ular ijtimoiy va oilaviy tarbiya birligi haqidagi masalani ijobiy hal qilishga uringanlar, buni hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi ham to'la e'tirof etadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 30 apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;

2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son;
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23-son Qarori. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.10.2023-y. 09/23/524/0750-son;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 12 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi;
5. M.L.Umedjanova Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida oilaviy hayotga tayyorlash. Monografiya. – Buxoro, 2022. – 102 bet. Internet saytlari
6. www.lex.uz
7. www.pedagog.uz
8. www.ziyonet.uz

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI NUQSONLI BOLALARDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YO'LLARI

N.O. Saidova

FarDU, o'qituvchisi.

D.M. Ahmadjonova

FarDU, magistr.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10552633>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan nuqsonli bolalarni rivojlantirishda matematikaning ahamiyati, pedagoglarning tajribalari va tarbiyalanuvchilarga aqliy jarayonlarni rivojlantirishda neyropsixologik kinesiologik yondashuvlar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, neyropsixologik, kinesiologik, sensorika.

WAYS OF CONDUCTING MATHEMATICS LESSONS IN PRESCHOOL CHILDREN WITH DEFECTS

Abstract. This article describes the importance of mathematics in the development of children with disabilities in preschool educational institutions, the experiences of pedagogues and neuropsychological kinesiological approaches to the development of mental processes in children.

Key words: pedagogical, neuropsychological, kinesiological, sensory.

СПОСОБЫ ПРОВЕДЕНИЯ УРОКОВ МАТЕМАТИКИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ С ДЕФЕКТАМИ

Аннотация. В данной статье описано значение математики в развитии детей с ограниченными возможностями в дошкольных образовательных учреждениях, опыт педагогов и нейropsихологические кинезиологические подходы к развитию психических процессов у детей.

Ключевые слова: педагогический, нейropsихологический, кинезиологический, сенсорный.

Maktabgacha ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashning ilmiy, moddiy va uslubiy bazasidagi o'zgarishlar tufayli jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Yangilanishning muhim shartlaridan biri innovatsion texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Bu bir tomondan, tuzatish-tarbiya jarayoning samaradorligini oshirishga, ikkinchi tomondan, o'quv jarayonida individual yondashuvni ko'proq qo'llashga imkon beradi.

Har bir alohida bola bilan ishlash samaradorligi har doim boshqacha. Bir bolada tuzatish jarayoni juda oson va samarali bo'ladi, boshqa bolada esa nutq terapeyasining turli bosqichlarida "tiqilib qolish" sodir bo'ladi. Nutq terapevtining ishi miya tuzilmalarning rivojlanish mantig'ini hisobga olgan holda differensial tarzda tuzilgan bo'lsa samarali bo'ladi. Nutq patologiyasi bo'lgan bolalar bilan tuzatish nutq terapeyasi ishining muvaffaqiyati ko'p jixatdan nutq buzilishlarini tuzatishga kompleks yondashuvga bog'liq.

So'ngi paytlarda logopediya amaliyotida neyropsixologiya kabi sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Neyropsixologik tekshirish usullari maktabgacha yoshdagi nogiron bolalarda, shu jumladan og'ir nutqida nuqsonli bo'lgan (umumiy nutqning kam rivojlangan) bolalarda yuqori aqliy funksiyalarni tashxislash va tuzatish uchun muvaffaqiyatli qo'llaniladi.

Neyrogimnastika-bu vosita neyropsikologik tuzatish (yoki sensorimotor tuzatish) nomi.

Kinesiologiya-bu harakat orqali miya rivojlanishi haqidagi fan. Fiziologlarning tadqiqotlariga ko'ra, miyaning o'ng yarim shari- insonparvarlik, hayoliy, ijodiy –tana, harakatlarni muvofiqlashtirish, fazoviy vizual va kinestetik idrok uchun javobgardir. Miyaning chap yarim shari-matematik, ramziy, nutq, mantiqiy, analitik-eshitish ma'lumotlarni idrok etish, maqsadlarni belgilash va dasturlarini tuzish uchun javobgardir.

Neyrogimnastika mashqlarining har biri miyaning ma'lum bir qismini rag'batlantirishga yordam beradi va harakatni birlashtirish mexanizmini o'z ichiga oladi, shuningdek, harakatlar va psixofizik funksiyalarni muvofiqlashtirishni rivojlantirishga yordam beradi. Kinesiologik trening ta'sirida organizmda ijobiy tarkibiy o'zgarishlar yuz beradi. Nerv jarayonlarining kuchi, muvozanati, harakatchanligi, plastikligi yuqori darajada amalga oshiriladi. Asab tizimining tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi roli yaxshilanadi. Miya gimnastikasi insonning yashirin qobiliyatlarni aniqlash va uning miyasi imkoniyatlari chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. Neyrogimnastika universal mashqlar tizimi bo'lib, u har qanday yoshdagi bolalar va kattalar uchun samarali.

Arab tilidagi o'xshatishlarni o'zbek tiliga tarjima qilish madaniy tavofutlardan chuqur xabardor bo'lmagan mutaxassislar ko'pgina anglanmagan qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Ana shunday muammolarni chetlab o'tish uchun arab tilidagi xos o'xshatish hodisasini so'zma so'z saqlab qolishdan voz kechib, o'zbek lingua-madaniy muhitiga muqobil variantlarni tadbiiq etish lozim. Masalan Aziz¹⁰³ tomonidan qilingan tahlilga nazar solsak: جنتاها كالانتفاح asl ma'no yonoqlari olmadek, o'zbek madaniy muhitida ham olma, ham atirgul muvofiq o'xshatishlar sanaladi.

Adabiy-badiiy ijod jarayonida estetik mohiyatga urg'u berilganda so'zning leksik va semantik ma'nosi bir qadar o'zgarishga uchraydi, zero badiiy ifoda talabi bilan yuzaga kelgan bu tasviriy vosita yuqorida nazarda tutilgan ma'noning estetik uzatmasi o'zgarishidan turib o'z funksiyasini bajara olmaydi. Ritorik o'xshatishlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish lingvistik va madaniy tafovutlar tufayli murakkab jarayon sanaladi. Mazkur murakkablik madaniyatlar o'rtasidagi mafkuraviy farqlar aniq yuzaga kelganda tarjima mas'uliyatini yanada oshiradi.

METAFORA VA O'XSHATISH

Metafora va o'xshatish tasviriy ifoda vositalari bo'lib, narsa-buyum va holatlarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Metod o'laroq qiyoslash va taqqoslashdan foydalaniladi. O'zbek tilida o'xshatish qiyoslash metodidan foydalanilganda *kabi*, *-dek* singari ko'makchilarning ishtiroki yordamida yuzaga keladi. U odatda bir-biriga o'xshamaydigan ikki narsani qiyoslaydi. O'zbek lingvistikasida o'xshatish haqida dastlabki tadqiqot olib borgan M. Mukarramov o'xshatishning uch komponentdan tashkil topishi: o'xshatiluvchi, obyekt va o'xshovchi obraz o'xshatishning asosi ekanligiga urg'u beradi. O'xshatish vositasi asos sifatida hisobga olinmaydi. O'xshatishlar borasida maxsus ilmiy tadqiqot yuritgan D. Xudoyberganova o'xshatishlar to'rt asosdan iborat ekanligini, ayrim o'xshatish tizimlarida bu asoslarning biri uslub talabi bilan ifodalanmay qolishini ko'rsatadi. Olima o'xshatish asoslarining bu tarzda birining ifodalanmasligini uning ma'nosini boshqa qismlar orqali anglanishi bilan izohlab beradi.

Metafora narsa, belgi, harakat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlikka asoslanadi:

-*ko'ylakning yoqasi (o'z ma'nosi), soyning yoqasi (ko'chma ma'no);*

- *qattiq bodom (o'z ma'nosi), qattiq sovuq (ko'chma ma'no), qattiq muomala (ko'chma ma'no);*

- *xona toza (o'z ma'nosi), uning qalbi toza (ko'chma ma'no).*

O'xshatish ham ko'chma ma'no ustiga qurilishi bilan metaforalarga o'xshash bo'lib, ular yordamida shaxs va predmetlar bir-biriga o'xshatiladi. Masalan:

Adashgan it kabi,

Furqat qayon borgum bilolmasman.

Lekin o'xshatishlarda metaforalardan farqli o'laroq *-dek, -day, -simon, -vash, -namo, kabi, singari, yanglig', misoli, o'xshash* kabi vositalar qo'llaniladi. Masalan: Sardorbek – maktabimiz quyoshi. (metafora) Sardorbek bamisoli quyosh. (o'xshatish) Agar adabiyotshunoslikda ham

¹⁰³ Aziz, Y. Y., Principles of Translation. Benghazi: University of Qar Younis.

metafora va o'xshatishni bir-biridan farqlaydigan bo'lsak, metafora istiora san'atini hosil qiladi, o'xshatish esa, tashbeh san'atini hosil qiladi.

ARAB TILIDA O'XSHATISH

Arab tilshunosligida o'xshatish التشبيه deb ataladi. Badiiy va adabiy nutqda ifodani estetik va ritorik jihatdan muayyan fikr yoki tuyg'uni pragmatik tasvirlab berishda, ikki qiyoslanuvchini bir-biriga bog'lashda, o'xshatiluvchini o'xshatilayotgan bilan ijobiy yoki salbiy ma'noda taqqoslanishi uchun ishlatiladi. Binobarin, o'xshatish lingvistik va estetik tasviriy ifoda vositasi sifatida qanchalik muvofiqligi, samaradorligi, ma'nodorligi va ayniqsa, o'quvchida nechog'lik taassurot qoldirayotgani bilan muallifdan muallifga farq qiladi.¹⁰⁴ Bag'dodlik olim Vajida al Atrajiy o'xshatishga inson nutqning qadimiy shakli sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra o'xshatish ta'riflab berish, bayon qilish va oydinlashtirishning eng yaxshi yo'lidir. U ayni paytda ma'noning chuqur qatlamlariga yetish uchun ham yaxshi vosita hisoblanadi. Tavsiya o'laroq hatto karlar uchun ham ma'no-mazmunga ega til hodisasi sifatida qayd etadi.¹⁰⁵

Al Jurjoniyning nuqtai nazariga ko'ra¹⁰⁶ o'xshatish ifoda vositasi sifatida har turli narsalarni jamlay oluvchi, turli makonlar o'rtasidagi masofani u hatto sharq va g'arb qadar katta bo'lsa ham qisqartira oluvchi, mavhum tushunchalarga ham xuddi jonli mavjudotlardek mazmun kirita oladigan, soqovni ham tilga kiritib, ajamdan arabdek so'zga chechanlik yasay oladigan lingvistik san'at turidir. U minerallar olamidagi hayotni tasvirlay oladi, qarama qarshilikni ko'rsatib beradi: *hayot va o'lim, suv va olov*.

Mashhur fors adibi Abu Hilol al Askariyga ko'ra¹⁰⁷, o'xshatish ma'noni to'laroq ifodalab uni tasdiqlovchi, arabu ajam birdek e'tirof etgan ritorik hodisadir. Ulardan hech biri bu borada e'tiroz bildirmagan.

Abbosiyilar davrining yirik filolog olimi al Mubarrid -المبرد- arablar nutqida keng qo'llanilishini isbotlab bergan¹⁰⁸. U yana arablarning nutqlari asosan o'xshatishlardan iboratligini e'tirof etish aslo mubolag'a bo'lmasligini ta'kidlaydi¹⁰⁹. Kishilar o'z nutqlarida o'xshatishdan ixtiyorsiz yoki maqsadli tarzda, qachonki unga zarurat tug'ilsa ham foydalanadilar. Undan kishilik jamiyatining barcha qatlamlari - arabu ajam, oliy va quyi tabaqa vakillari, qishloqliklaru shaharliklar, sivilizatsiya egalariyu badaviylar, bilimli va bilimsiz, oqilu nodon - tomonidan birdek istifoda qilinadi. U shunday adabiy tasvir vositasiki, u muayyan bir til yoki irqqa xos bo'lmay, balki butun insoniyat uchun tabiiy xususiyat bo'lgan lingvistik komponentdir (Sheeba, 1985:2).

O'XSHATISHNING TARKIBIY QISMLARI

Ali al Jundiya ko'ra¹¹⁰, arab tilida o'xshatish lingvistik hodisa sifatida quyidagi to'rt unsur orqali yuzaga chiqadi:

1. Mavzu (o'xshatiluvchi) - المشبه;
2. Tasvir (o'xshatilayotgan narsa) - المشبه به;

¹⁰⁴ الاطرقجي, واجدة مجيد, 1978. التشبيهات القرآنية و بالعربية. بغداد

¹⁰⁵ O'sha asar

¹⁰⁶ الجرجاني, عبدالقاهر, 1978. اسرار البلاغة. دار المعارف, بيروت

¹⁰⁷ أبو هلال الحسن بن عبد الله بن سهل العسكري, الصناعتين, القاهرة, 1952, النشرة الاولى

¹⁰⁸ ابو العباس محمد بن يزيد بن عبد الاكبر المعروف بالمبرد, 1998, طبعة بتحقيق عبد الحميد هنداي. طبعتها وزارة الاوقاف السعودية. صحيفة - 108.

¹⁰⁹ O'sha manba. 108-bet.

¹¹⁰ علي الجندي, فن التشبيه, (1952), نضحة المصرية, مصر, صحيفة 133

3. O'xshatish jihati - وجه الشبه;

4. Bog'lovchi vosita yoki ko'makchi - أدوات التشبيه (محاك, يُشَبِّهُ, يُضَاهِي, كَانَ, مِثْل, كَا, كَ)

O'xshatishning mazkur to'rt komponenti quyidagi misolda to'la namoyon bo'ladi:

Laylo onasidek go'zal. ليلي كوالدتها جمالاً

Ushbu misolda ot (Laylo ليلي) mavzu - o'xshatiluvchini ifodalasa, boshqa bir ot (onasi والدتها) tasvir - o'xshatlayot narsani bildiradi. bog'lovchi vositasini bajarayotgan ko'makchi bo'lib kelgan bo'lsa, جمال o'xshatish jihatini anglatuvchi nuqtadir.

O'xshatiluvchi va o'xshatlayotgan narsa (مشبه و مشبه اليه) muhim ikki unsur sanaladi. Al Jundiyning (1952 yilgi nashr,94-bet) fikriga ko'ra, ayrim komponentlarni tushirib qoldirish mumkin bo'lsa ham boshqa shunday qismlari borki (مشبه و مشبه اليه), ularsiz o'xshatish yuzaga chiqmaydi. Quyidagi misollarni tahlil qilamiz:

Ali sherdek shijoatlidir. علي شجاع كالاسد

Ali bamisoli sherdir. علي كالاسد

Ali sherdir. علي أسد

Birinchi misolda o'xshatishning barcha komponentlari ishtirok etgan. Ikkinchi misolda esa o'xshatish jihati - الشجاعة bahodirlik - tushirib qoldirilgan bo'lsada, ma'nosi aniq tushuniladi. Uchinchi misolda esa o'xshatish jihati ham (الشجاعة bahodirlik), bog'lovchi vosita (ك bamisoli) ham tushirib qoldirilib, ma'no to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan.

O'XSHATISH TURLARI

Doktor Abdurauf (2006 yilgi nashri, 207-8 betlar) o'xshatishning mushabbah va mushabbah ilayhiga ko'ra, ko'makchilar ishtiroki va o'xshatish jihatiga muvofiq o'n to'rt turini keltiradi. Bular:

1. Bir turli yagona o'xshatish:

نصيحتك كالذواء - *Maslahatingiz misoli dori-darmon;*

2. Ko'p o'xshatishli struktura:

هذا الرئيس الشركة كسابقه في الكذب و الفساد و الجهل و الرياء

Kompaniyaning bu boshlig'i ham yolg'onchilikda, korrupsiyada, kaltabinlikda va ikkiyuzlamachilikda avvalgisi kabidir.

3. Ikki turli o'xshatish yoki qo'shma o'xshatish:

الشمس مثل الكرة الذهبية - *Quyosh bamisli oltin to'p;*

4. Ta'rif o'rnidagi o'xshatish (izohlovchi o'xshatish):

كلامك كالعسل - *So'zlarinigiz asal kabidir;*

5. Tafsilotli o'xshatish:

كلامك كالعسل حلوة - *So'zlarinigiz shirinlikda asal kabidir;*

6. Cheklanmagan o'xshatish:

نصيحتك كالذهب - *Maslahatingiz oltin kabidir;*

7. Tasdiqlangan, qayd qilingan o'xshatish:

نصيحتك ذهب - *Maslahatingiz oltindir;*

8. Sezgi a'zolari bilan his qilishga asoslangan o'xshatish(hissiy+hissiy):

هذا العصير كماء البحر - *Bu sharbat baayni dengiz suvi;*

9. Intellektual hodisaga suyanuvchi o'xshatish(ongli+ongli):

الجوع كاليأس - *Ochlik nochorlikdir;*

10. Aqliy va hissiy hodisaga asoslangan o'xshatish(ongli+hissiy):

حظي كدقيق في يوم عاصف - *Mening toleim bamisli bo'ronli kundagi unga o'xshaydi;*

11. Hissiy va ongli o'xshatish (hissiy+ongli):

هذا العطر كالسعادة - *Bu atir saodatdekdir;*

12. Tasavvurga qurilgan o'xshatish:

جسمه كجسم الديناصور - *Uning jismi dinozavr jismidek;*

13. Teskari o'xshatish:

النار كالنفق - *Olov munofqlik singaridir;*

14. Ta'sir faktoriga qurilgan o'xshatish:

زيد أسد - *Zayd sherdir.*

O'XSHATISHDAN KO'ZLANGAN MAQSADLAR

O'xshatishdan turli maqsadlarda foydalaniladi. Al Jundiyya ko'ra (1952:200-2023) quyidagi maqsadlar farqlanadi:

1. Mavzu bayon qilingan vaziyat yoki kontekstni oydinlashtirish uchun:

كأنك شمس و الملوك كواكب إذا طلعت لم يبدومنهن كواكب

Sen bamisli quyoshdirsan, o'zga shohlar esa yulduzlardir. Qachonki quyosh chiqar ekan, yulduzlar deyarli g'oyib bo'lgusidir¹¹¹;

2. Mavzu doirasida berilgan kuchning qanchalik cheklanganligini yoki muayyan zaiflikni to'laroq ta'riflash uchun:

فيها إثنان و أربعون حلوية سوداء كخافية الغراب الاسخم

Qirq ikki urg'ochi tuya borki,

Misoli qora qarg'aning poyafzalidek qora¹¹².

3. Kontekstdan anglashilgan holatning barqarorligini tasdiqlash uchun:

إن القلوب إذا تناثر ودها مثل الزجاج كسرها لا يجب

Bordiyu qalbd muhabbat yuz o'girgudek bo'lsa,

Baayni singan shishadek uni butlamoq amri maholdir¹¹³

4. Bir-biriga zid ikki narsaning o'rtasidagi ma'lum bir o'xshashlikni ochib berish uchun:

انت كالشمس تبعد إن تسامى ويدنو منها النور و الشعاع

Sen misli quyoshdirsan, u ko'p yiroqdir,

Va lek insonlarga uning nuri va yorug'ligi yaqindir;¹¹⁴

5. Go'zallashtirish uchun:

جسمك كالحرير - *Jisming bamisli ipak¹¹⁵*

6. Ma'lum bir kamchilik yoki aybni tanqid qilish uchun:

يأكل زيد كالبهيمة - *Zayd hayvondek ovqatlanadi¹¹⁶*

TARJIMA VA MADANIY OMIL

Nyumark tarjima jarayonida madaniy omil qiymati haqida fikr bildirar ekan, boshqa hech bir jihat tilning va muayyan tekstlarning yaxlit bir kompleks tabiatini tarjima amaliyotidek ko'rsata

¹¹¹ Shittu,S.A(2012). A Course in Arabic Rhetoric. Nigeria: National Open University of Nigeria Press, Page-22.

¹¹² O'sha asar

¹¹³ O'sha asar

¹¹⁴ O'sha asar

¹¹⁵ Hussein Abdul-Raof,Arabic Rhetoric:A Pragmatic Analysis,Page-206

¹¹⁶ Hussein Abdul-Raof,Arabic Rhetoric:A Pragmatic Analysis,Page-209

bera olmasligini ta'kidlaydi¹¹⁷. Bundan tashqari yozma nutqning qanchalik ifodaliligi tarjimada yaqqol ko'rinadi. Tarjima yangi bilimlarning keng yoyilishida ham katta ahamiyatga ega. Boshqa tamaddunlardagi madaniyat rivojining har bir aspektini anglashga urinish bir paytning o'zida kishilarni o'z madaniyatlarini chuqurroq tushunishlariga, uni boyitishiga ham olib keladi.

Azizning mulohazalariga ko'ra madaniyatga aniq qilib jamiyat a'zolari tomonidan umum e'tirof etilgan e'tiqodga asoslangan tamoyillar majmui deb ta'rif berish mumkin. U bilan jamiyat a'zolari xulq-atvori, turmush tarzi tartibga solinadi. Bu esa o'z navbatida din, iqtisodiyot, siyosat, til va adabiyotni ham o'z ichiga oladi¹¹⁸. Binobarin, til madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida o'xshatish berilgan til va mana shu o'xshatish tarjima qilinayotgan til mansub bo'lgan lingvo-madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. Shunnaqning fikricha¹¹⁹, tarjimon o'xshatishlar aks etgan iboralarni o'girish jarayonida so'zma-so'z tarjimaga emas, g'oyalar ifodasiga e'tibor qaratish kerak. Tili o'girilayotgan xalq madaniyati bilan yaqindan tanishish bu jarayonning muhim qismidir. Ilyos Osim¹²⁰ muayyan madaniyatga xos bo'lgan o'xshatish muqobili topilmagan taqdirda, aynan ekvivalenti bo'lmasa ham bir xil funksiyani bajaruvchi boshqa o'xshatishni qo'llash mumkinligiga oid mulohaza bildiradi. Bu o'rinda u qorni misol sifatida keltiradi. Qor bilan bevosita tanish bo'lmagan madaniyat tiliga qor markaziy o'rin tutuvchi o'xshatishni o'girish uchun qorga funksional o'xshash bo'lgan boshqa ramzdan foydalanish mumkin, masalan, paxta ana shunday vosita bo'la oladi.

Demak, bir tildagi *qordek oq* jumlasini boshqa tilga *paxtadek oq* deya o'girish mumkin. Kruznung nuqtai nazariga ko'ra¹²¹, tarjima nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniy jarayon ham bo'lib, ikki madaniyat o'rtasidagi muloqotni amalga oshiradi, zero o'z xususiyatlariga ko'ra tarjima jarayoni ikki tomonlama bog'lovchi aspektga ega bo'lib, asliy til mansub bo'lgan madaniy muhit bilan xorijiy til muhiti o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'taydi. U yana bir muhim omilni ta'kidlar ekan, ikki til o'rtasidagi fundamental madaniy asos bir-biridan qanchalik tafovutli bo'lib borsa, tarjimonlar ayni jihat ustida ko'proq ishlashlari lozim bo'lib boradi¹²².

O'xshatishlarda aks etgan lingvo-madaniy xususiyatlar tarjima tufayli boshqa bir tilda ifodalanganda o'ziga xos fenomenlar - mahalliy madaniyatni ifodalovchi so'z va iboralar, tasviriy ifodalar, ularning kelib chiqishi va nutqda qo'llanilishi - saqlanib qolishi zarurdir.

TADQIQOT UCHUN TANLAB OLINGAN AYRIM O'XSHATISHLAR TAHLILI

Tadqiqot uchun arab adabiy tilida ko'p uchraydigan o'xshatishlarning yettitasi tanlab olindi va ularning leksik va semantik tahlili modellashtirildi.

1. ابي حكيم كلقمان (Al Maydaniy, Vol.1.Page-222);
2. انت حقوق كالجمل (Al Maydaniy, Vol.1.Page-222);
3. ليلي جميلة كالبدر (Al Maydaniy, Vol.1.Page-223);
4. انت هنا امن من حمام مكة (Almaydaniy, Vol.1.Page-87);

¹¹⁷ Newmark, P. (1981). **Approaches to translation**. Language and teaching series. Pergamon. UK.

¹¹⁸ Aziz, Y. Y., Principles of Translation. Benghazi : University of Qar Younis, Page-85.

¹¹⁹ Shunnaq, A., Dollerup, C., Saraireh, M., (1998). Issues in Translation.

Amman: Irbid National University and Jordan Translators' Association

¹²⁰ Ilyas, Asim, I., (1988). **Theories of Translation**. Mosul: Mosul University Press

¹²¹ Cruise, Alan, (2006). **A Glossary of Semantics and Pragmatics**. Edinburgh: Edinburgh University Press Ltd, Page-11

¹²² Cruise, Alan, (2006). **A Glossary of Semantics and Pragmatics**. Edinburgh: Edinburgh University Press Ltd, Page-12

5. فلان اعمر من نسر (Al Maydaniy, Vol.2. Page-50);
6. هذا الرجل احمق كجحا (Al Maydaniy, Vol.1. Page-223);
7. هو كريم كالبحر (Abdul-Raof, 2006, Page-199).

Ushbu o'xshatishlarning leksik va semantik tahlilida Pierini tomonidan taklif etilgan lingvo-strategiyadan foydalanildi¹²³:

1. So'zma-so'z tarjima - bunda ayni o'xshatish vositasining o'zi saqlanib qoladi (inglizcha: retention of the same vehicle - LT);
2. O'xshatish vositasining tarjima jarayonida boshqa vositaga almashtirilishi (inglizcha: replacement of the vehicle with a different vehicle - RVDV);
3. Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi (inglizcha: reduction of the simile, if idiomatic, to its sense - RSIS);
4. O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq ifodalagan holatda saqlab qolish (inglizcha: retention of the same vehicle plus explication of similarity features - RSV+ESF);
5. O'xshatishda foydalanilgan vositani kuchaytirilgan boshqa ma'no beruvchi bilan almashtirish (inglizcha: replacement of the vehicle with a gloss - RVG);
6. O'xshatishning tushirib qoldirilishi (inglizcha: omission of the simile - OS).

Ushbu modul bo'yicha maxsus tanlab olingan arabcha o'xshatishlarning o'zbekcha ekvivalenti qanday tanlanilishi bo'yicha jadval tuzib, batafsil tahliliy ma'lumot berildi.

Birinchi jadval:

O'xshatish(qiyoslash)1	ابي حكيم كلقمان	Lingvo-strategiya
1 - Modul asosi	Otam xuddi Luqmon dono bo'lganidek donodir	O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq ifodalagan holatda saqlab qolish
2 - Modul asosi	Otam Luqmondekdir	So'zma-so'z tarjima
3 - Modul asosi	Otam bamisli boyqush	O'xshatish vositasining tarjima jarayonida boshqa vositaga almashtirilishi
4 - Modul asosi	Otam Sulaymondek donishmanddir	O'xshatish vositasining tarjima jarayonida boshqa vositaga almashtirilishi
5 - Modul asosi	Otam misoli Sulaymondur	O'xshatish vositasining tarjima jarayonida boshqa vositaga almashtirilishi
6 - Modul asosi	Otam shu qadar dono	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub

¹²³ Pierini, P., (2007): **Simile in English**: From description to translation. CÍRCULO de Lingüística Aplicada a la Comunicación (clac) 29, 21-43

		mazmuniga qadar qisqarishi
--	--	----------------------------

Ikkinchi jadval

O'xshatish(qiyoslash) ²	هو كريم كالبجر	Lingvo-strategiya
1 - Modul asosi	U juda saxiy	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
2- Modul asosi	Uning qo'li ochiq	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
3 - Modul asosi	U saxovatda bamisli dengiz kabidir	O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq ifodalagan holatda saqlab qolish
4 - Modul asosi	U dengizdek saxiydir	O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq ifodalagan holatda saqlab qolish
5 - Modul asosi	U pulga xasis emas	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
6 - Modul asosi	U Xotami Toydek saxiydir	O'xshatish vositasining tarjima jarayonida boshqa vositaga almashtirilishi

Uchinchi jadval

O'xshatish(qiyoslash) ³	انت حقوق كالجمل	Lingvo-strategiya
1 - Modul asosi	Sen tuyadek baxilsan	O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq ifodalagan holatda saqlab qolish

2 - Modul asosi	Sen yovuzsan	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
3 - Modul asosi	Sen tuyadek badjahlsan	O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq ifodalagan holatda saqlab qolish
4 - Modul asosi	Sen tuyadeksan	So'zma-so'z tarjima
5 - Modul asosi	Sen juda badjahlsan	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
6 - Modul asosi	Sen tuyasan	So'zma-so'z tarjima

To'rtinchi jadval

O'xshatish(qiyoslash)4	ليلى جميلة كالبدر	Lingvo-strategiya
1 - Modul asosi	Laylo to'lin oydan ham go'zalroqdir	O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq ifodalagan holatda saqlab qolish
2 - Modul asosi	Laylo oydek go'zaldir	O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq ifodalagan holatda saqlab qolish
3 - Modul asosi	Laylo bamisoli to'lin oydir	So'zma-so'z tarjima
4 - Modul asosi	Laylo go'zallikda oydekdir	O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq ifodalagan holatda saqlab qolish
5 - Modul asosi	Laylo shu qadar go'zal	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi

6 - Modul asosi	Laylo sen tasavvur qilgandan ham ko'ra go'zalroqdir	O'xshatishda foydalanilgan vositani kuchaytirilgan boshqa ma'no beruvchi bilan almashtirish
-----------------	-----------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------

Beshinchi jadval

O'xshatish(qiyoslash)5	انت هنا امن من حمام مكة	Lingvo-strategiya
1 - Modul asosi	Sen bu yerda sog' va omonsan	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
2 - Modul asosi	Sen bu yerda shu qadar omonsan	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
3 - Modul asosi	Sen bu yerda juda omonsan	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
4 - Modul asosi	Sen bu yerda juda omondirsan	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
5 - Modul asosi	Sen bu yerda ishonchli qo'llardasan	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
6 - Modul asosi	Bu yerda sen Ka'baning kabutarlaridek omonsan	O'xshatish vositasining tarjima jarayonida boshqa vositaga almashtirilishi

Oltinchi jadval

O'xshatish(qiyoslash)6	فلان اعمر من نسر	Lingvo-strategiya
1 - Modul asosi	Kishi burgutdek barhayot(yoshini bilib bo'lmaydi)	O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq

		ifodalagan holatda saqlab qolish
2 - Modul asosi	Kishi osmondagi oydek uzoq yashagan	O'xshatish vositasining tarjima jarayonida boshqa vositaga almashtirilishi
3 - Modul asosi	Kishi burgut singari sanoqsiz yillarni yashagan	O'xshatishdagi ayni vositaning o'zini o'xshash xususiyatlarni to'laroq ifodalagan holatda saqlab qolish
4 - Modul asosi	Kishi bamisoli burgut	So'zma-so'z tarjima
5 - Modul asosi	Kishining yoshini bilib bo'lmaydi	O'xshatishning olib tashlanishi
6 - Modul asosi	Kishi qarg'aning yoshiga kirgan	O'xshatish vositasining tarjima jarayonida boshqa vositaga almashtirilishi

Arab madaniyatida burgut bardavomlik timsoli sanalib, tashbehlarda uzoq umr ko'rganlarga nisbatan qo'llaniladi. Albatta ushbu qush timsol o'laroq arab lingvo-madaniy platformasida tasodifan paydo bo'lib qolmagan, zero u sahro kengliklarida umr o'tkazuvchi badaviylar hayotining ajralmas bir qismi bo'lib qolgan. Shu sabab ushbu aks etgan o'xshatishlar va maqollarni arab madaniyatida ko'plab uchratishimiz mumkin. O'zbek tilida esa uzoq umr ramzi sifatida burgutga o'xshab ketuvchi qarg'adan keng foydalaniladi.

Yettinchi jadval

O'xshatish(qiyoslash) ⁷	هذا الرجل احمق كجحا	Lingvo-strategiya
1 - Modul asosi	Bu kishi chinakam ahmoq	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
2 - Modul asosi	Bu kishi rostakam esipast	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
3 - Modul asosi	Bu kishi shu qadar ahmoq	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi

4 - Modul asosi	Bu odam Juhodek tentak	O'xshatishda foydalanilgan vositani kuchaytirilgan boshqa ma'no beruvchi bilan almashtirish
5 - Modul asosi	Bu kishi haqiqiy tentakdan boshqa narsa emas	Agarda ibora tarzda ifodalangan bo'lsa o'xshatishning tub mazmuniga qadar qisqarishi
6 - Modul asosi	Bu kishi bamisoli Juho	So'zma-so'z tarjima

Juho Sharq o'lkalari og'zaki adabiyotida mashhur obraz. Uning aynan qaysi paytdan boshlab, ilk marotaba arab qissalariga kirib kelgani noma'lum bo'lsada, milodiy 9-asr taxminiy dastlabki davr sifatida tilga olinadi. Juho ertaklari barcha arab diyollarida keng tarqalgan. Juho Eron, Turkiya va Markaziy Osiyo mintaqalarida ko'proq Nasriddin Afandi nomi bilan mashhur. Juho ertaklari nodonlik va donolik o'rtasidagi juda nozik chegarani ifodalash uchun aytiladi. Juho adabiy obraz sifatida hech qachon o'lmaydi - yoshu qari tomonidan uning qissalari so'zlanaveradi. An'anaviy hikoyalarda esa u ko'proq podshohning yoki sultonning nodon xizmatchisi sifatida namoyon bo'ladi. Binobarin, arab madaniyatida Juho ahmoqlik ramzi sifatida qo'llaniluvchi timsol vazifasini bajaradi. O'xshatishlarda ko'p qo'llaniluvchi mazkur leksik hodisa faqatgina musulmon Sharqiga xosligi bilan ajralib turadi.

XULOSA

Tadqiqot so'ngida bir qator umumlashtirishlardan so'ng quyidagilarni xulosa qilamiz:

1. O'xshatish adabiy-badiiy lingvistik xususiyat sifatida barcha dunyo tillariga xos bo'lib bundan arab va o'zbek tillari ham mustasno emas. O'xshatish xoh adabiy bo'lsin, xoh badiiy bo'lsin nutqdagi mazmun va maqsadni to'laroq anglashga xizmat qiladi, o'quvchini o'ziga jalb qiladi, ma'nosiga chuqurroq kirishga undaydi;
2. O'zining lingvo-madaniy xususiyatlariga ko'ra muayyan tildagi o'xshatishlarni boshqa tillarga bevosita o'girish murakkab masala hisoblanadi;
3. O'xshatishlarni tarjima qilish jarayonida eng muhim omil bu eng munosib strategiyani tanlashdir (so'zma-so'z tarjima, o'xshatish vositasi sifatida ishlatilgan so'zning boshqa ko'chma ma'noda emas, o'z ma'nosida kelgan so'z bilan almashtirish va hokazo);
4. Ba'zan tadqiqotchilar arab tilidagi muayyan o'xshatishni boshqa tilda ifodalashda asosan shaklni saqlab qolishga intilib, mazmunni anglashda katta mavhumlik paydo bo'lishiga sabab bo'lishadi;
5. Muayyan hollarda biz ba'zi tadqiqotlarda مشبهه dagi tasvir vositasini o'zgartirmasdan turib boshqa tilda lingvo-madaniy xususiyatlarni aks ettira olmaslik ikki til mansub bo'lgan madaniy muhit bilan yaxshi tanish bo'lmaslikdan kelib chiqadi;
6. Ba'zan arab tilidagi o'xshatishlar ibora tarkibida keltirilgan bo'lsa, bu iborani o'zbek tilida mazmunini aynan beruvchi ekvivalenti bilan almashtirish bilan tarjima qilish hamisha ham o'zini

oqlamaydi. Bunday hollarda o'xshatish tasviriy vosita sifatida olib tashlansa ham ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri o'girilishi samarali metod hisoblanadi;

7. Garchand o'xshatish oson fahmlab olinuvchi adabiy hodisa bo'lsa ham muayyan tildagi o'xshatishni boshqa tilga aynan o'girish pragmatik va semantik masalalar tufayli murakkab jarayon hisoblanadi;

8. Lingvo-madaniy xususiyatlar o'xshatishlarda muhim o'rin tutadi. Aytaylik, *Sulaymon metin toshdek* misolida tosh arab madaniyatida kuchlilik timsoli bo'lsa, boshqa madaniyatlarda u gapirmaydigan, gung shaxsni anglatadi;

9. O'xshatishlarda qo'llanilgan timsollar o'zaro anglashuv zarurati tufayli almashishi mumkin: *حقود كالجمل tuyadek badjahl = ilondek jahldor* va hokazo;

10. O'xshatishda ko'p ishlatiluvchi yuklamalar boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri ma'no anglatuvchi xususiyati tufayli olib tashlanishi mumkin, bunda o'xshatish hodisasi saqlanib qoladi.

REFERENCES

1. الاطرقجي, واجدة مجيد, 1978. التشبيهات القرآنية و بالعربية. بغداد
2. الجرجاني, عبدالقاهر 1978. اسرار البلاغة. دار المعارف, بيروت
3. أبو هلال الحسن بن عبد الله بن سهل العسكري, الصنائع 1952, القاهرة, النشرة الاولى
4. ابو العباس محمد بن يزيد بن عبد الاكبر المعروف بالمبرد, 1998, طبعة بتحقيق عبد الحميد هنداوي. طبعتها وزارة الاوقاف السعودية.
5. علي الجندي, فن التشبيه, (1952), نضحة المصرية, مصر
6. Махмудов Н. Ухшатиш содда гапларда семантик-синтактик асимметрия // Ж. Узбек тили ва адабиёти. -1986. -№ 6;
7. Махмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ухшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ж. Узбек тили ва адабиёти. 1983, №
8. Черемисина М. Сравнительные конструкции русского языка. Новосибирск, 1976;
9. Худойберганава Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкцию подобиения в узбекском языке: АКД. Тошкент, 1999.
10. Aziz, Y. Y., (1999). Principles of Translation. Benghazi : University of Qar Younis;
11. Baldick, C ., (2001). The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. Oxford: Oxford University Press;
12. Best, Wilfred D., (1958). Student's Companion. Glasgow: Collins Clear Press;
13. Child, P Fowler. R., (2006). The Routledge Dictionary of Literary Terms . USA: Routledge;
14. Cleary, Brian P., (2009). What Are Similes and Metaphors? USA: Millbrook Press;
15. Cruise, Alan, (2006). A Glossary of Semantics and Pragmatics. Edinburgh: Edinburgh University Press Ltd;
16. Crystal, D., (1992). An Encyclopedic Dictionary of Language and Languages. Blackwell Publishing: USA;
17. Cuddon, J. A., (1980): Literary Terms and Literary Theory. Fifth Edition. Canada: Basil Blackwell Ltd;
18. House, J., (2009). Translation. Oxford : Oxford University Press;
19. Ilyas, Asim, I., (1988). Theories of Translation. Mosul: Mosul University Press;
20. Kennedy, George, A., (2007). Aristotle on Rhetoric : A Theory of Civic Discourse. Second Edition. OXFORD: Oxford University Press;

21. Kleiser, G.,(1910):Similes and Their Use. USA: Funk and Wagnalls Company;
22. Larson ,ML. (1984). Meaning- Based Translation: A Guide to CrossLanguage Equivalences. United States of America: University Press of America, In. ;
23. Leech, G., (1969). A Linguistic Guide to English Poetry. Longman:London and New York;
24. Newmark, P. (1981). Approaches to translation. Language and teaching series. Pergamon. UK;
25. Pierini, P., (2007):Simile in English: From description to translation. CÍRCULO de Lingüística Aplicada a la Comunicación ;
26. Quinn,Edward,(2006). A Dictionary of Literary and Thematic Terms, Second Edition. NY: InfoBase Publishing ;
27. Shehab, H.M.,(1985).The Philological Treatment of Qur'an Similes in the Works of Philologists, Exegetes, Literary and Literal Theories. M.Phil .Thesis. University of St. Andrews;
28. Shittu,S. A. (2012). A Course in Arabic Rhetoric. Nigeria: National Open University of Nigeria Press ;
29. Sommer,E.,(2013).Similes Dictionary.2nd edition,USA:Visible Inc Press;
30. Shunnaq,A.,Dollerup,C.,Sarairah,M.,(1998).Issues in Translation.Amman: Irbid National University and Jordan Translators' Association;
31. Wilstach,F.,(1996).A Dictionary of Similes. Toronto: Thomas Allen Publishers.

ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O'YIN TEXNOLOGIYASI VA UNING AHAMIYATI

Ro'ziyeva Qunduz Mahmudovna

Buxoro viloyati, Olot tumani 17-IDUMning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10557028>

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiy ta'limda o'yin texnologiyalarining o'rni va ahamiyati hamda o'yin turlari, ulardan foydalanish texnologiyasi haqida so'z boradi. Maqola davomida o'yin texnologiyalari asosida adabiyot darslarini tashkil etish masalalari alohida yoriyib berilgan.

Kalit so'zlar: adabiy ta'limda o'yin texnologiyalarining o'rni, o'yin turlari, adabiyot, ona tili ta'limi.

GAME TECHNOLOGY AND ITS IMPORTANCE IN THE ORGANIZATION OF LITERATURE CLASSES

Abstract. This article talks about the role and importance of game technologies in literary education, the types of games, and the technology of their use. In the course of the article, the issues of organizing literature classes based on game technologies are highlighted separately.

Key words: role of game technologies in literary education, types of games, literature, mother tongue education.

ИГРОВАЯ ТЕХНОЛОГИЯ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ ПО ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В данной статье говорится о роли и значении игровых технологий в литературном образовании, а также о видах игр и технологии их использования. В ходе статьи отдельно освещаются вопросы организации занятий литературой на основе игровых технологий.

Ключевые слова: роль игровых технологий в литературном образовании, виды игр, литература, обучение родному языку.

Hozirgi kunda dars jarayonini jonli tarzda o'tkazish, undagi yangi mazmuni o'quvchilarga to'larok etkazish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy texnologiyaning dolzarb talabi bo'lib xizmat kiladi.

O'qituvchilardan ham dars samaradorligi oshiradigan, o'quvchilar faolligini kuchaytiradigan texnologiyalarni qo'llash talab etilmokda. Bunday talablarga asosan o'quvchilarda o'zaro rakobatni o'rnatish uchun adabiyot darslarida **o'yin mashg'ulotlaridan** foydalanish maksadga muvofikdir.

Chunki o'yin texnologiyasi o'quvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Adabiy ta'limda asosiy faollik o'qituvchining o'zida mujassam bo'lishi kerak. Shundagina o'quvchilar orasidagi faollikni ta'minlay oladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda turli xil o'yinlardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmokda. Bugungi kunda adabiy ta'lim jarayonida qo'llash nihoyatda kulay bo'lgan bir kator o'yinli texnologiyalar yaratilmokda. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy malaka va ko'nikmalariga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki ta'lim oluvchilarda muayyan axloqiy irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga o'z ulushini qo'shadi.

D.B.El`koninning fikriga ko`ra, “Xuddi shu oddiygina o`yin orqali o` sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi”¹. Bir qancha izlanishlar shu fikrga olib keladiki, o`yin - bu tarakkiyotning rolidir, uning kelajakka, rivojlanishga qaratilgan, undan kelib chikadigan konunkoidalar, iroda hamda matonat maktabidir.

Zakovat o`yini

Bu o`yinni o`tkazishda dastlab auditoriyani o`yinga moslashtirish lozim bo`ladi. O`yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o`quvchilar o`yinda ishtirok etish huquqiga ega bo`ladi. O`yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo`ladi. Qolgan o`quvchilar esa o`yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O`yin uchun mo`ljallangan savollar konvertga joylashtirib ko`yiladi. Guruh sardori savolni olib o`qituvchiga beradi. O`qituvchi savolni o`qib eshittiradi. Javobni aniklash uchun bir dakika vakt ajratiladi. Bu vakt orasida o`yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat kilishadi. Bu o`yinni asosan, yukori sinfda o`tkazish tavsiya etiladi.

Zakovot o`yinlarida asosan, o`rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

9 cinfda Ogahiy hayoti va ijodini o`rganishda bu o`yinni qo`llash va kuyidagi savollardan foydalanish mumkin:

Savol: Shoir she`rlarida mumtoz adabiyotning kaysi san`at turlaridan foydalangan. Misollar keltiring.

Javob: Ogahiy o`z baytlarida ma`no jihatidan bir-biriga yakin tushunchalarni ko`llab **tanosub** san`tini yaratgan. Masalan:

Ne tong ko`nglum kushi gar etsa maksad oshyonig`a,
Ki, sa`yu shavkdin uhmokda bolu par kilur paydo.

Ogahiy **iyhom** san`ati xususiyatlaridan ham mohirona foydalangan:

Meni bemor o`lar holatga etganda ikki la`lin,
So`rub bildim alarning biri shakar, biri kavsardur.

Savol: Ogahiyning kuyga solingan mashhur g`azali kaysi va uning matla`si kanday?

Javob: “Ustina” radifli g`azali Ogahiyning mashhur g`azallaridan biridir. U ishk mavzusida, vasf va izhor uslubida bitilgan yakpora g`azaldir. Bu g`azal tanikli xonandalar (Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoshukurov va b.) tomonidan ko`shik kilib ijro etilgan. Fazal to`kkiz band, o`n sakkiz misradan iborat. Fazalning matla`si:

Mushkin koshining hay`ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlam uchun “nas” keltirur “nun” e`tibor “sod” ustina.

O`yin shu tarzda davom etadi. Savollarga to`g`ri javob bergan guruh g`olib sanaladi.

6X6X6

Mazkur metodlarning adabiy ta`lim jarayonida foydalanish mumkin bo`lganlaridan yana biri 6X6x6 metodidir. Bu metoddan adabiy asarlar ustida ishlashda foydalanishda adabiyot o`qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni okilona shakllantira bilish talab kilinadi.

Bu metodda sinfdagi o`quvchilar oltita-oltitadan guruhlarga bo`linadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e`lon kilinadi, o`qituvchi guruhning a`zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil koladi va o`z guruhining mavzu yuzasidan chikargan

¹ Эльконин Д.Б. Психология игр. Москва. Педагогика. 1978.

xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a`zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o`rganadilar, unga o`z munosabatini bildiradilar. Shu tarika kiska vakt ichida o`quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o`zlari tomonidan tahlil kilinadi va baholanadi.

“**To`g`ri top` o`yini** uchun ikkita plakat kerak bo`ladi. O`qituvchi birinchi navbatda biror makolning boshlanishini yozib ko`yadi, ikkinchisi esa tartabni o`zgartirgan holda makolning davomini yozib ko`yadi. O`yinni 5 sinflarda “Makollar” mavzusini o`rganishda qo`llash mumkin.

1. Qari bilganini...
2. Avval o`yla...
3. Otdan tushsa ham...
4. Yaxshi topib gapirar...
5. O`z uying...

1. egardan tushmaydi
2. yomon kopib
3. pari bilmas
4. o`lan to`shaging
5. keyin so`yla

“**Kim biladi?**” o`yinida o`quvchilar ikki guruhga bo`linadi. Birinchi guruh a`zolari biror she`rdan parcha o`qishadi. Ikkinchi guruh a`zolari esa she`rning muallifini aniklashadi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh a`zolari she`r o`qishadi. Birinchi guruhdagilar esa she`r muallifini topishadi. Har bir to`g`ri javob uchun yutukli kartochkalar berishadi. Bu o`yinni xohlagan shoirning lirikasini o`rganishda yoki dars jaryonida o`quvchilarni zeriktirishga yo`l ko`ymaslik, kiziktirish maksadida ham o`tkazish mumkin. Masalan, 9-sinfda Navoiy lirikasini o`rganishda kuyidagicha foydalanish mumkin:

1-guruh:

Ul sanamkim, suv yakosinda paritek o`ltirur,
Foyati nozuklikindin suv bila yutsa bo`lur.

2-guruh . Atoiy

Bu gulshan ichra yo`ktur bako guliga sabot,
Ajab saodat erur chiksa yaxshilik bila ot.

1-guruh. Navoiy

O`yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o`yin o`quvchilarda she`riyatga nisbatan qiziqish uyg`otadi. She`riyatga bo`lgan ijodiy yondashuvni o`stiradi, ifodali o`qishga malakalarini oshiradi.

Adabiyot darslarida bunday o`yin texnologiyalarini ko`llash, ulardan foydalanish juda katta samara beradi. O`kuvchilarning bunday darslarda ko`llaniladigan o`yin texnologiyalari orqali dunyoqarashi kengayadi, faolligi kuchayadi, bilim va ko`nikmalari mustahkamlanadi. eng muhimi, adabiyot darsiga, badiiy adabiyotlarni o`qishga qiziqish kuchayadi.

“**ertaklar olamiga sayohat**” o`yini kuyi sinflarda o`tkaziladi. O`kuvchilar guruhlariga bo`linadi. Mustakil va sinfdan tashkari o`qish soatlarida kandy ertaklar o`qilgan bo`lsa(o`quvchilar tomonidan) ertaklar nomi, kahramonlar ismi yoziladi. Qaysi kator yoki o`quvchi ko`p yozsa engadi.

5-sinfda ”ertaklar olamida» ruknida «To`maris» rivoyati, Nazariy ma`lumot: Rivoyat va afsona tushunchalari. «Uch og`a-ini botirlar» ertagi, «Susambil» ertagi. Nazariy ma`lumot:

ertaklar va ularning turlari. Sinfidan tashkari o`qish darslarida bu o`yindan foydalanish mumkin.

ertaklar nomi	Qahramonlar nomi
“Sehrli uch so`z” o`zbek adabiy ertagi	Maksudxo`ja, xotini, besh kizi, to`rt o`g`li
Pirimkul Qodirovning “Najot” adabiy ertagi ertagi	Shahzoda Abusaid, podsho Kamolxon, vazir Zuhurbek, Sanobar, Ashur, uch og`ayni botirlar: To`lan botir, O`ktam botir, Kenja botir va boshkalar

O`yin darslari vositasida o`quvchilarni mustakil fikrlashga, ijodkorlikka yo`naltiriladi. O`kuvchi o`zlashtirgan bilim va malakalariga tayanib o`yin darsi vositasida mustakil harakat kiladi, o`kuv topshiriklarini bajaradi. Ko`yilgan muammolarni echadi. Yukori sinflarda sahna asarlarini rollarga bo`lib o`qish ijro etish vositasida bahri bayt musobakalarini o`tkazish kabi dars shakllardan foydalanish mumkin.

9-sinfda Zahridin Muhammad Bobirning lirikasini o`rganishda kuyidagicha bahri-bayt shaklidan foydalanish mumkin.

1-o`quvchi:

Yod etmas emish kishini g`urbatda kishi,
Shod etmas emish ko`ngilni mehnatda kishi,
Ko`nglim bu g`ariblikda shod o`lmadi, oh,
Furbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

2-o`quvchi:

Ishkingda ko`ngil xarobdur, men ne kilay?
Hajringda ko`zum purobdur men ne kilay?
Jismim aro pechutobdur, men ne kilay?
Jonimda ko`p iztirobdur, men ne kilay?

Yukori sinflarda, ayniksa, xilma xil asar kahramonlariga xos portret kiyofalarini o`quvchi ko`z o`ngida jonlantirish vositasida u kaysi asar kahramoni ekanini topish o`yinini olib borish mumkin.

Masalan, 8-sinfda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” dostonida kuyidagicha o`yin turidan foydalanish mumkin:

1. U benukson akl timsoli, vazirning o`g`li bo`lib. Davlat ishlarida emas, dunyo ishlarida akl, idrok bilan ish ko`radi. (O`g`durmish)

2. U takvodor, zohid, davlatning karindoshi kanoat timsoli bo`lib. Foni dunyoni o`tkinchi deb biladi. U dunyoviy ishlarning barchasi kerak, u hayotiy zarurat, lekin bu dunyo tuzilishiyo`lida umrini kurbon berish donolik belgisi emas deb biladi. (O`zg`urmish)

O`qituvchi yukoridagi fikrni bayon etib, kim ta`riflanganini so`raydi. O`kuvchilar esa o`qigan asari yuzasidan kimligini eslab topib aytadi.

Ma`lumki akademik licey talabalariga ikkinchi boskichda Boburning hayoti va ijodini o`rganishga alohida e`tibor qaratilgan. Bunday darslarda “Shoh va Shoir” nomi bilan ham o`yin mashg`ulotini uyushtirish mumkin.

Bunda birinchi guruh nomi “Shoh”, ikkinchi guruh nomi “Shoir” deb nomlanadi. Har bir guruhga berilgan nomidan kelib chikib savollar beriladi. “Shoh” guruhiga beriladigan savollar:

1. Boburning avlodlar shajarasini tuzing.
2. Boburning o`z yurtidan bosh olib ketish sabablarini ko`rsating.
3. Boburning Hindistonda amalga oshirgan obodonchilik ishlari.
4. Bobur va Shayboniyxonga kiyosiy tavsif bering.

“Shoir” guruhiga savollar:

1. Bobur kanday devonlar tuzgan?
2. Xazon yafrog`i yanglig` gul yuzing hajrida sarg`ardim,
Ko`rub rahm aylagil, ey lolaruh, bu chehrai zardim

matla`li g`azal tahlili va undagi sarik rangni ifodalash uchun ko`llangan so`z va so`z birikmalarini ifodalab bering.

3. Shoirning takdiri bilan bog`lik bo`lgan ruboiylaridan misollar keltiring va sharhlang.
4. Boburning ijodiy salohiyati va iste`dodiga baho bering.

Cavollar yozilgan kartochkalar o`quvchilarga tarkatiladi. Dars jarayonida o`quvchilar guruhlarining faolligiga qarab baholanadi.

O`yin darslari mustakil fikrlashga, ijodkorlikka, faollikka undaydi. Bunday darslarning fanlararo alokasi hakida to`xtaladigan bo`lsak, u tarix (Qodiriyning “O`tgan kunlar” ida XIX asrdagi Buxoro, Qo`kon xonliklari; tarixiy vokealar, sanalar), geografiya (Boburning “Boburnoma” sidagi geografik joy nomlari), psixologiya (ruhiyat tasviri), mantik, matematika, tilshunoslik kabi fanlarga chambarchas bog`lik.

Biror bir adabiy asarni o`rganishda, davrlarga sharh berishda, ma`lum asarda kamrab olingan tarixiy vokealarni o`quvchilarga eslatishda, obrazlarni tahlil kilishda tarix faniga murojaat kilinadi. Asardagi ruhiyat tasvirini o`rganishda psixologiyaga, klassik adabiyot namunalarini o`rganishda falsafaga, mantikka, badiiy asar matnini tahlil kilishda tilshunoslik faniga murojaat kilinadi. Demak, o`qituvchi fanlararo alokadan foydalanib yozuvchi yashagan davr, kalamga olingan hayotiy hodisalar va inson shaxsi to`g`risida asosli, dalillangan ilmiy hakikatlarga tayanib ish yuritadi.

REFERENCES

1. Innovacion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradoligini oshirish yo`llari. Tuzuvchi: R.Ishmuxammedov. Toshkent, 2003. 3-11-betlar.
2. K.Usmonova. Adabiy ta`limda ilg`or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2004, 3-13-betlar.
3. D.Abdurazzokova. Interfaol usullardan foydalanish. Toshkent, 2005, 3-9-betlar.
4. El`konin D.B. Psixologiya igriu. Moskva. Pedagogika. 1978.
5. www.ziyonet.uz

ZAMONAVIY VA ENG QADIMIY KIIYIMLARNING FARQLARI VA ULARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Omonova Maftuna Soatmurodovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

maftunaomonova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10557097>

Annotatsiya. Bu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi kiyimlarning nomlari, tarixi, uning xususiyatlari haqida ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: Kiyim bichimlari, fransuz modalari, kiyim taraqqiyotiga, uyg'onish davri, kiyim, to'r, burma, bantiklar, yubka va bluzka.

DIFFERENCES BETWEEN MODERN AND ANCIENT CLOTHES AND THEIR GENERAL FEATURES

Abstract. This article contains information about the names, history, and characteristics of clothes in English and Uzbek languages.

Keywords: Fashion, French Fashion, Fashion, Renaissance, Dress, Lace, Ruffles, Bows, Skirt and Blouse.

РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ СОВРЕМЕННОЙ И СТАРИННОЙ ОДЕЖДОЙ И ИХ ОБЩИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация. В данной статье содержится информация о названиях, истории и характеристиках одежды на английском и узбекском языках.

Ключевые слова: Стили одежды, французская мода, развитие одежды, Возрождение, одежда, кружево, складки, банты, юбка и блузка.

14—15-asrlarda G'arbiy Yevropada chizmachilik ilmining taraqqiyoti hozirga qadar mavjud bo'lgan andazalarning barcha turlarini yaratilishini ta'minladi, matolarning nafisligi, iplarining joylashishi bichishni mukam-mallashtirdi. Bu yutuqlar Kiyimni aniq loyihalash va qomatga mos nafis Kiyimning paydo bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Xalqlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning kengayishi natijasida Kiyim bichimlari bir mamlakatdan ikkinchisiga tarqalgan. Masalan, 11 — 14-asrlarda G'arbiy Yevropaga fransuz, 14—16-asrlarda Flandriya va Burgundiya, 16-asr 2-yarmidan ispan, 17-asr 2-yarmidan yana fransuz modalari tarqalgan. Rus zodagonlari Sharqda tayyorlangan zarboft, kimxob to'nlar, zardo'zi telpak va b. buyumlarni juda qadrlashgan (mas, Monomax telpagi). 14-asrda Kiyim taraqqiyotiga ma'lum darajada me'morlik va tasviriy san'atdagi uslublar ta'sir etgan.

Masalan, 10—12-asrlarda G'arbiy Yevropada Kiyim bichimida roman uslubi aks etgan, ya'ni uzun ko'ylak va yelkaga tashlab yuriladigan yopinchiq urf bo'lgan; 12-15-asrlarda gotika uslubida tikilgan kalta va tor Kiyim kiyishgan. Uyg'onish davri (15-16-asrlar) da kalta, lekin keng bichimdagi Kiyim rasm bo'lgan, 16-18-asrlarda barokko, 18-asrda rokoko uslubidagi, ya'ni murakkab bichimli Kiyimlar kiyila boshlangan. Kiyim to'r, burma, bantiklar bilan bezatilgan. 18-asr fransuz inqilobi davrida yuzaga kelgan erkaklar libosi Yevropa erkaklar Kiyimini shakllanishida muhim rol o'ynadi. 19-asrda yagona Yevropa Kiyimi shakllanishi yakunlandi, 19-asr 2-yarmidan Kiyimlarni ommaviy i.ch. natijasida quyi qatlamlar orasida ham yangi modali Kiyimlar keng tarqaldi. Angliya erkak Kiyimi yaratishda yetakchi bo'lib qoldi.

20-asrda texnika taraqqiyoti va o'nga bog'liq holda o'zgargan hayot tarzi, tikuvchilik sanoatining o'sishi Kiyim tarixida yangi davrni ochib berdi, avtomobil va mototsiklda yurishning keng tarqalishi tufayli erkaklar Kiyimida o'zgarishlar ro'y berdi: kalta shim, kurtka, rangli ko'ylak, bosh Kiyim — keplar paydo bo'ldi. 20-yillardan erkaklar yagona bichimdagi Kiyim kiya boshladi. 50-yil lardan erkin harakatga qulay bo'lgan Kiyim yuzaga keldi, ancha yengil va shaklan nafis Kiyim yaratildi, yenglari yaxlit bichimli ko'ylaklar, pochasi tor shimlar paydo bo'ldi, sport Kiyimlari keng tarqaldi.

Ayollar Kiyimida 20-asr 10-yillar Kiyim shaklidagi bejamdorlik, chiziklar va bezakdagi asimmetriya yo'qoldi, ko'ylaklarda elastik matolarning erkin bur-malari bilan hosil qilinadigan chiziqlarning oquvchanligi paydo bo'ldi.

Urush yillarida kundalik Kiyim — yubka va bluza bo'lib, ko'ylaklar kaltalashdi. Bu Kiyimda paypoq muhim o'rin tutdi. 30—40-yillarda nozik shaklda (egri ip yo'nalishida bichilgan mato qomatga mos yotadi) qarbiy Kiyim xususiyatlari (yelkaning keng va balandligi bo'rtirilgan va b.) ko'zga tashlanadi, poyabzal qalin taglikka (platformaga) ega bo'ldi; 50-yillarda ayollar Kiyimida uslubiy o'zgarishlar ro'y berdi: qat'iy shakldan mayin oquvchan chiziqlarga ega bo'lgan yangi bichim yaratildi; yangi bilan yaxlit bichimli qomatga mos Kiyim turi (beli va yubkasi tor ko'ylak) va uchli, nafis va ingichka poshnali poyabzal yuzaga keldi. 60-yillar boshida yubkalar o'rnini eg'allay boshlagan shimlar keng tarqaldi.

60-yillarda oyoq Kiyimda o'zgarishlar ro'y berdi: sport uslubidagi keng va o'rtacha baland poshnali poyabzal paydo bo'ldi. Qishki poyabzallardan etiklar keng tarqaldi. 60-yillardan erkak va ayollar Kiyimidan yoshlar libosi ajralib turadi: o'smir yigit va qizlar Kiyim bi-chimining o'xshashligi deyarli bir xil bo'lgan buyumlar yaratishga olib keldi.

70-yillardan Kiyim turi va uning shakllari juda rang-baranglikka ega. Modelyerlar ana shu xilma-xillikda ayrim qismlarni uyg'unlashtiruvchi o'ziga xoslikni ko'radilar.

Kiyim modelini yaratishda zamonaviy Kiyimlarni loyihalash markazi shakllangan Fransiya yetakchi o'rin eg'allaydi (G. Shanel, K. Dior, P. Karden va b.). 20-asr 2-yarmidan Angliya (M. Kuant), Italiya (opa-singil Fontanalar, Valentino), shuningdek, AQSH, Yaponiya va b. firmalar ular bilan erkin raqobatlashadi. MDH hududida matodan tikilgan Kiyim neolit davridan ma'lum. Mil. av. 1-ming yillikda skif-sarmat qabilalarining erkaklari ko'ylak va kaftan, uchli qalpoq, etik, ayollar keng ko'ylak, ustki (yopinchiq) Kiyim kiyishgan. Rus, ukrain va beloruslar to'g'ri bichimli uzun ko'ylak, kamzul, po'stin, mo'ynali qal-poq, etik, piyama, boshmoq, lapta (chipta kavush) kiyishgan. Kavkazliklar (arman, gruzin, ozarbayjon) uzun ko'ylak, cherkaska (kamzul), burka, papaxa, ayollar beligacha tor, etagi keng ko'ylak, ixcham qalpoqcha kiyib, yupqa ro'mol o'rab yurishgan. O'rta Osiyo xalqlari to'g'ri bichimli uzun ko'ylak, yaktak, chopon, do'ppi, salla, ro'mol, mo'ynali qalpoq, mahsi, kavush, etik vab. Kiyim kiyishgan.

O'zbek milliy Kiyimi. O'zbekiston hududida mahalliy Kiyim qadimdan iqlim, turmush sharoitlari va urug'-qabila an'analari asosida shakllangan. Respublika hududidan topilgan arxeologik yodgorliklar, devoriy rasmlar, yozma manbalar, qo'lyozma kitoblarga ishlangan mo'jiz tasvir (miniatyura)larda o'zbek milliy Kiyimining boy tarixi namoyon bo'ladi.

Sharq Uyg'onish davrida barcha sohalarda bo'lgani kabi liboslarga tus berishda ham g'oyat ilgari lab ketilgan. Kishi qomatining go'zalligini aniq ko'rsatadigan beli qisma liboslar tarqalgan.

REFERENCES

1. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 1-жилд. -Т.: Фан, 1987.
(Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 1 -Т.: Fan, 1987.)
2. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 2-жилд. -Т.: Фан, 1987.
(Alisher Navoi. A perfect collection of works.)
3. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 7-жилд. -Т.: Фан, 1991.
(Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 7 -Т.: Fan, 1991.)
4. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 8-жилд. -Т.: Фан, 1991.
(Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 8 -Т.: Fan, 1991.)
5. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 9-жилд. -Т.: Фан, 1992
(Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 9 -Т.: Fan, 1992)
6. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 10-жилд. -Т.: Фан, 1992.
(Alisher Navoi. A perfect collection of works. 20 volumes. Volume 10 -Т.: Fan, 1992.)

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINING MOLIVAVIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xalilov Bahromjon Bahodirovich

Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro.

“Iqtisodiyot” kafedrasida o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10558932>

Shu bilan birga, bugungi tahlikali zamonda davlatlarning, butun insoniyatning tinch va osoyishta yashash tarzini o'rganish, ularning mental xususiyatlarini tadqiq etish dunyo ilmiy jamoatchiligi o'rtasida yagona konsensusga asoslangan "yangi metodologiyani" ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'lgan. Bu "Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari va hayotiy muammolarini, ehtiyojlarini yaxshi bilishga xizmat etadi".

Shu sababli, tinchlik va barqarorlik holatini tahlil etish ko'pgina xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyo davlatlari tinchlik va barqarorligini obyektivlik asosida tahlil etish, ularning o'lchov mezonlarini yaratishda bir qator omillarni e'tiborga olish maqsadimizga muvofiq.

Birinchidan, deprivatsiya (qoniqmaslik) holati. Bunda aholi aksariyat qismining amaldagi islohotlardan qoniqish yoki qoniqmasligi, olib borilayotgan islohotlarda ishonchsizlik kayfiyatining mavjudligi hamda ijobiy istiqbol kabi omillar tinchlik va barqarorlik darajasi uchun muhim hisoblangan.

Ikkinchidan, fuqarolarning boshqaruv tizimida bir-biriga bo'lgan munosabati. Bunda fuqaro va boshqaruv tizimi o'rtasidagi o'zaro qo'llab-quvvatlash, fuqarolar xohish-istaklarining qondirilishi hamda boshqaruvdagi yuksak kompetentlik darajasi kabi mezonlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Uchinchidan, jahon hamjamiyati bilan (ijobiy yoki salbiy) munosabatlar. Birinchi navbatda, yaqin qo'shni davlatlar bilan aloqalarning kesishi, munosabatlarning ko'p o'lchamga egaligi (savdo - iqtisodiy, madaniy), xalqaro tashkilotlar ishtiroki, davlat tashabbuslarining qondirilishi kabilardir.

To'rtinchidan, harbiy salohiyati. Asosan, samarali xavfsizlik strategiyasining ishlab chiqilganligi, shaxsiy tarkibning tayyorgarlik holati, zamonaviy qurol-yarog' (aviatsiya, havo mudofaa tizimlari, zirhli transport vositalari, zamonaviy dvigatellar, raketalarining mavjudligidir).

Beshinchidan, davlat-biznes va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi aloqadorlik. Bunda davlat tomonidan ikkala sektorni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlar va ularning faoliyatiga aholi tomonidan ishonchli munosabat, biznesda milliy ma'naviyatning o'rni aholining xarid qobiliyati darajasi kabi omillarning o'rni beqiyosdir.

Mamlakatimiz mustaqilik erishganing dastlabki yillaridayoq tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning milliy modelini shakllantirdi, millatlararo totuvlik, birlik va hamkorlikni mustahkamlashni o'zining strategik maqsadiga aylantirgan.

O'zbekistonning ichki va tashqi tinchlikni, barqarorlikni asrash borasidagi siyosati: 1) milliy manfaatlar ustuvorligi; 2) boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; 3) o'zaro foydali integratsiya tamoyillariga asoslangan. Milliy manfaatlar negizida yurtimizda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish, tinchlik va barqarorlikka asoslangan sotsiokreativ muhit yaratish, millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, xalq bilan bevosita munosabatlarni yo'lga qo'yish yotgan. Bugungi kunda O'zbekiston xalqi davlat hokimiyatining yagona manbai ekanligiga, mamlakatdagi vaziyat ahvol va taraqqiyot jarayonlari uning ijtimoiy faolligi mahsuli ekaniga iqrar bo'lgan. O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati xalqni, barcha millat va elat vakillarini mamlakatdagi islohotlarning faol subyektlariga aylantirishga, tinchlik va

barqarorlik barcha fuqarolarning ijtimoiy burchi, vazifasi, orzu-istaklarining mahsuli ekanligini anglab yetishga imkon yaratdi. O'zbekiston mustaqil davlat xalqaro munosabatlarning faol muallifi, subyekti sifatida jahon hamjamiyati hayotiga, ayniqsa, dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda.

Darhaqiqat, barqarorlik yaxlit siyosiy, iqtisodiy, iqtisodiy, psixologik, sotsiologik, huquqiy, harbiy, tibbiy, biologik, texnik singari har bir fan o'z sohasi, o'z doirasida, unga ta'rif berishi mumkin. Ammo ularni birlashtiruvchi yagona va muhim halqa, bu tizimning funksional holatini (ishchanligini) saqlab turish, qayta tiklay olish qobiliyatining mavjudligi jihatidan u global falsafiy ma'no kasb etadi".

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi tabiiy. Buni taraqqiyot mohiyati taqozo etadi. Ammo unga mutlaq o'zgarmas konstant deb qarash noo'rindir. Zero, borliq ulkan muvozanat asosiga shakllangan, buni asrash esa Inson intellekti va ma'naviyatiga havola qilingandir.

Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach ijtimoiy imkoniyatlar ro'yobga chiqarilgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida yangi muammolar tug'iladi, ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi. Ushbu murakkab tizimni shakllantirish jamiyatning rivojlanishiga sabab bo'libgina qolmasdan, balki shaxs, jamiyat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning samarali kechishini ta'minlaydi. Siyosiy tizimning qonuniyligini yanada oshiradi. Bu borada Islom Karimovning "...tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o'sish, taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo'lsagina ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o'quv yurtlari paydo bo'ladi. Eng asosiysi, ta'lim-tarbiya ravnaq topib, unga qiziqish, e'tibor kuchayadi. Tinchlik-barqarorlik bo'lgan joydagina odamlar o'qib-o'rganishni, har tomonlama rivojlanishni istaydi. Odamlar kechasi xotirjam uxlab, ertalab osoyishta uyg'onadigan, muammo yoki ofatlarga duch kelmasligini bilgan taqdirdagini shunday bo'ladi. Bu haqiqat ko'p asrlar davomida o'z tasdig'ini topgan va ishonchim komilki, bugun bu mavzuda gapirishning o'zi ortiqcha"¹²⁵ degan qarashlari barqarorlikning muhim qirralari va ularning ijtimoiy negizini ochib bermoqda.

Ma'lumki, osoyishtalik, tinchlikni saqlash, tinch-totuv yashash – o'zbek xalqining betakror qadriyati, burchi hisoblangan. Bu burch ota-bobolarimizning tinchlik uchun olib borgan kurashlari evaziga bizgacha meros bo'lib kelayotgan oliy qadriyat hisoblangan. O'zbekiston tinchlik-ijtimoiy maznun kasb etib kelgan. Chunki, tinchlik O'zbek xalqida "Oila – Mahalla – Davlat – Jamiyat" so'ngra "Mintaqaviy – Xalqaro – Global" munosabatlar tiimida o'aro uyg'unlashib "O'zbek xalqining tinchlik falsafasini" tashkil etadi. Albatta, bu jarayonning amalga oshishi "siyosiy yetakchi" bilan o'zaro bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Sharqda "Rahbar odam – yurtning otasi", degan ibora bor", deya ta'kidlaganida, jamiyatda yetakchining o'rni yuksak ekanligini nazarda tutgan. Bugungi tajovuzlar bilan to'lib-toshgab tahdidli davrda xavfsizlik va barqarorlik shartlarini puxta egallagan rahbar, har qanday tashqi ta'sirning, mafkuraviy tajovuzning mazmun-mihiyatini tezda anglab oladi va jamoani to'g'ri boshlaydi.

Bugungi kunda axborot tizimlarining jadal ishlashi g'oyaviy-mafkuraviy kurashlarning kuchayishiga zamin yaratmoqda. XXI asrga kelib axborotning qudratli qurolga aylanishi

,afsuski,ayrim hollarda g'arazli va buzg'unchi foydalanishga intilish tobora kuchayib bormoqda.Globallashuv sharoitida dunyo miqyosida OAV, matbuot, internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyat va davlat ahamiyatiga molik ko'plab axborotlar tarqatilgan.Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Hozirgi vaqtda dunyoda kim hukmronlik qilyapti, deb so'rasangiz, kim axborot-kommunikatsiya tizimiga egalik qilayotgan bo'lsa, o'sha hukmronlik qilayapti deb javob bergan bo'lardim.Bugun biz juda murakkab sharoitda hayot kechirmoqdamiz. Hozirgi vaqtda dunyoda bo'layotgan turli voqea-hodisalar, tez o'zgarayotgan hayot jarayonlari ertaga qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini oldindan tasavvur qilish qiyin."

Bugungi kunga kelib, dunyoning ayrim siyosiy markazlari axborot hurujlarini amalga oshirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon axborot makoniga chiqish jarayonini izdan chiqarishga harakat qilmoqda. Axborot hurujlarini uyushtirish oqibatida millatning azaldan shakllangan qadriyatlarini, milliy madaniyat va ma'naviyatga zarba berish orqali mamlakat miqyosida amaldagi boshqaruv tizimiga nisbatan norozichilik kayfiyatlarini keltirib chiqarish natijasida o'zaro diniy, milliy va etnik ziddiyatlar tufayli barqarorlik izdan chiqishi uchun zamin yaratishini anglash kerak. Mamlakatimizda fuqarolarimiz qalbi va ongida o'zida g'arazli va buzg'unchi g'oyalarni namoyon etuvchi axborot hurujlarini oldini olishda quyidagi omilarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etdi:

- Milliy manfaatlarimiz, hayot tarzimizga mutlaqo zid bo'lgan o'zida zararli g'oyalar, mafkuraviy hurujlarni namoyon etuvchi axborot hurujlarining mohiyatini anglash orqali uning asl mohiyatini ochib berish;

-milliylikimizga yot bo'lgan yoshlarimiz ongi, qalbini egallashga qaratilgan axborot hurujlari tahdidiga qarshi jamiyatning barcha qatlamlarini mafkuraviy qurollantirish va ilmiy qilish;

-miliy ma'naviyatimizga rahna solish orqali miliy o'zlikni anglashga putur yetkazuvchi axborot hurujlariga aslo yo'l qo'ymaslik;

-yurtimizga chetdan "o'zgacha"madaniyatni targ'ib etuvchi axborot hurujlarining turli xil tahdidlaridan asrash, unga qarshi kurashda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarini, nodavlat, notijorat tashkilotlarini bir maqsad yo'lida birlashtirish. Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda axborot huruji va uning oldini olish hamda bartaraf etishning eng samarali usuli sifati, avvalo, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mumtazam ravishda o'tkazish, ularni doimo ogohlikka davat etish orqali yurtimizning istiqbolli reja va maqsadlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimizda ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyosdir. Chunki har qanday ijtimoiy-siyosiy jamiyatimizdagi o'zgarishlarning dastlabki darakchisi shular hisoblanadi. Xalqimiz endilikda ommaviy axborot vositalari orqali o'z fikrini emin-erkin bayon etib, bunga ishona boshlashmoqda. Ommaviy axborot vositalarida jonli efirlar, real voqealar, har qanday masalaning ildizgacha bo'lgan jarayonlar o'rganilgan hayotiy haqiqatlar aks etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgust kuni milliy madaniyatimiz namoyondalari, ijod ahli bilan uchrashuvi ommaviy axborot vositalari sohasida yangi bosqich, davrni boshlab bergan edi. Bugungi shiddatli o'zgarishlar davrida yolg'on xabar berish, muammolarni xaspo'shlash, balandparvoz gaplar bilan muammolarni bezab ko'rsatish, kimgadir yoqish maqsadida ko'rsatuvlar tayyorlash davlatimiz rahbari ko'p bora ta'kidlaganidek, kelajagimizga qilingan eng katta xiyonat bo'ladi. Har qanday jamiyatda OAVga to'rtinchi hokimiyat maqomini bermaslikka intilish mamlakatda illatlarning, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi barqarorlikning susayib ketishiga

zamin yaratmoqda. OAV bo`g`ilgan, faoliyatida to`siqlar qo`yilgan joyda illatlar avj olmoqda. Biz bugun shu to`siqlarni bartaraf etmasak, kelajak avlodlarimiz shu illatlarning qurboni bo`lishi hech gap emas, aslida. Imsizlik, ma`naviy qashshoqlikning avj olsa yosh avlodga Vatanni ulug`lash, tuprog`ini avaylash, yurt farovonligi yo`lida jon fidolik qilish haqida qarashlarni tushuntira olmaymiz. Shunday ekan, yurtimizdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishishda, har sohada oshkoralik, adolatlilikni qaror toptirish uchun –Ommaviy axborot vositalarining faoliyati nihoyatda kuchli ahamiyatga ega. Bu soha vakillarining eng sharaflari va kechiktirib bo`lmaydigan vazifalaridan hisoblangan.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir vaqtda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo`lish matbuot, axborot, media tarmoqlaridan, shuningdek, televideniya va radio sohasida xizmat qilishga o`zini bag`ishlagan yetuk mutaxassis bo`lishga ahd qilgan va bu sohada o`z kelajagini ko`rmoqchi bo`lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarining faoliyat mezoniga aylanishi lozim. 2018-yilning 27-iyun kuni "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni" munosabati bilan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o`zining tadbirida quyidagilarni ta`kidladi, "...Eng muhim, soha rivojida yana shunday miqdor o`zgarishlari bilan birga sifat o`zgarishlari ham yuz bergan. Buning tasdig`ini milliy media maydonimizda fuqarolik jamiyatining muhim sharti bo`lgan nodavlat ommaviy axborot vositalari tarmog`i kengayib samarali faoliyat ko`rsatayotgani, internet jurnalistikasi jadal rivojlanib borayotgani misolida yaqqol ko`rimiz lozim. Dunyo olimlari tomonidan hozirgi davrgacha "etnos" va "millat" tushunchalarining metodologik asoslariga oid ko`plab nazariyalar va konsepsiyalar yaratilgan bo`lsa-da, ularni etnik fenomenni anglash nuqtai nazardan uch guruhga – primordialistik, instrumentalistik va konstruktiv yondashuvlarga ajratish mumkin. Millat tushunchasini ta`riflashda uning ma`naviy jihatlatiga ko`proq e`tibor berilgan, vaholanki, millat ijtimoiy borliqning o`ziga xos murakkab tomonlarini aks ettiruvchi fenomen hisoblanadi.¹²⁶ "Millat" "murakkab harakterga ega bo`lgan etnik birlik hisoblanadi. Shuning uchununga ta`rif berishda adabiyotlarimizda aniqlik yo`q. "Millat", Milliylik tushunchalari bizga arablar tomonidan VII asrdan boshlab kirib kelgan. "Millat" tushunchasi keng ma`noda qo`llanilib, bir necha ma`noni beradi: 1) din, diniy jamoa; 2) ummat, ma`lum dinga e`tiqod qiluvchilar jamoasi; 3) xalq, millat kabi ma`nolarni anglatadi.

REFERENCES

1. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O`zbekiston, 1999. 19
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008. – 51 b.
3. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz. -T.: O`zbekiston, 2000. -127 b.
4. Karimov I.A. Ma`naviy yuksalish yo`lida. –T.: "O`zbekiston", 1998 -23 b.
5. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat`iy irodamizga bog`liq. -T.: O`zbekiston, 2004. -B. 241.
6. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O`zbekiston, 1996. -B.363.

7. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari vatarqqiyot kafolatlari.-T.: O‘zbekiston, 1997.-141-142 b
8. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti //Hidoyat jurnali.2016 . - B. 6.
9. 20.Odilqoriyev X.Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. –Toshkent. Sharq, 2002 -268 b.
10. Jo‘rayev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. -Toshkent: Ma‘naviyat, 2000. - 304 b.
11. Shokir o‘g‘li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOYIY TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
12. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722-727.
13. Sadullayev Umidjon Shokir O‘g‘li. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM’S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25–30. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05>
14. Sadullayev Umidjon Shokir o‘g‘li. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 480–485. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2142>
15. O‘gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
16. Sadullayev, U. (2023). ABOUT THE EMERGENCE OF THE CONCEPT OF NEIGHBORHOOD. *Modern Science and Research*, 2(12), 722–727.
17. Shokir o‘g‘li, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 554-559.
18. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 488-493.
19. Sadullayev, U. (2023). O‘zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e‘tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
20. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
21. Shokir o‘g‘li, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
22. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.
23. Bafoeva, R. (2023). The concept of family in English, Russian and Uzbek proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 651–654. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2279>
24. Rokhila Bafoeva 2023. The Concept of Education in English and Uzbek Proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769). 1, 9 (Nov. 2023), 292–296.

25. Bafoeva, R. (2023). NEW METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(10), 58-63.
26. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2022). NATIONAL AND CULTURAL PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR UNIVERSAL FEATURES. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 500-503.
27. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARING GENDER XUSUSIYATLARI. *World of Science*, 6(5), 167-169.
28. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI VA ULARNING O'RGANILGANLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(14), 74-76.
29. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING SHAKLLANISH VA O'RGANILISH MASALALARI. *Научный Фокус*, 1(3), 29-31.
30. Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING KOGNITIV TAHLILI Ingliz va ozbek maqollari tizimlari haqida gap ketganda ularning mohiyati bir-biridan ajralib turishi aniq bo'ladi, chunki ular turli xil tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan, va bu maqoll. *World of Science*, 6(6), 207-211.
31. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). LINGUISTIC AND CULTURAL ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 227-230.
32. Bafoeva, R. (2023). THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE GAMES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES PROCESS. *Modern Science and Research*, 2(10), 510-512.
33. 22. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATSION TALIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
34. Muxamedovna, G. M. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATSION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(1), 35-38.
35. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
36. Gadayeva, . M. . (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
37. Gadayeva, . M. . (2023). THE UNIQUE SIGNIFICANCE OF MASTERING SOCIAL SCIENCES DURING THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 459-464. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25292>
38. Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2023). HISTORY OF PATRIOTIC WOMEN . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69-75.

39. Berdiyeva, S. (2023). BENEFITS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES THROUGH ROLE-PLAYING ACTIVITIES. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 2(10), 723–729. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10034991>
40. Berdiyeva, S. (2023). A STORY-BASED APPROACH IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Modern Science and Research*, 2(10), 262-266.
41. Berdiyeva, S. (2023). THE IMPORTANCE OF ROLE PLAYING ACTIVITIES IN IMPROVING LEARNERS' LANGUAGE SKILLS. *Modern Science and Research*, 2(9), 75-78.
42. Utkirovna, B. S. (2023). Characteristics of the Works of Charles Dickens. *European Science Methodical Journal*, 1(3), 24-28.
43. Utkerovna, B. S. (2023). SHUM BOLA ASARINING TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
44. Муродова, Д. А. (2022). ЦВЕТОВАЯ ГАММА В ЛИРИКЕ А. ПУШКИНА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 432-434.
45. Murodova, D. (2023). THE CONCEPT OF THE WORDS "GENEROSITY AND COWARDICE" IN THE LAK LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(6), 1147–1149.
46. Муродова Д. (2023). КОНЦЕПЦИЯ СЛОВ "ВЕЛИКОДУШИЕ И ТРУСОСТЬ" В ЛАКСКИХ ЯЗЫКАХ. *Современная наука и исследования*, 2(6), 1147-1149
47. Муродова, Д. (2023, April). АРАБСКИЕ СЛОВА ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 2, No. 2, pp. 156-158).
48. Murodova, D. (2023). PROBLEMS OF RESEARCH OF VERBAL CONSTRUCTIONS WITH DEPENDENT OBJECT IN THE RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(3), 232–235. Retrieved from <https://inlib>
49. Bafoeva, R. (2023). NEW METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(10), 58-63.
50. Fayzullayeva, N. S. qizi . (2023). Theoretical Views on the Use of the Term "Concept" in Cognitive Linguistics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(5), 27–31. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/1685>
51. Fayzullayeva, N. (2024). "AMERICAN DREAM" IN WALT WITHMAN'S POEMS. *Modern Science and Research*, 3(1), 220–224. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27940>
52. Sur'at qizi Fayzullayeva, N., & Kilicheva, M. R. (2022). UOLT UILTMAN NASRIDA "AMERIKA ORZUSI" KONSEPTI. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(8), 574-576.
53. Fayzullayeva, N. (2023). THE IMPROVING OF LISTENING SKILL. *Modern Science and Research*, 2(10), 272–276. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25086>
54. Fayzullayeva, N. (2023). THE CONCEPT OF THE AMERICAN DREAM AND WALT WHITMAN. *Solution of social problems in management and economy*, 2(11), 137-142.

55. Fayzullayeva, N. (2023). THE ROLE OF THE AMERICAN DREAM IN UOLT WILTMAN'S POEMS. *Modern Science and Research*, 2(10), 714–718. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24676>
56. Fayzullayeva, N. (2023). USAGE OF THE FLORA IN THE EARLY MODERN ENGLISH POETRY. *Modern Science and Research*, 2(9), 36–39. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24078>

ISTIQBOLLI O'RTA BO'G'IN YURIST KADRLARNI TAYYORLASHDA
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI

Usmonova Odina Habibovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

3-darajali yurist. Tel. 90 277 35 72.

Email: odinausmonova47@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10557241>

Annotatsiya. Maqolada oliy va professional ta'lim muassasalarida o'rta bo'g'in yuridik kadrlarni tayyorlashda kutilgan samaraga erishish uchun ta'limning zamonaviy metodlaridan foydalanish zarurligi qayd etilgan. Zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llashning nazariy asoslarini yoritib beruvchi materiallar keltirilgan. Bugungi kunda yuridik ta'lim jarayonlarida qo'llanilayotgan ayrim metodlarning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, ta'lim texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari, onlayn ma'lumotlar bazalari, tadqiqot vositalari, videokonferensaloqa, vebinar, mobil ilovalar.

PROSPECTIVE MIDDLE LEVEL LAWYERS THE IMPORTANCE OF USING
MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TRAINING

Abstract. The article notes the need to use modern methods of education in order to achieve the expected effect in the training of middle-tier legal personnel in higher and professional educational institutions. Materials are presented that shed light on the theoretical foundations of the application of modern educational methods. The advantages of some of the techniques used in legal education processes are highlighted today.

Key concepts: educational process, educational technologies, e-learning resources, online databases, research tools, video conferencing, webinar, mobile applications.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ЮРИСТЫ СРЕДНЕГО УРОВНЯ ВАЖНОСТЬ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
ОБУЧЕНИИ

Аннотация. В статье отмечается необходимость применения современных методов обучения для достижения ожидаемого эффекта при подготовке юридических кадров среднего звена в высших и профессиональных учебных заведениях. Представлены материалы, освещающие теоретические основы применения современных методов обучения. Освещаются преимущества некоторых методов, используемых сегодня в процессах юридического образования.

Ключевые понятия: образовательный процесс, образовательные технологии, ресурсы электронного обучения, онлайн-базы данных, инструменты исследования, видеоконференцсвязь, вебинары, мобильные приложения.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish huquqshunos kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlarning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'limni sezilarli darajada yaxshilash, dolzarb ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlash va zamonaviy huquqiy sohada ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29- apreldagi «O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonida o'quv jarayonini yanada takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish yo'nalishida zamonaviy texnologiyalar va interaktiv ta'lim uslublarini (E-Minbar elektron platformasi), talabalarining mustaqil o'quv va amaliy faoliyati (case-study, kouching...)ni rivojlantirish orqali amaliyot o'tash kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan¹²⁷. Mazkur vazifalardan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, o'rta bo'g'in yuridik kadrlarni tayyorlashda kutilgan samaraga erishish uchun ta'limning zamonaviy metodlaridan foydalanish zarur. Fundamental huquqiy tushunchalarni o'qitish kengroq ijtimoiy-siyosiy va texnologik kontekstda huquqiy muammolarni chuqurroq tushunishga qaratilgan tanqidiy ijodiy fikrlashni shakllantirish imkonini beruvchi metodlar bilan to'ldirilishi kerak. Yuridik maktablar advokaturaning kelajakdagi roli, unga texnologik taraqqiyot va avtomatlashtirishning ta'siri to'g'risidagi savollarga javob berishlari va shunga mos ravishda yuridik ta'lim mazmunini belgilashlari kerak.¹²⁸ Shu bilan birga, murakkab ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatini belgilaydigan kompetensiyalarni, jumladan, davom etayotgan jarayonlarni fanlararo tushunish, huquqiy muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish va ijtimoiy intellektni shakllantirish birinchi o'ringa chiqadi. Quyida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ba'zi usullarini ko'rib chiqamiz:

Elektron ta'lim resurslari: Ta'lim muassasalari o'quvchilarga elektron darsliklar, onlayn kurslar va boshqa elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini berishi mumkin. Bu talabalarga o'zlariga qulay sharoitda materiallarni o'rganish, interfaol topshiriqlar va testlarni olish, o'qituvchilar va kursdoshlar bilan onlayn platformalar orqali muloqot qilish imkonini beradi.

Simulyatsiya va treninglar uchun virtual muhit: Zamonaviy texnologiyalar simulyatsiya sinovlari, advokatlik bo'yicha treninglar va boshqa amaliy vazifalar uchun virtual muhit yaratish imkonini beradi. Talabalar virtual mijozlar bilan muloqot qilishlari, sud majlislarini o'tkazishlari va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan huquqiy strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin.

Onlayn ma'lumotlar bazalari va tadqiqot vositalari: Talabalar zamonaviy ma'lumotlarni olish va huquqiy tadqiqotlar o'tkazish uchun onlayn ma'lumotlar bazalari, huquq jurnallari, raqamli kutubxonalar va boshqa tadqiqot vositalaridan foydalanishlari mumkin. Bu ularning huquqiy axborotni tahlil qilish va huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Videokonferensaloqa va vebinarlar: Videokonferensaloqa va vebinar texnologiyalari mutaxassislar va huquqshunoslar bilan masofaviy ma'ruzalar, seminarlar va muhokamalar tashkil etish imkonini beradi. Talabalar istalgan joydan ushbu tadbirlarda qatnashishi, o'zaro fikr almashishi, mutaxassislarga savollari bilan murojaat qilishi mumkin.

Mobil ilovalar: Mobil ilovalarni ishlab chiqish talabalarga o'zlarining mobil qurilmalari orqali yuridik manbalar, qonunchilik, huquqiy yangiliklar va boshqa ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi. Bu huquqiy axborotni olish va almashishning qulay va mobil usulini taqdim etadi.

¹²⁷ Tojiboev A. Yuridik ta'limda "Case-study" texnologiyasining o'rni qanday? Toshkent davlat yuridik universiteti. <https://uza.uz/posts/457030>

¹²⁸ Вегера И.В. Современные вызовы и перспективы развития высшего юридического образования (Полоцкий государственный университет) ORCID: <https://orcid.org.0000-0002-0495-6187>

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarning ta'lim tajribasini boyitadi, ularning tayyorgarlik darajasini oshiradi va zamonaviy huquqiy bozor talablariga moslashtiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, elektron resurslar, onlayn ta'lim va mobil ilovalar kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligi va qulayligiga xizmat qilmoqda. Bu talabalarga dolzarb ma'lumotlarni olish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qituvchilar va boshqa talabalar bilan muloqot qilish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Хабибуллаева Д., Юлдашев Б. Реформы в образовательной системе Узбекистана: актуальные тенденции и практика. – Т., Фундаментальные исследования. 2019.
2. Алимova, Д. Развитие юридического образования в условиях современных вызовов: международный опыт и уроки для Узбекистана. Ученые записки Ташкентского государственного юридического университета. – Т., 2020.
3. Мищенко, А. Развитие профессиональных компетенций студентов в процессе обучения на юридическом факультете. Наука и образование: актуальные вопросы теории и практики. – Т., 2019.
4. Лысенко, И. Использование современных технологий в юридическом образовании: вызовы и перспективы. Актуальные проблемы правовой науки и практики. – М., 2019.
5. Tojiboev A. Yuridik ta'limda "Case-study" texnologiyasining o'rni qanday? Toshkent davlat yuridik universiteti. <https://uza.uz/posts/457030>
6. Вегера И.В. Современные вызовы и перспективы развития высшего юридического образования (Полоцкий государственный университет) ORCID: <https://orcid.org.0000-0002-0495-6187>

MILLIY XALQ O'YINLARINING AHAMIYATI HAMDA TURLARI HAQIDA TUSHUNCHALAR.

Ro'ziqulov R.R

Samarqand davlat chet tillar instituti assistent o'qituvchisi.

Isroilova M.B

Samarqand davlat chet tillar instituti assistent o'qituvchisi.

Abdurasulov. Sh.O

Samarqand davlat chet tillar instituti stajyor o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10557328>

Annotatsiya. Ushbu maqolada millatimizga xos milliy xalq o'yinlarimizning kundalik turmushdagi, ta'lim jarayonlaridagi, hamda respublikamiz hayotidagi ahamiyati va ularning tarixi, turlari haqida keng tushunchalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Xalq o'yinlar, yakka kurash, qadriyat, madaniyat, ommaviy sport, marosim o'yinlari, dorboz, ko'pkari, poyga, qiz quvmoq, moddiy vositalar.

CONCEPTS ABOUT THE SIGNIFICANCE AND TYPES OF NATIONAL FOLK GAMES.

Abstract. This article describes the significance of our national folk games in everyday life, educational processes, and the life of our republic, as well as their history and types.

Keywords: Folk games, individual wrestling, value, culture, mass sports, ritual games, goalie, kopkari, race, girl chasing, material means.

ПОНЯТИЯ О ЗНАЧЕНИИ И ВИДАХ НАЦИОНАЛЬНЫХ НАРОДНЫХ ИГР.

Аннотация. В данной статье описывается значение наших национальных народных игр в быту, образовательном процессе и жизни нашей республики, а также их история и виды.

Ключевые слова: Народные игры, индивидуальная борьба, ценность, культура, массовый спорт, ритуальные игры, вратарь, копкари, гонка, погоня за девушкой, материальные средства.

Salomatlikni ta'minlash va jismoniy barkamollikni yuksaltirishda milliy xalq o'yinlarining xususiyatlari, fazilatlar va tarbiyaviy mohiyatlari o'ziga yarasha o'rinlarga egadir. Yovuzlikka qarshi kurashish va o'z-o'zini himoya qila bilish maqsadida barcha fuharolar, ayniqsa o'quvchi va ishchi yoshlar jismonan baquvvat, himoya qilish mashqlarini to'la o'zlashtirishi, zarur bo'lganda raqiblarga hech qanday yo'l bermaslik imkoniyatlariga ega bo'lish lozim. Bunday faoliyatlarni o'zlashtirishda sharqona yakka kurashlar, milliy sport turlarimiz (kurash, turon, qo'l jangi va h.k.) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shular qatorida milliy xalq o'yinlarini yaxshi bilish, ularni amaliy jihatdan mukammal egallash lozim bo'ladi.

Bunda ayniqsa otda yurish, ot ustida turli xil murakkab jangovar harakatlarni bajara olish, uzoq masofalarga, tog'larga yurishda turli to'siqlardan o'tish, tez oqar daryolardan kechib o'tish kabi hayotiy zarur bo'lgan amaliy faoliyatlarni yoshlarga doimiy ravishda o'rgatib borish davr talabi desa bo'ladi. Milliy qadriyatlar va xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy madaniyatini qayta tiklash va ularni zamonaviy talablar bilan boyitish jarayonlarida milliy xalq o'yinlariga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa "Navro'z", "Qurbon hayit", "Ramazon hayit", to'y marosimlarini o'tkazishga keng o'rin berilishi va ularga kurash, dorboz, ko'pkari, poyga, qiz

quvmoq, harakatli o'yinlarni ularda qo'llash yurtimiz istiqloli va aholining turmush farovonligidan dalolatdir. Shu bilan birga milliy o'yinlarini mazmuni va ijtimoiy-pedagogik mohiyatlarini ilmiy asosda ommalashtirish maqsadlariga qiziqishlar tobora kuchaymoqda.

Mustaqallik yillari davrida Respublikaning deyarli barcha gazetalar, jurnallari, teleradiolarda milliy xalq o'yinlari bilan bog'liq maqolalar, tadqiqot natijalari, turli xil fikr-mulohazalar keng yoritilib kelinmoqda. Bularda falsafa fanlari doktori U.Qoraboyev, san'atshunoslik fanlari nomzodi I.Abdurahmonov, jurnalistlar G'.Rahmon, H.Sattarov, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yetakchi olimlar T.S.Usmonxo'jayev, A.Q.Atoyev va juda ko'p mutaxassis hamda yosh ijodkorlar sermahsul ishlari bilan faol ishtirok etib kelmoqdalar. Pedagogika fanlari doktori professor T.S.Usmonxo'jayev raxbarligida nashrdan chiqarilgan "Ming bir o'yin" (1001 o'yin), "Harakatli o'yinlar" va "Kurash" dasrligi (A.Q.Atoyev) va qator ilmiy-nazariy ommabop risolalar milliy xalq o'yinlarining mazmuni va tarbiyaviy jihatlarini o'z ichiga oladi. U.Qoraboyevning "O'zbek Xalq o'yinlari" kitobi qadimgi ajdodlardan meros bo'lib kelgan turli tuman o'yinlarni, ularni o'rganish va qo'llash yo'llariga bag'ishlanganligi bilan olqishga sazovordir. Aynan shu kitobda milliy o'yinlarining sohaviy turlari va ularning kelib chiqish jarayonlari haqida juda boyitilgan materiallar bayon etilgan. Undan ba'zi bir muhim tomonlarni quyidagicha keltirish mumkin bo'ladi, ya'ni:

1. Ildizi uzoq tarix bilan bog'liq ovchilikka doir o'yinlar. Buning negizida chorvachilik yuzaga kelganligini takidlash lozim bo'ladi.

2. Chorvachilik o'yinlari ot, ho'kiz, eshak, tuya, bug'u va boshqa hayvonlarning mehnatlaridan foydalanish jarayonida ularning harakatini taqlid qiladigan o'yinlarning yuzaga kelishi.

3. Dehqonchilik o'yinlari, odamlarning bahorda mehnat mavsumiga kirishi va kuzda hosil yig'ish kuniga bag'ishlangan marosim o'yinlari ijtimoiy mehnat sharoitidan kelib chiqqan.

4. Shuningdek xalq o'yinlari orasida boshqotirma (krassvord), so'z qo'shish, raqs o'yinlari ham mazmun va mohiyat jihatidan faol harakat o'yinlari tarkibidan joy olganligini e'tirof etish keraqdir. I.Abduraxmonovning "O'zbek Xalq o'yinlari" (U.Qoraboyev) kitobiga taqriz sifatida yondashib ("Sport" gazetasi, oktabr 2001 y.) tabiatdagi iqlimiy o'zgarishlar, yil fasllariga mos tabiiy-mavsumiy o'yinlarning vujudga kelishiga zamin yaratganligini ta'kidlaydi va ularni quydagi yo'nalishlarda ifodalab bergan, ya'ni:

1. Hududiy va turli joylarga mos o'yinlar ham alohida turkumini tashkil etadi. Muayyan joyga mos o'yinlar boshqa joyda noma'lum bo'lgan.

2. Turli yoshlarga mos o'yinlar. Har bir yoshga xos o'yinlar bor. Yoshlarga oid fe'l-atvor fazilatlar o'yin shakli va mazmunini belgilab bergan. Bola ulg'aygan sari uning o'yini ham jiddiylashib boraveradi.

3. Turli jinsdagilar o'yinlari. Hammabop o'yinlar bilan bir qatorda o'g'il bolalar va qizlar o'yinlari, keyinchalik esa erkak va ayollar o'yinlari ajralib chiqqan. Masalan, yosh qizlarga qo'ng'iroq o'yinga moyillik sezilsa, o'g'il bolalar esa urush quollariga o'xshash o'yinchoqlar talab qilishgan.

4. Ma'lum mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar "Ov o'yini", "Kiyik ovi", "Podachi", "Xirmon-xirmon", "Kovushim", "Sartarosh", "Temirchi", hatto harbiylarning ham o'z ma'lumotlarga mos keladigan "Urush-urush", "Asr olish" kabi o'yinlari ijod etilgan.

5. Voqeaband (teatrlashtirilgan, syujetli) o'yinlar tarixiy voqealarni hayotning ta'siri, qiziqarli daqiqalarini badiiy ijodiy ifodalaydi. Masalan, "Podsho-vazir", "Eski chopon" va h.k. Harakatli o'yinlar epchillik, chaqqonlik ko'pchilik musobakachi sifatida bir necha tomonlar o'rtasida o'ynalgan.

6. Turli vositali o'yinlar. Bu o'yinlarni ikkiga bo'lish mumkin: moddiy vositalar (ovunchoq, qo'g'irchoq, o'yinchoq hamda tayoq, tosh, to'p, yong'oq va h.k.) yordamida amalga oshiriladigan o'yinlar; ikkinchisi esa ma'naviy o'yinlar, ya'ni badiiy ifodali vositalar (fikr, so'z, qo'shiq, raqs, teatr kabilar)

yordamida bajariladigan o‘yinlar.

7. Hayvonlar ishtirokidagi o‘tadigan o‘yinlar. Bu haqidagi o‘yinlar keng qadimiy hisoblanadi. Qadimgi ajdodlarimiz avvaliga tabiatning o‘zida hayvonlar jangini tomosha qilishgan. Keyinchalik hayvonlarni ushlab, ularni o‘rganib maxsus o‘yinlar uyushtirilgan. Natijada “Bedana urishtirish”, “Xo‘roz urishtirish”, “Qo‘chqor urishtirish”, “Kuchuk urishtirish”, “Kaklik urishtirish”, “Itlar poygasi” kabilar paydo bo‘lgan.

Ta’kidlash lozimki, milliy xalq o‘yinlari asosida yurtimizda juda ko‘p ommaviy va nufuzli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘rinda milliy xalq o‘yinlari Respublika musobaqalari (1991-1994, Forish), Olimpiadalari (1994-1996, Forish), “Alpomish o‘yinlari” Respublika festivallari (1998-Termiz, 2000-Farona), Ayollar yiliga bag‘ishlab o‘gkazilgan xalq milliy o‘yinlari “To‘maris Respublika festivallari” (1999-Jizzax, 2001-Shahrisabz 2003-Namangan) va shu mavzular asosida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-nazariy va amaliy anjumanlari mohiyat jihatdan e’tiborga sazovordir. Milliy xalq o‘yinlarini o‘rganish va ularni yirik tadbir hamda anjuman sifatida o‘tkazishda Respublika hukumatining qator qarorlari (1993,1996,1999,2000), ayniqsa “Alpomish dostonining yaratilishiga 1000 yil to‘lishini nishonlash to‘g‘risda”gi qarori (1998, fevral) muhim ahamiyat kasb etdi. Bunda Alpomish va Barchinoy ramziy timsolida ma’naviy va jismoniy kamolot tarbiyasini izchil o‘rganish, ularni hayotda qo‘llash hamda ommalashtirish masalalari dolzarb vazifalardan biri qilib qo‘yildi.

E’tirof etish kerakki, milliy xalq o‘yinlarining asoslari, ularning mohiyatlari faqat “Alpomish” dostonidagina emas, balki “To‘maris afsonasi”, “Qirqqiz”, “Rustamxon”, “Kuntug‘mish”, “Tohir va Zuhra”, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi o‘nlab xalq og‘zaki ijodi durdonalarida ham mazmun topgan. 2001-yilda “Avesto” kitobining vujudga kelishi tarixini keng nishonlash va uning 2700 yillik yubileyini o‘tkazish (Xorazm, 3-noyabr 2001 y.) tantanalari atrofida qadimgi ajdodlarimiz qomusi sifatida bu kitobning mohiyatlari ochib berilmoqda. Odob-ahloq madaniyati va yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash masalalariga kitobda keng o‘rin berilganligini alohida takidlanmoqda. Shu jihatdan ham bu sohaga bag‘ishlab qator kitoblar chop etildi. Ayniqsa “Avesto” kitobini borligicha nashr etilishi, undan ta’lim-tarbiya jarayonlari bilan tutash bo‘lgan jismoniy tarbiya masalalari ham hali keng o‘ranib chiqilishi mumkin bo‘ladi. Faqat shuni aytish lozimki, ajdodlarimizning ijtimoiy turmush madaniyatida xalq o‘yinlari keng qo‘llanilganligi haqida juda ko‘p ma’lumotlar bor. Ularni ilmiy-nazariy va pedagogik jihatdan tahlil qilish, zarur tomonlarini ommalashtirish va “Alpomish va Barchinoy” hamda “To‘maris” o‘yinlari festivallari tarkibiga kiritishni tezlashtirish ayni mudduo bo‘lar edi.

Milliy xalq o‘yinlari asosan kurash, ko‘pkari, poyga, otdan ag‘darish, otda nayza uloqtirish, qilichlashish, qiz quvmoq, chovgon, dorboz, tosh ko‘tarish, bilak kuchini sinash, arqon tortishish va turli-tuman harakatli o‘yinlardan iboratdir. Kurash milliy sport maqomiga ega bo‘lib u jahon xalqlari sporti tarkibiga kiritildi. Dorboz mazmun va shakl jihatdan o‘ziga xos murakkab va qiziqarli, jozibali o‘yinlardir. Ularni o‘rganish va tavsiflash alohida mavzu bo‘lib, katta faoliyatlarni talab etadi.

Boshda ta’kidlanganidek, xalq milliy harakatli o‘yinlarini to‘plash, ularni ommalashtirishda taniqli olimlar T.S.Usmonxo‘jayev, F.Xo‘jayev, A.Sh.Qosimov, F.N.Nasriddinov, O.O.Po‘latov kabilarning hissalarida juda kattadir. Shular asosida qator “Harakatli o‘yinlar” kitoblari o‘quvchi yoshlar va omma orasida keng qo‘llanilib kelinayotganligi harakatli o‘yinlarning mohiyatlari qanchalik zarur va aziz ekanligining dalilidir. Bunday o‘yinlardan saralanib olingan “Bo‘ron”, “Kuydi”, “Mindi”, “Soldi”, “To‘qqiz tosh” (qizlar o‘yini) kabilar hozirgi kunda umum ta’lim maktab o‘quvchilari, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlari

talabalarining jismoniy tarbiya darslari, aholi istiqomat joylarida tashkil etilayotgan ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlari va hatto "Alpomish o'yinlari Respublika Festivallari", "To'maris o'yinlari Respublika festivallari" shuningdek "Umid nihollari", "Barkamol avlod" sport o'yinlari, talabalarining "Universiada" musobaqalari dasturlariga kiritilganligi bir olam quvonch, desa bo'ladi. Eng muhimi shundaki, qishloq aholisining barcha tabaqalari to'ylar, an'anaviy bayramlar va turli marosimlarda kurash, ko'pkari, poyga kabi sportga xos turlar va "Kuloq cho'zma", "Piyoda poyga", "Piyoda ko'pkari", "Chillik", "Oqsuyak", "Podachi" kabi harakatli o'yinlarni qo'llashadi va miriqib tomosha qilishadi.

O'zbek xalq harakatli o'yinlarining mazmunlari va tarbiyaviy jihatlarini hisobga olgan holda ularni quyidagi guruhlariga ajratiladi, ya'ni:

1. Jamoaviy (komandalar) o'yinlar.
2. Umumiy ishtirokchilar o'yini.
3. Yolg'iz (yakka) tartibdagi o'yinlar.
4. Juft bo'lib o'ynash va h.k.

Bunday harakatni tashkil qilish va o'tkazishda qatnashchilarning yoshi, jinsi va jismoniy jihatdan tayyorgariligida alohida e'tibor beriladi. Ayniqsa chaqqonlik, tezlik, kuchlilik, epchillik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni talab etuvchi jihatlarda o'yinchilarni tanlash, guruhlariga ajralish muhim ahamiyatga egadir.

Shu bilan birgalikda o'yinlarning o'zaro hamkorlik, o'rtoqlik, do'stlik, jamoa (komanda) uchun jonbozlik ko'rsatish kabi his-tuyg'ular va insoniy fazilatlarini tarbiyalashdagi mohiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratiladi. Bu o'rinda xalq milliy harakatli o'yinlarining mazmunlari haqida to'xtatilishni maqsad qilib qo'yilmadi. Chunki ular guruhlariga ajratilgan holda va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining turlariga qarab tashkil qilinishi, turli xil an'anaviy bayramlarda o'tkaziladigan o'yinlar alohida ajratilib ko'rsatilgan.

Faqat mavjud bo'lgan qo'llanmalar, ilmiy to'plamlar va ba'zi jurnallarga murojaat qilish zarurdir.

O'zbek kurashi (Buxoro usuli), Belbog'li kurash (Farg'ona usuli), Turon, Qo'l jangi kabi milliy kurashlar, shuningdek dorboz, qo'l kuchini sinash, arqon tortishish kabi turlar sport darajasida qo'llanilib kelinmoqda va ular ham maxsus qo'llanmalarda o'z ifodalarini topgan. Ot o'yinlari haqida gazetalar, jurnallar va ilmiy to'plamlarda ba'zi bir maqolalar e'lon qilinsada aydarlik darajada ("Ko'pkari" ilmiy ommabop risolani hisobga olmagan holda) ularning tarbiyaviylik jihatlari hamda ularni sport darajasiga chiqarish masalalariga e'tibor maqsaddagidek emasligini ta'kidlash lozim.

REFERENCES

1. T.S.Usmonxodjaye, A.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov "Milliy va harakatli o'yinlar" Toshkent "Iqtisod-Moliya"-2015;
2. Q.P.Arslonov "Milliy kurash turlari va uni o'qitish texnologiyalari" Toshkent "Turon Zamin Ziyos"-2014;
3. T.S.Usmonxodjaye, F.Xo'jayev "1001 o'yin" Toshkent "Ibn Sino" nomidagi nashriyot 1990-yil.
4. Ilhomovna, M. S. (2022). SIGNIFICANCE AND ROLE OF PEDAGOGICAL CREATIVITY.
5. Ilhomovna, M. S. (2021, July). HEALTHY ENVIRONMENT-HEALTHY COMMUNITY. In Archive of Conferences (pp. 62-66).
6. Shahlo-Ilhomovna, M. (2021). On The Basis Of An Integrated Approach, Give Environmental Education To Primary School Students. The American Journal of Applied sciences, 3(06), 65-69.
7. Usmanovna, A. N. (2022). Parental Relationship in Child Raising Psychological Properties. Eurasian Scientific Herald, 14, 13-16.
8. ALIMOVA, N. (2023). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL COMPONENTS OF RESPONSIBILITY

- FOR CHILD EDUCATION. World Bulletin of Social Sciences, 29, 41-44.
9. Alimova, N. U. (2023). PARENTAL RELATIONSHIP IN CHILD RAISING PSYCHOLOGICAL PROPERTIES. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 513-517.
 10. Ilhomovna, M. S. (2021). Eco-friendly environment-the foundation of a healthy generation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 892-895.

TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHATLAR ECHIMI, NATIJALARI VA MUAMMOLARI.

Srojeva Gulbahor Vahobovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

Tarix va filologiya kafedrası o'qituvchisi

gulbahorsrojeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10558957>

Annotatsiya. Bugunda sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son Farmoni, 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-son qarori katta ahamiyat kasb etmoqda. Sohani rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari va unga muvofiq ishlab chiqilgan umumta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturlari, Xalq ta'limi vazirligining 2017 yil 3 iyundagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida" gi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlandi va ijroga yo'naltirildi.

Kalit so'zlar: Harakatlar strategiyasi, konsepsiya, Barkamol avlod, DXSHA, Maktabgacha ta'lim, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».

SOLUTIONS, RESULTS AND PROBLEMS OF REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION

Abstract. Today, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 30, 2017 "On measures to radically improve the management of the preschool education system" aimed at further development of the field, the Decree No. PF-5198 dated September 30, 2017 "Uzbekistan Decision No. PQ-3305 "On the organization of activities of the Ministry of Pre-School Education of the Republic of Uzbekistan" is gaining great importance. State educational standards based on the competence approach aimed at the development of the field and general education subjects developed in accordance with it. educational programs, Order No. 190 of the Ministry of Public Education dated June 3, 2017 "On approval and implementation of improved educational programs based on the requirements of state educational standards of general secondary education" approved and directed to execution.

Key words: Action strategy, concept, Perfect generation, DFSHA, Pre-school education, "National program of personnel training".

ПУТИ РЕШЕНИЯ, ИТОГИ И ПРОБЛЕМЫ РЕФОРМ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. Сегодня Указ Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2017 года «О мерах по коренному совершенствованию управления системой дошкольного образования», направленный на дальнейшее развитие сферы, Указ №ПФ-5198 от 30 сентября, Большое значение приобретает Постановление Республики Узбекистан о дошкольном образовании № PQ-3305 «Об организации деятельности Министерства образования». Государственные стандарты образования основаны на компетентностном подходе, направленном на развитие сферы и общего образования. по предметам, разработанным в соответствии с учебными программами, утвержденными и направленными на исполнение приказом Министерства народного образования от 3 июня

2017 года № 190 «Об утверждении и внедрении усовершенствованных учебных программ общего среднего образования, основанных на требованиях государственных образовательных стандартов».

Ключевые слова: Стратегия действий, концепция, Совершенное поколение, ДФША, Дошкольное образование, «Национальная программа подготовки кадров».

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida 2017–2021 yillarda mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirishga doir belgilab berilgan beshta yo‘nalishdagi ustuvor vazifalarning to‘rtinchisi, ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilganligi hammamizga ma‘lum. Bu yo‘nalishda aholi farovonligini ta‘minlash, bandlik, salomatlikni muhofaza qilish, uy-joy masalalari qatoridan ta‘lim-tarbiya tizimini taraqqiy ettirish masalasi ham ustuvor vazifalar etib belgilangan.

Komissiyani o'rinbosari Milliy markazning direktori hisoblanadi. Komissiya tarkibiga ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, bojxona organlari, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi va boshqa davlat organlari rahbarlari kiradilar.

Komissiyaning shaxsiy tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.¹³⁴

Vazirlar Mahkamasining "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalashtirish to'g'risida"gi 2003-yil 16-iyuldagi 315-son qaroriga asosan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash va tashish faqat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, litsenziya olish uchun ular tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligiga ichki ishlar organlarining obyektning texnik talablarga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi taqdim etiladi.

Mazkur nizom talablari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona organlarining ekspertiza va tezkor-qidiruv faoliyatida, shuningdek, Adliya vazirligining sud-ekspertiza muassasalari faoliyatida foydalaniladigan giyohvandlik vositalari,

¹³⁴ Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazining asosiy vazifalari. <https://ncdc.uz/maqsad-vazifa-va-funksiyalari-1>

ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarga tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 8-yanvardagi prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyat bo‘yicha hisobotlar yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 6-son Qaroriga muvofiq Narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirishga litsenziyasi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar choraklik va yillik hisobotlar taqdim etadilar.

Narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirishga litsenziyasi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar o‘z faoliyati to‘g‘risida (ishlab chiqarilgan, tayyorlangan, olib kelingan (olib ketilgan), sotilgan, foydalanilgan narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar miqdori to‘g‘risida) ushbu Nizomning tegishli ilovalarga muvofiq shakllar bo‘yicha choraklik hisobotni hisobot davrdan keyingi oynning 25-kunidan kechikmasdan, yillik hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 25-yanvarigacha bo‘lgan muddatda taqdim etadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Dori vositalari va tibbiyot texnikalar sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasining Narkotik vositalarni nazorat qilish qo‘mitasi kiritilgan hisobotlar asosida yig‘ma hisobot tuzadi va uni ilovaqilinayotgan shakllar bo‘yicha Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasiga va Davlat komissiyasi bilan kelishgan holda BMT Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish Xalqaro qo‘mitasitomonidan belgilangan tartibda va shakl bo‘yicha Xalqaro qo‘mitaga taqdim etadi.¹³⁵

O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi №813-I-sonli Qonuni 4-modasida ¹³⁶ O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar quyidagi ro‘yxatlarga kiritiladi:

- muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida taqiqlangan giyohvandlik vositalari ro‘yxati;
- muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida cheklangan giyohvandlik vositalari ro‘yxati;
- muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida cheklangan psixotrop moddalar ro‘yxati;
- muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida cheklangan prekursorlar ro‘yxati.
- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro‘yxatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi va matbuotda e‘lon qilinadi deb belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda xalqaro shartnomalariga, shu jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining narkotik moddalar va psixotrop vositalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi 1988-yildagi

¹³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 – yil 8 – yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida narkotikvositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lishi bilan bog‘liq faoliyat bo‘yicha hisobotlar yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 6 – son Qarori. <https://lex.uz/docs/1422690>

¹³⁶ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 19.08.1999-yildagi 813-I-son. <https://lex.uz/ru/docs/-86044>

konvensiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida nazorat qilinishi kerak bo'lgan gijohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, narkotik moddalar va psixotrop vositalarning prekursorlari sifatida belgilab qo'yilgan.

Mazkur moddalarning noqonuniy muomalaga kirishiga yo'l qo'ymaslik va shu orqali gijohvandlik vositalarini noqonuniy ishlab chiqarish va ishlab chiqarishning xomashyo bazasini cheklash maqsadida prekursorlar muomalasi ustidan samarali nazoratni tashkil etish, shu singari, qonunga xilof ravishda huquqbuzarlik uchun javobgarlik choralari ishlab chiqish, prekursorlarning aylanishi gijohvandlik tahdidiga qarshi kurash mexanizmining eng muhim tarkibiy qismidir.

Keyingi bir necha yil mobaynida prekursorlarning aylanmasi ustidan nazorat sohasida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, milliy qonunchilik tizimini xalqaro qonunchilik qoidalariga muvofiq lashtirish maqsadida muhim ishlar amalga oshirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi 1988-yilgi Konvensiyaga implementatsiya qilingan bo'lib, unda nazarda tutilgan prekursorlarning aylanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi ¹³⁷.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrda "Gijohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida"gi №330-son qarori qabul qilingan bo'lib, aynan mazkur qarorning 7-ilovasida O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi cheklangan prekursorlarning ro'yxati tasdiqlagan ¹³⁸.

Bunday prekursorlarni ishlab chiqarish, sotish va ulardan foydalanishga, ularni olib kirishga (eksport qilishga) faqat ilmiy va o'quv maqsadlarida, shuningdek ekspertiza va tezkor-qidiruv faoliyati amalga oshirish maqsadlari uchun ruxsat etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №330-son qarori 7-ilovasiga qaraydigan bo'lsak, 29 turdagi prekursorlar ro'yxati keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2001-yil 29-dekabrda 1090-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Gijohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash, berish, sotish, taqsimlash, hisobga olish shartlari to'g'risidagi nizom"ning IV bobida aynan prekursorlarni saqlash, berish, hisobini olib borish va sotish tartibi aniq belgilab qo'yilgan.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 273-moddasi "Gijohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni laboratoriyalarda yoxud o'zganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalardan yoki prekursorlardan foydalangan holda qonunga xilof ravishda tayyorlash yoki qayta ishlash,

¹³⁷ Конвенция организатсии обединенных натсий о борбе против незаконного оборота наркотических средств психотропных вещэств 1988 года. https://www.unodc.org/pdf/convention_1988_ru.pdf

¹³⁸ Gijohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida. <http://old.lex.uz/docs/-2815340>

shuningdek bunday vositalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilish yoki saqlash,...” deb belgilab qo'yilgan. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar prekursorlariga qarshi kurash hamda javobgarlik masalalari takomillashtirilishi natijasida 2018-yil 22-oktyabr kuni O'RQ-503-son Qonuni¹³⁹ bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 19, 56, 127, 207, 246, 251¹, 261, 273, 274, 275 va 276-moddalarining tegishli bandlariga “giyohvandlik vositalari” degan so'zlardan keyin “ularning analoglari” degan so'zlar bilan to'ldirildi. Biroq, Jinoyat kodeksining 273-moddasida tashqaribirorta moddasida ushbu giyohvandlik vositalari tayyorlashda foydalaniladigan prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o'tish hamda noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilanmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki O'RQ-503-son Qonuni bilan Jinoyat Kodeksining VIII-bo'limi bir qator atamalar bilan to'ldirilgan bo'lib, jumladan:

“Giyohvandlik vositalarining analoglari – kimyoviy tuzilishi va xossalariga ko'ra giyohvandlik vositalariga o'xshash bo'lgan, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar”.

Prekursorlar – prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar deb kiritilgan.

Bugungi kunda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning prekursorlari noqonuniy savdosi yuzasidan jinoyat qonunchiligida alohida moddalar bilan mustahkamlanmagan. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar va ularga jazo tayinlash tizimida xorijiy davlatlar xususan Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligini oladigan bo'lsak, mazkur davlat Jinoyat kodeksi 1996-yil 13-iyunda qabul qilingan bo'lib, Kontrabanda jinoyati uchun javobgarlik jinoyat kodeksining 226¹ va 229¹-moddalari bilan tartibga solingan. Chunonchi:

226¹-modda. Kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi, radioaktiv moddalar, radiatsion manbalar, o'q-otar qurollar yoki ularning asosiy qismlari, portlatish qurilmalari, o'q-dorilari, ommaviy qirg'in qurollarini yetkazib berish vositalari shuningdek, boshqa qurollar, harbiy texnikalar, strategik muhim tovarlar va resurslar yoki madaniy boyliklar yoxud o'ta noyob hayvonlar va suv biologik resurslar kontrabandasi.

229¹-modda. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning analoglari yoki prekursorlari, tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan o'simliklar shuningdek, psixotrop moddalar yoki ularning prekursorlar yoxud ularning qismlari, psixotrop moddalar va giyohvandlik vositalari tayyorlashda foydalaniladigan materiallar va moslamalar kontrabandasi.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksida kontrabanda jinoyati uchun javobgarlik quyidagi moddasida belgilangan:

- 286-modda. Muomalasi cheklangan yoki muomalasi taqiqlangan predmetlar kontrabandasi.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksi 286-moddasi predmetlari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi predmetlari bilan bir xil, jinoyatning obyektiv tomoni ham farq

¹³⁹ O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish vaqo'shimchalar kiritish to'g'risida. <http://old.lex.uz/docs/-4011752>

qilmaydi, faqat moddaning nomi va jazo tuzilishida farqlar mavjud.

Yuqorida ko'rsatilgan terminlar bir-biriga o'xshash bo'lsada, ularning ma'nosi ortida xalqaro va milliy davlat jinoyatchilik normalari darajalarini xilma-xilligi namoyon bo'ladi. Davlatlarning xilma-xilligi, davlatlarning xalqaro xarakterdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda o'zaro hamkorlik qilish faoliyati uningbirinchi bosqichidayoq turli to'siqlar va qiyinchiliklarga duch keladi, xususan, ularning harakatlari kimga qaratilganligi zarurligini aniqlab olish bosqichi ham bir qancha muammolarga to'la. Bu borada, ayniqsa ko'pgina tomonlar jinoyatlarning nomlanishi bilan bog'liq masalalarda qattiq munozaralar qiladilar.

Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat qonunchiligini ko'radigan bo'lsak, bu davlatning Kuba, Vetnam, KXDR singari sotsializm va kommunistik g'oyalaridan voz kechmagani va uning qonunchiligi sotsializm huquqi asosida rivojlanayotganini ta'kidlash zarur.

XXRning birinchi qabul qilingan Jinoyat kodeksi 1949-yildan kuchga kirgan.

Shundan so'ng 1997-yilga kelib yangi tahrirdagi jinoyat kodeksi qabul qilingan.

XXR Jinoyat kodeksida ham xalqaro xarakterga ega bo'lgan kontrabanda jinoyati uchun bir qator moddalar belgilangan, jumladan, 191-, 240-, 347-357-moddalari aynan giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilab qo'yilgan. Jumladan:

- 347-modda. Giyohvandlik vositalarini kontrabanda qilish, sotish, tashish va ishlab chiqarish, ularning miqdoridan qat'iy nazar, jinoyat deb hisoblanadi va ushbu Kodeksga muvofiq jazoga tortiladi.

- 349-modda. Giyohvandlik vositalarini kontrabanda qilish, sotish, tashish va ishlab chiqarish bilan bog'liq jinoiy elementlarni yashirish, yashirishda yordam berish, topshirish, saqlash.

Ushbu moddaning 3-bandida Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoiy unsurlarni yashirgan davlat organlarining mansabdor shaxslari eng og'ir jazoni o'taydilar deb belgilab qo'yilgan.

- 350-modda. Sirka kislotasi angidrid, sulfat efir, triklorometan yoki dori ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladigan boshqa moddalar yoki davlat qoidalarini buzgan holda, yuqorida aytib o'tilgan moddalarni noqonuniy tashish, mamlakat hududida noqonuniy savdosi uchun javobgarlik belgilangan.

- 357-moddasining 2-qismida Giyohvandlik vositalari miqdori kontrabanda, sotilgan, tashilgan, ishlab chiqarilgan yoki olib o'tilgan dorilarning haqiqiy miqdoriasosida aniqlanadi va kimyoviy tozalangandan keyingi haqiqiy vazni inobatga olinmaydi deb belgilab qo'yilgan¹⁴⁰.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki kontrabanda bilan bog'liq jinoyatlar, xususan giyohvandlik vositalari ularning prekursorlari, psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari O'zbekiston Respublikasi balki butun dunyo mamlakatlari uchun doimiy ravishda jiddiy muammo bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246, 270-276-moddalari bilan mazkur jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan. Lekin faqatgina 273-moddasida prekursorlar bilan

140 Уголовный Кодекс Китайской Народной Республики
<https://www.mfa.gov.cn/ce/cerus/rus/zfhz/zgflyd/t1330730.htm>

bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tish hamda noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik masalalari ochiq qolmoqda. Kelgusida mazkur bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga prekursorlar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari, kontrabanda jinoyatni aniqlash va bartaraf qilish choralari quyidagilar kiradi:

- yaqin va uzoq xorij mamlakatlaridan narkotik, psixotrop, kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni noqonuniy olib kirishdan bojxona chegaralari o‘tkazish punktlarida samarali himoya qilish tizimini yaratish va aylanma yo‘llar orqali olib o‘tish mumkin bo‘lgan hududlarni to‘liq nazoratga olishi.

- bojxona nazorati samaradorligi bo‘yicha choralarni takomillashtirish, bojxona va chegara organlarining texnik ta’minotini oshirish;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida yashirin narkolaboratoriyalar faoliyatini tugatish hamda giyohvandlik vositalarini noqonuniy ishlab chiqarish, tashish, ta’minlash tizimlariga barham berish;

- giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga ixtisoslashgan transmilliy jinoiy tashkilotlar belgilarini aniqlash va faoliyatini bartaraf qilish;

- psixofaol moddalarning yangi turlarini ularni keyinchalik giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ro‘yxatiga kiritgan holda o‘z vaqtida aniqlash va belgilash;

- giyohvandlik vositalarining noqonuniy yetkazib berish kanallarini berkitishga qaratilgan kelishilgan davlatlararo preventiv, tergov, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish, xalqaro hamkorlikni takomillashtirish;

- respublika aholisini giyohvandlik vositalari iste’mol qilishga jalb qilish va ularning mazkur illatga tobe qatlamini ko‘paytirishga qarshi kurashishda faoliyat yurituvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan idoralararo o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borish shaklini takomillashtirish, bojxona nazorati samaradorligini oshirish bo‘yicha choralarni amalga oshirish;

- giyohvandlik vositalari kontrabandasini tizimli zanjirini aniqlash (jumladan, nazorat ostida yetkazib berish), shuningdek giyohvandlik vositalari va psixotrop vositalarni aniqlash uchun xizmat itlaridan foydalanishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish.

Shu singari, Jinoyat kodeksining 246-modasi 1-qismida o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR: Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda giyohvandlik global muammolardan biridir. Asr vabosi deb baholanayotgan “oq ajal” qanchadan-qancha insonlarning baxtiga zomin bo‘layotgani, Giyohvandlik vositalarini iste’mol qilishga odatlanish oqibatida nogiron, jismoniy va aqliy nuqsoni bor bolalar dunyoga kelayotgani haqida o‘ylasak, yanada sergak tortamiz. Og‘uning quliga aylanib qolayotgan zamondoshlarimizni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish barchamiz uchun foydalidir. Shunday qilib, oilalarimiz tinchligi, farzandlarimiz kelajagiga raxna solayotgan, jiddiy xavfga aylangan giyohvandlikka qarshi birgalikda kurashishimiz zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organi xodimlari mamlakatimiz

chegaralarida bevosita xizmat olib borish jarayonlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida birinchilardan bo'lib giyohvandlik vositalari kontrabandasiga qarshi kurash olib borishadi.

Ayniqsa, BMTning Giyohvandlik vositalari va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi mintaqaviy vakolatxonasi rahbari Ashita Mittal xonim "26-iyun – Xalqaro giyohvandlikka va giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni" munosabati bilan 2020-yil 26-iyun kuni o'tkazilgan tadbir davomida ham giyohvandlikka qarshi kurash yo'nalishida Bojxona organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni yuqori baholagan.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yil davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog'liq 7142 ta huquqbuzarlik holati aniqlangan bo'lib, o'tkazilgan tezkor tadbirlar natijasida jami 1 tonna 933,7 kg giyohvandlik vositalari ushlab qolingani. Aniqlangan giyohvandlik vositalarining 531 kg.dan ortig'i bevosita bojxona organi xodimlari tomonidan tezkor tadbirlarda ushlab qolingani.

Amalga oshirilgan ishlar xorijiy davlatlar bilan ko'p tomonlama imzolangan shartnomalar bo'lishiga qaramasdan giyohvandlik vositalari noqonuniy savdosibilan bog'liq jinoyatlar yildan yilga ortib bormoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan BMT va boshqa davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan o'quv seminar treninglar, ular tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy va texnik yordamlar o'z samarasini yetarlicha ko'rsatyapti deb ayta olmaymiz. Ko'pincha bojxonada mavjud bo'lgan maxsus texnik vositalar va xizmat itlari yordamida jinoyatchilikka chek qo'yishning to'liq imkoni mavjud emasligi, faqat bojxona xodimlarining kasbiy va tezkor mahorati giyohvandlik vositalari kontrabandasini aniqlashning yagona samarali vositasi bo'lib qolmoqda. Giyohvandlik vositalari kontrabandasiga ixtisoslashgan uyushgan jinoiy jamoalar doimiy ravishda o'z taktikasini o'zgartirib borishini hisobga olib, bugungi kunda tezkor va tahliliy ish usullari birinchi o'rinda turadi va bojxona xizmati xodimlarining tezkor-qidiruv tayyorgarligini oshirish va bu sohada xorijiy davlatlar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan tajriba almashishga katta e'tibor qaratish lozim. Shu bilan bir qatorda, bojxona organlari ish faoliyatidan kelib chiqib "nazorat ostida yetkazib berish" tezkor tadbirini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan organ hisoblandi. Giyohvandlik moddalari noqonuniy savdosi yildan yilga ortib borayotganligi va aniqlanayotgan holatlar miqdori (partiyasi) ham katta miqdorlarni tashkil qilayotganligini inobatga olgan holda mazkur tadbirni amalga oshirish har doimgidan ham dolzarb masalaga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunitalablariga asosan tezkor xodim tomonidan kontrabanda ashyolarini "nazorat ostida olish" va "nazorat ostida yetkazib berish" kabi tezkor qidiruv tadbirlarini o'tqazish jarayonida foydalanilgan pul kupyuralarida, kiyim va har xil buyumlarda, tana a'zolarida (qo'lda, yuzda va h.k.) maxsus kukun izlarini topish, ularni taqqoslash namunasi bilan bir turga taalluqli yoki taalluqli emasligini, obyektlarga aynan ushbu kukun bilan ishlov berilganligini, maxsus izlarni aniqlash maqsadida maxsus kukunlar ekspertizasi ham tayinlanadi. Bojxona chegarasi orqali olib kiriladigan giyohvandlik vositalarining nazorat qilinadigan jo'natmalari tezkor-qidiruv tadbirlar sanalib, unda operativ faoliyatni amalga oshiruvchi idora va organlar nazorati ostida O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga kiritishga, mazkur hududdan chiqarish yoki narkotik moddalarni u orqali o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

Nazorat ostida yetkazib berish tezkor qidiruv tadbirini amalga oshirish uchunorgan rahbari tomonidan tasdiqlangan qaror asosida o'tkaziladi.

Bojxona organlari tezkor tuzilmalari tomonidan so'ngi yillarda "nazorat ostida yetkazib berish" tezkor tadbiri juda kam hollarda qo'llanilayotganligi, 2022-yilning o'tgan davri mobaynida faqatgina bir marotabagina mazkur tezkor tabdir o'tkazilganligini aytishimiz mumkin.

Mazkur sohada boshqa mamlakat huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikning huquqiy dasturi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi hajmini kamaytirish, profilaktik tibbiy hamda ma'muriy tadbirlarni o'tkazish, giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashni kuchaytirish hamda o'zaro faoliyat shakl va yo'nalishlari, xalqaro-huquqiy me'yorlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi shart.

Holbuki, jinoyatchilikka chek qo'yish, uni oldini olishda faqatgina uning ildiziga bolta urish va tag-tomiri bilan sug'urib tashlash bilangina erishish mumkin. Kelajakda ushbu tadbirlar sonini ko'paytirish va xalqaro doirada mazkur illatga qarshi birgalikda kurashish yanada samarali natija beradi deb o'ylaymiz.

Tadqiqotlar natijasida amaliyotda giyohvandlik vositalari kontrabandasi bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va kvalifikatsiya qilishda bir qator muammolaryuzaga kelmoqda. Binobarin:

Huquqiy sohadagi muammolar:

- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 246-moddasi predmetlarining xilma-xilligi, 1-qismida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni miqdori ko'rsatilmaganligi;
- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar tayyorlashda foydalaniladigan prekursorlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish uchun javobgarlik belgilanmaganligi;
- O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 24-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunining tegishli moddalari takomillashtirilmaganligi;

Tashkiliy muammolar:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar xususan prokuratura organlari bilan hamkorlik masalalarida raqamlashtirish, yangicha elektron dasturlar orqali ma'lumot almashish tizimining yo'qligi;
- bojxona organlari xodimlari, xususan tezkor tuzilma xodimlari tomonidan moddiy qiymatga ega bo'lmagan kontrabanda ashyolari aniqlangan taqdirda rag'batlantirish masalalarida bo'shliqlar borligi;
- xodimlarni malakasini oshirish jarayonida faqat ichki imkoniyatlarimiz bilan cheklanib qolmoqdamiz.

Shu o'rinda giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qonunchilikni takomillashtirish va jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator taklif va mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz. Ayniqsa:

1-Taklif: Agar shaxs bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan JKning 246-moddasida nazarda tutilgan predmetlari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni deklaratsiyalab, bojxona organlariga o'z ixtiyori bilan kontrabanda ashyolarini topshirsa Jinoyat kodeksining

246-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishini talab etmaydi hamda tegishli JK 244¹-moddasi Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, 248-moddasi Tegishli litsenziyalarsiz yoki ruxsatnomalarsiz o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini saqlash, 251¹-moddasi Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta'sir qiluvchi yoxud zaharli moddalarni o'tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda saqlash, 253-moddasi Radioaktiv materiallarni saqlash, 276-moddasi Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay, qonunga xilof ravishda saqlash nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Shaxsning giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni deklaratsiyalab, bojxona organlariga o'z ixtiyori bilan giyohvandlik vositalarini topshirsa shaxsning harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246-moddasi bilan emas, balki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 276-moddasi bilan tasniflash va jazo tayinlashda inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sud amaliyotini o'rganish natijalari, bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabanda uchun javobgarlikka oid jinoyat ishlarini ko'rishda qonun normalarini turlicha talqin qilish va qilmishlarga noto'g'ri huquqiy baho berish kabi xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Qonunchilikka kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni e'tiborga olgan holda, amaliyotda uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qarori 19-bandiga yuqorida ta'kidlab o'tilganidek 2-xatboshi sifatida qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblayman.

2-Taklif: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246-moddasi 1-qismi giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni davlat chegarasidan noqonuniy olib o'tgan taqdirda jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida miqdoriga ko'ra ajratish va jazo tayinlashda inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246-moddasi 1-qismida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni miqdori ko'rsatilmaganligi sababli, amaliyotda Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qarori 17-bandi 2-xatboshisida "Bojxona chegarasi orqali Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan kontrabanda predmetlarini o'tkazishda ifodalangan harakatlarni kvalifikatsiya qilishda kontrabanda predmetlarining miqdori huquqiy ahamiyat kasb etmaydi" deb ko'rsatilganligi sababli, oz miqdordagi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni kontrabanda yo'li bilan olib o'tilgan holatlarga Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi bilan malakalanib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishiyuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida"gi 2015-yil 12-noyabrdagi 330-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish haqida 2018-yil 27-oktyabr kungi 878-sonli qarori bilan giyohvandlik vositalari va psixotrop

moddalarning ko‘p bo‘lmagan, ozginadan ko‘proq va ko‘p miqdori belgilangan ro‘yxati tasdiqlangan bo‘lib, ushbu ro‘yxatda ko‘rsatilgan ko‘p bo‘lmagan miqdor oz miqdorni tashkil qiladi.

Shaxsning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay saqlashdan iborat harakatlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 276-moddasi 1-qismi bilan emas, balki Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 56-moddasi bilan tasniflanib, eng kam ishhaqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Lekin, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazganlik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi bilan malakalanib, besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Respublikamizda hozirgi kunda sud-huquq sohasida liberalizatsiya siyosati amalga oshirilayotgan bir vaqtda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazganlik uchun ichki hududda noqonuniy saqlashga nisbatan jazo miqdori nihoyatda og‘ir va bu odillik tamoyiliga zid bo‘lib qoladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni davlat chegarasidan noqonuniy olib o‘tgan taqdirda jinoyatnikvalifikatsiya qilish jarayonida miqdoriga ko‘ra ajratish va jazo tayinlashda inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3-Taklif: Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar bilan bir qatorda mazkur vositalarni tayyorlashda ishlatiladigan xomashyo hisoblangan prekursorlar bilan noqonuniy muomala qilish bilan bog‘liq huquqbuzarlik holatlari ortib borayotganligini, hozirgi kunda amaliyotda shunday holat sodir bo‘lgan taqdirda uni aynan qaysi modda bilan kvalifikatsiya qilish masalasi ochiq qolayotganligini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246-moddasiga prekursorlar bilan bog‘liq holatlar sodir etilgan taqdirda javobgarlik masalalarini belgilab qo‘yish kerak.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 273-moddasida “Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni laboratoriyalarda yoxud o‘zganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalardan yoki prekursorlardan foydalangan holda qonunga xilof ravishdatayyorlash yoki qayta ishlash, shuningdek bunday vositalarni iste‘mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilish yoki saqlash...”,- deb belgilab qo‘yilgan. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar prekursorlariga qarshi kurash hamda javobgarlik masalalari takomillashtirilishi natijasida 2018-yil 22-oktyabr kuni O‘RQ-503-son Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi — 19, 56, 127, 207, 246, 251¹, 261, 273, 274, 275 va 276-moddalarining tegishli bandlariga “giyohvandlik vositalari” degan so‘zlardan keyin “ularning analoglari” degan so‘zlar bilan to‘ldirildi. Biroq, Jinoyat kodeksining 273-moddasidan tashqari boshqa birorta moddasida mazkur giyohvandlik vositalari tayyorlashda foydalaniladigan prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tish hamda noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki O‘RQ-503-son Qonuni bilan Jinoyat Kodeksining VIII-bo‘limi “Prekursorlar” atamasi bilan to‘ldirilgan bo‘lib, binobarin: Prekursorlar — prekursorlar ro‘yxatiga kiritilgan va O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini va psixotrop moddalarni tayyorlash uchun

foydalaniladigan moddalar deb kiritilgan.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki kontrabanda bilan bog'liq jinoyatlar, xususan giyohvandlik vositalari ularning prekursorlari, psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar nafaqat O'zbekiston Respublikasi ehtimol butundunyo mamlakatlari uchun doimiy ravishda jiddiy muammo bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 246, 270-276-moddalari bilan mazkur jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan. Lekin, faqatgina 273-moddasida prekursorlar bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali noqonuniy o'tish hamda noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik masalalari ochiq qolmoqda. Kelgusida mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga prekursorlar bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. "O'zbekiston" 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat–protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
4. "Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi Yagona Konvensiya (1961-yil 30-mart).
5. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RQ-502-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi 813-I-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
8. Y.f.n. prof. v.b. D.Bazarova, y.f.d. dotsent I.R.Astanov "Kriminalistika va ekspertiza" darslik. – "Toshkent": TDYU, 2020-y.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING XULQ-ATVORIGA TA'SIR QILISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATILARI

Turumbetova Zamira Yusupbayevna

Qoraqalpoq davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasining v.v.b. dotsenti

Dauletmuratova Klara Kurbanbayevna

Qon'irat rayyoni 1-son kasb-hunar maktabi oquv bo'lim boshlig'i.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10560119>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning xulq-atvoriga ta'sir etuvchi pedagogik va psixologik jihatlar yoritilgan. Keng qamrovli adabiyotlarni tahlil qilish orqali tadqiqot o'qituvchilar tomonidan xulq-atvorni shakllantirishning samarali usullarini o'rganadi, o'yindagi asosiy psixologik tamoyillarni o'rganadi va turli tadqiqotlarning natijalarini taqdim etadi. Usullar bo'limida amaliy yondashuvlar, natijalar bo'limida esa natijalar muhokama qilinadi. Munozara bo'limi ushbu topilmalarni sharhlaydi va xulosa maktabgacha ta'limga ta'siri haqida tushuncha beradi, so'ngra kelajakdagi tadqiqotlar uchun takliflar beradi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar, xulq-atvorni o'zgartirish, pedagogika, psixologiya, erta bolalik ta'limi, guruhni boshqarish, ijobiy mustahkamlash, ijtimoiy ta'lim, o'qituvchi strategiyalari.

PEDAGOGIKAL PSIXOLOGIKAL FEATURES OF THE INFLUENCE ON THE BEHAVIOR OF PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. This article delves into the pedagogical and psychological aspects that influence the behavior of preschool children. Through a comprehensive literature analysis, the study explores effective methods employed by educators to shape behavior, examines key psychological principles at play, and presents findings from various research studies. The methods section outlines practical approaches, while the results section discusses outcomes. The discussion section interprets these findings, and the conclusion offers insights into the implications for preschool education, followed by suggestions for future research.

Keywords: Preschool children, behavior modification, pedagogy, psychology, early childhood education, classroom management, positive reinforcement, social learning, teacher strategies.

ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВОЗДЕЙСТВИЯ НА ПОВЕДЕНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты, влияющие на поведение детей дошкольного возраста. Благодаря обширному обзору литературы в исследовании изучаются эффективные способы формирования поведения учителей, изучаются лежащие в их основе психологические принципы и представлены результаты различных исследований. В разделе «Методы» обсуждаются практические подходы, а в разделе «Результаты» обсуждаются результаты. В разделе обсуждения интерпретируются эти результаты и дается понимание последствий этого вывода для дошкольного образования, а затем предлагаются предложения для будущих исследований.

Ключевые слова: дошкольники, модификация поведения, педагогика, психология, дошкольное образование, групповое управление, положительное подкрепление, социальное обучение, стратегии учителя.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining asosiy ko'nikmalar va xulq-atvor egallaydigan muhim rivojlanish bosqichini belgilaydilar. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi pedagogik va psixologik xususiyatlarni ochishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchilarga ijobiy xatti-harakatlarni tarbiyalashning samarali strategiyalari haqida tushuncha berishga qaratilgan.

Ushbu xususiyatlarni o'rganish uchun aralash usulli yondashuv qo'llanildi. Sifatli ma'lumotlar guruh kuzatuvlari orqali, miqdoriy ma'lumotlar esa xatti-harakatlarni kuzatish jadvallari orqali to'plandi. Ishtirokchilar maktabgacha tarbiya o'qituvchilari va turli xil ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi bo'lgan talabalar, vakillik namunasini ta'minladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatlariga ta'sir qilish turli xil pedagogik va psixologik tamoyillarni tushunish va qo'llashni o'z ichiga oladi. Bu erda e'tiborga olish kerak bo'lgan ba'zi asosiy pedagogik va psixologik xususiyatlar:

Rivojlanish Tarmoqlari:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish bosqichlarini tan olish va tushunish. O'zingizning yondashuvingizni ularning bilim, ijtimoiy, hissiy va jismoniy imkoniyatlariga qarab moslashtiring¹⁴¹.

Ijobiy Mustahkamlash:

- Istalgan xatti-harakatlarni rag'batlantirish uchun ijobiy mustahkamlashdan foydalaning. Maqtov, mukofotlar va ijobiy fikrlar maktabgacha yoshdagi bolalarni ijobiy harakatlarni takrorlashga undashi mumkin.

Mustahkamlik:

- Izchil qoidalar va umidlarni o'rnatish. Bashorat qilish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xavfsizlik hissi yaratadi, ulardan nima kutilayotganini tushunishga yordam beradi.

Xulq-atvorni Modellashtirish:

- Ijobiy namuna bo'ling. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha kattalar va tengdoshlarini kuzatish orqali o'rganadilar. Siz qabul qilmoqchi bo'lgan xatti-harakatlaringizni namoyish eting¹⁴².

Aniq aloqa:

- Oddiy va tushunarli tildan foydalaning. Maktabgacha yoshdagi bolalar hali ham til ko'nikmalarini rivojlantirmoqdalar, shuning uchun samarali muloqot juda muhimdir. Og'zaki ko'rsatmalarni qo'llab-quvvatlash uchun ko'rgazmali qurollar va imo-ishoralardan foydalaning.

Shaxsiy farqlar:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatlari, qiziqishlari va kelib chiqishidagi xilma-xillikni tan oling va qadrlang. O'qitish usullarini individual farqlarga moslashtiring.

O'yin asosida o'rganish:

- O'yinni o'rganishning Markaziy komponenti sifatida foydalaning. O'yin-bu yosh bolalarning atrofdagi dunyoni o'rganish va anglashning tabiiy usuli.

¹⁴¹ F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". - T., "Ma'naviyat".2013

¹⁴² Sh.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y.

Ijtimoiy Hamkorlik:

- Ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida almashish, hamkorlik va muloqotni rag'batlantirish. Guruh faoliyati ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Sabr va moslashuvchanlik:

- Sabr-toqat va moslashuvchanlikni namoyish eting. Preschoolers hali ularning his-tuyg'ularini va xatti tartibga solish uchun o'rganayotgan. Zarur bo'lganda strategiyalaringizni moslashtirishga tayyor bo'ling.

Ijobiy Muhit:

- Ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish. Mehmondo'st atmosfera xavfsizlik hissini uyg'otadi va izlanish va o'rganishni rag'batlantiradi.

Rivojlanishga Mos Amaliyotlar:

- Rivojlanish uchun mos o'qitish usullari va materiallaridan foydalaning. Faoliyat va darslar maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim va jismoniy qobiliyatlariga mos kelishi kerak.

Mustaqillikni Rag'batlantirish:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarga tegishli chegaralar ichida tanlov qilishga ruxsat berish orqali mustaqillik tuyg'usini tarbiyalash. Bu ularning qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi¹⁴³.

Hissiyotlarni Tushunish:

- Maktabgacha tarbiyachilarga his-tuyg'ularini tushunishga va ifoda etishga yordam bering. Hissiy savodxonlikni o'rgatish o'zini o'zi boshqarish va ijtimoiy aloqalarni yaxshilashga hissa qo'shishi mumkin.

Ota-onalar bilan hamkorlik:

- Ota-onalar bilan ochiq muloqotni saqlang. Har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini tushunish va xulq-atvor naqshlari haqida tushuncha almashish uchun ular bilan hamkorlik qiling.

Muammoni hal qilish qobiliyatlari:

- Muammoni hal qilish ko'nikmalarini rag'batlantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarga muammolarni qanday aniqlashni, echimlarni o'rganishni va qo'llab-quvvatlovchi tarzda qaror qabul qilishni o'rgating.

Ushbu pedagogik va psixologik xususiyatlarni o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar va tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijobiy va samarali o'quv muhitini yaratishi, ularning ijtimoiy, hissiy va kognitiv rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

Topilmalar maktabgacha ta'limda ijobiy mustahkamlash va ijtimoiy ta'limning ahamiyati to'g'risida mavjud adabiyotlar bilan mos keladi. Natijalar o'qituvchilarni xulq-atvorni boshqarishning samarali strategiyalari bilan jihozlash uchun malaka oshirish dasturlari zarurligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, tadqiqot bolalar xulq-atvorini shakllantirishda pedagogika va psixologiyaning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqotda o'rganilgan pedagogik va psixologik xususiyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar ijtimoiy ta'lim nazariyalariga mos keladigan strategiyalarni o'z ichiga olgan holda ijobiy va qo'llab-

¹⁴³ Xasanboeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta'lim pedagogika .T.; Ilm ziyo. 2006.

quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Natijalar guruhdan tashqarida bo'lib, bolalarning uzoq muddatli rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Kelajakdagi tadqiqotlar erta bolalik davridagi aralashuvlarning xulq-atvor natijalariga uzoq muddatli ta'sirini o'rganishi kerak. Xulq-atvorni shakllantirishda madaniy omillarning rolini o'rganish va maktabgacha ta'limga texnologiyaga asoslangan aralashuvlar samaradorligini baholash ham o'rganishga loyiq yo'llardir. Bundan tashqari, bo'ylama tadqiqotlar keyinchalik ta'lim bosqichlarida ichiga xulq naqsh qat'iylik ichiga fikr-mulohazalarini mumkin.

Ushbu maqola maktabgacha ta'limda pedagogika va psixologiya o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik atrofidagi bilimlarning o'sib borishiga yordam beradi, o'qituvchilar uchun amaliy tushunchalarni taqdim etadi va ushbu muhim sohada keyingi tadqiqotlar uchun zamin yaratadi.

REFERENCES

1. "Maktabgacha ta'lim- tarbiya to'g'risida"gi Qonun,-T.;O'zbekiston. 2020 y.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". - T., "Ma'naviyat".2013
3. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogika.T.; O'qituvchi, 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshqa. Maktabgacha ta'lim pedagogika .T.; Ilm ziyo. 2006.
5. Sh.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y.
6. N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashiroti T.; 2013 y
7. Волотина Л.Р. Дошкольная педагогика М. Лавиринт. 2005
8. Yusupbayevna T. Z. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF AN INTEGRATED APPROACH TO ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN EDUCATION //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2022. – T. 8. – №. 6. – C. 26-29. 12. Yusupbaevna Z. T. Integrative approach to the system of higher education of foreign countries, economically developed in the Republic of Uzbekistan //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2021. – T. 1. – №. 1. – C. 82-87.
9. Turumbetova Z. Y., Srimbetova S. E. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE IMPACT ON CHILDREN'S BEHAVIOR //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 942-945.
10. Turumbetova Z. Y., Tolibayeva Z. B. PROBLEMS OF CHOOSING A PROFESSION IN ADOLESCENCE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 938-941.
11. Turumbetova , Z., & Srimbetova, S. (2023). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE IMPACT ON CHILDREN'S BEHAVIOR. Modern Science and Research, 2(10), 942–945.
12. Turumbetova Z. Y., Ismailova X. X. AGGRESSIVE BEHAVIOR OF PRESCHOOL CHILDREN //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 934-937.
13. Turumbetova Z. Y., Kaljanova U. M. MENTAL DEPRIVATION IN CHILDHOOD //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 862866.
14. Turumbetova Z. Y., Xudaybergenova S. ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ИГРЫ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ РЕБЕНКА //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 178-182.

15. Турумбетова З. Ю., Олжабаева Д. А. Психологические Особенности Ребенка Дошкольного Возраста //International Journal of Formal Education. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 121-126.
16. Yerjanova V. POLITICAL, SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL ASPECTS OF EDUCATING STUDENTS ASSOCIATED WITH NATIONAL VALUES //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 356-362.
17. Ержанова В. К. НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕННОСТИ–КАК СРЕДСТВА ДУХОВНОГО ОБОГЩЕНИЯ ПОДРОСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 666-671.
18. Ержанова В. РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ИНТЕГРАЦИИ УЧЕБНЫХ ДИСЦИПЛИН И ВНЕКЛАССНЫХ ЗАНЯТИЙ В РАЗВИТИИ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИИ У УЧАЩИХСЯ //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 296-299.
19. Niyazbaeva A., Kamalova G. ÓZBEKISTON XALQ BAXSHISI QALLIEV TENELBAY GENJEBAEVICH IJODI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 22-24.
20. Segizbaeva G., Kamalova G. M. DEVELOPMENT OF THE ORCHESTRA OF MUSICAL INSTRUMENTS IN KARAKALPAKSTAN //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 875-879.
21. Abdikarimova I. T., Kamalova G. M. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍNDAĞÍ BIRINSHI FLEYTA ATQARÍWSHÍSÍ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 43. – №. 3. – С. 178-181.
22. Guldana S., Kamalova G. M. J. CHARSHEMOVTIŃ DÓRETIWSHILIGINDE FUGA JANRI //World scientific research journal. – 2023. – Т. 22. – №. 2. – С. 32-38.
23. Omarova A. SCHOOL CHEERS THROUGH MUSIC PROFESSIONAL DIRECTION //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 151-8. 8.Omarova A. SCHOOL CHEERS THROUGH MUSIC PROFESSIONAL DIRECTION //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 151-156.
24. Омарова А. ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОГО УРОК.
25. Begis P., Kamalova G. M. SÓNVES JULDIZ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 55-59.
26. Niyazbaeva A., Kamalova G. ÓZBEKISTON XALQ BAXSHISI QALLIEV TENELBAY GENJEBAEVICH IJODI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 22-24.
27. Segizbaeva G., Kamalova G. M. DEVELOPMENT OF THE ORCHESTRA OF MUSICAL INSTRUMENTS IN KARAKALPAKSTAN //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 875-879.
28. Abdikarimova I. T., Kamalova G. M. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍNDAĞÍ BIRINSHI FLEYTA ATQARÍWSHÍSÍ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 43. – №. 3. – С. 178-181.

29. Kamalova G. M. et al. ÓZBEKSTAN XALIQ BAQSISI ĞAYRATDIN ÓTEMURATOV //TADQIQOTLAR. – 2023. – Т. 25. – №. 1. – С. 40-42.
30. Kamalova G. M. et al. ÓZBEK MUZIKASINDA BALALAR FOLKLORI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 39. – №. 2. – С. 85-87.
31. Kamalova G. M. et al. QARAQALPAQTIN BAY MIYRASI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 52-54.
32. Kamalova G. M. et al. QARAQALPAQSTANDA AKADEMIYALIQ VOKAL JÓNELISI //World scientific research journal. – 2023. – Т. 22. – №. 2. – С. 21-25.
33. Guldana S., Kamalova G. M. J. CHARSEMOMVIN DÓRETIWSHILIGINDE FUGA JANRI //World scientific research journal. – 2023. – Т. 22. – №. 2. – С. 32-38.
34. Kamalova, G. (2023). QÁLEMI ÓTKIR KOMPOZITOR (D.Djańabaeva dóretiwshilik jolı). Вестник музыки и искусства, 1(2), 37–39.
35. Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY JEMURATOV'S WORK //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 818-821.
36. Чаршемов Ж. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК КИНОМУСИҚАСИ //Вестник музыки и искусства. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 16-22.
37. Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY JEMURATOV'S WORK //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 818-821.
38. Abdikarimova, I. (2023). ORTA AZIYADAĜÍ OYANÍW DÁWIRI. Вестник музыки и искусства, 1(2), 161–163
39. Чаршемов, Ж. (2023). МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК КИНОМУСИҚАСИ. Вестник музыки и искусства, 1(2), 16–22
40. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 270-273.
41. Abatbayeva U. INITIAL LEVEL OF STUDENTS'MUSICAL CREATIVITY DEVELOPMENT //Modern Science And Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 323-326.
42. Абатбаева У. А. Арт-Педагогические И Арт-Терапевтические Технологии, Методы Пребывания В Образовании, Формы И Инструменты //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 40. – С. 496-498.
43. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 841-849.
Kalit so'zlar: tadbirkorlik, raqobatdoshlik, innovatsiya jarayonlari, normalar, tadbirkorlik sub'ektlari.

THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS

Abstract. This article discusses the importance of innovative potential in increasing competitiveness. From these considerations, it can be seen that innovative potential is important for entrepreneurial activity and has a profound impact on the development of society. This increases competitiveness on all fronts.

Keywords: entrepreneurship, competitiveness, innovation processes, norms, business entities.

ВАЖНОСТЬ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ

Аннотация. В этой статье рассматривается важность инновационного потенциала для повышения конкурентоспособности. Из этих соображений видно, что инновационный потенциал приобретает важное значение для предпринимательской деятельности и оказывает глубокое влияние на развитие общества. Это повысит конкурентоспособность по всем направлениям.

Ключевые слова: предпринимательство, конкурентоспособность, инновационные процессы, нормы, субъекты предпринимательства.

Mustaqillik yillarida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish, davlatning boshqaruv funksiyalari va ruxsat beruvchi normalarni qisqartirish, byurokratik to'siq va g'ovlarni olib tashlash, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni tubdan qisqartirish, tadbirkorlik faoliyatiga butunlay yangi va samarali ma'muriy-huquqiy boshqaruvni joriy etish borasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirishda tadbirkorlikning roli va o'rni ortib bormoqda.

“Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi”, degan tamoyilni amalga oshirish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo bozorida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda mamlakatimizda iqtisodiyotning zamonaviy, ya'ni innovatsion shaklini barpo etish bo'yicha izchil choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev¹⁴⁷tashabbusi bilan boshlangan ilm-fan va ishlab chiqarishni o'zaro bog'laydigan mustahkam mexanizm bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bunda olimlar o'z tadqiqotlarini iqtisodiyot va jamiyatning muayyan ehtiyojlariga yo'naltirsa, iqtisodiyot tarmoqlari ularning innovatsion faoliyatini moliyaviy qo'llabquvvatlashdan manfaatdor bo'ladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har tomonlama rivojlangan innovatsion tizimga ega mamlakatlardagina innovatsiya jarayonlari samarali amalga oshirilib, texnologiyalar va boshqa ilmtalab mahsulotlar tijoratlashtirilmoqda. Bu jarayonda davlatning ishtiroki, iqtisodiyotning real sektori va yetakchi kompaniyalarning innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga egadir. Zero, ilm-fan davlatning texnologik taraqqiyoti va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan ushbu integratsiya mexanizmining asosini tashkil qiladi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimiz ilmfani, yetakchi ilmiy maktablarini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar yangi tarixiy voqe'larga mos keladigan fan-texnika va innovatsiya sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun o'ziga xos rag'bat bo'ldi.

Mahalliyashtirish dasturini samarali amalga oshirish O'zbekistonda chet elnikidan qolishmaydigan, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, aholini ish bilan ta'minlash, hududlar infratuzilmasini yaxshilash, sanoat rivojini yanada jadallashtirish, narxlarning pasayishiga xizmat qiladi. Yurtimizda import o'rnini bosadigan maxsulotlarni ishlab chiqarayotgan korxonalar safining kengayishi mamlakatimizda yaratilgan qulay tadbirkorlik muhiti bilan bevosita bog'liq.

Natijada yurtimiz bozorlarida "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" belgisi ostida har tomonlama qulay, tejamkor, sifatli va arzon maxsulotlar turi kengayib bormoqda. Respublikada olib borilayotgan keng miqyosli ishlab chiqarishni mahalliyashtirish asosida ish yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga qator imtiyoz va yengilliklar berish ko'zda tutilgan. Jumladan:

- tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan mahalliyashtiriladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha loyihani amalga oshirish uchun jalb etiladigan kreditning 50 foizi miqdoriga kafillik berish va tijorat banklari kreditlari foiz stavkalarining 5 foiz miqdorgacha o'rnatilgan tartibda qoplanishi;

- uch yoki undan ortiq ishtirokchilar mahalliy ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lgan taqdirda, davlat xaridlari buyurtmachining tanloviga ko'ra mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida amalga oshirilishi ayrim tarmoqlarning mahsulotlarini davlat tomonidan xarid qilishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlariga nisbatan 20 foizgacha narx preferensiyasi qo'llanishi mumkinligi O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi eksportni rag'batlantirish agentligi ayrim turdagi mahsulotlarni eksport qiluvchilarga tijorat banklarining eksportdan oldingi kreditlari bo'yicha foizli xarajatlarni qoplashga kompensasiyalar, tijorat banklarining kreditlari bo'yicha kafillik, temir yo'l transportida tashish xarajatlarning 50

¹⁴⁷ Ashurov, M. S. (2022). Zamonaviy sharoitda O'zbekistonda innovatsion faoliyatning holati va va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarI. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 15-30.

foizigacha miqdorini qoplash uchun subsidiyalar taqdim etishi, xalqaro standartlashtirish va sertifikatlash tizimlarini joriy etish;

- xorijiy mamlakatlarda milliy mahsulotlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha masalalarga moliyaviy yordam ko'rsatishi hamda eksportni sug'urtalash shart-sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish ishlarini olib borish.¹⁴⁸

Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning har bir yo'nalishi tegishli yuritish usullari bilan tavsiflanishi aniqlandi. Korxonani innovatsion texnologiyalar sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish usullari qatoriga quyidagilar kiradi:

- xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;
- ijtimoiy tartibga solish;
- iqtisodiy hisob-kitob;
- balans usuli;
- moliyalashtirish usuli;
- narxlarni tartibga solish;
- qarz berish.¹⁴⁹

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini va korxonalarni innovatsion sharoitlarda boshqarish uchun psixologik va tashkiliy-ma'muriy usullar ko'rib chiqiladi. Iqtisodiy faoliyat samaradorligini boshqarishga qaratilgan ishbilarmonlik faoliyatini boshqarishning ikkinchi jihati korxonalar egalarining bevosita qondirishidan iborat zaruriy diskursiv ta'sirga erishish bilan tavsiflanadi. Innovatsion texnologiyalar va raqamlashtirish davrida ilmiy olimlar korxonalarining ishbilarmonlik faoliyatini boshqarish bo'yicha qarashlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan ajralib turadilar, chunki ular uning faqat ikkita asosiy jihatini ajratib ayta olishadi: ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv va iqtisodiy faoliyat samaradorligini boshqarish usullari. Shuning uchun innovatsion rivojlanish asrida korxonalar ishbilarmonlik faoliyati darajasiga ta'sir etuvchi omillarni samarali baholay olishmaydi va korxonalar rahbarlari sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qila olmaydi.

Tadbirkorlik faoliyatini boshqarish faoliyatning turli sohalarini qamrab oladi. Korxonalar istiqbolini belgilashda o'zgarib borayotgan iqtisodiy ijtimoiy muhit talablariga moslashish kun sayin tadbirkorlik ilmining asosiy amaliy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Istiqbolli o'zgarishlarning imkon boricha yuqori aniqlikda seza bilish, raqobat kurashida samarali usullardan va shakllardan foydalanish borasidagi nazariy izlanishlar tez orada rivojlanayotgan korxonalarining amaliy tajribasiga aylanmoqda. Har bir xo'jalik sub'ekti o'ziga xos bo'lgan, antiqa innovatsion strategiyalarni tanlashi, raqobatda yangiliklarni tadbiiq qilish bilan bo'lgan kutilmagan tadbirlarni amalga oshirishi natijasida biznes sohasida yangi rivojlanish yo'llari, uslublariga qiziqish tobora ortib bormoqda.¹⁵⁰

Respublikamizning korxonalar va tashkilotlarining jahon bozorlarida o'z o'rnlarini topishlarida rivojlangan va yetakchi kompaniyalar tajribalarini o'rganishlari, ularning innovatsion

¹⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 martdagi 136- sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2020-2021 yillarda ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish Dasturi to'g'risida"

¹⁴⁹ Innovatsiya — dvijushaya sila kitayskogo obshestva v sovremennuyu epoxu. // Ekonomist. № 4. 2008 g. S. 6.

¹⁵⁰ Vcherashniy R., Suxarev O. Innovatsii — instrument ekonomicheskogo, razvitiya // Investitsii v Rossii. 2006. № 10. S.28.

boshqaruv faoliyatlarini va taktik tadbirlarini kuzatishlari zarur bo‘ladi. Chunki xorijiy firmalar bilan iqtisodiy, ilmiy hamkorlik sohalarini belgilashda “manfaatlar yakdilligi”ni ta’minlashda har bir tadbirkor va xo‘jalik sub’ekti o‘zining maqsadlari, uzoq va qisqa muddatli strategiyasini, innovatsion siyosatini aniq belgilab olishi lozim.

REFERENCES

1. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 333-340.
2. Shadiyev, A. (2022). О ‘QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI О ‘QITISHNING INNOVATSION USULI SIFATIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 13(13).
3. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
4. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 582-586.
5. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 450-454.
6. Khalilov Bahromjon Bahodirovich. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 746–750.
7. Raxmonqulova, N. (2023). DEVELOPMENT STRATEGY IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(12), 301-305.
8. Abdulloev, A. J., & Rakhmankulova, N. O. THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP CONCEPT.
9. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI SOHASIDAGI TADBIRKORLIK RIVOJIDA DAVLATNING O’RNI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 73-76.
10. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. ТА’ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 23-28.
11. Рахманкулова, Н. (2023). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОНАЛЬНОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 168-170.
12. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559–568.
13. To’rayevna, S. N. (2023). ДЕМОКРАТИЯ VA IQTISODIYOT O’RTASIDAGI MUNOSABAT" SIYOSIY SHAXS" NAZARIDAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 387-394.

14. To'rayevna, S. N. (2023). YETAKCHILIK USLUBI SIFATIDA MURABIYOTDAN FOYDALANISH MENEJERLARNI TAYYORLASH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 399-408.
15. Toshov, M. (2023). FORMATION OF PRINCIPLES HR (HUMAN RESOURCE) BASED ON KEY INDICATORS (KPI). *Modern Science and Research*, 2(12), 477–482.
16. Toshov, M. (2023). CREATIVE ECONOMY: ESSENCE AND STRUCTURE. *Modern Science and Research*, 2(12), 499-505.
17. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470–476.
18. Очиллов, Ш. Б., & Жумаева, З. К. (2017). Основные направления развития инноваций в республике Узбекистан. *Инновационное развитие*, (6), 45-47.
19. Жумаева, З. К., & Тошев, Ф. З. (2017). Пути дальнейшего совершенствования привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. *Инновационное развитие*, (4), 66-68.
20. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
21. Nargiza N. (2023). THE ROLE OF PROPERTY RELATIONS IN SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(12), 889–893.
22. Ibdulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
23. Ibdulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
24. Ikromov E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107–1111.
25. Jumayeva, Z. (2023). BASICS OF NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(12), 296–300.
26. Bustonovna, J. Z. (2023). PECULIARITIES OF THE AGRICULTURAL ECONOMY IN THE COUNTRIES OF THE EUROPEAN UNION. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1256-1260.
27. Abidovna, A. S. (2023). MONTE CARLO MODELING AND ITS PECULIARITIES IN THE IMPLEMENTATION OF MARKETING ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 375-380.
28. Abidovna, A. S. (2023). PRIORITY DIRECTIONS OF ANALYSIS OF CHANNELS OF PROMOTION OF THE MAIN ACTIVITY OF THE ENTERPRISE AND SEPARATE COMMUNICATION PROGRAMS. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 369-374.
29. Ashurov, M. S. (2022). Zamonaviy sharoitda O'zbekistonda innovatsion faoliyatning holati va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(1), 15-30.
30. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 martdagi 136- sonli Qarori bilan tasdiqlangan "2020-2021 yillarda ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to'g'risida"

31. Innovatsiya — dvijushaya sila kitayskogo obshestva v sovremennuyu epoxu. //Ekonomist. № 4. 2008 g. S. 6.
32. Vcherashniy R., Suxarev O. Innovatsii — instrument ekonomicheskogo, razvitiya // Investitsii v Rossii. 2006. № 10. S.28.

DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

Ikromov Elyor Ibodulloyevich

Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10573228>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Inson faoliyati turlicha bo'lib, turli xil yo'nalishga qaratilgan. Rahbarlar shuni yaxshi bilishi zarurki, agar ishlab chiqarishning kelajak muammolariga o'z vaqtida ahamiyat berilmasa, unda hozirgi vaqtda sexlarda, uchastkalarda yaxshi iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish mumkin bo'lmaydi. SHuning uchun ishlab chiqarishda usta, sex boshlig'i va boshqa rahbarlar istiqboldagi muammolarni, ilg'or mehnat usullarini qidirib topishi, ixtirochilik ishlarini ishlab chiqishi va ularni joriy qilishi, ishchilar malakasini, bilim saviyasini ko'tarishni yaxshi bilishi va uni amalga oshirishi kerak.

Kalit so'zlar: Rahbar, kichik biznes, Boshqaruv xodimlari, byudjet, kichik va o'rta tadbirkorlikda boshqaruv xodimlari.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES.

Abstract. In this article, human activities are varied and focused in different directions. Leaders need to be well aware that if the problems of the future of production are not given timely importance, then at the moment it will not be possible to achieve good economic indicators in workshops, plots. Therefore, in production, the master, the head of the workshop and other leaders must look for problems in perspective, advanced methods of Labor, develop inventive work and introduce them, know well how to raise the skills of workers, the level of knowledge and carry it out.

Keywords: Leader, Small Business, Management staff, management staff in Budget, small and medium-sized enterprises.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ И ПОВЫШЕНИЯ ПОТЕНЦИАЛА ТРУДА РУКОВОДЯЩИХ РАБОТНИКОВ В ОРГАНАХ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ.

Аннотация. В этой статье Деятельность человека разнообразна и направлена в разные стороны. Руководителям необходимо хорошо знать, что если вовремя не придать значения будущим проблемам производства, то в настоящее время не удастся добиться хороших экономических показателей в цехах, на участках. Поэтому на производстве мастер, начальник цеха и другие руководители должны уметь решать задачи на перспективу, искать передовые методы труда, разрабатывать и внедрять изобретательские работы, хорошо знать повышение квалификации, уровня знаний рабочих и реализовывать его.

Ключевые слова: руководитель, малый бизнес, управленческий персонал, бюджет, управленческий персонал в малом и среднем бизнесе.

Boshqaruv mehnati ijtimoiy mehnat turi bo'lib, uning asosiy vazifasi ijtimoiy mehnat jarayonida ayrim ishtirokchilarning va mehnat jamoalarining oldiga kuyilgan topshiriqlarni, rejalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun ularning faoliyatini maqsad sari yo'naltirish va bir-biriga

muvoqiflashtirishni ta'minlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 4- oktyabrdagi «Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorini yanada takomillashtirish to'g'risida» 795-son qarori qabul qilingan bo'lib, unga asosan «Xizmatchilarning asosiy lavozimlariva ishchilar kasblari Klassifikatori» ishlab chiqilgan.

Klassifikatorda keltirilishicha, “Boshqaruv xodimlari - boshqaruv funksiyalarini amalga oshiruvchi, xodimlarga rahbarlik qiluvchi, zarur qarorlarni ishlab chiquvchi va qabul qiluvchi, tashkilot faoliyatini rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va jarayonlarni tartibga soluvchi, zarur qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlar tayyorlovchi xodimlar. Boshqaruv xodimlari tashkilotning o'z oldiga qo'ygan maqsadlar vavazifalarga erishishi uchun zarur tashkiliy-texnik shartlarni, yuklangan funksiyalar va ishlab chiqarish dasturlari bajarilishini ta'minlaydilar. Boshqaruv xodimlari rahbarlarga va boshqaruv xodimlarimutaxassislariga bo'linadi”.

Keltirilgan ta'rifdan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, boshqaruv mehnatining bevosita predmeti boshqariladigan obyektning hozirgi paytdagi holatini tavsiflovchi ma'lumotdir. Mehnat natijalari esa shu obyektning oldiga kuygan maqsadni bajarish uchun uning holatini o'zgartirishga mos keladigan yechimlar, ishlar, harakatlardir.

Boshqaruv mehnatining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu mehnat bilan shug'ullanadigan xodimlarning o'zlari moddiy boylikni yaratmaydilar, lekin ular moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarishda u yoki bu ishlarni bajaruvchi ishchilarning qobiliyatini, hulk-atvorini, harakatini boshqarib turadilar.

Moddiy ishlab chiqarish sohasida boshqaruv mehnati muxandislik mehnati bilan uzviy bog'likdir. Boshqaruv vazifasini bajarishda rahbar bilan birgalikda mutaxassislar, texnik ijrochilar ishtirok etadi. Har qaysi boshqaruv vazifasini bajaradigan xodim tashkilotning barcha jamoalari faoliyati natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tashkilot, bo'lim rahbarlari mutaxassislarni, xodimlarni tanlaydi va ularni joy-joyiga qo'yadi. Ijrochilarni, ishlab chiqarish bo'limlarining ishlarini bir-biriga muvoqiflashtiradi va xodimlar mehnatining samaradorligini ta'minlaydi.

Mutaxassislar jumlasiga muxandislar, texniklar, iqtisodchilar va boshqalar kiradi. Ular yangi va takomillashtirilgan texnologik jarayonlarni, texnik va iqtisodiy me'yorlarni, shuningdek, ishlab chiqarishda zamonaviy mehnat va boshqaruv shakllari, usullarini ishlab chiqadi hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etadi. Butun tashkilotning ish faoliyati ularning ishiga bog'liq bo'ladi.

Texnik ishlarni bajaruvchilar-hisobchilar, kotiblar, kompyuterlarda ishlaydigan operatorlar va boshqalar. Ular boshqaruv vazifasini bajarish uchun dastlabki axborotni yig'ish, ularni uzatish, qayta ishlash, har xil xujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish ishlarini amalga oshiradi.

Boshqaruv mehnatining moddiy ishlab chiqarish sohasidagi ta'rifi xodimlarlar mehnati kabi umumli mehnat bo'lib, bu ish bilan band bo'lgan xodimlarga, mehnat jamoasining bir qismi deb qaraladi. Shuning uchun boshqaruv mehnati natijalari ishlab chiqilgan va ijro etilgan qarorlar yoki xujjatlar soni bilan emas, balki uning tashkilot yoki bo'linmaning barcha jamoalari faoliyatiga ko'rsatgan ta'siri bilan baholanadi. Qarorlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish jarayonida boshqaruv apparati turli ishlab chiqarish bo'g'inlarining kuch- g'ayratlarini birlashtiradi.

Har qanday hollarda ham boshqaruv mehnati barcha zarur boshqaruv vazifalarining eng kam harajat hamda vaqt sarf qilgan holda sifatli bajarilishini ta'minlashi kerak.

Rahbar faoliyatining xarakteri turli-tumandir. Rahbar tashkilotchi, ma'mur, mutaxassis-tarbiyachi, jamoat arbobi ro'lida ish olib boradi. Tashkilotchi sifatida ish olib borganda u boshqaruv mehnatining ishlab chiqarishni ilmiy tashkil etish bo'yicha ega bo'lgan bilimlariga tayanadi va amalda qo'llaydi. Boshqaruv va ishlab chiqarishni uyushtirish jarayonida ro'yobga chiqqan masalalar o'z vaqtida hal etilmasa, u tezda yuqori bo'g'in rahbarlarga yoki tashkilot rahbariga yetib boradi. Shuning uchun rahbar bo'linmani, jamoani boshqarganda mehnatni yuqori darajali ilmiy asosda uyushtirishga katta ahamiyat beradi. Chunki o'z vaqtida xal qilinmagan har bir muammolar uchun u tashkilot rahbariga javob beradi.

Jamoa oldiga qo'yilgan maqsadni bajarish uchun yunaltilgan tashkilotchilik ishini rahbar o'zining ijodiy ishi, ya'ni maqsadga muvofiq qarorlarni tanlash bilan birga qo'shib olib boradi.

Boshqaruvchi sifatida rahbar o'z ko'l ostidagilariga huquqiy mezonlarga rioya qilgan holda ma'muriy usulda ta'sir ko'rsatishdan foydalanadi. Rahbarning o'zi mutaxassis bo'lishi, o'z xodimi oldiga faqat vazifalarni yuklash bilan qanoatlanmasdan, balki masalalarning qanday usulda hal qilish yo'llarini bilishi zarur.

Rahbar tarbiyachi, ustozsifatida o'z xodimlarini irodali, kamtar qilib, baynalmilallik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Jamoa arbobi sifatida o'zining ishini kasaba uyushma qo'mitasi va boshqa jamoat tashkilotlari bilan birgalikda olib boradi, muhim madaniy-tarbiyaviy va boshqa tadbirlarni ishlab chiqadi, shuningdek, saylov idoralarida katnashadi.

Shunday qilib bir xil faoliyat bilan shug'ullanadigan, ma'lum mansab vazifasini bajaradigan rahbarning mehnatini oddiy mutaxassisning mehnati bilan bir xil deb hisoblab bo'lmaydi. Chunki rahbar bajaradigan ish serqirra va turli-tumandir.

Rahbarning mehnatini faqat aqliy mehnat desak, u yetarli bo'lmaydi. Rahbar har xil ma'muriy-tashqiliy echimlarni qidirish jarayonida muxandis-texnik xodimlar, ixtirochilar bilan birga ijodiy mehnat bilan ham shug'ullanadi.

Rahbar tarbiyaviy ishlarni amalga oshirganda uning pedagoglik faoliyati namoyon bo'ladi.

Odatda rahbarlar har xil mehnatni ketma-ket bajarmasdan, balki parallel ravishda bajaradilar. Bu rahbarning tashkilotchilik, tarbiyaviy va boshqa ishlarini birga olib borganida ko'rinib turadi. Rahbar mehnatining mazmunini aniqlash uning har qaysi turdagi faoliyati mazmunini tahlil qilishdan kelib chiqadi.

Rahbarning ma'muriy-tashqiliy va tarbiyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ishni turt turga bo'lish mumkin:

1. Xizmatchi – bu og'zaki axborotni qabul qilish va uzatishni bildiradi.
2. Boshqaruvchi - qarorlarni ijrochilarga yetkazish.
3. Muvofiklashtiruvchi - boshqaruv obyektining tarkibiy qismlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash.
4. Nazorat-baholovchi - qarorlarning ijrosini nazorat qilish jamoa va uning a'zolari ishiga baho berish, rag'batlantirish va jazolash.

Boshqaruv obyekti bo'lgan korxonalar (sex, uchastka)larning oldiga kuyilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarilishida eng muhim masalalarni tayyorlashda va ularni zudlik bilan xal etishda,

zarur qarorlarni qabul qilishda rahbarning ijodiy bilimi alohida ahamiyatga egadir.

Bu yechimlar ko'rilayotgan masalalarga, savollarga ko'ra texnik, tashqiliy-iqtisodiy va boshqa harakterlarga ega bo'lishi mumkin.

Masalalarni yechish yo'lini kidirib topish ikki xil- analitik va konstruktiv jarayonlardan iborat.

Birinchisi – axborot olish, uni bilish, tushunish, o'kish, masalan, xujjatlar, adabiyotlar va u yoki bu obyekt hamda jarayonlar bilan bevosita tanishib chikish.

Ikkinchisi - o'tkazilgan tahlilga asosan zarur qarorlarni ishlab chiqish va qabul etish.

Rahbar ishining mazmuni, uning ishlab chiqarish jamoasini boshqarishda bajaradigan vazifasi bilan aniqlanadi.

Rahbar bevosita ishlab chiqarishni tayyorlash va unga xizmat ko'rsatish, korxonani yuqori sifatli xom ashyo bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni tezkor boshqarish va uni muvofiklashtirish, moliyaviy vositalar bilan ta'minlash, jamoaning ijtimoiy rivojlanishini boshqarish va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarishda ishtirok etadi.

Rahbarning faoliyati – bu rahbarlik vazifasini amalga oshirish asosida ishlab chiqarish va mehnat jamoalariga maqsadli rahbarlik qilish jarayonidan iborat bo'lib, davlat mehnat jamoalarini va ishchi shaxsni yagona maqsadga erishishini ta'minlashdir.

Rahbarlikning umumiy vazifalari – rejalashtirish, uyushtirish, tartibga solish, nazorat va hisob-kitob qilishdir.

Rejalashtirish. Bu boshqaruv obyektini rivojlantirish uchun uning maqsadini aniqlash va unga rishish uchun zarur vositalarni hamda rejali ish harakatlarini tuzishdir. U o'z ichiga boshqaruv obyektlarining kelajakda rivojlanishini bashorat qilish va uni zamonaviylashtirish ishlarini oladi.

Uyushtirish. Bu ishlab chiqarish obyektini va boshqaruv tizimini tanlash, ularni tuzish va tizimning tuzilishi birliklari orasidagi nisbatini va ularning o'zaro munosabatlarini aniqlashdan iborat.

Tartibga solish. Bu boshqaruv obyektini ishlash jarayonida reja topshiriklaridan chetga chikish hollarini bartaraf etish uchun tizimning har xil bug'inlari orasidagi zarur nisbatni ushlab turishga karatilgan.

Nazorat - baholovchi ishlab chiqarish jarayonining borishini kuzatish va uning rivojlanishining ishlab chiqilgan rejaga muvofiqligini tekshirishdan iboratdir.

Hisob-kitob qilish, ya'ni reja ko'rsatkichlarining bajarilishini tekshirish. Hisob yakuniy axborotni to'plashga va uni tahlil qilishga yordam beradi. SHuningdek, u axborot manбайдan foydalanib, tizimning kelajakdagi harakat dasturini ishlab chikishga imkon yaratadi. Bu vazifalarning mohiyati va ulardan to'g'ri foydalanish mehnat jamoalariga muvaffakiyatli rahbarlik qilishning garovidir.

Har qanday boshqaruv tizimi korxonaga, sex, bo'lim bir-biri bilan uzviy boglangan obyekt va subyektdan tashkil topgan bo'ladi. Rahbar — yakka boshchi sifatida subyektni bevosita boshqarishda o'z qo'l ostidagilar faoliyati uchun yuqori rahbarlar oldida javobgar shaxsdir.

Rahbarning tutgan o'rni va roli korxonaning boshqaruv tizimidagi vazifasining turiga bog'liq bo'ladi. Bu belgiga ko'ra rahbarlik muntazam va funksional turlarga bo'linadi.

Birinchisiga ustalar, katta ustalar, uchastka boshliqlari, sex boshliqlari, ishlab chiqarish rahbarlari, korxonaga direktorlari, birlashmalarning bosh direktorlari kiradi.

Ikkinchisiga — funksional tuzilishlarning bo‘limlari va xizmatlari kiradi. Masalan, iqtisodiy-rejalashtirish bo‘limi, mehnatni, ish haqini tashkil qilish bo‘limi, bosh mexanika, energetika bo‘limi va boshqa bo‘limlar shular jumlasidandir.

Muntazam ishlaydigan rahbarlar vazifasiga korxonalar yoki uning bo‘linmalari oldiga kuyilgan topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun uning ixtiyorida barcha resurslar majmuasiga har tomonlama muvofiklashtirilgan holda ta‘sir etish kiradi. Shuning uchun muntazam rahbarlikning qarorlari dasturiy xususiyatga ega bo‘lib, funksional rahbarlikdan farqi shuki, ular qabul qiladigan qarorlar faqat muntazam rahbarlik roziligiga asosan kuchga kiradi.

Rahbarning ishlab chiqarishda egallagan joyi va roli boshqaruv darajasiga bog‘liq. Rahbarlikning harakteri boshqaruvning turli darajalarida har xildir.

Shunday qilib, korxonalar, birlashma miqyosida boshqaruv oliy darajali boshqaruv bo‘lib, korxonalar, birlashma rejalarini va ishlarini uyushtirish bo‘yicha rahbarlikni amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish bo‘limlari va sexlarini boshqarish o‘rtacha darajadagi boshqarishga kiradi. Bunda korxonalar direktori tomonidan sexga belgilangan rejalarini, topshiriqlarni bajarish bo‘yicha tezkor rahbarlik ta‘minlanadi.

Pastki darajadagi boshqaruvga ishlab chiqarish uchastkalarini boshqarish kiradi. Bunda ishlab chiqarish jarayonlarini bajarish bo‘yicha bevosita ishchilarga rahbarlik qilinadi. Demak, barcha darajalarda ma‘lum vazifalar xal qilinadi. Korxonalar faoliyatiga taalluqli istiqbol qarorlar, muhim masalalar, muammolar oliy darajadagi rahbarlikda ko‘riladi. Ishlab chiqarishga taalluqli muayyan muammolar esa pastki va o‘rta darajalarda xal qilinadi.

Rahbar mehnatining mazmuni va harakteri uning ishlab chiqarishda tutgan o‘rni va roli bilan belgilanadi. Lekin u korxonalar, sex, uchastkaning boshqaruv tuzilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bunday hol funksional boshqaruv apparati mavjud bo‘lgan korxonalarining direktorlari va ularning muovnlari, ishlab chiqarish va sex rahbarlariga xosdir.

Boshlang‘ich ishlab chiqarish jamoalari rahbari mehnatining mazmuni uning tutgan o‘rni va roli, shuningdek rahbarning vazifasi, huquqi, burchi, mas‘uliyati bilan anivdanadi.

Boshlang‘ich jamoani boshqarish jarayonida rahbarlar o‘z lavozimlariga mos qonun-qoida, nizom, yuriqnoma va boshqa xujjatlardan foydalanadilar. Mashinasozlik korxonalarida boshlang‘ich jamoalarning uchastka va bo‘limlarini usta va katta usta boshqaradi. Koidaga asosan bularning ishi, vazifasi aniq, bir-biridan chegaralangan bo‘lishi shart. Lekin ba‘zi bir paytlarda ishlab chiqarishda usta va katta ustaning vazifalari aniq chegaralanmaganligi sababli ma‘lum chalkashliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Masalan, katta usta, kichik ustaning ishiga aralashib, bevosita ishchilarga buyruq berishi, bundan ishchilar taajjublanib kimning topshirig‘ini bajarishni bilmasdan, natijada berilgan topshiriklar o‘z vaqtida bajarilmasligi mumkin. Bu esa ishlab chiqarishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ustaning vazifasi o‘z qo‘li ostidagi ishchilarga bevosita topshirik berish va uni vaqtida bajarilishini talab qilishdan iborat. Katta ustaning vazifasi esa o‘z bo‘limidagi ustalarni boshqarish va ularning ishini muvofiqlashtirishdir. SHuning uchun har bir rahbar o‘zining vazifasini to‘liq, chegaradan chiqmasdan, xalol va vijdonan bajarishi shart. SHundagina ishlab chiqarishda rahbarlar ko‘zlagan maqsadlariga erishishi mumkin.

Ba‘zi bir jamoa rahbarlari faqat bugungi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash ustida bosh qotiradilar, lekin ishlab chiqarishning kelajak natijalari ularni qiziqitirmaydi. Rahbarlar shuni yaxshi bilishi zarurki, agar ishlab chiqarishning kelajak muammolariga o‘z

vaqtda ahamiyat berilmasa, unda hozirgi vaqtda sexlarda, uchastkalarda yaxshi iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish mumkin bo'lmaydi. SHuning uchun ishlab chiqarishda usta, sex boshlig'i va boshqa rahbarlar istiqboldagi muammolarni, ilg'or mehnat usullarini qidirib topishi, ixtirochilik ishlarini ishlab chiqishi va ularni joriy qilishi, ishchilar malakasini, bilim saviyasini ko'tarishni yaxshi bilishi va uni amalga oshirishi kerak. SHuningdek, rahbar xodimlar o'zlarining xususiy malakasini oshirib turishi, bozor munosabatlarini yaxshi tushunishi, iqtisodiy bilim darajasini kutarishi zarur. Faqat shundagina ishlab chiqarish jamoalarini samarali boshqarish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan deb ishonch xosil qilish mumkin bo'ladi.

REFERENCES

1. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 333-340.
2. Shadiyev, A. (2022). O 'QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI O 'QITISHNING INNOVATSION USULI SIFATIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 13(13).
3. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). "РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ" ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
4. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 582-586.
5. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 450-454.
6. Khalilov Bahromjon Bahodirovich. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 746-750.
7. Raxmonqulova, N. (2023). DEVELOPMENT STRATEGY IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(12), 301-305.
8. Abdulloev, A. J., & Rakhmankulova, N. O. THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP CONCEPT.
9. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI SOHASIDAGI TADBIRKORLIK RIVOJIDA DAVLATNING O'RNI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 73-76.
10. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 23-28.
11. Рахманкулова, Н. (2023). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОНАЛЬНОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 168-170.
12. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.

13. To'rayevna, S. N. (2023). DEMOKRATIYA VA IQTISODIYOT O'RTASIDAGI MUNOSABAT" SIYOSIY SHAXS" NAZARIDAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 387-394.
14. To'rayevna, S. N. (2023). YETAKCHILIK USLUBI SIFATIDA MURABIYOTDAN FOYDALANISH MENEJERLARNI TAYYORLASH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 399-408.
15. Toshov, M. (2023). FORMATION OF PRINCIPLES HR (HUMAN RESOURCE) BASED ON KEY INDICATORS (KPI). *Modern Science and Research*, 2(12), 477–482.
16. Toshov, M. (2023). CREATIVE ECONOMY: ESSENCE AND STRUCTURE. *Modern Science and Research*, 2(12), 499-505.
17. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470–476.
18. Очилов, Ш. Б., & Жумаева, З. К. (2017). Основные направления развития инноваций в республике Узбекистан. *Инновационное развитие*, (6), 45-47.
19. Жумаева, З. К., & Тошев, Ф. З. (2017). Пути дальнейшего совершенствования привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. *Инновационное развитие*, (4), 66-68.
20. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
21. Nargiza , N. . (2023). THE ROLE OF PROPERTY RELATIONS IN SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(12), 889–893.
22. Ibdulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
23. Ibdulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
24. Ikromov , E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107–1111.
25. Jumayeva, Z. (2023). BASICS OF NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(12), 296–300.
26. Bustonovna, J. Z. (2023). PECULIARITIES OF THE AGRICULTURAL ECONOMY IN THE COUNTRIES OF THE EUROPEAN UNION. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1256-1260.
27. Abidovna, A. S. (2023). MONTE CARLO MODELING AND ITS PECULIARITIES IN THE IMPLEMENTATION OF MARKETING ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 375-380.
28. Abidovna, A. S. (2023). PRIORITY DIRECTIONS OF ANALYSIS OF CHANNELS OF PROMOTION OF THE MAIN ACTIVITY OF THE ENTERPRISE AND SEPARATE COMMUNICATION PROGRAMS. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 369-374.
29. Malikov T.S, Olimjonov O.O Moliya darslik-T "Iqtisod-moliya", 2019 125 b.
30. Vahobov.A.V, Jo'rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. *Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya.* 2018.-408 b.

31. E.Gadoev, N.Kuzieva. Jismoniy shaxslani soliqqa tortish. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. TDIU, Iqtisodiyot. 2019 y. 430 b

АССА И ВАЖНОСТЬ ЕГО РАСПРОСТРАНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Намозова Мафтуна Уткировна

Ташкентский финансовый институт, 3-курс, группа БИА-40
namozova.maftuna2004@gmail.com +998977333855

Бабаева Гузал Яшиновна

Научный руководитель, доцент кафедры «Банковский учет и аудит»

babaeva-guzal@mail.ru +998935634083

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10573262>

Аннотация. Современная бухгалтерия и финансы становятся все более сложными и требуют высокой квалификации профессионалов для обеспечения устойчивого развития бизнеса и экономики. В этом контексте, аккредитованный бухгалтер (АССА) представляет собой одну из ключевых фигур, способных обеспечить качественное финансовое управление. Именно в этом свете становится актуальным исследование важности распространения и внедрения квалификации АССА в Узбекистане.

Ключевые слова: Профессиональная аккредитация, финансовая сфера, экономический анализ, квалификация АССА, учебные программы, корпоративное финансирование, управление рисками, образовательные учреждения, бухгалтерский учет, экономическое развитие, экономическая интеграция, бухгалтерская практика, структуры АССА, профессиональные стандарты, финансовое управление.

ACCA AND THE IMPORTANCE OF ITS DISSEMINATION IN UZBEKISTAN

Abstract. Modern accounting and finance are becoming increasingly complex and require highly qualified professionals to ensure sustainable business and economic development. In this context, an accredited accountant (ACCA) is one of the key figures capable of providing high-quality financial management. It is in this light that the study of the importance of the dissemination and implementation of ACCA qualifications in Uzbekistan becomes relevant.

Keywords: Professional accreditation, financial sphere, economic analysis, ACCA qualification, training programs, corporate finance, risk management, educational institutions, accounting, economic development, economic integration, accounting practice, ACCA structures, professional standards, financial management.

Целью данного исследования является анализ важности распространения и внедрения квалификации АССА в Узбекистане, а также выявление влияния этой профессиональной аккредитации на финансовую сферу и экономику страны. Для достижения этой цели были сформулированы следующие задачи: оценивание текущего распространения АССА в Узбекистане, выявление факторов, способствующих или препятствующих его росту, и рекомендации для эффективного распространения этой ассоциации среди местных кадров.

Актуальность данной исследовательской работы проявляется в современном контексте, где финансовая сфера и бухгалтерия становятся все более сложными и требуют высокой квалификации профессионалов для обеспечения стабильности бизнеса и экономики. В Узбекистане, как и во многих других странах, растет необходимость в квалифицированных аккредитованных бухгалтерях (АССА), способных обеспечить эффективное финансовое управление и соблюдение международных стандартов.

Следовательно, исследование важности распространения и внедрения квалификации АССА в Узбекистане является актуальным, так как оно может пролить свет на важные вопросы в области образования и бухгалтерской практики, а также оценить влияние этой профессиональной аккредитации на экономическое развитие страны.

Британская ассоциация сертифицированных присяжных бухгалтеров, объединяющая профессионалов в области финансов, учета и аудита (англ. Association of Chartered Certified Accountants сокр. АССА) — это глобальная ассоциация профессионалов в области финансов, учета и аудита, регулируемая королевской хартией. Ассоциация наделена Управлением по регулированию квалификаций и экзаменов (Ofqual правом выдачи профессионально-технических квалификаций. Ассоциация объединяет 208 000 членов и 503 000 студентов в 178 странах. Штаб-квартира АССА находится в Лондоне с главным административным офисом в Глазго. АССА работает через сеть из более чем 104 офисов и центров в 52 странах — с 323 утверждёнными партнерами по обучению (ALP) и более чем 7300 утвержденными работодателями по всему миру, которые обеспечивают развитие сотрудников. Является членом Международной федерации бухгалтеров. Учебная программа АССА легла в основу глобальной учебной программы Организации Объединенных Наций под названием Руководство по национальным требованиям к квалификации профессиональных бухгалтеров.

«Дипломированный сертифицированный бухгалтер» является охраняемым законом термином. Лица, которые называют себя дипломированными сертифицированными бухгалтерами, должны быть членами АССА и, если они практикуют в поле деятельности, подпадающем под юрисдикцию АССА, должны соблюдать дополнительные правила, такие как наличие сертификата о прохождении практики, страхование гражданской ответственности и сдача инспекций. АССА также лицензирует управляющих в деле о несостоятельности в Великобритании.

Квалификация АССА призвана обеспечить профессиональные знания, умения и навыки, а также профессиональные ценности в области финансов, бухгалтерского учета и аудита по МСФО (Международные Стандарты Финансовой Отчётности). Наличие квалификации АССА помогает финансовым специалистам в построении успешной карьеры в любой области: они могут работать в государственном или частном секторе, бухгалтерской фирме, иностранной компании или заниматься собственным бизнесом.

Квалификационные экзамены АССА¹⁵¹:

Уровень	Экзамены
Базовый уровень	F1 Бухгалтер и Бизнес
	F2 Управленческий учет

¹⁵¹ Квалификация АССА: все, что вы хотели о ней узнать – МСФО на практике № 2, Август 2011 (msfo-practice.ru) <https://msfo-practice.ru/285068>

Уровень	Экзамены
	F3 Финансовый учет
	F4 Корпоративное право
	F5 Управление эффективностью
	F6 Налогообложение
	F7 Финансовая отчетность
	F8 Аудит и сопутствующие услуги
Профессиональный уровень	P1 Корпоративное управление, риск и этика
	P2 Корпоративная отчетность
	P3 Анализ бизнеса
	Экзамены на выбор (два из четырех)
	P4 Финансовый менеджмент
	P5 Управление эффективностью
	P6 Налогообложение
	P7 Аудит и сопутствующие услуги

Квалификация АССА призвана обеспечить профессиональные знания, умения и навыки, а также профессиональные ценности в области финансов, бухгалтерского учета и аудита по МСФО (Международные Стандарты Финансовой Отчётности). Наличие квалификации АССА помогает финансовым специалистам в построении успешной карьеры в любой области: они могут работать в государственном или частном секторе, бухгалтерской фирме, иностранной компании или заниматься собственным бизнесом.

Согласно постановлениям Президента Республики Узбекистан от 12 сентября 2017 года №ПП-3270 «О мерах по дальнейшему развитию и повышению устойчивости банковской системы Республики» и от 24 февраля 2020 года №ПП-4611 «О дополнительных

мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности», обучение сотрудников банков по международной программе подготовки бухгалтеров «АССА» (Сертифицированный присяжный бухгалтер) внесена в Комплекс мероприятий (Приложение №1 первого приказа, пункт 45) предусмотренных для проведения банками начиная с 2018 года. Данный комплекс внесён в Стратегию действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. В пункте 30 данного постановления придается большое значения разработке коммерческими банками долгосрочных стратегий развития, направленных на качественную трансформацию банков в финансово стабильные и конкурентоспособные банковские учреждения, функционирующие на основе передовой практики и международных стандартов.

Также весомым выигрышем обучения по программе АССА считается освоение международных стандартов аудита (МСА) и финансовой отчетности (МСФО), что подготавливает выпускников к работе по этим стандартам на профессиональном уровне. Данная тенденция выполняет задачи, описанные в Постановлении Президента РУз от 19 сентября 2018 года (ПП-3946), «О мерах по дальнейшему развитию аудиторской деятельности в Республике Узбекистан».

«2020 год - переходный период для субъектов предпринимательства по подготовке к применению МСФО (обучить специалистов по МСФО, разработать учетную политику, проанализировать соответствие ИТ-систем для подготовки отчетности по МСФО, а также оценить готовность бизнеса к изменению в соответствии с требованиями МСФО).

С 1 января 2021 года определенный перечень юридических лиц, представляющих общественный интерес (акционерные общества, коммерческие банки, страховые организации и юридические лица, отнесенные к крупным налогоплательщикам) переходят на обязательное применение МСФО. Данные лица до окончания 2021 года должны обеспечить достаточную для качественного применения МСФО численность работников бухгалтерских служб не менее 3 специалистов.»

Из документа «Внедрение международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) в Узбекистане»,

-Министерство финансов Республики Узбекистан.

Министерством финансов совместно с представителями профессионального сообщества ведутся переговоры с Международной ассоциацией присяжных сертифицированных бухгалтеров (Association of Chartered Certified Accountants — АССА, Великобритания) по распространению успешной мировой практики подготовки специалистов в области МСФО, включающей поэтапную международную аккредитацию негосударственных образовательных организаций по переподготовке и повышению квалификации в области бухгалтерского учета и аудита (учебные центры) и учебных программ профильных высших образовательных учреждений. По результатам проведенной работы планируется подписание Меморандума о взаимопонимании между Министерством финансов Республики Узбекистан, Палатой аудиторов Узбекистана и Ассоциацией присяжных сертифицированных бухгалтеров (АССА), включающего реализацию совместного плана действий по подготовки кадров в рамках международной сертификации бухгалтеров

В условиях стремительно развивающейся экономики современного мира, где бухгалтерия и финансы играют ключевую роль в обеспечении устойчивого экономического роста, открытие официального офиса Association of Chartered Certified Accountants (ACCA) в Узбекистане становится стратегически важным событием. В отличие от соседних стран, включая Казахстан, где уже успешно функционирует официальный офис ACCA, а также центры, Узбекистан в настоящее время лишен этой привилегии.

Несколько аспектов, подчеркивающих важность открытия официальных офисов и центров ACCA в Узбекистане:

1. **Профессиональная аккредитация и качество финансового управления:** Официальное присутствие ACCA в Узбекистане будет способствовать повышению профессионализма в сфере бухгалтерии и финансов. Обладание квалификацией ACCA признается мировым стандартом в области финансового управления, что в свою очередь способствует повышению качества финансовых практик и обеспечивает соответствие высоким международным стандартам.

2. **Экономическое развитие и привлечение инвестиций:** Присутствие ACCA может стать дополнительным стимулом для развития экономики Узбекистана. Открытие официальных офисов и центров позволит создать экосистему, способствующую обмену знаниями и опытом между местными и мировыми экспертами. Это, в свою очередь, сделает страну более привлекательной для иностранных инвестиций и способствует созданию более устойчивой и конкурентоспособной экономики.

3. **Образование и профессиональный рост:** Официальные офисы ACCA предоставят узбекским студентам и профессионалам возможность получить квалификацию мирового уровня без необходимости выезда за границу. Это стимулирует профессиональный рост местных кадров, делая их конкурентоспособными на мировом рынке труда.

4. **Стимулирование инноваций и лучших практик:** Открытие официальных офисов ACCA в Узбекистане содействует притоку современных методологий, инноваций и лучших практик в области бухгалтерии и финансов. Соответственно, создание центров ACCA способствует развитию новых подходов к управлению финансами, необходимых для адаптации к быстро меняющемуся бизнес-окружению.

Заключение

В завершение исследования о важности распространения Association of Chartered Certified Accountants (ACCA) в Узбекистане, становится ясным, что эта профессиональная аккредитация имеет потенциал стать ключевым катализатором для подъема качества финансового управления и развития экономики страны.

Современная бухгалтерия и финансы, становясь все более сложными, требуют наличия высококвалифицированных специалистов. ACCA, как мировой стандарт в области бухгалтерии и финансов, предоставляет возможность для обучения и сертификации кадров, что в свою очередь способствует повышению профессионализма в сфере.

Открытие официальных офисов и центров ACCA в Узбекистане предоставит местным студентам и профессионалам уникальную возможность получения мирового образования и квалификации, не выезжая за границу. Это будет способствовать не только поднятию образовательных стандартов в стране, но и укреплению позиций узбекских профессионалов на глобальной арене труда.

Помимо образовательных аспектов, присутствие АССА в Узбекистане сможет стать мощным импульсом для экономического развития. Экспертиза и стандарты, предоставленные АССА, будут служить основой для повышения качества финансового управления в бизнес-среде, что в конечном итоге может привести к привлечению инвестиций и созданию более конкурентоспособной экономики.

Таким образом, распространение АССА в Узбекистане не только соответствует современным требованиям в области образования и профессионализма, но и предоставляет стратегическую возможность для устойчивого экономического роста и развития страны в глобальном контексте.

REFERENCES

1. ПП-4611-сон 24.02.2020. О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности (lex.uz) <https://lex.uz/docs/4746049?ONDATE=31.10.2020>
2. Официальный сайт АССА: Home | ACCA Global <https://www.accaglobal.com/gb/en.html>
3. British council: АССА на компьютере по запросу | British Council <https://www.britishcouncil.uz/ru/exam/acca/on-demand>
4. IBS - International Business Studies (ibs-tashkent.uz) <https://www.ibs-tashkent.uz/acca.php>
5. Институт ISFT об АССА- Ассоциация Присяжных Сертифицированных Бухгалтеров <https://isft.uz/ru/acca>
6. Эксперты АССА рассказали, какие навыки необходимы финансистам – Новости Узбекистана – Газета.uz (gazeta.uz) <https://www.gazeta.uz/ru/2021/11/11/acca/>
7. Официальный сайт АССА: ACCA Learning - Dashboard page (accaglobal.com) https://learning.accaglobal.com/ilp/pages/external-dashboard.jsf?menuId=1104&locale=enGB&_gl=1*sbzwcw*ga*MjAxODEzNzQ3NS4xNjk4OTUxMDE5*gaJ7W3P5MX6E*MTcwMTc2NDc3My4xLjEuMTcwMTc2NDc4Ni4wLjAuMA..#/?dashboardId=6
8. ПП-3946-сон 19.09.2018. О мерах по дальнейшему развитию аудиторской деятельности в Республике Узбекистан (lex.uz) <https://lex.uz/ru/docs/3914504>
9. Квалификация АССА: все, что вы хотели о ней узнать – МСФО на практике № 2, (msfo-practice.ru) <https://msfo-practice.ru/285068>
10. АССА — Википедия (wikipedia.org) <https://ru.wikipedia.org/wiki/АССА>

KO`RISHIDA NUQSONI BO`LGAN SHAXSLARGA TAVSIYA ETILADIGAN KASB-HUNARLAR

Xusnuddinova Zulayho

CHDPU Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrası o`qituvchisi

To`rayeva Jasmina

CHDPU Pedagogika fakulteti

Maxsus pedagogika: tiflopedagogika 2-bosqich talabasi

Raximova Durdona

CHDPU Pedagogika fakulteti

Maxsus pedagogika: tiflopedagogika 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10573377>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko`zi ojiz shaxslarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda egallashi mumkin bo`lgan kasblar hamda ularning afzalliklari to`g`risida so`z yuritilgan.

Bundan tashqari, ko`zi ojiz o`spirin yoshlarning kasb tanlashda nimalarga ahamiyat berishi lozimligi bayon etilgan.

Kalit so`zlar: ko`rishida nuqsoni bor shaxslar, kasbiy imkoniyat, massaj terapevti, qo`l barmoq uchi sezgisi, dasturchi, musiqachi, tiflopedagog.

PROFESSIONS RECOMMENDED FOR PERSONS WITH VISUAL IMPAIRMENT

Abstract. This article discusses the professions that blind individuals can acquire based on their capabilities, as well as their benefits. In addition, it is described what a blind teenager should pay attention to when choosing a profession.

Keywords: persons with visual impairment, professional opportunity, massage therapist, hand fingertip sensation, programmer, musician, tiflopedagog.

ПРОФЕССИИ, РЕКОМЕНДУЕМЫЕ ЛЮДЯМ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ

Аннотация. В этой статье рассматриваются профессии, которыми могут заниматься слепые люди, исходя из их возможностей, а также их предпочтений. Кроме того, в нем объясняется, на что следует обращать внимание слепым подросткам при выборе карьеры.

Качество слова: лица с нарушениями зрения, профессиональные возможности, массажист, ощущение кончика пальца руки, программист, музыкант, тифлопедагог.

Ko'zi ojiz odamlar jismoniy jihatdan nuqsoni borligi tufayli kasb-hunar tanlashda cheklangan. Shunga qaramay, ko'zi ojiz odam o'zini rivojlantirishi va o'z qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi uchun yetarli kasblar mavjud. Aslida, ko'zi ojiz odam deyarli har qanday gumanitar kasbni egallashi, matematik, iqtisodchi, moliyachi bo'lishi mumkin. Faqat ish bilan ta'minlash masalasi og'riqli tomonlardan biridir...

Ko'zi ojizlarning kasbiy imkoniyatlari nafaqat ularning jismoniy va aqliy salohiyatlariga, balki ta'limga ham bog'liq. Agar ko'zi ojiz kishi universitetni yuridik, pedagogik mutaxassislik bo'yicha tugatgan bo'lsa, u tegishli sohada ishlashi mumkin.

Ko'zi ojiz odam muvaffaqiyatli shug'ullanishi mumkin bo'lgan kasbiy faoliyat turlari, agar tegishli istak bo'lsa, o'zini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yetarli. Ular eshitish, vosita va taktil analizatorlarning maksimal ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan kasblarni o'z ichiga oladi. Bular,

birinchi navbatda, *massaj terapevti, musiqachi, tiflo-nashriyot majmuasi xodimi, qadoqlovchi, tiflopedagog* va boshqalar. Shubhasiz, yuqoridagi kasblarni o'zlashtirish uchun qo'shimcha kasb-hunar ta'limi olish yoki hech bo'lmaganda maxsus kurslarni o'tash kerak. Biroq, bu yerda ham uydan tashqarida mustaqil harakatlanish va zamonaviy texnik vositalardan erkin foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish juda muhimdir. Albatta, ko'zi ojiz odamlar uchun mavjud bo'lgan faoliyat yo'nalishlari ro'yxati yuqorida ko'rsatilgan kasblar bilan cheklanmaydi.

Amalda ko'rish qobiliyati cheklangan ko'plab nogironlar, mavjud cheklovlarga qaramay, maktablar, universitet va kollej o'qituvchilari, turli ommaviy axborot vositalari jurnalistlari va muharrirlari, tarjimonlar, yuristlar, menejerlar va hatto dasturchilar sifatida ishlashga qodir ekanliklarini isbotlaganlar. Ko'pgina mutaxassislarining fikriga ko'ra, so'nggi pozitsiyaning orqasida, umuman olganda, porloq kelajak bor, chunki IT sohasi endi tobora kuchayib bormoqda. Moliya sektoridagi ba'zi muassasalar o'zlarining barcha mahsulotlarini maxsus foydalanuvchilar uchun iloji boricha qulayroq qilishga intilib, bugungi kunda ko'zi ojiz sinovchilarni ish bilan ta'minlamoqda. Albatta, bu holda ko'p narsa dasturlar tomonidan yaratilgan ma'lumotlar bazalari va boshqalar bilan o'zaro ta'sir qilish jarayonining moslashuv darajasiga bog'liq.

Darhaqiqat, ko'rish qobiliyati cheklangan odamlar juda ko'p turli sohalarida ishlashadi, hozirda ko'zi ojizlar uchun ixtisoslashgan ro'yxat yoki kasblar tanlovi mavjud emas. Ko'zi ojizlar uchun aniq kasblar mavjud bo'lmasa-da, ko'rish qobiliyati past bo'lganlar uchun boshqalarga qaraganda tez-tez mos keladigan ba'zi sohalar mavjud.

Massajchi. Ko'zi ojiz odamlar eng yaxshi massaj terapevtlari bo'lishi mumkin. Ularning ko'rish qobiliyati yo'qligi yoki zaiflashganligi sababli, bunday odamlarda qo'l barmoq uchi sezgilari kuchayadi. Ular tanadagi eng kichik bukchayishni, kuchlanishni qo'llari bilan sezadilar va massaj yordamida davolashadi. Ko'zi ojiz massaj terapevti klinikada ishlashi yoki xususiy amaliyot bilan shug'ullanishi mumkin.

Ko'zi ojiz massaj terapevtlari dunyoning ko'plab mamlakatlarida mashhur. Yaponiya va Xitoyda bu nafaqat eng mashhur, balki ko'rish qobiliyati buzilgan odamlar qila oladigan yagona faoliyatdir.

Ushbu kasbning muhim afzalligi shundaki, uni balog'at yoshida ko'rish qobiliyatini yo'qotgan odam, shuningdek, maktabda mukammal o'qish bilan maqtana olmaydigan va oliy ma'lumot olishni istamaydigan ko'zi ojiz shaxslar egallashi mumkin.

Lekin ko'zi ojiz shaxs uchun massaj terapevtining mutaxassisligini o'zlashtirish oson emas, chunki u anatomiya, farmakologiya va massajning har xil turlarini o'rganishi kerak bo'ladi. Bu juda oddiy bo'lib tuyulsa-da, lekin juda murakkab. Afsuski, ko'zi ojiz odamlar tibbiy muassasalarda ishlashga tayyor emaslar. Ko'zi ojiz xodimlarni ish bilan ta'minlash boshqa bir jismoniy jihatdan sog'lom xodimning zimmasiga yangi vazifalar yuklanishiga olib keladi. Chunki ko'zi ojiz xodim hujjatlarni to'ldirolmaydi, bemorlarning tibbiy kartalari bilan tanisha olmaydi. Bu ishlarni amalga oshirishda unga yordamchi zarur.

Ha, biz kompyuter asriga kirdik, lekin aksariyat muassasalarda hujjatlar hali ham qog'oz, bundan tashqari, bosma emas, balki qo'lda yozilgan.

Shuning uchun, kimdir ko'zi ojiz mutaxassisga qog'ozdagi ma'lumotni o'qishi, jurnallarni to'ldirishda yordam berishi kerak.

Musiqachi. San'at sohasida ishlash - bu ko'plab yo'llarni o'z ichiga olgan ijodiy martaba, ularning aksariyati ko'rishni talab qilmaydi yoki mos uskunalar bilan osongina moslashtirilishi

mumkin. Masalan, qo'shiqchi yoki asbob chalayotgan kishi kabi musiqachi bo'lish uchun umuman ko'rish kerak bo'lmasligi mumkin. Ushbu sohada ko'zi ojiz odam asbobni chalishda teginish tuyg'usiga tayanadi hamda tovushlar, ohanglar va balandliklar uchun o'tkir eshitish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Ma'lumki, ko'rishning yetishmasligi nafaqat qo'l barmoq sezgisini, balki eshitish qobiliyatini ham kuchaytiradi. Shuning uchun ko'zi ojiz odamlar orasida ko'plab iste'dodli musiqachilar bor. Ulardan ba'zilari butun dunyoga mashhur. Masalan, Stivi Uonder, Rey Charlz.

Eshitish qobiliyati va ovozi yaxshi, musiqiy ma'lumotga ega bo'lgan ko'zi ojiz odam qo'shiqchi, bastakor, ijrochi yoki musiqa o'qituvchisi sifatida o'z kasbini topishi mumkin.

Dasturchi. Texnologiyaning barcha yutuqlari tufayli ko'rish qobiliyati zaif odamlar endi texnologiya sohasiga kirishni ancha osonlashtirmoqda. Bunga kodlash, muhandislik yoki dasturiy ta'minotni ishlab chiqish kabi sohalarda ishlash kiradi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi yaxshi rivojlanmoqda. Ko'zi ojizlar uchun esa kompyuterni ko'rish qobiliyatiga ega odamlar bilan teng ravishda ishlatishga imkon beradigan juda ko'p sonli qurilmalar mavjud. Bu ko'zi ojiz odam dasturchi, sinovchi, tizim ma'muri va IT sohasidagi boshqa mutaxassisga aylanishi mumkinligini anglatadi. Bunday mutaxassisliklarning katta afzalligi shundaki, bu sohada uyda masofadan turib ishlash mumkin. Bu ko'rishida nuqsoni bo'lgan odamning hayotini osonlashtiradi va boshqa shaharda, hatto mamlakatda ish topish imkoniyatini oshiradi.

O'qituvchi. Ko'pincha, ko'zi ojiz bolalar uchun maxsus maktablarda shunga o'xshash muammolarga duch kelgan o'qituvchilar ishlaydi. Ular ko'rish qobiliyatiga ega o'qituvchilardan ko'ra o'z o'quvchilarining muammolarini yaxshiroq tushunishadi, maxsus bolalar uchun qaysi o'qitish usullari eng samarali bo'lishini o'z tajribalaridan bilishadi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2022 yildagi PQ-209-son qaroriga muvofiq boshlang'ich sinflarga ko'zi ojiz o'qituvchi dars berolmaydi.

Yuqori texnologiyalarning rivojlanishi bilan, bir necha o'n yillar oldin o'ylash mumkin bo'lmagan kasblar ko'zi ojiz odamlarga taqdim etildi. Ba'zilar uchun ko'zi ojizlar hatto oliy ma'lumot olishi shart emas, faqat kurslarni o'tashi yoki hatto mustaqil ravishda ko'nikmalarni o'rganishi kerak. Masalan, **dasturchi, kopirayter, dekoder, SMM mutaxassisi, sayt ma'muri** yoki **ijtimoiy tarmoqlardagi jamoalar, qo'ng'iroq markazi operatori**.

Ko'zi ojiz odam uchun mavjud bo'lgan kasblarni tanlash cheksiz emas. Ko'rishida nuqsoni borlar hali ham jarroh, yuk mashinalari haydovchisi, veterinariya shifokori bo'la olmaydi va qila olmaydi.

Ko'zi ojiz odam o'ziga yoqmaydigan mutaxassislikni olgan bo'lsa ham, umidsizlikka tushmasligi kerak.

Ko'zi ojiz o'spirin uchun kelajakdagi kasbni tanlashda asosiy narsa uning o'z xohishi va u bilan bog'liq barcha masalalarni qanday hal qilishi haqidagi g'oyasi: o'quv materialini o'zlashtirishdan tortib, o'quv jarayonida o'z - o'ziga xizmat ko'rsatishgacha. Shuni esda tutingki, agar ko'zi ojiz talaba sizga ma'lum bo'lgan ko'rish qobiliyatiga ega bo'lmagan mutaxassislikni tugatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa va u qanday qiyinchiliklarga duch kelishini va ularni qanday yengish mumkinligini aniq tushunsa, unga haddan tashqari shaxsiy bosim o'tkazmaslik kerak: har bir yo'l o'z kashshoflarini biladi va hamma xato qilish huquqiga ega. Ko'zi ojiz o'quvchi o'z ustozlari va qarindoshlarining ishonchli qo'llab-quvvatlashini his qilib, qiyinchiliklarni yengib

o'tish imkoniyatiga shubha qilmasdan, biron bir kasbga ega bo'lish va keyingi ishga joylashish zarurligini anglashi muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va ish bilan ta'minlash nafaqat ko`zi ojiz shaxsning shakllanishiga yordam beradi, balki kelajakdagi moliyaviy farovonlik va mustaqilligining asosiy kaliti bo`ladi. Ularsiz kelajakka bo'lgan maksimal mustaqillik va ishonchni topish mumkin bo'lmaydi. Demak, yuqorida ko'rib chiqilgan kasblarning ijobiy va salbiy tomonlarini diqqat bilan ko'rib chiqib, ko`zi ojiz shaxs o'z yo'lini topishi kerak. Unutmang, jasorat bilan oldinga siljigan kishi albatta o'zlashtiradi.

REFERENCES

1. F.U.Qodirova, Z.X.Xusnuddinova. Tiflopedagogika. Chirchiq. 2023.
2. F.U.Qodirova, Z.X.Xusnuddinova, B.M.Abdullayev, B.Z.Fozilov, Sh.T.Shermuxamedova, Sh.Z.Matupayeva. Maxsus pedagogika asoslari o'quv qo'llanma. Chirchiq. 2022.
3. F.U.Qodirova, Z.X.Xusnuddinova. Tiflopsixologiya.
4. S.M.Dangalov . Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati. Tavsiyanoma. Toshkent.2010

TURMUSH MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA KITOB MUTOLAASINING AHAMIYATI

Eshmuratov Ájiniyaz

Berdoq nomidagi Qaraqalpoq Davlat Universiteti óqtuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10573445>

Annotatsiya. Bu maqolada turmush madaniyatini yuksaltirishda kitob mutolasining ahamiyati, qaror va farmoyishlar haqida sóz etilgan.

Kalit sózlar: turmush, kitob, mutola, kitob dókonlari, aql, tálim, mánaviyat.

THE IMPORTANCE OF READING BOOKS IN IMPROVING THE CULTURE OF LIFE

Abstract. This article talks about the importance of reading books, decisions and orders in improving the culture of life.

Keywords: life, book, reading, bookstores, mind, education, spirituality.

ЗНАЧЕНИЕ ЧТЕНИЯ КНИГ В ПОВЫШЕНИИ КУЛЬТУРЫ ЖИЗНИ

Аннотация. В данной статье говорится о значении чтения книг, решений и приказов в повышении культуры жизни.

Ключевые слова: жизнь, книга, чтение, книжные магазины, разум, образование, духовность.

Prezidentimizning “Obod qishloq dasturi tóg‘risida”gi Farmoni ijrosini táminlash maqsadida respublika bóylab aholining huquqiy, tibbiy va turmush madaniyatini oshirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Yurtimizda turli madaniy-márifiy tadbirlar, sayyor qabullar tashkil etilib, qishloq aholisiga qabul qilingan amaldagi qonun va boshqa me‘yoriy hujjatlar yuzasidan tegishli tushuntirishlar berilmoqda. Aholini qiziqtirgan savollarga javoblar berilishi bilan mavjud muammolarni hal qilish bóyicha ular tomonidan berilgan murojatlar qabul qilinmoqda.

Mamlakatimizda ógil-qizlarni kitobga oshno qilish, kitob mutaolaasi yordamida yot g‘oyalar tásiridan asrash, ertamiz egalarini vatanparvarlik va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan keng kólamli chora-tadbirlar istiqlol yillarida shakillantirilib, mazmunan tóldirib borilmoqda. Dalatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bóyicha komissiya tuzish tóg‘risida”gi farmoyishi mamlakatimizda kitobga bólgan e‘tibor darajasini yanada oshirib, noshirlik va matbaa sohasidagi yangi islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Mazkur farmoyishga binoan Ózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bóyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Dastur uch yónalishdagi masalalarni óz ichiga olgan. Bular ichida kitob mahsulotlari umumiy buyurtmasini shakillantirish, chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, tarjima faoliyati va bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan nashriyotlarga moliyaviy imtiyozlar berish, qóllab quvatlash, noshirlar va adabiyotlarni rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari qóllash kabi masalalar yónalishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur yónalishda belgilangan vazifalardan biri bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan nashriyotlarga moliyaviy imtiyozlar berish, moddiy qóllab-quvvatlash

va rivojlantirish tizimini takomillashtirish b6yicha aniq takliflar ishlab chiqishdir. Ushbu vazifa sohaga tegishli vazirlik va mutassadi tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan b6lib, uning ijrosi kelgusida bolalar adabiyotini nashr qilishga ixtisoslashgan nashriyotlarni aniqlash mezonlarini belgilash, ularga q6shimcha soliq imtiyozlari berish va moddiy q6llab-quvvatlashni y6lga q6yishni taminlashga xizmat qiladi. Bu mamlakatimizda bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan nashriyotlar soni k6payib, shu y6nalishda chop etiladigan kitoblar salmog'i yanada oshadi degani.

Soha rivojida yana bir muhim omil borki, bu modernizatsiya jarayonidir. Gap matbaa korxonalarini texnik va texnologik yangilash haqida. 6zbekiston matbuot va axborot agentligi tizimidagi matbaa korxonalarida ham ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

M6naviy jasorat sohibi deb ardoqlangan atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharofiddinov dunyodagi yetti m6jizaga t6rif berib "... yetti m6jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug'ligiga q6yilgan mangu obida b6lib kelmoqda.

Biroq, shunday b6lsa-da, olamda yana bir m6jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti m6jizaning jamiki ulug'vorligi, g6zalligidan kamlik qilmaydi. Bu m6jiza-kitob. Kitobning m6jizasi, m6jiza b6lganda ham birinchi m6jiza ekanligini k6pgina buyuk odamlar qayd qilgan" deb yozadi. Jumladan, yozuvchi va dramaturg S. Sveyg "Qayerdagi kitob bor ekan, u yerda odam 6zi bilan 6zi holi, 6z k6lami doirasida qolib ketmaydi, u 6tmish va bugungi kunning barcha olamshumul yutuqlariga, butun insoniyatning fikr va tuyg'ulariga oshno b6ladi", deb yozadi.

Yozuvchi va faylasuf J. Svift "Kitoblar aql farzandlaridir" desa, pedagog va yozuvchi Y.A.Komenskiy "Kitoblar donishmandlikni yoyish qurolidir" deydi, faylasuf va tarixchi F. Bekon esa "Kitoblar zamon t6lqinlarida suzuvchi va 6zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalardir", deb yozadi. Ana shu tariqa buyuk allomalar, donishmandlar va yozuvchi-yu olimlar kitobning m6jizaga, nurga, tafakkur quvvati va ustuniga, mangulik va m6naviyat timsoliga, bilim manbaiga, sodiq d6stga, davr k6zqusiga 6xshatganlar. Eng muhimi, kitob jaholatga qarshi m6rifat bilan kurashda yengilmas kuchdir.

Bugun mamlakatimizda m6naviy islohotlar jarayoni sifat jihatidan 6zining yangi va yanada yuksak pog'onasiga qadam q6ydi. Jamiyatimiz hayotida bebaho va betakror qadriyat va an'analarni qaror toptirishga, hususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning m6naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega b6lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tiborning mahsuli sifatida qabul qilingan "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish b6yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi t6g'risida"gi 6zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori soha taraqqiyotiga keng y6l ochgan tom m6nodagi muhim hujjat b6ldi.

Axborot texnologiyalari beqiyos darajada rivojlanib borayotgan, virtual dunyo turli-tuman axborot oqimi bilan t6lib-toshgan hozirgi zamonda yoshlarning m6naviy va badiiy-estetik ong-tafakkurini tarbiyalash, ularda kitobxonlik madaniyati va k6nikmasini shakllantirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu qaror bilan kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi, xususan, elektron kitob 6qish va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib etish b6yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Dasturda, eng avvalo, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, matbaa sohasini yanada jadal rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega бўlgan kitoblarni, xususan, bolalarga móljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qóllab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda keyingi yillarda kitob savdosi va kitob dókonlarga birmuncha e'tibor qaratilgan bólsa-da, lekin xizmat kórsatish sifati va dókonlar soni aholining ósib borayotgan mánaviy talablariga tóg'ri kelmasdi. Shu bois mazkur hujjatda har bir shahar va tumanda kitob savdosiga ixtisoslashgan dókonlarni tashkil etish, ularni qóllab-quvvatlash maqsadida esa yuridik shaxs maqomidagi tadbirkorlik subyektivlariga foydalanmayotgan davlat mulki obyektlarini tekin foydalanishga berish, savdo aylanmasida kitob sotish ulushining hajmi 70 foizdan kóp бўlgan yuridik shaxs maqomidagi subyektlariga alohida statistik hisobi yuritilishi va ular 2020 yil 1 yanvariga qadar yagona soliq tólovidan ozod etilishi kózda tutildi. Shu bilan birga ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va kórgazmali adabiyotlardan iborat ixtisoslashgan kitob dókonlari faoliyatini rivojlantirish ham alohida tilga olib ótildi. Málumki, avvallari kitob va kitobxonlikni keng miqyosda tizimli targ'ib-tashviq qilishga yetarli e'tibor berilmaganligini mamlakatimiz jamoatchiligi vakillari turli yig'in va mashvaratlarda, ommaviy axborot vositalarida kuyinib gapirganlariga guvoh бўlganmiz. Qarorda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ'ibotchilar órtasida “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi” kabi kórik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini ótkazish belgilandi. Bu esa mamlakatimizda kitobxonlik harakati ommaviy tus olishiga óziga xos turtki bóladı.

Mustaqillik yillarida Ózbekiston xalqaro hamjamiyatdan munosib órin egallab va xorijiy mamlakatlar bilan keng qamrovli siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni yólga qóydi.

Xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz jahon madaniyati va adabiyotidan bahramand bólishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Sóz yuritilayotgan qarorda ham “jahon adabiyotining eng sara namunalarini ózbek tiliga tarjima qilish bóyicha davlat buyurtmalari berish” vazifasi belgilandi. Bu asosan jahon adabiyotining nodir namunalarini tarjima qilish va targ'ib qilishga ixtisoslashgan “Jahon adabiyoti” jurnali ijtimoiy jamoasi zimmasiga ham alohida mas'uliyat yuklaydi.

Prezidentimiz qarorida mazmunan sayoz, milliy mánaviyat va qadriyatlarimizga, axloq me'yorlariga mos kelmaydigan, yoshlar tarbiyasiga salbiy tásir kórsatadigan adabiyotlarni tayyorlash, bosib chiqarish va tarqatishning oldini olish yuzasidan mutasaddi idoralar zimmasiga aniq vazifalar yuklangan. Millatimiz kelajagiga daxldor бўlgan mazkur masalaning ahamiyatini hisobga olib, bu borada jamoatchilik vakillari - yozuvchilar, olimlar, óqituvchilar, ota-onalar ham mas'ul ekanliklarini unutmasligimiz lozim.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ótgan yili saylovchilar bilan uchrashuvlarda va shu yil turli sohalar vakillari bilan ótkazgan video-selektorlarda xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni kitob óqishga dávat etib, yanvar oyida ayni masala yuzasidan farmoyish ham qabul qilgan edi. Biz sóz yuritayotgan qaror ham Prezidentimizning bu boradagi izchil siyosatining mantiqiy davomi sifatida yuzaga chiqqan. Bugun, zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalar rivojidan hamda internet imkoniyatlaridan aqlimiz shoshib qolayotgan bir paytda, odam bolasi hayotida kitobning órni va ahamiyati yóqoldi, deguvchilar kóplab topiladi. Bu kabi qarash nihoyatda yuzaki va soxta ekanligini hayotning ózi isbot etmoqda.

Birgina misol: xalqaro tadqiqotlar va sórovlar rivojlangan G'arb mamlakatlarida internetdan foydalanuvchilar soni qanchalik oshayotgan bólsa, kitob sotib olish va óqish ham xuddi shunga muvofiq ravishda ósayotganligini kórsatgan. Vaholanki, bu tadqiqotlar internet texnologiyalari nihoyatda taraqqiy qilgan va uning xizmatlari kun sayin oshayotgan G'arb davlatlarida ótkazilgan. Bu narsa kitobning órnini hech narsa bosa ololmaganini, uning mójizaviy kuch-qudrati oldida internetdek eng qulay va zamonaviy vosita ham ojiz qolishini kórsatayapti.

Prezidentimizning "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bóyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tóg'risida"gi qarori bugun dunyoda shiddat bilan kechayotgan intellektual raqobat va musobaqa hamda xalqimizning kun sayin oshib borayotgan mánaviy ehtiyoj va talablariga hamohang ekanligi bilan katta ahamiyat kasb etadi hamda mamlakatimiz va jamiyatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi. Muhtaram Yurtboshimiz óz máruzalarining biridi "Innovatsiya bólmaz ekan, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bólolmaymiz", deb ayni haqiqatni aytgan edilar.

Tálim bóyicha Xalqaro komissiya tomonidan XXI asr - fan texnika taraqqiyoti davrida tálim oldiga 4 ta ustuvor maqsad qóyilgani alohida e'tirof etiladi: yashashni, anglashni, bajarishni órganish hamda birgalikda yashash, anglash va bajarishni órganish.

Barcha mamlakatlar oldiga aynan shu maqsadlarni amalga oshirish, innovatsion yondashuv asosida yoshlarning bor qobiliyat va iqtidorlarini yuzaga chiqara olish talabi qóyilgan.

Óz navbatida aholining turli toifalarini "Hayot davomida tálim olish" prinsipi asosida mehnat bozorida óz órnini topishga imkoniyat yaratish lozim.

Bu jarayonda óquv muddatlari tabaqalashgan tizimni joriy etish, yangi kasblar va mutaxassisliklar, óquv yuklamalari, tálim standartlari tuzilmasining tubdan yangilangan shakllarini yirik ish beruvchi korxonalar va tashkilotlar, vazirlik hamda idoralardan malaka talablari asosida qayta ishlab chiqishdek óta mas'uliyatli va murakkab vazifalarni samarali hal etish talab etiladi.

Ózbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda Ózbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash tóg'risida"gi Farmonida "Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yólida tez va sifatli ilgarilashini táminlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi", deb alohida tákidlangan.

Darhaqiqat, tálimni innovatsion rivojlantirish sohasida taraqqiy etgan davlatlarning tajribasini chuqur órganish va tatbiq etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro loyihalarni amalga oshirish bugun har qachongidan muhimdir.

Xalqaro hamkorlik, óz navbatida, tálim sifatini yaxshilash, mutaxassislar va boshqaruv personalini malakasini oshirish, respublika hududlarida xorijiy investitsiya loyihalarini jadal sur'atlar bilan amalga oshirish hamda vazirlik va idoralarning buyurtmalari asosida maqsadli kadrlar tayyorlash, ish joylarini malakali kadrlar bilan táminlash imkonini beradi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning tálimda erishgan bilim va tajribalarini órganish va tatbiq etish, innovatsion pedagogik texnologiya-lardan maksimal darajada foydalangan holda óquv jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda kitobning órni va ahamiyati beqiyosligi hisobga olinib, kórgazma va festivallar ham an'anaviy ótkazib kelinmoqda. "Ózbekiston matbuoti" milliy forumi va uning doirasidagi "Bolalar adabiyoti" kórgazmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida "Adabiyotga e'tibor - mánaviyatga, kelajakka e'tibor" shiori ostida ótkazilayotgan "Kitob bayrami", "Sog'lom va mánaviy yetuk avlod - yurt kelajagi" shiori ostida tashkil etilayotgan "Bolalar kitobi" festivallarida nashriyotlar tomonidan sónggi yillarda nashr etilgan adabiyotlar, shu jumladan, bolalar kitoblari, ayniqsa, óquv-márifiy kitoblar, ensiklopedik lug'at va málumotnomalarning erkin savdosi uyushtirilmoqda, shoir va yozuvchilar, yosh ijodkorlarning uchrashuv va mushoiralari, noshir va matbaachilar bilan muloqotlari tashkil etilmokda.

Bugun dunyoda mislsiz kashfiyotlar, axborot tarqatishning yangidan-yangi usullari paydo bólib, bularning bari hayotimizni shiddat bilan qamrab olmoqda. Ushbu jarayonda dunyoqarashi, siyosiy-huquqiy madaniyati tóliq shakllanib ulgurmagan óg'il-qizlarimiz turli g'arazli maqsadlarda tarqatilayotgan axborot oqimi domiga tushib qolish ehtimoli yóq emas. Shuning uchun bolalar va yoshlarga móljallangan nashrlar faoliyatini yanada takomillashtirish, ertamiz egalarini vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda ularni turli mánaviy tahdidlar va xurujlarning salbiy tásiralaridan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni hayotga izchil tatbiq etish, manfaatlarimizga mos keluvchi adabiyotlar bilan doimiy táminlab borishni davrning ózi taqozo etmoqda.

REFERENCES

1. Mánaviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009
2. Mahmudxója Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Mánaviyat, 2006.
3. Tarbiya (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya). – T.: —Ózbekiston milliy ensiklopediyasil Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
4. Тажетдинова С. М., Худайбергенова Г. Ж. Формирование музыкальной культуры студентов //Молодой ученый. – 2018. – №. 47. – С. 380-382.
5. Тажетдинова С. М. Народные песни как фактор развития личности учащихся //Вестник Курганского государственного университета. – 2018. – №. 3 (50). – С. 62-62.
6. Тажетдинова С. АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПОДГОТОВКИ МУЗЫКАНТОВ К МУЗЫКАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //Цифровая экономика и управление знаниями: проблемы и перспективы развития: сборник научных трудов II Международной научно-практической конференции.–Киров, 2021.–245 с. – 2021. – С. 105.
7. Тажетдинова С. САМОПРЕЗЕНТАЦИЯ В ПРОЦЕССЕ ТРУДОУСТРОЙСТВА БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА //Цифровая экономика и управление знаниями: проблемы и перспективы развития. – 2021. – С. 110-112.
8. Tajetdinova S. M. MUZIKA TÁLIMINDE AXBOROT HÁM PEDAGOGIKALIQ TEXNOLOGIYALARDAN PAYDALANIWDIÑ NÁTIYJELILIGI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. NUU Conference 1. – С. 275-277.
9. Mnajatdinovna T. S. Pedagogical Skills in Teaching Music //JournalNX. – Т. 7. – №. 11. – С. 172-174.

10. Omarova A. SCHOOL CHEERS THROUGH MUSIC PROFESSIONAL DIRECTION //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 151-8. 8.Omarova A. SCHOOL CHEERS THROUGH MUSIC PROFESSIONAL DIRECTION //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 151-156.
11. Омарова А. ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОГО УРОКА.
12. Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY LIEMURATOV'S WORK //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 818-821.
13. Чаршемов Ж. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК КИНОМУСИҚАСИ //Вестник музыки и искусства. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 16-22.
14. Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY LIEMURATOV'S WORK //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 818-821.
15. Abdikarimova, I. (2023). ORTA AZIYADAĞÍ OYANÍW DÁWIRI. Вестник музыки и искусства, 1(2), 161–163
16. Чаршемов, Ж. (2023). МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК КИНОМУСИҚАСИ. Вестник музыки и искусства, 1(2), 16–22
17. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 270-273.
18. Abatbayeva U. INITIAL LEVEL OF STUDENTS'MUSICAL CREATIVITY DEVELOPMENT //Modern Science And Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 323-326.
19. Абатбаева У. А. Арт-Педагогические И Арт-Терапевтические Технологии, Методы Пребывания В Образовании, Формы И Инструменты //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 40. – С. 496-498.
20. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 841-849.
21. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.
22. Sag'inbaevna T. S. Cultural Life in Uzbekistan during the Years of Independence //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2023. – Т. 18. – С. 39-41.
23. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 841-849.
24. Saginbaevna T. S. Management and study of culture and art. – 2022.
25. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
26. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 509-511.

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOTIMIZ, MAMLAKATIMIZNI YANADA TARAQQIY ETTIRISHNING MUSTAHKAM POYDEVORIDIR

To‘yev Bahodir Baxtiyorovich

Buxoro viloyati yuridik texnikumi

“Xususiy-huquqiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

baxodirtuyev@gmail.com

Telefon: +998(90) 710 77 40

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10573457>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda tutgan o‘rni va ahamiyati, shuningdek, bosh qomusimizda jamiyat va davlat, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tuzilishi hamda faoliyatining asosiy prinsiplari, ularning vakolatlari, fuqarolarning asosiy huquq va burchlari, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar belgilab berilganligi haqida bir qancha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Kontitutsiya, qonun, inson, jamiyat, davlat, huquq, urf-odat, prinsip, vijdon erkinligi.

THE CONSTITUTION IS A SOLID FOUNDATION FOR OUR FREE AND PROSPEROUS LIFE AND FURTHER DEVELOPMENT OF OUR COUNTRY

Abstract. In this article, the role and importance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in our free and prosperous life, the further development of our country, as well as the basic principles of the structure and activity of society and the state, state power and management bodies in our country, their powers, the basic rights and duties of citizens, a number of opinions were expressed about the relationship between society and the individual.

Key words: Constitution, law, human, society, state, law, tradition, principle, freedom of conscience.

КОНСТИТУЦИЯ – ПРОЧНАЯ ОСНОВА НАШЕЙ СВОБОДНОЙ И ПРОЦВЕТАЮЩЕЙ ЖИЗНИ И ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ НАШЕЙ СТРАНЫ

Аннотация. В данной статье раскрываются роль и значение Конституции Республики Узбекистан в нашей свободной и благополучной жизни, дальнейшем развитии нашей страны, а также основные принципы устройства и деятельности общества и государства, государственной власти и органы управления в нашей стране, их полномочия, основные права и обязанности граждан., был высказан ряд мнений о взаимоотношениях общества и личности.

Ключевые слова: Конституция, закон, человек, общество, государство, закон, обычай, принцип, свобода совести.

KIRISH

“Yangilangan Konstitutsiyamizda muhrlangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirish kelgusi faoliyatimizning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi”.

Ma’lumki, har bir davlatning shakllanishida Konstitutsiyaning o‘rni beqiyosdir. Bosh Qomusimiz millatimiz ruhiga, hayot tarzi va urf-odatlariga mos keladigan iymon-e’tiqod, insof,

diyosat, mehr-oqibat, or-nomus, iffat va hayo kabi eng ezgu fazilatlarini o'z ichiga olgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan huquqiy hujjatdir. Yaratilayotgan boshqa qonunlar konstitutsiyaviy me'yorlarga asoslanadi, me'yoriy hujjatlar ham shu asosda ishlab chiqiladi. Bosh qomusimizda jamiyat va davlat, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tuzilishi hamda faoliyatining asosiy prinsiplari, ularning vakolatlari, fuqarolarning asosiy huquq va burchlari, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar belgilab berilganligi bilan ham yanada ahamiyatlidir. Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi turli din vakillari, jumladan, yurtimiz musulmonlari Asosiy Qomusimizda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklardan keng foydalanmoqdalar. Xususan, ushbu hujjatning yangi qabul qilingan tahririda vijdon hamda e'tiqod erkinligi alohida kafolatlab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizning 35-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo'l qo'yilmaydi", deyilgan. Yurtimizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari Bosh Qomusimiz belgilab bergan teng huquqlilik va keng imkoniyatlardan foydalanib, totuvlik va hamjihatlikda yashamoqdalar. Ular ertangi kunga ishonch bilan mehnat qilib, yagona Vatan ravnaqiga o'z hissalarini qo'shmoqda. Unda nafaqat xalqchil tamoyillarga, balki ming yillar davomida rivojlanib kelgan milliy ma'naviyatimiz asoslariga ham tayanadi. Zero, har bir millat o'zining ruhiy-e'tiqodiy ildizlaridan uzilsa, inqirozga uchrashi tabiiydir. Allohga behisob shukrlar bo'lsinki, siz biz go'zal va hur diyorda tinchlik bulog'idan qonib umr guzaronlik qilib kelmoqdamiz.

Davlat va jamiyat hayotining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi, inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati vazifasini o'tovchi Konstitutsiya – nafaqat davlatchilikning muhim ramzi, balki har bir xalqning milliy g'ururi va o'z-o'zini hurmat qilishining huquqiy timsoli hamdir.

Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam пойdevoridir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda.

Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi, barcha jabhalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o'sib bormoqda.

Konstitutsiya — davlatni davlat, millatni millat qiladigan muhim siyosiy hujjat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, jamiyat tayanchi va yurtimiz taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlatimiz mustaqilligining yorqin ramzi, ko'p millatli xalqimiz xohish-irodasining qonuniy ifodasidir.

Asosiy qonunimiz yaratilishining murakkab va ayni chog'da sharaflı solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo'ldagi izlanishlari natijasi ekaniga ishonch hosil qilamiz. Shu boisdan, o'tgan davr ichida mamlakatimizdagi tub islohot va o'zgarishlarning barchasi Bosh qomusimiz asosida amalga oshirilmoqda.

“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan konstitutsiyaviy norma asosida mamlakatimizda xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan, Konstitutsiya va qonun ustun bo‘lgan samarali va barqaror tizim shakllanmoqda. Asosiy qonunimizda ham buyuk ne‘matlar orasida eng ulug‘i — “inson uchun” degan g‘oya ilgari surilib, uni ulug‘lash, uning erkin kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish o‘z aksini topgan.

Binobarin, inson manfaatlari ustuvor bo‘lgan yurtdagina yuksalish bo‘ladi, bunday davlat fuqarosi har tomonlama barkamol bo‘lib, vatan uchun, xalq uchun jonini fido qilishga tayyor bo‘ladi. Eng muhimi, inson huquqlari ta‘minlangan jamiyatda raqobat muhiti paydo bo‘ladi, ijobiy o‘zgarishlar va yangilanishlar sur‘atlari jaddalashadi.

Davlat o‘z mustaqilligini e‘lon qilgan sanadan e‘tiboran dunyo sahnida yangi, suveren davlat qaror topganligini anglatasa, o‘z konstitutsiyasiga ega bo‘lishi esa, mustaqillikning huquqiy tamal toshi, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Konstitutsiya — jamiyat tayanchi va yurt taraqqiyotining huquqiy kafolati, davlat mustaqilligining yorqin ramzi, xalqning xohish-irodasining qonuniy ifodasi hisoblanadi.

Mana shu o‘tgan davr davomida mamlakatimizdagi tub islohot va o‘zgarishlarning zamirida xalqimiz hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, inson huquq va manfaatlarini ustuvorligini ta‘minlashga qaratilgan o‘zgarishlar bilan takomillashib borayotgan Konstitutsiyamiz dastur-ul amal bo‘lib kelayotganligi ayni haqiqatdir.

Bosh qomusimizda Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi mustahkamlab qo‘yilgan. Shu bilan birga, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid bo‘lishi mumkin emasligi qat‘iy ko‘rsatib o‘tilgan. Darhaqiqat, qonunlar ustuvor bo‘lgan davlatda barqarorlik bo‘ladi, fuqarolarning huquqlari to‘laroq ta‘minlanadi.

Bizning mamlakatimizda ham bosh qomusimizning ahamiyati va tutgan o‘rni nohoyatda yuksakdir. Konstitutsiya – davlatimizning bosh qonuni, huquq va erkinliklarimiz kafolati, davlatchilik tarixiga ega xalq, suveren davlat ekanimizning shahodati hamdir.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo‘ldagi ulug‘vor maqsad va vazifalarini, avvalo, o‘z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi. Zotan, unda mamlakatimizning o‘z oldiga qo‘ygan ulkan maqsad va vazifalari, xalqaro miqyosda qabul qilingan inson huquqlari va huquq ustuvorligi hamda demokratiya tamoyillari o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

Yurtimizda yashab, faoliyat ko‘rsatayotgan har bir inson O‘zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni – Konstitutsiyamizning barcha normalarini mukammal bilishi va hayotga to‘g‘ri tatbiq qilmog‘i, shuningdek, o‘ziga yuklatilgan burchlarini sezib, to‘laqonli ravishda bajarishi lozim bo‘ladi. Ushbu ishlarni amalga oshirgan kishilar ham davrimiz, ham bebaho milliy qadriyatlarimiz me‘yorlariga amal qilgan bo‘ladi.

Davlatda konstitutsiyaning joriy etilganligi va unga barchaning birdek amal qilishi bu davlatning farovonligi va tinchligini ta‘minlaydi. Buning uchun esa har bir shaxs huquqiy tarbiyalangan bo‘lishi va huquqiy ong va bilimlarga ega bo‘lishi lozimdir. Mamlakatning tinchligi va erkinligining ramzi bu davlat konstitutsiyasidir shubhasiz. Shunday ekan bosh qomusimiz mamlakatimizning yanada taraqqiy etishi va rivoji uchun hissa qo‘shadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son;
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016. -53 b.[Mirziyoyev Sh.M. Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan]. T. : O‘zbekiston, 2016. -53 p;
4. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.// Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iy davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.Tom 1.- T.: O‘zbekiston, 2017.-233-295 b. [Mirziyoyev Sh. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of every leader.// We will continue our path of national development and take it to a new level]. Volume 1.- T. : Uzbekistan, 2017.-233-295 p;
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. [Mirziyoyev Sh.M. The rule of law and the protection of human interests are the key to the development of the country and the well-being of the people]. T. : 2017.

SHAXSIY MA`LUMOTLARNI HIMOYA QILISH

Rasulova Tursunoy Tòlqinovna

mutaxassislik fanlar kafedrası o`qituvchisi

rasulovaturunoy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10573490>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsiy ma`lumotlar nima, ularni himoya qilish usullari va qayta ishlash yo`llari haqida yoritishga harakat qildim. Bundan tashqari shaxsga oid shaxsiy ma`lumotlarni himoya qilish va ularni turli xil jinoyatchilar va firibgarlar qo`liga tushishini oldini olish haqida batafsil ma`lumot keltirib o`tganman.

Kalit so`zlar: Shaxsiy ma`lumot, shaxsiy ma`lumotni himoya qilish, shaxsiy ma`lumotlarni qayta ishlash.

PROTECTION OF PERSONAL DATA

Abstract. In this article, I tried to explain what personal information is, how to protect it, and how to process it. In addition, I have provided detailed information on protecting personal information and preventing it from falling into the hands of various criminals and fraudsters.

Key words: Personal information, protection of personal information, processing of personal information.

ЗАЩИТА ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ

Аннотация. В этой статье я попытался объяснить, что такое личная информация, как ее защитить и как ее обрабатывать.

Кроме того, я предоставил подробную информацию о защите личной информации и предотвращении ее попадания в руки различных преступников и мошенников.

Ключевые слова: Персональная информация, защита личной информации, обработка личной информации.

KIRISH.

Shaxsiy ma`lumotlar deganda aniq yoki aniqlanadigan jismoniy shaxs (fuqaro) bilan bevosita yoki bilvosita bog`liq bo`lgan har qanday ma`lumot tushuniladi, ya`ni bunday ma`lumotlar, xususan, quyidagilarni o`z ichiga oladi: ism, yil, oy, tug`ilgan sanasi va joyi, manzili, oilasi, ijtimoiy, mulkiy holati, ma`lumoti, kasbi, daromadi, telefon raqami, aloqa uchun elektron pochta manzili, ma`lumotlar so`rovnomani to`ldirishda shu kabi nomzodlar qoldirgan bo`sh lavozimlarga nomzodlar to`g`risida, shu jumladan nomzodning rezyumesidagi ma`lumotlar, shuningdek boshqa ma`lumotlar kiradi. Bugungi kunda mamalakatimizning har bir fuqorosining shaxsiy ma`lumotlari saqlanadigan baza mavjud bu yagona interaktiv davlat xizmatlari markazining (OID) tizimidir. Bu tizim orqali har bir shaxs o`zining shaxsiy ma`lumotlari jamlanmasini o`zining shaxsiy elektron kaliti orqali ko`rishi va olishi mumkin.

Ma`lumotlarni qayta ishlash deganda avtomatizatsiya vositalari yordamida va / yoki bunday vositalardan foydalanmasdan amalga oshiriladigan ma`lumotlar bilan har qanday harakatlar (operatsiyalar) yoki harakatlar (operatsiyalar) majmui tushuniladi. Bunday harakatlar (operatsiyalar) quyidagilarni o`z ichiga oladi: Ma`lumotlarni yig`ish, yozib olish, tizimlashtirish, to`plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o`zgartirish), qazib olish, ishlatish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), shaxsiylashtirish, blokirovka qilish, yo`q qilish va x.z.

Ma'lumotlar xavfsizligi – bu ularga ruxsatsiz va / yoki ruxsatsiz kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, blokirovka qilish, nusxalash, taqdim etish, tarqatish, shuningdek ma'lumotlarga nisbatan boshqa noqonuniy xatti-harakatlarning xavfsizligini anglatadi.

Ma'lumotlarga ishlov berishda Jamiyat ma'lumotlarni ularga noqonuniy va/yoki ruxsatsiz kirishdan, ma'lumotlarni yo'q qilishdan, o'zgartirishdan, bloklashdan, nusxalashdan, taqdim etishdan, tarqatishdan, shuningdek, boshqa narsalardan himoya qilish uchun zarur huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'radi. Ma'lumotlarga nisbatan noqonuniy harakatlar.

Bu choralar, xususan:

Ma'lumotlarga ishlov berishni tashkil etish uchun mas'ul shaxsni va Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul shaxsni tayinlash;

ma'lumotlarni qayta ishlash va himoya qilish bo'yicha mahalliy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni qo'llash:

1) shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimlarida qayta ishlash jarayonida ma'lumotlar xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash;

2) ma'lumotlarni himoya qilish talablarini bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimlarida qayta ishlash jarayonida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy-texnik chora tadbirlarni qo'llash, ularning amalga oshirilishi qonun hujjatlarida belgilangan ma'lumotlar xavfsizligi darajasini ta'minlaydi;

3) belgilangan tartibda muvofiqlikni baholash tartibidan o'tgan axborot xavfsizligi vositalaridan foydalanish;

4) shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimini ishga tushirishdan oldin Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;

5) agar Ma'lumotlar mashina tashuvchisida saqlangan bo'lsa, Ma'lumotlarning mashina vositalarini hisobga olish;

6) ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish faktlarini aniqlash va kelajakda bunday hodisalarning oldini olish choralarni ko'rish;

7) ruxsatsiz kirish natijasida o'zgartirilgan yoki yo'q qilingan ma'lumotlarni qayta tiklash;

8) shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimida qayta ishlangan ma'lumotlarga kirish qoidalarini belgilash, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlar tizimidagi Ma'lumotlar bilan amalga oshirilgan barcha harakatlarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olishni ta'minlash.

Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar va shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimlarining xavfsizlik darajasini nazorat qilish;

Qonun talablari buzilgan taqdirda ma'lumotlar sub'ektlariga etkazilishi mumkin bo'lgan zararni, ko'rsatilgan zarar nisbatlarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan jamiyat tomonidan ko'riladigan choralarni baholash;

moddiy ma'lumotlar tashuvchilarga ruxsatsiz kirishni istisno qiluvchi va Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydigan shartlarga rioya qilish;

kabilar kiradi.

Har bir shaxsning shaxsiy ma'lumotlari o'ziga tegishli bo'lib ularning sir tutilishi va xavfsizligi ta'minlanishi shart va zarur.

Vazirlar Mahkamasining «Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Elektr uzatish linyalari haqida malumot beradigan bo'lsak, ular "VL" harflari bilan belgilanad, bu ochiq havoda joylashgan qurilmalar. Ya'ni simlarning o'zi havo orqali o'tkazilib, maxsus almatura ustiga o'rnatiladi. Shu bilan birga ularni o'rnatish ustunlari ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar bo'ylab amalga oshirilishi mumkin. Faqatgina yuqori voltli ustunlar bo'ylab yotqizilgan chiziqlarni "havo linyalari"ni hisoblash kerak emas. Asosan, elektr uzatish linyalari o'zgaruvchan tok-ni uzatish uchun qo'laniladi. Ikkinchi variant kamdan-kam uchraydi.

Elektr energetika, energiya tejashning katta potentsiyaliga ega bo'lgan holda, respublika iqtisodiyotini rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston elektr energetika va kabel liniyalari sohasining ishlash samaradorligi-ning pasayishining hozirda mavjud bo'lgan tendensiya elektr energetika jihozlarini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minotining keskin yomonlashuvi tufagligi asbob va uskunalarni buzilishdan saqlash va ta'mirlash choralari sifatining pastligi va uning eskirishidan bu jihozlarning energetik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yomonlashuvi tufaylidir. Texnologik uskunar ishlashi samaradorligining pasayishi yoqilg'i narhining o'sishi va yetkazilayotgan energiyaning past ta'riflarini mos emasligi bilan chuqurlashib

boradi bu esa ishlab chiqarish daromadlarining yetarli darajada qayta investitsiyalash, sohani ilgarilab boruvchi rivojlanishni to'xtatib turadi.

Elektr energiyaga oshib borayotgan talablarni sifatli qoniqtirish asnosida, elektr energetika ishlab chiqarilishi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston iqtisodiyoti ko'rsatkichlarini kutilayotgan o'sishi sharoitlarida kelajakdagi eng asosiy yo'llardan biri iqtisodiyotning barcha soxalarida, shu jumladan energiya sohasida energiya tejash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan choralarni qabul qilishdir. Oldindan qilingan hisob-kitoblarga ko'ra sohadagi energiya tejash potensiyali respublika bo'yicha energiya tejash potensiyalining 30% ni tashkil qilishi mumkin ekan.

Elektr energiya ishlab chiqarishdagi samaradorlikning asosiy ko'ratkichi –yoqilg'ini solishtirma sarfi oxirgi 10 yillikda ortdi va hozirda 375,92 kVt.soat (2007-yil) ni tashkil etadi. Elektr energiyani uzatayotgan tarmoqlarni fizik yedirilishi hisobiga ularni o'ta yuklanishi, hisobga olish asboblarning takomillashmaganligi tufayli energiyani uzatishdagi texnologik sarflar va umuman tizim bo'yicha jami isroflar ortib ketdi hamda ular 13.8% ni tashkil etdi.

Elektr energiya bahosining ortishi mahsulot tannarxidagi yoqilg'i energetik tashkil etuvchini ortishiga olib keladi. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotning energiya samaradorligini pasayishiga va oxir-oqibat yalpi ichki mahsulotni kamayishiga olib keladi.

Shuning uchun energiya tejash zaxiralarini amalda qo'llash energiya ta'minotiga to'xtovsiz va ishonchlik darajasini ko'tarishning zarur omillaridan biridir, bundan tashqari bu O'zbekistonning rivojlanayotgan iqtisodiyoti sharoitida ichki energetik talablarni iqtisodiy jihatdan qondirishni ta'minlaydigan omil bo'lib shu bilan birga u respublika energetikasining eksport potensiyalining ortishiga moyillik qiladi. Hozirda sohada energiya tejashning tashkiliy texnik potensiali yiliga 2.5-5.0 mln.t.sh.yo etib baholanmoqda va bu potensialni amalga oshirish elektr energiya rivojlanishining quyidagi ustuvor yo'nalishlari bilan bevosita bog'liqdir:

-energiya ishlab chiqarishni modernizatsiya va texnik qurullantirish, qayta qurish;

-elektr tarmoqlarini bundan keyin ham rivojlanishi va qayta qurilishi;

-ekalogik jihatdan toza,tiklanuvchi energiya manbalari hamda yetarli zaxiraga ega bo'lgan birlamchi issiqlikdan foydalanuvchi energiya ishlab chiqaruvchi tuzilmani optimallashtirishga yo'naltirilgan quvvatlarni beradigan yangi manbalarni qurish;

-energiya tejash masalalari bo'yicha texnik va iqtisodiy jihatdan sohasini yaxshi biladigan mutaxassislarni tayyorlash.

Bu ustuvor yo'naloshlarning samaradorligi elektr energetika ishlab chiqarishning hozirgi holati hamda uning rivojlanishining ma'lum davrlarida,ularni amalga oshirishning texnik va iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq. Energetik potensialini bundan keyin ko'paytirish, istemolchilarni issiqlik va elektr energiya bilan ishonchli va sifatli taminlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "2001-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasi energetikasida generatsiyalanuvchi quvvatlarni rivojlantirish va rekonstruksiyalash dasturi to'g'risida" qaror qabul qilindi. Bu qarorda sohani texnik qayta qurilish qayta qurish va modernizatsiyalash bo'yicha choralari, moliyalash manbalari, shu jumladan chet el inovatsiyalari va kreditlari hisobiga moliyalash aniqlandi, energiya resurslarini iqtisod qilish yo'nalishlari ko'rsatildi.

Bu qarorga tayangan holda "O'zbekenergo"da 2010-yilgacha bo'lgan davr uchun energiya tejash dasturi ishlab chiqildi. U ushbu davr uchun elektr energiyani ishlab chiqarish va iste'mol

qilish ko'rsatgichlari oldindan aytish bilan me'yorga keltiriladi. Dasturning asosiy maqsadi sohadagi energiya tejash potentsiyalini yoqilg'idan samarali foydalanish choralar tizimini bajarish hisobida amalga oshirish elektr energiya isrofini uning barcha zanjiri bo'yicha ya'ni uni ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashning zamonaviy rivojlanish darajasiga javob beruvchi jihozlar, qurilma va texnologiyalarni tatbiq etib va foydalanib, elektr stansiya va elektr tarmoqlarni rekonstruksiyalash, modernizatsiya qilish, sifatli ta'minlash-profilaktika tadbirlarini o'tkazish, energiya resurslarini bajarish hisobiga hamda energiya iste'molini boshqarish bo'yicha choralarni ko'zda tutadi.

Ko'zda tutilgan choralar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda 1-3 yil muddat ichida ba'zi bir harakatdagi (ishlayotgan) IES ning asosiy va yordamchi qurilmalarini ishlash rejimini optimallashtirish, qism va tugun-larni almashtirish va modernizatsiyalash yo'li bilan ularning iqtisodiy ko'rsatkich-larini yaxshilash bo'yicha choralar amalga oshirilib, bu ularning energetik tavsiflarini loyhadagi ko'rsatkichlarga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Bunday qurilmalarning tarkibi katta qismni (60% dan ortiq) tashkil etishni hisobga olinsa bu choralar muhim ahamiyatga ega va kelajakda nisbatan kichik sarf-xarajatlar hisobiga yoqilg'i ishlatish samaradorligini oshirish bilan energiya ishlab chiqarishning iqtisodiyotini yaxshilash imkonini beradi hamda iste'molchini energiya bilan ta'minkash sifatini va ishonchliligini oshiradi.

Energiya tejashning samarasini va ishonchliligini oshirish maqsadida chet el inavatsiyalaridan optimal foydalanilmoqda. Masalan, Sirdaryo IESda yevropa rivojlanish va rekonstruksiyalash banki (ERRB) kredit hisobiga 2 ta energiya blokni rekonstruksiyalash tugatildi.

Natijada har bir blokning quvvati loyha qiymatiga yetkazildi, ya'ni har yil 49 ming t.sh.yo dan ortiq energetika iqtisod qilib 60 MVt ga ortdi. Bundan tashqari stansiyaning yana 2ta energiya blokini rekonstruksiya qilish mo'jallanmoqda. Yuqorida keltirilgan choralarni qo'llashdan kelib chiqadigan yoqilg'i iqtisodiyoti soha bo'yicha 600 ming t.sh.yo tashkil etdi.

Elektr tizimlarini energiya tejash masalalarini yechish doirasida rivojlanishi va rekonstruksiyalash esa energiya tizimida elektr energiyani uzatishni va taqsimlashni optimal sxemasini bajarish energiya uzatish linyalarining yuklamalarini kamaytirish va energiya stansiya qurilmalarining ish rejimini yaxshilash imkonini beradi. Rivojlanish hududda elektr energiya bozorini shakillantirishga olib keladi. Elektr energiyani magistral tarmoqlarini modernizatsiyalashning hududiy loyhasini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bu loyhalashning barchasi isrofini va ishonchliligini oshirish imkonini beradi. Energiya tejash masalalarini yechishda energiya resurslarini hisobga olish tizimini takomillashtirishni dolzarbligini hisobga olib energiya tizm obektlarida ularni modernizatsiya qilish bo'yicha tadbirlar ko'zda tutilgan bo'lib bu tadbirlar o'z ichiga hisobga olish tizimini yuqori aniqlikdagi o'lchov asboblari bilan ta'minlashni elektr energiyani avtomatik tarzda hisobga olish va nazorat qilishni avtomatlashgan tizimini ishlab chiqish va tatbiq etishni nominal asboblari va zamonaviy tekshiruvchi stentlar bilan jihozlashni o'z ichiga oladi.

Dasturda tashkiliy choralar ko'zda tutilgan bo'lib, bular energiya ishlab chiqarish va energiya iste'mol qilish masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqarish, qurilma va texnologik jarayonlarning me'yoriy tavsiflariga tuzatish kiritish, energiya resurslarini iqtisod qilinganligi uchun hizmatchi va ishchi xodimlarni moddiy rag'batlantirishning samarali holatini tatbiq etish va boshqalar.

XULOSA

Hozirgi vaqtda Respublikamizdagi havo elektr uzatish liniyalari simlarini tahlil qilish uchun yetarli bo'lmagan tizimlar mavjud, yangi monitoring tizimlarini yaratish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda. Buning sababi shundaki, mavjud tizimlar, masalan, datchik o'lchagichlardan foydalangan holda, yuqori narx bilan ajralib turadi va o'rnatish vaqtida mavjud elektr liniyalarini uzishni talab qiladi, meteorologiya stansiyalariga asoslangan tizimlar esa to'g'ri aniqlash ehtimoli pastligi bilan tavsiflanadi. Elektr uzatish liniyalarini baholashning eskirgan usullarini almashtirish uchun bir qator muammolarni hal qiladigan havo elektr uzatish liniyalari monitoringi tizimi keng qo'llanilmoqda. Bu esa mamlakatimizda elektr energiyasida uzilishlarning kamayishiga eng chekka hududlarni ham elektrlash imkoniyatini yaratadi desak adashmagan bo'lamiz.

REFERENCES

1. <https://elibrary.namdu.uz/30%20%D0%A2%D0%B5%D1%85%D0%BD%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/30.%20Energiya%20tejamkorlik%20asoslari.%20Xoshimov%20F.%20A.pdf>
2. Energiya tejamkorlik asoslari .F.A.Hoshimov,A.D.Taslimov “Toshkent “Voris”nashriyoti”2014
3. Xoshimov F.A. Optimizasiya ispolzovaniya energoresursov v tekstil'noy promishlennosti. //Izd-vo «Fan», - T.: 2005, 250 s.
4. Zaxidov R.A., Anarbayev A.I., Koroli M.A., Tadjiyev U.A. Sxemi kombinirovannix sistem solnechnogo teplosnabjeniya i voprosi povishyeniya energosberejeniya pri ix rabote, “Problemi energo- i resursosberejeniya”, 2006, №
5. K.R.Allayev, V.A.Xoxlov, Energosberejeniye –put k povisheniyu energoeffektivnosti nasosnix stansiy.// Problemi energo- i resursosbyerejeniya , – T.: TashGTU, 2006, №2.

BERDAQ BAQSI MEKTEBINEN SHIQQAN BAQSILARDIŇ ATQARIWINDAĜI QOSIQ NAMALAR

A'limbaev Kamalbay Amanbaevich

Berdaq atındaĝı Qaraqalpaq Mámleketlik Universiteti studenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10574483>

Annotatsiya. Bul maqalada Berdaq baqsi mektebi dástúri, baqsi mektebinen shiqqan baqsilardıń atqariwindaĝı qosıqlar hám dástanlar haqqında sóz etilgen.

Gilt sóz: dástúr, baqsilar, repertuwar, awızsha hám jazba .

МУЗЫКАЛЬНЫЕ ПЕСНИ В ИСПОЛНЕНИИ БАХШИ ИЗ ШКОЛЫ БЕРДАК БАХШИ.

Аннотация. В данной статье рассказывается о программе школы Бердак Бахши, песнях и эпосах в исполнении бахши школы Бахши.

Ключевые слова: программа, уроки, репертуар, устная и письменная речь.

MUSIC SONGS PERFORMED BY BAKHSHIS FROM THE BERDAK BAKHSHI SCHOOL

Abstract. This article talks about the program of the Berdaq Bakhshi school, songs and epics performed by Bakhshis from the Bakhshi school.

Key words: program, lessons, repertoire, oral and written.

Belgili alim Qabil Maqsetov “Dástanlar, jirawlar, baqsilar” atli kitabında Biz “Ashiq Nájep” dastaniniń Qaraqalpaqsha versiyasiniń payda bolıwın Berdaq baqsi atı menen baylanstıradı ekenbiz, al Qaraqalpaq xalıq poeziyasındaĝı “Qiz Múnayim” atlı qosıqtı oniń Qaraqalpaqsha orginal teksti menen namasında shubhasız Berdaq baqsi atına ótkeriwge boladı. Usi qosıqtıń tekstinde, namasında Berdaqтан úlgi bolip Hurlimanĝa jetken. Hurliman bul qosıqtı ózinshe jetilistirip Qarajanĝa miyras etip qaldırĝan. Qarajan baqsiniń ózide bul qosıqtıń sózinde, namasında birinshi aytqan Berdaq bolĝan anamız sóy dep aytatuĝın edi.

Al Hurliman bolsa ózinshe bir usil menen aytatuĝın edi, dep maqullaytuĝın edi. Al óziniń aytqan “Qiz Múnayim” namasın solardıń úlgisi dep tastıyqlaytuĝın edi. Qarajan baqsiniń aytıwına qaraĝanda Hurliman bir neshe namalarda qosıq aytqan, biraq oniń eń jaqsı kórĝen namaları “Qiz Munayim” “Sanalı keldi” bolĝan.

Hurlimanniń eń jaqsı kórip aytatuĝın dastanlariniń biri “Góroĝli” dastaniniń “Bázirgen”, “Qirmandalı” bólimleri bolĝan .

Berdaq baqsi mektebine harakterli bolĝan batırlıq, mártlik dosliqtı jirlaw Hurlimanniń repertuarında “Bázirgen” dastaniniń Qarajan baqsiniń eslewinde “Bázirgen” dastanında aytilatuĝın Aysultanniń

“Bunnan keter bolsam ata Bázirgen diydar qiyametke qalsa náylermen ĝish jigitle, Bázirgenđi náyledińiz”, “Baslı meni qanxorimniń eline”, “Góroĝlini bilermiseń”, “Aĝam topraq bolĝan jayĝa jetistim” degen qosıqların, sondayaq Góroĝliniń “On segiz arshin at mindim, attan armanim qalmadı”, “Zor Bázirgenge ushradim”, “Námárt Góroĝli men boldim”, “Yıĝlama Aysultan aĝań bolayın”, Bázirgenniń “Márt oĝliman, “Bir basqa bir ólim bardi, qosıqların Hurliman jan endirip aytatuĝın bolĝan .

“Qirmandalı” dastanındaĝı qara sóz benen qosıqlardıda Hurliman kóterińki yosh benen aytatuĝın bolĝan. Ashıqlıq, mártlik, sózge sheshenlik, sázendelikti, hátte qızlardıń palwanlıĝın

sóz etetuǵın bul dastan Hurlimanǵa ayriqsha unaqan. Batir qiz, sheshen qiz, shayır qız, sázende qiz Hurlimanniń ideyasi bolǵan .

Berdaq baqsi mektebi dástúri menen ushlasip atırǵan sabaq bar.

Dastannin bul bólimindegi Góroǵliniń awzınan aytilatuǵın “ Bizge nazli yardan xabar kelipti, nazlı yar suw ber isheli”, “O Qumar kózli yar kórindi”, “Ópsem lábiń qana-qana”, “Qanat baylap uship keldim”, “Bergen wádeń push boldima”, “Ne derseń”, Aǵa Yunustiń “Alsań násiyatim ketme Góroǵli” Qirmandáliniń “Túsh óziń suwdan ishe ber” Ashiq Aydinniń “Wáde etken gel yarim, iqrara kózim tústi” qosıqlari Hurlimanniń eń jaqsi kórip aytatuǵın qosıqlari bolǵan, ol bul qosıqlardı ózine tán, basqa baqsılardı usatpastan óz awilina sheberlik penen atqarǵan .

Hurlimanniń repertuwarında birqansha dástanlar, qosıqlar, namalar, bolǵan boliwi múmkin. Bul waqiti menen izertleniwi kerek . Hurliman Berdaq baqsi mektebiniń iri wákili, Berdaqtiń baqsishiliq dástúrin tikkeley dawam etiwshi óziniń epikalıq repertuwariniń tereń xalıqlıq baǵdari menen qaraqalpaq baqsishiliq iskustvasına úlken úles qosqan baqsi.

Óziniń repertuwarı menen tikkeley Berdaqtiń ustazlıǵında hám jaqınnan kómeginde miynetkesh xalıqtı joqari estetikelıq sezimlerge tárbiyalawdaǵı Hurlimanniń baqsishiliq xızmetleri xalqimizdiń yadında mángi saqlanadi. Buǵan dálil: Balasi Qarajan baqsini ullı ataqlı baqsi dárejesine jetkerip tárbiyalawı hám xalqimizdin suyikli n baqsisi bolip jetilisiwinde hám Qarajan baqsiniń ataqlı sazende hám baqsi Aytjan Xojalepesovti xalıq súygen sazende hám baqsi bolip taniliwında ustazlıq etkenin xalıqimiz olardıń baqsishiliq ónerinen shertken sazınan jaqsi biledi.

Xalıq shayırlariniń Berdaqti táriyplewleri

Qaraqalpaq xalqında, sonıń ishinde shayırlarımızda xalqimizdiń súyikli ullariniń biri retinde Berdaqtiń atın barmulla ulıǵlaǵanı bizge belgili.

Berdaq edi shayırlardıń danasi,

Sózine iyildi adam balasi.

Yamasa: Neshshe sózler aytti qoriqpay zalimnan ,

Shayırlıqta ótpes Maqtumqulı onnan, - dep Berdaqtiń qaraqalpaq xalqına eń qádirlı shayır ekenligin aytqan edi.

“Qirǵzdiń Alatawında shoqqılar kóp. olardıń birewleri biyik bolsa, basqalari onnanda biyik . Xalıqimiz usı bálent shoqqılardı

“Tuǵ shoqqı”, yaǵniy “Tuw shoqqı”, - dep ataydi. Berdaqta kóp milletli tuwisqan ádebiyatimizdiń tuw shoqqılariniń biri” – dep bahalaǵan edi. Berdaqtiń shıǵarmalari 1940 – jıldan baslap baspa sózde jariy kóre basladı .

Kele – kele Berdaqtiń dóretpeleri Ózbek, qirǵız, qazaq, túrkmen, rus, gruzin, tatar, noǵay, bashqurt hámde basqa xalıqlar tillerine awdarıldı

Qaraqalpaq xalıq shayıri Abbaz Dabiylov “Berdaq haqqında qos qosıq”, (1950) , S . Nurimbetov “Berdaq shayır” ,(1950) atlı qosıqların al

J. Aymurzaev “Berda” atlı muziykali dramani dóretti. Sonday–aq Ibrayim Yusupov, T Jumamuratov, Nawrız Japaqov hám taǵı’ basqa kóplegen shayırlarda Berdaqti táriyledi .

Abbaz Dabilov

Xalıq ushın jırladıń hár túr sóz benen,

Qıyalap kóp qarap alǵır kóz benen,

Ájiniyaz, Berdaqdan qalğan iz benen,
Qosiq stillerin tapqan shayirsań
- dep Berdaqti bárshe Qaraqalpaq shayirlardıń ustazi sipatında táriypleydi .
Shayirdiń “Berdaqqa” atli shıǵarması -áńǵ- qatardan ibarat bolip , onıń :
Sari kirpik shapan, belinde túrme,
Ayaqta aq pushta, basta shógirme,
Súwrette shekelep, duwtari bizge,
Ózi shıqtı qalem bolip Berdaqtiń – degen qosiq qatarlarinan
Berdaq oyi, Berdaq obrazi, kóz aldińa keledi.

“Ala Moynaq duwtar, gúmis shaptırǵan,
Bes barmaqqa on tórt perde tuttırǵan,
Namalari tistiń suwin juttırǵan,
Shákirtleri toyǵa keldi Berdaqtiń.

Shákirt dep oylamań Japaq , Eshjandi,
Aytıp tur Berdaqdan qalğan dástandı,
Jańlatıp hawazi, jerdi aspandı,
Aqlıǵı’ Qarajan bizde Berdaqtiń.

Sonday – aq qaraqalpaq shayirlari ishinen S. Nurimbetovta Berdaqqa arnap “Berdaq” poemasin dóretti. Usi poema Berdaq tuwrali jazılǵan kólemli shıǵarmalardıń bolip esaplaniladi. Qyasi jazıwshi, shayir shıǵarmaların oqip qarasaqta, Berdaq tuwrali pikir aytpaǵan, onıń ádebiy miyrasinan nár almaǵan sóz zergerin tabiw qiyin. Olardıń barlıǵınıń Berdaqti ustaz, kórkem sózdiń sheberi , dep bahalaydı.

“Dáwletyarbek dástani”

Qaraqalpaq xalqınıń ataqlı baqsısı Qarajan baqsı “Dáwletyarbek” dástani Berdaq baqsınıń repertuwarında tiykarǵı orındı tutqanın aytqan. Dástan XVIII ásirde Qońıratqa waqıyaǵa baylanisi Aral ózbekleri arasında dóregen bul dástan awızsha hám jazba túrde Xorezm ózbeklerine , Túrkmeler arasına, Manǵışlaq tásirinde taralǵan . XIX ásirde Qońıratlı kátipler Abdulla bashmaq t. b. dástanınıń qol jazbaların kóbeytip el arasına taratqan.

Arallı ózbek baqsıları, qaraqalpaq, túrkmen baqsıları bul dástandı úyretip alıp xalıq arasında aytıp júrgen.

Usi dáwirde jasaǵan Berdaq Qońıratqa kóp kelip el aralap baqsıshılıq etip turǵan. Ataqlı Arzi baqsı menen dos bolıp birge mereler sawısqan.

Qarajan baqsıdan 1939 – jili Sádırbay Máwlenov, Shámshet Xojaniyazovlar tárepinen jazıp alınǵan “Dawletyarbek” dástanınıń Berdaq úlgisi ulıwma syujet liniyasi boyınsha Qońırat ózbek baqsıları hám túrkmen baqsıları varyantlarına usaǵanı menen mazmunı hám formaqsı, Vara sózi, qosıqları boyınsha qaraqalpaq milliy versiyasin qurap turadi.

Soǵan qaraǵanda Berdaq bul dástannıń qaraqalpaqsha versiyasınıń payda bolıwında oǵada úlken tvorshestvalıq miynet etken dewge boladi. Ol ózi qayta islegen bul varyantı (úlgini) qızı Húrlimanǵa úyretken. Húrlimannan Qarajan úyrenip aytıp júrgen.

Dáwletyarbek dástaniniń qaraqalpaqsha versiyasiniń mazmuni ózbekshesi hám túrkmenshesi menen salıstırǵanda waqıyalariniń basqasha qara sóz benen qosıqlarinińda biraz usaslıqlarına qaramastan, óz aldına dúzilgenin kóremiz. Misali: Ózbekshesinde Dáwletyar Eshmurat Qayıptıń ulı, Xiywa xanǵa Sarxush atın bermegeni ushin jamanatlı bolıp, Qońıratın shıǵıp Túrkmen arasına ketedi. Al Qaraqalpaqshasında Dáwletyar jetim bolıp baylardıń esiginde xızmet islep, anasınıń bergen biyesinen Sarxush degen tay tuwılıp, ol shapqısh at bolıp barlıq toyda ozıp júredi. Túrkmenlerdiń Allayar degeniniń toyında da Sarxush ozıp shıqqannan keyin xan dáwletyardi jamanatlı qılıp, oni óltirip, atın almaqshi boladı. Dáwletyar usinnan keyin atasiniń dostı, Qızılbaslarǵa jaqın jerdegi basqa bir túrkmen taypalari – Mámedjan sárdardıń eline baradı.

Dáwletyardiń bul joldaǵı waqyaları, Mámedjan sárdarǵa bariwi, olar menen birge Iran shaxlarına qarşı gúresi, zindanǵa túsiwi, baqsishılıǵı, shayırshılıǵı, sazandeliǵı menen eline aman – esen qaytiwi Qarajan baqsı bergen Berdaq úlgisinde óz aldına súwretlenedi.

Xanniń zulimligına qarşı turatuǵın xalıqlardıń, qáwimlerdiń doslıǵın ardaqlaytuǵın, óz elin shin júrekteń súyetuǵın baqsishılıqtı, shayırshılıqtı kásip etken Dáwletyarbek obrazi Berdaqtıń ideyalına, júregine jaqın bolǵan. Sonlıqtanda oni óziniń repertuarına kirgizgenine hesh qanday shubhalanıwǵa bolmaydı.

Ásirese dástandaǵı tuwǵan jerdi, tereń súyiwshilik sezimleri menen jaryalaytuǵın Dáwletyarbektiń óz elin maqtap Iran shaxı aldında aytqan Ájiniyaz Morivin eske túsiretuǵın sózlerinde Berdaq redaktsiyası kórinip turadı:

Men aytayın biziń eldiń dástanın,
Qazaq, Qaraqalpaq ellerim bardi.
Men aytayın biziń eldiń dástanın,
Urgenish jurtınday ellerim bardi.

Dáryaniń árwaǵın maqtap diyerler,
Atlanǵanda tilla shekpen kiyeler,
Atiniń júklerin Zerbap diyerler,
Atiniń Zerbaptan júnleri bardi.

Suwǵa barsa besi oni qosılar,
Óńirine monshaq túyme asılar,
Sallaniship anda háwiri basılar,
Qas qaqqanda anıq nazları bardi.

Qaraqalpaqtıń klassik shayiri Berdaq shayırshılıq penen baqsishılıq ónerin joqarı basqıshqa kótergen baqsı bolǵan. Ol “Ashiq – Nájep”, “Dáwletyarbek” dástanların qayta islep qaraqalpaqsha versiyasın islew menen birge “Góroǵlı” dástaniniń “Qirmandalı”, “Bázirgen” bólimlerin júdá jaqsı kórip aytatuǵın bolǵan.

Joqarıdaǵı dástanlardı Berdaqtıń teńlewi óz repertuarına kórgiziwi belgili dárejede qayta islep qaraqalpaq xalıq dástanları dárejesine kóteriwge úles qosqan baqsı bolǵanlıǵı ilimpaz alimlarımızdıń miynetlerinde anıq kórsetilgen.

REFERENCES

1. Тажетдинова С. М., Худайбергенова Г. Ж. Формирование музыкальной культуры студентов //Молодой ученый. – 2018. – №. 47. – С. 380-382.
2. Тажетдинова С. М. Народные песни как фактор развития личности учащихся //Вестник Курганского государственного университета. – 2018. – №. 3 (50). – С. 62-62.
3. Тажетдинова С. АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПОДГОТОВКИ МУЗЫКАНТОВ К МУЗЫКАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //Цифровая экономика и управление знаниями: проблемы и перспективы развития: сборник научных трудов II Международной научно-практической конференции.–Киров, 2021.–245 с. – 2021. – С. 105.
4. Тажетдинова С. САМОПРЕЗЕНТАЦИЯ В ПРОЦЕССЕ ТРУДОУСТРОЙСТВА БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА //Цифровая экономика и управление знаниями: проблемы и перспективы развития. – 2021. – С. 110-112.
5. Tajetdinova S. M. MUZIKA TÁLIMINDE AXBOROT HÁM PEDAGOGIKALIQ TEXNOLOGIYALARDAN PAYDALANIWDIŃ NÁTIYJELILIGI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. NUU Conference 1. – С. 275-277.
6. Mnajatdinovna T. S. Pedagogical Skills in Teaching Music //JournalNX. – Т. 7. – №. 11. – С. 172-174.
7. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 841-849.
8. Saginbaevna T. S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 386-392.
9. Sag'inbaevna T. S. Cultural Life in Uzbekistan during the Years of Independence //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2023. – Т. 18. – С. 39-41.
10. Tajimuratova S. FORMATION OF STUDENTS'SKILLS OF INDEPENDENT PERFORMANCE THROUGH THE TEACHING OF ART HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 841-849.
11. Saginbaevna T. S. Management and study of culture and art. – 2022.
12. Тажимуратова Ш. С. САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. – 2023.
13. Tajimuraova S. S. INFORMATION AND COMMUNICATIONS IN MANAGEMENT //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 509-511.
14. Tajimuratova S. CONCEPT OF FURTHER DEVELOPMENT OF NATIONAL CULTURE IN UZBEKISTAN //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 251-254.
15. Omarova A. SCHOOL CHEERS THROUGH MUSIC PROFESSIONAL DIRECTION //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 151-8. 8.Omarova A. SCHOOL CHEERS THROUGH MUSIC PROFESSIONAL DIRECTION //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 151-156.

16. Омарова А. ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОГО УРОКА.
17. Abatbayeva U. INITIAL LEVEL OF STUDENTS'MUSICAL CREATIVITY DEVELOPMENT //Modern Science And Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 323-326.
18. Абатбаева У. А. Арт-Педагогические И Арт-Терапевтические Технологии, Методы Пребывания В Образовании, Формы И Инструменты //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 40. – С. 496-498.
19. Чаршемов Ж. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК КИНОМУСИҚАСИ //Вестник музыки и искусства. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 16-22.
20. Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY JEMURATOV'S WORK //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 818-821.
21. Abdikarimova, I. (2023). ORTA AZIYADAGÍ OYANÍW DÁWIRI. Вестник музыки и искусства, 1(2), 161–163
22. Чаршемов, Ж. (2023). МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК КИНОМУСИҚАСИ. Вестник музыки и искусства, 1(2), 16–22
23. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 270-273.

ПСИХОЛОГИЯДА ГЕНДЕР МОҲИЯТИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ

Н.Ж.Сагиндикова.

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети доценти
психология. ф.б.PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10574507>

Аннотация. Ушбу мақолада гендер тушунчаси моҳияти ва унинг психология соҳасида тадқиқотлардаги талқини, турли жабхалардаги таҳлили ўрганилган.

Калим сўзлар: гендер, гендер хусусиятлар, ижтимоий муҳит, стереотип, психологик хусусиятлар, ижтимоий муносабатлар, ёшлар психологияси.

RESEARCHING THE ESSENCE OF GENDER IN PSYCHOLOGY

Abstract. This article explores the concept of gender and its interpretation in research in the field of psychology, analysis in various aspects. the concept of gender and its interpretation in research in the field of psychology, as well as analysis in various areas.

Key words: gender, gender peculiarities, social environment, stereotype, psychological peculiarities, social relations, youth psychology.

ИССЛЕДОВАНИЕ СУЩНОСТИ ГЕНДЕРА В ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье изучается понятие и обозначение гендера и его трактовка в исследованиях в области психологии, анализ в различных аспектах.

Ключевые слова: пол, гендерные особенности, социальная среда, стереотип, психологические особенности, социальные отношения, психология молодежи.

Замонавий жамиятда ривожланиш ҳар бир соҳада янги тушунча ва илмий феноменларни пайда қилади ва олимлар ўз изланишлари асосида бу феномен, тушунчаларни ҳар томонлама талқин қилди.

А.В. Смирнова замонавий тадқиқотчиларга биринчи навбатда гендерни ижтимоий-маданий конструкт ва ижтимоий стратификация категорияси сифатида тушунишга таянишни таклиф қилади. Таълимдаги гендер муаммоларини ўрганиш натижасида олимлар куйидаги хулосаларга келишди:

ўқитувчилар ўғил бола ўқувчиларга кўпроқ эътибор беришади, улардан юқори натижаларни кутишади;

ўқитувчилар ўғил бола ўқувчиларни ўзини-ўзи намоён қилиш ва фаолликка, қиз талабаларни эса иттифоқлик ва меҳнатсеварликка ундайди;

таълимда вербал (оғзаки) ва новербал мулоқот амалиётини ўрганиш шуни кўрсатдики, ўқитишнинг доминант шакллари эркаларга хосдир, бу ерда ҳаракатга урғу берилади, бу эса мулоқотнинг ҳиссий спектрини сезиларли даражада камбағаллаштиради;

аёл ўқитувчилар ва қиз бола ўқувчиларга нисбатан юқори даражадаги зўравонлик қайд этилган;

аралаш мактаблар ўқувчиларнинг (ўғил болаларнинг) эркак жинсига ижтимоий мансубликни ўрганадиган майдон бўлиб, улар ўйин майдончасида ва синфда қиз болалар устидан доминантлик қилади, улардан доимий равишда канцелярия материаллари билан таъминлашни талаб қилади, жисмоний ва оғзаки равишда тажовузкорлик қилади;

Ўқитувчилар интизом бузилишига ҳар хил реакция кўрсатади, яъни, одатта, қиз болалар кичик қоидабузарликлар учун ҳам танбеҳ берилади, ўғил болалар эса бундай хатти-харакатлар учун жазоланмайди;

Ўқитувчилар турли жинсдаги болалардаги паст даражадаги ўзлаштириш сабабини турлича тушунтирадilar, яъни буни қиз болаларда - қобилиятнинг етишмаслиги, ўғил болаларда - қатъиятсизлик етарли даражада эмаслиги билан боғлайди.

Ўқитувчиларнинг фикрича, қиз болаларнинг таълим олиши унчалик аҳамиятли эмас, чунки улар бўлажак она ва жуфти ҳалол сифатида қабул қилинган, шунинг учун жамоатга фойдали фаолият кўрсатиши назарда тутилган ўғил болаларнинг таълим олишига кўпроқ эътибор берилган. Натижада, қизлар ўз қобилиятларини кам, ўғил болалар эса ортикча баҳолаган [1].

Тарихан ҳар бир касбнинг гендер модели эркаклар ва аёлларнинг ижтимоий ролларини тақсимлашда жинс ва роль фарқларининг биологик мезонлари аниқ ҳисобга олинган ҳолда шаклланганлигини таъкидлаб, М.В. Невежина барча соҳаларни демократлаштириш йўлига қадам қуйган жамиятнинг янги реалаялари шароитида шахснинг ижтимоий мақоми иерархияси зарурат сабабли гендер тенглигига эришиш йўналишида ўзгариб бораётганига эътибор қаратади. Конституция билан кафолатланган олий маълумот олиш учун тенг ҳуқуқлар, бир томондан, аёлларга одатта эркакларга хос бўлган касбий фаолият соҳасида ўзларини синаб кўриш имконини берди. Аммо, бошқа томондан, аниқ фанларда ва айниқса техник фанларда гендер номутаносиблиги юзага келишига олиб келадиган гендер белгилари бўйича камситишнинг ҳали ҳам мавжуд яширин шакли туфайли, эркаклар билан бирдек муваффақиятга эришиш учун аёллар, одатта, эркакларга солиштирганда анча каттароқ тўсиқларни енгиб ўтиши лозим бўлади.

Шу нуктаи назардан, сўнгги пайтларда анжуман ва семинарлардаги нутқларда, мақолалар ва илмий мақолаларда гендер масалаларини тилга олиш бугунги куннинг ўзига хос белгисига айланди, чунки бу тушунча рус тили лексикаси ва даврий нашрларида энг кўп ишлатиладиган ва оммабоп мақомини олди. Олимнинг фикрича, бир томондан бу ижобий натижа беради, чунки гендер тушунчасининг моҳиятини билиш орқали матбуот, оммавий маданият, илмий, ижтимоий ва сиёсий дастур воситалари ёрдамида биз цивилизация ривожланишининг жаҳон тенденциялари билан танишамиз. Бошқа томондан, бу салбий натижага олиб келади, чунки гендер атамасининг нотўғри қўлланилиши ва юзаки талқин қилиниши 2000 йилда БМТ Бош Ассамблеяси махсус сессияси томонидан XXI асрнинг стратегик ривожланиш йўналишида белгиланган гендер тенглиги ва демократия ғояларини обрўсизлантиради. Шу сабабли жинс атамасини гендер атамасидан аниқ ажратиш мақсадга мувофиқдир. Масалан, жинс одатта инсоннинг эркак ёки аёл тоифасига физиологик, биологик мансублиги билан белгиланади ва у туғилиш пайтида эга бўладиган маълум морфологик хусусиятлар мавжудлиги билан тавсифланади.

Инсоннинг ўзига хос жисмоний белгилари, аниқ чекланган биологик функциялари ва муайян фаолият турларини бажариш, хусусан, бола туғилиши билан боғлиқ имкониятлари маълум бир жинсга - эркак ёки аёл жинсига мансублигидан келиб чиқади. Жинс тушунчасидан фарқли ўлароқ, гендер деганда шахснинг ижтимоий роль билан боғлиқ мақоми тушунилади, бу унинг ижтимоий ҳаётдаги, таълимдаги, касбий фаолиятидаги,

хокимият борасидаги ижтимоий имкониятлари, шунингдек, оиладаги роли ва репродуктив хатти-ҳаракатларини белгилайди [3].

С.В. Скутнева гендер тушунчасининг замонавий моҳиятини асосан хорижий феминизм назариясининг назарий ва услубий кўрсатмалари призмасидан кўриб чиққан ҳолда, улар томонидан асосан турли жинсдаги одамларнинг хулқ-атворининг ижтимоий жиҳати, шунингдек улар ўртасидаги мулоқот жараёнининг ўлчамларини белгилайдиган ўзига хос маданий хусусиятлар тўплами қайд қилинишини таъкидлайди. Олимнинг нуқтаи-назарига кўра, гендерни бир томондан, бошқа ижтимоий-демографик ва маданий хусусиятлар (миллати, ижтимоий келиб чиқиши, таълим даражаси ва касби, ёш хусусиятлари) билан бирга жамият ижтимоий тузилишининг фундаментал ўлчовларидан бири, бошқа томондан, эркак ва аёл ўртасидаги мулоқотнинг фарқланишини ҳисобга олган ҳолда, шахснинг маълум бир жинсга мансублигининг ижтимоий-маданий томони акс эттирилиши сифатида ифодалаш мумкин. Шундай қилиб, гендер тўғридан-тўғри роллар, стереотиплар, меҳнат вазибаларини тақсимлаш ва умуман ижтимоий ва маданий меъёрларнинг, шунингдек, шахс социализациясининг тегишли тизими орқали қурилади.

Ўз навбатида, бундай ижтимоий меъёрлар биологик жинсга қараб одамларнинг психологик фазилатларини, касбий машғулотларини белгилайди. Айнан шу нуқтаи назардан, ҳақиқий аёл/ҳақиқий эркак бўлиш уларнинг туғилишдан маълум физиологик хусусиятларни илгари сурганлигини эмас, балки маълум бир жамият томонидан қабул қилинган гендер стереотиплари, тушунчалари, қоидалари ва меъёрларига қараб тегишли ижтимоий ролни бажаришини аниқлатади. Шу муносабатдан, бугунги кунда инсон ҳақиқий аёл/эркак бўлиб туғилмайди, балки ривожланишининг муҳим асосини оила, атрофидаги яқин одамлар, таълим муассасалари ва бошқалар ташкил қиладиган гендер социализацияси даврида ҳақиқий аёл/эркакларга айланади дейиш мумкин [2].

Адабиётлар тахлили асосида шундай фикрга келдикки, гендер феномени илм-фаннинг деярли барча соҳаларига тегишли замонавий илмий тадқиқотларда жуда долзарб масалага айланиб бормоқда ва шу сабабли жуда кенг талқин қилинмоқда деган хулосага келиш мақсадга мувофиқдир. Гендер тушунчасининг илмий ўрганилиши замонавий жамият ривожланишининг янги ижтимоий-тарихий шароитларида фаол амалга оширила бошлади. Айнан бу масалани эмпирик ўрганиш муаммони илмий аҳамиятини оширади.

Психологияда бу масалани илмий изланиш орқали ундан олинган натижалар фан ривожига билан биргаликдаги гендер бўйича назарияларни ҳам бойитган бўлар эди, жамиятда эса, гендер саводхондикка эришар эдик.

REFERENCES

1. Смирнова А.В. Представления школьников и студентов о гендерных ролях мужчин и женщин в современном российском обществе. // *Женщина в российском обществе*. - 2005. - С. 167-170.
2. Скутнева С.В. Гендерные аспекты жизненного самоопределения молодежи. // *Журнал «Социологические исследования»*. - 2003. - №11. - С. 73-78.
3. Невежина М.В. Гендерная дискриминация в сфере труда: опыт борьбы на международном уровне. // *Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения*. 2018. - №3. - С. 187-193

4. SAGINDIKOVA N. RESPONSIBILITY AND ITS MANIFESTATION IN YOUTH PSYCHOLOGY.
5. Nargiza S. STUDENTS' SELF-CONFIDENCE AND MOTIVATION FEATURES IN THE EDUCATIONAL ACTIVITY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2016. – Т. 4. – №. 9.
6. Сагиндикова Н. Д. Ж. ОСОБЕННОСТИ САМОУВЕРЕННОСТИ СТУДЕНТОВ //PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет. – №. 2. – С. 100-102.
7. Сагиндикова Н. Ж. К вопросу об ответственности студентов в учебной деятельности //Казанский педагогический журнал. – 2014. – №. 5 (106). – С. 155-162.
8. Сагиндикова Н. РАЗРАБОТКА СТРУКТУРНОЙ СТРУКТУРЫ ГЕНДЕРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 24. – С. 169-174.
9. Сагиндикова Н. ПСИХОЛОГИЯДА “ЛОКУС ТЕКСЕРИЎ” КОНЦЕПЦИЯСЫНЫҢ ИЗЕРТЛЕНИЎИ Сагиндикова Н.Ж. //ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА. – 2016. – Т. 31. – №. 2. – С. 58-60.
10. Сагиндикова Н. Д. Ж. ОСОБЕННОСТИ САМОУВЕРЕННОСТИ СТУДЕНТОВ //PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет. – №. 2. – С. 100-102.
11. Сагиндикова Н. Ж. Психологияда ижтимоий масъулиятнинг ўрганилиши //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 2. – С. 41-46. Сагиндикова Н. Ж. УУК: 370.153 ТАЛАБАЛАРДА МАСЪУЛИЯТ ХУСУСИЯТИНИНГ НАМОЁН БУЛИШИ //ХАБАРШЫСЫ. – С. 58.
12. Sagindikova N. J. THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF GENDER RESPONSIBILITY //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 127-130.
13. Sagindikova N. J. FACTOR ANALYSIS OF GENDER CHARACTERISTICS OF STUDENTS' RESPONSIBILITY FOR LEARNING ACTIVITIES //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 2. – С. 3388-3395.
14. Сагиндикова Н. Ж. Психологияда ижтимоий масъулиятнинг ўрганилиши //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 2. – С. 41-46.
15. Sagindikova N. J. THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF GENDER RESPONSIBILITY //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – С. 127-130.
16. Сагиндикова Н. РАЗРАБОТКА СТРУКТУРНОЙ СТРУКТУРЫ ГЕНДЕРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 24. – С. 169-174.
17. SAGINDIKOVA N. RESPONSIBILITY AND ITS MANIFESTATION IN YOUTH PSYCHOLOGY.

18. Tajimuratova S. CONCEPT OF FURTHER DEVELOPMENT OF NATIONAL CULTURE IN UZBEKISTAN //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – С. 251-254.

“SAB’AI SAYYOR” VA “HASHT BIHSHT”DA DILOROM ORAZI

Murtazaev Babanazar Xuramovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Termiz davlat universiteti

babanazarmurtazayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10574520>

Annotatsiya. Maqolada Dehlaviy “Hasht bihsht” va Navoiy “Saba’i sayyor” dostonlarida tasvirini topgan kanizak Dilorom timsoli qiyosan tahlil nazaridan o‘tkaziladi. Dilorom obrazining qadimiy ildizlari va uning asta-sekin badiiy adabiyotga ko‘chishi jarayoniga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu obrazning badiiy adabiyotdagi takomili, xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga va aksincha yozma adabiyotdan xalq og‘zaki ijodiga ko‘chishi kabi hodisalarga ham urg‘u berildi.

Kalit so‘zlar: Dilorom, obraz, doston, kanizak, og‘zaki ijod, yozma adabiyot, san’at, musiqa, nafosat, qadim, mushtarak, afsona.

DILOROM'S FAST IN "SAB'AI SAYYOR" AND "HASHT BIHSHT".

Abstract. In the article, the image of the concubine Dilorom depicted in Dehlavi's "Hasht Bihisht" and Navoi's "Saba'i Sayyor" epics is analyzed from a comparative point of view. Special attention was paid to the ancient roots of the image of Dilorom and the process of its gradual transfer to fiction. Emphasis was also placed on such phenomena as the improvement of this image in fiction, the transfer from folk oral creation to written literature and vice versa from written literature to folk oral creation.

Key words: Dilorom, image, epic, concubine, oral creativity, written literature, art, music, sophistication, ancient, common, legend.

ПОСТ ДИЛОРОМА В «САБАЙ САЙЁР» И «ХАШТ БИХИШТ».

Аннотация. В статье со сравнительной точки зрения анализируется образ наложницы Дилором, изображенной в эпосе Дехлави «Хашт Биhsht» и Навои «Сабай Сайёр». Особое внимание уделено древним корням образа Дилоромы и процессу его постепенного переноса в художественную литературу. Акцент был сделан также на таких явлениях, как совершенствование этого образа в художественной литературе, переход от народно-устного творчества к письменной литературе и наоборот от письменной литературы к народно-устному творчеству.

Ключевые слова: Дилором, образ, эпос, наложница, устное слово, письменная литература, искусство, музыка, изысканность, древнее, обыденное, легенда.

Dilorom obraz sifatida, umuman kanizak obrazi og‘zaki va yozma adabiyot olamida Bahrom obrazi bilan yonma-yon, teng paydo bo‘lib, birgalikda tarix sahifalaridan mustahkam o‘rin egalladi. Bu obrazlarning og‘zaki adabiyotdan yozma adabiyotga, tasviriy va amaliy san’atga singib dovrug‘i oshdi, turli el va xalqlarning adabiyotidan mustahkam o‘rin egalladi, shu xalqlarning sevimli qahramoni darajasiga ko‘tarildi, umumlashma bir obrazga aylandi va tarixiy asarlardan joy oldi. Dilorom adabiyotda xushovoz xonanda, xushnavoz sozanda, hassos qalb sohibasi, sof muhabbat egasi timsolida tasvirlanib, Zuhra – Venera yulduzi shaklida talqin etiladi. Sayyora Zuhra va changchi Diloromda bog‘lanishlar bor, birinchisi ikkinchisining maydonga kelishida manba vazifasini o‘tadi. Sharqda “Zuhra san’at homiysi, nafosat ramzi”, usta bastakor,

go'zal sanam deb ta'riflanadi (Mallayev. 1974:28). Xusrav Dehlaviy (1253–1325) va Alisher Navoiy [1441–1501] g'azaliyotida Zuhra nomiga alohida urg'u berilishini kuzatamiz, chunonchi:

Zuhra, k-andar pardai seyum setora soxtast,

Gohi nola bo setori o' "Sitoe" mezanam

[Дехлавий, 1975:828].

Keturgil raz qizin, soqiy, mug'anniy nag'mae tuzgil,

Ki, ul ko'ktin keturgay Zuhrani afg'onga mizrobing

[Навоий,1990:254].

Zuhraning bu sifatleri qadim yunonlarning Apollon (san'at homiysi, yorug'lik va muzalar) xudosi bilan hamohangliklar kasb etadi. Shunday qilib G'arbda Apollon musiqachilar homiysi bo'lsa, bu unvonni Sharqda sozandalar yalovbardori Zuhra qabul qildi. Shuningdek, Zuhra rimliklarning sevgi ma'budasi Veneraga yaqin va hatto yunonlarning nafosat ma'budasi Afrodita bilan o'xshashliklarga ega. Atoqli yunonshunos N.A.Kun (1877–1940) Afroditada Sharqning ta'sirini ko'radi, finikiyaliklarning Astarta ma'budasi sifatleri Afroditaga ko'chgan va Astarta esa vaviloniya (vavil-bobil)liklarning sevgi tangrisi Ishtar (Ashtar-Astar-Astarta – B.M.) dan olingan [Кун,1975:52–58]. Dastlab Afroditani osmon, yomg'ir va dengiz tangrisi sifatida tanishgan, u bu sifatleri bilan O'rta Osiyo xalqlarining suv, ma'murchilik va muhabbat ma'budasi Anaxitaga ("Avesto"da Ardvisura Anaxita-Naxita-Naxit-Nohid–B.M.ta'kid bizniki) mushtarak. "Anaxitani yunonlar Anaitas deb atab, Olimp xudolari qatoriga qo'shganlar"[Сулаймонова,1965:200]. Shu kabi Anaxita qadim zamonlardayoq O'rta Osiyo xudolaridan Mitra – Quyosh tangrisi bilan birga (Artakseriks II davrida, 404–353 yillar) Eron ilohiysi Axura Mazda (Xura Mazda, Xur Mazd, nihoyat Xurmuz, Xurmus–B.M. ta'kid bizniki) qatoriga qabul qilinadi [История УзССР,1955:107]. Shu tariqa Anaxita ko'p asrlar Eronning Axura Mazda va Veretragna – Varaxran xudolari bilan birgalikda xudolar uchligini tashkil etadi va "Avesto"dan mustahkam o'rin egallaydi. Hatto Parsda (Eronning hozirgi Fors ostoni, markazi Sheroz) Anaxitaga atab qurilgan ibodatxona g'oyat mukaddas sanalgan, unda sosoniylar sulolasining Artasher I Papakning bobosi bir paytlar kohin (soston)lik qilgan ekan [История Ирана,1977:107]. Anaxita – Nohid Kushan saltanatida (eradan oldingi I va keyingi IV asrlar) tasviri tangaga muhrlangan ilk mahalliy ilohalardan biri hamdir.

Falak Zuhrasi (Dilorom) ko'pincha ma'bud Bahrom bilan yonma-yon tasvirlanadi. Ma'bud Bahrom va ma'buda Zuhra bilan yunonlarning Ares (jang xudosi) va Afrodita hamda rimliklarning Mars (urush ilohiysi) va Venera (dastlab yomg'ir, dengiz va so'ngroq, sevgi va nafosat) Ollohlari o'rtasida bexos o'xshashliklar ko'ramiz. O'rta Osiyoda Yunon–Baktriya (312–64 yillar) davlatining vujudga kelishi oqibatida O'rta Osiyo va Yunon madaniyatlarining o'zaro ta'sirlari kuchayadi, ularning yaqinlashuvi tezlashadi. "O'rta Osiyoda grek xudolariga atab ibodatxonalar quriladi, Zevs bilan zardushtiylikning bosh xudosi Axura Mazda, Apollon va Mitra, Afrodita va Anaxita bir-biriga yaqinlashib, hatto qo'shilib ketadi" [Маллаев.1976:38] Demak Zuhra, Apollon, Afrodita, Venera, Anaxita, qolaversa, Mars, Mirrix, Bahrom, Ares o'rtasidagi o'xshashliklar g'oyibdan yoki tasodifiy paydo bo'lgan emas ekan. Mars va Venera yunonlarning Ares va Afrodita nomli ma'budalari ta'sirida yuzaga kelib, qadimiy mifologiyaga ko'ra Ares va Afrodita er-xotin ekanlar, Bahrom va Zuhra (Dilorom) o'tmishdanoq chin oshiq-ma'shuqa tarzida tarannum etib kelinadi. E'tibor bering Ishtar, Astarta, Afrodita, Anaxita va Venera barchasi zamin va ekin, suv va ma'murchilik, bahor va yomg'ir, unum va farovonlik, muhabbat va nafosat, musiqa va san'at

tangrilaridir. Ishtar vavilon (vavil–bobil–B.M.)cha, Astarta – finikiycha, Afrodita – yunoncha, Anaxita – Nohid – forsha, Savit – qadimiy turkiycha, Venera – rimcha, Zuhra – arabcha, Cho‘lpon – o‘zbekcha bo‘lib, jami Venera planetasini anglatadi. Navoiy xonanda va sozanda Udiy haqida to‘lqinlanib so‘zlar ekan uni: “... xushovozlikda Zuhraning otasi va xushxonlikda aning farzandi ruhafzasi bo‘la olur erdi”, deb yozadi [Навоий,1991:14].

Uzoq, o‘tmishda Zuhrani Nohid deb atashgan va uni shu xilda yuritish odat tusini olgan. Buning izlari keyingi asrlar she‘riyatida uchraydi, goho Dehlaviy Zuhrani ko‘hna atamasi Nohid shaqlida tilga oladi:

Kard Bahrom bo hazor umed,

Choma kofurfom chun Nohid [Дехлавий, 1972: 401]

Alisher Navoiy ham ba‘zan Zuhrani qadimiy nomi Nohid tarzida qo‘llaydi:

Oncha faryod etti mutriblar Navoiy nazmidin,

Kim, Utorid she‘ridin charx uzra Nohid etmagay [Навоий,1989:455].

Nizomiy, Dehlaviy va Navoiy dostonlari mavzuida “Haft axtar” asarini yaratgan Abdibek Sheroziy (1515–1580) kanizakni Nohid nomi bilan ataydi, ya‘ni Ozoda, Fitna yoki Dilorom emas, balki:

Dilbari bud nomi o‘ Nohid,

Bud oinai raxshi xurshid [Шерозий, 1973:58].

Husayn Zamiriy (XVI ASR) bo‘lsa o‘z dostonini hatto “Bahrom va Nohid” deb nomladi, Tojikiston, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston va Eronda hozirda ham qizlarga Anaxita va Nohid ismlari berilishi hollari uchrab turadi, yana Eron xotin-qizlar majallasi “Nohid”dir. Shunday qilib samoviy ma‘bud Zuhra sifatleri zamin sanami – Diloromga ko‘chdi:

Tund sendin sepehr Bahromi,

Changzan Zuhraning Diloromi [Навоий,1992:7].

Ma‘buda Zuhra, inson Zuhraga, keyinchalik Diloromga yaqinlashdi, “Zuhra sayyoradan Zuhra – insonga” aylandi [Маллаев.1976:123]. Shu tariqa avvaliga suv va ma‘murchilik, yer va unum ma‘budasi – Anaxita, keyinchalik muhabbat va nafosat tangrisi Nohid, nihoyat musiqachilar yalovbardori Zuhra tarzida talqin etila boshladi.

Alisher Navoiy Zuhra timsolida turli cholg‘ularni xonishga keltiruvchi buyuk san‘atkorni ko‘radi:

Navoiy Zuhra udin motamim tutqonda kuydurdi,

Falak sari ermish borg‘on uchqunlar fig‘onimg‘a

[Навоий, 1987:68].

Zuhra holimg‘a surudin navhag‘a aylab badal,

Changining sochin yoyib, durri sirishk izhor etar

[Навоий,1989:120].

Samoviy – Zuhra go‘zallik va sevgi ramzi, musiqa va san‘at homiysi sifatleri Diloromga ko‘chdi, falak Zuhrasi inson Zuhraga, u esa Diloromga aylandi. Shu bois Dilorom tasviri hamisha musiqa bilan hamnafas tasvirlanadi, u mohir sozanda, lozar kuychi, shirali ovoz sohibasi. Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra, Bahrom Go‘rning changchi ma‘shuqasi Dilorom musiqada “Duyak” usulini ijod etgan, mazkur afsonalar qadimgi gruzin, arman, eron “Voqeanoma”larida bor. Bahrom ov qilganda Dilorom soz chalib, sevimli yorini ovga rag‘batlantirar ekan, Dilorom Yaqin va O‘rta

Sharq folklorida, yozma adabiyotida shu qadar mashhurki, u haqda hatto shaxmat (shatranj, satrang) o‘yini bog‘liq rivoyatlar paydo bo‘ldi. “Dilorom moti” nomi bilan yuritiluvchi ajoyib shaxmat etyudida bir vazir (ba‘zi rivoyatlarda Bahrom Go‘r) zo‘r shaxmatchi bilan dona surib boyligini boy beradi va nihoyat go‘zal xotini Diloromni o‘yinga tikadi. O‘yin oxirida vazir og‘ir ahvolga tushib qoladi, vaziyatni ko‘rgan Dilorom eriga oson yo‘l bilan g‘alabaga borish yo‘lini qo‘shiq orqali ifoda etadi va vazir zafar quchadi [Александрович,1986:15].

Dilorom davrma-davr qator qissalarning markaziy figurasiga aylanib bordi, qolversa Bahrom va Dilorom hikoyati mundarijasiga yaqin turuvchi talay qissa va hikoyalar maydonga keldi. “Shahzoda Muslim va Malikai Hazorgesu” shunday hikoyatlardan, bir kuni shahzoda Muslim ovga kanizak Hazorgesu bilan birga chiqadi va sendagi jami martaba, davlat men tufayli, deb kanizakka minnat qiladi. Shohning ta‘nasi kanizakka yoqmaydi, u shahzodani tark etadi va xorkash cholning kulbai g‘aribxonasida panohtopadi. Xorkash chol va kanizak oltin konini topadi, shahar chetida muhtasham qasr barpo etadi, ular qasrga Muslimni taklif qiladi, shahzoda kanizakni taniydi va hokazo [Жомеъ-ул-хикоёт,1981:270–297]. Yuqoridagiga mushtarak voqealar Abdulla Hotifiy(1453–1520)ning “Haft manzar”ida ham aynan shu xilda kechadi. Ana shu xil an‘anaviy tanish syujet asosida paydo bo‘lgan “Bahrom va Zuhra”, “Hikoyati Malikai Olamoro va shahzoda Sanjar” hikoyatlarining voqealari ma‘nodosh va bir-birini takrorlaydi. Bu hikoyatlarda Zuhra va Olamorolar Hazorgesu monand baxtlari yo‘lida kurashadilar, pirovardda murod-maqсадlariga erishadilar [Салимов.1971:76]. Bu jihatdan “Qissai Bahromi Go‘ru kanizaki o‘ Dilorom” qissasi xarakterli, nomlar an‘anaviy bo‘lsa-da, voqealar an‘anaviy mavzudan yiroq. Qissaga Bahrom va Dilorom haqidagi qator hikoyatlarning har xil ko‘rinishlari sifatida qarash to‘g‘riroq bo‘ladi [Жомеъ-ул-хикоёт.1985:183–192]. Dilorom obraz sifatida Bahrom singari g‘oyat murakkab yo‘lni bosib o‘tdi, Bahrom haqida sanab o‘tilgan barcha asarlarda Dilorom siymosi beriladi, faqat kanizak nomlari turlicha: Ozoda, Fitna, Dilorom, Gulandom, Oshub, Nohid, kanizak nomi qissa va rivoyatlarda ham turli xil: Hazorgezu, Zuhra, Olamoroy va hokazo. Yozma adabiyotda bu obrazga birinchi Abulqosim Firdavsiy (932–1020) murojaat qildi, “Shohnoma”dagi “Gunohkor Yazdigurd podsholigi” dostonida Bahromning Ozoda ismli sevimli kanizagi obrazi beriladi. Firdavsiy Ozodaga o‘rin ajratadi va uni qisqa misralarda ifodalaydi, Ozoda obrazi keyingi asrlarda yozma adabiyotda paydo bo‘lgan jami kanizaqlar obrazi uchun zamin hozirladi. Nizomiy Ganjaviy (1141–1209)ning “Haft paykar”ida Fitna obrazi beriladi, ov payti kanizak javobi shohga yoqmaydi, shoh kanizakni qatl etish uchun Sarhang (lashkarboshi) ixtiyoriga topshiradi. Fitna tadbirkorligi tufayli omon qoladi, shoh va kanizak qayta uchrashadi, shunday qilib kanizak obrazi yozma adabiyotda inkishof topa bordi.

Alisher Navoiy va Xusrav Dehlaviy Diloromining obraz sifatida tadriji olis zamonlarda ibtido topgan. Har ikki doston qoliplovchi hikoyasida Dilorom obrazi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Har ikki daho shoirning kanizak obraziga munosabati aytarlik bir xil. Dilorom ishqda sadoqatli, ishda farosatli, husnda yagona, musiqada barkamol, xonandalikda tanho va tengsiz sanam ko‘rinishida tarannum etiladi. Daho shoirlar Dilorom obraziga o‘zlariga xos uslubda jilo berishadi:

*Aslash az Chinu rux chu lsh‘bati Chin,
Gesuyash chun savodi Chin mushkin.
Baski kardiy ba har dile orom,
Ba diloromiyash baromada nom.*

*Didanash, k-az saloh duriy dod,
Sinaro dog'i nosaburiy dod [Дехлавий,1972:257].
Yuzi gulzoru iki lab anda,
Ikki gulbargi bal'ajab anda.
Har biri to'la shirai jondin,
Ezilib shira obi hayvondin.
Kimki, oni shakarfishon topibon,
Nechakim, o'lgan ersa, jon topibon [Навоий,1992:95].*

Har ikki qoliplovchi hikoyatda ov mojarosidan keyingi voqealar tizmasida Dilorom sarguzashti yetakchilik qiladi, kanizak hodisalar markazida turadi. Kanizaqlar Bahromdan og'ir merganlik san'atini namoyish etishni (Firdavsiy va Nizomiy hikoyatlari kabi, faqat shartlar va uning ijrosi turlicha) so'radilar:

*Simbar ham ba ruxsati shohiy,
Guft, k- "In xohish, ar zi man xohiy,
Novake zan bar ohui soda,
Ki shavad moda nar, narash moda" [Дехлавий,1972:262].*

*Ki: "Burun sol iki qo'lig'a shikol,
Uylakim, turg'ay o'z erida g'azol.
So'ngra otmoqqa yaxshi ko'zla ani,
Ham yiroqtin turub bo'g'uzla ani" (Навоий,1992:108).*

Bahrom bu shartlarni qoyilmaqom bajarsa-da, kanizaklar shohning merganlik mahoratini jo'ngina baholashadi, bundan so'zsiz shoh larzaga keladi, g'azabi jo'shadi, jahli avjga minadi. Dehlaviy Bahromi Diloromni kimsasiz dashtga tashlab ketsa, Navoiy Bahromi Diloromning qo'l-oyog'ini o'z sochlariga chandib dahshatli biyobonda qoldiradi:

*Shah shudu nozanin ba ranch bimond,
Ajdaho barguzashtu ganj bimond [Дехлавий,1972: 263]
Ikki gisusidin kamand aylab,
Tashladilar g'ulg'ula band aylab [Навоий,1992:110].*

Kanizaqlarning og'ir va mashaqqatli sarguzashtlari boshlanadi, Diloromlar sevgilisi Bahrom tomonidan taptalgan, mungli kanizak, yoridan ajralgan dilpora ma'shuqalar. Bahromning shuncha jabr-zulmlariga qaramasdan Diloromlar uni jondan ortiq sevadi, uning qiynoqu azoblariga bardosh beradi va hamisha Bahrom andishasi bilan yashaydilar. Kanizaqlar o'zlarining haqligini isbotlash va muhimi Bahromlarni uyqusidan uyg'otish istagida yonadilar. Diloromlarda murakkab tomonlar ham bor, bular o'zlarini kiynoqqa solgan Bahromni tezgina kechirishda, unga xayrixohlik bildirishlarda ko'rinadi. Ov mojarosidan so'ng Navoiy Diloromi uzoq Xorazmga borib qolsa, Dehlaviy Diloromi o'sha atrofda Dehqon (qadimda katta yer egasi) xonadonida panohtopadi. Dilorom Dehqon bilan ota-bola tutinadi, undan musiqa sirlarini bilib oladi, barbat chalishni o'rganadi. Dehqon qizining barbat chalishdagi shuhrati chor atrofga yoyiladi, bu ovoza saroy gacha yetib boradi. Bahrom mo'jizani ko'rish ishtiyoqida o'sha qishloq sari yo'l oladi. Dehqon qizi yuziga chimmat tutgan holda (Nizomiy Fitnasi ham yuziga parda tutib Bahromga o'z hunarini namoyish etadi) barbat chaladi va mahoratini ko'z-ko'z qiladi. Barbat (o'rdak shaqlidagi cholg'u)ning dilkash va o'ynoqi, nozik va mayin sadosi tinglovchilarni sarxush etadi, ularni

hayajonga soladi, allalaydi va elitadi, hatto o'rmon hayvonlari ham o'lib, ham tirila boshlaydi. Navoiy Diloromi Xorazmda shoh va arkoni davlatni bir necha bor musiqa ila sehraydi. Diloromning bu sifatleri bexos Apollonni xotirga tushirdi, "Apollon yaylovda nay yoki oltin kifarasini chalganda, sehriga mahliyo yovvoyi hayvonlar o'rmondan chiqib kelishar ekan" [Кун, 1975:34]. Navoiy kanizak sarguzashtini qoliplovchi hikoya doirasida cheklab qu'ymay, Dilorom voqealarini dostonning oxirgi – yettinchi hikoyasiga ko'chiradi. Navoiy bu bilan bir tomondan Dilorom taqdirini sirli qoldiradi (qoliplovchi hikoyat uchun) va ikkinchi bir tomondan kitobxonni voqealar yechimigacha (yettinchi hikoyat mazmuni bilan) hayajonda tutadi.

Har ikki Dilorom chin muhabbat sohibasi, ular musaffo va iffatli, sodiq yor va jafokash ayol. Navoiy Diloromdagi chin ma'shuqa va sadoqatli mahbuba sifatlarini jonli buyoqlarda berish niyatida yettinchi hikoyat syujeti halqasiga Dilorom va Xorazm shohi voqealarini ilova qiladi. Dehlaviy Diloromdagi xususiyatlarni ravshanroq tasvirlash istagida Diloromning chang ijrosida mohir bo'la turib yana barbat chalish (to'g'ri boshqa musiqa asbobi)ni Dehqondan yod olgani epizodlarini ilova etadi. Navoiy Diloromi ham bu sohada betakror, hatto Kofur unga musiqa ilmida shogirdlikka tushadi. Kofur Xorazm mulkida o'z surudi va rudi bilan mashhur xonanda, elga manzur sozanda, ko'plab shogirdlarning ustodi yaktosi. Lekin u Dilorom san'ati oldida ojiz, shu bois e'tiqod ila Diloromga shogirdlikka tushadi. Sababi Dilorom san'atining sehri Xorazm xalqining mehrini kozonadi va Kofurning musiqachilik ishi kasodga yuz tutadi. Kofur Diloromdan kuy sehri va musiqa sirlaridan ta'lim oladi, demak Dilorom musiqa bobida – ustoz shoyista. Dilorom kuy ijro etganda, uning mungli ohangi mungli sarguzashtlarga ishora etishini Kofur bexos sezib qoladi. Dilorom qo'lga soz olsa, pardalar mungli ingraydi, chang simlari fig'on chekadi, Dilorom o'z dardi, o'z xasratli sarguzashtini kuyga solgan bo'ladi va tinglovchini o'z g'amiga sherik, o'z dardardiga hamdard qiladi.

Har ikki Diloromda farq qiluvchi tomonlar bor, hind Diloromi Bahromga qisman ta'nadashnom toshlarini otadi, buni Navoiy Diloromida ko'rmaymiz. Navoiy Diloromi va Bahromni saroy a'yonlari bilan botqoq yutsa, Dehlaviy Bahromining o'zi halok bo'ladi va Dilorom taqdiri (kanizak qismati Nizomiyda ham shunday) noma'lum qolib ketadi, umuman ko'p mualliflarda kanizakning keyingi taqdiri negadir sirli qoldiriladi. Diloromlarda muhit ila murosaga kelishish kayfiyati ustun, chunonchi ularning kurashi bir qadar o'tkinchi xarakter kasb etadi. Diloromlarda mushtiparlik, ojizlik ustun, bu feodal jaholati, zulmat qabohati bilan bog'lanadi. Ularning erksizligi, ularning ojizligi bu zamona erksizligi, feodal muhiti ojizligidir.

"Hasht bihisht"ning an'anaviy muqaddimotlarini mustasno etganda "Og'uzi dostoni "Hasht bihisht" sarlavhasi bilan boshlanib, shundan so'ng birdan "Dar sifati Diloromi changiy" bobi bilan boshlanadi, bu bo'limda Dilorom ta'rif-tavsifi beriladi. Xuddi shu xil hodisa "Sab'ay sayyor"ning o'n uchinchi bobida beriladi va ushbu bob to'lig'cha Dilorom vasfiga taalluqlidir. Har ikki shoir Diloromlarni bor go'zalligi, tamom tarovati bilan vasf etadi, ushbu ta'riflar o'ziga xos jaranglaydi. Dehlaviy va Navoiy kanizaklarni ta'riflashda mahorat bilan turli badiiy buyoqlarni qo'llaydilar. Tug'ri ta'rifu tavsiflarda an'anaviy badiiy mushtarakliklar, hamohangliklar mavjud, zero busiz mumkin ham emas edi. Chunki an'anaviy badiiy sifatlar Sharq adabiyotida bir xillikka ega va bundan voz kechishning yoki chekinishning sira iloji yo'qdir. Shu jihatdan Dilorom vasfidagi boblarda o'xshashliklar tabiiylik kasb etadi. Masalan har ikki Dilorom bemonand sozanda, ular barbat va changni xonishga solganda atrof larzaga tushadi, tinglovchi qalbini zabt etadi, uning borlig'ini cho'lg'aydi. Navoiy Diloromning jamolini tovusga, nag'mapardozligini

bulbulga, ovozxonligini Qaqnusga qiyoslaydi. Shoir afsonaviy qush Qaqnus vositasida Diloromning xushovozi va xushsozi, umuman kanizakning musiqa va ovozxonlik bobidagi iste'dod qirralarini ko'z-ko'z qilishga erishadi. Qaqnus – afsonaviy qush, maskani Hind mulki ekan, uning tumshug'idagi uch yuzi oltmish teshikdan turli so'lim ovozlari chiqar ekan. Bu xushrang va xushovoz qush ming yil umr ko'rar va oxir umrida o'tda kuyib ular emish.

Basharti Dexlaviy va Navoiyning Dilorom ta'rifiga bag'ishlagan o'rinlarni yonma-yon qo'yib taqqoslaydigan bo'lsak, ushbu manzara namoyon bo'ladi. Zero biz bu masalalarga yuqorida keng o'rin ajratgan bo'lsak-da, ma'lum aniqliklar kiritish niyatida qayta qiyosga qaytishga jazm etdik. Rost bunda biz faqat shu bo'limlarning mazmuniy xalqasiga e'tiborni kuchaytirishni shart qilib oldik. Chunki Dehlaviyning boshda zikr etilgan bo'limidan so'ng: "Sifati tirandozii Bahrom va xashm giriftan ba on Dilorom" [Дехлавий,1972:261] bo'limi boshlanadi va birdan bizga tanish ov epizodi beriladi. Shundan so'ng Diloromning cho'lga tashlab ketilishi hikoya qilinadi, Dilorom parishon, ahvoli zabun, bo'lgan voqealarga hayron, shomgacha sahroda tanho qolib ketadi, ilojsiz, imkonsiz, ming azobu uqubat ila o'zida kuch yig'ib joyidan jiladi:

Mond be xeshtan sanam, to der

Tashnai g'arqi obu az jon ser.

Pas ba sad xastagiy zi jo barxost,

Rohi sahro giriftu meshud rost [Дехлавий,1972:263]

Shu tariqa Diloromning Dehqon xonadonida bo'lishi voqealariga o'tiladi, jahon kezgan Dehqon, ko'p narsalarni sezgan, hayotdan negadir bezgan bir shaxs sifatida beriladi. U barbat chalishda yagona, ammo zamona ziddiyatlari, murakkabliklari uni o'z iskanjasiga olgan ekan. So'nggi sahifalarda Bahrom va Diloromning yana topishuvi, kanizakning saroyga kaytishi naql qilinadi.

Navoiyda esa o'zgacha manzarani ko'ramiz, Dilorom cho'lda qoldirilgach, oradan uch kun o'tgach, Bahrom uni izlab topolmaydi. Hamma hodisalar, jami voqealar sirli, sehrli kechadi, Bahrom o'z Diloromi hajrida xastalanadi, uning daragini topmaydi. Voqealar o'ta o'tkir tus oladi, shoh o'z qilmishidan pushaymon, Dehlaviy Bahromida bular kurinmaydi, albatta. Ana shu nuqtadan boshlab, "Sab'ai sayyor"ning "Hasht bihisht"dan tubdan farqlari oydinlashib boradi. "Sab'ai sayyor" voqealari yechimi yettinchi hikoyatga boribgina hal bo'ladi. "Hasht bihisht"ning xotimaviy bo'limlarida ham kanizak haqida gap ketmaganidek, "Sab'ai sayyor" oxirgi boblarda ham kanizak shoh ila hamnafas, qamarbasta. Navoiy kanizak taqdiri masalasida tamoman yangicha yo'l tutadi, kitobxonni o'yga cho'mdiradi, kitobxon Dilorom qismatini o'ylab tashvishta tushadi. Ana shu jihatlari bilan "Sab'ai sayyor" hatto "Hasht bihisht" va "Haft paykar"ga ko'p tomonlama kuchli raqobat bildira oladigan darajada ekanligini baralla aytish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Navoiy Dilorom voqeasi bilan jamiki doston voqealarini, ya'ni qoliplovchi va ettinchi hikoyatlar uzviylikini o'rinli bog'lab, bu sohada chinakamiga o'z san'atini namoyish eta olgan. Sababi Navoiy kanizak taqdirini oqibatsiz qoldirmagan holda, uni umumdoston mazmunining bosh ishtirokchisi darajasiga ko'taradi. Navoiy kanizak siymosini, uning sarguzashtlarini atigi ana'anaviy ov lavhasi uchungina zarur deb bilmadi, balki uni voqealarning qizg'in jabhalariga aralashtiradi, unga yetakchi ruh baxsh eta bildi. Navoiy bu sohada salaflarini chinakamiga to'ldirdi, mukammallashtirdi, izchillashtirdi, chinakamiga Nizomiy va Dehlaviyga raqobat bildira oldi. Shuningdek Navoiy kanizak siymosini Bahrom tafsilotlarini to'ldirishda xizmat ettirdi, hodisalarning maroqli tomonlarini barqarorlashtirishda

aynan kanizak obrazidan unumli foydalandi, qoliplovchi hikoyatni teran va tugal bir holatga keltirdi.

Navoiy Darhaqiqat Dilorom obrazini qoliplovchi hikoyatning birinchi rejasiga olib chiqdi va uni Bahrom obrazi mavqei bilan tenglashtiradi. “Sab’ai sayyor”da Dilorom va Bahromning sevgi va o‘zaro bog‘lanish tarixi tafsilotlariga keng o‘rin ajratiladi. Bularning barchasi Bahrom va Dilorom sevgi rivoyatiga alohida e‘tibor berish hamda ushbu muhabbat voqeasini dostonning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishiga olib chiqish bilan izohlanadi. Navoiy kanizak sarguzashtini tafsilotlar bilan boyitadi va bu boradagi ko‘plab mavhumliklarni bartaraf eta bildi.

REFERENCES

1. Александрович Г., Столяр Е. Диларам, Анастасия, Нона... // Бюллетен Ленинградского шахматного клуба им М.И. Чигорина. –1986. – 17 сент.
2. Амир Хусрави Дехлавий. Осори мунтахаб. Дар чаҳор жилд. Жилди дуюм. Ойинаи Искандарий ва Ҳашт биҳишт. – Душанбе: “Ирфон”, 1972. – 444 с.
3. Девони Амир Хусрав Дехлавӣ. Осори мунтахаб. Дар чаҳор жилд. Жилди чаҳорум. Ғазалиёт, қасоид, муқаттаот, рубоӣёт. – Душанбе: “Ирфон”, 1975. –896 сах.
4. Жомеъ-ул-хикоёт. Жилди 2. – Душанбе: Ирфон, 1981. – 448 с.
5. Жомеъ-ул-хикоёт. Жилди 3. – Душанбе: Ирфон, 1985. – 400 с.
6. История Ирана. – Москва: МГУ, 1977. – 488 с.
7. История Узбекской ССР. Т. II. Книга первая. –Ташкент: АН УзССР, 1955. – 544 с.
8. Кун Н.А. Легенды и мифы древней Грессии. 5-е изд. – М.: Просвещение, 1975. – 463 с.
9. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 384 б.
10. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Қайта ишланган 3-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 664 б.
11. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т. I – Тошкент: Фан, 1987. – 724 б.
12. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.3. – Тошкент: Фан, 1988. – 616 б.
13. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.4. – Тошкент: Фан, 1989. – 560 б.
14. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.6. – Тошкент: Фан, 1990. – 568 б.
15. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.Ю. – Тошкент: Фан, 1992. – 448 б.
16. Навоий А. МАТ. 20 томлик. Т.15. – Тошкент: Фан, 1999.–236 б. (Электрон)
17. Салимов Ю. Насри ривоятҳои форсу тоҷик. – Душанбе: Дониш, 1971.–156 с.
18. Сулаймонова Ф. “Муғ дайри...” // Шарқ юлдузи.– 1965. –№ 5. –Б.199–201.
19. Шерозий Абдибек. Ҳафт ахтар. Тартиб ва матн ва муқаддима аз Абулфазл Ҳошим ўғли Раҳимов. –Москва: Идораи интишоороти “Дониш”, 1973. – 249 с.

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA BADIY IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Jamoldinov Bahtiyor Shaxobidinovich

Respublika ixtisoslashtirilgan dizayn maktabi
Kasbiy ta'lim ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10574524>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasviriy san'atining rivojlanishi, xususan milliy o'zlikni anglash, ko'p asrlik an'ana va urf odatlar, din va adabiyotni yoritishdagi o'rni, san'at ta'limi orqali turli yo'nalishlarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Milliy maktablarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning shakllanishi va rivojlanishini madaniyatlar integratsiyasi sharoitida o'rganish zamonaviy san'at tarixining eng muxim vazifalaridan biri ekanligi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, madaniyat, uzluksiz, tasviriy san'at, badiiy jarayon, milliy an'analar, ijodiy metod.

DEVELOPMENT OF ARTISTIC CREATIVITY IN FINE ARTS LESSONS

Abstract. This article describes the development of fine art, in particular, the understanding of national identity, its role in the illumination of centuries-old traditions and customs, religion and literature, and the development of various directions through art education. It is reflected that the study of the specific characteristics of national schools, their formation and development in the context of cultural integration is one of the most important tasks of modern art history.

Key words: integration, culture, continuity, fine art, artistic process, national traditions, creative method.

РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье описывается развитие изобразительного искусства, в частности, осмысление национальной самобытности, его роль в освещении многовековых традиций и обычаев, религии и литературы, а также развитие различных направлений посредством художественного образования. Отражено, что изучение особенностей национальных школ, их становления и развития в условиях культурной интеграции является одной из важнейших задач современного искусствоведения.

Ключевые слова: интеграция, культура, преемственность, изобразительное искусство, художественный процесс, национальные традиции, творческий метод.

San'at milliylikka asoslanadi, ayni paytda ezgulik, olijanoblik, do'stlik, hamjihatlik, ma'naviy yetuklik kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib etadi. Yurtimizga chetdan kirib kelayotgan barcha asarni ham san'at deb qabul qilish noto'g'ri. Bugungi globallashuv jarayonida, tezkor axborotlashuv davrida yoshlarni oqni qoradan, yaxshini yomondan farqlay olishga o'rgatish zimmamizdagi asosiy vazifalardandir. Mustaqillik yillaridagi xalqaro integratsiya O'zbekiston san'atini jahondagi badiiy jarayonlarga qo'shilishiga, yangi tendensiyalar bilan uyg'unlashuviga olib keldi. Mamlakat san'atida xorij innovatsiyalari, modernizm oqimlari, konseptual san'at yo'nalishlarining zamonaviy ko'rinishlari o'z aksini topa boshladi. Bugungi zamonning dolzarb masalalari bilan bog'liq mazkur ijodiy hodisalar ularni jahon badiiy tajribalari kontekstida tadqiq etishga undamoqda. Shu jihatdan, mustaqillik davrida O'zbekiston rangtasvirida rivojlangan yangi

tendensiyalar, ularning zamonaviy jarayonlar bilan ijodiy aloqasi, shuningdek, etnomadaniy meros bilan uyg'unligini tadqiq etish muhimdir.

Akademik tasviriy san'at G'arb mamlakatlarida rivojlanganligi sababli, ushbu san'at bilan shug'ullanish uchun, yuqori darajadagi ustozlar kabi asarlar yozish uchun ularning bilimlaridan o'rganamiz. Ularning bilimlarini o'rganishning eng to'g'ri yo'li, bu ularning asarlaridan nusxa ko'chirishdir. Akademik maktabda bo'lajak rassomni tayyorlashda asardan nusxa ko'chirish darsi qadim zamonlardan beri amalda qo'llangan va hozirgi kunda ham ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. Shu o'rinda misol qilib mashhur haykaltarosh Lorenzo Berninining fikrini keltirishimiz mumkin: "Akademiyalarda qadimgi antik dunyo go'zal haykallarining nusxalari bo'lishi shart, ushbu san'at asrlarini yoshlarga chizdirish orqali ularni o'qitish kerak, ularda go'zallik fikrini tarbiyalash kerak, agarda o'qitishning boshidan o'quvchilarga tabiatdan ishlashga ruxsat bersak, ular keyinchalik go'zallikni ko'ra olmaydilar va hech qachon tabiatdan idrok etish qiyin bo'lgan go'zal va yuqori darajadagi badiiy asarlar bajara olmaydilar, chunki ular tabiatdagi go'zallikni seza olishmaydi"

Tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish texnikasining taraqqiyot davri bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Eng qadimiy nusxa ko'chirish Antik davrga mansub. Bu erda eslab o'tishimiz mumkinki, Antik davrda yasalgan deyarli barcha grek haykallari rim haykaltaroshlarining nusxasi orqali bizga tanishdir. Ushbu nusxalar asl haykallardan bir muncha farq qiladi. Faqatgina haykal hajmi yoki biron-bir mayda qismi bilan emas, balki ishlash texnikasi bilan ham farq qiladi. Nusxa ko'chirish texnikasi taraqqiyotining navbatdagi bosqichi O'rta asrlarda bo'lgan. Bu davrda ham nusxa asar bilan asl asarning o'xshashligi va farqi to'g'risidagi fikrlar hozirgi kundagi fikrlarga nisbatan ancha farq qilgan. Faqatgina Renessans davriga kelibgina nusxa ko'chirish o'zining yuqori cho'qqilariga erishdi. Aynan shu davrda Evropa madaniyatida nusxa ko'chirishning teoretik qonun-qoidalari ishlab chiqildi va nusxa bilan asl asarning mavqelari inobatga olindi. So'ng yuqori darajadagi badiiy asl rangtasvir va haykaltaroshlik asarlaridan nusxa ko'chirish rivojlandi. XVII asrga kelib san'at ihlosmandlarini tasviriy san'atga o'qitish maqsadida rassomlar akademiyalari tashkil topdi. Shu tariqa nusxa ko'chirish amaliyoti akademik ta'limning ajralmas qismiga aylandi, hamda uning maqsadi tan olingan ustalarning namuna bo'lgan asarlarini texnika-texnologiyasini o'rganish va rivojlantirish edi.

Hozirgi kunda Oliy o'quv yurtida akademik ta'limning muhim jixatlaridan biri – asarning asl nusxasidan nusxa ko'chirishdir. Nusxa ko'chirishning dasturi rangtasvir texnika-texnologiyasini o'rganish, hamda yuqori darajada professional mahoratni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Nusxa ko'chirishdan maqsad asar muallifining ushbu asar ustida ishlash jarayonini, ketma ketligini qaytarishdan hamda rangtasvirning nozik sir-asrorlarini o'rganishdan iboratdir. Fikrimizcha, nusxa ko'chirish orqali, rassom, rangtasvir asarini har bir bosqichlarini professional darajada yozish madaniyatini o'rganadi. Hozirgi kundagi rassom qadimda yashab ijod etgan rassomning asaridan nusxa ko'chirish orqali u bilan "suxbat" quradi va uning bilimlarini o'rganadi. Shu tariqa asar muallifi rassomga ustozlik qiladi. Tarixiy portretlar milliy qadriyatlar ifodachisi sifatida rassomning fuqarolik nuqtai nazari hamda milliy merosga munosabatini aks ettirishda o'z ifodasini topadi, obrazlar va mavzular talqini o'zgaradi, zero, tarixning tub burilishlari va ijtimoiy-g'oyaviy evrilishlar paytida zamon qahramonlari borasidagi tasavvurlar o'zgaradi, davr mohiyatini aks ettiruvchi yorqin timsollar yaratilishiga ma'naviy ehtiyoj tug'iladi.

Rangtasvirda nusxa ko‘chirishni boshlashdan avval rassom o‘z oldiga maqsad ko‘yishi kerak. Nusxa ko‘chirishni amalga oshirishda nusxasi ko‘chirilayotgan asarni va asar muallifini yaxshilab o‘rganish kerak. Asar muallifi qaysi davrda yashab ijod etgani, qanday maktabga mansub ekanligi, asar yozishda nimalarga asosan e’tibor berganini, qaysi texnikada asarni yozganini va qaday materiallardan foydalanganligini taxlil qilib o‘rganib chiqishi kerak. Rassom bundan tashqari nusxasi ko‘chirilayotgan asarni texnologiyasini o‘rganishi kerak. Asar qanday matoga ishlangan, asar yozishda ishlatilgan ashyolar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishi va ularni o‘rganishi kerak. Rassom nusxa ko‘chirish orqali ketma ketlikka, ranglarni qay tarzda mukammal ishlatish mumkinligiga, asarni qaysi joylarini ko‘proq ishlash, qaerga urg‘u berish va bir rangda ishlab boshqa rangda lessirovka qilib natijaga erishish kabi bilimlarni o‘rganishga harakat qiladi. Bundan tashqari rassomning rangtasvir asariga bo‘lgan munosabati o‘zgaradi va u tarbiyalana boshlaydi. Albatta hamma ham asardan mukammal darajada nusxa ko‘chira olmaydi, ammo shunday bo‘lgan taqdirda ham ushbu asar va ushbu asar muallifidan ko‘plab rangtasvir sirlarini o‘rganadi. Asar tugallanmay qolgan holatda ham talaba-rassom ishni qanday to‘g‘ri olib borish to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘ladi.

Muxtasar qilib aytganda, nomdor akademik rangtasvir maktablarining namoyondalari asarlaridan nusxa ko‘chirish yuqori bilimlarni beradigan, rangtasvir madaniyatini o‘rgatadigan, professional darajaga olib chiqadigan hamda mustahkamlaydigan muhim amaliyotdir. Zero, akademik maktabda bo‘ljak rassomni tayyorlashda asardan nusxa ko‘chirish tarixdan amalda qo‘llanilib kelgan va hozirgi kunda ham ta’lim jarayonining ajralmas qismidir.

REFERENCES

1. Ахмедова Н.Р. Живопись Центральный Азии XX века: традиция, самобытность, диалог. – Ташкент: 2004.
2. Ахмедова Н. Художник – эпоха – история. San’at. №2. 2004.
3. Ракитин В. Художественные искания Александра Волкова. Научный, методический и информационный журнал МГК “Вестник МАГК”. 2001.
4. Лотман Ю.М. Культура и взрыв. / Лотман Ю.М. Семиосфера. – СПб.: Искусство-СПб., 2004.
5. Зингер Л.С. Очерки теории и истории портрета. Москва. – Изобразительное искусство. – 1986.
6. Хакимов А.А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Ташкент, 2010.
7. Pihomovna, M. S. (2022). SIGNIFICANCE AND ROLE OF PEDAGOGICAL CREATIVITY.
8. Pihomovna, M. S. (2021, July). HEALTHY ENVIRONMENT-HEALTHY COMMUNITY. In Archive of Conferences (pp. 62-66).
9. Pihomovna, M. S. (2021). Eco-friendly environment-the foundation of a healthy generation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 892-895.

COMPARATIVE STUDY OF INTERROGATIVE PRONOUNS AND SENTENCES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Soatova Nasiba Mengdovulovna

soatovanasiba@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578867>

Abstract. This article provides general and specific information about interrogative sentences, their types, classification, usage, and benefits.

Keywords: Classification of interrogative sentences, wh-interrogatives, yes/no interrogatives, alternative interrogatives, tag questions. **СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВОПРОСИТЕЛЬНЫХ МЕСТОИМЕНЕЙ И ПРЕДЛОЖЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.**

Аннотация. В данной статье представлены общие и частные сведения о вопросительных предложениях, их видах, классификации, использовании и преимуществах.

Ключевые слова: Классификация вопросительных предложений, WH-вопросительные вопросы, вопросительные предложения да/нет, альтернативные вопросительные предложения, вопросы-разметки.

A comparative study of interrogative pronouns and sentences in English and Uzbek languages involves examining the similarities and differences between how questions are formed and expressed in both languages. It encompasses an analysis of the grammatical structures, usage, and nuances associated with interrogative pronouns and sentences in English and Uzbek. This study may explore various aspects, including syntactic patterns, word order, and cultural considerations that influence question formation. Additionally, it may investigate how interrogative sentences serve communicative functions in different contexts within each language.

In English, interrogative pronouns are used to introduce questions. The main interrogative pronouns are:

Who: Refers to people.

Example: Who is coming to the party?

What: Refers to things or actions.

Example: What is your favorite color?

Which: Refers to a specific item or choice.

Example: Which book did you choose?

Whose: Indicates possession.

Example: Whose phone is this?

Whom: Refers to the object of a verb or preposition.

Example: Whom did you see at the store?

In Uzbek, interrogative pronouns are also used to form questions. Key interrogative pronouns include:

Kim: Refers to people.

Example: Kim keladi?

Nima: Refers to things or actions.

Example: Nimani sevdingiz?

Qaysi: Refers to a specific item or choice.

Example: Qaysi kitobni tanladingiz?

Kimsan: Indicates possession.

Example: Kim bu telefondagi?

Kimni: Refers to the object of a verb or preposition.

Example: Kimni do'konida ko'rdingiz?

Interrogative sentences in English are formed by inverting the subject and auxiliary verb or using a question word at the beginning of a sentence.

Example: Are you coming to the party?

The interrogative pronoun for 'what' is involved in the construction of a sentence is given by the speaker to the listener to determine the purpose and cause of the action, situation, event - the reality of the event, and serves as an adverb in the sentence. If we analyze the similarities and differences of interrogative pronouns in English and Uzbek languages, we may observe the following: The semantic features of the interrogative words "who" in English and "kim" in Uzbek can be interpreted similarly: Who can cook pilav? Kim palov pishira oladi? According to U. Tursunov and A. Mukhtorov, interrogative pronouns refer to the subject, its sign and quantity, the place and time of the action, and other features. Using the interrogative pronouns, the speaker tries to identify information from the listener about something that is unfamiliar to him - the subject, the event - the event and the action [1]. Agreeing to this conception H. Muhiddinova describes interrogative pronouns as interrogative pronouns used by the speaker to identify information about an object - an event, and an action, which means that it is the function of the word group in the sentence [2]. As we know Uzbek language refers to agglutinative group while English language refers to analytical. For that reason, some grammatical contrasts can be observed. Being an analytical language English does not mark interrogative words 'who' and 'what' as the derived affixes it belongs to. For example, the word what possesses the category of substantive when it denotes noun while when it is before the noun it denotes an adjective. For example, 'What is on the table?' 'What book did you read?'

REFERENCES

1. Academic Databases: Utilize databases like JSTOR, Google Scholar, or PubMed. Use relevant keywords such as "interrogative sentences classification" to find academic articles.
2. Check the catalogs of your local library or university library. Librarians can assist you in finding relevant books on the topic.
3. Libraries: Websites like Project MUSE, ResearchGate, or the Directory of Open Access Journals (DOAJ) may have articles related to your query.

Абдукахорова – дочь Муслимы Мирзабахром.

Андижанский государственный педагогический институт, факультет социально-гуманитарных наук и искусства, кафедра изобразительного искусства и инженерной графики, студент 2 курса.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578888>

Аннотация. В данной статье рассматривается жанр натюрморта в изобразительном искусстве и история его возникновения, правила рисования натюрморта в цветных изображениях, а также художники, эффективно творившие в этом жанре.

Ключевые слова: Натюрморт, перспектива, композиция, цвет, цветовая перспектива, палитра, цвет, эскиз, тень, полутень, светлая тень.

CHARACTERISTICS OF THE STILL LIFE GENRE

Abstract. This article examines the genre of still life in fine art and the history of its origin, the rules for drawing still life in color images, as well as artists who worked effectively in this genre.

Key words: Still life, perspective, composition, color, color perspective, palette, color, sketch, shadow, penumbra, light shadow.

Натюрморт занимает главное место в науке о живописи. Цель изучения данного предмета – глубоко освоить теорию и практические навыки рисования натюрморта будущим учителям изобразительного искусства, сформировать у них положительные способности.

На основе знаний и умений, приобретенных художником-педагогом в живописи натюрморта, роль живописи несопоставима в его наблюдениях и исследованиях перед созданием художественного образа, особенно эскизов, в создании на их основе масштабных произведений искусства.

Натюрморт — французское слово «nature morte» — безжизненная природа, жанр изобразительного искусства. Описаны предметы, которые расположены в реальной бытовой среде, окружающей человека, и по составу образуют целую группу.

Натюрморт изображает «неодушевленные предметы», такие как предметы быта, различные атрибуты, фрукты и овощи, цветы, костюмы птиц и животных, оружие. Иногда в натюрморт можно включать людей, животных и птиц, чтобы дополнить основной сюжет.

Предметы, изображенные в натюрморте, направлены на отображение характера, интереса владельца или ритмических, динамических и статических состояний формы, цвета, фактуры и строения предметов.

Натюрморт был известен в Древнем Египте в настенных фресках, в эллинистических мозаиках, в Китае как фрагмент птичьей и цветочной композиции. В Европе конец 16 в. имеет самостоятельное значение с начала 17 в., а наиболее развитый ее период соответствует 17 в. Термин «Натюрморт» начал использоваться в 18 веке. Итальянский художник М. Караваджо и его последователи играют важную роль в распространении натюрморта. Их любимыми сюжетами стали цветы и фрукты, дары моря – рыбы, крабы.

Жанр натюрморта получил высокого развития у В. К. Хеды из Нидерландов, П. Клааса, Ф. Снейдерса из Фландрии, Ю. Фейта, Ф. Сурбарана из Испании, Ж. Б. Шардена из

Франции и других. Больше внимания натюрморту уделяли П. Сезанн, А. Матисс, Ж. Брак и другие.

В 20 в. реалистические традиции жанра натюрморта продолжили Д. Ривера, Д. Скейрос в Мексике, Р. Гуттузо в Италии. Натюрморт появился в России в 18 веке. В первой половине 19 века М. А. Вруболь, К. Коровин, И. Е. Грабарь и другие пытались найти истину в жанре натюрморта, найти красоту в существовании.

В изобразительном искусстве Узбекистана элементы натюрморта можно встретить в искусстве древности, например, в настенных росписях Афросиаба - фрукты в вазе, в миниатюре - такие предметы, как чернильница и кнут, изображенные в портрет Камолиддина Бехзода «Шайбонийхан». Настоящее становление и развитие натюрморта приходится на 30-50-е годы 20 века. В это же время появились первые образцы натюрморта в творчестве художников: В. Уфимцева, Н. Кашиной, З. Ковалевской, О. Татевосян, С. Абдуллаева, В. Фадеева, Ю. Елизарова и других, эффектно созданных в жанр натюрморта и его развитие обеспечены.

Цвет можно воспринимать по-разному, также возможно мышление и проектирование с использованием цвета. Необходимо изучить основы цветоведения, разницу между понятиями «цвет» и «краска». Цвет, необходимый для картины, обычно создается путем смешивания цветов в палитре. Затем художник трансформирует краску в плоскости картины, создавая комплекс цветов – колорит. Само слово «цвет» одно, но оно определяет многие качества процесса живописи, поэтому правильно считать цвет основой этого вида искусства.

Цвет — один из видимых признаков вещей, воспринимаемых зрением.

Реалистическое изображение с натуры – это верное представление форм и цветов окружающих нас событий или вещей – это построение вещей, основанное на законах построения и перспективы, выражающее их пространственное расположение, материальность, размер и пропорции, приближенное к карандашному рисунку. или зарисовывать в целом, изображая предметы и заключаясь в определении характерных особенностей и изысканной красоты вещей.

Грамотность четкого изображения можно освоить, выполняя учебные натюрморты на начальных этапах обучения. На самом деле натюрморт является ценным изобразительным объектом в обучении основам грамотности.

Натюрморт называют камерной музыкой живописи. В нем можно наблюдать умелое нанесение краски, монодность цвета и пластику формы, а через них можно быстро и легко познать основные законы живописи. То есть перспектива – это конструктивное построение, изображение формы в тени-свете и цвете, положение и материальность изображаемых вещей в пространственной дистанции, единство и гармония в описании цвета и цветовых отношений. Академик Академии художеств Т. Козиев подчеркнул значение натюрморта в учебном процессе: «Натюрморт – это такая почва, на которой должна прочно обосноваться художественная школа».

Натюрморт должен быть изображен в помещении, на улице, в тени и на солнце, при естественном и искусственном освещении. Это, в свою очередь, создает прочную основу для эффективной реализации учебных и творческих задач.

На начальном этапе практического изображения натюрморта необходимо изображать группу предметов и предметов несколько проще, а затем. Важно правильно организовать композицию натюрморта, чтобы изобразить группу вещей. Оно строится на основе двух аспектов: определения организационной части натурной композиции (умения выбирать вещи и композиционно красиво их располагать), определения точки зрения по отношению к природе и описания композиции. на поверхности бумаги. При создании учебной натюрмортной композиции следует соблюдать следующие правила.

При составлении натюрморта форму лучше украшать мелкими узорами, а сложных конструкций избегать. В состав комплексной продукции может входить гофрированный газ. Чрезвычайная сложность по форме и красочность по цвету натюрмортной композиции затрудняет понимание характера цветовых отношений в композиции.

Натюрморт лучше разместить ниже линии горизонта, поскольку на столе должна быть хорошо видна нижняя часть предметов и предметов (их основа). Если основание вещей расположить по одной линии, горизонтальная плоскость поверхности стола не будет видна, что отрицательно скажется на пространственном разрешении натюрморта.

При создании натюрморта необходимо учитывать высоту предметов, их расположение в плоскости картины, цвет и форму. Неправильно, когда группа вещей собирается в одном направлении. Большие предметы могут быть частично заблокированы другим предметом. Предметы в наборе должны быть размещены таким образом, чтобы каждый из них был хорошо виден с первого взгляда.

Цвета предметов в естественной обстановке должны быть в определенной степени схожи и близки друг к другу.

Важна предыстория (основание) учебных материалов. Значительное влияние на восприятие вещей оказывает сила контраста в плане разных цветов и света-тьмы. На светлом фоне хорошо видны полутень и теневые стороны вещей. Объекты могут проявлять больше своих светлых качеств на темном фоне. Удачному изображению природы помогает то, что цвет фона средний между светлыми и темными объектами, гладкий по цвету и не видимый глазом. Например, для темно-красных объектов выбирается нейтральный красный фон, если объекты насыщенного светло-зеленого цвета, лучше иметь менее насыщенный темно-зеленый фон. Фон натюрморта с основой (горизонтальной плоскостью стола) должен быть максимально естественным. В качестве фона также можно использовать обустройство комнаты, ширину внутреннего пространства, внешние стены деревянного дома или ширину далекого пейзажа. В любом случае он должен уметь отражать реальность жизни в природе.

В процессе изображения натюрморта все предметы коллекции, их взаимное расположение, светотеневые отношения подвергаются образному виду и восприятию.

Композиция натюрморта должна быть составлена таким образом, чтобы добиться полного обзора его с любой точки зрения. Успех этой работы зависит от личного художественного вкуса и опыта художника. Выбрав интересную точку зрения по отношению к природе, необходимо определиться с размером листа бумаги или ткани. Необходимо уметь правильно определить и описать композицию натюрморта, выраженную на листе бумаги.

Нельзя также при описании состава природы начинать работу с отдельных предметов и затем переходить к другим. Важно не допустить ошибок в соотношении, расстоянии и пространственном расположении группы вещей на бумаге. Для этого очень необходимо обозначить набор предметов светлыми линиями, тщательно выполнить перспективное - димо всегда сравнивать размеры отдельных предметов и их частей.

В процессе работы с цветом необходимо уточнить характер форм. В процессе визуализации важно соблюдать методическую последовательность от начала и до конца работы.

В заключение следует сказать, что рисование натюрморта, как и другие жанры, требует от художника определенного мастерства. Если оно нарисовано по правилам, работа обязательно будет качественной и приятной для зрителя.

REFERENCES

1. Абдирасулов.С. Художественные термины. Грамота ТДПУ, Т., 2003 г.
2. Абдирасулов. С, Толипов.Н Рангасвир. Издательство «Знание». Т., 2005 г.
3. Бойметов. Б, Абдирасулов С. Чизматасвир. Издательство Г. Гулама. Т., 2004 г.
4. Меджидов. Дж. Внеклассная работа по изобразительному искусству. «Учитель», Т., 1983 г.
5. Орипов Б. Изобразительное искусство и методика его преподавания. Т., издательство «Ильм-Зия», 2005.

O'ZBEKISTON VA JAHON TA'LIM SOHASIDAGI INNOVATSION LOYIHALAR VA TEKNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH.

Dehqonov Behzod Nekmurod o'g'li

Buxoro davlat universiteti "Tarix va yuridik fakulteti"
4-bosqich talabasi.

E-mail: dehqonovbehzod05@gmail.com

Tel: +998901803403

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578900>

***Annotatsiya.** Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsiyalarni qo'llash, bu orqali maktab, texnikum, litsey, universitet muassasalarining dars jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish, o'qitishda samaradorlikni oshirish dolzarb masalalardan biridir.*

Maqolada jahondagi ta'lim muassasalarida eng ko'p qo'llanilgan va O'zbekistonda ularni tatbiq etishga qaratilgan loyihalar aytib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:** AI, innovatsiya, ta'lim tizimi, raqamli texnologiya, krossover tizimi, virtual reallik, 3D model.*

DEVELOPMENT OF INNOVATIVE PROJECTS AND TECHNOLOGIES IN UZBEKISTAN AND WORLD EDUCATION.

***Abstract.** Today, the use of innovations in the education system, thereby improving the use of modern technologies in the teaching processes of schools, technical schools, lyceums, universities, and increasing the effectiveness of teaching is one of the most urgent issues. And projects aimed at their implementation in Uzbekistan are mentioned.*

***Key words:** AI, innovation, educational system, digital technology, crossover system, virtual reality, 3D model.*

РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ И ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И МИРОВОМ ОБРАЗОВАНИИ.

***Аннотация.** Сегодня применение инноваций в системе образования, тем самым улучшая использование современных технологий в учебном процессе школ, техникумов, лицеев, вузов, повышая эффективность обучения, является одним из наиболее актуальных вопросов. были упомянуты проекты, направленные на их реализацию в Узбекистане.*

***Ключевые слова:** ИИ, инновации, образовательная система, цифровые технологии, кроссоверная система, виртуальная реальность, 3D-модель.*

Ta'lim tizimi - davlatning eng muhim sohalaridan biri bo'lib bu tizimni rivojlantirish orqali mamlakatdagi mavjud bo'lgan barcha tarmoqlarini yuksalishiga erishishimiz mumkin. Dunyoning eng rivojlangan davlatlarida ham ta'lim tizimiga e'tibor juda yuqori rivojlanganini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim tizimi shunchalik tez o'zgarmoqdaki o'quvchilar va o'qituvchilar zamonaviy strategiyalarga moslashishini talab qiladi. Tassavur qilaylik oddiy sinfxona, ma'ruza qilayotgan o'qituvchi va diqqatini bir joyga jamlashga harakat qilayotgan o'quvchilar. So'nggi paytlarda jahon mamlakatlaridagi ko'plab o'qituvchilar o'z darslarini turli xil yondashuvlar bilan o'quvchilarni o'qishga ko'proq jalb qilmoqdalar.

Ko'pgina maktablar, o'qituvchilar va murabbiylar o'quvchilarni qiziqtirish va faolligini oshirish uchun yangi normada innovatsion o'qitish strategiyalarni sinab ko'rishmoqda.

Raqamli texnologiyalar o'quvchilar ongiga kirishga yordam berib o'quvchilar tomonidan darslarni yaxshi tushinishi kuzatilmoqda. Innovatsion o'qitish tizimlariga yana bir qancha misollar keltirishimiz mumkin.

1. O'yinlarga asoslangan ilmiy bellashuvini tashkil etish. O'quvchi va talabalarni onlayn platformalar orqali qiziqarli bo'lgan va o'yin uslubida tashkil etiladigan bilimlar bellashuvida va qiziqarli ilmiy tanlovlarga jalb etish.

Bu bellashuv hamma ommaviy o'yinlar kabi ilmiy uslubda tashkil etiladi va o'quvchilar unga virtual o'yinlarga berilib ketgani kabi qiziqib bellashuvlarda qatnashadilar. O'yin g'oliblarini rag'batlantirish orqali qamrovini keng qilish mumkin.

2. Virtual reallikka asoslangan texnologiyalar. Bunda asosan o'quvchilar va talabalar 3D formatga ega sinfxonalarda tahsil olishadi. Ular o'zlari o'tayotgan mavzuni virtual reallikda ko'radilar va muloqot qila oladilar. Bu bilan bema'lol boshqa mamlakatlarga, tog'larga davrlarga o'zlarini his qilishlari mumkin.

Tassavur qiling siz sinfxonada tarix fani o'tyabsiz va siz paleolit, mezolit davrida bo'lib qolganday o'zingizni his qilmoqdasiz. Tassavur orqali sizning xotirangizga bir umr bu saqlanib qoladi.

3. Krossover o'qitish tizimi. Bunday tizimdan ko'plab mamlakatlar foydalanadi. Ammo bizning ta'lim tizimimizda juda kamdan-kam bunaqa tizimdan foydalaniladi. Bu sinfda o'tilgan mavzularni tashqarida ham sinash yoki ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Masalan siz tarix, geografiya yoki shunga aloqador fanlardan olgan bilimingizni haqiqiy hayotda ko'rmoqdasiz.

Bu sizga hayrat va zavq berishdan tashqari bir umrlik yoddan chiqmas ma'lumotlarni eslab qolish imkoniyatini beradi. Axir doskadan tashkil topgan bir sinfda diqqatni jamlashga harakat qilib ma'ruza eshitgandan ko'ra uni haqiqiy ko'rishga hech narsa yetmaydi.

4. 3D modeldagi darsliklar. Bu 3D modeldagi darsliklar orqali o'quvchilar va talabalar murakkab mavzuni ham yaxshi tushunishga va kengroq dunyoqarashga ega bo'lishga erishadilar.

Bu ayniqsa tibbiyot va shunga aloqador kimyo, fizik kabi soha va fanlarga oid darslarni o'qiyotgan talabalarga mavzuni o'rganishga juda qulaylik yaratadi.

5. Ta'lim tizimida sun'iy intellekt (AI). Ko'pchilik insonlar sun'iy intellektning yomon jihatlari haqida to'xtalib o'tadi. Uning ta'lim tizimida ijobiy taraflari ko'pligini aytib o'tmoqchiman. AI shunchalik murakkab va keng ma'lumotlarni jamlaydigan texnologiya.

Bunda maktablarda fanlarni baholash va yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalar bo'yicha fikr-mulohazalarni bilib olishimiz mumkin. Ko'pchilik narsalarni ham avtomatlashtirish mumkin. Oliy ta'lim sohasida diplom ishi, kurs ishi, attestatsiya, yakuniy nazoratlarda ham qo'llash orqali ko'chirmachilik kabi holatlatlarni oldini olishga yordam beradi.

Texnologiyalardan oqilona foydalanib ta'lim natijalarini o'zgartish uchun infratuzilma va vositalarni o'rnatish uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha tajribali mutaxassis bilan hamkorlik qilish va ularni sonini ko'paytirishimiz eng yaxshi yondashuvlardan biridir.

Zamon rivojlangani sayin innovatsion texnologiyalar ko'paymoqda. Bunday texnologiyalardan esa ta'lim tizimida foydalanish o'quv jarayonlarini osonlashtirish va o'quvchilarning aqliy salohiyati oshirish garovi bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. <https://www.innovationunit.org>
2. <https://educationadvanced.com>

“SHARQ RENESANSI” DAVRI MAVZUSINI “FIKRIY HUJUM” METODIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO’LLARI

Gadayeva Munira

Osiyo xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası katta o’qituvchisi.

Azimova Zebiniso

Buxoro tuman 20- maktab tarix fani o’qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578913>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Sharq renessansi” davri mavzusini “Fikriy hujum” metodidan foydalanishning samarali yo’llariga doir ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Uyg’onish davri, Sharq sivilizatsiyalari, “Fikriy hujum”, metod, milliy-ma’naviy qadriyatlar.

EFFECTIVE WAYS TO USE THE "THOUGHTSTORM" METHOD ON THE THEME OF THE "EASTERN RENAISSANCE" ERA

Abstract. This article provides information on effective ways to use the “Thoughtstorm” method on the topic of the “Eastern Renaissance” peri.

Key words: Renaissance, eastern civilizations, “Brainstorming” method, national and spiritual values.

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА «МЫСЛИТЕЛЬНАЯ БУРЯ» НА ТЕМУ ЭПОХИ «ВОСТОЧНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ».

Аннотация. В данной статье представлена информация об эффективных способах использования метода «Мыслительный шторм» на тему периода «Восточного Возрождения».

Ключевые слова: Ренессанс, восточные цивилизации, “Мозговой шторм” метод, национально-духовные ценности.

Hammamizga ma’lumki, IX-XII asrlarda O’rta Osiyo hududida birinchi Renessans (Uyg’onish davri) davri sodir bo’ldi. “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma’naviy yuksalish (14—16-asrlar) ga nisbatan qo’llanilgan, uni o’rta asrchilik turg’unligidan yangi davrga o’tish bosqichi deb baholaganlar. Ammo Renessans, ya’ni Uyg’onish faqat Yevropa hodisasi emas. Movaraunnahrda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9—12-asrlar) ulkan madaniy ko’tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot rivojlanib, ilg’or insonparvarlik g’oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. “O’rta Osiyoda birinchi Renessans davrida davlat boshqaruvi taraqqiyoti” mavzusidagi mazkur bitiruv malakaviy ishida Arab xalifaligi hukmronligidan nihoyasiga yetganidan (IX asr) so’ng, O’rta Osiyoda yuz bergan birinchi Renessans davrida vujudga kelgan davlatlar va ularning davlat boshqaruvi shakli, tuzilishi haqida batafsil ma’lumotlar berib o’tilgan.

Sharqda mavjud bo’lgan ilk o’rta asrlar sivilizatsiyasi butun g’arbga ijobiy ta’sir o’tkazgan, keyinchalik g’arbda shakllangan sivilizatsiya Sharq taraqqiyotiga o’z ijobiy ta’sirini o’tkazgan va shu asnodan sivilizatsiyalar millat, xalq va mamlakatlarning o’zaro yaqinlashuvida ham ijobiy ahamiyatga ega bo’lib kelgan. G’arb va Sharq sivilizatsiyalarining o’zaro bir-biriga ta’siri, bir-birini boyitishi insoniyat taraqqiyotining muhim ma’naviy omilidir. Sharq sivilizatsiyasidagi o’z

mohiyatiga ko'ra insonparvarlik xarakteriga ega bo'lgan qadriyatlar jahon sivilizatsiyalar rivojlanishida barqarorlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, IX-XV asr musulmon tarixiy-falsafiy merosi, Sharq, aniqrog'i Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o'rta asrlar va Uyg'onish davri Ovrupa falsafiy tafakkuriga ko'rsatgan ta'siri hamda ahamiyatini ochib berish xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashga samarali xizmat qilishi shubhasizdir.

Jahon fani rivojida Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va ko'plab bobokalonlarimizning durdona asarlari milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz bo'lib, ularning beqiyos ilmiy-ma'rifiy kashfiyotlarisiz fan bir muncha achinarli holga tushib qolgan bo'lar edi. Bu fikrni tarix ham isbotlaydi. Ushbu mavzuni «Fikriy hujum» metodi orqali tashkil etishda, o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonida faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yechishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. «Fikriy hujum» metodi. A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning xar bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir.

Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. «Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog'ida ta'lim oluvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. 3. «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi. Mazkur metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodining mohiyati jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir ta'lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish hamda ta'lim oluvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga 2 qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir. Ushbu metoddan foydalanishga asoslangan mashg'ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi.

Ular quyidagilardir:

1-bosqich. Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'lim oluvchilarni o'zida birlashtirgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruhlarni shakllantirish.

2-bosqich. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3-bosqich. Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish.

5-bosqich. Topshiriqlar yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'ni ularni to'g'rilik darajasi, yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6-bosqich. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlar yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish. Yuqorida mohiyati bayon etilgan «Fikrlarning shiddatli hujumi» metodini ijtimoiy, gumanitar va tabiiy

yo'nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida birdik muvaffaqiyatli qo'llash mumkin.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

O'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;

Vaqtini iqtisod qilish;

Har bir o'quvchini faollikka undash;

Ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

Иммунитеттиң тийкарғы ўазыйпасы, генетикалық жақтан бийтаныс организмлерди ажыратып билиўи яғный, өзиникин хәм басқаны таныўы. Генетикалық жақтан өзгешеликлерге ийе организмлерге (затларға) бактериялар, вируслар, эпийайылар куртлар, белоклар, клеткалар, тканлар аутоанигенлер хәм рак клеткалары жатады. Адам организмде күнине бир нешше жүз миллиард клетка ыдырайды (набыт болады) хәм сонша клетка тазадан пайда болады.

Тилекке қарсы тазадан пайда болған клеткалардың ишинде мәлим дәрежеде өзгериске ушыраған, (мутация болған) клеткалар хәм пайда болады. Хәзирги ўақытта мутацияға алып келиўши факторлар көбейип кетти. Оларға радиацияны, экологиялық өзгерислерди, аўқатлық затлардың структурасының өзгериўин хәм сапасының төменлеўин т.б мысал етиўге болады. Буның ақыбетинде адамлар арасында кеселлениўшилик жийи ушырасып, өсимте, аутоиммун, аллергиялық хәм т.б. кеселликлер менен наўқасланғанлардың саны күннен-күнге көбеймекте.

Мине усындай мутациялық өзгериске ушыраған генетикалық жақтан өзгешеликке ийе клеткаларды жоқ етиў, үзип таслаў, (элиминациялаў) иммун системаның тийкарғы ўазыйпасы есапланады. Иммунитеттиң тийкарғы мақсети организмнің ишки орталығының сапалық турақлылығын қадағалаў. Ал иммунитеттиң жуқпалы кеселликлерге қарсы гүресийи болса тийкарғы функциясының ақыбети есапланады. Хәр бир организмде иммунлық система генетикалық жақтан қадағаланады.[5] Негизинде хәр бир организмнің генетикалық системасы сол организмнің жазмышы есапланады. Айрым адамлар жасаўшаң хәм көбейиўшең болады. Соның ушында халықтың арасында узақ жасаўшы хәм туқым тебериги кең тарқалған адамлар деген пикирлер бар.


Иммунологиялық хызметти арнаўлы клеткалар, тканлар хәм органлар системасы атқарады. Оларға айры тәризли без, талақ, лимфа түйинлери, лимфатикалық фолликулалар, лимфойдлық топламлар, қызыл сүйек мийиндеги хәм перифиялық қандағы лимфоцитлер жатады. Бул диффуз жайласқан органның салмағы орташа 2,0 кг жақын болады. [3]

Өмирде көринис бир болады дегениндей жаратылыста душпанларда көп хәм олардың хийлелериде көп. Соның ушында жоқары дәрежеде раўажланған организмлерде иммунлық системаның дүзилиси хәм функциясы оғада курамалы болады. (раўажланған мәмлекетлердің курамалы дүзилiske ийе армиясын еслетеди). Иммунлық системаның функциясы толық үйренилген деўге болмайды. Себеби, организм ушын бийтаныслық қәсийетке ийе рак клеткаларының раўажланыў механизмин хәм аутоиммун кеселликлердің патогенезин толық билмеймиз, сонлықтан-да, бундай наўқасларды толық емлей алмаймыз. Иммунитет хәққинда сөз болғанда көп мағлыўматлар еске түсийи мүмкин. Бирақ ең дәслеп иммунитеттиң еки түри хәққинда түсиникке ийе болыў керек деп есаплайман.

- 1- клеткалық иммунитет
- 2- гумораллық иммунитет

Рус илимпазы И.И.Мечъников биринши болып клеткалық иммунитеттиң тийкарын салған. Илимпаз ақ қан денешелериниң-лейкоцитлердиң фагоцитарлық функциясын анықлаған [1].

Фагоцитоз деп, лейкоцитлер тәрәпинен патоген микроорганизмлердиң орап алынып ыдыратылыуына айтылады. Фагоцитарлық қәсийетке ийе клеткалар патоген микроорганизмлерди, бузылған клеткаларды бийтаныс бөлекшелерди хәм т.б жоқ етеди. Бул кубылыстың клеткалық иммунитет делиниўиниң себеби фагоцитарлық кубылыста тийкарынан қан клеткалары қатнасады. Төмендеги схемада фатоцитарлық қәсийетке ийе қан клеткалары хаққында мағлыўмат берилген.



Негизинде клеткалық хәм гумораллық иммунитетти бир-биринен ажыратып қараўға болмайды, олар биргеликте тығыз байланыста хызмет атқарады [4].

Гумораллық иммунитетти биринши болып, немис илимпазы П.Эрлих баянлап берген. Гумор суйықлық деген мәнисти билдиреди. Гумораллық теория бойынша организмге биринши марте келип түскен бийтаныс клеткалар (патоген микроорганизмлер) иммунокомпотент клеткалар тәрәпинен антиген сыпатында қабыл етиледі хәм оған қарсы организмде иммуноглобулинлер (антителалар) синтезленеди.

Организмде синтезленген арнаўлы антителалар организмге тускен арнаўлы антигенлер менен байланысып оларды нейтраллайды. Нәтийжеде инфекцияның раўажланыуы тоқтайды еки иркиледі. Бирақ, буның ушын организмдеги иммунокомпотент клеткалар генетикалық жақтан жат (бийтаныс) патоген организмлер менен бир марте болсада дусласыуы керек, сол ўақытта арнаўлы антигенге қарсы арнаўлы антитела пайда болады [2]. Бундай дусласыўдың еки жолын келтирип өтиўге болады.

1. Жукпалы кеселлик пенен аўырып тәўір болыў. Бундай жағдайда тәбийғый иммунитет пайда болады. Организмде тәбийғый жол менен пайда болған иммунитет (антителалар) көпшилик жукпалы кеселликлерде индивидттиң өмириниң ақырына шекем сақланады. Натийжеде жукпалы кеселлик пенен бир мәрте наўқасланған адам көпшилик жағдайларда екинши мәрте аўырмайды.

2. Белгили бир жукпалы кеселликке қарсы арнаўлы антитела пайда етиў ушын, сол кеселликтиң штаммасы (әззилетилген бирақ антигенлик қәсийетке ийе арнаўлы

микроорганизм) организмге жибериледи. Бундай штаммалар кеселлик шақырмайды, бирок организмде иммунологиялық өзгерис пайда етип арнаўлы антителалардың синтезлениўине алып келеди, яғный жасалма иммунитет пайда болады. Буған вакцинация – жукпалы кеселликлерге қарсы шаншыў делинеди. Хәзирги ўақытта илиминиң раўажланыўы менен жасалма (суний) вакциналар ислеп шығарылған.

Айрым ўақытлары адам организмине алдыннан таярланған арнаўлы антителалар жибериледи. Мысал ушын, атты иммунизациялап таяр арнаўлы антителаларды алыўға болады. Таяр арнаўлы антителалар әдетте адам организмінде иммунитет пайда етепейди, арнаўлы инфекция менен ўақтынша гүреседи. Бундай иммунлық сывороткалар арнаўлы инфекциялық кеселликлерди өткир дәўиринде емлеў ушын қолланылады.

Иммунологияда, биологиялық түрге байланыслы иммунитет ажыратылады, яғный хәр түрдің өзиниң жукпалы кеселлиги болады, мысал ушын, таўықта ушырасатуғын шума кеселлиги менен адамлар аўырмайды. Бундай мысалларды көп келтириў мүмкин.

Жүкли хәм емизийли хаялларда иммуноглубинлер анадан балаға өтеди нәтийжеде көкирек жасындағы бала 6 айға шекем жукпалы кеселликлер менен дерлик наўқасланбайды.

Адамлар арасында туўма хәм арттырылған иммунодефицит жағдайлар ушырасады. Артырылған иммунодефицит жағдайларға А.И.Ж.С/СПИД (артырылған иммун жетиспеўшилилик синдромын) мысал етиў мүмкин. АИВ/ВИЧ (адам иммун жетиспеўшилилик вируси) т-лимфоцитлерди зыянлайды нәтийжеде т-лимфоцитлердің функциясы бузылып, организм хәр қыйлы патоген микроорганизмлерди антиген сыпатында танымайды хәм оған қарсы арнаўлы антитела синтезленбейди (қарсы гуреспейди) нәтийжеде АИЖС/СПИД кеселлиги раўажланады.

Иммунология пәниниң раўажланыўы халықтың саламатлығын сақлаўда, өмирдің сапасын жоқарылатыўда үлкен әхмийетке ийе. XIX әсирдің басларында балаларда ушырасатуғын жукпалы кеселликлерден (қызылша, дифтерия полиомиелит хәм т.б.) балалар өлиўшилиги оғада жоқары болған. Эпидемия ўақтында айрым шаңарақларда 2-3 бала өмирден көз жумған.

Айрықша қәўипли кеселликлер эпидемияға хәттеки пандемияға айланып адамлар қырылып қалған. Хәзирги ўақытта бул кеселликлер иммунология илиминиң раўажланыўы нәтийжесинде әмелге асқан шаншыў (вакцинация) жолы менен емленеди. Иммунологиялық қадағалаўдан шетлеп өтетуғын рак клеткаларының раўажланыўының сырлы патогенези иммунологиялық процесслердің ишинде жасырынғанлығы илимий болжаўға жақын келеди.

Жуўмақлап айтқанда, иммунология илиминиң раўажланыўы биология хәм медицина илиминиң раўажланыўына үлкен үлес қосады.

REFERENCES

1. Мечников И.И. «Невосприимчивость в инфекционных болезнях» 34 ст. 1903 г.
2. Незлин Р.С. «Строение и биосинтез антител» 1972 г.
3. Петров Р.Б. «Иммунология» М. Медицина 1987 г.
4. Фонталин Л.Н. «Иммунологическая реактивность лимфойдных оргонов и клеток». Л. 1967 г.

5. Эфроимен В.П. «Иммуногенетика» М. 1977 г.
6. Tolibayevich S. T. Physical Education as the Main Tool in the Improvement of Health Technologies //American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750). – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 7-10.
7. Tolibayevich S. T. Innovative Technologies of Students' Health Care //Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777). – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 16-19.

NAIM KARIMOV. ADABIY TANQID SOHASIDAGI IZLANISHLAR
SAMARASI

Nuriddinova Umida

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

Sarvar Tuliboyev

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10579073>

Annotatsiya. Ushbu maqolada munaqqid Naim Karimovning adabiy-tanqidiy faoliyati va izlanishlari yoritib berildi. Cho'lponga bag'ishlangan "Istiqlolni uyg'otgan shoir" risolasi va Hamza Hakimzoda Niyoziy haqidagi "Hamzani kim o'ldirgan yoxud Shohimardonning qora bahori" maqolasi doirasida adabiyotshunos olimning ilmiy-tanqidiy qarashlari atroflicha bayon etildi. Shuningdek, Naim Karimov o'zbek adabiy tanqidi rivojida o'ziga xos o'ringa va muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tildi.

Kalit so'zlar: Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik, Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Oybek, munaqqid, Vadud Mahmud, tahlil.

NAIM KARIMOV. THE RESULT OF RESEARCH IN THE FIELD OF
LITERARY CRITICISM

Abstract. In this article, the critic Naim Karimov's literary and critical activities and researches were highlighted. The scholarly and critical views of the literary scholar were described in detail within the pamphlet "The Poet Who Awakened Independence" dedicated to Cholpon and the article "Who Killed Hamza or the Black Spring of Shahimardan" about Hamza Hakimzada Niazi. It was also emphasized that Naim Karimov has a special place and important importance in the development of Uzbek literary criticism.

Keywords: Azod Sharafiddinov, Naim Karimov, literary criticism, literary studies, Cholpon, Hamza Hakimzada Niyazi, Oybek, critic, Vadud Mahmud, analysis.

НАИМ КАРИМОВ. РЕЗУЛЬТАТ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ
ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ

Аннотация. В данной статье освещена литературно-критическая деятельность и исследования критика Наима Каримова. Научные и критические взгляды литературоведа подробно изложены в брошюре «Поэт, пробудивший независимость», посвященной Чолпону, и статье «Кто убил Хамзу, или Черный источник Шахимардана» о Хамзе Хакимзаде Ниязи. Также было подчеркнуто, что Наим Каримов занимает особое место и важное значение в развитии узбекского литературоведения.

Ключевые слова: Азод Шарафидинов, Наим Каримов, литературоведение, литературоведение, Чолпон, Хамза Хакимзада Ниязи, Ойбек, критик, Вадууд Махмуд, анализ.

O'zbekiston Qahramoni, sermahsul ijodkor, qalami o'tkir munaqqidlarimizdan biri Ozod Sharafiddinov adabiy tanqidga shunday ta'rif bergan edi: "Tanqid nima, degan savolga javob yo'q. Ba'zilar tanqid yozuvchiga yo'l ko'rsatadi, kamchiliklarini ochib beradi, deyishadi.

Yozuvchilar esa tanqidchilar asardan xato qidirib o'qimasligi kerak, degan fikrni bildiradilar. Mening nazarimda, tanqidchi asarning nuqsonini topishdan ko'ra ko'proq undagi mavjud – yashiringan go'zallikni topib ko'rsata bilishi lozim. Agar ta'rif kerak bo'lsa, tanqid – bu

badiiy adabiyotdagi, she'riyatdagi, nasrdagi yashirin go'zallikni kashf qilish san'ati, derdim" ("Tanqidchilik kasbi haqida"). O'ylaymanki, yuqoridagi so'zlar tanqidga berilgan go'zal hamda tushunarli ta'rifdir. Ozod Sharafiddinov tanqidchi bo'lish uchun ijodkor "Himolay ham ip esholmay qoladi" gan bilimlar sohibi bo'lishi zarurligini, yosh tanqidchilar bu sohani oson deb o'ylab, mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgani, tanqid "umrbod mashaqqatli, tinimsiz, orom bilmaydigan mehnat" ekanligini ta'kidlaydi. Yoxud "ko'zni yumib, og'izni ochib" (Abdurauf Fitrat) yengil mushohada qiladigan, har qanday mafkuraga ergashib ketaveradigan tanqidchilarning peshonasiga adabiyotning o'zi qora tamg'a bosganiga barchamiz guvohmiz.

Ammo o'z yo'lida, o'z maqsadida sobit turgan, haq so'zni aytishdan hayiqmagan zabardast tanqidchilarimiz ham bor (Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud, Cho'lponlarni eslang!), shu o'rinda ularning yo'lini davom ettirgan, ustozlarining nomini oqlagan, ular haqida qimmatli ma'lumotlarni adabiyotshunoslikka olib kirgan adabiy tanqidimiz vakillari ham bir talay. Ulardan biri o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida mustahkam o'rniga ega bo'lgan filologiya fanlari nomzodi, professor Naim Karimovdir.

Naim Karimov ijodiy faoliyati jamiyatda, shuningdek, adabiy muhitda holat yaxshilasha boshlagan davrga to'g'ri keladi. Tanqidchi 1932-yilda Toshkentda dunyoga kelgan. O'rta ma'lumotni olgach, SAGU ning o'zbek filologiyasi fakultetida, so'ng ushbu universitet aspiranturasida tahsilni davom ettirgan. "Hamid Olimjonning badiiy mahorati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan olimning doktorlik ishi "XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari va milliy istiqolol mafkurasi" mavzusida edi (1994). O'z FA Til va adabiyot institutida qariyb yetmish yillar samarali mehnat qilgan.

Naim Karimov izlanuvchan va o'ziga xos ilmiy-estetik qarashlarga ega munaqqid va adabiyotshunosdir. Uning bu xususiyatlari Hamza, Cho'lpon, Oybek, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda ijodi va faoliyatiga oid tadqiqotlarida yorqin ko'rinadi. Uning "Oybek", "Oybek gulshanida qolgan g'unchalar", "Oybek va Zarifa", "Ilhom chashmasining ajib mavjlari", "Oybek. Mashhur o'zbek adibining hayoti va ijodidan lavhalar" kabi asarlari, "Tarix so'qmoqlari izimdan cho'tir...", "Oybek: Tosh ekan bu boshim...", "Ikki darg'a" (Oybek va Otajon Hoshim xususida), "Yozilmagan durdona", "Oybek o'g'itlari", "Oybekning so'nggi qo'shig'i" singari o'nlab maqolalari oybekshunoslikda, umuman, adabiyotimizda katta ahamiyatga ega bo'lsa, "Istiqololni uyg'otgan shoir" risolasi, "Cho'lpon" ma'rifiy romani Cho'lpon haqida, "Hamza Hakimzoda Niyoziy", " "Boy ila xizmatchi" pyesasining ijodiy taqdiri", "Hamza grajdanin", "Qorasoch va Oltoyxon" (Hamzaning "Qorasoch" operasi haqida), "Hamzani kim o'ldirgan yoxud Shohimardonning qora bahori" kabi maqolalari esa Hamza haqida o'qilmagan, biz bilmagan hikoyalarni so'zlaydi.

XX asrdagi buyuk shoir, yozuvchilar hayoti, faoliyatini asarlarining yozilish sababi, tarixi, muallifning atvori, tabiati, turmush tarzi, muhiti-yu davrasi bilan bog'liq holatda gavdalantirish Naim Karimov kabi ijodkorlardan boshlangan, desak adashmagan bo'lamiz. Naim Karimov har bir tadqiqotini aniq faktlar bilan yozadi, o'quvchi rad qila olmaydigan dalillar keltiradi. Albatta, uning orqasida tinim bilmas izlanishlar yotibdi.

Shu o'rinda "Hamzani kim o'ldirgan yoxud Shohimardonning qora bahori" maqolasiga to'xtalsak. Ushbu maqola 1991-yilda "Yoshlik" jurnalining 10-sonida bosilib chiqadi.

Shohimardon! O, tog'lar qo'ynida pinhon,
Go'zal diyor, ko'ksingda dahshatli achhiq

Qanday qonli sirlar bor?...

Yurak zirqirar

Bosadi xotiralar – qora bosiriq...

Oybekning yuqoridagi misralari bilan boshlanuvchi maqola bir necha qismlardan, jumladan, “Shohimardon mozori”; “Hamza Shohimardonda”; “Hamza qazigan choh”; “Fitna”; “Hamzaning so’nggi kuni”; “Fojiadan so’ng”; “Jumboq” dan iborat. Ko’rinib turganidek, maqola hajman anchayin katta. Nomlar asosida qismlarga ajratib olishni Naim Karimovning boshqa maqolalarida ham ko’rishimiz mumkin, masalan, “Abdulla Qodiriy qayerda o’qigan?” maqolasi: “Qodiriy Mayakovskiy bilan ko’rishganmi?”; “Qodiriy shoir Oltoyni nega tanqid qilgan?”; “Qodiriy Moskovdan nega olib qolishgandi?”; “Kuldirardi, biroq o’zi kulmas edi”. Bu tartib-intizom ham Naim Karimovning yana bir jihatini ko’rsatadi. Maqolada munaqqid har bir holatga, berayotgan har bir ma’lumotiga batafsil yondashgan. Shohimardondagi mozorni ta’riflash uchun hazrati Ali haqidagi rivoyatdan so’zlaydi (O’rta Osiyo xalqlarida mavjud rivoyatga ko’ra, uning yettita tani bor bo’lib, yettinchisi Shohimardonning xushmanzara manziliga dafn etilgan). Hamza haqida xufyalar so’zlagan gaplari, johil dindorlarning Hamzaga qarshi tuzgan rejalari, suiqasdni necha kishi amalga oshirgani (17 kishi, shulardan to’rttasi Shohimardondan qochib chiqib ketadi), hatto har birining ismigacha, to’z-to’polon vaqtida Hamza bilan birga bo’lganlar, ya’ni guvohlar (Do’stmuhammad Shermatov, Mullajon Abdurahimov, Jahongir Xolmatov, Orifjon Marjabov), bu fojiada Hamroqul Tursunqulov (qishloq xo’jaligi ishlab chiqarish yetakchisi, rais)ning qanday qo’li borligi, yozishmalar, maktublar aniq tarixiy faktlar bilan beriladi. Hodisa shunday tasvirlanadiki, voqealar silsilasi birma bir butun rang-u ro’yi bilan ko’z oldimizdan o’tadi. Naim Karimov Shohimardon xo’jalari yoki bolsheviklar qilmishlarini yoritarkan, Hamzaning ayblarini ham keltiradi, u Shohimardonda to’g’ri siyosat olib bormagan, degan fikrlarga keladi (Xo’jalarning iltimosini eshitmasdan ularni majburan Shohimardondan chiqarib yuborishga urinish, tahdidlar, so’kish va haqoratlar hamda shu kabilar. Tanqidchi Hamzaning o’ziga o’zi choh qaziganidan taajjubga tushganini kitobxondan berkitmaydi. Maqola so’ngida o’zining qarashlari va jumboqli tomonlarni ham ta’kidlab o’tadi: “...Shuning uchun ham kalavanning bu uchini yechishni dorilamon zamonlarga qoldiramiz”).

“Istiqlolni uyg’otgan shoir” nomli risola Cho’lponga bag’ishlanganini yuqorida aytib o’tdik. Ushbu risolada Cho’lpon adabiy muhiti, uning ayrim asarlari, she’rlarining yaratilishi, tergov, qatl haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi. Munaqqid Cho’lpon ruhiy olamidagi o’zgarishlarni uning she’rlari asnosida o’quvchiga yetkazadi:

Kulgan boshqalardir, yig’lagan menman,

O’ynagan boshqalar, ingragan menman.

Erk ertaklarini eshitgan boshqa,

Qullik qo’shig’ini tinglagan menman.

(1920-yilda Bokuda o’tkazilgan Sharq xalqlari qurultoyining samarasiz bo’lganidan nadomat chekkan shoirning ruhiy iztiroblari)

Cho’lpon asarlarida nomi tilga olingan, ammo bizga notanish bo’lgan shaxslar haqida ma’lumot beriladi. Jumladan, “Ketding” sarlavhali marsiya bag’ishlangan Rahmatulla Sultonov.

Ushbu inson biz tanigan atoqli adabiyotshunos olim va dramaturg Izzat Sultonning akasi bo’lib, O’shda tug’ilgan. U Andijondagi rus-tuzem maktabida Cho’lpon bilan birga o’qigan. Sil kasali bilan og’rib, juda erta, aniqrog’i, 1921-yil 21 yoshida vafot etgan.

Asarda Cho'lpon va Vadud Mahmudning yaqin maslakdoshlik munosabati, ularning fikr almashinuvlari, hazil mutoyibaga yo'g'rilgan yozishmalari, shu o'rinda Vadud Mahmudning ham o'ziga xos iste'dod va salohiyatlari yoritilgan. Naim Karimov bularni ayta turib keyingi izlanishlari borasida ham so'z yuritadi: "...shoir, taxminimga ko'ra, shu yillarda Toshkent, Andijon, Samarqandda qolgan aqrabolari bilan xatlashib turgan. Bu xatlarning bugungi kunga qadar saqlanib qolganiga katta umid bog'lash aqldan bo'lmasa-da, har qalay, ularni izlash huquqidan bizni hech kim mahrum eta olmasa ham kerak".

Adabiyotimiz Naim Karimovdek izlanuvchan, yuksak salohiyatli olim va munaqqiddan ajraganiga ko'p bo'lmadi (2023-yilning 17-sentyabri). Biroq uning qilgan ishlari asrlar osha adabiyot, madaniyat, shuningdek, adabiy tanqidimiz "koriga yarashi"ga ishonchimiz komil.

REFERENCES

1. B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Axmedova. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. T.: Cho'lpon, 2012.
2. B.Karimov. O'zbek adabiy tanqidi (Antologiya). T.: Turon-iqbol, 2011.
3. N.Karimov. Istiqlolni uyg'otgan shoir. T.: Ma'naviyat, 2000.
4. N.Karimov. Hamzani kim o'ldirgan yoxud Shohimardonning qora bahori (maqola). "Yoshlik" jurnali, 1991-yil, 10-son.
5. N.Karimov. Abdulla Qodiriy qayerda o'qigan? (maqola).
6. O.Sharafiddinov. Talant – xalq mulki. T.: Yosh gvardiya, 1979, 174-bet.

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI ORQALI BOLALARDA MA’NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Soatova Rayxona Sadriddin qizi

Termiz davlat pedagogika institute

Pedagogika va san‘at fakulteti

Pedagogika yo‘nalishi talabasi

rayhonasoatova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10579309>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalari, ularning tarbiyaviy ahamiyati, bolalarda ma‘naviy tarbiyani shakllantirishdagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Maqol, ertak, xalq, ma‘naviyat, tarbiya, ezgulik.

THE SIGNIFICANCE OF FORMING SPIRITUAL EDUCATION IN CHILDREN THROUGH EXAMPLES OF FOLK'S ORAL CREATION

Abstract. This article will talk about the samples of folk oral creativity, their educational significance, their role in the formation of spiritual education in children.

Keywords: proverb, fairy tale, folk, spirituality, upbringing, goodness.

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ У ДЕТЕЙ НА ПРИМЕРАХ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация. В данной статье рассматриваются образцы устного народного творчества, их воспитательное значение, роль в формировании духовного воспитания детей.


Ключевые слова: пословица, сказка, народ, духовность, воспитание, доброта.

Insonlarning dunyoqarashi shakllanishida bolalik davri muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda ular ruhiy, jismoniy, psixologik, aqliy jihatdan rivojlanadi va shu bilan birga ularda insoniy fazilatlar, mehr-oqibat hurmat, oliyjanoblik shakllana boshlaydi. Bolalik davri ta‘lim-tarbiya berishning poydevori hisoblanadi.

Shu sabab bizning asosiy vazifalarimizdan biri bolalarni mustaqil shaxs bo‘lishga, faollikka, bilim olishga, insoniylikka, Vatanga sadoqatlilikka, oliyjanoblikka, mehnatsevarlikka, barchani birdek hurmat qilishga undashdan iboratdir. Bizga bu borada xalq og‘zaki ijodi yaqindan yordam beradi.

Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodi tarixiy kategoriya sifatida rivojlanib kelmoqda.

Folklarning barcha janrlari qadimiy bo‘lsa-da, u hamisha yanada takomillashib bormoqda.



Maqollarni hayot qomusi, xalq og‘zaki ensiklopediyasi, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi.

Shuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

Maqollar nafaqat bolalarni, balki katta yoshli insonlarning aqlini teranlashtiradi, nutqini ravshan qiladi, hayotda oq-u qorani ajratishga, muammolarni yecha olishga o‘rgatadi. Yana bundan tashqari, maqollar xalqning dunyoqarashini, tafakkurini, madaniyatini, orzu-istaklarini o‘z ichiga qamrab oladi. Xalq maqollari yoshlarni to‘g‘riso‘zlik, adolat, mehribonlik, topqirlik, hurmat qilish, donolik, ehtiyotkorlik, haqiqatgo‘ylik, jasurlik, vatanparvarlikka undaydi.

“Vatani borning baxti bor”, “Oltin olma, duo ol”, “Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘rni mingni” kabi maqollar yuqoridagi fikrlarga yaqqol misol bo‘la oladi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan yana biri bu ertaklardir. Xalqimiz bejiz “Ertaklar-yaxshilikka yetaklar” deyishmagan. Ertaklarning bolalar hayotida tarbiyaviy ahamiyati anchayin katta. **“Uch og‘ayni botirlar”, “Zumrad va Qimmat”, “Ziyod Botir”, “Egrivoy va To‘g‘rivoy”** kabi ertaklar mo‘jiza va fantaziyani hayot bilan bog‘lab, to‘g‘rilik, halollik, ozodlik, matonat, sabr-bardosh, mehnatsevarlik, odamiylik kabi go‘zal fazilatlarini targ‘ib qiladi. Ertaklardagi qiziqarli syujetlarga shu kabi didaktik g‘oyalar izchillik, bo‘yoqdorlik bag‘ishlabgina qolmay, bolajonlar e’tiborini o‘ziga jalb qilib, shirin tuyg‘ular dunyosiga g‘arq qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan topishmoq bolalarda ziyraklik, topqirlik, mantiqiy fikrlash, fantaziya qilish qobiliyatlarini yanada yaxshi shakllanishida ko‘mak beradi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Topishmoqlarda xalqimizning donoligi, zakovatligigi yaqqol namoyon bo‘ladi.

**Hamrohim bor befoyda,
Qo‘ymas yerda, yo‘l, soyda.
Quvalasam, ketmaydi,
Savalasam, o‘tmaydi. (Soya)**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalq dostonlari, ertaklar, qo‘shiqlar, maqollar, topishmoqlari va boshqa janrdagi asarlar yosh avlodning ma’naviyatini yuksaltirish, uni komil inson darajasiga yetishini ta’minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgandir. Ma’lumki, o‘tgan davrlarda xuddi bugungidek matbuot, ommaviy axborot vositalari, turli o‘quv dargohlari, internet kabi ta’lim, ma’rifat tizimlari bo‘lmagan. Bu kabi vazifalarni esa oddiy xalqimiz tomonidan yaratilgan ijod namunalari bajargan. Xalq og‘zaki ijodi rivojlanishi xalq pedagogikasi yaratilishiga zamin yarata oldi.

Bu ijod namunalarida birlik, hurlik, sadoqat, ezgulik, donolik, ma’rifatlilik, mehnatsevarlik, odillik kabi insoniy fazilatlar ulug‘lanib, razolat, xiyonat, sotqinlik, yolg‘onchilik, birovni haqqiga xiyonat qilish, axloqsizlik qattiq qoralanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, kelajak bunyodkorlari – bolalar, yoshlarni har taraflama barkamol qilib tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyos va samaralidir.

REFERENCES

1. N.B. Xaitova. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining ertak janridan foydalanishning dolzarbligi. "SIENCE AND INNOVATION" SCIENTIFIC JOURNAL. Vol.3, Issue 5, 1193-1198-betlar.
2. G. Saidova, A. Kakhharova. (2022). Xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish. Jamiyat va innovatsiyalar. Issue 04, 314-317-betlar.
3. <https://www.samdu.uz/uz/news/32768>

DAVLAT BOSHQARUVIDA MA'MURIY ORGANLARNING AHAMIYATI

Jiyanova Shohidaxon Mahsumovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi maxsus fan o'qituvchisi
3-darajali yurist, magistr.

E-Pochta: shokhidaxonjiyanova@gmail.com

Tel: +998-91-327-45-05

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10579367>

Annotatsiya. Ushbu maqolamda men boshqaruv organlari, boshqaruv ma'muriyati organlari va ularning vazifalari hamda jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati mavzusini yoritganman.

Kalit so'zlar: Boshqaruv tushunchasi, ma'muriy organlar, rahbar tushunchasi, huquq layoqati, muamala layoqati.

AUTHORITY OF ADMINISTRATIVE BODIES IN STATE MANAGEMENT

Abstract. In this article, I covered the topic of management bodies, management administration bodies and their tasks, as well as their role and importance in society.

Key words: The concept of management, administrative bodies, the concept of a leader, legal capacity, negotiation capacity.

ПОЛНОМОЧИЯ ОРГАНОВ АДМИНИСТРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ

Аннотация. В этой статье я затронул тему органов управления, органов управления и их задач, а также их роль и значение в обществе.

Ключевые слова: Понятие управления, административные органы, понятие лидера, правоспособность, переговорная способность.

KIRISH

“Ma'muriy huquq” atamasi lotincha “administratio” so'zidan olingan bo'lib, “boshqaruv huquqi” ma'nosini anglatadi. Shu sababli, “Ma'muriy huquq” fanining mazmun-mohiyatini ochib berishdan avval boshqaruv, davlat boshqaruvi tushunchalarining mohiyatini anglab olish lozim bo'ladi.

Boshqaruv davlat paydo bo'lmasdan oldin vujudga kelgan bo'lib, kimnidir yoki nimanidir yoxud qandaydir faoliyatga “yo'naltirish, unga rahbarlik qilish” ma'nosini anglatadi.

Huquqshunos olim Y.N.Starilovning fikricha, boshqaruv — bu boshqaruv subyektining boshqaruv obyektiga nisbatan maqsadga muvofiq va doimiy ta'sir etish jarayoni hisoblanadi.

¹⁵⁷Bunda boshqaruv obyektiga sifatida turli xildagi hodisalar va jarayonlar, jumladan, inson, jamoa, ijtimoiy jamoatchilik, mexanizmlar, texnologik jarayonlar va boshqalar namoyon bolishi mumkin.

Boshqaruv subyektining obyektga nisbatan ta'siri boshqaruv tizimiga bevosita bog'liqdir.

Boshqaruv tizimi bu boshqaruv jarayonini ta'minlovchi mexanizm, ya'ni maqsadga muvofiq va kelishilgan holda funksiyalanuvchi o'zaro bog'liq elementlardir. Boshqaruv jarayonidagi bu elementlar orqaga qaytish prinsipi asosida yagona tizimga birlashadi.

¹⁵⁷ г Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Стариков Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004. С. 19.

Ma'muriy huquq sohasi davlatni idora etish jarayonida, ya'ni ijro va farmoyish faoliyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar majmuini o'z ichiga oladi. Boshqaruv faoliyati turlarining xilma-xilligi Ma'muriy huquqning keng ko'lamli va ko'p tarmoqliligini taqozo etuvchi asosiy omildir. Ma'muriy huquq me'yorlari barcha ijro etuvchi hokimiyat organlarining vakolatini aniqlaydi hamda davlat boshqaruv organlarini tuzish, ularni qayta tashkil qilish va tugatish tartibini belgilab beradi. Ular fuqarolarning davlat boshqaruv sohasidagi huquq va majburiyatlarini mustahkamlaydi, ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati va mansabdor shaxslarning xulq-atvoriga yagona qonun-qoidalarni belgilab beradi, ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik va uni qo'llash tartibini ko'rib chiqadi.

Ma'muriy huquq me'yorlari turli ma'muriy-huquqiy munosabatlarning qatnashchilari orasida yuzaga kelayotgan ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida Respublika Prezidenti, barcha darajadagi davlat boshqaruv organlari, davlat xizmatchilari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jismoniy shaxslar (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet mamlakatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar) ma'muriy-huquqiy munosabatlarning qatnashchilari jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy huquq tizimi umumiy va maxsus qismlardan iborat. Umumiy qism me'yorlari davlat boshqaruvining asosiy tomoyillarini, Ma'muriy huquq sub'yektlarining huquqiy holatini, davlat xizmati asoslarini boshqaruvining huquqiy shakllari va usullarini davlat boshqaruv tizimidagi qonuniylik va izomni ta'minlash usullari va tartibini mustahkamlaydi.

Turli davlat organlari tomonidan chiqariladigan me'yoriy-huquqiy aktlar Ma'muriy huquqni bayon qilish shakli, uning manbalari bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi mavjud me'yorlarning aksariyat qismi bevosita ma'muriy-huquqiy yo'nalishga ega bo'lgan eng muhim me'yorlar jumlasidandir. Bular, ijro etuvchi hokimiyat organlarining shakllanish va faoliyat asoslarini belgilab beruvchi hamda fuqarolarning davlat boshqaruv tizimidagi huquq va erkinliklarini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy me'yorlar sanaladi. Ma'muriy huquq asosiy me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim, mudofaa, joylardagi davlat hokimiyati, sanitariya nazorati va boshqa to'g'risidagi qonunlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat boshqaruv organlarini tuzish, ularni qayta tashkil qilish va tugatish to'g'risidagi, shuningdek, boshqaruv tizimlarini iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, ma'muriy-siyosiy qurilish va h.k. sohaslaridagi, turli tarmoqlarni takomillashtirish to'g'risidagi ko'plab qarorlari ma'muriy huquq manbalari bo'lib xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvini tartibga solish ishi O'zbekiston Respublikasi hukumatining, tarmoq va tarmoqlararo davlat boshqaruv organlarining, shuningdek, joylardagi vakolatli va ijro etuvchi organlarning me'yoriy-huquqiy aktlari bilan amalga oshiriladi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv organlarining huquqiy maqomini belgilab beruvchi aktlarni qabul qiladi. Ma'muriy huquq manbalari qatoriga, jumladan, qarorlar, buyruqlar, tarmoq va tarmoqlararo boshqaruv organlari (vazirliklar, mahkamalar, davlat qo'mitalari, respublika agentliklari)ning turli xil yo'riqnomaviy materiallari, shuningdek, joylardagi davlat hokimiyati organlarining qarorlari kiradi.

Mustaqillik yillarida Ma'muriy huquq me'yorlari ancha yangilandi. Chunki, davlatning iqtisodiy funksiyalari, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi va ular faoliyatidagi asoslilik, omilkorlik singari jihatlar ham tubdan o'zgardi. Markazlashmagan tizimga o'tish va umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lmagan qator vakolatlarning markaziy organlardan quyi bo'g'inlarga o'tkazilishi jarayoni ro'y bermoqda.

Ma'muriy huquqning ijro etuvchi hokimiyat tuzilishini tokomillashtirishda, davlat xizmatining huquqiy asoslarini vujudga keltirishda, bozor iqtisodiyotini tartibga solishda, fuqarolar va tadbirkorlik tizimlari qonuniy huquqlari va manfaatlarining qat'iy himoya ostiga olinishini ta'minlashda ahamiyati katta.

Ma'muriy huquq me'yorlarini takomillashtirish jarayoni ijro etuvchi hokimiyat organlarida ikki yo'nalishda ketmoqda. Bir tomondan, ijro etuvchi hokimiyatning markaziy va mahalliy organlari orasidagi vakolatlarni chegaralash yo'li bilan, ikkinchi tomondan esa — bajaradigan vazifasiga ko'ra bir xil tipdagi davlat boshqaruv organlarining huquqiy maqomini belgilashda bir xillikni ta'minlash hamda davlat va ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi boshqaruv darajasini yuksaltirish yo'li bilan ushbu jarayon amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarni boshqarib borishning bozor mexanizmiga o'tish sharoitida ma'muriy huquq me'yorlari yangi iqtisodiy boshqaruv omillarining joriy etilishini nazarda tutadi (litsenziyalash, kvota belgilash, soliq solish va undirish). Bozor iqtisodiyotining ma'muriy-huquqiy ta'minlanishi iqtisodiy va ijtimoiy sohalar rivojini prognozlash va dasturiy rahbarlik qilish, O'zbekistonning ilmiy-texnikaviy salohiyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda davlat mulkini samarali boshqarish va tadbirkorlikni rag'batlantirishga doir tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizning tashkiliy qurilish vazifalarini hal qilishda ma'muriy huquqning ahamiyati katta. Davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish, davlat apparatining ishini yaxshilash, boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning deyarli barchasi ma'muriy huquq normalari yordamida amalga oshiriladi. Ya'ni aynan ma'muriy huquq normalari boshqaruv organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarni tashkil etish, o'zgartirish yoki tugatish qoidalarini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq nafaqat boshqaruvni, balki boshqariluvchi faoliyatni ham tartibga soladi.

Misol uchun, yo'l harakati qoidalari, jamoat joyida yurish turish qoidalari, ov qilish, savdo, sanitariya va yong'indan saqlash qoidalari va h.k.

Shunday qilib, ma'muriy huquq normalari qanday qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishi, ma'muriy javobgarlik turlari va usulini, bunday huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish tartibini o'rnatadi.

Ma'muriy huquq fanining boshqa huquqiy fanlar bilan o'zaro aloqalari, munosabatlariga kelsak, shuni aytib o'tish joizki ma'muriy huquq boshqa huquqiy fanlar bilan chambarchas bog'liq.

REFERENCES

1. Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004. С. 19.
2. "Ma'muriy huquq" E.Hojiyev, T.Hojiyev Toshkent 2008.

3. <https://fayllar.org/mavzu-mamuriy-huquq-asoslari-reja-mamuriy-huquq-tushunchasi-va.html>
4. Xudoyberdiyeva V.J., Xojiyev Ye.T. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma.— T.: TDYuI nashriyoti, 2005.
5. Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004.

DAVLAT BOSHQARUVI SOHASIDA GENDER TENGLIKNING HOLATI

Jiyanova Shohidaxon Mahsumovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi mahsus fan o'qituvchisi
3-darajali yurist, magistr

E-Pochta: shokhidaxonjiyanova@gmail.com

Tel: 91-327-45-05

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10579400>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Gender tenglik tushunchasi, bugungi kunda davlat boshqaruvida gender tenglikning holati va ahamiyati, bu borada davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilingan qarorlar va ularning ijrosi haqida batafsil yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Gender tushunchasi, ayol va erkak tengligi, ayollar huquqlari, erkaklar huquqlari.

THE STATE OF GENDER EQUALITY IN THE FIELD OF PUBLIC ADMINISTRATION

Abstract. This article describes in detail the concept of gender equality, the state and importance of gender equality in public administration today, the reforms implemented by the state and the decisions taken and their implementation.

Key words: Concept of gender, equality of women and men, women's rights, men's rights.

СОСТОЯНИЕ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В СФЕРЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье подробно описано понятие гендерного равенства, состояние и значение гендерного равенства в государственном управлении сегодня, реформы, проводимые государством, а также принятые решения и их реализация.

Ключевые слова: Понятие пола, равенство женщин и мужчин, права женщин, права мужчин.

KIRISH

Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog'i: erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichidir. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat tushunchadir.

O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatidagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida

Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan.

Yurtimizda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan.

Mamlakatimizda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

Shuningdek, 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullandi.

Quvonarli tomoni shundaki, ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog'lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir. Jumladan, qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

To'g'ri, hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir.

Ana shunday salbiy holatlarga qarshi mazkur qonunning 2-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi" belgilangan.

Shuningdek, qonunda gender tushunchasi ham qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra, gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ko'rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidadir.

Bugun O'zbekiston ayollari har bir jabhada o'z o'rniga ega bo'lib borayotganini barchamiz bevosita amalda ko'rib, chuqur his etmoqdamiz. O'tgan yili yurtimiz tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni bugungi ko'rsatkichga ko'tarilgani ham buning yorqin tasdig'idir. Gap shundaki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Senatda esa bu ko'rsatkich qariyb 25 foizga yetdi.

Mahalliy Kengashlar deputatlarining 31 foizi ham jonkuyar, faol ayollardir. Ana shunday natijalar tufayli O'zbekiston parlamenti ayol deputatlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-pog'onaga ko'tarildi. Holbuki, bundan 5 yil ilgari 128-o'rinda edik.

Bunday keskin ijobiy o'zgarishlar parlament saylovlari shunchaki o'tkazilmagani, "Yangi O'zbekiston — yangi saylovlar" shiori hayotda bevosita o'z in'ikosini topganini anglatadi.

Kimlardir ayol kishining rahbar bo'lganining nimasi yaxshi, deyishi mumkin. Bunday savolga javob aniq: nozik hilqat sohibalari ijtimoiy masalalarga ko'proq yurakdan his qilib yondashadi, dilidan o'tkazib qarorlar qabul qiladilar.

Ijtimoiy masalalar esa, bu — xalqning dardi, xalqning muammosi, shu kecha-kunduzda uning boshidan o'tayotgan muammolar bilan uzviy bog'liqdir. Ayol buni ko'proq, teranroq tuyishining yana bir sababi u oila bekasi, bolalar tarbiyachisi, ularning sog'lig'i uchun qayg'uradigan shifokordir. Siyosiy hayotda faol bo'lgan xotin-qizlarimiz aynan mana shunday xislatlari tufayli qonunlarning yanada hayotiy bo'lishi uchun kurashadilar, ularda aniq masalalar, muammolarning yechimlarini ifodalash uchun jon kuydiradilar.

Binobarin, O'zbekistonda xotin-qizlar masalasiga juda katta e'tibor qaratilyapti. Ularning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari Konstitutsiyamiz, qonunlarimizda mustahkamlab qo'yilgan. Tan olish kerak, orada bu boradagi islohotlarning ko'pi qog'ozda qolib ketdi. Ayrim holatlarda ayollar o'zlarini namoyon etishlari uchun sharoitlar kamlik qildi, stereotiplar to'siq bo'ldi. Masalan, ayol tadbirkorlik qilaman, desa, preferensiyalar berish tizimi yo'q edi. Umuman, ularga imtiyozlar yaratish bo'yicha huquqiy baza yaratilgan bo'lsa-da, shularni ro'yobga chiqarish bo'yicha aniq "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilmagan edi. Oqibatda jamiyatning aslida faol bo'lishi kerak bo'lgan mazkur qatlami tobora passivlashib ketdi.

Bir tomondan bu mentalitetga ham bog'liq bo'lgan, deb o'ylayman. Birgina ta'lim sohasini oladigan bo'lsak, bizda qizlar va o'g'il bolalarning bilim olishlari, kasb tanlashlari bo'yicha kelajaklarini ta'minlashda farqlar bor edi, hali ham bunday dunyoqarash uchrab turibdi. To'g'ri, hamma bolalar maktabda o'qitiladi. Biroq keyinchalik kasb tanlash, oliy o'quv yurtida tahsil olishga kelganda, ko'proq e'tibor va ustunlik o'g'il bolaning ta'lim olishiga, uning uchun barcha sharoitni yaratishga qaratiladi. Chunki ba'zi insonlarda faqat o'g'il bolaga bilim berish kerak, o'qitish kerak, chunki u bizning boquvchimiz, degan qarashlar ustunlik qiladi.

Qiz bolaga kelganda, bu boshqacha tus oladi. Maktab ta'limi majburiy bo'lgani bois o'qiydi. Ammo keyin "bu bironing xasmi, kerak bo'lsa turmush o'rtog'i boqib oladi", degan tushunchaga urg'u beriladi.

Vaholanki, qiz bola oliy ma'lumotli bo'lsa, qanchalik bilim va salohiyat olsa, buni kelgusida farzandlariga ham "yuqtiradi", har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas'uliyat bilan yondashadi. Yurtning kelajagi esa mana shunday dunyoqarashga ega onalar tomonidan yaratiladi.

O'z navbatida, bugun jamiyatimizda o'ta bilimli, qobiliyatli bo'lsa-da, o'zini oilasiga, turmush o'rtog'i va farzandlariga bag'ishlagan ko'plab ayollarni bilaman. Zero, oilaning ta'minoti uchun turmush o'rtog'i yetarli mablag'ni topsa, ayolning o'zi ham bor vaqtini, mehnatini bolalari uchun sarflasa, nima uchun biz uni majburlab ishga olib chiqishimiz kerak? Bu ham ularning o'z huquqi, tanlovi aslida.

Demak, xotin-qizlarning jamiyatda o'z o'rnini topishida, birinchi navbatda, ota-onalarning munosabati katta rol o'ynasa, ikkinchisi, oliy ta'limda ularni qamrab olish imkoniyati muhim o'rin tutadi. Masalan, talaba qiz turmushga chiqsa, o'qishni qiynalib davom ettirishga majbur bo'ladi. Qo'llab-quvvatlaydigan qaynota bilan qaynonaning qo'lga tushsa-ku yaxshi, ammo "o'qib nima bo'larding", deydi oilaga kelin bo'lsa, buyog'ini tasavvur qilavering. Yillar davomida

to'planib qolgan shu kabi muammolar, oliy o'quv yurtlariga yoshlarni qamrab olish ko'rsatkichining to'qqiz foiz ekanligi oliy ma'lumotli, keng tafakkur va dunyoqarashi bor ayollarni tarbiyalashda katta to'siq bo'ldi.

Quvonarlisi, bugungi kunda zamonaviy fikrlaydigan ota-onalar, qaynota-qaynonalar, kuyovlar ko'payib boryapti. O'z navbatida, xotin-qizlarning ta'lim olishi, kasbli bo'lishi uchun qog'ozda emas, real hayotda katta qulayliklar, yengilliklar yaratilmoqda. Bugun gender tenglik degan demokratik tamoyil haqida ochiq-oydin gapirilayotgani, bu borada izchil chora-tadbirlar olib borilayotgani fikrimizga misol bo'la oladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Gender masalalari yuzasidan O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida ancha ilg'or siyosat yuritmoqda. Shu bois BMT Markaziy Osiyodagi gender platformasini O'zbekistonda tuzish bo'yicha amaliy takliflarni ko'rib chiqyapti.

Natijada ushbu nufuzli xalqaro tashkilot va qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda gender tenglikni faol ilgari surayotgan mamlakat sifatida Markaziy Osiyo platformasini yaratish ishlari yangi bosqichga ko'tariladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad Markaziy Osiyo mintaqasi bo'ylab gender masalasida olib borayotgan sa'y-harakatlarimizni taqdim etish hamda qardoshlar bilan o'zaro bilim, fikr va tajriba almashishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida ham xotin-qizlarimizning haq-huquqlarini himoya qilish, ularni oliy ta'limga yana-da ko'proq qamrab olishga alohida e'tibor qaratilgani ham bejiz emas.

Mana shunday g'amxo'rlik mevasi ham shirin bo'ladi. Qizlarimiz, ertaga ishlagan yoki ishlamagan taqdirda ham, oliy ma'lumotli bo'lsa, oqilalik libosini kiyadi, qo'pol gapirmaydi, bir qo'lida qaynonasi, bir qo'lida turmush o'rtog'ini ko'tarib yuradi, chiroyli oilaning dilbar va dono bekasiga, o'zaro munosabatlarda mohir diplomatga aylanadi. Mustahkam oila qurishda aynan shu jihatlar nihoyatda muhim ekanligini yigitlar ham yaxshi tushunadi, ular ham, o'z navbatida, o'ziga yaqin bo'lgan turmush o'rtog'i va onasini hurmat qiladi, e'zozlaydi.

REFERENCES

1. <https://strategy.uz/index.php?news=879&lang=uz>
2. "Ma'muriy huquq" E.Hojiyev, T.Hojiyev Toshkent 2008.
3. <https://yuz.uz/uz/news/yangilanayotgan-ozbekistonda-gender-tenglikning-huquqiy-asoslari>
4. Xudoyberdiyeva V.J., Xojiyev Ye.T. Ma'muriy huquq. O'quv qo'llanma. — T.: TDYuI nashriyoti, 2005.
5. Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма», 2004.

O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR HUQUQINING KAFOLATLARI

Mirjavharova Feruzaxon Usmonjonovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi maxsus fan o'qituvchisi 3-darajali yurist.

E-Pochta: Mirzavharovaferuzaxon@gmail.com

Tel:94 399 30 01

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10579434>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotin-qizlar huquqlari, xotin-qizlarning imkoniyatlari, Respublikamizda xotin-qizlarga yaratilgan shart-sharoitlar va qulayliklar haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Gender tushunchasi, ayollar huquqlari, ayollarga berilgan imkoniyatlar.

GUARANTEES OF WOMEN'S RIGHTS IN UZBEKISTAN

Abstract. This article provides some information about women's rights, women's opportunities, conditions and facilities created for women in our Republic.

Key words: Concept of gender, women's rights, opportunities given to women.

ГАРАНТИИ ПРАВ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье представлена некоторая информация о правах женщин, возможностях женщин, условиях и льготах, созданных для женщин в нашей Республике.

Ключевые слова: Понятие пола, прав женщин, возможностей, предоставляемых женщинам.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda demokratik ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda xotin-qizlarning faol ishtiroki inobatga olgan holda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini yanada oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Natijada oilaga, ayol zotiga bo'lgan munosabatimiz tobora yuksalib, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish hayotimizning ma'no-mazmuniga, asosiy maqsadiga aylandi.

Bugun O'zbekiston ayollari barcha jabhalarda o'z o'rni va munosib mavqeiga ega bo'lib bormoqda. Keyingi saylovlarda yurtimiz tarixida birinchi marta milliy parlament tarkibidagi xotin-qizlar soni dunyo miqyosida namunali ko'rsatkichga ko'tarilgani ham bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Gap shundaki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Senatda bu ko'rsatkich qariyb 25 foizga yetdi. Mahalliy Kengashlar deputatlarining 31 foizi ham jonkuyar, faol ayollardir. Ana shunday natijalar tufayli O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, milliy parlamentimiz ayol deputatlar va senatorlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-pog'onaga ko'tarildi.

Shuningdek, boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi – 27 foizga, siyosiy partiyalarda – 44 foizga, oliy ta’lim tizimida – 40 foizga, tadbirkorlik sohasida esa 35 foizga yetdi. Bularning barchasi so‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish borasidagi tizimli ishlarning samaralaridir

Tenglik va kamsitilmaslik 1945-yilda qabul qilingan Birlashgan Millatlar tashkiloti Nizomining asosiy tamoyillaridandir. Ayollar huquqlari – inson huquqlari bo‘lganligi sababli, ayollar barcha inson huquqlariga ega va ulardan foydalanadi. Shu ma’noda, gender tengligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy qadriyatlaridan biri bo‘lib, jinsiy kamsitish deyarli barcha inson huquqlari to‘g‘risidagi shartnomalarida taqiqlangan.

Zo‘ravonliklarsiz yashash huquqi, jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori darajasiga erishish huquqi, ta’lim olish huquqi, mulk huquqi, teng ish haqi olish huquqi va boshqa barcha inson huquqlari jinsidan qat’i nazar ayollar uchun ta’minlanishi kerak. Biroq, butun dunyo bo‘ylab millionlab ayollar ushbu huquqlardan foydalanishda kamsitishlarga duch kelishda davom etmoqdalar. Gender tengsizligi ayollar va qizlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab muammolarning sababchisi hisoblanadi. Bular maishiy va jinsiy zo‘ravonlik, ish haqining pastligi yoki ishga joylashishdagi muammolar, ta’lim olish va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi shunchaki asosiy tamoyillarni belgilaydi, Ammo faqat shuning o‘zi bilan ayollar va qizlarning huquqlarini haqiqiy ta’minlashga erishib bo‘lmasdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun qilingan qadamlardan biri 1979-yil 18-dekabrda qabul qilingan Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW) edi. Ayollar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya sifatida tanilgan ushbu hujjat, uni ratifikatsiya qilgan davlatlarga madaniyat, jamiyat, ta’lim, siyosat va qonunchilik sohalarida ayollarning kamsitilishini bartaraf etish majburiyatini yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta’minlashga alohida e’tibor beradi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib, 1995-yil 6-mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘shildi.

Shuningdek, Onalikni himoya qilish to‘g‘risida, Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to‘g‘risidagi konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlanishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qonunni tayyorlashda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi mutaxassisleri, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi hamda Adliya vazirligi vakillari bilan samarali faoliyat olib borgan. Bunda davlatimiz rahbarining xalqaro talablar doirasida xotin-qizlar ahvolini tubdan yaxshilashga doir qonun ijodkorligi faoliyatida faollik va tashabbuskorlikni oshirishga qaratilgan da’vati dasturilamal bo‘lgan.

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun haqida so‘z borganda, mamlakatimizda xotin-qizlarning turmush tarzini yaxshilash,

ularning jamiyat hayotining barcha jabhalarida ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, onalik va bolalikning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy himoya qilinishini ta'minlashning mustahkam huquqiy kafolatlari mavjud ekanini qayd etish lozim.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi asosida Oliy Majlis Senatida yangi qo'mita – Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha qo'mita tuzildi. O'z navbatida, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunning qabul qilingani gender tenglikni ta'minlash yo'lidagi yana bir muhim qadam hisoblanadi.

O'z navbatida, "Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun xotin-qizlarni turmushda, ish joylarida, ta'lim muassasalarida va boshqa joylarda tazyiq hamda zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Shu jumladan, ushbu qonunda tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, bunday qilmishlarni sodir etganlik uchun javobgarlik, tazyiq hamda zo'ravonlikni boshidan o'tkazgan shaxslarni himoya qilishni, shuningdek jamiyatda ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning har qanday namoyon bo'lishiga murossasiz munosabat muhitini qaror toptirishni nazarda tutuvchi protsessual kafolatlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rsatilgan.

Xorijiy tajribani o'rganish hozirda zo'ravonlikka, xususan maishiy zo'ravonlikka, xotin-qizlarga nisbatan qo'llaniladigan tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashish muammosiga katta e'tibor berilayotganidan darak bermoqda. Bu masalani tartibga soladigan maxsus qonunlar 120 dan ortiq mamlakatda qabul qilingan.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda xotin-qizlarning og'irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar jamiyatda xotin-qizlar faolligini yanada oshirish, oshirish, ularga nisbatan hurmat va ehtiromni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda milliy qonunchiligimiz va xalqaro konvensiyalar orqali bu yo'nalishda zimmaga olingan majburiyatlarni bajarish yuzasidan amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar natijasida yigirmadan ortiq normativ-huquqiy hujjat imzolandi. Xususan, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar, Prezidentimizning xotin-qizlar huquqlarini va gender tenglikni ta'minlash, ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ularning tadbirkorlik maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, navqiron yoshlarimizni, ayniqsa, qizlarimizni sog'lom va yetuk etib tarbiyalash, ularning qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish, Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirish ishlari bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markazidir.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtda xonadonlarimizning fayzu farishtasi bo'lgan, farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Bu, o'z navbatida, hurmatli onalarimiz, opa-singillarimizga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining uzviy qismi bo'lib kelayotganining yorqin dalolatidir.

REFERENCES

1. <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/m6551>
2. <https://lex.uz/docs/-4494849>
3. <https://yuz.uz/uz/news/yangilanayotgan-ozbekistonda-gender-tenglikning-huquqiy-asoslari>
4. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/hotin-izlar-uulari>
5. Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старилов Ю.Н. Административное право: Учебник для вузов. — М.: «Норма»,2004.
6. <https://oltinsoy.uz/uz/blog/gender-tengligi/426>

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA KONSEPT VA GIPERKONSEPT MASALASI

Bozorova O'g'iloy Quvvat qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

bozorovaugiloy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10579627>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilshunosligi tarixi, "tushuncha va giperkonsept", "kognitiv" tilshunoslik masalalarining xususiyatlari va ta'rifi, muammolari va echimlari ingliz tilshunosligi.

Kalit so'zlar: Muammo, tushuncha, giperkonsept, ingliz tilshunosligi. Kontekstida ingliz tilshunosligi, "kontsepsiya" va "giperkonsept" atamaları odatda boshqa tillarda yoki ma'lum bir ta'lim sohalarida bo'lgani kabi ishlatilmaydi. Biroq, keling, umumiy tushuncha berish uchun ushbu atamalar aniqlangan.

THE ISSUE OF CONCEPT AND HYPERCONCEPT IN ENGLISH LINGUISTICS

Abstract. In this article history of English linguistics, concepts of characteristics and definition of the issue of "concept and hyperconcept", "cognitive" linguistics, problems and solutions English linguistics.

Keywords: The issue, concept, hyperconcept, English linguistics. In the context of English linguistics, the terms "concept" and "hyperconcept" are not commonly used in the same way they might be in some other languages or specific fields of study. However, let's define these terms to provide a general understanding.

ПРОБЛЕМА КОНЦЕПТА И ГИПЕРКОНЦЕПТА В АНГЛИЙСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ.

Аннотация. В данной статье рассмотрены история английского языкознания, «концепт и гиперконцепт», характеристика и определение вопросов «когнитивного» языкознания, проблемы и пути решения английской лингвистики.

Ключевые слова: Проблема, концепт, гиперконцепт, английское языкознание. В контексте английской лингвистики термины «концепция» и «гиперконцепция» обычно не используются так, как в других языках или конкретных областях исследования. Однако давайте определим эти термины, чтобы дать общее понимание.

Ayni paytda tilga antroposentrik yondashuv tilshunoslik sohasining eng so'ngi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil paradigm sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda.

Ko'plab tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antroposentrik paradigmanning yetakchi yo'nalishlari hisoblanadi. O'tgan asrning so'ngi choragida o'zining ilk qadamlarini qo'ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshodayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J.Miller, J.Bruner, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog'lanadi. Kognitiv tilshunoslik tilni falsafadagi bilish nazariyasi bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va eyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini ilmiy tadqiq etuvchi soha hisoblanadi.

Kognitiv so'zi inglizcha "cognize-bilmoq, anglamoq, tushumoq" demakdir. Kognitiv tilshunoslik "chegaradosh fan" bo'lib, kognitologiya, kognitiv psixologiya, psixolongvistika,

lingvistika kabi sohalar to'qnashuvida vujudga keldi. 1975-yilda J.Lakoff va S.Tompsonning maqolasida “kognitiv grammatika” termini paydo bo'ldida 80-yillarda yevropaning an'anaviy tilshunosligida kognitiv tilshunoslik qaror topdi. Rus tilshunosligiga esa kognitiv lingvistika V.I.Gerasimovning (“Новое в зарубежной лингвистике”, 1988) ilmiy maqolasi bilan kirib keldi.

Rus tilshunosligining yana bir atoqli vakili E.S.Kubryakova quyidagicha fikr bildiradi:

“Kognitologiya ko'p qirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida shakllangan tilshunoslik, o'z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko'zlaydi, lisoniy va bilim stukturalari o'rtasidagi munosabatlar hamda doimiy muqobiliklar tahlili, izohi rejalashtiriladi”.

O'zbek tilshunosi Sh.S.Safarovning fikriga ko'ra, “Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash, hamda uzatish, umuman til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir.

Professor A.Mamatov til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritarkan, shunday deb yozadi: “Kognitiv fan kognisiya bilan shug'ullansa, kognitiv tilshunoslik kognisiyaning, ya'ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo'lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o'z tuzilishiga ko'ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi.

XXasrning oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosi masalasini o'rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

Lingvokulturologiya – madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bo'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Lingvokulturologiya o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondashuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog'liq arvishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spesifik qoidalarni o'rganadi hamda millatning tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash hodisalarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Lingvokulturologiyaning vazifasi shundan iboratki, u til birliklarining madaniy mazmunini o'zga til elementlari va madaniyatining tanish simvolik kodlari bilan almashtiradi.

Ushbu ikki soha uchun ham umumiy bo'lgan asosiy kategoriyalardan biri, muhim o'rganish obyekti – bu konseptdir. Bu atamani ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi Askoldov o'z maqolasida qo'llagan. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir”, deb izoh bergan. Ammo shunga qaramay ushbu atamaga XXasrning 70-yillarida ham chuqur izoh talab qiladigan muammo sifatida qaralardi.

Konsept tushunchasining tilshunoslar istemoliga kirishi 80-yillarda ingliz olimlari R.Jakendof, G.Lakof va M.Johnson larning asarlari bilan bog'liqdir. Aynan o'sha matnlarda konseptualizatsiya, konseptual mohiyat atamalari uchraydi. Konsept tushunchasining lug'aviy ma'nosi ustida aham ko'pgina olimlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga ko'ra mantiqiy kategoriya, amaliy falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor.

“Konsept”-lotincha “conceptus” so'zidan olingan bo'lib, “tushuncha” ma'nosini bildiradi.

Kognitiv atamalar lug'atida esa konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir. "Konsept" atamasi zamonaviy tilshunoslikda biror bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo'llaniladi. Kundalik ilmiy ijodda esa konsept atamasi "tushuncha" bilan sinonim sifatida qo'llaniladi.

Tilshunoslikning yangi yo'nalishi – lingvomadaniyat til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Konsept uning markaziy tushunchasi hisoblanadi. Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada (lingvomadaniyat) konseptning o'rganilishi xususida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunoslikda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan". Garchi ushbu atama kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya uchun ham muhim kategoriya hisoblansada, uning ushbu fanlardagi izohi farqlidir.

Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. Konsept tushunchasi deyarli barcha atoqli tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilinib, ularning barchasi ushbu tushunchani turlicha individual tarzda talqin qilishadi. Y.A.Stepanov va S.A.Askoldovning fikri bir biriga juda yaqindir, ular konseptni "mantiqiy kattergoriya" sifatida talqin etishadi.

Ya'ni Askoldovning fikricha "konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi nshu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi". Yana bir rus tilshunosi V.A.Maslova konsept ma'nosiga ko'p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o'ylanadigan, balki ular o'zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o'z ichiga olishini ko'rsatadi va konsept tuzilishida o'zgacha nuqtai nazar borligini ta'kidlaydi. Konsept markazida qadrilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotishini ham o'z fikrlarida bayon etgan.

Qolaversa, har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'noviy tuzilishidan tashqari insonni ifodalayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalari tegishli, shaxsiy individual komponentlarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Demak, konsept lingvomadaniyatda eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

REFERENCES

1. Кубрякова Е.С О когнитивной лингвистики и семантики термина когнитивны// Вестник Воронежского государственного университета. –Воронеж, 2001.90-с
2. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91
3. Mamatov A. E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Andijon,2012/-B.212-219.
4. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.-М:Academia. 1997.-С.267-280

5. Ray Jakendoff, 1989: “What is a concept, that a person may grasp it”. Program in Linguistics and Cognitive science Brandies University Watham.
6. George Lakoff : 1980: Metapfors We Live BY
7. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo’llarini izlab// O’zbek tili va adabiyotiT.:2012, 3-16-B

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARDA INGLIZ TILI FANINI O'QITISH METODIKASIGA YO'NALTIRILGAN DARSLARNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Shafoatov Otabek Alisherovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

shafoatovotabek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10579667>

Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang'ich sinflarda bolalarga ingliz tili tez oson o'qitishning samarali metodlari haqida atroflicha yoritilgan. Ushbu maqolada bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish usullari bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ingliz tili, bolalar, o'rgatish, qiziqarli, qo'shiq, harakatlar, tushuntirish, tez va oson, yosh bolalar, aqliy, jismoniy, o'qituvchi, ovozlari.

FORMS OF ORGANIZATION OF CLASSES FOCUSED ON THE METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article gives you a brief overview on how to teach English quickly and easily in elementary school. In this article, you can learn about meaningful and fun ways to teach English to children.

Keywords: elementary, English, children, teaching, fun, song, action, explanation, quick and easy, young children, mental, physical, teacher, voices.

ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ, ОРИЕНТИРОВАННЫХ НА МЕТОДИКУ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.

Аннотация. В данной статье подробно описаны эффективные методы обучения английскому языку детей в начальных классах быстро и легко. В этой статье вы узнаете о значимых и интересных способах преподавания английского языка детям.

Ключевые слова: элементарный, английский, дети, обучение, веселье, песня, занятия, объяснение, быстро и легко, маленькие дети, умственное, физическое, учитель, звуки.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalaridagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab keyinchalik institutlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganadilar.

Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar.

Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni

e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: - qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar;
- multfilmlar;

Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

- rol ijro etish (role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim.

Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvon ekanligini ko'rsatish mumkin.

- mavzuga oid muhit;

O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi.

Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling(sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu hol o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi.

Bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytisada, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so'zlarni tez o'rganishadi. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: - qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish.

Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar;
- multfilmlar;

Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l. - rol ijro etish(role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim.

Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvon ekanligini ko'rsatish mumkin.

- mavzuga oid muhit;

O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling(sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu hol o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bema'lol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat

REFERENCES

1. John Adams || Analysis of retirement age in different countries of the world.London 2017.
2. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son)||Xalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.
3. J. Jalolov . —ingliz tilini o'qitish metodlaril —O'qituvchil nashiryoti Toshkent
4. To'xtasinova, N. R. Q., & Soibjonova, M. T. O. Q. (2022). ТАГМА'НО ВА ПРЕСУПОЗИТСИЯ HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 141-146.
5. Тухтасинова, Н. Р. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ И ТАГМАНСКИХ СОБЫТИЙ НА РАБОТАХ АБДУЛЛЫ КАХХАР. Экономика и социум, (2-2), 240-244.
6. Pratoва, G. O., & To'xtasinova, N. R. Q. (2022). O'ZBEK TILIDA FREZEOLGIZMLARNING PRAGMATIK SINONIMYASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 35-38.

ABU MANSUR AL MOTURIDIY HAYOTI VA IJODI

Abdullayeva Madinaxon Erkinjon qizi

Dinshunoslik fani o'qituvchisi

G'ofurjonova Mubina Bobirjon qizi

Muallif.

Iqtisodiyot va Pedagogika universitetining Filologiya fakulteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10579851>

Annotatsiya. *Moturudiy-imom, fiqh olimi, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi va buyuk mutafakkir va islom dinining peshvolaridan biri, yaxshi xulq egasi, shirinsuhan, saxovatpesha, hadisshunos, olim bo'lgan. Shariat peshvosi dinning yetuk arboblardan hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Abu Mansur Moturidiy, Moturidiyya maktabi, Ramziy maqbarasi.*

THE LIFE AND WORK OF ABU MANSUR AL MOTURIDI

Abstract. *Moturudi-imam, scholar of jurisprudence, the founder of the Moturidi school of theological sciences, a great thinker and one of the leaders of the Islamic religion, was a good-natured, kind-hearted, generous, hadith scholar, scholar. Sharia leader is one of the mature figures of religion.*

Key words: *Abu Mansur Moturidiyya, Moturidiyya school, Ramzi mausoleum.*

ЖИЗНЬ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АБУ МАНСУРА АЛЬ МОТУРИДИ.

Аннотация. *Мотуруди-Имам, учёный правоведения, основатель богословской школы Мотуруди, великий мыслитель и один из лидеров исламской религии, был добродушным, добродушным, щедрым, хадисоведом, учёным. Шариятский лидер является одним из зрелых деятелей религии.*

Ключевые слова: *Абу Мансур Мотуридийя, школа Мотуридийя, мавзолей Рамзи.*

O'zbekistonda Moturidiy merosini o'rganishga faqat mustaqillikdan keyingina kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 2000-yilda Moturidiy tavalludining 1130-yilligi O'zbekistonda keng nishonlandi. O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqandda alloma xotirasiga yodgorlik majmui bunyod etildi. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta'limoti va uning islom olamidagi tutgan mavqeiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Moturidiy hayotining turli qirralarini yorituvchi maqolalar, risolalar va tadqiqotlar chop etildi. Moturidiy merosini o'rgangan xorijlik olimlar bilan samarali hamkorlik aloqalari o'rnatildi. 2001-yilda Go'ttingen (Germaniya) universitetining professori Rudolf Ulrich qalamiga mansub "Al Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyati" kitobi o'zbek tilida nashr etildi. 2002-yilda mazkur kitobning keng ommaga, jumladan, oliy o'quv yurtlarining talabalari va o'rta maktablarning yuqori sinf o'quvchilariga mo'ljallangan nashri amalga oshirildi. Endilikda xalqimiz Moturidiy merosi bilan o'z ona tilida tanishish imkoniga ega bo'ldi, izlanishlardan Shayx Abu Mansur Moturidiyning ustozlari yoki shayxlari Imom A'zam Abu Hanifa-No'mon ibn Sobitning shogirdlari hamda shogirdlarining shogirdlari bo'lganlar. Ulardan ba'zilarini eslatib o'tamiz: Abu Nasral-Iyoziy. (Ahmad ibn Abbos)

Abu Mansur Moturidiy (to'liq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy; 853-Samarqand-944)-imom, fiqh olimi, mutakallim, moturidiylik ta'limoti asoschisi. Imom al-Xudor(xidoyatga yetaklovchi imom). Imom al-mutakallimin (Mutakallimlar imomi), Rais axli sunna ual-jamoa. (Axli sunnar ual-jamoa raisi), Al-Iom az-zoxid (zoxid imom),

Musaxxix axli sunna ual-jamoa (Axli sunna ual-jamoa musaxxuxi) kabi laqablar bilan ulug'langan. Nomi Samarqand yaqinida joylashgan Moturid qishlog'iga nisbatan berilgan. Moturidiyning hayoti va ilmiy merosi aks etgan tarixiy manbalarda o'zi va otasining ismi Muhammad va bobosining ismi Maxmud ekanligi haqidagi qaydlardan boshqa ma'lumotlar uchramaydi. Lekin uning Abu Mansur deb atalishidan shu ismli o'g'li bo'lgan degan taxminga borish ham mumkin.

Manbalarda Moturidiyning quyidagi ikki evarasi, ya'ni qizining nevaralari haqida ma'lumotlar kelgan: Ash-Shayx al-Qoziy al-Xasan al-Moturidiy (vafot 1117)

Abul Muin Nasafiy "Tabsirat al-adillar" asaridan Moturidiyning ilmiy mavqei va kalom ilmidagi qadr-qimmatini yuksak baholab quyidagi so'zlarni bayon qilgan: "Mavarounnaxrda Moturidiydan tashqari barcha xanafiy olimlar mavjud bo'lmaganida ham, Abu Mansur Moturidiy ularing o'rniga kifoya qilar edi. Chunki u shunday zotki, ilm ummonining eng qariga sho'ngib, undan duru gavharlarni olib chiqdi va diniy hujjatlarni o'zining fasoxati, mislsiz zakovati bilan ziynatlandi. Shuning uchun u vafot etganida, Shayx Abul Qosim al-Xakim as-Samarqandiy uning qabri ustiga "Ushbu qabr ilmlarini o'z nafaslarigacha qamrab olgan, uni tarqatishda ko'p zaxmatlar chekkan, qoldirgan merosi ko'p madh qilingan va o'zining umr daraxtidan ko'plab mevalar tera olgan zotning qabridir u deb yozishlarga buyurgan edi": Moturidiyning "Tavilot al-qur'on al-Karim" (Qur'oni Karimning tavillari) nomli tafsiri o'z davrida mashhur bo'lgan va ko'plab olimlar ushbu asarni quyidagicha tavsif bilan yuksak baholagan: "Moturidiy imomlarning ulug'i va millatning ustuni edi. Uning Qur'onga yozgan tafsiri barcha chigalliklarni ochib beruvchi, inson qalbidagi shubxali qora bulutlarni haydovchi hamda nihoyatda balig' vasf ila yaratilgan asardir. Alloh shunday kitobni yozgan zotga o'z salomini yo'llasin".

Moturidiyning mavqei va martabasi nihoyatda yuqori bo'lgan. Uning ilgari surgan aqidaviy qarashlari Movarounnaxrda aksariyat xanafiy ulamolarni tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

Abu Mansur Moturidiyning ustozlari.

Tarixchilar imom olimlarni Abu Mansur Moturidiyning ustozlari ichida quyidagi olimlarni alohida qayd etadilar.

1. Abu Nasr Iyoziy rahmatulloxi alayxi Yaxyo ibn Qays ibn Sad ibn Uboda Ansoriy Xazrajii roziyalloxi anxuning avlodlaridan bo'ladi.

Abu Nasr Iyoziy imom Abu Mansur Moturidiyning ustozlari bo'lishi bilan birga, u kishiga ham dars bo'lib, Abu Bakr Ahmad Juzjoniyning xalqalarida dars olar edi.

Abu Nasr Iyoziy katta olim ham edi. Tarixchilarning takidlashlaricha, yurtida u kishiga teng keladigan olim yo'q edi. Abu Nasr Iyoziy turk yurtlarida bo'lgan urushlardan birida shaxid bo'lgan.

2. Abu Bakr Ahmad ibn Isxoq ibn Solih Juzjoniy imom Abu Mansur Moturidiyning ustozlaridan biri bo'lib, u kishi usul va furu ilmlarini o'zida jamlagan va turli ilmlarda baland cho'qqilarni zabt etgan ulkan olim edi.

3. Muhammad ibn Mukotil Roziy, Rayning qozisi.

4. Nusayr ibn Yaxyo

Imom Abu Mansur Moturidiy qoldirgan merosning yana bir ibratli tomoni shundaki, u diniy e'tiqod borasida ashaddiylik toqatsizlikni rad etadi, mo'tadillik va bag'rikenglikni yoqlab chiqib, bu muhim tamoyilni jamiyat hayotining mezoniga aylantirishga intiladi.

Imom Moturidiy ta'limoti ana shu insonparvarlik mohiyatiga ko'ra, insoniyat hayoti va taraqqiyotini yaxshilik va poklik sari, adolat sari yo'naltirishga, odamlarni millati, tili, dinidan qat'i nazar, o'zaro ahil, bahamjihat, mehr-oqibatli bo'lib yashashga da'vat etadi.

Ul zot asos solgan diniy ta'limot-Moturidiyya maktabi Sharq mamlakatlarida katta shuhrat topishiga bo'lgan sabab shuki, unda ilgari surilgan g'oyalar islom dinimizning mohiyatini to'g'rilik, ezigulik, insoniylik deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarashlari va intilishlari bilan ham ohang edi.

Shu bois Moturudiyya maktabida ta'lim olgan turli millat vakillari bo'lmish olimlar, Hazrat Moturudiyyning minglab izdoshlari, ma'naviy shogirdlari uning ta'limoti va merosini dunyoning ko'p-ko'p mamlakatlarida targ'ibu tashviq etib yanada rivojlantirdilar.

Samarqanddagi me'moriy yodgorlik Imom Moturudiy tavalludining 1130-yilligi (2000) arafasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahrining markazida bunyod etilib, ramziy maqbarasi o'rnatilgan (hududi qariyb 4 ga). Registon ansambli yaqinida, Vobkent, G'ijduvon va Buxoro ko'chalari oralig'ida joylashgan. Bosh kirish qismi Vobkent ko'chasidagi xiyobon orqali. Loyihaga ko'ra 3 qism (markaziy, bog' va xo'jalik)ga bo'lingan, ular o'zaro bir-biri bilan xiyobonli yo'lka orqali bog'langan. Loyiha o'qi manzarali mujassamotda yaratilib, maqbara binosiga tutashgan. Shar-sharali favvoralar, xiyobonli yo'lka markazida qurib, atrofi obodonlashtirilgan.

Yodgorlikning me'moriy loyihasi va badiiy yechimida o'zbek milliy san'atining eng yaxshi an'analari qo'llanilgan. Maqbara pishiq g'ishtdan, murabba tarxli (12/12m),shiffti gumbazli (balandligi 15m), paygumbazi 24 kichik ravoqchalarga bo'linib, ganchkori panjaralar bilan bezatilgan. Panjaralar yuqorisi murakkab tuzilishdagi mukarnaslar bilan to'ldirilgan. Xona markaziga qo'yilgan sag'anada arab yozuvida buyuk olimning so'zlari bitilgan.

Xulasa qilib, aytganda Moturidiya fiqhga asos solib ijod qilgan va bizlarga bir nechta asarlarni qoldirgan. Motrudiya o'zining maktablarini ochgan. Biz Motrudiya merosini o'rganib uni yanada yuksaltirishimiz kerak.

REFERENCES

1. Islom ensiklopediya.Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2017.311-312-b.
2. Mazxablar-birlik Ramzi.Toshkent-2020.126-b.
3. I.A.Karimov.Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.Toshkent"O'zbekiston" 2001. 79-80-b. www.ziyouz.com kutubxonasi
4. Toxirjon Shirinboy o'g'li Rashidov
5. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali Telekomunikatsiya texnologiyalari va kasb ta'limi — fakulteti —AKT sohasida kasbiy ta'lim yo'nalishi talabasi
6. carjisor@gmail.com

HUQUQIY TARBIYA BERISHNING BUGUNGI HOLATI

Rasulova Tursunoy To'liqinova

Jizzax viloyati yuridik texnikumi mutaxsisslik fanlar kafedrası o'qituvchisi

E-pochta:rasulovaturunoy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10581576>

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'quvchilarning ongida huquqiy tarbiya kategoriyalarini singdirish va bugungi kunda huquqiy tarbiyaning holati va huquqiy tarbiya berish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Huquq, huquqiy tarbiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy rivojlanish.

CURRENT STATE OF LEGAL EDUCATION

Abstract. In this article, information communication technologies are used to inculcate categories of legal education in the minds of students, and the current state of legal education and methods of legal education are discussed.

Key words: Law, legal education, legal consciousness, legal culture, legal development.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье используются информационно-коммуникационные технологии для формирования в сознании студентов категорий юридического образования, а также обсуждается современное состояние юридического образования и методы юридического образования.

Ключевые слова: Право, юридическое образование, правосознание, правовая культура, правовое развитие.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida alohida to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q menimcha. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi desak adashmagan bo'lamiz. Ta'lim sohasidagi rivojlanish insonlardagi huquqiy ong va huquqiy tarbiyaning o'sishiga sababchi bo'lmoqda. Insonlarda huquqiy tarbiyaning yaxshi shakllanishi jamiyat tinchligi, yurt kelajagi, turli xil huquqbuzarlik va jinoyatlarning kamayishi va oldini olishga sabab bo'ladi.

Huquqiy tarbiya-shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan faoliyat yig'indisidir. Shuningdek huquqiy tarbiya - bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan holdagi tasvir ko'rsatilishidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, yaqin o'tmishda huquqiy tarbiya berishga u darajada e'tibor berilmas edi. Pedagogikaga doir darsliklarda shaxsning aqliy kamoloti, mehnati, jismoniy, ma'naviy, estetik tarbiyasi haqida so'z borar edi-yu, lekin huquqiy tarbiya xususida eslatilmasdi. Tarbiyaviy ishning mustaqil yo'nalishi tarzida huquqiy tarbiya yo'nalishining ajratib qo'yilmasligi o'sib kelayotgan avlodning ayrim qismi huquqiy ongi ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

O'zbekistonda huquqiy davlat barpo etish sari qadam qo'yilib, bu yo'lda huquqiy tarbiya, huquqiy ongni takomillashtirish masalalariga katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu masuliyatli

vazifada mehnat jamoalarida, bilim maskanlarida va har bir shaxs bilan tushuntirishlar olib borish borasida ko'p qirrali ishlar qilinmoqda.

Huquqiy tarbiyali bo'lish uchun har bir shaxs umumhuquq bilimiga, uni ongli ravishda qabul qilishga va huquqiy madaniyatni alohida bajarishga yetarli darajada huquqiy saboq olish kerak. Lekin hozirgi paytgacha huquqiy tarbiya tushunchasi, uning tushuntirish metodlari olimlarimiz tomonidan to'raligicha yoritilmagan.

Huquqiy tarbiyaning keng va tor maonoda ko'rish mumkin. Keng maonoda butun jamoaning, ko'pchilikning ongiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan tarbiya, tor maonoda esa alohida shaxsga, uning ongiga ta'sir etish yo'llari tushuniladi.

Huquqiy tarbiya natijasida keng omma yoki shaxs o'z hatti – harakatlarining qonuniy ekanligini tushunsa, huquq tartibotni buzmaslikka harakat qilsa o'zini ongli ravishda, huquq normalariga rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erishilgan bo'lib hisoblanadi.

Demak, huquqiy tarbiya bu- tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko'zlagan va shaxsga «guruh shaxslariga» ta'sir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir.

Malumki, qonunga rioya qilish uchun, eng avvalo uni bilish kerak. Huquqiy tarbiya orqali har bir shaxsning ongiga nima qilish mumkin, nima qilish mumkin emasligini, jamiyat, davlat undan nimani talab qiladi, qonunlarga rioya etish yo'llari nimadan iborat ekanligini yetkazish lozim.

Tartib buzuvchilar orasida o'z hatti-harakatining noqonuniyligini anglamaslik, noqonuniy ekan deb ham o'ylamaslik va bunday harakatni jazoga loyiq emas deb tushunish ko'p uchraydi.

Shunday tushuncha hosil bo'lmasligi uchun huquqiy tarbiya jarayonida har bir jamoada o'rnatilgan tartibni buzish, qonun normalariga rioya etmaslik natijasida intizomiy, mamuriy, moddiy yoki jinoiy jazo kelib chiqishini tushuntirish, uqtirish zarur.

Huquqiy tarbiyani kuchaytirishga oltmishinchi yillardan boshlab alohida ahamiyat berilla boshlandi. Shu davrda aytish kerakki, hozirda ham huquqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liq holda olib olib borilayapti.

Masalan bizning yurtimizda huquqiy ongni o'stirish uchun maktablarda huquqiy tarbiya darslari berilmoqda. Yoshlarga huquqiy bilim beruvchi kadrlar tayyorlash maqsadida yuridik texnikumlari ochilmoqda. Joylarda yuridik markazlar tashkil qilinib ulardan xohlagan masalada tavsiyalar va yordam olish imkoniyatlari yaratildi. Ayniqsa Adliya Vazirligi tomonidan judda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi tadbirlar albatta insonlar ongida huquqiy tarbiyaning shakllanishi va o'sishida yordamchi bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsam huquq haqidagi ma'ruzalar, suhbatlar huquqiy targ'ibotning asosiy shakli bo'lib qolayapti. Albatta, bir martalik tadbirlarning epizodliligi, mavzu jihatdan cho'zilib qolishi o'zining salbiy jihatlariga ham ega. Hozir mavzularning birligi bilan bog'langan, uyushgan tarzda, rejali asosda o'tkaziladigan leksiyalar va suhbatlar turkumlarining tashkil etilishiga o'tilayotgani bejiz emas mavzular turkumlari bir martalik ma'ruzalardan farqli ravishda voyaga yetmaganlarga muayyan tizimdagi bilimlar majmuini beradi, huquq me'yorlarini amalda qo'llanish malakalarini singdiradi, o'quv rejalari va maktab dasturlari bilan uyg'un tarzda o'tkazilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga ayrim suhbatlar, ma'ruzalar huquqiy turmush hodisalariga munosabat bildirish, yangi qonunlarni targ'ib qilish, paydo bo'ladigan ehtiyojlarni qondirishning eng muhim shakli bo'lib hisoblanadi.

REFERENCES

1. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi, 1997 y.
2. Kudaybergenova T.K. «O'rta maxsus o'quv yurtlarida huquqiy talim samaradorligini oshirish yo'llari».-Metodik qo'llanma, T-2011.
3. Tojixonov U, Saidov A, «Huquqiy madaniyat nazariyasi», 1-qism, T, 1990
4. Tojixonov U, Saidov A, «Huquqiy madaniyat nazariyasi», 2-qism, T, 1998
5. Karimova O. Davlatova M. «Huquqni o'qitish metodikasi» O'quv qo'llanma, Toshkent. 2006 y.
6. Kudaybergenova T.K. «O'rta maxsus o'quv yurtlarida huquqiy talim samaradorligini oshirish yo'llari». -Metodik qo'llanma, T-2011.
7. Kudaybergenova T. K. “Huquqshunoslik fanlarini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish”. O'quv metodik qo'llanma.- Nukus “Golden-Print-Nukus” MCHJ bosmaxonasi.- 2017, 114 bet.

INSON HUQUQLARI TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Xatamova Aziza Maxammatqulovna

Jizzax viloyat yuridik texnikumi o'qituvchisi

azizaxatamova987@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10581614>

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson huquqlari butun insoniyatning intilishlari, orzu-umidlarini o'ziga jamlagan keng qamrovli tushuncha ekanligi atroflicha yoritib o'tilgan. Maqola davomida inson huquqlari haqidagi sharq mutafakkir olimlarining qarashlari va fikrlari haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, nazariy qarashlar, falsafa, taraqqiyot asosi, davr talabi.

THE CONCEPT OF HUMAN RIGHTS AND ITS DEVELOPMENT STAGES

Abstract. In this article, it is explained in detail that human rights are a comprehensive concept that includes the aspirations and hopes of all mankind. In the course of the article, the views and opinions of Eastern thinkers about human rights are discussed.

Key words: human rights, theoretical views, philosophy, basis of development, demand of the times.

ПОНЯТИЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА И ЭТАПЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье подробно объясняется, что права человека – это всеобъемлющее понятие, включающее в себя чаяния и надежды всего человечества. В ходе статьи обсуждаются взгляды и мнения восточных мыслителей о правах человека.

Ключевые слова: права человека, теоретические взгляды, философия, основа развития, требование времени.

Inson huquqlari muammosi – hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridandir. Inson huquqlari – bu jamiyatning eng oliy qadriyati, himmatidir. Inson huquqlari – bu butun insoniyatning intilishlari, orzu-umidlarini o'ziga jamlagan keng qamrovli tushunchadir. Inson huquqlari – bu hozirgi taraqqiyotning asosi va davr talabidir. Inson huquqlari – bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Inson huquqlari har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi muhim mezonidir. Shuning uchun ham inson huquqlari xalqaro huquqda va milliy huquqiy tizimda muhim o'rin tutadi. Insoniyat o'z tarixiy rivolanishi jarayonida inson huquqlariga oid qonunchilik – bu inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari haqida qonunlar majmuidir. Bu qonunlar qatoriga inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar va milliy qonunlar kiradi. Inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilik o'z taraqqiyotida uch katta bosqichni bosib o'tgan.

Birinchi bosqich – 1789-yilgi inson va fuqaro huquqlari fransuz deklaratsiyasidan boshlanib, to birinchi jahon urushiga qadar davom etgan. Bu bosqichda insonning shaxsiy va siyosiy huquqlari to'g'risidagi qonunchilik ustuvor ravishda rivojlangan. Bu davrda qabul qilingan qonunlarda alohida e'tibor quyidagi muammolarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan:

shaxs erkinligi va fuqarolar tengligi;

shaxs daxlsizligi;

xususiy mulk huquqi;

saylov huquqi turli seznlr bilan cheklangan bo'lsada.

Ikkinchi bosqichi – XX asrning birinchi yarmini o'z ichiga olgan. Bu bosqichda sotsial yo'nalish demokratiya ta'sirida insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga oid qonunchilik tez rivojlangan. Mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, ijtimoiy yordam olish huquqi to'g'risidagi qonunlar alohida ahamiyat kasb etgan. Fransiya va Shvetsiyadagi sotsial qonunchilik, 1920-yilgi Veymar Konstitutsiyasi, Fransiya va Italiyaning 1946-yilgi Konstitutsiyalari bunga yaqqol misol bo'ladi.

Uchinchi bosqich – XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelib, bu bosqichda inson huquqlarining “yangi avlodi” to'g'risidagi qonunchilik rivojlanadi. Bu huquqlar qatoriga: tinch yashash huquqi; sof va toza atrof-muhitga ega bo'lish huquqi; axborot olish huquqi kabilar kiradi. Bu bosqichda inson huquqlari to'g'risida xalqaro qonunchilik tizimi shakllandi. Dunyodagi har bir davlatda ham inson huquqlariga oid muayyan qonunchilik tizimi shakllangan. Bu qonunchilik negizini, avvalambor, Konstitutsiyalar tashkil etadi. Barcha davlatlar Konstitutsiyalarida inson va fuqaro huquqlari va erkinliklariga maxsus bo'lim, boblar ajratilgan. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari joriy qonunlarda o'z aksini topgan. Hozirgi kunda davlatlar o'z Konstitutsiyalarida inson huquqlariga oid quyidagi muhim qoidalarni mustahkamlaganlar:

– inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish bu davlat majburiyatlaridir;

– inson huquqlari va erkinliklari katalogi xalqaro-huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustuvorligi;

– inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilgandan boshlab taalluqlidir, yangi tabiiy huquq g'oyasini, nazariyasini e'trof etilishi;

– hamma va har kimga inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi;

– fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta'minlanishi;

– inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish boshqa shaxslar huquqlarini buzmasligi zarurligi. Dunyo davlatlarida inson huquqlariga oid qonunchilik tizimi quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Fuqarolarning shaxsiy huquqlariga oid qonunlar;
2. Fuqarolarning siyosiy huquqlariga oid qonunlar;
3. Fuqarolarning iqtisodiy huquqlariga oid qonunlar;
4. Madaniy huquqlarga oid qonunlar;
5. Inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlar.

Inson huquqlari to'g'risidagi ta'limotning rivojida Sharq mutafakkirlarining xizmatlari benihoya kattadir. Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari o'nlab olimlar, davlat va jamoat arboblari dunyoqarashida, ularning amaliy ishlarida inson huquqlari masalasi alohida o'rin egallaydi. Ular turli muammolar singari inson huquqlari, erkinliklari, qadriyatlar masalasiga ham befarq qaramaganlar va bu borada o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar. Inson haqida g'amxo'rlik qilish, inson erkinligi, haq-huquqlari to'g'risida qayg'urish, inson sha'nini kamsitadigan urinishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyalari shular jumlasidandir. O'rta asrlarda butun dunyoda bo'lgani singari Sharq olamida ham inson huquqlari turli yo'llar bilan toptab kelingan. O'sha

davrlarda insonning shaxsiy huquq va erkinliklari singari, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy huquqlari ham hukmron siyosiy kuchlar tomonidan cheklab qo'yilgan. Bunday holatlarga qarshi noroziliklar shafqatsizlarcha bostirilgan. Kishilar yashash, mehnat qilish va dam olish kabi oddiy insoniy huquqlardan ham to'la erkinlik asosida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar.

Insonning sha'ni, qadr-qimmati, erkinliklari huquqiy jihatdan kafolatlanmagan, uning huquqlari poymol etilishi oddiy bir hol bo'lgan. Aholi keng qatlamlarining nochor hayoti o'z haq-huquqlarini anglab yetish va uni himoya qilish uchun kurash olib borish imkonini bermagan. Tarixning guvohlik berishicha, ayrim mamlakatlar va mintaqalarda olib borilgan jang-u jadallar, bosqinchilik urushlari natijasida fuqarolarning haq-huquqlari vahshiylarcha toptab kelingan. Bunday misollarni O'rta Osiyoda yashagan xalqlar va millatlar hayotidan ham ko'plab keltirish mumkin. Birgina mo'g'illar bosqini davrida O'rta Osiyoda yashagan xalqlarning haq-huquqlari qanchalik toptalganligini oddiy so'z bilan ifodalash qiyin. Masalan, mo'g'illar 1220-yilda Buxoroni bosib olib, 30 mingdan oshiq buxorolikning yostig'ini quritganlar, aholining qolgan qismini qullarga aylantirib, ko'pchiligini o'zlari ishg'ol qilgan boshqa yerlarga haydab ketganlar. Din peshvolari, olim-u fuzalolarni tahqirlaganlar, Buxoro shahriga o't qo'yilgan. Bunday sharoitda inson huquqlari yoki uni himoya qilish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Lekin mavjud siyosiy tuzumlar sharoitida ham somoniylar, temuriylar, boburiylar davrida inson huquqlarini himoya qilish sohasida talaygina tadbirlar amalga oshirilganligini aytish joiz. Masalan, O'rta Osiyoda somoniylar hukmronligi davrida aholining hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, ilm-fan bilan shug'ullanuvchi qismiga qulay sharoitlar yaratishga harakat qilingan. Savdo-sotiq ishlari avj olib, bu ish bilan shug'ullanuvchilar davlat tomonidan muhofaza etilgan. Savdo karvonlarini qo'riqlab boruvchi soqchilar tayinlangan. Davlatni boshqarishda markaz bilan joylar o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatilgan. Bu va shunga o'xshash tadbirlar inson huquqlarini himoya qilishda o'sha davrning barcha hukmdorlari uchun ibrat namunasi bo'lgan. Inson huquqlarini himoya qilishda va ularga berilgan huquqlaridan foydalanishda Sohibqiron Amir Temur amalga oshirgan ishlar diqqatga sazovordir. Sohibqironning butun hayoti va kurashi insonni qadrlash, uning yaxshi hayot kechirishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berish bilan chambarchas bog'liqdir. Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari"da mamlakat fuqarolarining haq-huquqlari va ularni himoya qilishning zarurligini qayta-qayta ta'kidlagan. Insonning mehnat qilish huquqi asarda quyidagicha ta'riflab beriladi: "Agar kasb-u hunar va ma'rifat ahillaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa, bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o'z ahvoli va kasbi-korig'a qarab ish tutsinlar" ("Temur tuzuklari". –T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1991, 67-bet). Amir Temur inson huquqlarini himoya qilishda eng ko'p kuchg'ayrat sarflagan yetuk siymolardan biri edi. U hukmronlik qilgan davrda inson huquqlarini kamsitishga qaratilgan har qanday urinishlarga chek qo'yilgan va bunday urinishlarning rahnamolari hamda ishtirokchilari qattiq jazolangan. "Yana buyurdimki, — deb yozadi Sohibqiron, — agar (har yer va elning) amaldorlari va kalontarlari oddiy fuqarolarga jabr-zulm qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetkazgan bo'lsa (bunday vaqtlarda) yetkazilgan zararni kalontarlardan undirib, jabr ko'rganlarga bersin, toki ular yana o'z hollariga kelsinlar» («Temur tuzuklari», 99-bet).

Har qanday jabr-zulm inson huquqlarini poymol qiladi. Jumladan, mehnat qilishga majbur etish, qiynoqqa solish, mol-mulkiga, shaxsiy hayotiga zarar yetkazish va shu kabilar. Ulug' Sohibqiron inson sha'niga nomunosib bo'lgan ana shunday xatti-harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmaslikning mohiyatini to'g'ri tushungan va shuning uchun ham mamlakat fuqarolarining huquqlarini himoya qilish yo'lida qat'iy kurash olib borgan. Amir Temurning inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalari uning davlatni idora qilishdagi o'zi asoslagan qoidalarda juda aniq bayon etilgan. Bu qoidalar qonun kuchiga ega bo'lib, ularda inson huquqlari masalasiga keng o'rin berilgan. Sohibqironning adolat bilan ish ko'rish, gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat qilishi, raiyatning ahvolidan doimo xabardor bo'lib turishi, davlat ishlarini saltanat qonunlariga asoslangan holda boshqarishi va boshqa shular singari xayrli ishlari uning inson huquqlarini himoya qilishga qanchalik katta ahamiyat berganligidan darakdir. Amir Temur insonning qadr-qimmatini va huquqlarini qadrlagan va himoya qilgan ulug' zotlardan biridir.

U markazlashgan qudratli mamlakatni boshqarar ekan, o'z amir-u beklaridan, davlat xizmatchilaridan fuqarolarning holidan xabar olib turishni, ularning shaxsiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishni qattiq talab qilgan. Sohibqiron o'z hukmdorligining barcha davrlarida adolat va insof bilan ish ko'rgan, gunohkorga ham, begunohga ham adolat, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqargan, o'zining xayr-ehson ishlari bilan odamlar ko'nglidan joy olgan.

Zolimlardan mazlumlar haqqini undirib bergan. Uning yozishicha, zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlar isbotlanganidan keyin ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qilgan. Natijada aybsiz kishiga jabr-zulm o'tkazilmagan. Buyuk allomalar Forobiy, Ibn Sino, Beruniylar ham inson huquqlari masalasini chetlab o'tmaganlar.

Somoniylar davrida amalda bo'lgan tartib-qoidalar, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi bu mutafakkirlarning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ular o'z asarlarida bu davrga baho berish bilan birga qimmatli g'oyalarni ilgari surganlar, inson huquqlari va ularni himoya qilish to'g'risida ham o'z fikrlarini yozib qoldirganlar. Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida odamlarning ma'lum bir kasb-hunar bilan shug'ullanishi, ular har qanday ta'qib va cheklashlardan xoli bo'lishi, erkin va ozod yashashi haqida yozadi. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" jamoasi haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bilan bog'lanib ketgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, komil inson jamiyatning teng huquqli, erkin fuqarosi bo'lishi lozimligi, jamoa uning huquqlarini hurmat qilishi, kishilarning tinch va osoyishta hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlab berishi haqidagi fikrlar asarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Garchi, bu masala xayoliy tarzda tasvirlangan bo'lsada, biroq unda insonga g'amxo'rlik qilish, uning haq-huquqlarini himoya qilish zarurligi g'oyalari ilgari surilganligining o'zi muhim ahamiyatga egadir. Forobiy singari Ibn Sino ham inson va uning jamiyatda egallashi lozim bo'lgan o'rniga katta e'tibor bilan qaragan. Allomaning inson va uning huquqlari to'g'risidagi qarashlari amaliy falsafaga doir ta'limotida asoslab berilgan.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 159;
3. Temur tuzuklari. –T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1991;

4. G.Yuldasheva, N.Gafurova Inson huquqlari: darslik.–T.: TDYU nashriyoti, 2023.–400 b.;
5. O.T.Husanov Konstitutsiyaviy huquq: daslik. To‘ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2020. – 400 bet.
Internet saytlari
6. www.lex.uz
7. www.norma.uz
8. www.huquqiportal.uz
9. www.parliament.gov.uz

КОМПРЕССОР ҚУРИЛМАСИ ЭЛЕКТР ЮРИТМАЛАРИНИНГ ЭНЕРГИЯ ТЕЖАМКОР ИШИ РЕЖИМЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

Саъдуллаев Туймурод Мардулла ўғли
PhD., «Электр машиналари» кафедраси доценти

Худоёров Жаҳонгир Зокир ўғли
63МБ-23 магистратура талабаси ТашДТУ.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10581656>

Аннотация. Мазкур илмий мақола компрессор қурилмаси электр юритмаларининг энергия тежамкор иши режимларини ишлаб чиқиши жараёнига бағишланган. Ушбу мақолада компрессор қурилмасининг энергия самарадорлигини оширишнинг замонавий бошқариш режими ва усуллари келтирилган бўлиб, олиб борилган кўп йиллик тадқиқотлар асосида компрессор қурилмасининг энергия самарадорлигини оширишнинг математик тенгламаси ишлаб чиқилган. Бундан ташқари, компрессор қурилмасининг электр механик тенгламалари асосида технологик жараённи бошқариш усули такомиллаштирилган ва амалга оширилган илмий тадқиқотлар юзасидан тегишли хулосалар қилинган.

Калит сўзлар: Компрессор қурилмаси, электр юритма, бошқариш режими, частота, ток, структура, бурчак тезлиги, тезлик.

DEVELOPMENT OF ENERGY-SAVING OPERATION MODES OF COMPRESSOR DEVICE ELECTRICAL SYSTEMS

Abstract. This scientific article is devoted to the process of development of energy-saving operating modes of electrical circuits of the compressor device. This article presents the modern management mode and methods of increasing the energy efficiency of the compressor device, and based on many years of research, a mathematical equation for increasing the energy efficiency of the compressor device has been developed. In addition, based on the electromechanical equations of the compressor device, the technological process control method has been improved and appropriate conclusions have been made regarding the scientific researches carried out.

Key words: Compressor device, electric drive, control mode, frequency, current, structure, angular velocity, speed.

РАЗРАБОТКА ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩИХ РЕЖИМОВ РАБОТЫ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СИСТЕМ КОМПРЕССОРНЫХ УСТРОЙСТВ

Аннотация. Данная научная статья посвящена процессу разработки энергосберегающих режимов работы электрических схем компрессорных устройств. В данной статье представлены современный режим управления и методы повышения энергоэффективности компрессорного устройства, а на основе многолетних исследований разработано математическое уравнение повышения энергоэффективности компрессорного устройства. Кроме того, на основе электромеханических уравнений компрессорного устройства усовершенствован метод управления технологическим процессом и сделаны соответствующие выводы по проведенным научным исследованиям.

Ключевые слова: Компрессорное устройство, электропривод, режим управления, частота, ток, структура, угловая скорость, скорость.

Компрессор қурилмалари энергия самарадор ишлашига қурилманинг ички техник таъсирлари ва ташқи омиллар таъсир кўрсатади [1-2]. Қурилманинг ички техник таъсирларига вентилятор паррақларининг қиялик бурчаги, иссиқлик алмаштиргичларнинг ички ва ташқи параметрлари, компрессор винтларининг эскириш натижасида газ ҳароратига таъсири, қурилма жалюзаларининг очилиш бурчаги ва моторнинг айланиш тезлиги киради [3-5]. Компрессор қурилмасининг самарадорлигига таъсир этувчи ташқи омилларга ташқи ҳавонинг ҳарорати, ҳавонинг намлиги, шамолнинг тезлиги, қурилмага тушаётган қуёш нурунини қиялик бурчаги, ҳавонинг зичлиги ва яна бир қанча кичик таъсирга эга бўлган омиллар киради [6].

Компрессор станциялари йил давомида ҳаво ҳарорати - 25°C дан 47 °C гача ўзгарадиган ҳудудларда олиб борилган тадқиқотлар ҳулосаси шуни кўрсатадики, электр энергия истеъмоли ўзгариши ҳаво ҳарорати ва зичлигини ўзгариши натижасида мавсумий истеъмол фарқи 38% гача ўзгариши кўзатилган [7-10].

Компрессор технологиясида частотавий ростлагичларни жорий этиш билан қурилмадаги ҳаво оқимини бошқариш имконияти пайдо бўлади [11]. Натижада газни схиқиш ҳароратини катта аниқликда автоматик назорат қилиб бошқариш қобилияти юзага келади [12-13]. Бунинг натижасида йил давомида электр энергия сарфини 20% гасҳа тежалиши мумкин.

Компрессор станцияларини ишлаш жараёнида совутиш қурилмалари электр энергия сарф умумий электр энергия балансини катта қисмини ташкил этади. Компрессор қурилмаларининг электр энергия сарфи таъсир этувчи омиллар таъсирида ўзгаради. Электр энергия сарфи йил давомидаги минимал истеъмолдан икки баробаргача ортиши мумкин. Совутиш қурилмаси электр энергия истеъмолига катта таъсир этувсхи омилларга қуйидагилар киради:

Компрессорни ишчи айланиш паррақларини алюмин қуйма ёки композит материаллардан ташкил топган ҳолда енгиллаштирилган;

- компрессор қурилмасининг маторларини частотавий ростлаш асосида газ ҳароратини назорат қилиш;

- компрессор электр ўзатма орқали ва ҳаво босимли тизим кўринишда бошқариш имкониятлари мавжудлиги;

- ташқи ҳаво намлиги пасайганда ҳаво намлигини ростловсхи қурилмани мавжудлиги;

- ҳавони совутиш қурилмасини тўлиқ автоматлаштирилган ҳолда бошқариш;

- иссиқлик ўзатувсхи қовирғали қувирларини ташқи ва исҳки тозалаш қурилмаларини мавжуд эканлиги [14-16].

Илмий изланишлар натижасида энергия самарадор ҳаволи совутиш қурилмаларини мавсумдан келиб чиққан ҳолда техник ростланиши энергия тежамкорликга ижобий таъсир этади.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида компрессор қурилмаси энергия сарфини ортишидаги таъсир этувчи катта омиллар билан қуйида танишамиз:

- ташқи ҳавонинг ҳарорати;

- ташқи ҳавонинг намлиги;

- совутиш қурилмасига кирувсхи газнинг ҳарорати;

- совутиш қувирларининг исҳки ва ташқи кирланиши;
- вентиляторни айланиш тезлиги;

техник ҳолатлар (сханг тутгисҳларни ифлосланиши, компрессор винтларини эскириши).

Шу билан бирга газни ҳароратини баланд даражалари газ зичлигига ва ҳажмини ортишига сабаб бўлади. Натижада газ ўтказиш қувирларидаги босимни ортиши юзага келади. Газ зисҳлигини ҳароратга боғлиқлигини қуйидаги формула ёрдамида кўришимиз мумкин

$$\frac{\rho_1}{\rho_2} = \frac{T_2}{T_1}, \quad (1)$$

бу ерда: ρ_1 ва ρ_2 газни зисҳлиги, T_1 ва T_2 газни ҳароратини ифодалайди.

Ҳаво ҳароратини ортиши пропорционал равишда газни босимига таъсир қилади. Натижада компрессор станция жойлашган ҳудудни табиий иқлими станцияни энергия истеъмолидаги кўрсатгисҳларга таъсир қилади. Компрессор станциядан сҳиқаётган газни ҳарорати жойлашган ҳудуддаги ерни ҳароратига яқин бўлиши талаб этилади. Газ қувирларига сҳиқарилаётган газнинг ҳароратини ошиши қувирлар химоя қатламини шикастланишига сабаб бўлади. Шикастланган қувирлар авария хавфини келтириб сҳиқариши эҳтимолини юзага келтиради. Компрессор станциядаги газни совутиш даражаси қувирлар жойлашган тупроқнинг ҳарорати даражасига 10-15°C гасҳа юқори бўлишига нормал ҳолат сифатида қабул қилинган.

Компрессор қурилмалари электр энергия сарфига таъсир қилувсҳи ташқи омилларни энг кўп миқдори ҳавони ҳарорати ва намлиги ҳисобланади. Иссиқ мавсумларда ҳавони намлигини ошириб вентиляторлар орқали иссиқлик алмаштириш қувирларига ташқи ҳаво ҳароратини 15°C гасҳа совитилган тарзда юбориш мумкин.

Компрессор қурилмасини иссиқлик ўтказувсҳанлик даражасини ифодаловсҳи тенглик қуйидаги ифода орқали аниқланади

$$Q_{HSQ} = G_h \cdot s_{i.o\text{b}} \cdot (t_{v1} + t_{v2}) = G_g \cdot s_g \cdot (t_{g1} + t_{g2}) = k \cdot F \cdot \theta, \quad (2)$$

бу ерда G_h -қурилмадан ўтадиган ҳавони ўртасҳа массаси, кг/с; $s_{i.o\text{b}}$ -қурилмадан ўтадиган газни ўртасҳа массаси, кг/с; θ -ҳавони ўртасҳа иссиқлик ўтказувсҳанлиги, $kJ/kg \cdot K$; $s_{i.o\text{b}}$ -газни ўртасҳа иссиқлик ўтказувсҳанлиги, $kJ/kg \cdot K$; F -иссиқлик ўтказувсҳини юзаси, м²; t_{g1}, t_{g2} -совутиш қурилмасини кириш ва сҳиқиш газини ҳарорати, °C; t_{h1}, t_{h2} -совутиш қурилмасини кириш ва сҳиқиш ҳавони ҳарорати, °C; θ -ўртасҳа лагорифмитик ҳарорат босими, К; k -совутиш қурилмасини орқали ўтаётган газни атмосферага сҳиқараётган иссиқлик ўтказувсҳанлик коэффициенти қўйидаги ифода билан аниқланади

$$k = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_2} \cdot \varphi + \sum R_i + \frac{1}{\alpha_1}}, \quad (3)$$

бу ерда α_1, α_2 -иссиқлик ўтказувсҳан қувирни исҳки ва ташқи ўтказувсҳанлик коэффициенти, φ -қувирни нотекис юзасини иссиқлик ўтказувсҳанлик коэффициенти, $\sum R_i$ -иссиқлик алмаштиргисҳ қувирини исҳки ва ташқи кирланишидаги қаршилик, $(m^2 \cdot K)/Vt$.

Компрессор курилмасининг принципиал ва энергия тежамкор иш режимларини таҳлил қилиш натижасида қуйидаги тадқиқот ишлари амалга оширилди.

Компрессор курилмасининг иш режимларини инобатга олган ҳолда математик тенламалари таҳлил қилинди.

Компрессор курилмасининг иш режимларини инобатга олган ҳолда энергия самарадорликни оширишнинг муқобил имкониятлари ҳақида керакли таклифлар келтирилди.

REFERENCES

1. Toirov O., Sadullaev T., Abdullaev D., Jumaeva D., Ergashev Sh., Sapaev I.B. Development of contactless switching devices for asynchronous machines in order to save energy and resources, E3S Web of Conferences 383, 01029 (2023).
2. Toirov O., Pirmatov N.B., Khalbutaeva A., D. Jumaeva, A. Khamzaev, Method of calculation of the magnetic induction of the stator winding of a spiritual synchronous motor, E3S Web of Conferences 401, 04033 (2023).
3. Toirov O., Khalikova M., Jumaeva D., Kakharov S. Development of a mathematical model of a frequency-controlled electromagnetic vibration motor taking into account the nonlinear dependences of the characteristics of the elements, E3S Web of Conferences 401, 05089 (2023).
4. Sadullaev T.M., Tulakov J.T. Construction of a Mathematical Model of Thyristor Devices in the Matlab Program.
5. Саъдуллаев Т.М. (2020). Разработка рациональных решение бесконтактного компенсирующих устройств для пуска и управление горных электрических машин /Арктика: Современные подходы к производственной и экологической безопасности в нефтегазовом секторе, С. 136-138.
6. Саъдуллаев М., Саъдуллаев Т.М., Курбанов А.А., & Сайлиев Ф.О. (2020). Бесконтактные коммутирующие устройства контроля и управления асинхронных электродвигателей. Инновационная наука, (11), 63-66.
7. Садуллаев Т.М., Тулаков Ж.Т., Хамдамов А.О. Использование котлов-утилизаторов на газотурбинных установках компрессорных станций и тиристорных регуляторов.
8. Саъдуллаев М. Разработка рациональных решений полупроводникового управления электроприводами ЭКГ-8И // Мировая наука. 2018. №. 11 (20).
9. Olimjon Toirov, Kamoliddin Alimkhodjaev, Akhror Pardaboev Analysis and ways of reducing electricity losses in the electric power systems of industrial enterprises, E3S Web of Conferences 288, 01085 (2021).
10. Kamalov Tolyagan, Toirov Olimjon, Ergashev Shahboz, Modern condition and possibilities of program management of frequency-adjustable electric drives // European research. 2016. №6 (17).
11. Toirov O.Z., Khalikov S.S. Analysis of the safety of pumping units of pumping stations of machine water lifting in the function of reliability indicators, E3S Web of Conferences 365, 04010 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202336504010>
12. Toirov O.Z., Khalikov S.S. Diagnostics of pumping units of pumping station of machine water lifting, E3S Web of Conferences 365, 04013 (2023).

13. Olimjon Toirov, Salikhdjan Khalikov, Algorithm and Software Implementation of the Diagnostic System for the Technical Condition of Powerful Units, E3S Web of Conferences 377, 01004 (2023), <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337701004>
14. Toirov O., Khalikov S. Analysis of the safety of pumping units of pumping stations of machine water lifting in the function of reliability indicators, E3S Web of Conferences 365, 04010 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202336504010>
15. Toirov O, Mirkhonov U. Principles for Controlling the Excitation of Synchronous Motors of the Compressor Installation, Inter. Journal of Advanced Research in Science Engineering and Technology, V.7, I.5, P. 13876-13881, 2020.
16. Olimjon Toirov, Utkir Mirkhonov, Overview of Compressor Installations and Issues of Their Energy saving, IJARSET, Vol. 6, Issue 10, P. 11446-11452, 2019.

ZAMONAVIY DUNYODA MENEJMENT VA LIDERLIK O'RTASIDAGI FARQLAR VA O'XSHASHLIKLAR

Abduvoidov Hasan Ilhom o'g'li

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.

E-pochta: hasanabduvohidov96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10581703>

Annotatsiya. Ushbu maqolada menejerlar va liderlarning bir-biridan asosiy farqlari hamda ularning faoliyatida kuzatilishi mumkin bo'lgan o'xshashliklar yoritilib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: menejment, liderlik, ijodkorlik, ishtiyoq, rag'batlantirmoq, ishlash prinsiplari, boshqaruv sohasi, tanqidiy fikrlash, notiqlik, ziddiyatlar, sohalararo.

THE DIFFERENCES BETWEEN MANAGEMENT AND LEADERSHIP IN MODERN WORLD AND THEIR SIMILARITIES

Abstract. This article tries to highlight the main differences between managers and leaders and the similarities, which might be observed in their activities.

Key words: management, leadership, creativity, desire, rewarding, working principles, the sector of management, critical thinking, orator, eloquence, contradictions, interdisciplinary.

РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ МЕНЕДЖМЕНТОМ И ЛИДЕРСТВОМ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ И ИХ СХОДСТВА

Аннотация. В данной статье предпринята попытка осветить основные различия между менеджерами и лидерами и сходства, которые можно наблюдать в их деятельности.

Ключевые слова: менеджмент, лидерство, творчество, желание, вознаграждение, принципы работы, сфера управления, критическое мышление, оратор, красноречие, противоречия, междисциплинарность.

Har qanday jamiyatda menejer va liderlar odatda ikki turdagi insonlar hisoblanishadi.

Misol uchun, menejerning asosiy maqsadlari xohish-istaklardan ko'ra zaruriyatlarni birinchi o'ringa qo'yishdan iborat bo'lib, ular asosan shaxslar va tashkilot bo'limlari o'rtasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etishda, ma'lum bir tashkilotning kundalik ishlarini bajarilishini ta'minlash uchun barcha tomonlarni o'rinli joylashtirib chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Liderlar esa erishilishi kerak bo'lgan maqsadlarga shaxsiy va faol nuqtai nazar bilan qarashadi; ular atrofdegilarni rag'batlantirish va ularga ixtiyoriy imkoniyatlarni yaratib berish uchun yo'llar izlashadi hamda ularning ishga bo'lgan ishtiyoqini jo'shqinlantirib, vazifaga yanada ijodkorlik bilan yondashishlari uchun harakat qilishadi. Qo'shimchasiga, ularning xodimlari yoki ishdagi sheriklari bilan munosabatlari shiddatli ko'rinadi va ularning ishlash muhiti biroz tartibsizroq bo'ladi.

Hozirgi asrda (21-asrning birinchi choragi) boshqaruv va yetakchilikning ishlash prinsiplarida jadallashish kuzatilmoqda, ya'ni aniq bir mezonlar yoki sohani rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan strategiyalar ko'p vaqt o'tmasdan o'zining samarali jihatlarini yo'qotmoqda.

Bunga asosiy sabab esa barchamizga ma'lum: insoniyat kundan kunga taraqqiy etib bormoqda va bu boshqaruvdagi o'zgarishlarni yanada tezlashtirmoqda. Shunday bo'lsa-da, ba'zi

kitoblar borki ularda menejment va liderlikning asosiy prinsiplari hamda farqlari hali ham o'z kuchini yo'qotmagan ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ulardan biriga yaqinda qiziqib o'qigan bir maqolani misol keltira olaman. Mazkur maqola ilk bor 1977-yilda Abraham Zaleznik tomonidan ommaga taqdim etilgan bo'lib, u "Managers and Leaders: Are they different?" (Menejerlar va liderlar: ular har xilmi?) deya nomlangan.

Ushbu maqolada menejerlar hamda liderlarning rivojlanib borayotgan jamiyatda qanday qilib muvaffaqiyatga erishishi va sohalararo omon qolishi haqida ham bahs boradi. Boshqaruv sohasidagi rahbarlar va yetakchilar o'rtasidagi farqga Abraham Zaleznikning kitobida quyidagicha izoh berilgan: "bu ikki toifa o'rtasidagi farq ularning ruhiyatida, ishlarni tartibga solishi va uni rejalashtirishidadir. Menejerlar odatda bo'lib o'tayotgan voqeilikni shundayligicha qabul qiladilar, bu jarayondagi umumiy barqarorlikni ushlashga harakat qilishadi, nazorat qilish yo'llarini topib muammoni tezda hal qilish yo'llarini ko'rib chiqishadi.

Liderlar esa, boshqa tomonlama qaraganda, ishdagi muammolar, kamchiliklar va tartibsizliklarga kerakli vaqt toqat qila olishadi va sodir bo'layotgan asosiy muammoni to'liqroq tushunish uchun ma'lum bir vaqt kutishga tayyor bo'lishadi, ya'ni topshiriqni kelajakdagi natijasini qat'iy nazar zudlik bilan bajarishga shoshmaydilar.

Menejer va liderlarning shaxsiy xususiyatlarida ham yetarlicha farqlarni topish mumkin.

Menejering shaxs harakteriga keladigan bo'lsak, uning boshqaruv madaniyati ratsionallik va nazoratga ko'proq urg'u beradi. Uning kuchi aniq maqsadlarga, resurslarga, tashkilot tuzilmalari va ishchilarga qaratilgan bo'lib, qisqa qilib ta'kidlaganda, menejer muammoni hal qiluvchi subyekt hisoblanadi. Menejerlar o'zlaridan quyidagi savollarga javob topishga harakat qilishadi: "Qanday muammolarni tanlab hal qilish kerak va xodimlar shu tashkilotga o'z hissasini faol qo'shishda davom etishlari uchun natijaga erishishning eng yaxshi usullari qanday?"

Shu nuqtai nazardan qaraganda, menejerlik ishlarni boshqarish uchun amaliy harakatdir; u o'z vazifasini bajarish maqsadida tashkilot xodimlardan ishxonadagi turli darajadagi maqomlarda (lavozimlarda) o'rinli va mas'uliyat bilan samarali ishlashlarini talab qiladi. Menejer bo'lish uchun qahramonlik yoki o'zgacha daholik shart emas, aksincha, zamonaviy menejer uchun tirishqoqlik, qattiqqo'llik, mehnatsevarlik, aql-zakovat, vaziyatlarni tahlil qila olish va eng muhimi bag'rikenglik hamda ishga nisbatan xayrixohlik kerakdir.

Liderlarning shaxs harakteri o'zgacha prinsiplarni talab qiladi, masalan, yolg'iz holda o'z ustidan nazoratni qo'lga olish, boshqalarni oldinga yetaklash, tashabbuskorlik va imkon boricha optimistik fikrlash shular jumlasidandir. Liderlar ma'lum bir masalni hal qilishda yoki biror vaziyatdan ijobiy natijalar bilan chiqishda avvalambor o'zlarining ishtirokini ta'minlaydi, ya'ni ular boshqa xodimlar bilan birgalikda voqeilikka aralashishadi va muammoni hal qilishda o'zlarining ham tengma-teng ishtiroki orqali kurashishadi.

Bu ikki turdagi shaxs toifalarning o'xshashlik tomonlari ham mavjud - menejerda ham, liderda ham boshqaruvda katta ma'suliyat bo'ladi va ular ko'p hollarda natija uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Shu bilan birga, ikkisida ham boshqaruv uchun tug'ma qobiliyatlarning yuqori bo'lishi hamda jamoani boshqarishda notiqlik va tanqidiy fikrlashning mavjudligi o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Zamonaviy dunyoda liderlar va menejerlarning tashkiliy ishlari bir-biri bilan uzviy bog'lanib bormoqda, va eng qiziqarli tomoni shunda-ki, hozirgi kunda bir bo'sh ish o'riniga

bo'lgan talabgorlar soni nihoyatda ko'pchilikni tashkil qilmoqda va bu o'z-o'zidan menejerlik lavozimida ishlamoqchi bo'lgan insonning liderlik qobiliyatiga ham ega bo'lishini talab etmoqda.

REFERENCES

1. Abraham Zaleznik, 1997 "Managers and Leaders: Are they different?" The Harvard Business Review.
2. Marcus Buckingham, 1999 "First, Break All the Rules".

PROFESSIONAL TA'LIM O'QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Ubaydullayev Ilxomjon Raxmatovich

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrası o'qituvchisi, 2-darajali yurist.

Telefon: +998911515452

ubayilxom@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10581757>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kommunikatsiya, pedagogik kompetentlik haqida va kommunikativ kompetentlikning samarasi va o'quvchilarga ta'lim berishdagi ahamiyati haqida, bundan tashqari kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning samarali usullari haqida batafsil ma'lumot berib o'tishga harakat qildim.

Kalit so'zlar: kommunikatsiya, pedagogik kompetentlik, kommunikativ kompetentlikning, professional ta'lim, pedagog, nutq, ta'lim usullari.

EFFECTIVE METHODS OF FORMING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN PROFESSIONAL EDUCATION STUDENTS

Abstract. In this article, I tried to provide detailed information about communication, pedagogical competence, the effectiveness of communicative competence and its importance in teaching students, and also about effective methods of forming communicative competence.

Key words: communication, pedagogical competence, communicative competence, professional education, pedagogy, speech, educational methods.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В этой статье я постарался предоставить подробную информацию о общении, педагогической компетентности, эффективности коммуникативной компетентности и ее значении в обучении студентов, а также об эффективных методах формирования коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: общение, педагогическая компетентность, коммуникативная компетентность, профессиональное образование, педагог, речь, методы обучения.

KIRISH.

Kompetensiya so'zining ma'nosi u yoki bu sohada bilimdonlik degan ma'noni anglatadi.

"Kompetensiya" (lot. competo - erishyapman, munosibman, loyiqman) deganidir.

Kompetentlik deganda, ma'lum bir sohada talaba (masalan, bo'lajak o'qituvchi) tomonidan egallangan kompetensiya, ya'ni ma'lum bir sifatlarning to'liq shakllangan majmui tushuniladi.

Kompetentlik tushunchasi (lotinchadan competelia, compete so'zidan olingan bulib "birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'noni bildiradi) lug'atlarda esa "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish", "xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi.

Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi

va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yoʻnalish boʻyicha integrativ bilimlar va harakatlarning oʻzlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni oʻrganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi maʼlumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va oʻz faoliyatida qoʻllay bilishni taqozo etadi.

Bugungi tobra rivojlanib borayotgan mamalakatimizda taʼlim sohasida oʻzgarishlar va yangiliklar nihoyatda koʻp. Talabalarga bilim berish jarayoni nihoyatda murakkablashib bormoqda, chunki hozirgi yoshlar endi koʻroq maʼlumotga ega boʻlishni va imkon qadar yangi maʼlumotlarni olishni xoxlaydi. Buning sababi nima? Barcha talabalar texnik vositalardan telefon, kompyuter, internet saytlaridan hech qanday qiyinchiliksiz foydalana oladi. Xoʻsh bunday vaziyatda nima qilish kerak? Pedagog talabaning olganidan koʻproq maʼlumotga ega boʻlishi va barcha axborot texnologiyalarini qoʻllay olishi, dars jarayonini didaktik shaklda oʻtish, pedagogik kompetentlikdan foydalanishi maqsadga muvofiq boʻlardi.

Didaktik oʻyinli texnologiyalar oʻquvchi-talabalarining bilim olish faoliyatini oʻyin faoliyati bilan qoʻshib olish borishdan iborat. Didaktik oʻyinlar musobaqa, raqobat, oʻzaro yordam, hamkorlik tarzida olib boriladi. Buning uchun pedagog didaktik oʻyindan koʻzda tutilgan maqsad, uni amalga oshirish yoʻllari, oʻyin mazmuni va ishtirokchilari faoliyatini aniqlab oladi. Didaktik oʻyin darslari taʼlim va tarbiya berish, oʻquvchilar faoliyatini yoʻnaltirish, kasbga yoʻnaltirish, oʻquvchilarning muloqat va nutq madaniyatini rivojlantirish, ular bilimlarini chuqurlashtirish va shaxsni rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Didaktik oʻyinli darslarni mazmuniga koʻra sanʼatlashtirilgan rolli oʻyinlar, ijodiy ishbilarmonlik oʻyinlari, konferensiya va oʻyinli mashqli darslarga ajratish mumkin. Didaktik oʻyinli darslarning

- syujetli-rolli,
- ijodiy,
- ishbilarmonlar,
- konferensiyalar va oʻyin mashqlar kabi turlari bor.

Mazkur darsga hamma oʻquvchi-talabalar ular qaysi rolni bajarishidan qatʼiy nazar qizgʻin tayyorgarlik koʻrishi lozim. Didaktik oʻyinlarni amalda qoʻllash shart-sharoitlari, didaktik oʻyinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi xisobga olinadi. Xar bir didaktik oʻyin mashgʻulotlariga oʻziga xos xavfsizlik talablari qoʻyiladi. Bu xavfsizlik talablariga toʻliq rioya qilinishi xar bir tashkilotchining doimiy eʼtiborida boʻlishi lozim. Bundan tashqari xar bir didaktik oʻyin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini turli belgilash va unga rioya qilishning oʻziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qoʻllash talab qilinadi.

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati quyidagicha yoritiladi:

1. Ijtimoiy kompetentlik — ijtimoiy munosabatlarda faollik koʻrsatish koʻnikma, malakalarga egalik, kasbiy faoliyatda subʼyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish boʻlib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik koʻzga tashlanadi.

3. Shaxsiy kompetentlik — izchil ravishda kasbiy o‘shirish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik va kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ekstremal kompetentlik - - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Bugunga qadar ko‘plab pedagoglar tarafidan kommunikativ kompetentlik tajribalari amalga oshirilgan. Ulardan: xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha S.Yu. Godunova (tilni rivojlantirish), L.K. Salnaya (chet tili mulotiqotiga kasbiy yo‘naltirish), O. N. Fedorova (kompetentlik yondashuvda ingliz tiliga o‘rgatish), N.A.Gazova (ingliz tili tilida mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirish).I. R.Agasiyeva (maxsus matnlarni axborotli o‘qishga o‘rgatish), V.V.Bondareva (nofilologik fakulteti talabalarida chet tili yozma nutqiga o‘rgatish), T. N. Suxareva (ingliz tili materiallari asosida so‘z ishlatishda kommunikativ strategiyalarni shakllantirish). Ye. P.Shoseva (1-bosqich talabalarida ingliz tilidan monologik nutqini shakllantirish), M. H. Qoraxodjayeva (nofilologik guruh talabalarining kasbiy nutqini fe‘l asosida shakllantirish metodikasi), N. V.Zemlyanskaya (og‘zaki nutq darajasi), S. A. Gadjiyeva (og‘zaki nutqning grammatik tomonlari), J. V.Ilin (ingliz tilini o‘rganish jarayonida kasbiy o‘z-o‘zini anglash), A.V.Gavrilov (eshitish darajasi)larning tadqiqot ishlari mavjud. Mazkur tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borilgan. Bunda kommunikativ kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmun- mohiyati aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Kommunikativ kompetensiya - bu muayyan narsalarni qo‘yish va hal qilish qobiliyati aloqa vazifalari turlari: maqsadlarni aniqlash aloqa, vaziyatni baholash, hisobga olish hamkorning niyatlari va aloqa usullari (hamkorlar), yetarli strategiyalarni tanlash, aloqa muvaffaqiyatini baholash, o‘z nutq xatti-harakatlarini o‘zgartirishga tayyor bo‘lish demakdir.

Nutq faoliyatining asosiy til materiali o‘z ichiga fonetik, grammatik, leksik Materiallarni oladi. Til materiallarning xususiyatini, ularni faollashtiriladigan nutq faoliyatining turli xususiyatlari hisobga olinib, ular maxsus tamoyillar asosida tanlanadi. Har bir til materiallari o‘zining tanlash tamoyillariga ega. O‘quvchi yoki talaba ingliz tili materialini o‘rganayotganda o‘zbek, rus tillarining xususiyatlari unga ta‘sir qiladi. Bunga ahamiyat berilishi va hisobga olish zarur. Har bir til materiali o‘zini o‘rgatish xususiyatlariga, metod, yo‘l, usullariga, tanlash tamoyillariga, interferensiyasiga egadir.

Kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lish faoliyat yo‘nalishi uning tarkibiy qismlarini aniqlash imkoniyatini belgilaydi:

- motivasion va qiymat komponenti;
- kognitiv komponent;
- hissiy komponent;
- xulq-atvor komponenti .

Xulosa qilib aytganda, mulotiqot qobiliyati shaxsiy ta‘lim, integral sifat sifatida qaralishi kerak strukturaviy tarkibiy qismlari kognitiv, motivasion, hissiy va xulq-atvor bo‘lgan shaxslar uning amalga oshirilishi shaxsning kommunikativ faoliyatining samaradorligini, uning umumiy mulotiqot qobiliyatini belgilaydi.

XULOSA

Ilmiy adabiyotlarning tahlilidan ma'lum bo'lishicha tadqiqotchilar kommunikativ kompetentlik va muloqot bilan o'z-o'zidan ayon aloqaning mavjudligini ko'rsatib, muloqot deganda biz nimani nazarda tutishimizdan, uning qaysi mohiyat tavsiflarini fundamental tavsiflar deb ajratishimizdan kommunikativ kompetentlik tushunchasining mazmun tomoni bevosita bog'liq bo'lishini ta'kidlashadi. Bundan tashqari, kommunikativ kompetentlikni har qanday ta'lim darajasi va ixtisosligida zamonaviy mutaxassisni tayyorlashning natijalaridan biri sifatida o'rganishda va bunda kommunikativ kompetentlik va muloqot kategoriyalarining o'zaro aloqasiga ishora qilish bilan, biz bu holda muloqot kategoriyasini tushunishdan nafaqat kommunikativ kompetentlik tushunchasining ma'no-mazmun to'ldirilishi, balki mutaxassisni kommunikativ kompetentlik tashuvchisi sifatida tayyorlashning natijasi qanday bo'lishini ham tushunishdan bog'liq bo'lishini anglashimiz kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'sak bugungi rivojlangan dunyoda pedagog kadrlar ta'lim berishda kreativlikda, kompetentlikdan, didaktik usullardan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Agar har bir pedagog imkon qadar ko'proq pedagogik kompetentlik qobiliyatiga ega bo'lsa va uni dars jarayonida o'quvchilarda qo'llay olsa, shunda talabalarning darsga bo'lgan qiziqishlari ham, uyga berilgan vazifalarni bajarishdagi ma'suliyatlari ham, o'zaro raqobatdoshliklari ham ortgan va yaxshilangan bo'ladi. Zero kelajak yoshlar qo'lida.

REFERENCES

1. Ivanov D.A., Mitrofanov K.G., Sokolova O.V. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii. Problemi, ponyatiya, instrumentariy: ucheb.-metod. posobiye.
2. Axmedov, A. YU. (2020). BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIXATLARI.
3. Azimova Z.E. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi.
4. Xutorskoy A.V. Klyucheviye kompetensii i obrazovatelnye standarti // Eydos:
5. internet-jurnal «Sentr distansionnogo obrazovaniya». – 2002. – 23 apr
6. [file:///C:/Users/acer/Downloads/ZDPP2708%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/acer/Downloads/ZDPP2708%20(1).pdf)
7. <http://www.fayllar.org/komunikativ-kompetentlik-reja-ozbekiston-respublikasidagi-zamo.html>

BUXORO VA JUNG‘OR XONLIKLARI O‘RTASIDA SIYOSIY MUNOSABATLAR TARIXI.

Orziev Mahmud Zaynievich

Buxoro davlat universiteti, “Jahon tarixi” kafedrasida dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Boltaev Oxun Obid o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti, “Jahon tarixi” kafedrasida II-bosqich magistranti
Telefon: 99893 965 03 36

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10581800>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVIII asr boshlarida Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlarda katta ta‘sir ko‘rsatgan Oyrat qabilalarining yagona davlat bo‘lib birlashish jarayoni sodir bo‘lgan. Oyratlar hali qabila ittifoqi bo‘lgan davrlardayoq o‘lja olish maqsadida Movarounnahr hududlariga bosqinchilik ishlarini amalga oshirganliklarini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: Oyratlar, Buxoro xonligi, Balx, Galdan-Selen, Imomqulixon, Movorounnahr, Xuroson.

ИСТОРИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ БУХАРСКИМ И ДЖУНГОРСКИМ ХАНСТВАМИ.

Аннотация. В данной статье в начале XVII века происходил процесс объединения ойратских племен в единое государство, оказавший большое влияние на международные отношения в Центральной Азии. Ойраты показывают, что они совершали набеги на территории Моваруннахра с целью добычи добычи еще в период племенного союза.

Ключевые слова: Айротлар, Бухарское ханство, Балх, Галдан-Селен, Имамкулихан, Моворуннахр, Хорасан.

THE HISTORY OF POLITICAL RELATIONS BETWEEN BUKHARA AND JUNGOR KHANATES.

Abstract. In this article, the process of uniting the Oirat tribes into a single state, which had a great impact on international relations in Central Asia, took place at the beginning of the 17th century. The Oirats show that they raided Movarounnahr territories in order to get booty even in the period of tribal union.

Key words: Ayrotlar, Bukhara Khanate, Balkh, Galdan-Selen, Imamqulikhan, Movorounnahr, Khorasan.

Tarixiy adabiyotlarda 1640 yil Jung‘or xonligi tashkil topgan sana sifatida tilga olingan.

Buxoro xonligiga navbatdagi bostirib kirish sanasi sifatida esa, 1706 yil tilga olingan bo‘lib, shu yili Ubaydullaxon (1702-1711 yy)ning Balxga isyonchi amirlarga qarshi harbiy yurishga otlangan vaqtda qalmoq (jung‘or)larga qarshi kurashish uchun Samarqandga yo‘l olganligibilan bog‘liq ma‘lumotlarni uchratish mumkin. Bundan tashqari 1709 yilda Ubaydullaxon yana qalmoqlarga qarshi turish maqsadida Samarqandga kelganligi tarixiy adabiyotlarda keltirilgan.¹⁵⁸ Bu esa Markaziy Osiyoda yangi qudratli Jung‘or xonligining vujudga

¹⁵⁸ Тулибаева Ж.М. Казахстан и Бухарское ханство в XVJJJ – первой половине XIX в. – Алматы: Издательство «Дайк-Пресс», 2001. – С. 43.

kelganligini va o'sha davrda qudratli deb hisoblangan Buxoro xonligi bilan munosabatalari ziddiyatli tus olganligini ko'rsatadi.

Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida qalmoqlar ta'siri oshganligini Ubaydullaxondan keyingi xon Abulfayzxon (1711-1747 yy) davrida sodir bo'lgan deb xulosa qilishga barcha asoslar etarli. Abulfayzxon o'z xavfsizligini 350 qalmoq va 150 xonazot (ruslar)dan iborat qo'riqchilarga ishonganligiga oid ma'lumotlar yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni tasdiqlaydi.¹⁵⁹ Buxoro xonligiga Rossiya imperatori Pyotr I (1672-1682-1725 yy) ning elchisi sifatida kelgan Florio Benevini (1721-1725 yy) Buxoro xonligida qalmoqlar ta'siri katta ekanligini, xonning shaxsiy qo'riqchilari 350 tasi qalmoqlardan, 150 tasi xonazot (qul qilingan rus asirlari)dan ekanligini yozib qoldirgan.¹⁶⁰

Abulfayzxon hukumronligi davrida Buxoroda qalmoqlar ta'sirining katta bo'lganligini Javshan qalmoq misolida ham ko'rish mumkin bo'lib, u Buxoro xonligi qushbegisi bo'lib ma'lum bir muddat davlat ishlari uning qo'lida to'planganligi qator tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan.

Bundan tashqari 1723 yilda Florio Benevini Buxoroda bo'lganida Jung'or xoni Tsevan-Rabdan elchisi Buxoroga kelib, Samarqanddan Abulfayzxon soliq olmasligi, Jung'or xoni qo'shin bilan kelishi va tartib o'rnatishi, Buxoro xoni uning yo'lidan chiqsa, Buxoroni ishg'ol qilishini ma'lum qilganligini yozib qoldirgan. Ushbu ma'lumot ham Jung'or xonligining Buxoro xonligi ustidan siyosiy ustunlikka ega ekanligini ko'rsatib beruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Buxoro xonligida XVIII asrning birinchi yarmida siyosiy parokandalik avj olgan bo'lib, hokimiyat uchun kurashlar deyarli to'xtovsiz olib borilgan. Siyosiy kurashlarning eng yirigi Kenagaslardan bo'lgan Ibrohim sulton va Abulfayzxon o'rtasida sodir bo'lib, Samarqandni egallab olgan Ibrohim suoton Abulfayzxonga qarshi kurashda Jung'orlardan engilgan va Movarounnahr tomon chekingan qozoq-qo'ng'iroq, qoraqalpoqlardan yordam so'ragan. Bu esa Movarounnahrni etti yil davomida vayron etilishiga sabab bo'lgan. Talonchilar Qarshi, Shahrisabz, Hisor, Ko'lobgacha etib borganlar. Qozoqlarning bu kurashlarga qo'shilishiga ularni XVIII asrning birinchi yarmidagi qalmoqlar tomonidan bir necha bora talanishi, tazyiqqa uchrashi bo'lib, qozoqlarning O'rta juz qabilalari Samarqand va Buxoro hududlari tomon siljiy boshlagan.

Bu hududlarda o'z hududlariga ega bo'lish maqsadida esa ular siyosiy kurashlarga jalb qilingan deb xulosa qilish mumkin. Jung'orlar bosqini davrida qozoqlarning katta juzlari ilgari o'zlari yashagan Balxash ko'li bo'ylaridan Buxoro xonligi atroflariga ko'chib kelishi ularni ham siyosiy kurashlarga tortilishiga sabab bo'lgan.

Toshkent, Sayram, Turkiston kabi Sirdaryobo'yi shaharlari Jung'or xonligi va qozoqlar o'rtasidagi doimiy ziddiyatli hududga aylangan bo'lib, 1742 yilda jung'orlarning navbatdagi hujumi vaqtida Toshkentda yana hukumronliklarini o'rnatganlar. Ammo, jung'orlar sarkadasi Saray Manji tomonidan Samarqandni egallashga bo'lgan urinish muvofaqiyatsizlikka uchragan.

Badaxshon va Xo'jand viloyatlarini egallashga bo'lgan urinish ham barbod bo'lgan.

Shunday bo'lsada, bosqinchilar katta o'ljalar bilan ortga qaytganlar. XVIII asrning o'rtalarida siyosiy jihatdan parokanda bo'lgan Eron Nodirshoh Afshor (1736-1747 yy) hukumronligi davrida markaziy hokimiyat kuchayib, Eron qo'shni davlatlarga ham hujumlar

¹⁵⁹ Посланник Петра I на Востоке. Посольство Флорियो Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. - М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1986. - С. 125

¹⁶⁰ Чимитдоржиев Ш.М. Взаимоотношения Монголии и Средней Азии в XVII-XVIII вв. - М.: Наука, 1979. - С. 25. - 84 с.

uyushtira boshlagan. Nodirshoh va Jung'or xonligini oltinchi xuntayjisi Tsevan-Dorji (1732-1749 yy) o'rtasida o'ziga xos kelishuv bo'lgan va ikki o'rtadagi davlatlarni bo'lib olish rejasi vujudga kelgan degan xulosaga kelishga asos bo'luvchi ma'lumotlar mavjud. Chunki, 1746 yilda Jung'or xoni Tsevan-Dorji Eron shohi Nodirshohga elchilar yuborib, qarindoshchilik aloqalarini yo'lga qo'yishga harakat qilgan. Singlisini Nodirshohga turmushga bergan va Nodirshoh elchilarga qalin puli sifatida 10 ming rubl miqdorda kumush pul bergan.¹⁶¹ Bu esa, yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni asoslashga xizmat qiladi.

V.V. Bartold ma'lumotlarida Jung'or xonligi kuchaygan davrlarda Buxoro xonligi ham bu davlatga qaram hisoblangan. Ammo, bu qaramlik qaysi xronologik chegarada bo'lganligini ko'rsatib o'tmagan. Bizning fikrimizcha, Buxoro xonligining Jung'or xonligiga qaramligi Ashtarxoniylar sulolasining qulash arafasida ayniqsa kuchayib borgan. Ushbu fikrlarni asoslaydigan ma'lumotlar V.A. Moiseev tadqiqodlarida keltirilgan. Uning yozishicha, 1748 yilda Ashtarxoniy Abdulmo'min o'ldirilgani haqida Jung'or xonligi poytaxti Urguga kelgan elchilar shikoyat qilganlar. Muhammad Raximbiy hokimiyatni qo'lga kiritgandan keyin ham ashtarxoniylar tarafdorlari bir necha bora taxtni qaytarib olishga yordam berishni so'rab elchi yuborganlar. Bundan tashqari Buxoroda Muhammad Raximbiy mang'itlar sulolasini o'rnatish jarayonida qalmoqlar qo'l ostida bo'lgan Toshkentga Nurota va Sagarji beklari undan norozi bo'lib, qalmoqlarga shikoyat qilib kelganligi va Jung'or xonligidan Buxoroga taftish uchun elchilar kelgani, oxir-oqibatda Buxoro va Jung'or xonliklari o'rtasida kelishuvga erishilganligi V.V. Bartold tadqiqodlarida keltirib o'tilgan. Bu Jung'or xonligining Toshkentdagi noibi Buxoro xoni hatti-harakatlarini nazoratga olgan degan xulosani keltirib chiqaradi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotdan tashqari Muhammad Vafo Karmanagiyning "Tuhfat al-xoniy" asariga tayanib, V.V. Bartold 1749 yilda yangi mang'itlar sulolasi o'rnatilish jarayonida Muhammad Raximbiy va uning raqiblarning siyosiy ziddiyatlarini hal qilish uchun Buxoroga Jung'or elchisi hakamlik qilish uchun kelgan va uning qarorini tinglashga, uni bajarishga majbur bo'lganlar. Bu tarixiy jarayon ham Buxoro xonligi tugatilish jarayonida Jung'or xonligiga qaram bo'lganligini tasdiqlaydi.

Jung'or xonligining qulash jarayonlari XVIII asr o'rtalarida sodir bo'lib, xonlik inqirozga yuz tuta boshlagan XVIII asrning 40-yillari ikkinchi yarmida taxtga da'vogarlarning o'zaro kurashlari avjga chiqqan. Onasi kanizak bo'lgan Tsevan-Dorji hukumronligiga qarshi kurash boshlagan Davatsini qo'llab-quvvatlashga moyil bo'lgan sarkardalarni ukasi Emanxuluni 15 ming qo'shin bilan Buxoroga hujum qilishga yuborgan. Jung'or xonligining Qo'qon xonligi bilan munosabatlari alohida tadqiqod mavzusi bo'lib, 1750 yilda Qo'qon xoni Abdugaribiy vafot etgan.

Taxtga o'tirgan kichik o'g'li Abduraxmon o'tirgan. To'qqiz oy hukumronligidan keyin uni mahalliy feodallar fitnasi sababli taxtdan tushirilib Marg'ilonga hokim qilib yuborilgan.

Abdugarimbiyning akasi Abduraxmonning ikkinchi o'g'li Irdona Qo'qon xonligining navbatdagi xoni qilib ko'tarilgan. Irdonaning akasi Jung'orlarga garov sifatida berib yuborilgan Bobobek Lama-Dorjiga o'zini Qo'qonga xon qilib qo'yish evaziga butun Buxoroni istilo qilishi va Jung'or davlati vassalli bo'lishni va'da qilgan. 1750 yilning kuzida Lama-Dorji qo'zg'olon ko'targan Toshkentga qarshi qo'shin yuborgan va shu bahonada Bobobekni Qo'qon taxtiga

¹⁶¹ Моисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (XVII-XVIII вв.). – Алма-Ата: Гылым, 1991. - С. 186.

FJSTI Pediatriya fakulteti Pediatriya yo'nalishi 5722-guruh

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10598934>

Annotatsiya. Masofaviy ta'limni bugungi istalgan zamonaviy fanlar bilan chambarchas bog'lagan holatda o'tkazish va uni tashkil qilish mumkinligidan foydalanib judayam ko'p talabalar va foydalanuvchilar uchun qulaylik va shart – shaoritdan kelib chiqib ommalashib borayotgan yo'nalishlardan biri deb hisoblaymiz. Masofaviy ta'limni albatta zamonaviy axborot texnologiyalari bilan birgalikda qurish va undan foydalanish hamda uning imkoniyatlarini oshirish maqsadida ta'lim, virtual kutubxona, masofadan o'qitish, masofaviy ta'lim, elektron darsliklar kabi tushunchalar mavjud.

Kalit so'zlar: LMS/LCMS, atutor, Claroline, Dokeos, Moodle.

MODERN TOOLS AND METHODS OF ORGANIZING DISTANCE EDUCATION.

Abstract. We believe that distance education is one of the directions that is gaining popularity due to the convenience and condition for a large number of students and users, using the possibility of conducting and organizing it in a state that is closely connected with any modern sciences. There are such concepts as education, virtual library, distance education, distance education, electronic textbooks, in order to build and use distance education together with modern information technologies and to increase its capabilities.

Keywords: LMS/LCMS, atutor, Claroline, Dokeos, Moodle.

СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ И МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация. Мы считаем, что дистанционное образование является одним из направлений, которое набирает популярность в связи с удобством и необходимостью для многих студентов и пользователей использовать возможности его проведения и организации в состоянии, тесно связанном с любыми современными науками. Существуют такие понятия, как образование, виртуальная библиотека, дистанционное образование, дистанционное образование, электронные учебники, чтобы построить и использовать дистанционное образование вместе с современными информационными технологиями и повысить его возможности.

Ключевые слова: LMS/LCMS, автор, Claroline, Dokeos, Moodle.

LMS/LCMS tizimlari elektron ta'limni (masofaviy ta'lim jarayonini) tashkil etishning asosiy funksiyalarini o'z ichiga oladi.

Masofadan turib onlayn o'qish ta'lim olishning innovatsion va qiziqarli usuli hisoblanadi. Bunda o'quvchi mustaqil tarzda ta'lim oladi, bilimlarni o'zlashtiradi, o'z-o'zini nazorat qiladi, mustaqil fikrlaydi va xulosa chiqaradi.

Ta'lim jarayonini masofaviy shaklda tashkil etish uchun ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar (**LMS - Learning management systems**)dan foydalaniladi.



LMS INTERFEYSI


Masofaviy o'qish - bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimi.

U o'quvchiga o'qituvchi bilan muloqot olib borish hamda xohlagan vaqtida, istalgan joydan turib mustaqil ravishda shug'ullanish imkoniyatini ta'minlaydi.

O'qituvchi uchun esa internetda o'z o'quv materiallarini o'quvchiga taqdim etish va o'quvchilarning o'zlashtirishini masofadan turib kuzatib borish imkoniyatini yaratadi.



Umuman, ta'lim tizimida ham ta'lim dasturlari, mazmuni, standartlari takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o'zgarishlar bilim olishning yangi texnologiyalari, masofaviy, loyihalangan ta'lim, media ta'limni, ya'ni shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta'lim usullarini joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.



Keng imkoniyatlari	Ha, ichki modullar hisobiga	Ishlab chiqaruvchilarga bog'liq	Ha, ichki modullar hisobiga	Ishlab chiqaruvchilarga bog'liq	Ha, ichki modullar hisobiga	Ishlab chiqaruvchilarga bog'liq	Ha, ichki modullar hisobiga
Qo'shimcha dasturiy ta'minoti	Apache, MySQL, PHP	Apache, MySQL, PHP	Apache, MySQL, PHP	Apache, JBOSS, Tomcat, MySQL,	Apache, MySQL, PHP	Java SDK	Apache, MySQL, PHP
Platforma	Windows, Linux, Unix, MacOS	Windows, Linux, Unix, MacOS	Windows, Linux, Unix, MacOS	Windows, MacOS	Windows, Linux, Unix, MacOS	Linux, Unix	Windows, Linux, Unix, MacOS
Testlash tizimi	Ha	Ha	Ha	Ha	Ha	Ha	Ha
Tinglovchilar soniga qarab cheklash	Yo'q	20000	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q
O'quv materiallarini qayta ishlash muhiti	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Mavjud
Tizim bilimni tekshirish	Testli	Testli, mashqli	Testli	Testli	Testli, vazifali amaliyot Forumlardagi faollik	Testli, vazifali	Testli, vazifali amaliyot Forumlardagi faollik
Tizim hisoboti, monitoringi	Ozgina rivojlangan	O'rtacha rivojlangan	O'rtacha rivojlangan	Ozgina rivojlangan	Rivojlangan, doimiy rivojlanishda	Ozgina rivojlangan	Rivojlangan, doimiy rivojlanishda

Atutor–Ochiq kodli, veb muhitida ta'lim jarayonini boshqaruvchi LMS tizimi hisoblanadi.

Tizimda mavjud o'qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va boshqa modullari mavjud. Tizim bir nechta standartlarni qo'llab quvvatlaganligi sababli, internet orqali jismoniy nuqsonga ega bo'lgan o'quvchi-talabalar tizim

orqali o'quv resurslardan foydalanishlari mumkin. Xususan ko'zi ojiz talabalar maxsus veb ilovalar orqali tizimga bog'langan holda o'quv kontentdagi so'zlarni audio formatda o'tkazgan holda tinglashi mumkin. O'quv modulini yozish vaqtida Atutor dasturiy majmuasining barqaror versiyasi 2.1.1. Tizimning shaxsiy saytida 20 dan ortiq har hil modullar mavjud. Tizim qo'llab quvvatlaydigan standartlar soni ancha bo'lib bu boshqa LMS tizimlardan farqi ham aynan shu xususiyatidir.

Claroline – Erkin va ochiq kodli, masofaviy o'quv kurslarni tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi Webga orientatsiyalangan dasturiy majmua hisoblanadi. Tizim Luvenadagi (Belgiya) katolik universitetining pedagogika va multimedia institutida yaratilgan. Dasturiy majmuadan foydalanish GNU (General Public License) asosida amalga oshiriladi ya'ni bepul foydalanish mumkin.

Claroline dasturiy majmuasi masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish uchun talab qilinadigan barcha talablarga javob beradi xususan, foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish, tizimda foydalanuvchilarning (fan o'qituvchisi, o'quvchi va mehmon) rollarini administrator tomonidan belgilashi, o'quv kurslarni yaratish, ularning tarkibini tahrirlash, talabalar bilimni nazorat qilish, monitoring olib borish, nazorat natijalarini tahlil qilish, tizim ichida foydalanuvchilar o'rtasida kommunikatsiya elementlaridan (chat, forum, qisqa xabarlar jo'natish modullaridan) foydalanish va boshqarish imkoniyatini beradi. Tizimda boshqa LMSlar singari quyidagi ko'rsatilgan o'qitish modullari mavjud: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work , Student tracking, Kalendar, Viki va boshqa modullari mavjud. Boshqa LMS lar singari IMS va SCORM standartlarni qo'llab quvvatlaydi.

Dokeos - Clarolinening 1.4.2 versiyasidan ajralib chiqqan yangi dasturiy majmua hisoblanadi.

Dokeos Claroline platformasini ishlab chiqqan dastlabki ishchi guruhning bir necha a'zolarining ish mahsuli bo'lib, ular ta'lim muassasalari uchun yaratilgan Clarolinedan farqli ravishda davlat korxonalarining ishchi xodimlariga moslashtirishni maqsad qilishdi va amalga oshirishdi.


Dokeos dasturiy majmuasining rasmiy Web saytiga tashrif buyursangiz, u yerda dasturning 2 ta versiyasini ko'chirib olish taklif qilinadi: Dokeos FREE – bepul va Dokeos PRO – bepul bo'lmagan, qo'shimcha modullari mavjud bo'lgan dastur paketi taklif etiladi. Lekin Dokeos FREE versiyasi bizning fikrimizga ko'ra, ta'lim jarayonini tashkillashtirish uchun kerak bo'ladigan barcha o'quv modullari mavjud.


Tizimning imkoniyatlarini va unda mavjud o'quv elementlarni quyida ko'rsatilgan aql xaritasi orqali ko'rish mumkin. Rasmdan ko'rinib turganidek, tizimda mavjud o'qitish modullarini ta'lim muassasalarida ham foydalanish mumkin. Hozirgi vaqtda LMS larning ko'pchiligi ijtimoiy tarmoqlardagi mavjud g'oya asosida o'zlarining ishchi muhitlarini shunday tarmoqlarga moslashtirmoqda. Shunga ko'ra, bu tizimda ham ijtimoiy tarmoq elementlari keng kiritilgan.

Yuqorida keltirilgan LMS tizimlari singari Dokeos dasturiy majmuasi ham SCORM standartini qo'llab quvvatlaydi. Bu esa bu standartni qo'llab quvvatlaydigan boshqa LMS tizimlariga o'quv kurslarini eksport/import qilish imkoniyatini beradi. Dokeos dasturiy majmuasi o'quv modulini yozish vaqtidagi oxirgi barqaror versiyasi Dokeos 2.2 RC2.



Moodle – masofadan o‘qitish va online tartibidagi mashg‘ulotlarni tashkil qiluvchi vebga yo‘naltirilgan dasturiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi:





Bugungi kunda masofaviy ta'lim jarayonini aynan Moodle dasturiy majmuasidan foydalanish holda tashkillashtirish samaraliroq hisoblanadi.



REFERENCES

1. Qurbonov P. Ataxonov S., Sharofiddinov S. MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 43-47.
2. Pahlavon Q. TIBBIYOTDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //GERMANY SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 24-28
3. Qurbonov P. Xoldarova G., Rasulova F. TIBBIYOTDA KOMPYUTER TOMOGRAFIYASI VA UNDA SAMARALI FOYDALANISH //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 35-39.

4. Mirzakarimov B., & Qurbonov P. (2023). TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK TA'MINOTINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI. Research and Implementation. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/745>
5. Qurbonov P., Minavarjonov, S., & Raxmonaliyeva, F. (2023). TIBBIYOT XODIMLARINI MASOFADAN O'QITISHDA AVTOMATLASHGAN DIDAKTIK TA'MINOTNING UMUMIY TUZILISHI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(3), 52–55. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/11562>
6. www.fjsti.uz
5. <https://tktishf.edu.uz/>
6. <https://dist.edu.uz>

**TIBBIYOT TEXNIKUMLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'RGATISH
VA UNDA FOYDALANISH BO'YICHA MASOFAVIY TA'LIM
TEXNOLOGIYALARINI FAOL HOLATDA QO'LLASH**

Qurbonov Pahlavon Sirojiddin o'g'li

FJSTI "Biofika va axborot texnologiyalari" kafedrasida assistenti

Ataxanov Sanjarbek Anvarovich

FJSTI "Biofika va axborot texnologiyalari" kafedrasida assistenti

Eshmatova Diyora Baxodir qizi

FJSTI Pediatriya fakulteti Pediatriya yo'nalishi 5722-guruh

Qaxxorova Marg'uba Murod qizi

FJSTI Pediatriya fakulteti Pediatriya yo'nalishi 5722-guruh

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10600906>

Annotatsiya. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida va texnologiyalar asrida masofaviy ta'lim va uni tushunchasini Tibbiyot texnikumi talabalari bilan birgalikda Tibbiyot texnikumi xodimlariga ham chuqur mohiyatini yoritish uni barcha uchun sodda, tushunarli va albatta foydali tomonlarini tadbiq etishdan iborat. Masofaviy ta'lim tizimining tamoyillari asosiy vazifalari va amaliy ko'nikmalarini hosil qilish bo'yicha ishlar olib borilgan hamda tibbiyot xodimlari va talabalarni masofadan o'qitishning dolzarb mavzulari ko'rib chiqilgan va amaliy natijalar olish uchun ishlar olib borilgan.

Kalit so'zlar: Virtual stend, virtual kutubxona, masofadan o'qitish, masofaviy ta'lim, masofaviy ta'lim texnologiyasi, kommunikatsion texnologiyalar, elektron qo'llanma.

**ACTIVE APPLICATION OF DISTANCE EDUCATION TECHNOLOGIES FOR
TEACHING AND USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN MEDICAL
TECHNOLOGY SCHOOLS**

Abstract. In today's modern education system and in the age of technology, it is important to explain the deep meaning of distance education and its concept to the students of the Medical Technical University and to the employees of the Medical Technical University. Work was carried out on the formation of the main tasks and practical skills of the principles of the distance education system, and the actual topics of distance education of medical workers and students were considered and work was carried out to obtain practical results.

Key words: Virtual stand, virtual library, distance education, distance education, distance education technology, communication technologies, electronic manual.

**АКТИВНОЕ ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ДИСТАНЦИОННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ПРЕПОДАВАНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕДИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ
ШКОЛАХ**

Аннотация. В современной системе образования и в век технологий дистанционное образование и его концепция совместно со студентами Медицинского технического колледжа, сотрудниками Медицинского технического колледжа призваны объяснить его глубокий смысл и реализовать его простой, понятные и, безусловно, полезные аспекты для каждого. Была проведена работа по формированию основных задач и практических навыков принципов системы дистанционного образования, а также рассмотрены

актуальные темы дистанционного обучения медицинских работников и студентов и проведена работа для получения практических результатов.

Ключевые слова: *Виртуальный стенд, виртуальная библиотека, дистанционное образование, дистанционное образование, технология дистанционного обучения, коммуникационные технологии, электронный учебник.*

Ushbu sxemadagi mavjud elementlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan. Masalan, virtual stendlarning asosida elektron qo‘llanmalarning elementlari yotadi. Ya‘ni, VS lar bevosita elektron qo‘llanmalarda foydalanilgan metodika – kompyuter imitatsion modeli asosida yaratiladi. Bu esa ED va virtual stendlarning yaratish jarayoni o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari ED lardan ma‘ruza darslarida mavzuga tegishli amaliy va vosita mashg‘ulotlariga doir o‘quv materiallarini VS lardan foydalanib ko‘rsatish mumkin. Bu esa o‘z navbatida nazariy va amaliy dasturlarni birgalikda olib borish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari elektron qo‘llanmalar va virtual stendlar masofadan o‘qitish tizimining o‘quv materiallari bazasini tashkil etadi. Masofadan o‘qitish asosan axborot kommunikatsion texnologiyalar bazasida tashkil etilishi sababli o‘quv materiallarini tarmoq tizimi orqali uzatish ehtiyoji tug‘iladi. Shu sababli elektron qo‘llanmalar va virtual stendlarni tarmoq tizimiga (lokal va global) moslashtirib yaratish va ulardan masofadan o‘qitish tizimida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Virtual o‘qitish tizimini tashkil etish uchun virtual kutubxona yaratish talab qilinadi. Virtual kutubxona bazasini ham elektron qo‘llanmalar va virtual stendlar tashkil etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, elektron qo‘llanmalar va virtual stendlar yuqorida tilga olingan tizimning asosini tashkil qiladi va ular bazasida masofadan o‘qitish va virtual kutubxona va virtual o‘qitish tashkil qilinadi.

Masofadan o‘qitish texnologiyalari vositalari yordamida o‘quv materiallarini obrazlar ko‘rinishida ifodalash o‘quvchilarning o‘qish-bilish jarayonining hamma komponentalariga u yoki bu tarzda ta‘sir etishi mumkin. Bunda ayniqsa ularning talabalarni o‘quv materiallarini qabul qilish, ma‘nosini anglash, esda qoldirish, ularni qayta-qayta takrorlash imkoniyati mavjudligi kabi jihatlarini ko‘rsatish mumkin. Bundan tashqari bu metodika talabalarni o‘qishga nisbatan emotsional yondoshishini rivojlantiradi va ularni ko‘p kuch sarf qilmasdan o‘quv materialini o‘zlashtirishga erishishini ta‘minlaydi. Bu sarflarni an’anaviy o‘qitish va yangi metodika bilan taqqoslab ko‘rsatamiz.

An’anaviy o‘qitish metodikasida o‘quv materiallari asosan matn va formulalar ko‘rinishida foydalanib, ularni bevosita o‘qitish jarayonida namoyish qilish imkoniyati deyarli mavjud emas.

Bunday ko‘rinishda berilayotgan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish talaba tomonidan asosan ketma-ket ravishda qabul qilinadi, shu sababli ularni o‘zlashtirish va esda qoldirish juda sust bo‘ladi.

Elektron qo‘llanmalar ma‘ruza mazmunini boyitish va yangi materiallar bilan to‘ldirishga imkoniyat yaratadi. Elektron qo‘llanmalarning yaratilishi, ularning o‘quv jarayoniga qo‘llanilishi ta‘lim muassalarida elektron kutubxonalar yaratishni taqazo etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki ta‘lim muassalarida yagona katalog tizimiga ega bo‘lgan kutubxonalarning paydo bo‘lishi va lokal tarmoqning yaratilishi kutubxonalarga bog‘liq muammolarning yechilishi bilan bir qatorda ular faoliyatining samaradorligini oshirishga va muvofiqlashtirishga olib keladi.

Elektron qo'llanmalarni oliy ta'lim tizimida qo'llash va o'qitish talabalar bilimni nazorat qilishni zamonaviy axborot texnologiyalari bazasida olib borishni ko'zda tutib quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi:

- *ma'ruza kurslari:*
- *mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:*
- *mustaqil ishlash uchun uslubiy ko'rsatmalar:*
- *bilimni avtomatlashtirilgan tekshirish tizimlari e'tiborga olingan.*

Ma'ruza matni o'qituvchilar tomonidan tayyorlanib, unga:

- *kurs dasturi:*
- *kursning texnologik xaritasi:*
- *joriy, oraliq va yakuniy baholashlar:*
- *asosiy va qo'shimcha adabiyotlar:*
- *to'liq ma'ruza matni:*
- *bo'laklarga, ya'ni boblarga bo'lingan mavzular ketma-ketligi:*
- *tayanch iboralardan iborat ma'lumotlar kiritilgan.*

Ma'ruza matnlari sarlavhalar, qism sarlavhalar, ta'riflar, kalit so'zlar, grafik materiallar ajratilib ko'rsatiladi.

Elektron qo'llanmalar asosida o'qitish jarayonida:

- *aniq predmetni kompyuter asosida o'qitish:*
- *ma'ruza matnlarni tahrirlash:*
- *o'tkazilgan nazoratlar natijalarining tahlili asosida, ma'ruza matnlarini bayon etish uslubini yaxshilash:*

- *axborot texnologiyalari asosida yaratilgan animatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatlarga ega bo'ladi.*

Elektron qo'llanmalar bilan ishlaydigan o'qituvchilar:

- *ma'ruza matnlari, amaliyot bilan bog'liq topshiriqlarni tuzish;*
- *uslubiy ko'rsatmalar, nazorat variantlari va topshiriqlarni tuzish;*
- *ishchi dastur va texnologik xaritani tuzish;*
- *bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha natijalarni tahlil qilish;*
- *ma'ruza matnlarini tahrirlash;*
- *har bir mavzu bo'yicha dinamik ko'rinishda ifodalangan jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur qilish;*

- *mustaqil ishlar bo'yicha talabalarga nazariy va amaliy topshiriq bo'yicha maslahatlar berishni tashkil qilish;*

- *o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzular bo'yicha talabalar bilan suhbat o'tkazish mumkin.*

Mazkur talablarga muvofiq elektron qo'llanmalar asosida dars jarayonini tashkil qilish pedagog o'qituvchilarning yumushini osonlashtirish, o'quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini yanada ko'tirishi bilan bir qatorda ta'lim muassasasi rahbariyatiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi[4]:

- *talaba, guruh, mutaxassisliklar bo'yicha test natijalarini ko'rib boorish va ularning o'zlashtirish darajasiga baho berish;*

- o'qituvchilarning ma'ruza matnlari va boshqa mustaqil ishlarga mo'ljallangan materiallarni tayyorlash sifatiga baho berish;
- multimedia vositalari asosida vosita ishlarini bajarish uchun kompyuterda modellashtirilgan virtual stendlar joriy etish;
- kursni o'zlashtirish bo'yicha uslubiy materiallarni tayyorlash uchun takliflar ishlab chiqish.

Oliy ta'lim tizimida elektron kutubxona yaratish bugungi kunning dolzarb masalalardan bo'lib, u quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi:

- yagona elektron katalog tizimiga ega bo'lgan virtual kutubxona yaratish;
- internet tarmog'i orqali oliy ta'lim tizimida elektron kutubxona faoliyatini ishga tushirish;
- oliy ta'lim tizimida elektron kutubxonalararo axborot almashinishini ta'minlash;
- Internet tarmog'i orqali umumjahon elektron tizimiga kirish;

Virtual kutubxona – bu o'quv materiallari elektron nusxada chop etilgan yagona katalog tizimiga ega bo'lgan elektron kutubxonadir. Elektron kutubxonadagi o'quv materiallarini tarmoq tizimi imkoniyatlaridan foydalanib o'qish mumkin. Elektron kutubxonadan yoki boshqa manbalardan tarmoq tizimi yordamida materiallarni olib o'qish – *virtual o'qish* deb yuritiladi.

Masofadan o'qitish tizimini o'quv materiallarini axborot zaxirasini tashkil qilishda elektron qo'llanmalarining o'rni beqiyosdir.

Talabalarning fikrlash faoliyatini AT lari yordamida ko'rsatmali tashkil qilishda uch asosiy vazifani bajarish lozim. Birinchi vazifa – ko'rsatmali qurol asosida o'rganilayotgan narsa yoki hodisaning original obrazini yaratish; ikkinchi ko'rsatmali qurolning yuzini talabalarning muayyan maqsad bilan kuzatishini tashkil etish; uchinchi vazifa-nazariy bog'liqlik va mazmuniga mos tushunchalarni hosil qilish yoki o'quv vazifalarni bajarish jarayonida obrazdan mohirona foydalanib uning mazmunini ifodalovchi harakat kiritish va tushuntirishdir. Bundan ko'rinib turibdiki barcha ta'lim metodlaridagi og'zaki tushuntirish, ko'rsatmali va amaliy metodlarga xos xususiyatlarni AT lari yordamida o'quv materiallarini obrazlar ko'rinishida birvarakayiga ifodalash orqali amalga oshirish mumkin ekan. Bu degan so'z ta'lim metodlarini birgalikda amalga oshirilishi talabalarning o'quv materiallarining o'zlashtirishini oshirishga, tushunchalar ko'rinishida fikr-mulohaza yuritishiga va aqliy o'sishiga zamin yaratadi.

REFERENCES

2. Qurbonov P. Ataxonov S., Sharofiddinov S. MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 43-47.
7. Pahlavon Q. TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //GERMANY SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 24-28
8. Qurbonov P. Xoldarova G., Rasulova F. TIBBBIYOTDA KOMPYUTER TOMOGRAFIYASI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 35-39.

9. Mirzakarimov B., & Qurbonov P. (2023). TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK TA'MINOTINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI. Research and Implementation. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/745>
10. Qurbonov P., Minavarjonov, S., & Raxmonaliyeva, F. (2023). TIBBIYOT XODIMLARINI MASOFADAN O'QITISHDA AVTOMATLASHGAN DIDAKTIK TA'MINOTNING UMUMIY TUZILISHI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(3), 52–55. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/11562>
11. www.fjsti.uz
7. <https://tktishf.edu.uz/>
8. <https://dist.edu.uz>

**РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ТРУД» В ПОСЛОВИЧНОЙ КАРТИНЕ МИРА
(НА МАТЕРИАЛЕ КАРАКАЛПАКСКОЙ, РУССКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ
ПАРЕМИОЛОГИИ).**

Султамуратов Азамат Ходжамбергенович

Магистрант.

Лингвистика Английского языка.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10604237>

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию роли понятия "труд" в пословичной картине в рамках каракалпакской, русской и английской паремиологии. Анализируется, как это понятие оказывает влияние на формирование культурных представлений и ценностей в данных языковых средах.

Ключевые слова: Труд, Паремиология, Культурные ценности, Пословицы, Русская культура, Каракалпакская культура, Английская культура, История труда, Сравнительный анализ.

**REPRESENTATION OF THE CONCEPT "LABOR" IN THE PROVERBIAL
PICTURE OF THE WORLD
(BASED ON KARAKALPAK, RUSSIAN AND ENGLISH PAREMIOLOGY).**

Abstract. This article is devoted to the study of the role of the concept of "labor" in the proverbial picture within the framework of Karakalpak, Russian and English paremiology. It is analyzed how this concept influences the formation of cultural ideas and values in these linguistic environments.

Key words: Labor, Paremiology, Cultural values, Proverbs, Russian culture, Karakalpak culture, English culture, Labor history, Comparative analysis.

В современном обществе, пронизанном множеством культур и языков, изучение универсальных концепций, таких как труд, через призму пословичных выражений, предоставляет уникальную возможность погружения в глубину культурных особенностей.

Понимание того, как образ жизни и ценности формируются в контексте труда, является неотъемлемой частью анализа культурных различий и сходств.

Обоснование актуальности темы: Концепция труда в культуре играет ключевую роль в определении общественных отношений, формировании ценностных ориентиров и структурировании повседневной жизни. Особенно актуальным становится это в контексте современного глобального сообщества, где происходит активный обмен культурными ценностями. Исследование пословичной картины труда в каракалпакской, русской и английской паремиологии поможет нам лучше понять, как эти различные культурные среды взаимодействуют с универсальным концептом труда, формируя свои собственные уникальные традиции и нормы.

Цель исследования: Целью настоящего исследования является проведение комплексного анализа репрезентации концепции "труд" в пословичной картине каракалпакской, русской и английской паремиологии. Мы стремимся выявить общие и уникальные черты в восприятии труда в данных культурных средах, а также определить влияние этого концепта на формирование образа жизни и ценностных установок в разных культурных контекстах.

Гипотеза: Мы предполагаем, что различные культуры будут иметь свои уникальные отражения понятия "труд" в пословицах, которые отражают особенности социокультурного контекста и исторического развития. В то же время, мы ожидаем обнаружить определенные универсальные черты в представлениях о труде, которые могут пересекаться между культурами и вносить вклад в общемировое понимание этого важного аспекта человеческой жизни. [1.113]

Определение понятия "труд" в каракалпакской культуре: В каракалпакской культуре понятие "труд" занимает центральное место, отражая глубокие традиции и особенности этноса. Трактовка труда в каракалпакской культуре связана не только с физическими усилиями, но и с духовным аспектом. Труд рассматривается как средство саморазвития и важный элемент формирования личности в обществе. Ключевые черты каракалпакского понимания труда часто отражаются в их пословицах, которые становятся своеобразным кодом ценностей.

Анализ каракалпакских пословиц, связанных с трудом: Исследование пословичной картине труда в каракалпакской паремиологии позволяет выделить определенные темы и мотивы. Многие пословицы отражают уважение к труду, представляя его как путь к достижению силы, мудрости и благополучия. Важным аспектом является также обращение к коллективному труду, что отражает социальные ценности и взаимосвязь между индивидуумом и обществом. Каракалпакские пословицы о труде олицетворяют не только физическую активность, но и духовное совершенствование личности.

Роль труда в формировании образа жизни и ценностей: Труд в каракалпакской культуре не ограничивается просто средством к существованию, но играет ключевую роль в формировании образа жизни и ценностных ориентиров. Каракалпаки видят в труде неотъемлемую часть своей идентичности, способствующую сохранению традиций и культурных ценностей. Концепция труда влияет на структуру общества, определяя его экономические, социальные и духовные аспекты. Отношение к труду также формирует систему ценностей, управляющую выборами в жизни и влияющую на моральные нормы в каракалпакском обществе. [2.79]

Исследование традиций и представлений о труде в русской культуре: Русская культура богата традициями, в которых труд занимает важное место. В истории России труд часто рассматривался не только как средство выживания, но и как своеобразный путь к саморазвитию. Исследование традиций и представлений о труде в русской культуре позволяет проследить, как эта концепция вписывается в общественные, религиозные и исторические аспекты русского общества.

Сравнение русских пословиц о труде с каракалпакскими: Сравнительный анализ русских пословиц о труде с каракалпакскими может выявить сходства и различия в восприятии труда в различных культурных средах. Возможно, обнаружатся универсальные черты, которые связывают эти культуры, а также уникальные особенности, отражающие специфику каждой из них. Этот сравнительный анализ поможет расширить понимание роли труда в различных культурных контекстах.

Эволюция представлений о труде в русской истории: Исследование эволюции представлений о труде в русской истории предоставляет возможность проследить изменения в значении труда от древнерусских времен до современности. Факторы, такие

как социальные трансформации, политические изменения и экономические реформы, могли существенно влиять на восприятие труда в русском обществе. Отношение к труду, как и его роль в формировании культурных норм и ценностей, могли изменяться в зависимости от этих исторических факторов.

Понятие "труд" в английской культуре и его рефлексия в пословицах: Английская культура также имеет богатые традиции в отношении труда, которые отражаются в английской паремиологии. В этой главе будет проанализировано, как понятие "труд" воспринимается в английском обществе и как эти представления отражены в пословицах.

Работа с английскими пословицами позволит выявить особенности и уникальные черты в восприятии труда в английской культуре. [3.16]

Сравнение схожих концепций в английской и каракалпакской паремиологии:

Сравнение схожих концепций в английской и каракалпакской паремиологии предоставит возможность выявить общие темы и мотивы, связанные с трудом, а также различия в культурных особенностях. Обнаружение схожих концепций может указать на универсальные черты в восприятии труда, которые присутствуют в разных культурах, а также на влияние межкультурного обмена на формирование паремиологических выражений.

Влияние исторических событий на представления о труде в англоязычном мире:

Исследование влияния исторических событий на представления о труде в англоязычном мире позволяет проследить эволюцию этих представлений на протяжении времени. Факторы, такие как индустриальная революция, социокультурные изменения и экономические трансформации, могли существенно повлиять на восприятие труда в английском обществе. Анализ исторических событий позволит выявить связи между общественными изменениями и изменением концепции труда.

REFERENCES

1. Иванов, А.А. (2010). "Труд в русской паремиологии: историко-культурный аспект". Издательство "Наука".
2. Smith, J. (2008). "Work and Culture: Perspectives on American Labor History". Oxford University Press.
3. Кроссли, Р. (2012). "The English Proverb and Its Language". Routledge.

UDK: 635.

KUZGI BUG'DOYNING O'SISHI VA RIVOJLANISHIGA FOSFORLI O'G'ITLARNI TA'SIRI

Djabborov Shavkat Razzoqovich

Toshkent davlat agrar universiteti q.x.f.f.d. katta o'qituvchisi

Ammanov Abram Bo'ron o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Xojimurodov Sunnatilla Boymurod o'g'li

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10602702>

Annotatsiya. Hozirgi kunlarda Respublikaning barcha fermer xo'jaliklarida fosforli o'g'itlar kuzgi bug'doyda ilmiy - asoslanmagan me'yor, muddatlarda qo'llanilmoqda. Chunki, bu borada ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Qolaversa g'o'za qator oralariga ekilayotgan kuzgi bug'doyda fosforli o'g'itlar fermerni imkoniyatidan kelib chiqqan holda ekishdan keyin, bug'doyni tuplanish va boshqa davrlarida ham qo'llanilayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa qo'llanilayotgan o'g'itlarni samaradorligi pasayishiga va kuzgi bug'doyni fosfordan deyarli foydalanmayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, fosforli o'g'itlarni qo'llashning maqbul me'yor va muddatlarini ilmiy asoslash shu kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Mineral o'g'it, kuzgi bug'doy, o'sishi va rivojlanishiga, tasiri o'simlikni o'sish davrlari o'g'itlar samaradorligi.

EFFECT OF PHOSPHORUS FERTILIZERS ON GROWTH AND DEVELOPMENT OF WINTER WHEAT

Abstract. Nowadays, phosphorus fertilizers are applied to winter wheat in all farms of the Republic in unscientifically unfounded terms and conditions. Because no scientific research has been conducted in this regard. In addition, it is observed that phosphorus fertilizers are used in autumn wheat planted between rows of cotton, after planting, and in other periods of wheat, depending on the possibility of the farmer. This indicates that the efficiency of the used fertilizers decreases and that winter wheat is almost not using phosphorus. Therefore, scientific substantiation of acceptable norms and terms of application of phosphorus fertilizers is an urgent issue of today.

Keywords: Mineral fertilizer, winter wheat, the growth and development, growth periods of the plant, the effectiveness of fertilizers.

ВЛИЯНИЕ ФОСФОРНЫХ УДОБРЕНИЙ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ

Аннотация. В настоящее время фосфорные удобрения вносятся под озимую пшеницу во всех хозяйствах республики в ненаучно необоснованных условиях. Потому что никаких научных исследований на этот счет не проводилось. Кроме того, отмечено, что фосфорные удобрения вносят в осеннюю пшеницу, посеянную между рядами хлопчатника, после посева и в другие периоды пшеницы, в зависимости от возможностей агрария. Это свидетельствует о том, что эффективность применяемых удобрений снижается и озимая пшеница практически не использует фосфор. Поэтому научное обоснование допустимых норм и сроков внесения фосфорных удобрений является актуальной задачей современности.

Ключевые слова: Минеральные удобрения озимой пшеницы, ее рост и развитие, эффективность удобрений в период роста растения.

Kirish. Respublikamizda hozirgi vaqtda sug'oriladigan yerlarda bug'doy yetishtirish evaziga don mustaqilligiga erishilib, bir qismini xorij davlatlariga sotish imkoniyatlariga erishildi.

Endigi vazifa sug'oriladigan yerlarda dehqonchilikni intensiv rivojlantirish, resurstejamkor texnologiyalar orqali mineral o'g'itlar samaradorligini oshirishdan iborat. Respublikada kuzgi bug'doyni 1122600 gektar maydonga ekish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 60-65 % qismi g'oz'a qator oralariga, 30-35 % qismi esa shudgordan keyin ekiladi. Shunday ekan, kuzgi bug'doyda qo'llaniladigan barcha agrotexnik tadbir orasida ma'dan o'g'itlarga, shu jumladan fosforga bo'lgan talabini aniqlash Respublikamizda g'allachilik sohasini rivojlantirishga va don mustaqilligini yanada mustahkamlashda hal etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida "...aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish, qishloq xo'jaligida intensiv innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini oshirish, ekologik sof mahsulot yetishtirish" kabi vazifalar belgilangan. Bu borada mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun karbamid asosidagi suspenziyaning kuzgi bug'doy uchun maqbul me'yor va muddatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar dolzarb hisoblanadi.

Tipik bo'z tuproqlarining mexanik tarkibi hamda qo'llanilgan o'g'itning me'yor va muddatlariga bog'liq holda o'simlik o'zlashtiradigan mineral o'g'itlarni yog'in-sochin va sug'orish suvi ta'sirida pastki qatlamlarga yuvilish darajasi va o'simliklarni o'zlashtirishi hamda don hosili va sifati aniqlanadi. Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'oz'a qator oralariga ekiladigan kuzgi bug'doyda fosforli azotli kaliyli o'g'itni qo'llash me'yor va muddatlariga bog'liq holda tuproqdagi nitratli azot, harakatchan fosfor, almashinuvchi kaliyning dinamikasi va o'simlik NPK o'zlashtirishi, bir tonna don uchun sarflashi hamda fosforni foydalanish koeffitsiyenti, don hosili va sifatiga ta'sirini aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot uslubiyati. Kuzgi bug'doy o'tkaziladigan agrotexnik tadbirlarga bog'liq holda ma'dan o'g'itlar jumladan mineral o'g'itlarni maqbul me'yorlarining samaradorligi ko'pgina izlanishlarda jumladan, T.P.Piraxunov, N.M.Ibragimov, L.A.Mirzayev, B.X.Tillabekov, I.Abduraxmonov, D.U.G'ofurov., B.K.Atoev, S.K.Maxammadiyev, M.A.Usmonova va boshqa olimlar – tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. A.S.Avdoninbug'doyning ma'dan o'g'itlarga, xususan azotga, fosforga va kaliyga bo'lgan talabi va o'zlashtirishi o'simlikning sut-mum pishish davriga qadar davom etadi deb hisoblaydi. L.A.Zuyev va P.F.Golubeva larning fikricha bug'doy fosforli o'g'itlarga o'sish va rivojlanishining dastlabki kunlaridanoq ehtiyoj sezadi. Ammo, respublikamiz tuproqlarida fosfor, kaliy va organik o'g'itlarning yetishmaganligi, almashlab ekish tizimi o'zgarganligi, ma'dan o'g'itlarni bir tomonlama qo'llanilishi tufayli tuproq unumdorligi pasayib bormoqda.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproq, azot, fosfor va mahalliy kaliy o'g'iti, kuzgi bug'doyning "Grom" navi, qo'llash me'yor va muddatlari tadqiqotning obyektini;

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyni o'sishi, rivojlanishi, o'simlikning oziqa moddalarni o'zlashtirilishi, don hosili va sifatini ta'minlovchi fosforli o'g'itni maqbul me'yor va muddatlarda qo'llash agrotexnologiyasini ishlab chiqish esa predmetini

belgilaydi. Kuzgi bug‘doyda fosforli o‘g‘itlarning me‘yor va muddatlarining samaradorligi dala tajribasi sharoitida tadqiq qilinadi. Tajriba o‘tkazish, fenologik kuzatuv, tuproq va o‘simlik namunalari olish “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (Toshkent 2007) qo‘llanmasiga asosan o‘tkaziladi.

Tuproq va o‘simlik namunalarning agrokimyoviy tahlili “Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах” usulnomasiga binoan amalga oshiriladi. Olingan ma‘lumotlar B.A.Dospexov usulida statistik tahlil qilinadi. Kuzgi bug‘doyda mineral o‘g‘itlarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi N.A.Baranov usulida aniqlanadi.

Tadqiqot natijalar Ta‘kidlab o‘tamizki, kuzgi bug‘doy o‘simligi azotli o‘g‘itlarga sut-mum pishish davrigacha, fosforliarga boshqalash davrigacha, kaliyga esa gullash davrigacha talabchan bo‘ladi. Kuzgi bug‘doyni oziqlantirishda NPK nisbatlarini to‘g‘ri belgilash asosiy omillardan bo‘lib hisoblanadi. tipik bo‘z tuproqlari sharoitida qo‘llanilgan mineral o‘g‘itlarning me‘yorlariga bog‘liq holda karbamid asosidagi suspenziyalar me‘yorlari va muddatlarini maqbullashtirilishi hisobiga nazorat variantida tuproqning haydov (0-30 sm) qatlamida nitratli azot miqdori (N-180, P₂O₅-125, K₂O-90 kg/ga) dastlabki holatidan 2,7-1,9 mg/kg ga, P₂O₅ – 0,7-2,4 mg/kg, K₂O – 20-28 mg/kg farqlangan, N-NO₃ miqdori 16,6 mg/kg, P₂O₅-23,7 va K₂O-300 mg/kg ni tashkil etganligi va dastlabki holatidan 2,1; 2,9 va 30,0 mg/kg ga farqlanganligi aniqlangan.

Ta‘kidlash joizki, agar kuzgi bug‘doyning poya balandligi uning qo‘llanilgan tadbirlar ta‘sirida o‘shirilsa, quruq massa to‘plashi esa rivojlanishidan darak beradi. Biz uchun muhim ko‘rsatkichlar kuzgi bug‘doyni amal davri oxirida to‘plagan quruq massasi bo‘yicha hisoblanadi, chunki, qo‘llanilgan barcha agrotexnik tadbirlarning ta‘siri shu davrda namoyon bo‘ladi.

Kuzgi bug‘doy 1 s. don hosili uchun 3,25 kg azot, 1,15 kg fosfor o‘zlashtirsa, o‘simlik orqali o‘zlashtirish koeffitsiyenti 0,67 va 0,30 bo‘lsa, har bir sentner don uchun 4,85 kg azot, 3,83 kg fosfor solinishi kerak bo‘ladi (Pryanishnikov, Zuyev, Golubyans). Demak, kuzgi bug‘doy o‘simligi uchun azot, fosfor va kaliy elementlari zarurligi aniqlangan. Lekin bular orasida fosfor alohida ahamiyatga egadir. Maqbul fosforli oziqlantirish o‘simlik rivojini tezlashtiradi, natijada erta muddatlarda hosil pishib yetiladi. Fosforli oziqlanish xujayralardagi nukleoproteinlar, oqsil miqdorini keskin oshiradi. Fosforli o‘g‘itlar kuzgi bug‘doyni ildiz tizimini shakllanishiga va o‘simlikda kechadigan barcha fiziologik jarayonlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Fosfor bilan maqbul oziqlantirilganda ko‘chatlar yaxshi qishlab chiqadi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi keskin ortadi. Fosfor o‘simlik ildizlari tomonidan adsorbsiyalanadi, so‘ng hamma to‘qima hujayralarga taqsimlanadi. O‘simliklarning hosil beruvchi organlarida ko‘proq fosfor to‘planadi. Urug‘lar shu darajada fosfor saqlashlari kerakki, ekilgan urug‘ ildiz otib, bu ildizlar tuproqdan oziqa olish darajasiga yetgunga qadar fosforgia talab bo‘lmasin. Hujayralarda fosfor, uglerod, vodorod, kislorod, azot va boshqa unsurlar bilan qo‘shilib, murakkab organik birikmalar hosil qiladi.

Fosfor o‘g‘itlar turli muddat va usullarda qo‘llanilganda kuzgi bug‘doyni o‘shirishga ta‘siri

Variant tartibi	Ma'dan o'g'itlarni yillik me'yorlari, kg/ga			Fosforni qo'llash usullari va muddatlari, kg/ga			Balandligi, sm			
	N	P ₂ O ₅	K ₂ O	ekishdan oldin	unib chiqish davrida (sochma)	tuplanishda (sochma)	Tuplanish da	Naychalashda	Boshqlashda	Amal davri oxirida
				g'o'za qator oralariga 13-15 sm chukurlikda						
1	130	-	65	-	-	-	17,3	41,2	81,7	98,1
2	130	90	65	90	-	-	18,6	44,6	84,3	101,2
3	130	90	65	-	90	-	18,4	42,5	82,8	99,7
4	130	90	65	60	-	30	18,5	43,8	84,1	100,5
5	180	-	90	-	-	-	17,8	44,1	82,9	101,3
6	180	125	90	125	-	-	18,7	46,0	86,5	105,5
7	180	125	90	-	125	-	18,6	43,9	83,9	103,6
8	180	125	90	88	-	37	18,7	45,5	85,4	104,1
9	230	-	115	-	-	-	18,1	45,5	83,3	102,1
10	230	160	115	160	-	-	18,9	46,4	87,1	106,2
11	230	160	115	-	160	-	18,7	44,5	84,5	104,2
12	230	160	115	115	-	45	18,8	46,1	86,0	104,7

Mineral o'g'itlar N₁₈₀,K₉₀ kg/ga me'yorlarda qo'llanilgan fonda fosforli o'g'it ekish oldidan 70 % (88 kg/ga) va kuzgi bug'doy tuplanish davrida 30 % (37 kg/ga) qo'llanilgan (8) variantda o'simlik balandligi naychalash davrida 45,5; boshqlashda 85,4; sut-mum pishishda 88,3 va pishishda 104,1 sm ni tashkil etib, nazoratdan mutanosib ravishda 1,4; 2,5; 3,1 va 2,8 sm ga yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Tajribada eng maqbul ko'rsatkichlar ushbu fonda fosforli o'g'it ekishdan oldin g'o'za qator oralariga 125 kg/ga ekishdan oldin 13-15 sm chuqurlikda qo'llanilgan variantda olindi va nazoratga nisbatan naychalash, boshqlash, sut-mum pishish va pishish davrlariga mutanosib ravishda 1,9; 3,6; 4,5 va 4,2 sm ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

O'g'it sifatida ishlatishda fosfor azotdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Shu o'g'itlarning bittasi yoki ikkalasi ham tuproqqa solinadigan o'g'itlar tarkibiga kiradi. Ba'zi bir tabiiy sharoitda o'simliklarni oziqa bilan ta'minlashda fosfor o'g'iti azotdan ham ustun turishi mumkin. Fosfor, azot va oltingugurt kislorod bilan murakkab anionlar hosil qiladi. Lekin azotga nisbatan suvda kam eriydi yoki umuman erimaydi desa ham bo'ladi. Shu tufayli o'simliklar fosforni qiyin o'zlashtiradilar.

Bir gektar yerning haydov qatlami odatda eritmada 1 kg dan kam fosfor saqlaydi (umumiy fosfor miqdori 1000 kg bo'lganda ham). Shunday bo'lsa ham fosforni suvda erimasligining ijobiy tomoni bor. U ham bo'lsa, fosfor tuproqdan kam yuviladi, (azotga nisbatan) solingan tuproq qatlamida turaveradi. Fosfor tuproqda mineral va organik shaklda uchraydi. Organik fosfor har xil birikmalarning tarkibida bog'langandir. U kimyoviy reaksiyalarda ishtirok etishi mumkin, lekin

shunday bo'lsa ham bir joyda muqim qoladi va faqat organik modda chirib ma'danlashgandan keyingina uni o'simliklar o'zlashtirishi mumkin. Shuni ham aytish kerakki, O'zbekistonning tuproqlarida umumiy fosfor miqdorlari 0,15-0,20 % bo'lishiga qaramay o'simlik o'zlashtirish mumkin bo'lgan fosfor miqdori umumiy fosforni (birlamchi fosfatlar) 3,5 % va (ikkilamchi fosfatlar) 4,0 % ni tashkil qiladi. Bu esa ekinlardan xatto o'rtacha hosil olish uchun ham yetarli emas. Kuzgi bug'doyning tuplanish davrida turli fonlarda qo'llanilgan fosforli o'g'it me'yorlaridan qat'iy nazar nazorat variantiga yaqin ko'rsatkichlar olindi.

Shunday ekan yuqoridagi ma'lumotlar asosida xulosaga keladigan bo'lsak, mineral o'g'itlar N_{180}, K_{90} kg/ga fonda fosforli o'g'it ekishdan oldin g'o'za qator oralariga 125 kg/ga ekishdan oldin 13-15 sm chuqurlikda qo'llanilish kerakligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

Xulosalar.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyda fosforli o'g'itni maqbul qo'llash me'yor va muddatlarini samaradorligi ilk bor ilmiy jihatdan asoslanadi; qo'llanilgan fosforli o'g'itni azot va kaliy fonida kuzgi bug'doyda fosforni o'zlashtirish koeffitsentiga Kuzgi bug'doyni rivojlanish davrlariga bog'liq holda nisbatan yuqori umumiy azot, fosfor va kaliy miqdorlari suspenziyalar 8,0 kg/ga naychalashda va 12,0 kg/ga boshhoqlashda $N-180, P_2O_5-125, K_2O-90$ kg/ga fonida qo'llanilganda kuzatilib, naychalash davrida mutanosib ravishda 3,100; 0,740; 1,320 % ni, don tarkibida 2,320; 0,860 va 0,520 % ni tashkil etgan kuzgi bug'doyda mineral o'g'itning maqbul (g'o'za va kuzgi bug'doy qisqa rotatsiyali navbatlab ekish tizimida) qo'llash me'yor va muddatlarini aniqlashdan iborat. Kirish, adabiyotlar sharhi, tajriba olib borish uslubiyoti, tuproq-iqlim sharoitlari, asosiy qismda esa- olib borilgan tajriba natijalarining ilmiy taxlili, mavzuda o'rganilgan ekin hosil ko'rsatkichlari tahlili, xulosa va takliflardan iborat.

Demak, yuqoridagi ilmiy ma'lumotlar asosida xulosaga keladigan bo'lsak, kuzgi bug'doyning ang'iz va ildiz qoldiqlarining miqdor o'zgarishi barcha agrotexnik tadbirlar kabi fosforli o'g'itni qo'llash me'yor, muddat va usullariga ham bog'liq ekanligi aniqlandi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 - son Farmon "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevral.
2. Ishmuxamedova R.Ch., Xasanova R.Z. Влияние подкормки озимой пшеницы через корни и листья на морфо-физиологические показатели. Актуальные проблемы современной науки. –Москва, 2017. №6 (97). -С.180-183.
3. Ataxanov N., Mo'minov A., Xaydarov O., "Kuzgi bug'doyni ma'danli o'g'itlar bilan oziqlantirish muddatlari va me'yori",// Boshhoqli, dukkakli don va moyli ekinlar seleksiyasi, urug'chiligi hamda ularni yetishtirish agrotexnikasini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi halqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami, Andijon-2011-y.– B.73
4. Ibragimov N.M., Mirzayev L.A., G'ofurov D.U. Kuzgi bug'doyda qo'llanilgan turli me'yordagi azotli o'g'itlarning tuproqdagi nitrat shaklidagi azot va don hosiliga ta'siri. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami, Toshkent, 2011 y. 75-77 b.

BOLALARDA O'SMA KASALLIKLARI BELGILARI XAVFI VA DAVOLASH

Sobirova Nozila

Turon Zarmed Universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10604284>

Annotatsiya. Bosh miya o'smalari bolalarda uchraydigan xavfli o'sma kasalliklarining 20 foizigacha tashkil etadi. Tuzilishi va xususiyatiga ko'ra bu o'smalar bir-biridan farq qiladi. Bolalarda asosan miyachadan kelib chiqadigan medullablastomalar (mustaqil rivojlanadigan o'smalar), shuningdek astrotsitoma (markaziy nerv tizimi xavfli o'smasi), orqa miyada paydo bo'ladigan glioblastoma va miya ichki bo'shliqlarida rivojlanadigan endimoma o'smalari uchrab turadi.

Kalit so'zlar: bosh miya o'smalari, glioma, astrocitoma, endimoma, medulloblastoma.

RISK AND TREATMENT OF SYMPTOMS OF TUMOR DISEASES IN CHILDREN

Abstract. Brain tumors make up to 20% of malignant tumor diseases in children. These tumors differ from each other in their structure and characteristics. In children, medullablastomas (tumors that develop independently), as well as astrocytomas (malignant tumors of the central nervous system), glioblastomas that arise in the spinal cord, and ependymoma tumors that develop in the internal spaces of the brain are found in children.

Key words: brain tumors, glioma, astrocytoma, ependymoma, medulloblastoma.

РИСК И ЛЕЧЕНИЕ СИМПТОМОВ ОПУХОЛЕВЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ДЕТЕЙ

Аннотация. Опухоли головного мозга составляют до 20% злокачественных опухолевых заболеваний у детей. Эти опухоли отличаются друг от друга по своему строению и характеристикам. У детей обнаруживают медуллобластомы (опухоли, развивающиеся самостоятельно), а также астроцитомы (злокачественные опухоли центральной нервной системы), глиобластомы, возникающие в спинном мозге, и опухоли эпендимомы, развивающиеся во внутренних пространствах головного мозга.

Ключевые слова: опухоли головного мозга, глиома, астроцитомы, эпендимомы, медуллобластома.

KIRISH

Miya o'smalari rivojlanishining asosiy sababi tashqi omillar deb hisoblanadi radiatsiya, kanserogenlar, gormonal buzilish, virusli infektsiyalar. Ushbu qo'zg'atuvchilar hujayralardagi genlar shikastlanishini keltirib chiqaradi va ularning mutatsiyasiga olib keladi. Miya saratonining yagona isbotlangan sababi radiatsiya hisoblanadi. Bundan tashqari, hujayralarning yomon sifatliga aylanishiga quyidagilar ta'sir qiladi deb hisoblanadi [1-5].

24. Aspartam — shakar o'rnini bosuvchi modda

25. Xlorli vinil — plastmassa ishlab chiqarishda ishlatiladigan kuchsiz shirin hidli rangsiz gaz

26. Mobil telefonlarning elektromagnit radiatsiyasi

27. Yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari

Ba'zi o'sma turlari genetik anomaliyalar bilan bog'liq.

Pilositar astrositoma irsiy kasallik — neyrofibromatozdan (fon Reklingxauzen kasalligi) kelib chiqadi [6].

Miya saratoni hosil bo'lgan joyga qarab, patologiyaning belgilari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Agar neoplazmalar katta miya yarimsharlarida miya chodiridan yuqorida rivojlansa, erta bosqichlarda patologiyaning belgilari lokal epileptik tutqanoqlar sezilishi, kamroq hollarda mushaklarning qisman falajlanishi, nutq buzilishlari hisoblanadi.

- Orqa miya suyuqligi siqilishi sayin bosh suyagi ichi bosimi oshishi belgilari — qusish, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, bosh aylanshi ko'z olmasining ichki yuzasida dimlanishlar kuzatiladi.

- Yon qorinchalarda miya saratoni vegeto-tomir buzilishlari (periferik vegetativ asab tizimi shikastlanishi bilan bog'liq buzilishlar) budan tashqari gidrosfera rivojlanishi bilan birga kechadi.

Mehnatni muhofaza qilishni moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi: O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan byudjet mablag'lari; ish beruvchining o'z mablag'lari; qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan mehnatni muhofaza qilish jamg'armalarining mablag'lari; yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha byudjet mablag'lari tegishli (respublika va mahalliy) byudjetlarda alohida belgi qo'yilgan holda ajratiladi, bu mablag'lardan boshqaruv organlari, nazorat va nazorat organlarini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini,

mehnatga oid davlat dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. himoya va boshqa dasturlarni bajarish uchun foydalaniladi.

Har bir ish beruvchi mehnatni muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan mablag'larni qonun hujjatlarida, jamoaviy bitimda, shuningdek jamoa shartnomalarida yoki boshqa ichki me'yoriy hujjatlarda belgilangan miqdorda ajratadi. Xodimlar ushbu maqsadlar uchun hech qanday xarajatlar qilmaydi.

Tashkilotlar mehnatni muhofaza qilish jamg'armasini o'zlarining tijorat faoliyati va boshqa faoliyatidan olingan foyda (daromadlar), shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tashkil etishga haqli.

Mehnatni muhofaza qilish uchun mo'ljallangan mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

Ish beruvchi tomonidan mehnatni muhofaza qilish uchun mablag' ajratish, shuningdek mehnatni muhofaza qilish jamg'armalarini tashkil etish va ularning mablag'laridan foydalanish tartibi Kasaba uyushmalari federatsiyasi ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuniga hamda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga, maqsadli dasturlarga va xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va himoya qilishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarga muvofiq faoliyatni moliyalashtirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish fondini tashkil etish.

Jamg'arma mablag'larini qat'iy ravishda:

- tashkilotdagi mehnat sharoitlarini yaxshilash va himoya qilish dasturlarini ishlab chiqish;
- ish joylarini mehnatni muhofaza qilish va texnik xavfsizlik qoidalari va normalari talablariga muvofiq jihozlash;
- mehnatni muhofaza qilish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;
- mehnat sharoitlarini yaxshilash va xavfsiz va samarali mehnat sharoitlarini yaratish, xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish (ularning malakasini oshirish);
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish;
- kasbiy kasalliklarning oldini olish;
- mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini me'yoriy-huquqiy hujjatlar va mehnatni muhofaza qilishni targ'ib qiluvchi vositalar bilan ta'minlash;
- mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha konferensiyalar, seminarlar, yig'ilishlar va ko'rgazmalar o'tkazish;
- mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni tashkil etish;
- mehnat sharoitlarini yaxshilash va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha faoliyatni rag'batlantirish;
- tashkilotning ichki normativ hujjatlarida belgilangan mehnatni muhofaza qilishning boshqa sohalarida chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatni moliyalashtirish uchun foydalaniladi.

Mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlari va ushbu chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar miqdori jamoa shartnomasida, agar bunday shartnoma tuzilmagan

bo'lsa - ish beruvchi bilan kasaba uyushma qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilanadi.

Tashkilotning mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining istiqbolli va yillik rejalarini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, chang, zaharli gazlar bilan ifloslanish, tebranish, shovqin, boshqa xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari, yong'in-portlash xavfi, og'ir qo'l ishlab chiqarishlari, uchastkalar, ob'ektlar, texnologik jarayonlar. mehnatni qisqartirishni (bartaraf qilishni) talab qiluvchilar belgilandi, shuningdek, zararli ishlab chiqarish va og'ir ishlarda band bo'lgan ishchilar (ayniqsa, ayollar) sonini qisqartirish, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish choralari ko'zda tutilgan.

Mehnatni muhofaza qilish choralari:

- shamollatish moslamalarini, sanitariya-maishiy asboblarni joriy ta'mirlash;
- qurilayotgan binolar, inshootlar, yig'ish joylari, xandaklar, narvonlar va boshqalar yaqinidagi ish joyini panjara bilan o'rash;
- suv omborlarini tayyorlash, yig'ish va demontaj qilish, suv omborlarini o'rnatish, xandaklar va xandaqlarni mahkamlash;
- maxsus kiyimlar va maxsus poyabzallarni sotib olish, saqlash, ta'mirlash, yuvish, changdan tozalash, quritish, dezinfeksiya qilish;
- shaxsiy himoya vositalari va yukni ushlab turish moslamalarini sotib olish va sinovdan o'tkazish;
- ishchilarni davolash-profilaktika oziq-ovqatlari, sut, sovun bilan ta'minlash, sanitariya-maishiy va xizmat ko'rsatish xonalari sotib olish va ular tomonidan xizmatlar ko'rsatish;
- binolar, inshootlar va jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish elementlaridan biri sifatida devorlar, shiftlar, inshootlar, jihozlarni bo'yash;
- tashkilot hududini obodonlashtirish, tarmoqli yo'llarni, piyodalar yo'laklarini asfaltlash, hududni obodonlashtirish;
- asosiy maqsadi korxonada yaqinida joylashgan turar-joy mavzolari uchun normal sanitariya sharoitlarini yaratish bo'lgan havo va suv ifloslanishini kamaytirish yoki ifloslanishni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar kiritilgan.

XULOSA.

Mehnatni muhofaza qilish chora-tadbirlari moliyalashtirish manbalari va moddiy resurslar bilan ta'minlanishi kerak.

Jamg'arma mablag'lari mehnatni muhofaza qilish xizmati ma'lumotlari asosida tashkilotning tegishli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan byudjet doirasida sarflanadi.

Jamg'arma mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish mehnatni muhofaza qilish xizmati xodimlari bilan bir qatorda bosh buxgalter va kasaba uyushma qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'armaning hisobot yilida foydalanilmagan mablag'lari olib qo'yilmaydi, ular keyingi yilga o'tkaziladi va ushbu Nizom va tashkilotning ichki me'yoriy hujjatlarida belgilangan maqsadlarda foydalaniladi.

Mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar boshqa maqsadlarda, shu jumladan soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarni, kreditorlarning boshqa qarzlarini qoplash uchun ishlatilishi mumkin emas.

REFERENCES

1. Muradov Sirojiddin. Mehnatni muhofaza qilishning tashkiliy-psixologik asoslaridagi mavjud muammolar//“Ekologiya, aholi xavfsizligi va mehnat muhofazasining hozirgi kundagi dolzarb masalalari va istiqbollari”. 2023. 133-137.
2. Muradov Sirojiddin. Mehnat sharoitlari va muhitini “kaizen” usuli yordamida takomillashtirishning innovatsion yechimlari//“Ekologiya, aholi xavfsizligi va mehnat muhofazasining hozirgi kundagi dolzarb masalalari va istiqbollari”.2023. 249-253.
3. Muradov Sirojiddin. Mehnatni muhofaza qilish sohasida yuk ortish va tushirish ishlaridagi yukchilar uchun ishlarining xavfsizligi kategori va qoidalari tahlili//“Ekologiya, aholi xavfsizligi va mehnat muhofazasining hozirgi kundagi dolzarb masalalari va istiqbollari”. 2023. 232-242
4. Muradov Sirojiddin. Mehnatni muhofaza qilishning rivojlanish tarixiy bosqichlarini o‘rganish//“Ekologiya, aholi xavfsizligi va mehnat muhofazasining hozirgi kundagi dolzarb masalalari va istiqbollari”. 2023. 243-248
5. Muradov Sirojiddin. Sanoat korxonalarini rahbar va mutaxassislarining mehnat muhofazasi bo‘yicha bilimlarini tekshirishni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning ahamiyati//“Ekologiya, aholi xavfsizligi va mehnat muhofazasining hozirgi kundagi dolzarb masalalari va istiqbollari”. 2023. 146-150
6. Muradov Sirojiddin. Xavfli sanoat korxonalarida ishchilarni xavfli gaz va zaxarli moddalar ta’siridan himoya qilishga qaratilgan inovatsion yechimlar//“Ekologiya, aholi xavfsizligi va mehnat muhofazasining hozirgi kundagi dolzarb masalalari va istiqbollari”. 2023. 402-405
7. Muradov Sirojiddin Husan o‘g‘li. Sanoat korxonalarini rahbar va mutaxassislarining mehnat muhofazasi bo‘yicha bilimlarini tekshirishni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning ahamiyati// Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirishning dolzarb masalalari. 2023/10/26. 180-183
8. Мурадов Сирожиддин. Определение отдыха и отпусков на основании нового трудового кодекса// Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirishning dolzarb masalalari. 2023/10/26. 17-21
9. MURADOV SIROJIDDIN HUSAN O‘G‘LI. Mehnatni muhofaza qilishning rivojlanish tarixiy bosqichlarini o‘rganish// Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirishning dolzarb masalalari. 2023/10/26. 8-16
10. Muradov, S. (2023). ISHLAB CHIQRISHDAGI AVARIYALARNI O‘RGANISH VA TAHLIL QILISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 474–477. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5015>
11. Muradov Sirojiddin. Ishlab chiqarishdagi avariya va tahlil qilish// *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16), 474–477.
12. Muradov S. ISHLAB CHIQRISHDAGI AVARIYALARNI O ‘RGANISH VA TAHLIL QILISH //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 474-477.
13. Sirojiddin M., Umurzoq E. INNOVATIVE SOLUTIONS FOR IMPROVEMENT OF WORKING CONDITIONS AND ENVIRONMENT THROUGH THE KAIZEN

- METHOD //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 42-47.
14. Sulstonova , D. N., & Siddiqova , M. A. qizi. (2023). COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 109–115. Retrieved from <https://erus.uz/index.php/er/article/view/4394>
 15. Sulstonova D. N., qizi Siddiqova M. A. COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 109-115.
 16. Muradov Sirojiddin Husan o'g'li, Xakimov Xurshid Hamidulla o'g'li, & Siddiqova Madinabonu Asatilla qizi. (2021). NEW INNOVATIVE ENGINEERING SOLUTIONS TO THE PROBLEMS OF SIGNALIZATION AND SECURITY SYSTEMS. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 2, 28-30. Retrieved from <http://www.ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/13>
 17. Muradov , S. H. o'g'li, & Zayniyev , U. U. o'g'li. (2023). PRINCIPLES OF PASSING AND DOCUMENTING INSTRUCTIONS ON SAFETY TECHNIQUES. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 116–119. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4395>
 18. Muradov Sirojiddin Husan o'g'li, Zayniyev Ulfat Utkir o'g'li. PRINCIPLES OF PASSING AND DOCUMENTING INSTRUCTIONS ON SAFETY TECHNIQUES. *Educational Research in Universal Sciences*. 2023-11
 19. Sirojiddin M., Umurzoq E. INNOVATIVE SOLUTIONS FOR IMPROVEMENT OF WORKING CONDITIONS AND ENVIRONMENT THROUGH THE KAIZEN METHOD //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 42-47.
 20. Muradov Sirojiddin; Egamberdiyev Umurzoq. INNOVATIVE SOLUTIONS FOR IMPROVEMENT OF WORKING CONDITIONS AND ENVIRONMENT THROUGH THE KAIZEN METHOD//International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 42-47.
 21. Husan o'g'li M. S., Hamidulla o'g'li X. X. Siddiqova Madinabonu Asatilla qizi. NEW INNOVATIVE ENGINEERING SOLUTIONS TO THE PROBLEMS OF SIGNALIZATION AND SECURITY SYSTEMS //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 2. – C. 28-30.
 22. Husan o'g'li M. S., Shavkat o'g'li E. D. INNOVATIVE SOLUTIONS TO PROTECT WORKERS FROM DANGEROUS GAS AND TOXIC SUBSTANCES IN HAZARDOUS INDUSTRY ENTERPRISES //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – C. 11-17.
 23. Muradov , S. H. o'g'li, & Egamov , D. S. o'g'li. (2023). INNOVATIVE SOLUTIONS TO PROTECT WORKERS FROM DANGEROUS GAS AND TOXIC SUBSTANCES IN HAZARDOUS INDUSTRY

- ENTERPRISES. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 340–342.
Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4443>
24. O'G E. L. A. A. et al. PHYSIOLOGICAL AND HYGIENE BASIS OF HUMAN LABOR ACTIVITY //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 11.
25. MURADOV SIROJIDDIN HUSAN O'G'LI; ESHPO'LATOV AZIZBEK ADHAM O'G'LI. PHYSIOLOGICAL AND HYGIENE BASIS OF HUMAN LABOR ACTIVITY// International journal of advanced research in education, technology and management.2023.266-273.
26. Rakhimov, O. D., and S. H. Muradov. "Digitalization of Instructions on Labor Protection and Safety Techniques." *European journal of life safety and stability (EJLSS)* 24 (2022): 80-86.
27. O.D. Rakhimov, Muradov S.H. Digitalization of Instructions on Labor Protection and Safety Techniques. // European journal of life safety and stability (EJLSS). 2022. №24. P.80-86.
28. O'G'LI M. S. H. ANALYSIS OF "MEASURES TO ENSURE OCCUPATIONAL SAFETY IN THE FIELD OF CARGO TRANSPORTATION AND LOADING." //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 9.
29. MURADOV SIROJIDDIN HUSAN O'G'LI. ANALYSIS OF "MEASURES TO ENSURE OCCUPATIONAL SAFETY IN THE FIELD OF CARGO TRANSPORTATION AND LOADING."// [INTERNATIONAL JOURNAL OF ADVANCED RESEARCH IN EDUCATION, TECHNOLOGY AND MANAGEMENT](#). Vol. 2 No. 9 (2023). 127-133
30. ЎҒЛИ Р. Х. Ф., СИРОЖИДДИН М. ИЗУЧЕНИЯ УСЛОВИЯ ТРУДА В КОМПАНИИ ЕВРОПЫ. МУРАДОВ СИРОЖИДДИН //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 10.
31. ЎҒЛИ, РАЖАБОВ ХУРШИД ФАХРИДДИН, and МУРАДОВ СИРОЖИДДИН. "ИЗУЧЕНИЯ УСЛОВИЯ ТРУДА В КОМПАНИИ ЕВРОПЫ. МУРАДОВ СИРОЖИДДИН." *International journal of advanced research in education, technology and management* 2.10 (2023).
32. ЎҒЛИ, Р. Х. Ф., & СИРОЖИДДИН, М. (2023). ИЗУЧЕНИЯ УСЛОВИЯ ТРУДА В КОМПАНИИ ЕВРОПЫ. МУРАДОВ СИРОЖИДДИН. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(10).
33. Rayimkulov A., Murodov S. Some Issues of Safety in the Use of Tower Cranes Used in Construction Projects //JournalNX. – С. 301-308.
34. Rayimkulov A., Murodov S. Some Issues of Safety in the Use of Tower Cranes Used in Construction Projects //JournalNX. – С. 301-308.
35. Мурадов, Сирожиддин. "ПРОБЛЕМЫ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ КЛАССА Е ЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ПОЖАРНОЙ ОХРАНЫ В МИРЕ." *International journal of advanced research in education, technology and management* 2.5 (2023).

36. Мурадов С. ПРОБЛЕМЫ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ КЛАССА Е ЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ПОЖАРНОЙ ОХРАНЫ В МИРЕ //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
37. Мурадов, С. (2023). ПРОБЛЕМЫ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ КЛАССА Е ЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ПОЖАРНОЙ ОХРАНЫ В МИРЕ. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(5).
38. Raximov O.D, Muradov S.H. SANOAT KORXONALARI RAHBARI VA MUTAXASSISLARINI MEHNAT MUHOFAZASI BO‘YICHA O‘QITISH VA BILIMLARINI SINOVDAN O‘TKAZISHNI RAQAMLASHTIRISH. MONOGRAFIYA.2023.1-96
39. Raximov O.D, Muradov S.H. SANOAT KORXONALARI RAHBARI VA MUTAXASSISLARINI MEHNAT MUHOFAZASI BO‘YICHA O‘QITISH VA BILIMLARINI SINOVDAN O‘TKAZISHNI RAQAMLASHTIRISH// INTELLEKT. MONOGRAFIYA.2023
40. Dustkabilovich, R. O. ., & o`g`li, M. S. H. . (2021). Innovative Technologies in Teachingdirectors and Specialists of Industrial Enterprises on "Labor Protection". *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 80-85. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/3>
41. Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich; Muradov Sirojiddin Husan o`g`li. Innovative Technologies in Teachingdirectors and Specialists of Industrial Enterprises on "Labor Protection"// *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 2021/12/29. 80-85.
42. Muradov S.H; Safarov Sh. O‘. MEHNAT SHAROITLARI VA MUHITINI “KAIZEN” USULI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YECHIMLARI// PAXTA TOZALASH, TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT SOHALARINING TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH. 2023. 90-92
43. СИРОЖИДДИН МУРАДОВ. ИЗУЧЕНИЯ ОХРАНА ТРУДЫ НА ПРОИЗВОДСТВЕ КОРЕИ// ХӨДӨЛМӨР, НИЙГМИЙН ХАРИЛЦАА СУДЛАЛ. 2023. 242-247
44. Muradov Sirojiddin Husan ugli; Odilov Muzaffar. MAIN INDICATORS OF LABOR PROTECTION MEASURES EFFICIENCY// INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS0 2023. 201-206
45. Sultonova D. N., qizi Siddiqova M. A. COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 109-115.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERAKTIV METODLARDAN TO'G'RI VA BOSQICHMA BOSQICH FOYDALANISH

Shodmonqulova Sevara Rahmonqul qizi

kafedrası o'qituvchisi

Umarxonova Dilbegim G'ulom qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10611122>

***Annotatsiya.** Bu maqolani yozishdan maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslarga qiziqtirish, turli interaktiv metodlardan samarali foydalangan holda o'quvchilarni darslarni yaxshi o'zlashtirishlariga va o'z mustaqil fikrini bayon qila olishlariga yordam berishdir. Muammoli vaziyatni hal etish uchun o'quvchilar o'rtasida munozara, erkin fikr almashinuvini tashkil etishdir.*

***Kalit so'zlar:** pedagog, interaktiv, metod, adaptatsiya, ta'lim, tarbiya, muammoli vaziyat.*

CORRECT AND STEP-BY-STEP USE OF INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY CLASSES

***Abstract.** The purpose of writing this article is to make primary school students interested in lessons, to help them master lessons well and to express their independent opinion by effectively using various interactive methods. It is to organize a discussion and free exchange of ideas among students to solve a problem situation.*

***Key words:** pedagogue, interactive, method, adaptation, education, training, problem situation.*

ПРАВИЛЬНОЕ И ПОЭТАПНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.

***Аннотация.** Цель написания данной статьи – заинтересовать младших школьников уроками, помочь им хорошо усвоить уроки и выразить свое независимое мнение путем эффективного использования различных интерактивных методов. Это организация дискуссии и свободного обмена идеями среди учащихся для решения проблемной ситуации.*

***Ключевые слова:** педагог, интерактив, метод, адаптация, воспитание, обучение, проблемная ситуация.*

Интерактив (inglizcha Interaction-o'zaro ta'sir) metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. O'qitishning interfaol (aktiv)ligi-o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o'zaro ta'sir asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek “Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.

Albatta bu bilim ham kerak. Ammo bilim o'z yo'liga mustaqil fikrlash ham katta boylik."

Biz bu so'zlaridan ham shuni anglasak bo'ladiki, o'quvchini mustaqil fikri biz uchun juda muhim. Aynan interaktiv metodlar orqali biz o'quvchilarda kerakli xulosalarga kelishni, ular o'z fikrlarini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatishimiz zarur. O'qituvchining asosiy vazifasi bu yerda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat. Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi, natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi holatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi.

E'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" "sizning bu haqida fikringizni bilmoqchi edim" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda hech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi.

Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Bizga ma'lumki, bola maktabgacha ta'lim muassasida tarbiyalanib maktabga keladi va u xohlagan paytida o'tirib turib o'ynab uxlab turadigan davrdan endi muhim tizimlangan davrga keladi va bu jarayonda bu adaptatsiya bo'lishi uchun bu qiyin davr hisoblanadi. Pedagoglar bu jarayonda har bitta bolani individual o'ziga xos bo'lgan imkoniyatlarini o'rganib chiqishlari kerak bo'ladi. Boshlang'ich sinfga kelgan o'quvchilarni ko'proq kuzatish natijasida ba'zi o'quvchilarni matematika fanidan yaxshi o'zlashtirishlarini, yana qaysidir o'quvchilarni o'qishdan, yoki rasm chizishni juda ham sevib bajarishlarini aniqlanadi. Biz pedagoglar shunga qarab topshiriqlarni ularga mos holda tashkil qilishimiz kerak bo'ladi. Biz bu jarayonda ularning ota onalari bilan ham hamkorlik qilishimiz kerak bo'ladi. Albatta bu jarayonda har bitta bolaning ota onasi bilan qilgan hamkorlik bolaning bu jarayonga tezroq moslashtirib olishga yordam beradi. Yana eng muhimi o'yin ta'limini tashkil qilishdir. Bola maktabgacha ta'lim muassasasidan endigina maktabga chiqqanligi uchun hali juda o'yinqaroq va u o'yin orqali darslarga qiziqadi va o'yin orqali ta'lim olishi osonroq bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda turli didaktik o'yin orqali darslarni tashkil qilganimizda mavzularni tezroq o'zlashtirishga yordam bo'ladi. Bu jarayonda albatta bolalarni rag'batlantirib turish kerak bo'ladi.

O'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishini orttirish maqsadida interaktiv metodlardan to'g'ri va bosqichma-bosqich foydalanish zarur. Quyida interaktiv metodlardan namunalar keltiramiz hamda to'g'ri foydalanish haqida fikr yuritamiz.

Gugurt donalari metodi uning afzaliklari birinchidan o'quv materialini qay darajada o'rganilganligini aniqlashda turli muammolar va vaziyatlar yaratishda va asosiy tushunchalarni tahlil qilish va ta'riflashda shu bilan birga o'z ustida mustaqil ishlash imkonini beradigan metod turlaridan biridir. Gugurt donalari metodining darsni mustahkamlash jarayonida bu metodni o'tkazish uchun biz gugurt donalarini olamiz va o'quvchilarga biz gugurt donachalaridan kim nechta olishini tavsiya qilib chiqamiz va har biz o'quvchi olgan gugurt donalariga qarab mavzu yuzasidan o'zlarini o'rgangan bilimlarini bizga aytib beradi. Bu bilan darsda o'qituvchini o'zini baholash tizim ham aniqlanadi va berilgan ma'lumotni o'quvchilar qanday darajada o'zlashtirganliklarini aniqlanadi va mustahkamlanadi. Ba'zida gugurt donalari metodidan

o'quvchilar charchab qolgan holatda biz ranglar olamiga sayohat usulidan ham foydalanishimiz mumkin biz gugurt donalari metodini ranglar olamiga sayohat deb davom etirishimiz mumkin o'quvchilarda ranglar tavsiya qilinadi va siz qaysi ranglarni ko'proq yoqtirasiz u yerda ranglarni turlari ko'p ham qilsak bo'ladi va bolalar o'zlari tanlab olishadi va mavzu bo'yicha kim nechta rang tanlagan bo'lsa shuncha ma'lumot aytib berishadi albatta bu ranglar istagi bo'ladi.

O'quvchilar mavzu yuzasidan har bitta tanlagan rangga yana bittadab ma'lumot aytib beradi. Bu usul o'quvchilarda birinchi o'rinda mustaqil fikirlashga va mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlashga va albatta mavzu yuzasidan ma'lum bir kompetensiyaga ega bo'lishga yaqindan yordam beradi.

Bilimlar soyaboni metodi bu matodni har qanday fanda qo'llasak bo'ladi. O'tgan mavzuni mustahkamlash jarayonida qo'llashingiz mumkin. Bizga soyabon metodiga avvaldan tayyorlangan o'tgan mavzuga doir savollar yoki atamalar va kartochlalar kerak bo'ladi. Biz u kartochlarni barglarda yoki soyabondan tushgan yomg'ir tomchilariga yopishtirishimiz mumkin ularni tartib bilan joylashtirish kerak. Agar o'quvchilaringiz soni ko'p bo'lsa savollarni qog'ozlarga yozib soyabonni chekkalariga ilib chiqishingiz mumkin. O'quvchilar aylana shaklda bo'lib turib olishadi va biz soyaboni ochgan vaqtingizga o'quvchilar bittadan savolni yoki atamani tanlab olib uning javobini yoki mazmunini aytib berishlari kerak bo'ladi. Darsning yangi mavzu bayoni qismida esa avvaldan tayyorlangan A4 formatdagi qog'ozga mavzuga doir kerakli so'z va atamani chiqartirib olamiz va ularni soyabonga yopishtirib olamiz. Biz soyaboni aylantirgan vaqtimizda o'quvchilar ana shu so'zlarni ma'nosini aytishi kerak bo'ladi.

Kutuvlar daraxtlar metodi ushbu metodni ta'lim jarayoniga tadbiq etish uchun bizga kerak bo'ladi vatmin qog'ozni flamaster va maxsus tayyorlangan qog'oz bo'laklari. Bu metod 3 bosqichda amalga oshiriladi. 1-bosqichda qog'ozga daraxt rasmini chizib olamiz, 2-bosqichda o'quvchilarimiz qog'oz bo'laklariga bugungi mashg'ulotdan qanday yangiliklar kutayotganliklarini yozib daraxtga joylashtirib ketishadi. 3-bosqichda har bir ishtirokchi chiqib o'zi yozgan varaqalarini topib o'qishadi va bugungi mashg'ulotdan kutayotgani bilimlarni olishdini yo'qmi ishtirokchilar bilan o'rtoqlashadi. Agar ishtirokchi o'zi kutayotgan yangiligini ololmagan bo'lsa o'zaro fikr almashishlari yoki ustozdan so'rab o'zlashtirib olishi mumkin.

Kutuvlar daraxti metodining afzalliklari shundaki, har bir o'quvchi dars mashg'ulotlariga qanchalik darajada puxta tayyorgarlik ko'rganligi yoki bilimlari sayoz ekanligi ma'lum bo'ladi.

O'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashishadi va o'tilgan mavzu hamda yangi mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, interaktiv o'qitish metodida muammoli vaziyatni hal etish uchun o'quvchilar o'rtasida munozara, erkin fikr almashinuvini tashkil etish "aqliy hujum texnologiyasidan" foydalanish mumkin. Bunday metodlar orqali o'quvchilar hozirjavoblikka o'rganadi, ularning lug'at boyligi ko'payadi, ilmiy-nazariy bilimi yanada mustahkamlanadi va darsga qiziqishi ortadi. Bu metodlar bolalarni xotirasini mustahkamlashga, darslarni yaxshi va oson o'zlashtirishiga va diqqatini jamlashiga yordam beradi.

REFERENCES

1. Karimov. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T., 1997
2. Yo'ldoshev.J.G' "Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolari, yechimlari" "Xalq ta'limi", 1999

3. Мусурмонова, Ш. И. (2019). Инсонларнинг табиатга эстетик муносабатини шакллантиришда экологик таълим тарбиянинг роли. *Интернаука*, (37), 91-92.
4. Ilhomovna, M. S. (2022). SIGNIFICANCE AND ROLE OF PEDAGOGICAL CREATIVITY.
5. Ilhomovna, M. S. (2021, July). HEALTHY ENVIRONMENT-HEALTHY COMMUNITY. In *Archive of Conferences* (pp. 62-66).
6. Shahlo-Ilhomovna, M. (2021). On The Basis Of An Integrated Approach, Give Environmental Education To Primary School Students. *The American Journal of Applied sciences*, 3(06), 65-69.
7. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODOLOGICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. *Modern Science and Research*, 2(10), 91-94.
8. Ganiyeva, M. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari. МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҲАМ ҲАМ БИЛИМЛЕНДИРИЎ.
9. Ganiyeva, M. (2018). Yuksak intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari. INTELLEKTUAL SALOHİYAT-TARAQQIYOT MEZONI.
10. Ganiyeva, M. (2018). Uzluksiz ta'limda o'qitish samaradorligini oshirishga pedagogik-psixologik yondashish. *NamDU ilmiy axborotnomasi*.

BOLAGA MEHR KERAK!

Nurova Laylo

Peshku tuman Sadir MFY otinoyisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10608165>

Annotatsiya. Murg‘ak go‘dakni suyub-erkalab ko‘kka otsangiz, u qo‘rqmaydi, aksincha, shodon qiyqirib, sizni ham quvonchiga sherik qiladi. U biladi: ishonchli qo‘llar yiqilishiga aslo yo‘l qo‘ymaydi. Bu – buyuk ishonch! Ana shu ishonchning hech qachon so‘nmasligi sizni bizga, butun insoniyatga ulkan mas‘uliyat yuklaydi.

Kalit so‘zlar: bola, tarbiyachi, munosabat, sharaf, mehr-muruvvat, ta‘lim, tarbiya.

A CHILD NEEDS LOVE!

Abstract. If you caress a baby bird, it will not be afraid, on the contrary, it will squeal happily and share its joy with you. He knows: reliable hands will never let him fall. This is a great confidence! The fact that this trust never fades is a great responsibility for you and us, all of humanity.

Key words: child, educator, relationship, honor, kindness, education, training.

РЕБЕНКУ НУЖНА ЛЮБОВЬ!

Аннотация. Если погладить птенца, он не испугается, а наоборот, радостно завизжит и поделится с вами своей радостью. Он знает: надежные руки никогда не дадут ему упасть. Это большое доверие! То, что это доверие никогда не угасает, – это большая ответственность для вас и нас, всего человечества.

Ключевые слова: ребенок, воспитатель, отношения, честь, доброта, воспитание, обучение.

Payg‘ambarimiz Rasululloh s.a.v "Bolalar jannatning rayhonlaridir"dedilar (Muslim rivoyati) Alloh toalo bolani beg‘ubor, beozor qilib yaratdi. Bolani sevmaydigan inson bo‘lmasa kerak. Bolani mehr degan tuyg‘u bilan sevmoq kerak. Ustoz, murabbiy kasbini tanladingizmi, qalbingiz mehrga to‘liq bo‘lmog‘i lozim.

Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rib qolamiz ayrim ta‘lim maskanlarida jajji bolachalarga qo‘pol muomalada bo‘lib, hattoki urib tarbiya bermoqchi bo‘lganlarni. Tarbiya mehr bilan beriladi. Ota-ona bolasini ilm dargohiga mehr va tarbiya bersin, ilm o‘rgatsin deb yetaklab keladi.

Bolaga shunchaki tarbiyachi emas haqiqiy onadek munosabat ko‘rsatish, muruvvatli qalb egasi bo‘lmoq tarbiyachi uchun sharafdir. Shu sharafli kasb orqasidan bolajonlardan mehrimizni ayamaylik. Bolalar bizning kelajagimiz deydi dono xalqimiz. Allohning ne‘mati bo‘lgan

bolalarimizni urib-soʻkib emas, shirin soʻz bilan, mehr bilan tarbiyalaylik. Sifatli talim-tarbiya koʻrgan avlod faqatgina komil ustoz va murabbiylarning yuksak asaridir.

Bolalarni himoya qilish, asrab-avaylash – kundalik vazifa. Butun insoniyat va insonparvar jamiyat uchun bundan muhimroq vazifaning oʻzi yoʻq, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Shuningdek, mamlakatimizda sohaga doir oʻziga xos institutsional tizim yaratilgani ham eʻtiborga molik.

Bosh prokuror rahbarligida voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi, Ichki ishlar vazirligi qoshida voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish markazi faoliyat olib bormoqda.

Bolalarning ijtimoiy himoyasini taʻminlovchi, isteʻdodini qoʻllab-quvvatlovchi jamgʻarmalar, jamoat tashkilotlari tashkil etilgan. Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlariga rioya etilishi doimiy ravishda nazorat qilib kelinmoqda.

Yuqorida taʻkidlab oʻtganimizdek, sifatsiz va vasfsiz kimsalar tarbiyalaganlar-oʻzlariga oʻxshab nuqsonli va layoqatsiz kishilardan iborat jamiyat aʻzolarini kamol toptirishidan oldin, qonunga muvoffiq kasbiga noloyiq tarbiyachilarga safimizga joy yoʻqligini koʻrsatib qoʻyamiz!.

Talim-tarbiyada muvaffaqiyatning eng asosiy kaliti-sabr, sabot va fidoiylikdir.

O'ZBEKISTONDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI

Djabborov Shuhrat Baxtiyorovich

Aniq va Ijtimoiy Fanlar universiteti tarix yo'nalishi, 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10608183>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlatning din bilan munosabatlari mazmun-mohiyatini belgilovchi qator tamoyillar hamda O'zbekiston milliy mafkurasida din va siyosatning o'rni masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: davlat va din munosabatlari, milliy mafkura, asosiy tamoyillar, fuqarolar e'tiqodi.

RELATIONS BETWEEN THE STATE AND RELIGION IN UZBEKISTAN

Abstract. In this article, a number of principles defining the essence of the relationship between the state and religion in the Republic of Uzbekistan and the role of religion and politics in the national ideology of Uzbekistan are discussed.

Key words: relations between the state and religion, national ideology, basic principles, faith of citizens.

ОТНОШЕНИЯ ГОСУДАРСТВА И РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье рассмотрен ряд принципов, определяющих сущность взаимоотношений государства и религии в Республике Узбекистан, а также роль религии и политики в национальной идеологии Узбекистана.

Ключевые слова: отношения государства и религии, национальная идеология, основные принципы, вера граждан.

O'zbekiston respublikasida davlatning din bilan munosabatlari mazmun-mohiyatini belgilovchi qator tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini xurmat qilish;
- diniy e'tiqodni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham xuquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zaruriyati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni ko'zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi yuqoridagi mezon va tamoyillardan ikki asosiy xulosani chiqarish mumkin.

Birinchidan, O'zbekistonda din madaniy-mafkuraviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng xuquqli qadriyat sifatida tan olinadi.

Ikkinchidan, sof diniy extiyojlarni qondirishdan tashqari xar qanday g'arazli maqsadga erishish yo'lida diniy omillardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning asosiy yo'nalishi islom diniga emas, balki islomning muqaddas aqidalarini niqob qilib olgan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi qaratilishi lozim. Biroq, ayrim xorijiy mamlakatlar matbuotidagi maqolalarda islom dini, siyosiy

islom, terrorizm va diniy ekstremizm bir biri bilan qorishtirib yuborilmoqda. Hatto ayrim davlat arboblari (masalan, AQSh Prezidenti J. Bush) terrorizm bilan bevosita botiq bo'lgan siyosiy islomga xam beixtiyor islom dinining tarkibiy qismi, deb qarashmoqda. Vaholanki, terrorizm va islom ekstremizmi islom dini bilan faqat konfessional jihatdan bog'liqdir.

Islom dinini agressivlikda, terrorchilikda ayblash jaxon miqyosida islom nufuzining, islom mavqeinint oshib borishidan talvasaga tushish, global iqtisodiy, siyosiy madaniy va demografik jarayonlarda gegemonligini tarixan yo'qotayotgan postindustrial jamiyatlarning siyosiy kuchlari uchun xosdir.

O'zbekiston milliy mafkurasida din va siyosatning o'rni.

O'zbek davlatchiligi tarixiga nazar solinsa, diniy bag'rikenglik, vijdon va e'tiqod erkinligi asosiy prinsip va davlat siyosati darajasiga ko'tarib kelinganiga ishonch xosil qilamiz. Masalan, Toshkent Islom universiteti islom xuquqi kafedراسи mudiri Abdulxakim Juz-joniyning yozishicha, kushonlar davrida zarb qilingan tangalarning bir tomonida budda dini — davlat rasmiy dinining ramzi bo'lsa, ikkinchi tomonida boshqa bir dinning ramzi aks etgan. Islom dini kirib kelganda Buxoroda turli din tarafdorlari bo'lgan: budda, zardush-tiylik, nasroniylik, moniy va shamanizm kabi. Barcha din tarafdorlari bir-birlari bilan axil, inoq yashaganlar.

Xorazmshoxlar davlatida bundan 1000 yil avval faoliyat ko'rsatgan Ma'mun akademiyasida yirik siymolar - Ibn Sino, Beruniy, Ibn Iroqlar qatorida ikkita mashxur xristian olimlari — Abu Saxl Masixiy, Abul Xayr Xammor ijod qilishgan. Masixiy — bu xristian degani.

U Beruniyning Ibn Iroqdan keyingi ikkinchi ustoz bo'ladi. Ular bir akademiyaning a'zosi sifatida ko'p yillar birga ishlashgan. Yoki Sultoniya cherkovi (Eron Ozarbayjoni) ruxoniysining Amir Temur elchisi sifatida Yevropaga yuborilganligi diniy bag'rikenglik o'zbek xalqi mentalitetida chuqur ildizga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyoning tub xalqlari, xususan, o'zbek xalqi mentaliteti negizida asosan, islom dini yotgani inkor etib bo'lmas xaqiqatdir. Lekin, o'rta asrlarda umuman Markaziy Osiyo, xususan, o'lkamiz musulmonlari uchun diniy firqachilik yot xodisa bo'lgan. Buning sababini mintaqamizda o'ziga xos Movarounnaxr musulmon qonunchiligi — fiqx maktabining (jumladan, xanafiylik mazxabining) yuksak rivojlangani, uning boshqa maktablar ta'sirida emas, aksincha, u musulmon qonunshunosligining boshqa maktablariga o'z ta'sirini ko'rsatib turgani bilan bog'liq edi deyish mumkin. Shuning uchun xam musulmon dunyosi Markaziy Osiyoga nisbatan ta'sir o'tkazish mintaqasi emas, aksincha, diniy masalalarda xam undan o'rganishga munosib sarchashma sifatida qaragan.

Biroq, Rossiya istilosidan so'ng, xususan, sovet davrida islom diniga nisbatan o'tkazilgan tazyiq natijasida eng saloxiyatli iloxiyotchi olimlar qirib tashlandi. Maxalliy xayot darajasida saqlangan maxalliy islomga, asosan, diniy bilimlari sayoz, uzluksiz ta'qib ta'sirida o'ta radikallashgan shaxslar „**rahnamolik**“ qila boshladilar.

Islomning Markaziy Osiyo ijtimoiy xayotidagi maqomining zaiflashib borishi bilan unga tashqi musulmon dunyosining munosabati xam o'zgarib bordi. Uzoq yillar davomida tashqi olam, xususan, musulmon dunyosi uchun „yopiq“ bo'lib qolgan Markaziy Osiyoga diniy taassubga va zo'raonlikka (ekstremizmga) moyil ajnabiy diniy tashkilotlarning qiziqishi ortib bordi.

O'zbekistan raxbariyati tomonidan mustaqillikning ilk bosqichida mazkur soxaga oid qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi diniy ekstremizm va fundamentalizm yoyilishi dinamikasini pasaytirishni ta'minladi. Ayni paytda xayotiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, unga butunlay barxam

berishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasi, ko'rilayotgan ma'muriy jazo choralari bilan bir qatorda, din xaqida chuqur bilimlarga ega bo'lgan salohiyatli mutaxassislarining mafkuraviy xayotdagi faolligi bilan chambarchas bog'liq.

Mazkur omil bizning anchagina zaif nuqtalarimizdan ekanligi dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekiston oldida qator qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Ushbu muammoni xal etishga diniy bilimlarni chuqur egallagan mutaxassislarni tayyorlash ishiga samarali xissa qo'shayotgan O'zbekistondagi mavjud madrasalar tizimiga Imom al-Buxoriy nomidagi Mir Arab madrasasi va shu nomdagi Toshkent Islom ma'hadi boshchilik qilmoqda. Ular Qohira shahridagi Al-Azhar dorilfununi va Iordaniya qirolligining Islom dorilfununi kabi yirik islomiy ilm markazlari bilan aloqa bog'laganlar.

O'zbekiston — dunyoviy davlat. Demak, dunyoviy davlatlarda amal qiladigan davlat va din munosabatlari prinsiplari O'zbekistonda xam amal qiladi. Bu prinsiplar mohiyatini yanada teranroq tushunish uchun BMTning „Inson xuquqlari umumjaxon Deklaratsiyasi“, mamlakatimiz Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998 yilning 1 mayida yangi taxrirda qabul qilingan 23 moddadan iborat „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida“gi qonun bilan batafsil tanishib chiqmoq lozim.

Vijdon erkinligi demokratiyaning tarkibiy qismidir. Shuning uchun xam BMTning 1948 yilda qabul qilingan „Inson xuquqlari umumjaxon Deklaratsiyasi“ning 18-moddasida „**har bir inson... vijdon va din erkinligi xuquqiga egadir**“ deb yozilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75-moddasida „Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi.

Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi“ deb belgilangan.

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni xalollik va poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Xozirgi zamonda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining xamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustaxkamlashning muxim sharti xisoblanadi.

Dunyoviy davlatda siyosat va din munosabatining huquqiy me'yorlari.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan davlatimizning dinga bo'lgan munosabati nimalar bilan belgilanadi, degan savolga javob berishdan avval „dunyoviylik“ degan tushunchaning o'zi nimani anglatishini aniqlashtirish lozim.

Dunyoviylik diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy xayot va qolaversa, umummilliy taraqqiyotdagi ahamiyatini inkor etadimi? Agar inkor etmasa, dinning xayotiy voqelikdagi rolini u qanday tushunadi? Ana shu savollarga oydinlik kiritsakkina mustaqil O'zbekistonda dunyoviy jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-xarakatlarning, shuningdek siyosat, din va mafkura o'rtasidagi aloqaning, munosabatlarning tub mohiyati ravshanlashadi. Fikrimizcha, taraqqiyotning dunyoviy yo'li sobiq kommunistik mafkura „qoliplari“ga tushmasligi, ya'ni uning daxriylik xamda diniylik emasligiga bog'liq. Bundan dunyoviylik mohiyatan, zikr etilgan ikki qarama-qarshi qutbning, ya'ni diniylik va daxriylikning oralig'ida joylashgan ma'naviy-madaniy xolat degan xulosaga kelish mumkin. Chunki, u diniylikni xam, daxriylikni xam inkor etmaydi, ularning xar ikkalasini ob'ektiv ijtimoiy xodisa deb e'tirof etadi.

Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, dunyoviylik tushunchasi plyuralizm, ya'ni xurfiqrlilikka asoslanadi. Dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlardagi dinga bo'lgan munosabat demokratik plyuralizm, ya'ni xurfiqrlilik tamoyiliga asoslangani tufayli ularda din xayotdagi ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-ruxiy muxit rang-barangligini ta'minlovchi xilma-xil tarixiy qadriyatlar silsilasidagi teng xuquqli bo'g'in sifatida qabul qilingan.

Endi O'zbekistonda din va davlat o'rtasidagi munosabatlar haqida to'xtalib o'tsak, XX asrdagi O'zbekiston tarixida 80 yillardagi diniy vaziyat nihoyatda keskin tus olganligi barchamizga ma'lum. 1991 yilga kelib, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zga sohalar qatori diniy sohada ham ma'lum vaziyatni tartibga soluvchi instrumentlar yaratilishiga ehtiyoj yuzaga keldi.

Bunga asosiy sabab sifatida, XX asr 90 yillarida avj olgan diniy tarqoqlik va turli qarashdagi diniy oqimlarning ta'siri avj olishi deb aytish mumkin.

Shu maqsadlarni o'zida ifoda etgan huquqiy asoslar sifatida O'zR Konstitutsiyasining 61-moddasida: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi" deb belgilangan. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 18, 31, 48 va 57 moddalarida ham davlat va din munosabatlarida O'zbekiston siyosatining mazmunini ochib beradigan normalar aks etgan.

Dinning davlat ishlaridan ajratilganligi tamoyili davlat tomonidan diniy tashkilotlarning ichki faoliyatiga aralashmaslikni anglatadi. Biroq bu diniy tashkilotlarning faoliyatiga qonunning daxli yo'q degani emas. Diniy tashkilotlarning a'zolari ayni paytda o'z davlatining fuqarolari ham hisoblanadi va ular Konstitutsiyamizning 48-moddasiga ko'ra: "... Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar". Mazkur moddada belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida 1992 yilda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etilgan. Tashkilot har bir shaxsning vijdon va diniy e'tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'iy nazar tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Sohani tartibga soluvchi asosiy Qonun vazifasini "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun hisoblanib, u bugungi kunga qadar 3 bora qabul qilingan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida, unda ma'lum moddalar davlat-din o'rtasidagi munosabatlarni to'la ifoda etmaganligidadir. Xususan, 1998-yil 1-mayda qabul qilingan Qonun 23 moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi qonun loyihasidagi moddalar soni 35 tani tashkil etadi.

So'nggi qabul qilingan Qonun bevosita Global jalb etish instituti prezidenti J.Chen (AQSh), BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining Din va e'tiqod erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Ahmad Shahid va boshqa bir qancha ekspertlar tavsiyalari asosida qayta ishlab chiqilgan. Buning natijasi sifatida O'zbekiston AQShning "Maxsus kuzatuv ostidagi davlatlar ro'yxatidan chiqarilishi bo'ldi".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda davlat va din munosabatlari xorij tajribasini inobatga olgan holda o'rnatilgan. Bundan tashqari, davlat diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib, turli dinlar va konfessiyalar o'rtasida vositachi rolini o'ynaydi va ularning

bag'rikenglik tamoyillariga rioya etishlarini nazorat qilib boradi. Bu borada davlatning roli naqadar muhimligi bugunimiz aytib turibdi.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: “Ўзбекистон”-2021. 464 Б.
2. Бағрикенгик тамойиллари Декларацияси. // ЮНЕСКО Халқаро меъёрий ҳужжатлари. Т.: Адолат, 2004.
3. Синягина В. Будет уважать друг друга не только в Международном день толерантности. // Новый век. №48. 24 ноября 2005 г.
4. Очилдиев, А. Бағрикенглик – барқарорлик ва тараққиёт омили. – Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёт матбаа бирлашмаси, 2007. – 132 б.
5. Глебкин, В.В. На пути к толерантному сознанию. – М.: Смысл, 2000. – С. 255.
6. Мчедлова, М.П. Толерантность. – М.: Республика, 2004. – 416 с.
7. Ҳасанбоев, Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар, мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари / Ў.Ҳасанбоев; масъул муҳаррирлар К.Камилов, А.Мансуров. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2014. - 552 б.

CHEMICAL ACTIVATION OF NATURAL PHOSPHORITES

Niyozov Sobir Ahror o'g'li

Teacher of Bukhara Institute of Engineering and Technology
sobirniyozov1991@gmail.com

Khojaqulova Dilbar Joraqulovna

Teacher of Bukhara Institute of Engineering and Technology

Baxronov Ja'far Akbar o'g'li

Bukhara Engineering and Technology Institute, Master student.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10611200>

Abstract. *Phosphorite activation (decomposition) is the process of converting the phosphorus nutrient contained in it into a state that can be absorbed by plants using various methods. This article provides brief information about the activation of natural phosphorus and how this process works.*

Key words: *Phosphorite, reactant, twisted planetary, differentiation, mechanical activation of phosphorites, activation of natural phosphates using acids.*

ХИМИЧЕСКАЯ АКТИВАЦИЯ ПРИРОДНЫХ ФОСФОРИТОВ

Аннотация. *Активация (разложение) фосфорита — это процесс перевода содержащегося в нем питательного фосфора в состояние, пригодное для усвоения растениями различными способами. В этой статье представлена краткая информация об активации природного фосфора и о том, как происходит этот процесс.*

Ключевые слова: *Фосфорит, реагент, скрученная планетарка, дифференциация, механоактивация фосфоритов, активация природных фосфатов кислотами.*

INTRODUCTION

stylistic: difference in connotations, like in buck – доллар (colloquial vs. neutral), beauty sleep – ранний сон до полуночи; бабушка, бабулечка, бабулька – Granny, old woman.

In conclusion, let us recall that any word may become equivalent-lacking if the particular context makes it impossible to use its regular equivalent and forces the translator to resort to some semantic transformation.

Translating equivalent-lacking words calls for a good deal of ingenuity and imagination on the part of the translator who should be well trained to use the appropriate semantic transformations, whenever necessary. At the same time he must be prepared to look for new ways of solving his problems whenever the standard methods cannot be applied to the particular context.

REFERENCES

1. <https://studfile.net/preview/8399223/page:3/>
2. Прошина З.Г./ Proshina ZG. (2008, 3rd ed., rev.; 2002, 2nd ed., rev.; 1999, 1st ed.) П 78 ТЕОРИЯ ПЕРЕВОДА (с английского языка на русский и с русского языка на английский)/Theory of translation (from English into Russian and from Russian into English): Уч. на англ. яз. – Владивосток: Изд-во Дальневост. ун-та, 2008 (3-е изд., перераб.), 2002 (2-е изд., испр. и перераб.), 1999 (1-е изд.)/ In English. Vladivostok: Dalnevost University Press.
3. Lefevre, Andre (ed.) (1992). Translation/History/Culture. A Sourcebook. London and New York: Routledge.
4. Newmark, Peter (1988). A Text Book of Translation. New York and London: Prentice Hall.
5. Nida, Eugene A. (1964). Towards a science of translating. Leiden: E. J. Brill, p. 988.

THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN ENCOURAGING PRESCHOOL CHILDREN TO READ BOOKS

Hakimova Gulhayo

Tosh DO'TAU academic lyceum 201 – student of group.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10613317>

Abstract. *This article is devoted to the discussion of tasks to stimulate the interest of preschool children in reading books, on the basis of a number of experiments and data, the role of psychology in solving this problem is proved.*

Keywords: *preschool child, psychology, methodology, observation, conversation, reading.*

РОЛЬ ПСИХОЛОГИИ В ПООЩРЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ К ЧИТАНИЮ КНИГ

Аннотация. *Данная статья посвящена обсуждению задач по стимулированию интереса дошкольников к чтению книг, на основе ряда экспериментов и данных доказана роль психологии в решении этой проблемы.*

Ключевые слова: *дошкольник, психология, методика, наблюдение, беседа, чтение.*

The pleasure of reading is not lost on many people. How many books do we actually read? How many books do you think we read today? If we look at history, according to others, our ancestors were cattle farmers and farmers. So Alisher Navoi, Abu Ali ibn Sino, Mirza Ulugbek and other ancestors What about our grandfathers?

If it wasn't for their research and love for science at that time, today our descendants would be proud of them and not known to the world because of them. But even in the 21st century, there are no shortage of great and popular writers. For example: Said Ahmad, Otkir Hashimov, Khudoyberdi Tokhtaboyev and others.

But Among them, the writer who impressed me with his works and novels is Said Ahmad. The novel "Silence" belongs to the work of the national writer of Uzbekistan Said Ahmad. The novel is dedicated to the eternal struggle between evil and goodness. It was published for the first time in 1986-1987 in the magazine "Eastern Star".

Gafur Ghulam Publishing House of Literature and Art published 150,000 copies of the work in 1989. However, censorship serving the dictatorship ideology of that time removed a third of the work without notifying the author. As a result, the "disabled" work reached the hands of the students.

For fourteen years, the author tried many times to restore the novel, to fill in the lost places. He revised the novel in accordance with today's requirements and brought it to the attention of readers.

The updated version of the novel was republished in 2008 by the creative publishing house of Uzbekistan in 5,000 copies of 280 pages and in 2016 by the Sano-standard publishing house in a soft cover of 336 pages.

The fate of people such as Talibanzhan, who lived in Africa under the pressure of the leaders and returned home after losing his wife and child, Mirvali, a womanizer who is ready to do anything disgusting for wealth and position, Azizbek, whose father was killed and his mother was taken away by Mirvali, is told. The work perfectly reveals the evils of the stagnation period.

In the novel, the internal dramas of the Shura era, which seemed calm and peaceful on the surface, and the crisis of the regime are shown in all their tension and intensity. Almost all the leading characters in the play have a tragic fate.

The novel is attractive with its simple, “uninhibited” style of expression. Talibjon is the main character. Scientist. A person who lived far from his homeland for many years under the pressure of officials, returned to his home where he was born and grew up after the death of his wife and child, and “buried his happiness in the soil”, according to his mother.

Mirvali is a friend of Taliban. Chairman of the collective farm.

Zainab is Talibjan’s sister.

The old woman is a 90-year-old blind woman, Talibjan’s stepmother.

Azizbek is a young man whose father was killed by Mirvali, and whose mother Mirvali took as his mistress.

The thing that impressed me the most is that Talibjan can never cry. No matter how much pain he has in his heart, he will never tell anyone about it or cry. It is better to read this book once than to describe it many times.

REFERENCES

1. State standard of preschool education. Self-efficacy. T., 1995.
2. Hasanboyeva O.U. and others. Pedagogy of preschool education. T.: Ilm, ziya, 2006
3. M.G. Davletshin, Sh. Dostmukhamedova, M. Mavlonov, S. Toychiyev. “Age periods and pedagogical psychology”. Study guide. T., 2004. 8.2. b.t. 4. N.M. Kayumova “Pedagogy before school”. “TDPU” publishing house, T.: 2013
4. J.G. Yoldashev —Quality assurance of interactive education\ OMOI T-2007
5. R.A. Mavlonova and others —Pedagogical technology\ Science 2008.
6. Yusupova P. Pedagogy of preschool education. T.: Teacher, 1993.

7. Z. Nishonova, G. Alimova. “Child psychology and its teaching methodology”. Study guide. Literary Fund of the Association of Teachers of Uzbekistan. T., 2006. 10 b.t.
8. Sh.A. Sodikova “Pedagogy before school”. “Confusions of thought”, T.: 2013
9. Umirov, I. (2021). Pedagogical and psychological factors of using electronic learning tools in the educational process. Academic research in educational sciences, 2(2).

EMOTIONAL EATING: REASONS, CONSEQUENCES AND SOLUTIONS TO THE PROBLEM

Mayusupova Bivifotima Mukhamatsobirzoda

Toshtemirova Zuxra Maruf qizi

Toshtemirova Fotima Maruf qizi

5th year student of the Faculty of Treatment, Samarkand State Medical University.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10613343>

Abstract. This article explores the influence of emotions on eating habits and health. The causes of emotional hunger and its consequences are considered. The author offers effective coping strategies, including developing emotional literacy and mindful eating. The article is intended to help readers on the path to harmony, overcoming the connection between emotions, overeating and maintaining a healthy lifestyle.

Keywords: Emotional overeating, psychology of nutrition, healthy lifestyle, eating habits, emotional hunger, health and emotions, psychological aspects of nutrition.

ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ ПИТАНИЕ: ПРИЧИНЫ, ПОСЛЕДСТВИЯ И РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ

Аннотация. В данной статье исследуется влияние эмоций на пищевые привычки и здоровье. Рассмотрены причины эмоционального голода и его последствия. Автор предлагает эффективные стратегии преодоления трудностей, в том числе развитие эмоциональной грамотности и осознанного питания. Статья призвана помочь читателям на пути к гармонии, преодолению связи между эмоциями, перееданием и ведению здорового образа жизни.

Ключевые слова: Эмоциональное переедание, психология питания, здоровый образ жизни, пищевые привычки, эмоциональный голод, здоровье и эмоции, психологические аспекты питания.

Emotional hunger is a condition in which a person uses food in response to emotional needs, instead of satisfying physiological hunger. It is an imbalanced way of regulating emotions, where food becomes a means of comfort or filling an emotional emptiness.

Emotional eating is the practice of eating food not because of physical hunger, but in response to emotionally stressful situations, negative feelings, or unmet emotional needs. People suffering from emotional eating turn to food for comfort or to solve emotional problems, which often leads to excess food consumption and obesity.

Emotional eating is often associated with various factors, the main ones being stress and emotions. That's why:

- **Stress:** Under stress, the body can release the hormone cortisol, which increases cravings for foods containing large amounts of carbohydrates. This can lead to overeating, as many people turn to food to relieve stress and create a feeling of comfort.

- **Emotions:** Feelings such as sadness, loneliness, joy or fatigue can also be triggers for emotional eating. People sometimes use food as a way to manage their emotional state.

The impact of emotional eating on health.

- **Overweight and Obesity:** Frequent overeating, especially when consuming high-calorie foods, can lead to excess weight gain and obesity, which is associated with the risk of developing cardiovascular disease, diabetes and other problems.

- **Psychological problems:** Emotional eating can cause feelings of guilt, shame and anxiety, which in turn worsens emotional problems and creates a vicious cycle.

- **Physical ailments:** Overeating can overload the digestive system, which can lead to indigestion, heartburn and other gastrointestinal problems.

Understanding these influences can serve as an incentive to develop healthy strategies for managing emotional eating.

Effective steps to overcome emotional eating:

1. **Developing Emotional Literacy:** Learning to recognize and effectively manage emotions helps avoid turning to food as a way to regulate emotions. Therapy and meditation practices can be helpful tools.

2. **Mindful Eating:** Focusing on each meal, paying close attention to taste and texture, and being aware of satiety cues promotes a healthier relationship with food.

3. **Developing Healthy Eating Habits:** Gradually introducing dietary changes that include a variety of nutritious foods creates the foundation for sustainable, healthy habits.

4. **Physical activity:** Regular physical activity not only helps maintain physical health, but also improves emotional well-being by reducing stress and anxiety.

When considering emotional eating, developing healthy habits, and mindful eating, it becomes clear how important it is to pay attention to the relationship between emotions and our relationship with food. Emotional eating can have a significant impact on your physical and mental health, creating negative cycles and causing long-term problems.

However, implementing coping strategies, including developing emotional literacy, gradual dietary changes, supportive environments, and physical activity, can help find balance and

create healthy eating habits. Mindful eating becomes a key component of this process, strengthening the connection between what we eat and how we feel.

The process of developing healthy habits takes time, patience and support, but they provide significant benefits to physical health, emotional well-being and overall quality of life. Investing in your health through understanding and managing your diet is an important step towards living a harmonious and balanced life.

REFERENCES

1. Judith Mats “Emotional Eating: How to Beat Food Addiction”
2. Janet Grisham “Mindful Eating”
3. Elsa Puls “Conscious eating: how to learn to listen to your body and love yourself”
4. Jane Nesbit “Nutrition and Emotions: How to Get Rid of Emotional Eating”
5. Haida Keto “Emotional fasting: How to get rid of dissatisfaction and start living life to the fullest.”
6. Farrukh S. ORGANIZATION OF DIGITALIZED MEDICINE AND HEALTH ACADEMY AND ITS SIGNIFICANCE IN MEDICINE //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 8. – C. 493-499.
7. <https://www.healthline.com/health/nervous-system-diseases#when-to-get-care>
8. <https://www.mayoclinic.org/diseases-conditions/chronic-pelvic-pain/symptoms-causes/syc-20354368>

IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATLARDA DALILLARNING HUQUQIY AHAMIYATI

Boltayev Uktam Utkir o'g'li

E-mail: uktamboltayev1994@gmail.com

Phone: +998 93 766-99-35

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Tergov faoliyati"
mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10613612>

Annotasiya. Maqolada bugungi rivojlanib borayotgan davrda butun dunyoda yaqol qonli urushlarning o'rniga, tobora kuchayib xavfsizlikka, barqarorlikka, qolaversa har bir jamiyatning siyosiy, madaniy hamda ma'naviy sohalariga katta xavf solayotgan iqtisodiy jinoyatlar va ushbu jinoyatlarni ochish, aybdorlarni hamda etkazilgan mulkiy, ma'naviy zararni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etuvch dalillar to'g'risida amaliy tavsiyalar bildirilgan.

Tayanch so'zlar: iqtisodiyot, iqtisodiy jinoyatlar, yashirin iqtisodiyot, iqtisodiy jinoyatlarning sodir etish usullari, dalillar, dalillarni to'plash usullari, javobgarlik, jazo, jamoat xavfsizligi, jamoat tatibi.

LEGAL SIGNIFICANCE OF EVIDENCE IN ECONOMIC CRIMES

Abstract. In the article, in today's developing period, instead of obvious bloody wars all over the world, there are economic crimes that increasingly threaten security, stability and the political, cultural and spiritual spheres of every society, the discovery of these crimes, the perpetrators, property and moral property practical recommendations are given on the evidence that is important in determining the damage.

Base words: economy, economic crimes, hidden economy, methods of committing economic crimes, evidence, methods of evidence collection, responsibility, punishment, public safety, public order.

ЮРИДИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРЕСТУПЛЕНИЯХ

Аннотация. В статье вместо очевидных кровавых войн сегодняшнюю развивающуюся эпоху происходят экономические преступления, которые все больше угрожают безопасности, стабильности, политической, культурной духовной сферам каждого общества, а также раскрытие этих преступлений, виновников и причиненный имущественный ущерб, даны практические рекомендации по доказательствам, имеющим значение для определения ущерба.

Базовые слова: экономика, экономические преступления, скрытая экономика, способы совершения экономических преступлений, доказательства, сбора доказательства, ответственность, наказание, общественная безопасность, общественный порядок.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Bosh qomusida inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan bo'lib, Konstitusiyaning 28-moddasida «Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb

hisoblanashi» takidlab o'tilgan. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi. Fuqarolarni huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida Jinoyat protsessual kodeksida ham gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda, "Xalqimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikni barvaqt oldini olish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish talab etiladi."¹⁷⁷

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ikkinchi yo'nalishi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga qaratilgan bo'lib, unda jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish belgilangan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining huquqni muxofaza qiluvchi organlari oldida boshqa jinoyatchiliklar bilan bir qatorda bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi bilan bog'liq jinoyalarga qarshi kurashish eng muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi.¹⁷⁸

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3723-sonli qaroridan kelib chiqib, jinoyat va jinoyatprotsessual qonunchiligi tizimida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish asosiy bosh maqsadlardan biri sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 12-moddasi). Faqatgina sud shaxsni jinoyat sodir etganlikda aybdor deb hisoblashi mumkin. Protsessning boshqa ishtirokchilari esa dalillar taqdim qilish yo'li bilan odil sudlovni amalga oshirishga yordamlashadilar, chunki ishni muhokama qilish va hukm chiqarish yoki boshqa qaror qabul qilish vakolatlari sudga tegishlidir. Fuqarolarning jinoyat-sudlov ish yuritish sohasida faol ishtirok etishining bir ko'rinishi – bu ular tomonidan tegishli organlarga dalillar taqdim qilinishidir.

Jinoyat protsessida dalillarni to'plash, taqdim qilish, baholash va foydalanishga oid murakkab faoliyatni tadqiq qilishga, bu borada qonun normalari va ularning amaliyotini tahlil qilish va takomillashtirishga bag'ishlangan isbot qilish jarayoni xatolardan holi bo'lmas ekan, haqiqatni aniqlash va binobarin adolatga erishish amri mahol. Bu jarayonning takomil bo'lishiga erishish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bugun yurtimiz yangilangan mamlakat sifatida bo'y cho'zmoqda deb aytishimiz mumkin. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yangilanishlar zamirida esa olib borilayotgan oqilona siyosat va

¹⁷⁷ SH.M. Mirziyoyevning 29.12.2018 dagi Parlamentga Murojaatnomasi nutqididan.

2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakteristikalar strategiyasining 2.3-bandi.

milliy qonunchilik tizimining yangilanishi va buning amaliy hayotda bo'y ko'rsatayotgani bilan izohlashimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda bugungi kunda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish va ularning oldini olish masalalari jahon miqyosda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunga asosiy sabab iqtisodiy jinoyatlar natijasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilmoqda. Bunday zarar byudjet mablag'larini talon-taroj qilish, soliqlarni to'lamaslik, davlat manfaatlariga zid ravishda bitim tuzish kabi turli ko'rinishlarda sodir etilmoqda. Bunday jinoyatlarni fosh etish, qilmishning jinoyat ekanini isbotlash va sodir etilgan jinoyat uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "javobgarlikning muqarrarligi" prinsipidan kelib chiqqan holda unga jazo berish maqsadida dalillardan foydalanish maqsadga muvofiq.²

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar o'z navbatida iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiy jarayonlar shuningdek xususiy mulk va mulkchilikka qarshi qaratilgan g'ayriqonuniy xavfli qilmish sifatida baholasak bo'ladi.

Umuman olganda, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar biror hudud yoki mintaqada sodir etiladigan ijtimoiy-huquqiy o'zgaruvchan va salbiy ommaviy hodisa sifatida qaralishi mumkin.

Iqtisodiy jinoyatchilik tushunchasi kriminologiya va huquqni muhofaza qilish organlarining tushunchalari apparatidan mustahkam o'rin olgan. Iqtisodiy jinoyatchilik o'z tabiatiga ko'ra o'zgaruvchan va murakkab bo'lganligi uchun uni doimiy ravishda o'rganishning talab etilishi va shu jihatlari tufayli unga qat'iy ta'rif berish imkonini mavjud emasligi bilan izohlanadi. Bu esa, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash qonunchiligini mukammallashtirishda bir qator qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda.

Iqtisodiy jinoyatchilik muammolari bu fenomen paydo bo'lgan ilk davrlardanoq tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Bu sohadagi dastlabki tadqiqotlar uning mulkka tajovuz bilan bog'liq turlarini o'rganishdan boshlangan.

Masalan, bu sohaning ko'zga ko'ringan Fransiyalik tadqiqotchilaridan biri M.Paten 1861 yildayoq o'zining «Biznes sohasidagi jinoyat huquqi va jinoyat qonunlarining umumiy qismi» deb nomlangan ishida, qisman quyidagi masalalarni tezkorlik bilan yechish zarurati paydo bo'lganligini sanab o'tadi:

- iqtisodiy jinoyatlar, xususan, tadbirkorlik sohasidagi jinoyatlar tushunchasini belgilash;
- iqtisodiy, shu jumladan, soliq sohasini jinoiy-huquqiy jihatdan tartibga keltirish va jinoiy-huquqiy jihatdan himoyasini ta'minlash;
- tadbirkorlik, shu jumladan soliq to'lovchilarning jinoiy javobgarligini belgilash.¹⁷⁹

Iqtisodiy jinoyatchilik tushunchasining har xil ta'riflari mavjud, biroq, u jamoatchilikka ilk bor "oq yoqalilar jinoyatchiligi nomi bilan tanilgan. Bu iboraning muallifi amerikalik kriminolog E.Saderlend bo'lib, u o'zining 1940 yilda yozilgan ilmiy ishida yuksak martabali shaxslar o'z kasbiy vazifasi doirasida o'zlariga ko'rsatilgan ishonchni buzib, sodir etuvchi huquqbuzarliklar majmuini "oq yoqalilar jinoyatchiligi" deb nomlaydi. Shvetsiyalik taniqli olim B.Svenson iqtisodiy jinoyatlarga xo'jalik faoliyati doirasida sodir etiladigan ta'magirlik xususiyatiga ega jinoiy qilmish deb ta'rif bergan.¹⁸⁰

³ Sobirova M. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakillanish jarayonida iqtisodiy jinoyatchilik - Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2002.-B. 17-18.

⁴ Abdurasulova Q.R. Kriminalologiya: TDYUI, 2007. – B.205-206.

Ko'pchilik rus olimlari, shu jumladan, N.F.Kuznetsova iqtisodiy jinoyatlar mulkka tajovuz va tadbirkorlik sohasidagi jinoyatlardan tashkil topadi, deb hisoblaydi.¹⁸¹

V.V. Luneyevning fikriga ko'ra, bozor iqtisodiyoti hukm surayotgan mamlakatlarda iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning asosini korporatsiyalar tomonidan davlat iqtisodiga, boshqa korporatsiyalarga, iste'molchilarga, shuningdek, korporatsiyalarning xizmatchilari tomonidan esa, shu korporatsiyalarga qarshi amalga oshiriladigan jinoyat harakatlar tashkil etadi.¹⁸²

YE.YE.Dementyeva esa, AQSH va Germaniya kriminologlari fikrlarini umumlashtirib, *iqtisodiy jinoyatchilik bu-* umumiy tarzda olganda davlat iqtisodiyoti, shuningdek xususiy tadbirkorlik va fuqarolarning ayrim guruhlari manfaatlariga tajovuz qilishga qaratilgan, ham jismoniy, ham yuridik shaxslar tomonidan qonuniy iqtisodiy faoliyat niqobi ostida doimiy ravishda amalga oshiriladigan noqonuniy faoliyat ekanligini ta'kidlaydi.¹⁸³ U chet el kriminologik adabiyotlarni chuqur tahlil etish natijasida iqtisodiy jinoyatchilikning quyidagi belgilarini ajratadi:

1. Iqtisodiy jinoyatchilikning g'arazli maqsadda amalga oshirilishi. Bunda, jinoyatchi o'z manfaatlarini ko'zlab ekvivalentlik prinsiplarini buzgan holda, iqtisodiy resurslarni o'zlashtirib oladi. Iqtisodiy jinoyatchilikka ta'rif berishda bu narsa asosiy belgi hisoblanadi. Ushbu holatda jinoyat harakat o'z manfaatlarini ko'zlash bilan bir qatorda ikkinchi bir shaxs yoki tashkilot manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lishi ham mumkin.

2) Iqtisodiy jinoyatchilikning kasbiy faoliyat doirasida sodir etilishi.

3) Subyektlarning o'zaro va davlat bilan moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotib olish, taqsimlash va almashish bo'yicha tuziladigan shartnoma va majburiyatlari bilan bog'liqligi.

4) Jabrlanishning jamoa shaklidagi, jinoyat tabiati (xarakteri)ning jamiyatdan yashirinligi, jabrlanuvchi bilan jinoyatchi orasidagi masofaning uzoqligi. Bunda, tajovuz obyekti sifatida butun iqtisodiyot, uning alohida tarmoqlari, xususiy tadbirkorlik va fuqarolar guruhi tushuniladi.

5) Iqtisodiy jinoyatchilikda ikkita subyektning – tashkilot nomidan ish yurituvchi va uning manfaatlarini ifoda etuvchi yuridik (korporatsiyalar jinoyatchiligi) va jismoniy (kasbiy faoliyat doirasidagi jinoyat sodir etuvchi) shaxsning mavjud bo'lishi.

6) Davlat, xususiy tadbirkor va fuqarolarga yetkazilgan zarar miqdorining yuqori darajadali.

7) Ko'plik shaklida ekanligi.

8) Iqtisodiy jinoyatchilik oqibati sifatida moddiy boyliklar qayta taqsimlanishining sodir bo'lishi.

9) Uzoq davom etuvchi, doimiy shaklda ekanligi.

Shundan kelib chiqib, iqtisodiy jinoyatlar - milliy iqtisod, uning tarmoqlari yoki sohalariga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan va jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Bunda jinoyatlar sodir etish bilan, jamoatga, jamoat

5 Kuznesova N.S Кодификация норм о хозяйственных преступлениях// Вестник Московского университета. - Сер.11. Право, 1993. №4. – С.12

⁶ Luneev V.V Преступность XX века. –М.: 1997. – С.257

⁷ Dementova E.E Экономическая преступность и борьба с ней в странах с развитой рыночной экономикой (на материалах США и Германии). – М.: 1992. – С.12-13.

birlashmalariga yoki ayrim fuqarolarga moddiy ziyon yetkaziladi, jamiyatning iqtisodiy negizlariga tajovuz qilinadi.¹⁸⁴

Iqtisodiy jinoyatchilik– bu jinoyat qonunida nazarda tutilgan bir necha o‘n jinoyat tarkiblari (o‘zganing mulkini talon-toroj qilish)ning murakkab majmuidir. Ayrim tadqiqotchilar iqtisodiy jinoyatlar jumlasiga tamagirlik niyatidagi mansabdorlik jinoyatlari, ayniqsa, alohida holat sifatida poraxo‘rlikni kiritishadi. Shunday qilib, iqtisodiy jinoyatchilik ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi, uning jamiyat institutlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi, davlatning moddiy negizi hisoblangan iqtisodiyot faoliyatining belgilangan tartibini buzilishida ifodalanadi. U ayrim o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning latentlik darajasi ancha yuqori. Ularning aksariyat qismi fuqarolar va mansabdor shaxslarning arizalariga ko‘ra aniqlanmaydi. Ularni mulkni boshqarish va ularning butunligini ta‘minlash vakolati berilgan shaxslar sodir etadi. Iqtisodiy jinoyatlar ayrim yangi turlarining

latentlik darajasi nisbatan past (masalan, bank kreditlarini olishda firibgarlik) hisoblanadi. Qalbaki pul yasashdek xavfli jinoyatning latentlik darajasi haqida ham shunday deyish mumkin.

2. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar natijasida jamiyatga ancha katta zarar yetkaziladi.

3. Iqtisodiy jinoyatchilik aholi aksariyat qismining turmush tarziga aylanishi, yarim jinoiy mentalitetni shakllantirishi mumkin.

4. Iqtisodiy jinoyatchilik o‘z tabiatiga ko‘ra, deyarli to‘la uyushgan xususiyatga ega. Aksariyat chet mamalakatlarda uyushgan jinoyatchilik asosan jinoiy daromad manbalari – sanaladigan qimorxonalar, narkotijorat, reket hamda qurol savdosini nazarot qilsa, ba‘zi mamlakatlarda esa, u butun iqtisodiyotni boshqaradi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni o‘rganishdagi ilmiy yondashuvlarga to‘xtalib o‘tar ekanmiz, “Iqtisodiy jinoyatchilik” (yoki iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar) tushunchasi “uyushgan jinoyatchilik” va “jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonunlashtirish” tushunchalari bilan bir qatorda, kriminologlar hamda huquqni muhofaza qilish organlarining tushunchalar apparatidan mustahkam o‘rin olgan.¹⁸⁵

Ikkinchi jahon urushi yillarida M.Klaynard, ko‘rsatib o‘tilgan jinoyatlar natijasida iste‘molchilar va soliq to‘lovchilar juda katta zarar ko‘rganligini aniqladi (1952 y). Keyinchalik, korxonalarining rahbarlari o‘z ishchilarining ijtimoiy huquqlariga qarshi sodir etgan jinoiy harakatlarni Skott o‘rgandi (1974 y). M.Klaynard va P.Yiger 582 ta yirik korxonada xo‘jalik sohasida sodir etilgan jinoyatlarni tahlil qilib, ular orasida 1975-1976 yillarda yuqoridagi korxonalarining egalari tomonidan sodir etilgan jinoiy harakatlar natijasida ayrim jinoyatchilarning hayotga qarshi sodir etgan jinoyatlari qurbonlaridan ham ko‘proq odam halok bo‘lganligini aniqlashdi. Amerikalik taniqli kriminologlar R.Klark va E.Shchur ham o‘z tadqiqotlarida iqtisodiy jinoyatchilik masalalariga to‘xtalgan. Kriminologlar G.Kayzer va G.Matsir-Brepsher korxonalar va korporatsiyalardagi jinoyatchilikni o‘rganib, ularda jinoiy jazoga loyiq barcha jinoyatlarning 84% ni mulkka qarshi jinoyatlar tashkil etishini ta‘kidlab o‘tishadi (1976 y). Shvetsiyalik taniqli

¹⁸⁴ Sobirov M. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanish jarayonida iqtisodiy jinoyatchilik -Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2002.-B.21

¹⁸⁵ Abdurasulova Q.R. Kriminalogiya. – Toshkent: TDYUI, 1997. – B.205.

kriminolog B.Svensson iqtisodiy jinoyatlarga xo‘jalik faoliyati doirasida sodir etiladigan tamagirlik xususiyatiga ega jinoiy qilmish deb ta’rif bergan.¹⁸⁶

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga keladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining XII bobi. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar deb nomlanadi lekin mazkur tushuncha ta’rifi ushbu kodeksda keltirilmagan Rossiya Federatsiyasi manbaalariga asosan¹⁸⁷Iqtisodiy jinoyatlar bu noqonuniy deb topilgan fuqarolarga korxonaga yoki davlatga moddiy zarar yetkazadigan harakatdir. Bunday hatti harakatlar kam emas va ular milliy iqtisodiyotning turli sohalarida sodir etiladi. Eng keng tarqalgan turlari sifatida esa mijozlar firibgarligi va soxta tadbirkorlikni ko‘rsatishimiz mumkin. Shuningdek Fransiya Respublikasining “Umumiy jinoiy huquqni muhofaza qilish” qonunlar to‘plamida “Biznes jinoiy qonunlari va tartibi bobi”da aynan iqtisodiy jinoyatlarga kiradigan jinoyatlar turi sifatida biznesga oid jinoyatlar keltirilgan.¹⁸⁸

Amalda iqtisodiy jinoyatchilik bu - jinoyat qonunida nazarda tutilgan bir necha o‘n jinoyat tarkiblari (o‘zganing mulkini talon-toroj qilish, valyuta boyliklari bilan g‘ayriqonuniy bitimlar tuzish, qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlar yasash yoki ularni o‘tkazish, daromadlarni soliq organlaridan yashirish, g‘ayriqonuniy tadbirkorlik, kontrabanda va boshqalar)ning murakkab majmuidir.

Ayrim mualliflar iqtisodiy jinoyatlar jumlasiga tamagirlik niyatidagi mansabdorlik jinoyatlari, ayniqsa poraxo‘rlikni kiritadi. Shunday qilib, iqtisodiy jinoyatchilik ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi u jamiyat institutlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, davlatning moddiy negizi – iqtisodiyot faoliyatining belgilangan tartibi buzilishida ifodalanadi. U ayrim o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Iqtisodiy jinoyatlarning latentlik darajasi ancha yuqori. Ularning aksariyat qismi fuqarolar va mansabdor shaxslarning arizalariga ko‘ra aniqlanmaydi. Ularni mulkni boshqarish va ularning butligini ta’minlash vakolati berilgan shaxslar sodir etadi. Iqtisodiy jinoyatlar ayrim yangi turlarining latentlik darajasi nisbatan past (masalan, bank kreditlari olishda firibgarlik). Qalbaki pul yasashdek xavfli jinoyatning latentlik darajasi haqida ham shunday deyish mumkin.

2. Iqtisodiy jinoyatlar natijasida jamiyatga ancha katta zarar yetkaziladi.

3. Iqtisodiy jinoyatchilik aholi aksariyat qismining turmush tarziga aylanishi, yarim jinoiy mentalitetni shakllantirish mumkin.

4. Iqtisodiy jinoyat o‘z tabiatiga ko‘ra deyarli to‘la uyushgan xususiyatga ega. Aksariyat chet mamlakatlarda uyushgan jinoyatchilik asosan jinoiy daromad manbalari – qimorxonalar, narkotijorat, reket, qurol savdosini nazorat qilsa, ayrim mamlakatlarda (masalan, Rossiyada) u butun iqtisodiyotni boshqaradi.

Iqtisodiyotning normativ negizini har xil huquqiy normalar, chunonchi: konstitusiyaviy, fuqarolik-huquqiy normalar, ma’muriy huquq va xo‘jalik huquqi normalari tashkil etadi. Shu bois iqtisodiy jinoyatlarni o‘rganish va ularning oldini olish muammosi jinoyat huquqi normalarini iqtisodiyotda yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarga va iqtisodiyotning normativ negiziga bog‘lab tahlil qilishni nazarda tutadi.¹⁸⁹

¹⁸⁶ Abdurasulova Q.R. Kriminalogiya. – Toshkent: TDYUI, 1997. – B.205-206

¹⁸⁷ <https://saldovka.com/nalogi-yur-lits/proverki/ekonomicheskoe-prestupleniya-vidyi-i-nakazanie.html>

¹⁸⁸ <https://iclg.com/practice-areas/business-crime-laws-and-regulations/france>

¹⁸⁹ Kriminalogiya. – M., 1997. – 482-6.

Shu o‘rinda iqtisodiyot sohasidagi huquqbuzarliklarning o‘ziga xos jihatlari to‘xtalib o‘tish joiz. Jumladan Bosh prokuratura Akademiyasi katta o‘qituvchisi Bobir Turdiyev “Iqtisodiy jinoyatlar uchun javobgarlik: Milliy va xorijiy tajriba” nomli maqolasida iqtisodiy jinoyatlarning quyidagi o‘ziga xos jihatlarni sanab o‘tgan.

Jumladan, *Birinchidan*, iqtisodiy huquqbuzarliklar yetkazilgan zarar miqdoriga qarab kvalifikatsiya qilinadi.

Ikkinchidan, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar asosan blanket, ya’ni havolaki normalardan iborat bo‘lib, sodir etilgan qilmishni baholash uchun boshqa qonun hujjatlari normalarini ko‘rib chiqish talab etiladi. Masalan, byudjet intizomini ko‘p miqdorda buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bunda byudjet intizomini buzish nimada ifodalanishi yoki qanday sodir etilishi va uning mazmunini aniqlash uchun Byudjet kodeksiga murojaat qilish hamda aynan qaysi norma talabi buzilganligini aniq ko‘rsatib o‘tish lozim¹⁹⁰. Bizningcha, esa masalan Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lib, buni bilish uchun esa Bojxona kodeksiga murojaat qilish talab etiladi¹⁹¹. Chunki bojxona oid normalar va ularning tartibi aynan shu kodeks bilan tartibga solinadi.

Uchinchidan, iqtisodiyot sohasidagi huquqbuzarliklar asosan latent, ya’ni yashirin xususiyatga ega jinoyatlar toifasiga kiradi. Iqtisodiyot sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etish usullari doimiy o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, ular murakkablashib borish, qonunchilikdagi bo‘shliqlardan foydalanish, turli jinoiy sxemalar orqali sodir etilishi hollari kuzatiladi¹⁹². Bu esa ularni aniqlash va fosh etish murakkab ekanligini anglatadi, ya’ni ularni fosh etish va jinoiy harakatlarga chek qo‘yish uchun protsessual harakatlarni qonuniy amalga oshirish va maqbul dalillarni to‘plash ularni tekshirish va adolatli baholashni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikka tortishning ham bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bularidan biri preyuditsiya, ya’ni ayrim turdagi qilmishlar uchun shaxs muqaddam ma’muriy javobgarlikka tortilgan bo‘lsagina jinoiy javobgarlik kelib chiqadi¹⁹³. Masalan, fuqarolarning qonunga xilof ravishda valyuta qimmatliklarini ancha miqdorgacha olishi yoki o‘tkazishi holati bo‘yicha jinoiy javobgarlik kelib chiqishi uchun shaxs oldin mazkur harakatlarni sodir etganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgan bo‘lishi lozim hisoblanadi. Shaxs mazkur harakatlari uchun muqaddam ma’muriy javobgarlikka tortilmagan bo‘lsa jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi.

Ikkinchidan, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik yetkazilgan zarar miqdoriga qarab farq qiladi. Zarar miqdori huquqbuzarlik tugallangan vaqtda amalda bo‘lgan miqdorlardan kelib chiqib hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka binoan zarar miqdori ekspertiza asosida aniqlanib, bazaviy hisoblash miqdori bazaviy hisoblash miqdori (245 000 so‘m 01.02.2021 dan)ga¹⁹⁴ bog‘lab qo‘yilganini ko‘rishimiz mumkin.

Uchinchidan, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikka tortishda zararining bartaraf etilganligi yoki etilmaganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat kodeksiga muvofiq

¹⁹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 187-modda. <http://lex.uz/docs/2304138>

¹⁹¹ O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi <https://lex.uz/docs/2876354>

¹⁹² Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash asosiy yo‘nalishlari Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqola va tezislari to‘plami T-2019y 8 noyabr 7-b

¹⁹³ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 177, 182, 183, 184, 185, 185, 185-moddalar.

¹⁹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 йил 30 dekabrda PQ-4938-son Qarori

shaxs bir qator hollarda iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Masalan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 184-moddasi “Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash” moddasida *Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruvchi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat soliq xizmati organining qarorini yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining sodir etilgan jinoyat haqidagi xabarini olgan kundan e‘tiboran o‘ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shu jumladan penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi* deb keltirib o‘tilgan.

Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e‘tiboran o‘ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining, shu jumladan penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplasa jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.¹⁹⁵ Ayrim jinoyatlar uchun esa yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirdagina shaxs jazodan ozod etilishi belgilab qo‘yilgan.¹⁹⁶

Boshqa bir holatda, shaxs tomonidan yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplangan taqdirda shaxs javobgarlikka tortilsada, shaxsni javobgarlikka tortishda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo choralari qo‘llanilmaydi.¹⁹⁷

Xususan, olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish va oldini olishda nazoratni kuchaytirish va tekshiruvlar sonini ko‘paytirish moliyaviy xarajatlar va resurslarni (inson, vaqt) safarbar etishni talab etishi, barcha resurslarni iqtisodiy huquqbuzarliklarni aniqlashga safarbar etishning imkoni yo‘qligi va nazoratni kuchaytirishning samaradorligi pastligini e‘tirof etadi.¹⁹⁸

Mazkur muammolarni kam xarajat talab etadigan boshqa chora-tadbirlar, xususan, soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarish, sodir etilgan huquqbuzarliklar to‘g‘risida ixtiyoriy arz qilishiga erishish orqali hal etishni ustuvor yo‘nalish sifatida qaraydilar.

Ushbu yo‘nalishda ishlab chiqilgan dastlabki nazariyalardan biriga ko‘ra iqtisodiy huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning mavjudligi shaxslarga profilaktik ta‘sir etib, ularni iqtisodiy huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishi ilgari surilgan.¹⁹⁹

Boshqa tadqiqotda iqtisodiy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik sanksiyalarining ta‘siri o‘rganilib, shaxs huquqbuzarlikning aniqlanishi ehtimoliga qarab huquqbuzarlik sodir etishi, bunda jarima miqdorining ahamiyatsizligi, shu sababli sanksiyalarni kuchaytirish emas, balki shaxsning huquqbuzarlik uchun albatta javobgarlikka tortilishi muqarrarligini tushunib yetishi muhimligi ta‘kidlangan.²⁰⁰

Shu kabi, boshqa bir tadqiqotda nazorat qiluvchi organlarning audit (tekshirish, taftish) vakolati va bu uchun “kuchli” resurslarga (tekshiruvchi mutaxassis-auditor, axborot almashinuvi

¹⁹⁵ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 180, 181, 181₁, 184, 185²-moddalar

¹⁹⁶ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 175-modda

¹⁹⁷ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167, 168, 180, 181, 181₁, 184, 185₂-moddalar.

¹⁹⁸ Bobir Turdiev “Iqtisodiy jinoyatlar uchun javobgarlik: Milliy va xorijiy tajriba” T-2019 6-bet

¹⁹⁹ Michael G. Allingham & Agnar Sandmo, Income Tax Evasion: A Theoretical Analysis. 1 Journal of Public Economics. 323 (1972).

²⁰⁰ Kimberly N. Varma and Anthony N. Doob, Deterring economic crimes: The case of tax. Centre of Criminology University of Toronto. Toronto, Ontario Canadian Journal of Criminology, pp. 165-184 (April/1998).

va h.k.) egaligi orqali har qanday iqtisodiy huquqbuzarlik hollarini aniqlash ehtimolidan cho'chigan shaxslarning huquqbuzarlik sodir etmasligiga ijobiy ta'sir qilishi ilgari surilgan.²⁰¹

Irlandiyada xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashishda nazorat qiluvchi organlar jamoatchilik nazorati mexanizmlari va insofli soliq to'lovchilar yordamiga tayanishi e'tirofga loyiq. Bunda soliqdan qochish va nosog'lom raqobat hollari haqida fuqarolar, tadbirkorlar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalariga turli vositalar orqali elektron, og'zaki yoki yozma shaklda, shu jumladan anonim tarzda xabar berish imkoniyati berilgan va murojaatchilarning shaxsi oshkor qilinmaydi.²⁰² Shu nuqtai nazardan olib qaraganda iqtisodiy jinoyatlar va yashirin iqtisodiyotni jilovlashning muhim omillaridan biri bu jamoatchilik nazorati demakdir.

Manbaalarda keltirilishicha, iqtisodiy jinoyatlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: 1) moliyaviy jinoyatlar; 2) raqobat qoidalariga zid jinoyatlar; 3) iste'molchilar huquqlarini poymol qiluvchi jinoyatlar; 4) iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tartibiga putur yetkazuvchi jinoyatlar; 5) tabiiy muhitni noqonuniy yekspluatatsiya qilish bilan bog'liq jinoyatlar; 6) mehnatni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlar; 7) kompyuter jinoyatlari²⁰³ singari jinoyatlarga bo'lish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo'yicha esa iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar JKning III bo'limi ya'ni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar o'z navbatida bir necha boblardan tashkil topadi. X bob bu o'zgarar mulkini talon taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar 164-169 moddalarni o'z ichiga olsa XI bob. O'zgarar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar bobida esa 170-174 moddalar berilgan. Shuningdek XII bob. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar bobi 175-185²-moddalarni o'z ichiga oladi. JKda XIII bob. Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar deb nomlanib, 186-192 moddalardan tashkil topgan. Kodeksdagi XIII¹ bob. Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar bobi sanaladi va bu bob o'z ichiga 192- moddadan 192¹¹-moddagacha bo'lgan normalarni qamrab oladi²⁰⁴.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasin ma'lumotlari (*ilova qilinadi*).

Iqtisodiy jinoyatchilik muammosi tashqi va ichki kriminologiya doirasida turli pozitsiyalardan o'rganiladi. Bizningcha, yangi jinoyat kodeksini yaratishda iqtisodiy deb belgilangan jinoyatlarni belgilashga keng yondashuv amalga oshirilishi lozim.

Mohiyatan, iqtisodiy jinoyat bu - davlat iqtisodiyotining manfaatlariga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik faoliyatiga va fuqarolarning alohida guruhlari manfaatlariga tajovuz qiladigan noqonuniy faoliyat bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonuniy iqtisodiy faoliyat doirasida va qonuniy iqtisodiy faoliyat niqobi ostida foyda olish maqsadida doimiy va muntazam ravishda amalga oshiriladi.

Iqtisodiy jinoyatchilik quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi²⁰⁵:

1. O'z-o'ziga xizmat qiluvchi xarakter. Ularning maqsadi iqtisodiy resurslarni yekvivalentlik prinsipiga zid ravishda o'zlashtirish natijasida foyda olishdir. Bu xususiyat

²⁰¹ Maciej H. Kotowski, David A. Weisbach & Richard J. Zeckhauser, Audits as Signals, 81 The University of Chicago Law Review. 179, 190 (2014).

²⁰² Irlandiya Soliq va bojxona daromadlari idorasining rasmiy sayti: www.revenue.ie ma'lumotlaridan

²⁰³ https://studopedia.ru/23_61483_vopros--ekonomicheskaya-prestupnost.html

²⁰⁴ Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси <http://lex.uz/docs/2304138>

²⁰⁵ https://studwood.ru/882811/pravo/osobennosti_ekonomicheskix_prestupleniy

majburiy hisoblanadi. Bunday holatda jinoyat shaxsiy daromad uchun, uchinchi shaxslar yoki tashkilotlar manfaatlarini uchun sodir etilishi mumkin;

2. Kasbiy faoliyat jarayonida sodir yetilgan. 2009 yilgi xalqaro seminarda bu xususiyat iqtisodiy jinoyatchilik konsepsiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga yega yekanligi alohida ta'kidlandi;

3. Moddiy tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, sotib olish, tarqatish va ayirboshlash uchun zarur bo'lgan subyektlar o'rtasida va davlat bilan yuzaga keladigan shartnoma va majburiyatlar bilan bog'liq.

4. Jabrlanuvchilarning kollektivligi, jamiyat uchun jinoyatlarning yashirin xususiyati, jabrlanuvchi va jinoyatchi o'rtasidagi katta masofa. Tajovuz obyekti esa butun iqtisodiyot, alohida tarmoqlar, xususiy tadbirkorlik faoliyati, fuqarolar guruhlari.

5. Jabrlanganlarning anonimligi. Bu xususiyat jinoyat jarayonining asosan jabrlanuvchidan yashiringanligini ko'rsatadi.

6. Ikki shaxsning mavjudligi-korxonada nomidan va manfaatlarini ko'zlab harakat qiluvchi yuridik shaxs (korporativ jinoyat) va jismoniy shaxs (bandlik jinoyati). Yuridik shaxs qonunda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi nazarda tutilgan mamlakatlardagina jinoyat obyekti hisoblanadi (Aqsh, Fransiya Germaniya Gruziya va boshq).

7. Davlat, xususiy korxonada va fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga yetkazilgan sezilarli zarar.

8. Moddiy ashyolarni iqtisodiy jinoyatlar natijasida qayta taqsimlanishi.

9. Uzluksiz, sistematik tabiat.

Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi davlat organlari tomonidan qo'llaniladigan ana shu xususiyatlarga muvofiq, avvalo, bevosita motiv sifatida iqtisodiy manfaatga yega bo'lgan jinoyatchilikka munosabat qilinishi lozim. Iqtisodiyotdagi mavjud jinoiy vaziyatning sabablaridan biri iqtisodiy jinoyatchilik muammosini ilmiy jihatdan o'rganmaslik, unga qarshi kurash strategiyasi va mafkurasi haqida aniq g'oyalarning mavjud yemasligidir. Bu turdagi jinoyatchilikka qarshi kurashning zamonaviy tashkil yetilishi hamon markazlashgan iqtisodiyot sharoitida samarali bo'lgan, ammo zamonaviy sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lmagan eski usullar bilan amalga oshirilmoqda.

Nemis kriminologi G. Keyzer iqtisodiy jinoyatlarni to'rt guruhini aniqlab, bu guruhlarni o'ziga xos jihatlarni sanaydi.

- Anti-raqobat shartnomalar, raqobat va narx qonunlar buzilishi, shu jumladan, g'azab, mualliflik huquqi va savdo belgisi buzilishi; va qurilish firibgarlik, kompaniyalar tomonidan soxta bankrotlik, ishonch va noto'g'ri bankrotlik deklaratsiyalarning suiiste'moli;

- Soliqlar, yig'imlar va bojlar, bojxona jinoyatlaridan bo'yin tovlash, shuningdek, firibgarlik va poraxo'rlik yo'li bilan kredit olish;

- Yoshlar muhofazasi va mehnat muhofazasi to'g'risidagi, shuningdek, ijtimoiy sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi; atrof-muhitdan foydalanish va muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi; oziq-ovqat va sanoat mollarni soxtalashtirish;

- Katta miqdordagi turli tovarlarning tovlamachilik yo'li orqali sotilishi fibgarlik yo'li orqali shaxslarning uy-joylariga egalik qilish.

Chet yel kriminologlari tomonidan olib borilgan iqtisodiy jinoyatchilik tadqiqotlari natijalari tahlil qilinganda shuni ta'kidlash lozimki, ular ko'pincha sotsiologlardan iborat bo'lishgan. Shuning uchun ta'riflardagi noaniqlik va ko'pincha o'rganilayotgan hodisani tushunish uchun asos bo'lgan huquqiy kategoriyalarga aniq ta'rif berilmagan deyishimiz mumkin.

Ko'pgina mutaxassislar iqtisodiy jinoyatchilik hodisasini uning belgilari orqali aniqlashga harakat qiladilar:²⁰⁶

* Tadbirkorlik sohasida, biznes sohasida qonuniy iqtisodiy faoliyat niqobi ostida amalga oshirish;

* Bevosita xo'jalik faoliyati davomida, uning chegaralari doirasida va vakolati doirasida amalga oshirish;

* Tadbirkorlik subyektlari (biznes) tomonidan amalga oshirilishi;

* Rasmiy bozor iqtisodiy muhiti tomonidan takror ishlab chiqarilgan iqtisodiy va huquqiy shartlarda parazitlik qilish, qonuniy iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida iqtisodiy imtiyozlarni o'zlashtirishning jinoiy usullaridan foydalanish;

* Anonimlik, jabrlanuvchi identifikatsiya yo'qligi;

* Tajovuz obektlarining o'ziga xosligi va ko'pligi;

* Jabrlanuvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa yo'qligi;

* Iqtisodiy jinoyat subyektlarining o'ziga xosligi;

* Jinoyatlarning ommaviy xarakteri va tipikligi;

* Jamiyatning iqtisodiy jinoyatchilikka befarq, befarq munosabati hodisasining mavjudligi;

Iqtisodiy jinoyatchilik oddiy o'z-o'ziga xizmat qiluvchi jinoyatchilikka qaraganda ancha katta darajada aholining muhim qismining turmush tarziga ta'sir qilishi mumkin. Moliyaviy inqiroz, millatlararo munosabatlar muammolari odamlarning xulq-atvoriga, ularning psixologiyasiga, axloqiga va tamoyillariga ta'sir qila olmaydigan obyektiv shartlardir.

Ushbu jinoyatning o'ziga xos xususiyati ham iqtisodiy sohadagi jinoiy tajovuzlarning turlarini doimiy ravishda kengaytirish hisoblanadi. Shunday qilib, an'anaviy jinoyatlar bilan bir qatorda, noqonuniy tadbirkorlik, pul yuvish, valyuta qadriyatlar bilan noqonuniy bitimlar va hokazolar keng tarqaldi.

Iqtisodiy jinoyatlarning shakllari va turlarining har xilligi bilan ularning quyidagi sohalardagi yo'nalishlarini ta'kidlash zarur: moliya-kredit, tashqi iqtisodiy faoliyat, iste'mol bozori, ko'chmas mulk operatsiyalari sohasida, shuningdek, soliq va boshqa to'lovlarni to'lash borasida kuzatilishi mumkin.

Keyingi kriminologik xususiyati iqtisodiy jinoyat maxsus ijtimoiy xavf u oqibatida to'g'ridan-to'g'ri zarar ham bo'ladi, va iqtisodiy jinoyatlar mamlakat iqtisodiyotiga putur yetkazadi. Aslida davlat rezervlarini o'ziniki qilib olishga urinish noqonuniy boyishga zamin yaratadi. Bu esa jamiyatda umumiy boylik (YAIM) o'sishiga yemas, balki shaxsiy boyishdan manfaatdorlik hisini shakllantirishga olib keladi. Bu esa qolgan aholi ongida davlat tashkilotida ishlash uning boyliklarin o'marish degan g'oyani shakllanishiga zamin yaratadi.

Shu tariqa iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar, jinoiy harakatlarning o'ziga xos tipik tuzilishini namoyish etib, o'ziga xos usullarda namoyon bo'ladi va o'ziga xos shakllarda sodir etiladi. Bu mulkka, iqtisodiyot negizlariga va davlat mulkiga qaratilishi mumkin.

²⁰⁶“ Специфика объекта преступлений в сфере экономической деятельности” Т.Екатиринова М-2017

Jinoyat protsessining maqsadlariga, ya'ni jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi, aybdorlarni fosh etishga erishish uchun zaruriy bir shartga amal qilinishi lozim.

Dalillar haqida gap ketganda bevosita dalillar tushunchasi va ta'rifiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Jumladan, **Dalil deb** – Jinoyat protsessual kodeksning 81-moddasiga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi.

Bu ma'lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinosasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi.

Qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari JPK normalariga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so'ng jinoyat ishi bo'yicha dalillar deb e'tirof etilishi mumkin.²⁰⁷

Shuningdek yuridik adabiyotlarda ashyoviy dalil tushunchasi ham mavjud bo'lib, **ashyoviy dalil bu-** kelib chiqishini, kimga tegishligini, ma'lum maqsadlarda foydalanilganligini yoki foydalanishga yaroqliligini, qo'ldan-qo'lga o'tganligi yoki turgan joyi o'zgarganligini, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon va hodisalar ta'sir etganligini aniqlash mumkin bo'lgan fizikaviy alomatlar yoki belgilarga, shuningdek ish holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan har qanday boshqa alomatlar va belgilarga ega bo'lgan narsa ashyoviy dalil hisoblanadi.²⁰⁸

Bizga ma'lumki, daliliy ashyolar bojxona sohasidagi jinoyatlarni ochishda aybdorni qidirib topishda, tergovga qadar tekshiruv organi va surishtiruvchining faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dalillarni tasniflash bir necha asoslarga ko'ra amalga oshirilib, u ko'p tarmoqli tizim hisoblanadi. Tasniflashning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda ularning hisobga olinishi lozim bo'lgan turli jihatlarini ochib beradi.

Ma'lumki, dalillar quyidagi tasniflovchi guruhlarga ajratiladi²⁰⁹:

-shaxsiy va ashyoviy dalillar. Dalillarning bunday bo'linishi haqiqiy ma'lumot turlari, ularni shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmi farqlanishiga asoslanadi.

Huquqbuzarlik hodisasi unda ishtirok etgan yoki uni kuzatgan odamlar ongida hamda moddiy vaziyatda – uning turli o'zgarishlari ko'rinishida aks etiladi. Bunday aks etishlarning mexanizmi jiddiy farqlanadi: birinchi holda ongda tasavvur va tushunchalar tarzida ruhiy aks etadi, ikkinchi holda – ashyolar, ularning xususiyatlari va munosabatlarining jismoniy, mexanik va shu kabi o'zgarishlari haqida fikr yuritiladi. Ikkala holda ham ruhiy hamda moddiy aks etishlar yuz bergan hodisa haqida muayyan ma'lumot beradi.

-shaxsiy dalillar – xabarlardir. Xabar deganda odam qabul qilgan va ruhan qayta ishlov bergan axborotning uzatilishi tushuniladi. Ekspertning xulosasi ham shaxsiy dalil hisoblanadi. Axborot ekspertdan yozma xulosa shaklida olinadi, shaxsiy dalillar og'zaki (yozma) xabar

²⁰⁷ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi 22. 09.1994 81-modda

²⁰⁸ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi 22. 09.1994 203-modda

²⁰⁹ Kaz S.M Доказательства в уголовном процессе. Саратов. 1960. Б. 23-25

shaklida (huquqbuzarning, gumon qilinuvchi, guvohning ko'rsatuvlari va hokazo) hosil bo'ladi hamda bayonnomalarda aks ettiriladi. Ular sirasiga ish yuritishda tuziladigan bayonnomalari kiradi.

-ashyoviy dalil – “Kelib chiqishi, kimga tegishliligini, ma'lum maqsadlarda foydalanilganligini yoki foydalanishga yaroqliligini, qo'ldan-qo'lga o'tganligi yoki turgan joyi o'zgarganligi, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon va hodisalar ta'sir etganligini aniqlash mumkin bo'lgan fizikaviy alomatlar yoki belgilarga, shuningdek ish holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan har qanday boshqa alomatlar va belgilarga ega bo'lgan narsa ashyoviy dalil hisoblanadi”.

Undan tashqari, hujjatlar va boshqa xatlar ham ashyoviy dalil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ashyoviy dalilning murakkab tuzilishini ham ta'kidlash zarur. Ushbu tushunchaning to'liq va qat'iy ma'nosi haqida quyidagi 3 ta tarkibiy qism mavjud bo'lgan taqdirda gapirish mumkin²¹⁰:

a) huquqbuzarlik hodisasi natijasida vujudga kelgan iz, barmoq izlari, narsaning joylashuvi, holat va boshqa xususiyatlarining o'zgarishi;

b) hodisa joyidan olingan, bu o'zgarishlar, xususiyatlar, izlar va hokazolarni o'zida aks ettiruvchi narsalar;

v) hodisa joyidan olingan va ishga qo'shilgan narsaning xususiyatlarini ifoda etuvchi ma'lumotlar (voqea sodir bo'lgan joyi ko'zdan kechirish bayonnomasida).

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 25-bobi Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qo'shib qo'yish bobida keltirilganidek, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining 17-son qarori “Jinoyat ishlari bo'yicha ashyoviy dalillarga oid qonunchilikni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi tushuntirishiga muvofiq, Ashyoviy dalil sifatida, jumladan, quyidagilar e'tirof etiladi:

a) jinoyat quoli — ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyat sodir etish uchun maxsus mo'ljallangan, tayyorlangan yoki moslashtirilgan narsalar (masalan, odam o'ldirish quollari, qimmatliklarni talon-toroj qilish yoki egallashda vosita bo'lgan narsalar, o'qotar qurol, brakonyerlik quollari — qopqonlar, to'rlar, soxta hujjat va h.k.), shuningdek jinoiy maqsadga erishish uchun jinoyat sodir etish jarayonida bevosita foydalanilgan mol-mulk (masalan, transport vositalari);

b) o'zida jinoyat izlarini saqlab qolgan narsalar (masalan, qon izlari mavjud yoki jinoyat sodir etilishi jarayonida shikastlangan kiyim, narsalar, shu jumladan, o'q otilishi yoki portlash natijasida shikastlangan narsalar, barmoq, qo'l, oyoq, poyafzal, transport, buzish quollarining izlari va h.k.);

v) jinoiy harakatlar obyekti bo'lgan narsalar (masalan, olib qochilgan avtomobil, talon-toroj qilingan pullar, qimmatli qog'ozlar, qurol, giyohvandlik vositalari, boshqa moddiy qimmatliklar, buyumlar va h. k.);

g) jinoiy harakatlar sodir etilgandan keyin jinoiy yo'l bilan topilgan mablag'lar evaziga topilgan mol-mulk, pullar va boshqa qimmatliklar (masalan, o'g'irlangan pullarga sotib olingan qimmatbaho buyumlar, jinoiy faoliyat natijasida, jumladan, qonunga xilof ravishda tadbirkorlik bilan shug'ullanishdan topilgan naqd pullar, nodir metallar va toshlardan iborat xom ashyo va buyumlar, boshqa qimmatliklar, deb keltirib o'tilgan.

210 Jinoyat prosessi. Umumiy qism: Yuridik instituti va fakultetlari talabalari uchun darslik. / Dosent Z.F. Ino'mjonovanning umumiy tahriri ostida. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2002. B. 147-171.

Faktlar haqida ma'lumotlarni olish xususiyatiga ko'ra dalillar **dastlabki va hosila dalillarga** bo'linadi.²¹¹

Oraliqdagi daliliy axborot uning tashuvchisi borligi yoki yo'qligi bo'lish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, huquqbuzarlik hodisasini kuzatgan guvohning ko'rsatuvlari shaxsiy dastlabki dalil hisoblanadi. Bunday guvohning ko'rsatuvlari, shuningdek uni so'roq qilish bayonnomasi dastlabki dalillardir.

Mazkur hujjatda aytilayotgan qandaydir hodisadan shaxsan xabardor bo'lgan shaxs tomonidan tuzilgan hujjat **dastlabki dalil** hisoblanadi. Shuning o'zi ekspert xulosasiga ham taalluqlidir.

Agar hodisani bitta shaxs kuzatib, so'ng bu haqda boshqasiga xabar bergan bo'lsa, shuningdek bu ikkinchi shaxs guvoh sifatida hodisa haqida ko'rsatuvlar berayotgan bo'lsa, bunday ko'rsatuvlar **hosila dalil** hisoblanadi. Bu holda axborotning ikkita tashuvchisi bor bo'lib ko'rinadi: birinchisi – hodisani kuzatgan (dastlabki tashuvchi) va ikkinchisi – hodisa haqida birinchi shaxsdan bilgan (ikkinchi tashuvchi).

Hujjat nusxasi ham hosila dalil hisoblanadi. Bu holda hujjat (asl nusxasi)ning tuzuvchisi axborotning birinchi tashuvchisi, undan nusxa olgan va tasdiqlagan shaxs esa axborotning ikkinchi tashuvchisi hisoblanadi.

Bir necha birlamchi manbalardan olingan axborotni qo'shish natijasida vujudga keladigan «qo'shiladigan» deb ataluvchi hosila dalillar ishi esa qiyinroq. Masalan, taftish hujjatlari, erkin buxgalteriya hujjatlari va hokazo.

Huquqbuzarlik qurollari va boshqa shu kabi obyektlarning fotosurati, hajmli va boshqa xil hujjat nusxalari ilmiy adabiyotda ko'pincha hosila ashyoviy dalillar deb ataladi.

Haqiqatan ham, fotosurat hajmli surat kabi original obyektidagi axborotni o'zgartirgan holda qaytadan hosil qiladi.

Mumkin qadar dastlabki dalillardan foydalanishga intilish hosila dalillar ishonchli xulosalarga olib kelolmasligini anglatmaydi. Hosila dalillardan dastlabki dalillarni topish uchun, ma'lum sharoitlarda esa ularni dalillarning yig'indisida tekshirish uchun foydalaniladi.

Hosila dalillar dastlabki dalilning to'liqligi va ishonchligini aniqlashga yordam berishi mumkin. Masalan, agar hodisani o'z ko'zi bilan ko'rgan guvoh o'z vaqtida boshqa shaxsga aytib bergan holatlarni esidan chiqargan bo'lsa, bunday shaxsni guvoh sifatida so'roq qilish hodisani o'z ko'zi bilan ko'rgan guvohning ko'rsatuvlarini to'ldirishga, kimning ko'rsatuvlari haqiqatga to'g'ri ekanligini hal qilishga imkon beradi.

Ayblovchi va oqlovchi dalillar. Bunday bo'linish haqiqiy ma'lumotlar mazmuniga asoslangan.

Mazkur shaxs tomonidan huquqbuzarlik sodir etilganini ko'rsatadigan dalillar yoki javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlar **ayblovchi dalillar** deb e'tirof etiladi.

Oqlovchi dalillar – huquqbuzarlik sodir etganlikda ayblanayotgan yoki gumon qilinayotgan shaxsni oqlaydigan yoxud uning javobgarligini yengillashtiradigan holatlarni aniqlaydigan dalillardir.

²¹¹ Z.F. Inomjonova Jinoyat prosessi. Umumiy qism: T 2002. B. 147-171.

Dalillar xolisona voqelik faktlarini bilishga xizmat qiladi hamda ularning tahlili barcha holatlarni o'rganishga va haqiqatni aniqlashga imkon beradi. Bunday bo'linish dalillarni ayblovga nisbatan tizimlashtirishga ko'maklashadi, holbuki qonun har bir ish bo'yicha huquqbuzarni ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlarni aniqlashga va hisobga olishga majbur etadi.

Har bir dalilni to'g'ri baholash hamda uni ayblovchi yoki oqlovchi dalillar sirasiga kiritish uchun barcha dalillar birgalikda ko'rib chiqilishi lozim. Bu bo'linish shartlidir. Ish yuritish borasida shunday hollar bo'lishi mumkinki, bir qarashda oqlovchi dalillar sifatida bo'lganlar keyinchalik ayblovchi dalillar deb baholanadi va aksincha bo'lishi mumkin.

Oqlovchi dalillar orasida ayblanuvchining alibisi (lotincha alibi – qayerdadir boshqa joyda) alohida o'rin tutadi. Ishonchli isbot qilingan alibi shaxsni huquqbuzarlik sodir etganlikda ayblash imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Alibi har tomonlama tekshirilishi lozim.

Dalillar ayblovchi va oqlovchilarga bo'linishi munosabati bilan tez-tez uchraydigan «qoralovchi dalillar» tushunchasini aniqlab olish zarur. Avval adabiyotda bu tushuncha orqali ayblovchi va oqlovchi dalillar yoki faqat ayblovchi bilvosita dalillar ifoda etilar edi. Barcha ayblovchi, ham bevosita, ham bilvosita dalillarni qoralovchi dalillar deb atash to'g'riroq bo'ladi.

Isbotlash predmetida bosh faktga, ya'ni shaxsning aybdorligi yoki aybsizligiga nisbatan dalillar **to'g'ri va egri dalillarga** bo'linadi. Bu bo'linishning asosini isbot qilinadigan holatni asoslash jarayoni tuzilishidagi farq tashkil etadi.

Isbot qilinadigan holatni to'g'ridan to'g'ri va bevosita belgilaydigan dalil to'g'ri dalil, «oraliqdagi fakt» orqali bu holatni belgilaydigan dalil esa egri dalil deb ataladi.

Jinoyatni o'z ko'zi bilan ko'rgan guvohning ko'rsatuvlari, huquqbuzarning bosh egib, keyinchalik o'z aybini tan olish va huquqbuzarlik sodir etilgan holatlar haqida so'zlab berish sharti bilan kelishi – to'g'ri dalil.

Masalan, guvohlarning huquqbuzarlik sodir etilgan kunda huquqbuzarni uyda uxlamaganligi, u huquqbuzarlik sodir etilgan joydan ketayotganini ko'rganligi, avval jabrlanuvchiga ta'zirini berish bilan qo'rqitgani haqidagi ko'rsatuvlari, huquqbuzarlik sodir etilgan joyda huquqbuzarga tegishli ashyo topilgani va hokazolar – egri dalillar. Ular shunchaki «ikkilamchi holatlar»ni yoki «oraliqdagi faktlar»ni ko'rsatadi, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv organlari esa bular yordamida mazkur huquqbuzarlikni aynan kim sodir etganligi haqida xulosa chiqarishlari mumkin.

Huquqiy adabiyotda to'g'ri va egri dalillarni farqlash mezoni yuzasidan turli nuqtai nazarlar mavjud.

To'g'ri va egri dalillarni farqlash katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagilardan iborat:

1) To'g'ri dalillar egri dalillardan yaxshiroq emas, egri dalillar esa to'g'ri dalillardan yomonroq emas degan fikrni anglab olishdan, to'g'ri dalillarning bahosini oshirishga hamda egri dalillarning bahosini kamaytirishga yo'l qo'ymaslikdan.

Amaliyotda shunday ishlar bo'ladiki, ular bo'yicha ayblov faqat egri dalillarga asoslanadi. Egri dalillarga asoslangan qaror to'g'ri dalillarga asoslangan qaror qanday qonuniy kuchga ega bo'lsa, shunday qonuniy kuchga ega bo'ladi.

2) Garchi egri dalillarning ahamiyati to'g'ri dalillarning ahamiyatidan kam bo'lmasada, ishlarni yuritish tajribasida egri dalillardan foydalanish to'g'ri dalillardan foydalanishga qaraganda

qiyinroqdir. To'g'ri dalil ushbu qidirilayotgan muhim faktni bevosita, hech qanday ko'maklashuvchi bo'g'inlarsiz ko'rsatadi. Egri dalil ikkilamchi, erkin faktni bevosita ko'rsatadi hamda faqat u orqali isbotlash burchi yuklatilgan shaxsga qidirilayotgan muhim fakt haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

3) Egri dalil aynan ikkilamchi faktni bevosita ko'rsatganligi uchun u boshqa dalillar bilan uzviy o'zaro bog'langan holda yuridik ahamiyatga ega bo'ladi. Tegishincha, faqat egri dalilga ishni hal qilish uchun yetarli isbotlovchi material deb qarash mumkin emas.

4) Haqiqiy faktlar huquqni muhofaza qilish organlarining gumon va taxminlari bilan almashtirib qo'yilmagani uchun egri dalillarning tasodifiy emas, balki xolisona bog'liqligini aniqlash zarur, sababli bog'liqlik nafaqat egri dalilni, balki egri dalillar yig'indisini isbotlash predmeti, huquqbuzarlik tarkibi bilan birga qamrab olishi lozim.

5) Nihoyat, egri dalillar yig'indisi ushbu shaxsning unga ayb qilib qo'yilayotgan huquqbuzarlik sodir etganlikda aybdorligi haqida xulosa chiqarish uchun yetarli deb, basharti o'zining tugallangan holda u qandaydir boshqa taxminlar, boshqa xulosalar mumkinligini istisno etsa, shuningdek ushbu xulosa faqat yagona sababli, tegishli haqiqiy ma'lumotlar yig'indisidan va ular haqidagi ma'lumotlardan kelib chiqadigan bo'lsa, e'tirof etilishi mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, isbot qilinmagan aybdorlik isbotlangan aybsizlikka teng, ayblov qarori taxminlarga asoslanishi mumkin emas va u ish yuritishda huquqbuzarning huquqbuzarlik sodir etganlikda aybdorligi so'zsiz isbotlangan taqdirdagina chiqariladi.

Demak, egri dalillar tarqoq faktlar va ular haqidagi ma'lumotlar emas, balki yagona tarkibiy qismlari o'zaro sababli uzviy bog'liqlikda va o'zaro bir-birini taqozo etgan yaxlit birlikdir. Aynan shunday ko'rinishda ular isbotlovchi va muqarrar kuchni tashkil etib, u muayyan shaxsning ma'lum huquqbuzarlik sodir etganlikda aybdorligi haqida fikr yuritishga imkon beradi.

Keltirilgan egri dalillarning tasnifidan ulardan foydalanishning quyidagi qoidalari kelib chiqadi:

- 1) egri dalillar ish bo'yicha faqat o'zining yig'indisida ishonchli xulosalarga olib keladi;
- 2) egri dalillar o'zaro va isbotlanadigan qoida bilan xolisona bog'langan bo'lishi kerak;
- 3) egri dalillarning tizimi (yig'indisi) shunday asoslangan xulosaga olib kelishi kerakki, u aniqlangan holatlarning boshqacha talqinini istisno etadi, holatlar bu dalillar asosida aynan aniqlanganidek bo'lganligidan oqilona shubhalarni istisno etadi.

Huquqshunos olim A.F.Koni yozganidek, egri dalillar "o'z yig'indisida va muayyan guruhda bo'lganida bir-birini mustahkamlab, tasdiqlab va bog'lab alohida ahamiyatga va kuchga ega bo'ladi. Bu ikkilamchi mayda holatlar huquqbuzarlik va uning uchun ma'lum bir shaxsning aybdorligi mavjudligi haqidagi taxmin atrofida oydinlashadi, bosqichma-bosqich alohidagi shubhani gumonga aylantirib, shuningdek unga kuchli ehtimollik va so'ngra unga vujudga kelgan mustahkam ishonchlilik xususiyatlarini bag'ishlaydi"²¹²

Dalillarni talqin qilish yuzasidan turlicha fikrlar, nazariyalar va qarashlar mavjud bo'lib, bu fikrlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) Dalillarning arxaik konsepsiyasi.

²¹² Lukin V.M. Уголовно-процессуальная деятельность органов дознания: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – СПб.: Санкт-Петербургский университет МВД России, 2003. – С. 9.

Mazkur konsepsiya (tarafdorlari—A.Y.Vishinskiy²¹³ va L.YE.Vladimirov lar²¹⁴) 1958 yildagi Jinoyat-sudlov ishlarini yuritish Asoslari qabul qilingunga qadar keng tarqalgan bo‘lib, unga ko‘ra sud dalillariga-bu odatiy faktlar, hayotdagi hodisalar, narsalar, odamlar, odamlarning harakatlari, deb qaralardi.

2) Dalillarning mantiqiy modeli.

Bu konsepsiya (tarafdorlari-S.A.Golunskiy,²¹⁵ S.M.Kaz²¹⁶ M.A.Chelsov²¹⁷ va R.S.Belkinlar²¹⁸) ga asosan, jinoyat ishlari bo‘yicha dalillar deb real voqelikda mavjud bo‘lgan ma‘lumotlarga aytiladi. Bu konsepsiya 1958 yilda Jinoyat-sudlov ishlarini yuritish Asoslari qabul qilingandan keyin tarqalgan.

3) Dalillarning «ikkiyoqlamalik» konsepsiyasi.

Bu konsepsiya (tarafdorlari-A.I.Trusov²¹⁹ V.D.Arsenyev²²⁰ va M.S.Strogovichlar²²¹) ga binoan dalil deb faktlarga va ular olingan manbalarga aytiladi.

4) Dalillarning informatsion modeli.

Bu konsepsiya (tarafdorlari-V.Y.Doroxov²²² L.M.Karneyeva²²³ A.A.Xmirov²²⁴ A.D.Boykov va I.I.Karpets²²⁵ lar) ga asosan, dalil deb ma‘lumot (axborot) va uning manbasi (moddiy tashuvchisi) birligiga aytiladi. Unga ko‘ra, dalil tushunchasiga faktlar emas, balki faktlar to‘g‘risidagi axborotlar, ma‘lumotlar kiritiladi.

5) Dalillarning aralash (sintezlashgan) konsepsiyasi.

Bu konsepsiya (tarafdori-Y.K.Orlov²²⁶)ga ko‘ra dalil deb faktlarga ham, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ham, shuningdek ularning manbalariga ham aytiladi.

Yuqoridagi konsepsiyalardan ham dalillarning jinoyat protsessida markaziy o‘rin egallaganligini anglash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, Ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

213 Vishinskiy A.Ya. Теория судебных доказательств в советском праве. - М., 1941. 146-б.

214 Vladimirov L.E. Учение об уголовных доказательствах. -СПб. 1910. 100-б.

215 Golunuskiy S.A. Вопросы доказательственного права в Основах уголовного судопроизводства Союза ССР и союзных республик. Сб. «Вопросы судопроизводства и судоустройства в новом законодательстве Союза ССР». - М., 1959. Б. 144-150.

216 Kaz S.M. Доказательства в уголовном процессе. Саратов. 1960. Б. 23-25.

217 Chelsov M.A. Советский уголовный процесс. - М., 1962. Б. 132-135.

218 Belkin R.S. Собрание, исследование и оценка доказательств. - М., 1969. Б. 10-12.

219 Trusov A.I. Основы теории судебных доказательств. - М., 1960. Б. 48-51

220 Arsenyev V.D. Вопросы общей теории судебных доказательств. - М., 1964. 92-б.

221 Strogovich M.S. Курс советского уголовного процесса. - М., 1968. Т. 1. Б. 288-289

222 Doroxov V.Ya. Понятие доказательства в советском уголовном процессе // Советское государство и право. 1964. №9. -Б. 108-117.; Doroxov V.Ya. Понятие доказательства // Теория доказательств в советском уголовном процессе. 2-ое изд. / Под ред. Н.В. Жогина. - М., 1973. Б. 197-228.

223 Karneyeva L.M. Доказательства и доказывание при производстве расследования. Горький. 1977. 7-б.

224 Xmirov A.A. Косвенные доказательства. - М., 1979. Б. 6-7.

225 Курс советского уголовного процесса. Общая часть. Под ред. А.Д.Бойкова и И.И.Карпеца. -М., 1989. 551-б.

226 Orlov Yu.K. Структура судебного доказывания и понятие судебного доказательства. «Вопросы борьбы с преступностью». Вып. 28. - М., 1978. Б. 86-101.

Ushbu Kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi.²²⁷

XULOSA VA TAKLIFLAR: bugungi kunda iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va ularni fosh etish va isbot qilish dolzarbligicha qolmoqda. Chunki iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar asosan havolaki normalardan tashkil topgan bo'lib, ularni aniqlash uchun aynan o'sha sohani bilish talab etiladi. Masalan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik²²⁸ jinoyatining mohiyatini anglash uchun bojxona qonunchiligini birinchi navbatda Bojxona kodeksini bilish talab etiladi. Shuningdek iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar (*asosan iqtisodiyot asoslarni buzishga qaratilgan jinoyatlar*) odatda foyda olish yoki iqtisodiy maqsadni ko'zlagan holda xalqning, mamlakatning umumiy mulkiga zarar yetkazish orqali sodir etiladi. Buni isbotlash va mazkur zararining o'rni qoplatish va aybdorni javobgarlikka tortish uchun esa albatta ushbu jinoyatni fosh etish, uni isbotlash lozim bo'ladi. Albattaki, isbotlashning bosh asosi bu dalil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda iqtisodiyot sohasiga oid jinoyatlarni aniqlash va ularni fosh etish bilan bog'liq jarayonlarda dalillarning huquqiy ahamiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1-taklif: hozirgi kunda "iqtisodiy jinoyatlar" iqtisodiyot sohasiga oid jinoyatlar tushunchasiga aniq ta'rif shakllantirilmaganini ko'rish mumkin. Shu sababli, ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarni tahlil qilish natijasida, ushbu tushunchalarga quyidagicha mualliflik ta'rifi shakllantirildi:

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning tushunchasi bu - O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan, milliy iqtisod, uning tarmoqlari yoki sohalariga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

2-taklif: O'zbekiston Respublikasi JPK 81-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilish:

81-modda Dalillar va ularning turlari.

Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni **tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsining**, surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy, **shu jumladan Elektron yoxud raqamli ma'lumotlar** jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi.

Bu ma'lumotlar:

- 1) guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari,
- 2) ekspertning xulosasi va **ko'rsatuvlari**
- 3) ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlar
- 4) **Elektron yoxud raqamli dalillar**,
- 5) tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa yozma dalillar
- 6) **tergovga qadar tekshiruv natijasida olingan ma'lumotlar**.
- 7) **mutaxassisning xulosasi va ko'rsatuvlari** bilan aniqlanadi.

²²⁷ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 14-modda

²²⁸ O'zbekiston Respublikasi JK 182-modda. <http://lex.uz/docs/111453>

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. “O‘zbekiston” 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat–protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
4. SH.M. Mirziyoyevning 29.12.2018 dagi Parlamentga Murojaatnomasi nutqi.
5. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakteristikalar strategiyasining 2.3-bandi.
6. Sobirova M. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakillanish jarayonida iqtisodiy jinoyatchilik - Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2002.-B. 17-18.
7. Abdurasulova Q.R. Kriminalologiya: TDYUI, 2007. – B.205-206.
8. Kuznesova N.S Кодификация норм о хозяйственных преступлениях// Вестник Московского университета. - Сер.11. Право, 1993. №4. – С.12
9. Luneev V.V Преступность XX века. –М.: 1997. – С.257
10. Dementova E.E Экономическая преступность и борьба с ней в странах с развитой рыночной экономикой (на материалах США и Германии). – М.: 1992. – С.12-13.
11. https://studopedia.ru/23_61483_vopros--ekonomicheskaya-prestupnost.html.
12. https://studwood.ru/882811/pravo/osobennosti_ekonomicheskikh_prestupleniy.
13. Bobir Turdiev “Iqtisodiy jinoyatlar uchun javobgarlik: Milliy va xorijiy tajriba” T-2019 6-bet.
14. Michael G. Allingham & Agnar Sandmo, Income Tax Evasion: A Theoretical Analysis. 1 Journal of Public Economics. 323 (1972).
15. Kimberly N. Varma and Anthony N. Doob, Deterring economic crimes: The case of tax. Centre of Criminology University of Toronto. Toronto, Ontario Canadian Journal of Criminology, pp. 165-184 (April/1998).
16. Maciej H. Kotowski, David A. Weisbach & Richard J. Zeckhauser, Audits as Signals, 81 The University of Chicago Law Review. 179, 190 (2014).
17. Irlandiya Soliq va bojxona daromadlari idorasining rasmiy sayti: www.revenue.ie ma’lumotlaridan.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОЦЕССА ПИТАНИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПИТАЮЩИХ ЦИЛИНДРОВ ШЕВРОННОГО ТИПА НА ПРЯДИЛЬНЫХ МАШИНАХ

Мирзаев Отабек Абдукаримович

PhD, доцент, Каршинский инженерный экономический институт

E-mail: kiamoa@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10613644>

Аннотация. Основным решением создавшейся проблемы является модернизация составных питающих цилиндров пневмомеханических прядильных машин, которая обеспечила бы снижение затратных статей и повышение конкурентоспособности пряжи по себестоимости и качественным показателям пряжи, а также создание перспективы для разработки новых моделей питающих цилиндров, который используется в зон питания пневмомеханических прядильных машинах. Целью и задачей исследований является проведение эксперимента с использованием новой конструкции предлагаемого питающего цилиндра шевронного типа и выработка научно обоснованных технических и технологических решений, обеспечивающих повышение показателей качества пряжи. В экспериментальных исследованиях применяли методы планирования, анализа, оптимизации эксперимента; корреляционного и дисперсионного анализ; математической статистики, текстильного материаловедения. Получены математические зависимости влияния параметров предлагаемого питающего цилиндра шевронного типа в зон питания пневмомеханической прядильной машины на удельную разрывную нагрузку нити, коэффициент вариации по разрывной нагрузке, коэффициент вариации неровному по линейной плотности и количество неспов в пряже.

Ключевые слова: волокнистая масса, промышленность, инженеры, конструкция, эксперимент, резиновая втулка, шеврон, воронки, лента, равномерность, наклонные рифлы, исследования, параметры, цилиндр, силы трения, желательности.

STUDY OF THE FEEDING PROCESS USING CHEVRON TYPE FEED CYLINDERS ON SPINNING MACHINES

Abstract. The main solution to this problem is the modernization of the composite feed cylinders of rotor spinning machines, which would reduce costs and increase the competitiveness of yarn in terms of cost and quality indicators of yarn, as well as create prospects for the development of new models of feed cylinders, which are used in the feed zones of rotor spinning machines. The goal and objective of the research is to conduct an experiment using a new design and the proposed chevron-type feed cylinder and develop scientifically based technical and technological solutions that ensure improved yarn quality indicators. In experimental studies, methods of planning, analysis, and optimization of experiments were used; correlation and variance analyses; mathematical statistics, textile materials science. Mathematical dependences of the influence of the parameters of the proposed chevron-type feed cylinder in the feed zones of a rotor spinning machine on the specific breaking load of the thread, the coefficient of variation in breaking load, the coefficient of variation in uneven linear density and the number of neps in the yarn were obtained.

Key words: fibrous mass, industry, engineers, design, experiment, rubber bushing, chevron, funnels, tape, uniformity, inclined grooves, research, parameters, cylinder, frictional forces, desirability.

Введение. Текстильная промышленность — крупнейшая из отраслей легкой промышленности, объединяющая производство всех видов тканей, трикотажа и других изделий. Использует по преимуществу сельскохозяйственное сырье. Текстильная промышленность в своем размещении может ориентироваться как на сырье, так и на потребителя. При этом возникает необходимость при разработке и реализации программ проследить полный цикл глубокой переработки по каждому виду первичного сырья — полуфабриката вплоть до готовой продукции конечного потребления. Словом, нужно обеспечить прогнозирование всего цикла организации производства — от сырья до готовой продукции с обоснованием целесообразности и окупаемости затрат.

Известна конструкция, в которой питающий цилиндр выполнен рифленным с прямыми рифлями (параллельными оси цилиндра), при работе данного цилиндра условием надежной работы подачи, без нарушения равномерности ленты, является преодоление сопротивления сил трения между лентой и столиком и создание необходимого перемещения с помощью питающего цилиндра. При этом на усилие зажима ленты к столику изменяется сила трения, также происходит некоторое скольжение ленты. Это скольжение зависит от расстояния между рифлями питающего цилиндра [1].

Недостатком данной конструкции составного питающего цилиндра является неравномерное распределение силы трения по длине питающего цилиндра, что приводит, но краям цилиндра некоторое отставание перемещения волокон ленты. За счет жесткого взаимодействия составного питающего цилиндра с волокнами происходит их повреждение. Кроме того, преждевременный выход из строя из-за мелких повреждений рифлей.

Материалы и методы. Задачей проблемы является обеспечение равномерности подачи волокнистой ленты по длине составного питающего цилиндра и снижение поврежденности волокон в ленте. Немного о преимущества использования хлопковые ленты приведено в таблице 1.

Таблица 1

Особая преимущества использования хлопковые волокнистое ленты

1	Мягкая ткань
2	Впитывание влаги за счет природных волокон, входящих в состав
3	Отсутствие аллергии при тесном контакте с кожей человека
4	Простота нарезки в процессе
5	Не электризуется на организме человека
6	Точная передача цвета
7	Сохранение формы волокон

Представленная и предлагаемая задача решается путем совершенствования конструкции составного питающего цилиндра в зон питания прядильного устройства с использованием наклонных рифлей в шевронной форме и выполнением цилиндра составным, т.е. с упругим оболочкам.

Устинная сущность новoga конструкции заключается в том, что составной питающий цилиндр прядильного устройства, содержащий приводной вал с жестко

установленной втулкой поверх которой расположены резиновая втулка с надетой на нее втулкой с наклонными рифлями, выполненной составной из двух частей, при этом наклонные рифли расположены симметрично в виде шеврона.

При этом шевронные наклонные металлические рифли на поверхности составного питающего цилиндра имеющих в зон питания при их взаимодействие с волокнами за счет горизонтальной составляющих сил части волокон по его краям, перемещаются к центру, происходит равномерность распределения их по длине питающего цилиндра. Так как используется данный вид зацепления для передачи большой мощности и скорости при отсутствии осевых нагрузок, то точность изготовления должна быть очень высокой, а следовательно, и себестоимость такого цилиндра получается высокой. Во-вторых, необходимость использования плавающего вала в конструкции. По этой простой причине инженеры стараются применять косозубую передачу, где это возможно, и только потом использовать шевронную. Таким образом, обеспечивается равномерность плотности волокон по ширине волокнистой ленты, тем самым и равномерность подачи ленты, а также снижение поврежденности волокон. Следует отметить, что все механические и технологических передачи имеют общие преимущества и недостатки. Это относится и к шевронному зацеплению. Рассмотрим особые сильные и важнейших стороны. Во-первых, высокая плавность хода, что достигается благодаря большому углу наклона зубьев. Следовательно, и габариты будут гораздо меньше по сравнению с косозубым колесом. Это для производстве позволяет несколько снизить массу изделия, а также размер в зон питания в целом.

Предлагаемая конструкция поясняется чертежом, где на рис.1 представлен общий вид составного питающего цилиндра прядильного устройства шевронного типа с упругими оболочками используемых в зон питания прядильных машин.

Конструкция предлагаемого питающего цилиндра прядильного устройства (см.на рис.1) состоит из симметрично расположенных составных наружными втулками 1 и 2 с наклонными рифлями, образующие шевронную форму, которые установлены на внутренней втулки 4 посредством резиновой втулки 3. Втулка 4 жестко установлена на приводном валу 5.




Рис .1. Упругая питающий цилиндр прядильного устройства имеющих в зон питания пневмомеханических прядильных машин

Предлагаемая конструкция работает следующим образом. При этом из-за шевронного расположения рифлей составных наружных втулок 1 и 2 захваченные волокна распределяются равномерно по всей их длине. Это обеспечивается смещением частей волокон к середине из краев наружных втулок 1 и 2 за счет горизонтальных составляющих сил воздействия рифлей на волокна. При взаимодействии зубчатый рифлей наружных втулок 1 и 2 с волокнистой лентой за счет прижимной силы происходит деформация резиновых втулок 3, амортизируя эти силы. Это фактически ликвидирует повреждения волокон имеющий составе ленты.. Питающий цилиндр прядильного устройства, содержащий приводной вал с жестко установленной втулкой, поверх которой расположена резиновая втулка с надетой на нее втулкой с наклонными рифлями, отличающийся тем, что втулка с наклонными рифлями выполнена из двух составных частей, при этом наклонные рифли расположены симметрично в виде шеврона. Таким образом, обеспечивается равномерность плотности волокон по ширине ленты, тем самым и равномерность подачи ленты, а также снижение поврежденности волокон [2] .

Для выбора оптимальной настройки зон питания пневмомеханических прядильных машин был проведен эксперимент с использованием математического планирования [3].

В качестве параметров оптимизации были выбраны следующие показатели.

Y_1 – коэффициент вариации по разрывной нагрузке, %;

Y_2 – коэффициент вариации по линейной плотности, %;

Y_3 – количество неспов в пряже на 100 м.

Y_4 – удельная разрывная нагрузка одиночной нити

Задачей оптимизации является поиск параметров в зонах питания пневмомеханических прядильных машин, при которых достигается минимальный коэффициент вариации по разрывной нагрузке, коэффициент вариации по линейной плотности, количество неспов в пряже на 100 м и максимальная удельная разрывная нагрузка одиночной нити.

Для определения регрессионных многофакторных моделей использовались результаты, полученных при обработке опытов с использованием питающего цилиндра прядильного устройства шевронного типа с упругими амортизаторами с изменением параметров в зонах питания.

В качестве факторов варьирования были выбраны:

X_1 – вращения составного питающего цилиндра прядильного устройства шевронного типа с упругими амортизаторами имеющий в зон питания, м/мин.

X_2 – модуль упругости упругий оболочки составного питающего цилиндра.

X_3 – нагрузка на питающий столик, Н.

Вращения питающего цилиндра прядильного устройства является решающим фактором для эффективной работы зон питания в установленном вместе с узлами дискретизации.

Однако неконтрольное вращение этого фактора приводит к росту поврежденности волокон, снижения прочности пряжи и др. Поэтому принимаем указанные данным и значение в качестве принимаем нижнего и верхнего уровней варьирования факторов X_1 .

Успешное применение резины в качестве материала деталей машин и полная реализация всех ее ценных физико-механических свойств могут быть достигнуты лишь при условии правильного конструирования резиновых деталей и выбора таких нагрузок, которые не вызвали бы перенапряжения деталей, их чрезмерного нагрева, появления необратимых деформаций и других разрушающих явлений. [4].

Упругая резина отличается от других технических материалов уникальным комплексом свойств, из которых главное — высокая эластичность. Это свойство, присущее каучуку — основному компоненту резины, делает ее незаменимым конструкционным материалом в современной мировой технике. Поэтому принимаем указанные значения в качестве нижнего и верхнего уровней варьирования факторов X_2 .

Большое влияние на процесс дискретизации играет сила зажима волокон при извлечении их из зон питания питающей пары, если это сила является недостаточной, то нарушается переход волокон со скорости питающего цилиндра на скорость дискретизирующего барабанчика. Если сила извлечения волокон из зон питания большей силе из зажима и больше разрывной нагрузки волокон, то происходит разбивание волокон. Согласно принятым техническим данным пневмомеханическим прядильной машине нагрузка на питающей столик может меняться от 24,0 Н до 30,0 Н. Поэтому принимаем указанные значения в качестве нижнего и верхнего уровней варьирования факторов X_3 .

Уровни и интервалы варьирования основных факторов эксперимента представлены

Таблица 2

Уровни и интервалы варьирования основных факторов

Факторы	Единицы измерения	Интервал варьирования	Уровень фактора		
			-1	0	+1
X_1 – вращение питающего цилиндра прядильного устройства	м/мин	0.05	0.35	0.40	0.45
X_2 – модуль упругости упругой оболочки питающего цилиндра	Н/мм ²	2	6	8	10
X_3 – нагрузка на питающий столик	Н	3	24,0	27,0	30,0

Для эксперимента выбрали план Коно, ортогональный второго порядка с тремя факторами на трёх уровнях. Матрица планирования эксперимента и результаты опытов представлены в табл. 3. Для выбора оптимальной настройки узла питания пневмомеханической прядильной машины был проведен эксперимент с использованием метода математического планирования [3]. В качестве параметров оптимизации были выбраны следующие показатели, получаемого пряжи с использованием питающего цилиндра шевронного типа в пневмомеханических прядильных машинах.

Y_1 – коэффициент вариации по разрывной нагрузке, %;

Y_2 – коэффициент вариации по линейной плотности пряжи, %;

Y_3 – количества несов в пряже на 100 м;

Y_4 – удельная разрывная нагрузка одиночкой нити $\frac{\text{сН}}{\text{текс}}$.

Задачей оптимизации является поиск нужных параметров узла питания пневмомеханических прядильных машин, при которых достигается минимальный коэффициент вариации по разрывной нагрузки, коэффициентов вариации по линейной плотности пряжи, количества несов в пряже на 100 м и максимальное значение удельной разрывной нагрузки одиночкой нити.

Результаты: Определение статических регрессионных многофакторных моделей (РМФМ) по данным эксперимента с факторным планированием.

Таблица 3

Матрицам планирования и результаты эксперимента

№ опыта	Факторы			Параметры			
	X_1	X_2	X_3	Y_1	Y_2	Y_3	Y_4
1	-1	-1	-1	15.0	3.9	502	7.2
2	-1	+1	+1	14.4	3.9	466	7.3
3	+1	-1	+1	13.8	3.6	391	7.5
4	+1	+1	-1	14.1	3.1	411	7.8
5	-1	-1	+1	14.0	3.4	431	7.7
6	-1	+1	-1	14.6	4.0	511	7.4
7	+1	-1	-1	15.1	3.9	473	7.2
8	0	0	+1	13.9	3.5	417	8.1
9	0	+1	0	13.7	3.3	483	8.0
10	+1	0	0	14.3	3.3	452	7.5
11	0	0	0	12.9	2.8	407	8.3
12	0	0	0	12.9	2.8	407	8.3

В результате реализации опытов и статитистической обработки результатов эксперимента получены регрессионные многофакторные математическое модели параметров.

$Y_1 - Y_4$ адекватные с 95% - ной доверительной вероятностью:

$$Y_1 = 13.327 - 0.092X_1 - 0.067X_2 - 0.292X_3 + 0.635X_1^2 - 0.120X_1X_2 + 0.010X_2^2 + 0.435X_3^2 \quad (1.1)$$

$$Y_2 = 3.108 - 0.168X_1 - 0.067X_2 - 0.093X_3 + 0.448X_1^2 - 0.206X_1X_2 - 0.052X_2^2 + 174X_3^2 \quad (1.2)$$

$$Y_3 = 433.393 - 24.053X_1 - 2.552X_2 - 20.802X_3 + 16.269X_1^2 - 16.851X_1X_2 + 25.869X_2^2 - 29.989X_3^2 \quad (1.3)$$

$$Y_4 = 8.159 + 0.076X_1 + 0.076X_2 + 0.076X_3 - 0.575X_1^2 + 0.147X_1X_2 - 0.095X_2^2 + 0.00X_3^2 \quad (1.4)$$

Для построения двухмерных поверхностей отклика полученные уравнения (1.1-1.4) были преобразованы в в двухфакторные зависимостей при оптимальные значений $X_3 = 0$ и использовано программа MAPLE.

$$Y_1 = 13.328 - 0.092X_1 - 0.067X_2 + 0.635X_1^2 - 0.120X_1X_2 + 0.010X_2^2; \quad (1.5)$$

$$Y_2 = 3.109 - 0.168X_1 - 0.068X_2 + 0.449X_1^2 - 0.207X_1X_2 - 0.051X_2^2; \quad (1.6)$$

$$Y_3 = 433.392 - 24.052X_1 - 2.552X_2 + 16.269X_1^2 - 16.851X_1X_2 + 25.769X_2^2; \quad (1.7)$$

$$Y_4 = 8.159 + 0.076X_1 + 0.076X_2 - 0.595X_1^2 + 0.143X_1X_2 - 0.095X_2^2; \quad (1.8)$$

Полученные поверхности отклика зависимостей $Y_1 - Y_4$ от факторов X_1 и X_2 параметров питающего цилиндра представлены на рис 2. Анализируя полученных математических зависимостей, можно сделать вывод, что модуль упругости оболочки составного питающего цилиндра шевронного типа оказывает на все параметры оптимизации, но больше всего прочностные характеристики получаемого пряжи.

